

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:
№ _____
2019-y. «__» _____

«TASDIQLAYMAN»
O'quv ishlari prorektori
prof.S.Soleyev _____
«_____» _____ 2019-yil



MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI
MUSIQA PEDAGOGIKASI
fanidan

MAGISTRLAR UCHUN

O'QUV USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 100000
Ta'lim sohasi: 140000 O'qituvchilar tayyorlash va pedagogik fan
Ta'lim yo'nalishi: 5A111101 – Musiqiy ta'lim va san'at

Samarkand 2019-yil

Mundarija

1. So'z boshi.....
2. Musiqa pedagogikasi tarixi fanining sillabusi.....
3. Ishchi o'kuv reja.....
4. Namunaviy dastur.....
5. Ma'ruza materiallari.....
6. Ma'ruza matnlari slaydlari (electron ko'rinishda).....
7. Ma'ruza mashg'ulotlari uchun testlar.....
8. Seminar mashg'ulotlari materiallari.....
9. Glossari.....
10. Foydalanilgan adabiyotlar.....

SO'Z BOSHI

Mazkur o'kuv uslubiy majmua "Musiqqa pedagogikasi tarixi" fanidan 5A111101 – Musiqqa ta'limi va san'at magistratura mutaxassisligi yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, "Musiqqa ta'limi" kafedra prof-o'kituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan. "Musiqqa pedagogikasi" tarixi fani o'kuv-uslubiy majmuasini yaratishda yetakchi oily o'kuv yurtlari hamda xorijiy OTM lari o'kuv dasturlariga asosiy adabiyotlar ro'yxatiga kiritilgan. M.S.Osenneva "Teore I metodika mo'zikalnogo vospitaniya" Moskva 2012.

Musiqqa pedagogikasi tarixi fani 5A111101 – Musiqqa ta'limi va san'at magistratura mutaxassisligi yo'nalishi o'kuv rejasiga asosan birinchi semestrda umumiy soat hajmi 112 soat bo'lib, shundan 60 soat ma'ro'za, 50 soat seminar, OB 1 soat, YaB uchun 1 soat berilgan. Mavzular ma'ruza, seminar soatlari kesimida tahlil qilib umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu o'kuv uslubiy majmua asosiy beshta kismdan iborat bo'lib, syllabus, ishchi o'kuv reja, namunaviy va ishchi o'kuv dastur, modulni o'kitishda foydalaniladigan ta'lim metodlari, ma'ruza materiallari (ma'ro'za matni, adabiyotlar ro'yxati, mustaqil ta'lim mavzulari, glossary, keyslar banki, nazorat va test savollari) dan tashqil topgan.

**«MUSIQA PEDAGOGIKASI» fanining
2018/2019 o'quv yili uchun mo'ljallangan
SILLABUSI**

Fanning qisqacha tavsifi									
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Samarkand davlat universiteti					Samarqand shahri universitet xiyoboni			
Kafedra:	Musiqia ta'limi								
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	5 A111101 – musiqia va san'at yo'nalishi								
Fanni (kursni) olib boradigan o'kituvchi to'g'risida ma'lumot:	Mustafayev Shomurod Normo'minovich	Tel.rakami			e-mail:				
		+99893 723 20 12			normuminovich@gmail.com				
Dars vakti va joyi:	1- bino , 3-07 auditoriya			Kursning davomiyligi:			05.09.2018 18.02.2019		
Individual grafik asosida ishlash vakti:	dushanba, payshanba va shanba kunlari 14.00 dan 18.00 gacha								
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari						Mustaqil ta'lim:		
	Ma'ro'za:			seminar					
	I-sem	II-sem	Jami	I-sem	II-sem	jami	I s	II s	Jami
	60	-	60	50	-	50	40	-	40
Fanning boshka fanlar bilan bog'likligi (prerekvizitlari):	“Musiqia pedagogikasi tarixi”, “Musiqia tarixi”, “Musiqia pedagogikasi”, “Musiqia o'kitish metodikasi”, “Vokal va zamonaviy musiqia”								
Fanning mazmuni									

<p>Fanning dolzarbligi va kiskacha mazmuni:</p>	<p>Fanni o'qitishdan maqsad</p> <ul style="list-style-type: none"> • Magistrlarda musiqiy hodisalarga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash va ularni idrok etish kobo'liyatni hosil qilish; • Magistrarning musiqiy dunyokarashini, tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-yestetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy kobilyatlarini o'stirish; • Magistrarni musiqa madaniyati o'kituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash. <p>Fanning vazifalari – quyidagilar deb belgilab olindi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Magistrlarda musiqiy hodisalarga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash va ularni idrok etish kobo'liyatni hosil qilish; - Magistrarning musiqiy dunyokarashini, tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-badiiy didini yo'naltirish va boyitish, ijodiy kobilyatlarini o'stirish; - Magistrarni o'zbek musiqasi bosib o'tgan tarixiy jarayon, uning umuminsoniyat tarixida tutgan o'rni, milliy musiqiy kadriyatlarimiz bilan tanishtirish, ularga musiqiy-tarixiy bilimlar berish, musiqa san'atining tarixi bilan jamiyat tarakkiyotining bog'likligini tushuntirish, o'zbek musiqasini qadimiy davrlarda, temuriylar davrida kay darajada rivojlanganligini, ulug' siymolar va musiqashunoslar nomlarini va ularning musiqa ilmida yaratgan kashfiyotlari hamda uni rivojlantirishdagi hissalarini bilish orkali Magistrlarda milliy g'urur, kadr-kimmat, ehtirom tuyg'ularini shakllantirish; - Magistrlarga chet el musiqasi madaniyati tarixiy tarakkiyoti, asosiy yo'nalishlari, janr va shakllari haqida ma'lumot berish, jahon klassik musiqasiga xos bo'lgan badiiy ifoda vositalarini va turli xil janrdagi asarlarning mazmunini idrok etishga o'rgatish, g'arbiy Yevropa va rus kompozitorlarining ijodiyoti hamda badiiy jihatdan ahamiyatli asarlari bilan tanishtirish, har bir kompozitorning kasbiy mahorat jihatlarini aks ettiruvchi xususiyatlarini yoritib berish.
<p>Magistrlar uchun talablar</p>	<ul style="list-style-type: none"> - o'kituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish; - universitet ichki tartib - intizom koidaloriga rioya qilish; - uyali telefonni dars davomida o'chirish; - berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriklarini o'z vaktida va sifatli bajarish; - ko'chirmachilik (plagiat) kat'iyan man etiladi; - darslarga katnashish majburiy hisoblanadi, dars koldirilgan holatda koldirilgan darslar kayta o'zlashtirilishi shart; - darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish; - Magistr o'kituvchidan so'ng, dars xonasiga - mashg'ulotga kiritilmaydi; - Magistr reyting ballidan norozi bo'lsa e'lon qilingan vaktidan boshlab 1

	kun mobaynida apellyasiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin
Elektron pochta orkali munosabatlar tartibi	Professor-o'kituvchi va Magistr o'rtasidagi aloqa elektron pochta orkali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orkali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash fakatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha

Fan mavzulari va unga ajratilgan saotlar taksimoti:

I semestr

№	O'tiladigan mavzu	Ma'ruza	Seminar	Mustaqil ish
1.	Musiqqa pedagogikasining umumiy asoslari	4	2	
2.	O'zbekistonda musiqqa pedagogikasining eng qadimgi davrlarida XVII asrgacha davrdagi rivojlanishi	2	2	
3.	Sharq allomalarining musiqqa ilmi rivojlanishga qo'shgan hissasi. Borbad Marvaziy	2	2	
4.	O'rta asrlar davri musiqqa ta'limi	2	2	
5.	AmirTemur va Temuriylar davrida musiqqa madaniyati, musiqqa pedagogikasi rivoji	2	2	
6.	Musiqqa san'atining tarbiyaviy ahamiyati	2	2	
7.	Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning shaxs tarbiyasida musiqqa ta'limining roli haqidagi qarashlari	2	2	
8.	O'rta asr mashhur musiqachilarning musiqqa ta'limi va pedagogika rivojiga qo'shgan hissalar	2	2	
9.	XVI –XIX asr boshlarigacha bo'lgan davrda O'zbekistonda musiqiy madaniyat, san'at va pedagogika	2	2	
10.	Xalq musiqqa pedagogikasi	2	2	
11.	Ustoz shogird maktablarida musiqqa o'qitish sistemasi	2	2	
12.	XIX-XX asrlarda O'zbekistonda musiqqa madaniyati. San'at va pedagogikaning rivojlanishi	2	2	

13.	Furqat ijodida musiqiy qarashlar (1 8 5 9 - 1 9 0 9)	2	2	
14.	A.Avloniyning musiqa pedagogikasining rivojlanishiga qo'shgan hissasi	2	2	
15.	Pedagog, san'atshunos sifatidagi faoliyati FITRAT (1 8 8 6 - 1 9 3 8)	2	2	
16.	O'zbek musiqali drama janri asoschisi, pedagog, san'atshunos, G'ulom Zafariy faoliyati	2	2	
17.	Respublika musiqa san'atining rivojlanishiga hissa qo'shgan san'atkorlar	2	2	
18.	O'zbekistonda musiqa ta'limi dargohlarining ochilishi musiqa ta'limi va pedagogikasi konsepsiyasi	2	2	
19.	Xorijiy musiqa ta'limi musiqa tarbiyasining zamonaviy sistemasi	2	2	
20.	Musiqa o'qitish metodikasi, pedagogik fan sifatida	2	2	
21.	Musiqa o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan talablar	2	2	
22.	Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari	2	2	
23.	Musiqa darslarining tamoyillari, musiqa o'qitish me'todlari	2	2	
24.	Musiqa darslarida faoliyat turlari va ularning o'zaro aloqasi. Musiqa idroki	2	2	
25.	Maktabda jamoa (xor) bo'lib kuylash, musiqiy ritmik faoliyat	2	2	
	Jami:	60	50	

Magistrlar bilimini baholash tizimi:

Magistrlar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari 1 semestr

№		maks	JN ballari		
			1-JN	2-JN	3-JN
1	Darslarga katnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati	15	0-5	0-5	0-5
2	Mustaqil ta'lim topshiriklarining o'z vaktida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	0-3	0-3	0-4
3	Yozma nazorat ishi savollariga berilgan javoblar	10	0-3	0-3	0-4
Jami JN ballari		35	0-11	0-11	0-13

Magistrlar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari 1 semestr

№		maks	ko'rsatkichlar	
			1-ON	2-ON
1	Darslarga katnashganlik darajasi. Ma'ro'za darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'likligi.	15	0-7	0-8
2	Magistrlarning mustaqil ta'lim topshiriklarini o'z vaktida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10	0-5	0-5
3	Og'zaki savol-javoblar va boshka nazorat turlari natijalari bo'yicha	10	0-5	0-5
Jami ON ballari		35	0-17	0-18

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

Ko'rsatkichlar		YaN ballari	
		maks	O'zgarish oralig'i
1	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	24	0-24
2	Fan bo'yicha yakuniy amaliy ish nazorati	6	0-6

Jami	30	0-30
-------------	-----------	-------------

Asosiy adabiyotlar:	<p>1. Askarov A. O`zbeksiton xalqlarining tarixi. 2- t. T., O`kituvchi, 1993.</p> <p>2. Rajabov I. Makomlar masalasiga doir. O`zadabiynashr. Toshkent. 1963. -304 b.</p> <p>3. Karomatov F. O`zbek xalqi mo`zika merosi (yigirmanchi asrda) Toshkent. 1985 y. 2-tom, b.</p> <p>4. Ibrohimov O.A. «O`zbek xalq musiqa ijodi» (metodik tavsiyalar I kism), Toshkent, 1994 y. – 62 b.</p> <p>5. Ibrohimov O.A. Makom va makon. Movarounnuhr, Toshkent, 1996 y.96 b.</p>
Qo`shimcha adabiyotlar:	<p>1. Kodirov R. Musiqa pedagogikasi. Toshkent 2015.</p> <p>2. Xasanboeva O. Xasanboev J. Xamidov K. Pedagogika tarixi. T., G`.G`ulom, 2004.</p> <p>3. O`zbek pedagogika antologiyasi. T., O`kituvchi, 1995.</p> <p>3. K.Xoshimov,S.Nishonova Pedagogika tarihi.T.,A.Navoiy nomidagi O`zbekoston milliy kutubxonasi nashgriyoti, 2005</p>

1- Mavzu: Musiqa pedagogikasining umumiy asoslari

Reja

1. Musiqa ta'limi pedagogikasi
2. Umumpedagog atamalar va tushunchalar
3. Musiqa pedagogikasi

Musiqa ta'limida o'qituvchi, bolani dunyoga keltirgan ota-onasi qatori kichikligidan boshlab oson bo'lmasa-da, go'zal kasb-hunarni o'rgatadi. U o'quvchilariga musiqa olamiga yo'l ochadi, o'z jonu dilining parchasini baxsh etib, ularning ustozlari va do'stiga aylanadi. Musiqa o'qituvchisi oldida turgan asosiy vazifalar — o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, uning fe'l-atvori va imkoniyatlarini aniqlash, uni qiziqtirish, uning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning eng oqilona yo'llarini topishdan iborat. Biroq, har bir o'qituvchi ham ushbu vazifalar majmuini bajarishning uddasidan chiqa olmaydi, yetarli darajada pedagogik mahoratga ega bo'lmaydi va yaxshi musiqachilarni tayyorlay olmaydi.

Qanday qilib haqiqiy o'qituvchi bo'lish mumkin? Buni o'rgansa bo'ladimi? Musiqa pedagogikasi va musiqa ta'limini rivojlantirishda shu yo'nalishdagi masalalar muhim hisoblanadi. Biroq, ularga javob berishdan avval, umuman pedagogika nimaligini va bizning hayotimizda qanday o'rin tutishini his etish va anglash zarur.

Masala tarixiga doir

Kishilik jamiyatining rivojlanish tarixidan pedagogika – yer yuzidagi eng qadimiy ilm va san'atlardan biri ekanligini ko'ramiz. Agar o'z bilim va tajribasini kelgusi avlodlarga yetkazsa, xayoti va faoliyati yanada yaxshiroq, mukammalroq bo'lishini hatto ibtidoiy odam ham fahmlagan. Umuman pedagogika singari, musiqa pedagogikasi tarixi ham boy ilmiy-nazariy va amaliy merosga ega bo'lib, u har tomonlama o'rganilishi, o'zlashtirilishi va boyitilishi lozim.

Masalan, qadimda Sharqda, O'zbekistonda «ustoz-shogird» deb ataladigan kasbiy ta'lim tizimi keng tarqalgan edi. Musiqa san'atida u respublikamizning Toshkent, Andijon, Marg'ilon, Quqon, Buxoro, Samarqand, Xiva va boshqa shahar hamda tumanlari ustoz ijrochilarining ajoyib maktablari bilan mashhur. Shunday ustozlik maktablaridan birining yorqin vaqili mashhur musiqachi, O'zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy edi. Hozirda uning nomi bilan ataladigan Uy-muzey xazinasida G'ulom Zafariy tomonidan tuzilib, unga taqdim etilgan mahalliy ustoz-shogirdlik maktablaridan birinchi jadvali saqlanmoqda. Bu xujjatlar o'rganib, mag'zini chaqish zamonaviy o'zbek musiqa pedagogikasi rivoji uchun ham katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, dabirlar maktabi („dabiriston" — eng yaxshi ta'lim beruvchi maktab), jadidlarning yangi usul maktablari mazmuni va metodikasi, o'rta asrlar Sharqi buyuk olimlari (Forobiy, Ibn Sino, Kaykovus, Urmaviy, Marog'iy, Jomiy, Kavkabi, Darvish Ali va b.)ning asarlari hamda musiqiy-pedagogik qarashlari ham katta qiziqish uyg'otadi. Chunonchi, mashhur «Kitob al-musiqa al-kabir» risolasi va musiqa bo'yicha qator ilmiy asarlar muallifi Abu Nasr Forobiy ajoyib sozanda bo'lgan. Uning ko'plab cholg'u asboblari yuksak mahorat bilan chalganligi haqidagi ma'lumotlar va rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. U o'z ijrosi bilan kishiga quvonch baxsh eta olgan yoki qayg'uga chumdira olgan, tashvishlarini unuttirgan yohud chuqur uyga toldira olgan, xursandchilik, zavq-shavq, tug'dira olgan, hatto, tinglovchilarni uxlatib quya olgan. Uning ijrochilik maktabi, musiqa asbobini mahorat bilan istifoda eta olishi, tinglovchilarga ko'rsatadigan ta'sir kuchi musiqa pedagogikasi o'rganadigan asosiy mavzulardan biri hisoblanadi.

Qadimda O'rta Sharqda musiqaga, pedagogikaga va, jumladan, ustozlarga katta hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lishgan. Masalan, dastavval Xorazmda Zardushtning pand-nasihatlarini asosida yaratilgan va keyinroq qadimiy Turon, Eron va boshqa ko'plab Sharq mamlakatlarining asosiy diniga aylangan zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»dayoq, (mil. avv. I ming yillik) Gatlar eng muqaddas va qadrli xisoblangan. Ma'lumki, madhiya qo'shiqlari va diniy qasidalar diniy qo'shiqlar kuylanadigan ibodatxonada kohinlar hamda mutaxassislar (hozirgi tushunchadagi dirijyorlar, xormeysterlar) tomonidan o'rgatiladi. «Avesto»da Zardusht ustoz deb atalgan. Qadimda ustozga alohida talablar quyilgan. U erta tongda boshlanadigan darslarga tuni bilan tinmay o'qib, tayyorlanishi lozim bo'lgan. «Avesto»ning «Fargard»ida, «Yasht» kitobida bunday deyiladi: «Yo Zardusht, tunlarni qiroatda va donishmandlardan ta'lim olib o'tkazadigan ustozning o'rmini kursatgil, toki uning fikru zikrini tashvishlar band etmasin, qiyomat kunida qalbi quvonch va shodlik ila limmo-lim tulsin, ohiratda esa jannat rohat-farogatini ato etgin.

Qadimgi yunonlarda ham musiqa va ta'lim yuksak qadrlangan. Fisog'ursning (Pifagor) «evritmiya» to'g'risidagi, Arastuning «mimesis» to'g'risidagi ta'limoti, uning «katarsis», turli musiqa ohanglarining yoshlar tarbiyasiga ta'siri tug'risidagi qarashlari, musiqa ta'limining ommaviyligi hamma yerda qo'llab-quvvatlangan. Ular bilimsiz kishini, ya'ni qo'shiq aytishni, soz chalishni, raqs tushishni bilmaydigan, demak, «xoreya»da — bugun jamoani birlashtiradigan musiqiy-xoreografik tadbirda ishtirok eta olmaydigan kishini «axoreutos» deb atashgan.

Masalan, Aflotun „davlatning kuch-kudrati u yerda qanday musiqa, qaysi pardada va qanday sur'atda yangrayotganiga bog'liq, deb hisoblangan. Davlat

uchun, deb hisoblardi u, axloqni buzishning sipo va hayoli musiqadan chekinishdan-da yomon usuli yo'q. Axloqsiz ritm (sur'at) va ladlar (pardalar) orqali kishi qalbiga xuddi ushanaqa behayo va axloqsiz narsalar jo bo'ladi. Chunki musiqiy ritm va ladlar kishilar qalbini o'ziga monand qilishga qodirdir. Aflotun va uning izdoshlari davlatda individning ijtimoiy talablar darajasiga qadar yuksalishiga hamda o'z olamini polis jamoasi bilan birdam deb anglashiga ko'maklashadigan musiqagagina yul quyish mumkin, deb hisoblashgandi".

Tarixda ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) pedagogikani fan sifatida asoslab berdi. Uning barcha bolalar uchun ta'limning zarurligi ta'kidlangan asosiy asari «Buyuk didaktika»da (1633—1638) ta'lim mazmuni, metodlari va shakllari ishlab chiqilgan. Undan keyingi barcha pedagoglar, didaktik olimlar eng avvalo uning pedagogika asoslariga tayanishadi. Komenskiy tomonidan taklif etilgan, biz xozirga qadar foydalanib kelayotgan «sinf-dars» o'qitish tizimi pedagogikaning oldi fondiga kirgan.

Garchan Komenskiyning o'zi xam didaktikani «Barchaga xamma narsani o'rgatadigan ommaviy san'at» deb ta'riflagan bo'lsa-da, pedagogikaga nafaqat san'at sifatida, balki fan sifatida ham qarash shakllandi. Shundan so'ng bir qator olimlar, pedagoglar (I.G.Pestalossi, F.A.Disterveg, I.Gerbart, K.D.Ushinskiy, Ye.Parkxerst, Ye.Melbi, R.Vorner, L.Tramp, J.Dyui, P.P.Blonskiy, M.A.Danilov, B.P.Yesipov, M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, Yu.K.Babanskiy, M.I.Maxmutov, G.I.Shchukina, B.T.Lixachyov va boshqalar) pedagogika nazariyasini shu qadar yuqori darajaga kutarishdiki, boshqa xech bir gumanitar ilmiy fan bunday darajaga erishmagan edi. Ushbu xolatda, har qanday san'at singari, o'qitish va tarbiyalash, pedagogika san'ati, o'ziga xos xususiyatlar hamda yutuqlarga ega bo'lib. ularni hisobga olish, tabiiyki, pedagogik jarayonlar samaradorligani oshiradi. Ushbu jarayonlarni o'rganishda bir tizimga solib pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqish imkonini berdi. Nazariy konsepsiyalarning ko'pligi va turli-tumanligiga qaramay, bugungi kunda pedagogika fani quyidagi to'rt asosiy bo'limga ajratib o'rganiladi:

I. Pedagogikaning umumiy asoslari.

II. Ta'lim va o'rganish nazariyasi (didaktika).

III. Tarbiya nazariyasi.

IV. Maktabni tashlil etish va boshqarish (maktabshunoslik).

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida O'zbekistonda pedagogikaning rivojlangan tarixida jadidlar (Munavvarqori, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Avloniy, Shakuriy va boshkalar) faoliyati va jumladan, ular tomonidan tashkil etilgani yangi usuldagi (ko'p fanli, o'qitishning "sinf-dars" tizimiga asoslangan) maktablar katta qiziqish uyg'otadi. Yuqori darajadagi bilimlilik va madaniyat, chinakam vatanparvarlik ularga murakkab tashkiliy ishdan tashqari, yangi o'quv rejalari,

dasturlarini tuzib, bu maktablar o'quvchilari uchun darsliklar yaratish imkonini berdi.

Tarix, adabiyot, geografiya va boshqa umumta'lim fanlari bilan bir qatorda musiqa darslari kiritildi, Shuningdek maxsus musiqa maktablari ochildi. Chunonchi, Abdurauf Fitrat 1921 yilda Buxoroda Sharq, musiqa maktabi deb nomlangan o'quv yurtini ochdi va uning birinchi direktori bo'ldi. Bu maktabda musiqiy ijrochilikka o'rgatish maqom kuylari negazida an'anaviy og'zaki usulda olib borilardi. Fitratning tashabbusi bilan bu maktabda Shashmaqom bilimdonlari Ota Jalol va Ota G'iyoslar yordamida Buxoro maqomlarining turk turkumi V.A.Uspenskiy tomonidan ilk bor notaga yozildi va 1924 yilda "Shest muzikalnix poem" (makom) nomi bilan to'plam shaklida nashr etildi. Fitratning musiqa bo'yicha «Shashmaqom», «O'zbek musiqasi to'g'risida» asarlari hamda 1927 yilda o'zbek yozuvida nashr etilgan sermazzmun «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» kitobi muallifi edi.

Bu davrda O'zbekistonda maxsus musiqa ta'limi keng ko'lamli, umumiy va davlat ahamiyatiga ega bo'la boshladi. Toshkentda (1918), Samarqand va Farg'onada (1919) xalq konservatoriyalari ochildi, 20-yillarda musiqa bilim yurtlari, ansambllar, tugaraklarning katta tarmoq ish boshladi, umumta'lim maktablarida ashula darslari kiritildi. 1934 yilda oliy musiqa maktabi tashkil etildi va 1936 yilda uning negizida Toshkent konservatoriyasi ochildi. Shu tariqa yangi pedagog kadrlarga jiddiy zarurat yuzaga keldi.

Bu davr O'zbekiston professional musiqa ta'limining rivojlanishida, buyuk musiqa pedagogikasi tarixi kabi, yuqori ma'lumotli, iste'dodli va o'z ishiga sadoqatli musiqachilar, olimlar, pedagoglar katta ahamiyat kasb etdilar. Shunday shaxslar jumlasiga N.N.Mironov, V.A.Uspenskiy, Ye.Ye.Romanovskaya, G.A.Mushel, A.F.Kozlovskiy, B.B.Nadejdin va boshqalar, shuningdek milliy musiqa bilimdonlari va mashhur ijrochilar, an'anaviy ustozlar maktabida tarbiya ko'rgan Xoji Abdulaziz Rasulov, Levi Boboxonov, Domla Xalim Ibodov, Mulla Tuychi Toshmuxammedov, Usta Olim Komilov, Tuxtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov va boshqalarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston musiqa san'ati ijrochilik, bastakorlik, ilmiy-nazariy va boshqa yo'nalishlarda yuqori professional darajadagi maktablardan iborat. Bunda bir necha bilim va pedagogik mahorat iste'dodiga egalar avlodining, ustozlarning hizmati beqiyosdir.

Maxsus musiqa ta'limi tizimidagi pedagogika

Pedagogika tarixiga muxtasar nazar tashlagandan so'ng, yana dastavval quyilgan masalalarga qaytamiz. Qanday qilib yuqori malakali pedagog bo'lish

mumkin? Uni o'rgansa bo'ladimi? Musiqa ta'limi tizimida oliy pedagogik mahoratga O'zbekiston davlat konservatoriyasi bitiruvchilari ega bo'ladilar. Shuning misolida biz ularning pedagogik tayyorgarligiga oid ayrim masalalarni kurib chiqishga qaror qildik.

Oliy maxsus musiqa ta'limi davlat standartlariga hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasi bitiruvchilarining malakaviy tavsifga muvofiq, ularning bastakor, ijrochi, musiqashunos, ovoz rejissyori singari asosiy ixtisosliklari bilan birga, ularga musiqa ta'limining ushbu yo'nalishlari bo'yicha o'qituvchi malakasi ham beriladi. Oliy musiqa ta'limi tizimidagi pedagogik amaliyot tajribasidan ma'lum bo'lishicha, bo'lajak cho'lg'uchi-pedagogning ushbu malakaviy ta'rifi har doim ham buning uchun zarur bo'lgan mustahkam o'quv-tarbiyaviy asosga ega bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida (1997) ta'kidlanganidek, musiqa ta'limi tizimini ushbu yo'nalishda takomillashtirib va yangilab borib, professional pedagog kadrlar bilan respublika mudofa ta'limi tizimini yangi, yakkaxon ta'lim standartlari darajasida tashkil ettirishga hamda mustahkamlashga yordam beramiz.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston davlat konservatoriyasida pedagoglik ixtisosi masalalarining o'rganilishi, asosan, 1988 yilda musiqa ta'limining ilmiy a'zolari kafedrasi tashqil qilinishi va uning faoliyati bilan bog'liq. Ushbu kafedra 1997 yildan buyon musiqa pedagogikasi kafedrasi deb ataladi. Turli davrlarda bu kafedrada M.Yu.Artishevskaya, Ye.Ye.Veziryan, S.P.Galiskaya, D.A.Jamolova, T.V.Zimina, O.N.Ivanov, Z.R.Karimova, M.S.Kovbas, D.A.Murodova, G.R.Musina, F.A.Pinxasova, O.N.Plotnikova, S.R.Rajabova, N.A.Rijkova, D.Yu.Soipova, T.Ye.Solomonova, V.P.Sradjev, A.X.Trigulova, M.M.Fayziyev, Sh.Z.Fatxullaxo'jayeva, I.F.Fedorenko, M.X.Xo'jayeva, T.V.Yaroshevskaya, R.R.Qodirov, L.M.G'aniyeva, D.V.Hoshimova kabilar ishlashgan va ishlab kelmoqdalar. Ushbu kafedra ishlarining asosiy masalalaridan biri konservatoriya bitiruvchilarining pedagogik malakasi xususidagi masala bo'lib qoldi. Ushbu muammoning mazmuni konservatoriya bitiruvchilari egallayotgan pedagogik malaka sifatini o'rganishdan iborat bo'ldi. Konservatoriya bitiruvchilari pedagog, o'qituvchi malakasi talablariga javob beradimi? Javob bersa, qay darajada? Ushbu pedagogik ixtisosni yanada yaxshilash yo'llari qanday, — kabi qator savollarga aniqlik kiritish va ularga javob topish zarur edi. Ushbu masalalarni hal etish uchun kafedrada tadqiqotlar olib borildi. Ularning natijalari kafedra, ilmiy kengash majlislarida, konferensiyalarda va qator namoyishlarda yoritildi.

Ushbu tadqiqotlar ma'lumotlarini umumlashtirib, bu yo'nalishda asosiy intilish konservatoriya bitiruvchilarining professional pedagogik tayyorgarlik sifatini yanada yaxshilash va mustahkamlash yo'lida borayotganini ta'kidlash mumkin. Bunga o'quv rejalariga pedagogik ta'limning nazariy asoslari bo'yicha

fanlar kiritilishi yordam berdi. Bular — bakalavriat bo'limi uchun psixologiya, pedagogika; magistratura bo'limi uchun pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat, musiqiy psixologiya, musiqiy pedagogika; aspirantlar va stajyor-assistentlar uchun musiqa san'ati soxalari bo'yicha psixologiya va pedagogika. Pedagogik ta'lim jarayonining amaliy yutuqlaridan biri pedagogik amaliyotning Davlat attestasiyasi darajasiga olib chiqish va konservatoriya qoshida pedagogik amaliyot bo'yicha studiyaning tashkil etilishi bo'ldi.

Shuningdek metodik va amaliy fanlar turkumi — turli fanlarni metodikasi, pedagogik va ijrochilik amaliyoti ham takomillashib bordi. Konservatoriya talabalari tomonidan musiqiy pedagogika, psixologiya, o'qitish metodikasi masalalari bo'yicha ko'plab qiziqarli kurs ishlari va ilmiy ishlar bajarilmoqda. Oliy o'quv yurtlari va respublika talabalar ilmiy konferensiyalariga hamda olimpiadalariga taqdim etilgan ishlardan ayrimlari yuqori bahoga sazovor bo'ldi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda konservatoriya talabalarining pedagogik ta'lim mazmuni uch didaktik asos — pedagogik nazariya, metodika va amaliyotdan iborat mustahkam ta'lim negiziga egalashni ta'kidlash mumkin. Biroq, asosiy yo'nalishni so'zsiz musiqa san'ati bo'lgan konservatoriya talabalari tomonidan ularning pedagogik ixtisoslashuvi hali ham yetarlicha hisobga olinmayapti. Musiqa pedagogikasi kafedrasida monitoringa natijalarning ko'rsatishicha, bu xolat ayniqsa o'qitishning boshlang'ich bosqichlarida sezilarlidir. Pedagoglar (T.Ye.Solomonova, M. Artashevskaya, P.F. Qodirov, V.P.Sradjev) tomonidan o'tkazilgan test sinovlari, so'rovlar, anketalashtirish shundan dalolat beradiki, konservatoriyaga yangi kirgan barcha talabalarning atigi 6 foizi o'zlarining pedagogik faoliyatiga oid tayyorlaydi, qolganlari esa pedagogik ixtisoslashuv haqida xatto o'ylab ham ko'rmaydilar. Vaholanki, konservatoriya bitiruvchilarining aksariyati (91 foizi) pedagogik ish bilan shug'ullanmoqda.

Pedagogik malaka, pedagogik mahorat o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki zaruriy pedagogik bilimlar, ko'nikma va malakalarni egallash uchun qunt bilan, maqsadni ko'zlab qilingan ishlar natijasida hosil bo'ladi. Pedagogik malakani egallash — bu sust jarayon emas, balki aytaylik, skripka chalishni o'rganish yoki dirijyorlik texnikasini o'zlashtirish singari faol o'quv-tarbiya jarayonidir.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, pedagogik ta'lim mazmunining sifatini oshirish, shuningdek butun musiqa ta'limi tizimida (maktabdan boshlab oliy o'quv yurtigacha) tarbiyaviy-kasbiy yo'naltiruvchi ishni kuchaytirish bo'yicha ishni davom ettirish zarurligi to'grisida xulosa chikqarish mumkin. Pedagoglik kasbiga nisbatan o'zining ikkinchi kasbi bo'lgani sifatida, ko'pchilik holatlarda esa birinchi mutaxassislik sifatida ongli munosabatda bo'lish bo'lajak cholg'uchi pedagoglarga talabalik yillaridayoq faollik bilan bilim egallash hamda o'zining pedagogik malakasini maqsadli takomillashtirish imkonini beradi.

2002 yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasida ushbu oliy o'quv yurti tarixida birinchi bor yangi ixtisoslik — «musiqa ta'limi» bo'yicha talabalar qabul qilish muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Respublikamizda oliy musiqiy pedagogik ta'limni rivojlantirishning butkul yangi bosqichi boshlandi. Bu ixtisoslik bo'yicha o'qishga kirayotgan va ta'lim olayotganlar — kelajakda o'zlariga aynan pedagogik faoliyatni kasb qilib tanlagan talabalardir. Bu ixtisoslik bo'yicha yetakchi va mutaxassis tayyorlab chiqaruvchi kafedra — musiqiy pedagogika kafedrasini hisoblanadi. O'qitishning ushbu shaklini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad respublikadagi maxsus oliy musiqa o'quv yurti negizida musiqa pedagogikasi hamda bolalar musiqiy ta'limi va tarbiyasining barcha sohalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Oliy musiqa o'quv yurtlarida bunday musiqiy-pedagogik ta'lim mavjud bo'lib, masalan, Riga davlat konservatoriyasi yoki Moskvadagi Musiqa akademiyasi (Gnesinlar nomidagi davlat musiqa-pedagogika instituti).

O'zbekiston davlat konservatoriyasida ushbu ixtisoslashuv hajmini to'liqroq tasavvur etish uchun, misol tariqasida ushbu ixtisoslik bo'yicha o'qiyotgan talabalar o'tadigan pedagogik amaliyot hamda Davlat attestasiyasi bosqichlari va turlarining variantlaridan birini keltiramiz:

Pedagogik va ijrochilik amaliyoti turlari hamda bosqichlari:

II kurs, 3- semestr — bolalar bog'chasi musiqa tarbiyachisi;

II kurs, 4- semestr — umumta'lim maktabi musiqa o'qituvchisi;

III kurs, 5- semestr — bolalar musiqa jamoalari rahbari, bolalar musiqali radioeshittirish hamda teleko'rsatuvlari rejissyori;

III kurs, 6- semestr — pedagogika kollejlari musiqa tarbiyasi metodikasi kursi o'qituvchisi;

IV kurs, 7- semestr — mutaxassislik, pedagogik va ijrochilik amaliyoti bo'yicha Davlat attestasiyasining amaliyot qismini topshirishga tayyorgarlik.

Endi maxsus fanlar bo'yicha Davlat attestasiyasi namunalaridan birini keltiramiz:

Maxsus fanlar bo'yicha Davlat attestasiyasi

I. Ijrochilik amaliyoti

1. Bolalar musiqa jamoasi bilan chiqish

2. Talabalar xoriga dirijyorlik qilish

II. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti

1. Umumta'lim maktablarida musiqadan namunaviy dars

2. Pedagogika

3. Musiqa tarbiyasi metodikasi

III. Mutaxassislik

1. Bolalar o'quv musiqa repertuari ijrosi
2. Yozma malakaviy diplom ishi.

Talabalar ushbu ixtisoslashuvga muvofik, ritmika va xoreografiya, pedagogika tarixi, yoshga oid va pedagogik psixologiya, musiqa tarbiyasi metodikasi, musiqa pedagogikasi tarixi, bolalar musiqa repertuari, mutaxassislik bo'yicha adabiyotlar, xor sinfi, nutq madaniyati, pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fanlarini hamda ushbu mutaxassislik sohasiga mos keladigan yana bir qator musiqiy, umummaxsus, ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'zlashtiradilar.

«Musiqa ta'limi» ixtisosligi bo'yicha birinchi bakalavrlarning bitiruv kechasi 2006 yilda amalga oshirilgan. Bu tantanalar Bolalar musiqa festivali bilan bir vaqtda o'tkazilgan va hozirgi kunda ham o'tkazilmoqda, bu talabalarga yana bir bor va endi yuksak darajada bolalar bilan birga katta festival dasturida ishtirok etish imkonini beradi. Har qanday yangi ixtisoslikda bo'lgani kabi, bu sohoda ham hali vaqt sinovidan o'tishni talab qiladigan jihatlar bor, albatta. Biroq, hozirdanoq ma'lum bo'lishicha, respublikada bolalar musiqiy tarbiyasi bo'yicha konservatoriya darajasida ta'lim olgan malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori.

Keltirilgan misollardan pedagogik malaka, pedagogik mahorat — bu maxsus musiqiy ta'lim kabi, maxsus pedagogik musiqiy ta'limning ham zarur tarkibiy qismi ekanligi kurinib turibdiki, bu musiqa pedagogikasining dolzarb muammosi hisoblanadi. Musiqiy ta'lim darajasi doimo o'qituvchining pedagogik malakasi sifatiga bevosita bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, o'qituvchining pedagogik malaka darajasi u egallaydigan pedagogik bilim, ko'nikma va malakalari sifatiga, boshqacha aytganda, pedagogik faoliyatga moyil bo'lgan shaxsning ongliligi, qiziquvchanligi, mehnatsevarligi, iste'dodi va iqtidoriga bogliq bo'ladi.

Yaxshi o'qituvchi nafaqat pedagogik iste'dodga ega bo'lishi va musiqiy asarni ijro etish texnikasini egallashi, shuningdek, mavjud pedagogik nazariyalar va o'qitish metodlari bo'yicha tegishli hajmdagi bilimga ham ega bo'lishi kerak. Bunga esa o'qish va amaliyot yo'li bilan erishiladi.

Asarni qanday qilib samaraliroq yod olish mumkin? O'rganilgan asarni xotirada mustahkamlashning qanday oqilona metodlari mavjud? Mashhur polyak pianinochisi, M.Moshkovskiy va A.G.Rubinshteynning shogirdi, pedagog, kompozitor Iosif Gofmanning formulasiga ko'ra asarni puxta yodlab olishning quyidagi to'rt asosiy bosqichi taklif etiladi:

1. Asar matni ustida cholg'u asbobisiz ishlash;
2. Asar matni ustida cholg'u asbobi bilan ishlash;
3. Asar ustida matnsiz ishlash (yoddan chalish);
4. Cholg'u asbobisiz va notasiz ishlash (ichki eshitish tasavvurida).

Asarni yod olishning ushbu bosqichlari barchaga yaxshi ma'lum. Biroq amaliyotda biz birinchi va ohirgi bosqichlardan har doim ham yoki umuman foydalanilmasligini yoki hisobga olinmasligini kuramiz. I.Gofman esa agar «o'quvchi har bir notani, sekvensiyani, ritmni, garmoniyani va notada mavjud bo'lgan barcha ko'rsatmalarni anglab olmaganicha klaviaturaga yaqinlashishga oshiqmasa, o'zi uchun yaxshi ish qilgan bo'ladi, chunki chalish — ijrochi juda yaxshi bilgan narsaning qo'llar yordamida ifodalanishidir,— deb hisoblagandi.

Ko'p cholg'uchilar asarni o'rganishda duch keladigan xato, tuzoq — matnni ko'p marta, mexanik ravishda takrorlashdan iborat. Bunday usulda o'rganganda asosiy og'irlik faqat harakatdagi xotiraga tushadi. Taniqli fransuz pianinochisi Margarita Longning haqli ravishda qayd etishicha, bunday yodaki o'rganish usuli — «shubhali sadoqatning yalqovlarga qarori va shu bilan birga qimmatli vaqtni behuda sarflashdir».

Xotirlab yodaki chalish ijro sifatini ancha yaxshilaydi. R.Shuman: «Notalar bo'yicha istalgancha erkin chalingan akkord xotirlab chalingandagining yarmichalik ham erkin yangramaydi». Musiqachi va ayniqsa, ijrochi uchun yaxshi xotira katta ahamiyatga ega. V.Motsart, F.List. A.Rubinshteyn, S.Raxmaninov, A.Toskanini qanday o'lgan musiqiy xotiraga ega bo'lganliklarini biz yaxshi bilamiz. Masalan, Ferens List konsertga keta turib yo'lda, aravada o'tirganda murakkab asarni faqat ko'z tashlab yodlab olardi va uni konsertda ijro eta olardi. O'zbek musiqasida Yunus Rajabiyni misol keltirish mumkin, u o'zining ko'p jildli «O'zbek xalq musiqasi», «Shashmaqom» kabi nota to'plamlarini amalda xotira bo'yicha yaratgan. Shuningdek, o'zbek hofizlarining san'ati ham bunga yaqqol misol bo'ladi. «Hofiz» so'zi arab tilidan tarjima qilganda, “saqlamoq”, «unutmaslik», «yodda saqlash kabi» ma'nolarni bildiradi. Musiqiy xotira, tafakkur, tasavvur, eshitish, ovoz, ritm, ijro texnikasini o'rgatish hamda rivojlantirish masalalari va zamonaviy musiqa pedagogikasiga oid boshqa dolzarb muammolar bo'yicha yana ko'plab misollar keltirish, buyuk fortepiano (K.N.Igumnov, A.B.Goldenveyzer, G.G.Neygauz), skripka (L.S.Auer, A. I .Yampolskiy, P.S. Stolyarskiy) maktablari, bolalar musiqa tarbiyasidagi noyob metodikalar (Emil Jak- Dalkroz, Zoltan Koday, Karl Orf, Dmitriy Kabalevskiy) va boshqa musiqa maktablarining jahon amaliyotidagi pedagogik tajribasini ko'rsatib o'tish mumkin. O'zbekistonda B.B.Nadejdin, A.F.Kozlovskiy, G.A.Mushel, M.Ashrafiy, N.M.Yablonovskiy, Ya.B.Pekker, Yu.G.Kon, M.N.Semyonov, V.I.Knyazyatov, AI.Pegrosyas, A.Ye.Morozov, U.R.Rizaqulov, B.I.Zeydmai, M.B.Reyson, A.M.Gekkelman, V.F.Po'latov, B.F.Giyenko, X.F.Azimov, F.Sodiqov, I.Rajabov, N.Hoshimov, S.Qobulova, T.Alimatov, F.M.Karomatli, A.O.Odilov, R.D.Vildanov, O.Yu.Yusupova va boshqa ajoyib musiqachi-pedagoglarning faoliyati barchaga yaxshi ma'lum. Bu pedagogik boylikni o'zlashtirish bo'lajak

musiqachi-pedagoglarning asosiy vazifasidir. Bu maktablarning barchasini musiqaga, pedagogikaga bo'lgan ulkan muhabbat va zo'r mehnat birlashtiradi. Buning yorqin namunasini hozir V.A.Uspenskiy nomidagi Respublika maxsus musiqa akademik litseyining mashhur ustoz-murabbiysi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, O'zDKning faxriy professori Tamara Afanasyevna Popovich ko'rsatmoqda.

Nihoyat, qanday qilib o'qituvchi bo'lish mumkin, degan savolga javob bera turib, P . I . Chaykovskiyning quyidagi so'zlarini keltirish mumkin: «Eng avvalo, mehnat, mehnat va yana mehnat qilish zarur. Hatto zakiy aql egasi bo'lgan kishi ham, mashaqqatli mehnat qilmas ekan, nafaqat buyuk, balki o'rtamiyona narsani ham yarata olmaydi».

Bu pedagogik bilimlarni egallash va pedagogik mahoratni takomillashtirish bo'yicha qilinadigan mehnatdir. O'qituvchining pedagogik ishi natijasi uning shogirdlari, u o'tkazayotgan mashg'ulotlarning sifatligi hamda ajoyib musiqa abadiy yangrashi uchun musiqiy pedagogika, musiqa san'ati rivojiga qo'shayotgan hissasidan iboratdir.

Umumpedagogik atama va tushunchalar

Mavjud pedagogik nazariyalar va uslublarning turli sohalarga oid metodikalarining asosi umumiy pedagogika hamda unda shakllangan atama va tushunchalar hisoblanadi. Musiqa pedagogikasining tizimi va nazariy asoslarini ko'rsatishdan avval ana shu bazaviy atamalar va tushunchalarga murojat etamiz va ulardan asosiylarini ajratib olamiz.

Asosiy pedagogik atamalar va tushunchalar

Pedagogika — ta'lim va tarbiya haqidagi fan; shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berish, o'qitish va rivojlantirish jarayonlarining mohiyati, «maqsadi, vazifalari va qonuniyatlarini ochib beradi.

"Pedagogika" — yunoncha so'z bo'lib, "paid" — bola, "agogika" — yetaklash.

Pedagogika tarixi — pedagogika nazariyasi va amaliyoti rivojining tarixiy davrlari haqidagi fan.

Umumiy pedagogikaning bo'limlari:

- I. Pedagogikaning umumiy asoslari
- II. Ta'lim va o'qitish nazariyasi (didaktika)
- III. Tarbiya nazariyasi
- IV. Maktabshunoslik

Pedagogikaning tarmoqlari:

Pedagogika tarixi
Xalq pedagogikasi
Umumiy pedagogika
Maktabgacha pedagogika
Maktab pedagogikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'limi pedagogikasi
Kattalar pedagogikasi
Xususiy pedagogika yoki fanga oid metodikalar (musiqqa pedagogikasi)
Maxsus pedagogika yoki defektologiya:
a) Surdopedagogika (kar, soqovlar uchun)
b) Tiflopedagogika (ko'zi ojizlar uchun)
v) Oligofrenopedagogika (aqli zaiflar uchun)

Asosiy pedagogik atamalar — pedagogika, ta'lim, o'qitish, tarbiya, rivojlanish, bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, didaktika, maktabshunoslik va boshqalar.

Ta'lim — tizimlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni va natijasi, shuningdek ta'lim muassasalari tizimi.

O'qitish — o'qituvchi rahbarligida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan jarayon.

Tarbiya — insonning shaxsiy shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Rivojlanish — shaxsning ma'naviy, aqliy va jismoniy o'sish jarayoni.

Bilim — to'plangan tajriba; borliqning anglanishning amalda sinalgan natijasi va uning inson tafakkurida tug'ri aks etishi.

Ko'nikma — g'ayriixtiyoriy darajagacha yetkazilgan harakat.

Malaka — mavjud bilim va ko'nikmalardan tug'ri va samarali foydalanish.

Didaktika — ta'lim va o'qitish nazariyasi.

Didaktika kategoriyalari: o'qitish jarayoni, ta'lim mazmuni, o'qitish prinsiplari, o'qitish metodlari, o'qitish shakllari.

O'qitish jarayoni — o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabati jarayonida o'quvchilarga ta'lim berish.

Ta'lim mazmuni — bilim, ko'nikma va malakalarning pedagogik tizimi.

O'qitish prinsiplari — o'qitish jarayonining asosiy qonun-qoidalari va unga quyiladigan didaktik talablar (ilmiylik, tushunarlik, tizimlilik, izchilligi, hayot bilan bog'liqligi, ko'rgazmalik, mavhumlilik, onglilik, faollik, bilim va ko'nikmalarning puxtaligi).

O'qitish metodlari — bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va o'zlashtirish uslublari, yo'llari (og'zaki, ko'rgazmali, amaliy).

O'qitish shakllari — belgilangan va ma'lum tartibda amalga oshiriladigan o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati. O'qitishning asosiy shakli dars hisoblanadi.

Tarbiya nazariyasi — insonning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish pedagogik jarayonlarini tizimlashtirish nazariyasi (ma'naviy, axloqiy, mehnat, estetik, badiiy, musiqiy, jismoniy tarbiya).

Maktabshunoslik — maktabda ta'lim-tarbiyani tashqil etish va uni boshqarish masalalari ko'rib chiqiladigan tizim.

Musiqqa pedagogikasi nazariyasida mazkur umumpedagogik tayanch atamalardan umumiy hamda maxsus musiqqa tarbiyasi va ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda foydalaniladi.

Musiqqa pedagogikasi **(o'quv fani asosiy bo'limlarining qisqacha sharhi)**

Mazkur o'quv fani O'zbekiston davlat konservatoriyasi magistratura bosqichi talabalari uchun ishlab chiqilgan. Uning asosiy qoidalaridan, shuningdek, o'qituvchilar, musiqqa madaniyati va ta'limi xodimlarining malakasini oshirish kurslarida, pedagogik va madaniy-oqartuv o'quv yurtlarida, musiqqa ta'limi va tarbiyasi tizimidagi pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq, bo'lgan fakultet va bo'limlarda foydalanilishi mumkin.

Musiqqa pedagogikasi bo'yicha ushbu kurs bastakorlar, musiqashunoslar, ijrochilar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, ma'rifiy va musiqqa san'atini texnik ta'minlash xodimlarining umumiy musiqiy-pedagogik bilimlarini yangilash va takomillashtirishga qaratilgan. Mazkur mutaxassisliklarning xar biri pedagogik yo'nalishdagi sohaga xos xususiyatlarga ega bo'lib, tabiiyki ular mana shu xususiyatni hisobga olgan holda o'rganilishi hamda ko'rib chiqilishi lozim.

Bo'lajak musiqachilar uchun pedagogika bo'yicha avvalgi dasturlar, asosan, umumiy pedagogika kursi mazmuniga ega bo'lib, ularda musiqqa san'atining o'ziga xos xususiyatlari yetarlicha, ba'zan esa umuman hisobga olinmagan edi. Mazkur kursning maqsadi musiqqa san'atiga oid pedagogik muammolarni maksimal darajada hisobga olishdan iboratdir. *Musiqqa pedagogikasi* — insonga musiqiy ta'lim berish va tarbiyalash hakidagi fan; u qator gumanitar fanlar (asosan, pedagogika, musiqashunoslik va fanlar metodikasi) ni birlashtirish natijasida yuzaga kelgan mustaqil ilmiy fan bo'lib, o'zining maqsad va vazifalari, ilmiy va ma'lumot apparatiga ega. Musiqqa pedagogikasining *o'rganish predmeti* musiqiy ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo'lib, unda musiqiy-pedagogik jarayonning mohiyati va qonuniyatlari ochib beriladi. Musiqqa pedagogikasi kursi pedagogika, musiqashunoslik, psixologiya, fiziologiya, estetika kabi fundamental

fanlar hamda musiqiy ta'lim va tarbiyaning xususiy metodikalariga tayanadi; umumiy pedagogikada ancha barqarorlashgan uning asosiy bo'limlari tarkibi musiqa pedagogikasining qonuniyatlari va muammolari mazmunini to'liq, ochib berish uchun ishonchli konstruktiv asos bo'lib hizmat qilishi ayniqsa muhimdir. Mazkur kursni ishlab chiqishda umumiy pedagogika akademik kursi asos qilib olindi.

Kursning metodologik asosi muammoni o'rganishga tarixiy jixatdan va kompleks yondashish prinsiplari, umumiy va musiqa pedagogikasining birlashtirilishi, o'zbek musiqa-pedagogika madaniyatining umuminsoniy qadriyatlarining bir qismi sifatida rivojlanishi jarayonlari, o'zbek musiqasining o'ziga xos xususiyatlari, uning hududiy, jahon musiqa madaniyati bilan o'zaro bog'liqligi, bir-biriga yaqin fan va san'at turlarining ilmiy va uslubiy negiziga tayanish hisoblanadi.

Musiqa pedagogikasi kursining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: pedagogik bilimlarni egallash, musiqa san'ati sohasidagi pedagogikaning nazariy asoslari va qonuniyatlarini o'rganish, umumiy va maxsus musiqa ta'limi mazmunini ochib berish, musiqa ta'limi va tarbiyasining prinsiplari, metodlari, shakllarini tartibga solish, shaxsiy rivojlantirish, musiqachining kasbga oid sifatlarini shakllantirish, musiqa san'ati soxasidagi pedagogik yutuqlarni umumlaishtirish.

Mazkur kurs bo'yicha dastur, mavzu rejasi tuzishda soatlar hajmi turli o'quv rejalarida ko'zda tutilgan auditoriya soatlari bog'liq, xolda o'zgartirilishi mumkin. Malaka oshirish fakultetlarida soatlar hajmini mavzularni birlashtirish yo'li bilan qisqartirish mumkin. Oliy o'rta maxsus pedagogik, madaniy-oqartuv o'quv yurtlarida ushbu kurni umumiy pedagogika kursi bilan qushib olib borish yoki alohida kurs ("Musiqa pedagogikasi", "Musiqa san'ati pedagogikasi" yoki "Musiqa ta'limi va tarbiyasi pedagogikasi") sifatida kiritish maqsadga muvofiq.

Musiqa pedagogikasi kursi to'rt bo'limdan iborat:

- I. Musiqa pedagogikasining umumiy asoslari.
- II. Musiqa ta'limi va uni o'qitish nazariyasi. (Musiqa didaktikasi.)
- III. Musiqa tarbiyasi nazariyasi.
- IV. Musiqa ta'limi va tarbiyasi tizimida tashkillashtirish va boshqaruv.

Namunaviy mavzu rejasi

Bo'limlar va mavzular nomi

Musiqa pedagogikasiga kirish.

Musiqa san'atining pedagogik asoslari va muammolari. Musiqa pedagogikasi fan sifatida. Uning asosiy atamalari va tushunchalari.

1. Bo'lim. Musiqa pedagogikasining umumiy asoslari

1. Musiqa pedagogikasi fani. Musiqa pedagogikasi tarixidan.
2. Shaxsning musiqiy rivojlanishi, tarbiyasi va shakllanishi.
3. Musiqiy-pedagogik jarayon.

II. Bo'lim. Musiqa didaktikasi
(Musiqa ta'limi va uni o'qitish nazariyasi)

1. Musiqa didaktikasi maqsad va vazifalari. Musiqa ta'limining mazmuni.
2. Musiqaga o'qitish jarayoni.
3. Musiqaga o'qitish prinsiplari va metodlari.
4. Musiqaga o'qitish shakllari.

III. Bo'lim. Musiqa tarbiyasi nazariyasi

1. Musiqiy-tarbiyaviy jarayonning mohiyati va qonuniyatlari.
2. Musiqa tarbiyasi prinsiplari va metodlari.
3. Musiqa vositasida dunyoqarashni shakllantirish, axloqiy, jismoniy tarbiyalash.
4. Estetik, badiiy, musiqiy tarbiya.

IV. Bo'lim. Musiqa ta'limi va tarbiyasi tizimini tashkil etish va boshqarish

1. Musiqa ta'limi va tarbiyasi tizimini tashkil etish va boshqarishning umumiy asoslari.
2. Ta'lim va tarbiya boshqaruvini tizimlarida musiqachining pedagogik faoliyati va vazifalari.
3. O'zbekiston Respublikasida musiqiy ta'lim va tarbiyaning hozirgi holati va uning rivojlanish istiqbollari.

"Musiqa pedagogikasiga kirish", musiqqa pedagogikasi bo'yicha kirish ma'ruzalarida musiqqa pedagogikasining tayanch ilmiy, nazariy, tarixiy, metodik, amaliy asoslari kurib chiqiladi. Ushbu bo'limda govori malakali musiqachilarni professional tayyorlash masalalari o'rtaga tashlanadi va umumiy musiqqa tarbiyasi masalalari ajratib ko'rsatiladi. Professional musiqachini qanday tayyorlash kerak?

Professional musiqiy ta'limdagi qaysi metodlar eng samarali hisoblanadi? Aholining keng ommasiga jahon va vatanimiz musiqa san'ati yutuqlarini qanday qilib yetkazish va ularni qiziqitira olish mumkin? Umumiy musiqiy tarbiyaning qaysi shakl va metodlari yetarlicha samara beradi? Musiqa pedagogikasining ana shu va boshqa barcha savollari birinchi mashg'ulotlarda muammo, bahs xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Bundan qanday xulosa kelib chiqadiki, mazkur masalalarni xal etish bilan musiqa pedagogikasi fani shug'ullanadi.

Musiqa pedagogikasining fan sifatida shakllanishi o'ziga xos xarakterga ega. Bu musiqa san'atining o'ziga xos xususiyatlari, uning tovush, musiqiy ifodaviyligi, xar bir tinglovchining musiqani o'ziga xos tarzda ijodiy va individual qabul qilish qobiliyati bilan bog'liq. Yuqorida aytilganidek, musiqa pedagogikasining fan sifatida shakllanishi uchun umumiy pedagogikada ishlab chiqilgan tarkib va nazariy qonuniyat yagona uyushtiruvchi metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy pedagogikaning metodologik bazasiga tayangan holda musiqa pedagogikasining asosiy atamalari va tushunchalarini ajratish mumkin. Ulardan asosiylarini keltiramiz:

Musiqa pedagogikasi - musiqa ta'limi va tarbiyasi hakidagi fan.

Musiqa pedagogikasi o'rganadigan mavzu - musiqiy ta'lim, tarbiya berish, shaxsning musiqiy rivojlanish jarayonlarining mohiyati va qonuniyatlari.

Musiqa pedagogikasining soxa va yo'nalishlari:

Musiqa pedagogikasi tarixi

Xalq musiqa pedagogikasi (musiqa etnopedagogikasi)

Mysika pedagogikasi

Umumiy musiqa tarbiyasi pedagogikasi

Maxsus musiqa ta'limi pedagogikasi

Xususiy musiqa pedagogikasi yoki musiqa ta'limi fanlariga oid metodikalar (vokal pedagogikasi, fortepiano pedagogikasi, turli cholg'u asboblarda chalishni o'rgatish metodikasi va h. k.).

Musiqa pedagogikasi bo'limlari:

I. Musiqa pedagogikasining umumiy asoslari.

II. Musiqiy ta'lim va musiqa o'qitish nazariyasi (Musiqa didaktikasi).

III. Musiqiy tarbiya nazariyasi.

IV. Musiqa ta'limi va tarbiyasi tizimini tashkil etish va boshqarish.

Musiqa ta'limi - tizimlashirilgan (tartibga solingan) musiqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni va natijasi, shuningdek musiqa bilim yurtlari tizimi.

Musiqqa o'qitish - O'qituvchi rahbarligi ostida musiqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni egallashning maxsus tashkil etilgan jarayoni.

Musiqqa tarbiyasi - shaxsning musiqqa madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Musiqiy rivojlanish — inson musiqqa madaniyati va musiqiy qobiliyatlarining xar tomonlama rivojlanish jarayoni.

"Musiqqa pedagogikasining umumiy asoslari" deb nomlangan bo'limda musiqqa pedagogikasi fani, musiqqa pedagogikasi tarixi, shaxsning musiqiy rivojlanishi, tarbiyasi va shakllanishi, shuningdek musiqiy- pedagogik jarayon musiqqa pedagogikasi o'rganadigan asosiy mavzu kabi masalalar kurib chiqiladi.

Musiqqa pedagogikasining mavzusi shaxsning musiqiy tarbiyasi ta'limi va rivojlanish jarayonlarining qonuniyatlari hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning har biri o'ziga xos va alohida xususiyatlarga ega. Musiqqa tarbiyasi jarayoni inson musiqqa madaniyatining umumiy, shaxsiy asoslarini shakllashirishga, musiqqa o'qitish jarayoni esa muayyan musiqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan. Musiqiy rivojlanish jarayoni xar bir alohida insonning musiqqa madaniyati va musiqiy qobiliyatlari hamda ruhiy-fiziologik imkoniyatlarining umumiy o'sib borishi bilan bog'liq.

Musiqqa pedagogikasi tarixi yer kurrasida insonning paydo bo'lishi, pedagogikaning shakllanishi, musiqqa madaniyatining insoniy turmush tarzi sifatida vujudga kelishi bilan bog'liq, qadimiy manbalarga ega. Musiqqa pedagogikasining rivojlanishi qadimiy davrlardan boshlangan va, hozirgi kungacha davom etmoqda: Qadimiy dunyo (Mif, Suriya, Xindiston, Xitoy), Antik Yunoniston, Rim (Fisog'urs, Suqrot, Demokrit, Aflotun, Arastu va b. Qadimiy Xorazm, Eron, "Avesto", qadimiy turklar — Xunnu, Turk xohonligi, Arab halifaligi, qur'oni Karim, Hadislar, Uyg'onish davri, Urta asr Sharqi (Forobiy, Ibn Sino, Kaykovus, Marog'iy, Jomiy, Navoiy, Kavkabiy, Darvish Ali va b.) , xalq, mumtoz sharq, musiqasi shakllanishi, qo'shiq, ashula, katta ashula, doston, maqom, xorazm nota yozuvi. Yevropada nota yozuvining paydo bo'lishi (Gvido Aretinskiy), pedagogikaning fan sifatida shakllanishi (Yan Amos Komenskiy, Pestalossi, Disterverg va b.) , klassik musiqqa davri (Bax, Gaydn, Motsart, Betxoven va b.) , jadidlar pedagogikasi, ularning yangi uslubdagi maktablari (Munavvarqori, Bexbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Avloniy, Zafariy va b.) , "ustoz-shogird" musiqqa ta'limi tizimi (Abdulaziz Rasulov, Usta Olim Komilov, Yunus Rajabiy, Turg'un Alimatov va b.) , jahon umumiy, bolalar musiqqa tarbiyasi tizimlari (Karl Orf, Zoltan Koday, D.Kabalevskiy va b.) , professional musiqqa ta'limining jahon maktablari (K.N.Igumnov, A.B.Goldenveyzer, G.G.Neygauz, L.S.Auer, A.I.Yampolskiy, P.S.Stolyarskiy va b.) . O'zbekistonda maxsus musiqqa ta'limining shakllanishi. Toshkent, Samarkand, Farg'ona xalq konservatoriyalari.

Buxoroda Fitratning Sharq; musiqa maktabi (1921). O'rta va oliy maxsus musiqa ta'limining tashkil topishi. Hamza nomidagi Respublika maxsus musiqa kolleji, O'zbekiston davlat konservatoriyasi va ularning professor-o'qituvchilari. Musiqa, pedagogika ilmiy-tadqiqot va malaka oshirish institutlari. Umumiy musiqiy tarbiya shakllari. Musiqa ta'limi va tarbiyasining zamonaviy yutuqlari. O'zbekistonda zamonaviy musiqa ta'limi tizimi.

Shaxsning musiqiy rivojlanishi, tarbiyasi va shakllanishi musiqa pedagogikasining umumiy asoslari bo'limi bosh mavzulari hisoblanadi. Insoning musiqiy rivojlanishi uning musiqiy qobiliyatlari va musiqa madaniyatining bir butun tashkil topishi va shakllanishi jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Musiqiy rivojlanish — bu shaxs musiqa madaniyatining jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishdagi tug'ma va o'zlashtirilgan, miqdor va sifat o'zgarishlarining har tomonlama takomillashuvi.

Bu jarayonda musiqiy meros masalasi muhim qiziqish uyg'otadi. *U* yoki bu musiqiy faoliyatda musiqiy qobiliyat va iqtidorning nasldan- naslga o'tishi kam o'rganilgan muammolardan hisobladi. Biroq, musiqa tarixidan biz musiqaga oid kasb ota-onalardan farzandlarga o'tgan ko'plab musiqiy sulolalarni bilamiz. Irsiyatni o'rganish bilan genetika fani shug'ullanadi. Bu juda murakkab jarayon bo'lib, genetikaning ma'lumotlariga ko'ra organizmning xususiyatlari nasldan o'tadigan genetik kodda shifrlangan. Insonga tashqi xususiyatlar ham ichki xususiyatlar ham nasl orqali o'tadi. Musiqiy meros o'tish masalalarini o'rganishda musiqa pedagogikasining fiziologiya, psixologiya, genetika, kibernetika va informatika fanlari bilan aloqasi ko'p foyda keltirishi mumkin. Lekin qator avlodlarda iste'dod sohiblari, daho musiqachilarning paydo bo'lishi nafaqat irsiyatga, balki ular hamda ularning ota-onalari yashagan va tarbiyalangan muhitga ham bog'liq.

Pedagogikada muhit deganda atrofdagi tarbiyalovchi voqelik tushuniladi, mana shu sharoitda inson rivojlanadi, uning shaxsi shakllanadi. Insonni hayotga, mehnatga tayyorlash, shaxsning musiqiy shakllanishi mazkur jamiyatda qabul qilingan muayyan milliy madaniy, musiqiy an'analarga javob beradigan, axloq normalari va qoidalariga rioya qilish asosida amalga oshiriladi. Shu ma'noda, masalan, sharq, musiqasi g'arb musiqasidan farq qiladi, dunyodagi turli xalqlarning musiqasi o'zining milliy xususiyatlariga ega va h.k. Biroq, tildan farqli ravishda musiqa hamma uchun tushunarli, baynalmilal (internasional) xususiyatga ega.

Shunga asosan, turli xalqlarning musiqa san'ati vositasida shaxsning musiqiy shakllanishi **ham** baynalmilal xususiyatga ega. Shaxsning musiqiy

shakllanishida inson o'zini o'zi musiqiy tarbiyalashi va takomillashtirishi haqida faol o'ylay boshlagan davr katta ahamiyatga ega. Uning o'zi o'z shaxsini faol shakllantiradi.

Inson o'zining musiqiy rivojlanishida qator yosh bosqichlaridan o'tadi. Insonning yoshga xos umumiy xususiyatlarini o'rganish bilan psixologyaning maxsus soxasi — yosh psixologiyasi shug'ullanadi. Eng umumiy kurinishda maktabgacha yosh, maktab yoshi, o'smirlik va ijtimoiy yetuklik davri kabi yosh bosqichlari ajratiladi. Shu asosda quyidagi yosh davrlarini va ularga muvofik, ta'lim-tarbiya muassasalarini ko'rsatish mumkin:

Maktabgacha yosh

1. Ilk bolalik — 3 yoshgacha (yasli);
2. Myaktabgacha davr oldi — 3 yosh (yasli yoki bolalar bog'chasi, kichik guruh);
3. Maktabgacha davr — 4 yosh (bolalar bog'chasining o'rta guruhi), 5 yosh (katta **guruh**), 6 yosh (tayyorlov **guruhi**).

Maktab yoshi

1. Kichik — (I—IV) boshlang'ich maktab.
2. O'rta (O'smirlik) — (V—IX sinf) tayanch (o'rta) maktab.
3. Katta (O'spirinlik) — (X—XII sinflar) akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari.

Ushbu yosh davrlarida shaxsning musiqiy rivojlanishi turli bosqichlardan o'tadi. Chaqaloqlik, gudaklik yoshida, xayotining birinchi yilida bu ko'proq ona aytadigan alla qo'shig'i hamda bolani o'rab turgan musiqiy muhit bilan bog'liq. Hayotning ikkinchi va uchinchi yillarida, bola yura boshlaganda, u kattalar ortidan ayrim musiqiy va qo'shiq jumllarini takrorlay oladi. Bu yoshda ritmik eshitish qobiliyati faol rivojlana boshlaydi, bu bolaga musiqani alohida ritmik va raqs harakatlari bilan ifodalashga imkon beradi. Uch yoshda, bola "o'zining "men"ini anglab eta boshlaganda, uning istaklari va "men o'zim" kabi talablari ifodalangan keskin vaziyatlarda, ota-onalar uni musiqaga oshno qilish imkoniyati haqida uylay boshlaydilar. Bolani uy sharoitida musiqa maktabiga joylashtirishga tayyorlash, musiqa o'qituvchisi bilan o'tkaziladigan xususiy mashg'ulotlar va bolalar bog'chasidagi musiqa mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Boshlang'ich maktabning birinchi sinflarida bolaning ovozi xali zaif, nafasi qisqa bo'ladi, u qo'shiq so'zlarini kuylashdan ko'ra ko'proq, "so'zlayotganga" o'xshaydi. Shuning uchun kichkintoylar uchun qisqa jumllali va yorqin ifodaviy mazmunli qo'shiqlar tanlash lozim, bu ularda qo'shiqqa nisbatan e'tibor va qiziqish uyg'otadi. Cholg'u asboblarning jo'rliqi, ko'p ovozlilikni ular hali "shovqin" sifatida qabul qiladilar, ular tarkibidagi akkordlar va tovushlarni hozircha anglab yetmaydilar. Biroq, shunga qaramasdan, o'qituvchi nafas, xushoxang, muloyim ovoz, legato ustida ishlashi kerak va jamoa bo'lib kuylashga ko'povozlilik unsurlarini kiritishi lozim.

Musiqiy rivojlanishdagi navbatdagi keskin davr o'smirlik yoshi (12—16 yosh) hisoblanadi. Bu yosh ovoznig o'zgarishi (mutasiyasi), ovoz apparatining yosh bilan bog'liq, o'zgarishiga xos. Odatda, ovoz mutasiyasi davri 13—15 yoshga to'g'ri keladi. Qiz bolalarda mutatsiya davri ertaroq, boshlanadi va o'g'il bolalarga nisbatan sezilarsiz o'tadi, o'gil bolalarda ovoz paychalari anchagina yiriklashadi, shu sababli ovoz buzilishlari yaqqol seziladi.

Ovoz pastlashib, ko'krak rezonatori qo'shilgan holda yo'g'onlashadi. Avvallari mutatsiya davrida qo'shiq, kuylash zararli hisoblangan. Lekin, vokal ta'limning zamonaviy nazariya va metodikasi mutasiya davrida tessitura va diapazonni hisobga olgan holda qo'shiq, kuylash ovoznig tabiiy yoshga xos o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbot qilmoqda. Pedagogikada o'smirlik yoshi qiyin davr hisoblanadi, chunki o'smirlarda nigilistik mayl, hamma narsani, ayniqsa tarbiyaviy ta'sirlarni inkor qilish ustunlik qiladi. Bu davrda shaxs shakllanishining tabiiy jarayoni kechadi. O'smirning o'zi u yoki bu ko'rinishga ishonch hosil qilishi, uni o'zi bilan taqqoslashi, shu yo'l bilan, nimaga qodir ekanligini, bu hayotda qanday qilib mahkam o'rnashishni bilishi kerak. Navbatdagi yosh davri o'spirinlik, musiqa litseyi yoki musiqa kolleji davri bo'lib, bo'lajak kasb tanlash bilan bevosita bog'liq. Bu davrda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha tarbiyaviy ish katta ahamiyatga ega bo'lla boshlaydi. Musiqa tarbiyasida, shuningdek shaxsni har tomonlama — ma'naviy, axloqiy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy rivojlantirishni yoddan chiqarmaslik kerak.

Musiqiy-pedagogik jarayon musiqa pedagogikasi o'rganadigan asosiy mavzu hisoblanadi. Keng ma'noda bu jarayon musiqa ta'limining butun tizimini qamrab oladi, tor, sohaga oid zarur ma'noda esa zarur musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Musiqiy-pedagogik jarayon kechadigan tizim sifatida keng ma'noda unga xalq ta'limining butun tizimi — bolalar bog'chalari, maktab, sinf, tugaraklar, ijodiyot uylari va boshqalar kiradi. Jarayonning o'zi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro aloqasi va birligida amalga oshiriladi. Musiqiy-pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismlari musiqa ta'limi va musiqa tarbiyasi jarayonlari sanaladi, ular shaxsni musiqiy bilimdonlik, muusiqiy tarbiyalilik va musiqiy rivojlanishniig ichki o'zgarishlar jarayonlariga olib boradi.

Musiqiy-pedagogik jarayon o'zining qonuniyatlari, shakllari, bosqichlari, uslublari, umumiy va maxsus, yakka va jamoa, nazariy va amaliy, konsert va mustaqil musiqiy mashg'ulotlariga ega. Musiqiy-pedagogik jarayonning qonuniyatlarini aniqlash uchun ushbu barcha aloqalarni tahlil qilish talab etiladi. Bu aloqalarni bir butun hisobga olish ularning birligiga, jamiyat ehtiyojlariga bog'liqligiga, milliy va jahon musiqa madaniyatining taraqqiyotiga olib keladi.

Musiqiy-pedagogik jarayonda musiqa o'qituvchisi shaxsiga katta

ahamiyat beriladi.

"Musiqqa didaktikasi" (Musiqqa ta'limi va uni o'qitish nazariyasi) nomli II bo'limda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: musiqqa didaktikasi maqsad va vazifalari, musiqqa ta'limi, jarayoni, prinsiplari, metodlari va musiqqaga o'qitish shakllarining mazmuni.

"Didaktikos" (yunoncha) — o'rgatuvchi demakdir.

Pedagogika tarixidan yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga bag'ishlangan ko'plab asarlar bizga ma'lum. Masalan, mazkur qo'llanmada XI asrda yaratilgan Kaykovusning "Qobusnoma" nomli didaktik asari tu'g'risida so'z yuritiladi. Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika" (1633—1638) asarida pedagogika fanining soxasi sifatida didaktika ilk bor ilmiy jihatdan asoslab berilgan. O'shandan buyon ko'plab olimlar didaktika masalalari ustida ish olib bordilar. Hozirgi vaqtda didaktika ta'lim va o'qitishning umumiy nazariyasi sifatida qaraladi. Shuningdek, biz ushbu qo'llanmada musiqqa didaktikasini musiqqa pedagogikasiga nisbatan ko'rib chiqamiz va ta'riflaymiz.

Musiqqa didaktikasi — musiqqa ta'limi va uni o'qitishning umumiy nazariyasi.

Musiqqa didaktikasining o'rganish predmeti musiqqa ta'limining mazmuni, musiqqa o'qitish jarayoni va uning qonuniyatlari hisoblanadi.

Musiqqa didaktikasi musiqqa ta'limi va musiqqa o'qitishning umumiy nazariyasi sifatida musiqqa ta'limidagi barcha fanlarni o'qitishga xos bo'lgan umumiy qoidalar va konuniyatlarni ko'rib chiqadi. Shuningdek, fanlariga oid metodikalar yoki xususiy didaktikalar mavjud (masalan, fortepianoda chalishni o'rgatish metodikasi, garmoniya, polifoniyani o'qitish metodikalari va b .) . Musiqqa didaktikasi va uning fanlarga oid metodikalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Musiqqa didaktikasi fanlarga oid metodikalarga tayanadi va bir vaqtning o'zida ularni birlashtiradi. Musiqqa pedagogikasida musiqqa didaktikasining quyidagi asosiy mazmuni, bo'limlari kategoriyalarni ajratish mumkin: musiqqa o'qitish jarayoni, musiqqa o'qitish prinsiplari, musiqqa ta'limi mazmuni, musiqqa o'qitish metodlari va musiqqa o'qitish shakllari.

Musiqqa o'qitish jarayoni — bu o'qituvchi va o'quvchilarning muayyan maqsadga qaratilgan birgalikdagi o'zaro xarakati bo'lib, bu jarayonda musiqqa ta'limi, tarbiyasi va shaxsning musiqiy rivojlanishi amalga oshiriladi. Shu bilan birga, musiqiy ta'lim vazifasi ushbu jarayon uchun ayniqsa o'ziga xosdir. Bu jarayonning asosiy tarkibiy qismlari — o'qitish (bu o'qituvchi faoliyati) va o'qish (o'quvchi faoliyati) hisoblanadi. Ularning didaktik o'zaro ta'sirisiz musiqqa o'qitish jarayoni bo'lmaydi. Musiqqa o'qitish jarayoni musiqqa o'qitish qonuniyatlari va prinsiplariga mustahkam tayanishi lozim, ular o'quvchining imkoniyatlari va musiqiy iqtidoriga asoslanadi, bu esa zarur musiqiy o'rgatuvchi repertuarni to'g'ri tanlash imkonini beradi.

Musiqqa o'qitish prinsiplari eng muhim musiqiy-didaktik qoidalar va talablar tizimini o'z ichiga oladi, ularga rioya qilish musiqiy o'quv jarayonining samarali kechishini ta'minlaydi. O'qitishning umumpedagogik prinsiplari (ilmiyligi, qulayligi, tizimliliigi, izchilligi, o'qitishning hayot bilan bog'liqligi, ko'rgazmaliligi, mavhumligi, ongliligi, faolligi, tarbiyaviy xususiyati, bilim va malakalarning puxtaligi)dan tashqari musiqqa o'qitishning quyidagi maxsus prinsiplari rioya qilish kerak:

- musiqqa o'qitishning o'quvchilarning tabiiy iste'dodlari, iqtidori va ulardagi mavjud musiqiy qobiliyatlarga bog'liqligi;

- musiqani qabul qilish, eshitish, ovoz va ijroni rivojlantirishning bir butunligi;

- hissiy va rasional, badiiy va texnik, shakl va mazmun kabi jixatlarning o'zaro ta'siri va birligi;

- jamoaviy va yakka musiqiy mashg'ulotlar, musiqiy va umumta'lim fanlarining o'zaro bog'liqligi;

- musiqiy qobiliyatlar (tovushning baland-pasgligini, ritm, lad, tembr, kuchini, kuy, ko'povozlik, aniq ijro, musiqiy xotiraning xususiyat shakli, mazmunini xis etish) ni uyg'un holda rivojlantirish.

Musiqqa ta'limining mazmuni musiqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarning pedagogik tizimidan iborat bo'lib, ularni o'zlashtirish o'quvchilarning musiqqa madaniyati va musiqiy qobiliyatlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Musiqiy bilimlar — musiqqa madaniyatining to'plangan tajribasi va uning inson ongida tug'ri aks etishi.

Musiqiy ko'nikmalar — musiqqa san'atidagi g'ayriixtiyoriy yetkazilgan maxsus harakatlar.

Musiqiy malakalar — mavjud musiqiy bilim va ko'nikmalardan tug'ri va samarali foydalanish.

Musiqqa ta'limining mazmuni ijtimoiy buyurtmaning, jamiyatning musiqiy bilimdon inson nimalarni bilishi va uddalay olishi, qanday xislatlarga ega bo'lishiga nisbatan jamiyat quyadigan talablarning pedagogik nuqtai nazardan amalga oshirilishi sifatida qaraladi.

Musiqqa ta'limining mazmunini aks ettiradigan me'yoriy hujjatlar — "Ta'lim tug'risida"gi qonun, Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, nota to'plamlari, xrestomatiyalar, fonoxrestomatiyalar, o'quv video va audio yozuvlari va b.

Musiqqa o'qitish metodlari — bu o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning musiqqa ta'limi masalalarini hal etishga qaratilgan (uslublari, yo'llari) tartibga solingan o'zaro bog'liq, faoliyat tarzi.

Umumiy pedagogikada asosiy tasniflardan birida ta'limning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlari ajratib ko'rsatilgan. Yalpi yondashishda esa ta'lim metodlarining uchta umumlashtiruvchi guruhlari ko'rib chiqiladi:

1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari;
2. O'quv-bilish faoliyatini kuchaytirish va asoslash;
3. O'quv-bilish faoliyati samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Musiqqa ta'limida o'qitish metodlarini yana musiqiy faoliyat turlari (asar yaratish, ijro etish, tinglash)ga, shuningdek tadbirlar turiga - tanlovlar, konsert, imtihon, festival, bayram, master-klasslar (ustozlik sinfi) va boshqa turlarga muvofiq, ajratish mumkin. Musiqqa o'qitish uslublari o'qituvchidan o'quvchiga, shuningdek ochiq, master-klasslar va o'quv-uslubiy adabiyotlar orqali o'tadi.

Musiqqa o'qitish shakli deb musiqqa o'qituvchisi va o'quvchilarning belgilangan va muayyan tartibda amalga oshiriladigan faoliyatiga aytiladi.

Musiqqa o'qitishning asosiy shakli musiqqa darsi hisoblanadi.

Maxsus musiqqa ta'limi tizimida bu musiqqa asbobida ijro etish, qo'shiq, kuylash, dirijyorlik, musiqqa asari yozish, musiqashunoslik va h.k.ga o'rgatish bo'yicha yakka tartibdagi mashg'ulotlardir.

Umumiy musiqqa tarbiyasi tizimida bu musiqqa mashg'ulotlari (bolalar bog'chasida) yoki musiqqa darslari (umumta'lim maktablarida), maxsus musiqqa ta'limidagi guruh, mashg'ulotlari, unda musiqqa mashg'ulotlari doimiy tarkibdagi, bir xil yoshdagi va tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilar guruhi bilan muayyan vaqt davomida va belgilangan jadval asosida o'tkaziladi. O'qituvchi darsga yillik va taqvim rejalar, o'quv dasturlaridan tortib, to dars rejalar, konspekt va hisobotlarga, barcha zarur hujjatlarni tayyorlaydi.

Musiqqa darsidan tashqari sinfdan tashqari va maktabdan tashqari musiqqa tugaraklari ishi, shuningdek konsertlarga, musiqiy spektakllarga, muzeylarga tashrif musiqachilar, bastakorlar bilan uchrashuvlar, kechalar, bayramlar, diskotekalar mavjud.

"Musiqqa tarbiyasi nazariyasi" nomli III bo'limda musiqiy-tarbiyaviy jarayoning mohiyati va qonuniyatlari masalalari, musiqqa tarbiyasining prinsiplari va uslublari, musiqqa vositasida dunyoqarashni shakllantirish, axloqiy, mehnat, jismoniy, estetik, badiiy va musiqqa tarbiyasi mavzulari o'rin olgan.

Musiqqa tarbiyasi — bu shaxsning musiqqa madaniyatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir.

Musiqqa tarbiyasining mohiyati va qonuniyati birinchi navbatda, shaxs shakllanishining ajralmas qismi bo'lib, u kishilik jamiyati taraqqiyotidagi tabiiy qonuniyatdir. Agar musiqqa o'rgatish va musiqqa ta'limi jarayoni muayyan musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish va shakllantirish (ya'ni musiqiy bilimlar majmuini egallash jarayoni)ga qaratilgan bo'lsa, musiqqa tarbiyasi

bu shaxsni ma'naviy, aqliy, jismoniy, estetik, badiiy tarbiyalashda, insoniy fazilatlarni shakllantirishda musiqa madaniyatini tarkib toptirish jarayonidir. Bu yerda musiqa tarbiyasi musiqa ta'limiga nisbatan kengroq tushunchadir.

Shunday qilib, musiqa tarbiyasi bu shaxs bir butun shakllanishining ajralmas qismidir.

Bevosita musiqa tarbiyasi jarayonining *konuniyatlari* orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- musiqa tarbiyasining jamiyat musiqa madaniyatiga bog'liqligi;
- musiqa tarbiyasining musiqaga ta'limi va shaxsning musiqiy rivojlanishi bilan birligi va o'zaro aloqasi;
- musiqa tarbiyasi samaradorligining musiqiy faoliyatning ongliligiga bog'liqligi;
- musiqa tarbiyachisining tarbiyalanuvchi bilan o'zaro aloqalarining mustahkamligi.

Ba'zan musiqa tarbiyasi atamasini tor ma'noda bolalar bog'chalari va umumta'lim maktablarida amalga oshiriladigan umumiy musiqa tarbiyasi sifatida maxsus musiqa ta'limiga qarama-qarshi quyib izohlaydilar. Shuningdek, oiladagi musiqa tarbiyasi va o'z-o'zini musiqiy tarbiyalashni ajratish mumkin.

Musiqa tarbiyasi prinsiplari musiqiy-pedagogik jarayonning barcha tomonlarini, uning mohiyati va maqsadlarini qamrab oladigan talablar va asos qilib olingan qoidalaridir. Musiqa tarbiyasi prinsiplari, birinchi navbatda, umumiy pedagogikada shakllangan quyidagi tarbiyalash prinsiplari tizimiga tayanadi: tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi, g'oyaviy-axloqiy, ma'naviy tarbiya, tarbiyaga kompleks yondashuv, ong va axloqning birligi, mehnat, jamoa vositasida tarbiyalash, shaxsga nisbatan hurmat va oqilona talabchanlik, yoshga xos va individual xususiyatlarni hisobga olish, pedagogik ta'sirlarning izchilliga va tizimliliigi. Musiqa tarbiyasi prinsiplari orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: milliy musiqa madaniyati va uning an'alariga tayanish, jahon klassik musiqasi va musiqa pedagogikasi zamonaviy yutuqlarining o'zaro aloqasi. Umumiy va musiqa tarbiyasi prinsiplariga amal qilgan holda, pedagog ushbu jarayonning samarador, ilmiy asoslangan va boshqariladigan bo'lishiga erishadi.

Musiqa tarbiyasi metodlari — tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchilar o'zaro bog'liq, faoliyatining asosiy usullari bo'lib, ular musiqa tarbiyasi masalalarini hal etishga qaratilgan. Umumiy pedagogikada quyidagi tarbiya metodlari ajratiladi: ishontirish, mashq, rag'batlantirish va jazolash, shuningdek o'quvchilarda qarashlar va e'tiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etish hamda boshqa tarbiya metodlari. Tarbiya metodlarini tarbiya vositalaridan farqlash kerak, ularga, bir tomondan, faoliyatning turli xillari (o'yin, o'quv, mehnat va h . k .) , kiradi, boshqa tomondan — bu moddiy va ma'naviy

madaniyatning predmetlari va asarlari majmui (ko'rgazmali qo'llanmalar, badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, musiqa va tasviriy san'at asarlari, ommaviy axborot vositalari va h. k.).

Musiqa pedagogikasida tarbiya metodlari musiqa san'ati asarlari, ularning shakllari, janrlari, milliy va madaniy xususiyatlari bilan bog'liq, bo'lgan aniq, ko'rinishga ega bo'ladi. Shu tarzda o'quvchida xalq, milliy, mumtoz va zamonaviy musiqaga bo'lgan munosabat shakllanadi. Maxsus musiqa tarbiyasi metodlari umumiy musiqa tarbiyasi metodlaridan hajmi, amalga oshirilish darajasi va xususiyati bilan farq, qiladi. Shuningdek, biz turli davrlardagi, maktablardagi tarbiya metodlarini va musiqa faoliyatining turlarini farqlaymiz. Insonning musiqiy tarbiyalanganligi nafaqat uning mulohazalarida va musiqa san'atiga oid bilimlarida, balki, shuningdek, bir butun musiqa madaniyatiga nisbatan munosabatida va unga erishganligida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, musiqa pedagogikasida umumpedagogik asosda *musiqa tarbiyasining* quyidagi *metodlarini* ajratib kursatish mumkin:

- xalq, musiqasi an'analariga asoslangan tarbiya metodlari;
- umumiy va maxsus musiqa tarbiyasi metodlari;
- milliy musiqa san'ati va madaniyati bilan tanishtirish metodlari;
- axloq, musiqa asarlarini tinglash va ijro etish madaniyati metodlari.

Pedagogikadagi tarbiya metodlari, shakllari va vositalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Agar ta'limda biz o'qitish shakllariga aniq, ta'rif bera olsak va deydik, ta'limning dars shaklini ajratsak, tarbiyada esa shakl ba'zan tarbiya metodlari va vositalari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Misol uchun, tarbiyani tashkil etishning sinf ish, tarbiya soatlari va maktabdagi darslar, ma'ruzalar, baxslar, shaxsiy namuna, topshiriqlar, musobaqalar va b. kabi shakl va vositalari; musiqiy tarbiyadagi musiqa to'garaklari, kechalar, konsertlar, tanlovlar, festivallar, bastakorlar, taniqli musiqachilar bilan uchrashuvlarni hamda va musiqiy tarbiyaning boshqa shakl va vositalarini bir vaqtning o'zida musiqa tarbiyasi metodlari qatoriga kiritish mumkin.

Musiqa vositasida dunyoqarashni, axloqiy, ma'naviy, aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani shakllantirish o'ziga xususiyatlarga ega. Dunyoqarash deganda biz insonni o'rab turgan voqelikning turli-tumanligiga nisbatan uning munosabati va qarashlarini tushunamiz. Axloqiy, ma'naviy tarbiya insonparvarlik, axloq, insonga, uning ma'naviyati, niyat va harakatlarining pokligiga ishonch, jamiyat axloq normalarini ishlab chiqish, Vatanga muxabbat, vatanparvarlik, baynalmilallik va boshqa tushunchalar bilan bog'liq. Musiqa san'ati ana shu hissiyotlarni tovushli badiiy obrazlarda ifodalaydi. Musiqiy badiiy obrazlarning nozikligi, ohangdorligi, lirikligi eng nafis va noyob tuyg'ularga ta'sir etish

imkonini beradi. Shu bilan birga, aniq, ritm, dramatism, ohanglar keskinligi, tantanavorlik, garmoniyaga boyligi insonda dadillik, g'urur, jasoratga, Vatanni himoya qilishga tayyorlik tuyg'ularini uyg'otadi. Boshqa bir musiqa xayol surishga chorlaydi, mehnatda yordam beradi. Bular musiqaning xususiyatiga bog'liq narsalardir. Musiqa bilan bevosita shug'ullanish esa katta ma'naviy, aqliy va jismoniy mehnat hisoblanadi. Musiqa san'atida jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat beriladi. Musiqachining ish tartibi, gigienasi, jismoniy mashqlar (xonandalardagi ovoz apparati; damli cholg'u sozandalarida lab, til, nafas olish; skripkachilar, pianinotchilar va boshqa cholg'uchilarda qo'llar va ularning tug'ri quyish, gavda, yelkalar, boshning holati)ning barchasi jismoniy rivojlanish va mashqlar bajarishning alohida metod va shakllarini, demak, musiqachining jismoniy madaniyatini tarbiyalashni talab etadi.

Estetik, badiiy ibtido musiqa tarbiyasining asosi hisoblanadi. Estetika insonning o'zini o'rab turgan vokelikka nisbatan badiiy ijodiyot sohasidagi qadriyatlarga oid munosabatlarning estetik (hissiy) namoyon bo'lish qonuniyatlari haqidagi umumiy fan. Ko'pincha ma'lumotnomalarda musiqiy tarbiya estetik, badiiy tarbiyaning bir qismi deb ataladi. Haqiqatda ham shunday, chunki estetika fan sifatida, shuningdek estetik tarbiya nuqtai nazaridan barcha san'atlar va boshqa hayotiy voqealiklar uchun umumiy bo'lgan tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Emotsional-hissiy sezgirlik hamda go'zallik va bema'nilik, ko'tarinkilik va tubanlik, yuksak badiiylik va qabihlik, hajviylik va fojiaviylikka nisbatan baho beruvchi mushohada yuritishni ko'rib chiqadi. Shu sababli, tabiiyki, musiqa san'ati tasviriy san'at, teatr, kino, raqs, adabiyot kabi san'at turlari bilan bir qatorda insonni estetik va badiiy tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Estetik, badiiy tarbiya san'at sohasida did, yuksak g'oyalar, qobiliyat, mustaqil ijod kabilarni shakllantirishga qaratilgan. Bu hayotimizni ma'naviy jihatdan boyitadi, uni mazmunli, yanada go'zalroq, va ko'tarinkiroq qiladi.

Musiqa tarbiyasi — insonning jamiyat musiqa madaniyatiga aralashish jarayonidir. Musiqa tarbiyasi tizimi umumiy va maxsus musiqa pedagogikasi metodlari majmuasiga asoslanadi. Bolalar va o'smirlarni musiqaga oshno qilishning asosiy shakllari — musiqa adabiyotlari bilan tanishish (musiqa asarlarini tinglash), ijrochilikning turli shakllarida (masalan, xor bo'lib kuylash), musiqali o'yinlar, musiqiy tele- va radioeshittirishlar, musiqa hakidagi kitoblar, ma'ruzalar.

Musiqa tarbiyasi musiqaning tabiiy, maftunkor va ijobiy ta'sir kuchiga asoslanadi. Ona allasidan boshlab qalbimizda musiqa yangraydi. Volter shunday degan edi: "Inson qalbining tubiga faqat musiqa etib borishi mumkin". Abdulla Avloniy o'zining "Musiqa" nomli she'rida shunday yozadi:

Koinota chiq uyingdan, aylagil bir iltifot,

Shaklingni ko'rganda, sendan ruh kasb aylar hayot.

*Nag'masozingdur madori jism, qudsiy so'zlaring,
Ruhbaxshodur sado qilganda, Hijron, ko'zlaring.*

Buyuk pedagog V.A.Suxomlinskiy "Musiqqa yaxshilik, go'zallik, insoniylikka da'vat qilishning eng mo'jizakor, eng nafis vositasidir" degan haqqoniy fikrni bildirgan edi.

"Musiqqa ta'limi va tarbiyasi tizimini tashkil etish va boshqarish" nomli IV bo'limda tizimning umumiy asoslari, alohida qismlari, musiqqa o'qituvchisi va tarbiyachisining vazifalari, mazkur tizimning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari masalalari ko'rib chiqiladi.

Umumiy pedagogikada ushbu bo'lim "maktabshunoslik" deb ataladi, chunki unda umumta'lim maktablarini boshqarish masalalari muhokama qilinadi. Musiqqa pedagogikasining mazkur kursida musiqqa ta'limi va tarbiyasi tizimi boshqaruvining barcha bo'linmalari: maktabgacha musiqqa tarbiyasi (yasli, bolalar bog'chalari), umumta'lim maktablari, bolalar musiqqa va san'at maktablari, akademik litseylar, kollejlar, oliy ta'lim muassasalari, bolalar ijodiyot uylari, studiyalar, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash institutlari, shuningdek oilada musiqqa tarbiyasi va mustaqil musiqiy bilim olish kabilar yoritilgan.

Musiqqa ta'limi va tarbiyasini tashkil etish va boshqarishning mazkur butun tizimi mustahkam huquqiy, metodik va tashkiliy asosga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (1992), O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tug'risida"gi qonuni (1997), Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997), maktabgacha ta'lim muassasalari uchun namunaviy dasturlar — "Maktabgacha yoshdagi bolalarning tayyorgarlik darajasiga nisbatan davlat talablari" (2000), "Uchinchi ming yillikning bolasi" (2000), "Maktablar uchun davlat ta'lim standartlari" (1993), aspirantura va ilmiy ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish tug'risida"gi qarori (2002), musiqachi-ijrochilar uchun aspirantura darajasidagi assistentura-stajirovka, malaka oshirish institutlari va fakultetlari ishini takomillashtirish bo'yicha turli qarorlar, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2008 yil 8 iyuldagi "Bolalar musiqqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi tug'risida"gi qarori va musiqiy ta'lim va tarbiya tizimining ishonchli faoliyatini ta'minlovchi boshqa ko'plab hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu tizimning har bir bo'linmasi o'z nizomi, o'quv rejasi, dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar va barcha zarur me'yoriy va o'quv hujjatlariga ega. Mazkur tizimga umumiy rahbarlik va moliyaviy ta'minlash O'zbekiston Respublikasining sohaviy vazirligi va idoralari — Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Xalq, ta'limi vazirligi,

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, shuningdek ularning bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Musiqqa ta'limi va tarbiyasini tashkil etish va boshqarish tizimining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: rejalilik, markazlashtirilganlik, hisobot berish, jamiyat ehtiyojlariga bog'liqlik, iqtisodiy-metodiy va kardrlar bilan ta'minlanganlik, musiqiy va umumiy ta'lim va tarbiya nisbatining samaradorligi, musiqqa ta'limi va tarbiyasi soxasidagi musiqiy an'analar va zamonaviy jahon yutuqlarini hisobga olish.

Musiqqa o'qituvchisi va tarbiyachisi — bu o'ziga xos kasbdir. Iste'dod, ajoyib musiqiy-ijrochilik ko'nikmalari, musiqqa san'atiga oid bilimlari, pedagogik mahoratga ega bo'lishdan tashqari, musiqqa o'qituvchisi o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini aniqlashga sezgirlik bilan yondashishi va bu qobiliyatlarni samarali rivojlantirish uchun zarur musiqqa repertuarini tug'ri tanlashi kerak.

Musiqqa tarbiyachisi, rahbari, musiqqa o'qituvchisining ijodiy faoliyati mahsuldor bo'lishiga o'quv adabiyotlari, shuningdek maxsus me'yoriy, o'quv hujjatlari: o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar, nota to'plamlari, fonoxrestomatiyalar, shuningdek taqvim rejalari, dars rejasi, dars konspektlari, jurnallar, testlar, reytinglar, hisobotlar va boshqa shu kabilar yordam beradi. Ushbu yozma hisobot ko'pincha ijodiy xodimga og'irlik qiladi. Ammo, pedagogikada rejalashtirilgan va bajarilgan ish, sinf va uy vazifalari, o'quvchilarning erishgan, rivojlantirilgan va rivojlantirilishi zarur bo'lgan musiqiy qobiliyatlari, o'tilgan va o'zlashtirilishi mo'ljallangan musiqqa materialini qat'iy hisobga olmasdan rivojlanishning izchilligi va o'zluksizligiga rioya qilib bo'lmaydi, bu esa musiqqa ta'limi va tarbiyasini tashkil etish va boshqarishning butun tizimi samarali ishlashini izdan chiqaradi. Ushbu hujjatlarni yuritishga musiqqa o'qituvchi va tarbiyachilari mustaqil ish jarayonigacha, o'rta va oliy ta'lim muassasalarida o'qish davrida tayyorlab boriladi, ish jarayoni esa mazkur muassasa rahbarlari tomonidan nazorat qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy musiqqa ta'limi va tarbiyasi milliy va jahon musiqqa madaniyatini tobora ko'proq, o'zlashtirish yo'lidan bormoqda, musiqqa pedagogikasining xalq an'anaviy shakllarini saqlagan holda, uning ilg'or zamonaviy shakl va metodlar joriy qilinmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar reyting, test, axborot, kompyuter tizimlari — jonli tovush, jonli ijro va musiqalashtirishda bevosita ishtirok etish bilan tobora ko'proq, bog'liq, bo'lib borayotganligiga qaramasdan, avvalgidek musiqqa san'atida yanada ko'proq, estetik zavq uyg'otmoqda, Aftidan, zamonaviy texnologiyalar va musiqqa san'atining jonli xususiyatini umumiy nuqtalarini izlab topish, ularning imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

O'zbekiston Respublikasida musiqa ta'limi va tarbiyasi borasida ommaviy axborot vositalari — radio va televideniya, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi, boshqa ijodiy birlashmalar, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, pedagogika universitetlari va institutlarining musiqa fakultetlari va bo'limlari hamda boshqa ko'plab oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari katta ish olib bormoqdalar. Bu ishda "Sog'lom avlod uchun", "Forum", "Ustoz" jamg'armalari va boshqa tashkilotlarning ko'rsatayotgan yordamlari katta. 1997 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida 1 oktyabr "Ustoz va murabbiylar kuni" sifatida nishonlanib kelinmoqda. Respublikaning ko'plab musiqachilari va musiqiy jamoalari xalqaro tanlovlarda, konsertlarda, festivallarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, faxrli "Gran Pri" hamda laureatlik diplomlarini qo'lga kiritmoqdalar.

"Musiqa pedagogikasi" mazkur kursining ilovasida seminar mashg'ulotlari uchun taxminiy savollar, kitobning oxirida esa zarur adabiyotlar ruyxati berilgan.

2 - mavzu: O'zbekistonda musiqa pedagogikasining eng qadimgi davrlarida XVII asrgacha davrdagi rivojlanishi.

Reja

- 1. X-XI asrgacha bo'lgan davrdagi musiqa madaniyati.**
- 2. "Avesto" va uning yaratilishi.**
- 3. O'zbek xalqining qahramonlik dostonlari**

O'rta Osiyo xalqlari qadimgi ajdodlarining musiqali poetik ijodi. O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega, ko'pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan xalq hamda og'zaki an'anadagi professional musiqa san'ati bu haqda guvohlik beradi. Moddiy madaniyat yodgorliklarining tasdiqlashicha, bugungi O'zbekiston territoriyasida O'rta Osiyo xalqlari ajdodlari yaratgan qadimgi sivilizatsiya mavjud bo'lgan. Arxeologiya ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari (sharq poetik ijodiyoti asarlarida tasvirlangan miniatyuralar), sharqshunoslarining yangi tadqiqotlari va, nihoyat o'rta asrdagi O'rta Osiyo olimlarining musiqiy risolalari tarjimai o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

O'zbek xalqi ajdodlarining musiqa sarchashmalari O'rta Osiyo territoriyasida yashagan qardosh xalqlar, birinchi navbatda tojik xalqi ijodi bilan mustahkam bog'langan. Bu musiqa asarlarning X-XI asrgacha (ya'ni bu xalqlar aktiv chegaralangunlarigacha) o'zida bir butunlikni ifoda etdi, keyinchalik u o'zbek va tojik musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun umumiy asos bo'lib xizmat

qildi.

O`rta Osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi taxminan bizning eramizgacha bo`lgan birinchi ming yillikdan boshlanadi. Bular o`trok dehqonlar (sug`diylar, baktriyaliklar, xorazmiylar) hamda ko`chmanchi (saklar, massagetlar va boshqa) qabilalar edi. Ular haqidagi ma`lumotlar Avestado ham uchraydi. Xalq poetik va musiqa san`atining boshlanishi o`sha davrlarga borib taqaladi. Xalq poetik va musiqa san`ati dastlab sinkretik holatda bo`lgani to`g`risida Avesto kitobi va boshqa qadimgi yozma yodgorliklar, turmushi, ularning urf-odatlarini, to`y-tomoshalarining elementlaridan guvohlik beradi, yuksak salohiyati yunon, rim va xitoy manbalarida ham yakdillik bilan e`tirof etilgan. Ayrim ilmiy qarashlarga ko`ra, Xorazm ko`hna zardo`shtiylik dinining muqaddas kitobi bo`lmish "Avesto"ning vatani hisoblanadi. Tadqiqotlarning dalolat berishicha, "Aryanim Veyjo" deb ataluvchi Avesto makoni o`zining qahraton sovug`i, jazirama issig`iga ega bo`lgan hamda yerlari tars yoriladigan va ilonlari ko`p o`lka, deb ta`riflanadi. Darhaqiqat, Orol fojeasidan oldingi davrlarda, yuqorida aytilgan keskin kontinental iqlimni, taqir yerlarning xuddi qovun to`riga o`xshab yorilishini, ilonlar uy hayvonlaridek tomu omborlarda yashab yurishini butun mintaqa bo`yicha ko`proq Xorazmda ko`zatish mumkin edi. Zardo`shtlik urf-odatlarining qiyofasi biroz o`zgargan holda Xorazm vohasining bugungi hayot tarzida ham ko`plab ko`zatiladi. Ularning hammasi qo`shimcha dalil sifatida ko`zlayotgan fikrimizning isbotiga hizmat etishi mumkin.

"Avesto"ning o`zi aslida ijro vositasida og`zaki tarqalib, faqat keyinchalik kitob shakliga keltirilgan arkonlar majmuasidir. Uning oyatlari va ayniqsa, madhiyalar qismini tashkil etuvchi - xatlar (bunda so`z oxiridagi "t" harfi juda yumshoq talaffuz etilib, so`nggi davrlarda "goh" shakliga aylanganligi ham ehtimoldan xoli emas: - yakgoh, dugoh, segoh va h.k.) maxsus kuy tizimini tashkil etuvchi ohanglarda yoqimli ovoz bilan tarannum etilgan, deb topilmoqda.

"Avesto"da "sruna" deb ataluvchi "sirli eshitish" tushunchasi bo`lgan ekan. Tinglash, quloq orqali vujudga ozuqa olishni zardo`shtiyalar muqaddas tuyg`u hisoblaganlar. Dini islomda esa eshituvchilik (same`) hissi Allohning sifatlaridan biri!

Qizig`i shundaki, zardo`shtiyalar faqat unli tovushlar go`zalligidan emas, balki olov hovri (kuyi), hattoki jimlikni eshitib lazzatlanishga odatlangan ekanlar. Musiqa badiyat, san`at sifatida tom ma`noda ijro etish va uni eshitishdan boshlanadi. Sozanda kuyning yaratuvchisi bo`lsa, eshituvchi uning qabul qiluvchisidir. Xalqimizda "sozandaga chinakam baho beruvchi, uning ustozini va talabgori - eshituvchi" degan gap bor. Bunda tushunib eshituvchi - xos shinavanda ko`zda tutiladi, albatta.

Mumtoz musiqamizning "zamzama", "tarona" (eski shakli "taronik" –

“taronacha”, "buxorcha", "farg'onacha"ga o`xshagan uslub tushunchasi), "suvora" ("asp ros") kabi iboralarining ildizlari ham "Avesto" davrining urf-odatlariga borib taqaladi. Zikr etilgan eski musiqiy belgilar, keyingi davrlar mafkurasiga binoan yangicha ma'no va mazmunlar bilan to'ldirilgan, albatta. qanday bo'lmasin bu ramzlar zamonlar osha bizgacha moziydan yetib kelgan sadolarga aloqador so'zlardir.

Buni arxeologiya, etnografiya va boshqa fanlar bergan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Siftsiz jamiyat sharoitida O`rta Osiyoda musiqa asboblarning asosiy - ya'ni o`rib chalinadigan, puflab chalinadigan va torli sozlar turlari vujudga kelgan edi.

Urug`chilik jamiyatining yemirilishi va sinfiy jamiyatga o`tish, Baktriya, Sug`diyona va Xorazmda davlatlarning paydo bo`lishi, axmoniyning harbiy-ma'muriy jihatdan birlashuvlari, Aleksandr Makedonskiy davlati, Grek-baktriya podsholigining vujudga kelishi eramizdan oldingi VII asrdan to eramizning IV asrigacha bo`lgan juda katta tarixiy davrni o`z ichiga oladi. Bu davr epik xarakterli mifologik qahramonlik ustun bo`lgan qadimgi og`zaki musiqali poetik ijodning yuzaga kelishi bilan mashhurdir. Qahramonlik afsonalari, epik qo`shiqlar O`rta Osiyo xalqlarining o`z mustaqilliklari uchun olib borgan mardonavor kurashlarining bo`yoqdor tasvirlari bilan to`la. O`z xalqining ozodligi yo`lida jonini qurbon qilgan cho`pon Shiroqning mislsiz jasorati, vatanga bo`lgan muhabbati to`g`risida hikoya qiluvchi Sak afsonalaridan parchalar bizning kunlarimizgacha saqlanib kelgan.

Masalan, Rustam va uning janglari, malika Taxminaga bo`lgan muhabbati, tanimagan otasi qo`lida qatl qilingan o`g`li Suhrobning o`limi to`g`risida hikoya qiluvchi qo`shiqlar mustaqil marosim tomoshalariga aylanib ketgan. Keyinchalik bu qo`shiqlar tojik xalqining ajoyib eposi - «Shohnoma»da o`z aksini topdi. Rustam, Siyovush va boshqa bahodirlar to`g`risida afsonalar sikli yaratildi. Xudolarga sig`inish bilan bog`liq bo`lgan turli xil marosimlarda ham qo`shiq aytilgan. Bu haqda Avestoda bayon qilingan. Avesto gimnlari (yashtlar)ning o`zi rechitativ tarzida ijro etilgan. Gimnlar xor bo`lib aytish mumkin bo`lgan band va takrorlanuvchi naqoratli yarim nasriy, yarim vaznli rivoyatlardan iborat bo`lgan. Xudolarga sig`inish bilan bog`liq bo`lgan marosimlarda muqaddas olov atrofida qo`shiq aytilgan, raqs tushilgan. Xalqning bayram marosimlari, masalan: bahorda kun va tunning baravarlashuvi-Navro`z keng tarqalgan edi. O`rta asr yozuvchilari musiqaning mehnat marosimlaridagi roli, insonning musiqani olam tuzilishi bilan tabiatdagi o`lish va tirilish haqidagi miflar bilan bog`lashga bo`lgan intilishlarini ham ko`rsatib o`tganlar. O`rta Osiyoning yirik davlatlari territoriyasida vujudga kelgan zo`ravonlikning mustahkamlanishi ularni atrofdagi davlatlar bilan yanada yaqinlashtirdi:

O`rta Osiyo(eramizdan oldingi IV asrdan eramizning III asrigacha) Aleksandr Makedonskiy davlati tarkibiga, keyinchalik esa Grek-baktriya podsholigi tarkibiga kirgan edi. O`rta Osiyo tarixida antik deb nomlangan bu davr madaniyatda aks ettirilgan. Grek musiqa asboblarining tasviri saqlanib qolgan. Masalan, Ayritom frizida qo`sh avlosni uchratish mumkin.

Qadimgi O`rta Osiyodagi antik madaniyatning ko`pgina musiqa asboblarida (nay, ud, doira) sof mahalliy xususiyatlar mavjudligini ko`rsatib berdilar. Mahalliy traditsiyalarning yunon, hind va boshqa traditsiyalar bilan chatishib ketishi sozlarda ham aks etgani o`sha davr madaniyatining o`ziga xos xarakterda bo`lganini nazarda tutadi. Garchi Gretsiyaning O`rta Osiyo musiqa madaniyatiga ta`siri o`rta asrdagi O`rta Osiyolik olimlarning musiqaga oid risolalarida uchratish mumkin bo`lsa ham, vaqtlar o`tishi bilan bu ta`sir yuqola bordi.

Kichik terrakotiv haykaltaroshlik O`rta Osiyo antik madaniyatining yorqin yodgorligi hisoblanadi. Afrosiyob (qadimgi Samarqand shahrining o`rni)dan topilgan ko`pgina haykalchalarda aksariyat nay, ud, doira chalayotgan sozandalar tasvirlangan. Ko`plab topilgan haykalchalar musiqaning sug`dlar va ularning poytaxti bo`lgan Samarqand hayotidagi ahamiyati to`g`risida guvohlik beradi.

X-XI asrlarda O`rta Osiyodan chiqqan Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Abu Abdullo Xorazmiy kabi olim va mutafakkirlar tomonidan Sharq musiqa ilmi asoslari yaratildi, musiqa atamalari tizimi shakllandi. Sharq musiqashunoslik fanining gullab - yashnagan bu davrida bitilgan e`tiborli musiqiy manbalarni o`rganish quyidagi xulosalarga olib keldi: X-XI asrlar Sharq musiqashunosligidagi sof ilmiy yo`nalish asoschilari bo`lgan Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Xorazmiyning asarlarida qo`llanilgan musiqa atamalari, musiqa ilmuni bayon etish tamoyillari – o`xshash. Ularning musiqa ilmiga oid asarlarida vorisiylik an`analari ko`p jihatlarda ko`riladi. Mazkur manbalar Sharq musiqashunosligidagi yutuqlarini yangi davr talablari asosida rivojlantirdi hamda Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining mahalliy musiqa amaliyotiga suyangan holda sof ilmiy yo`nalishda musiqa nazariyasini yangi, yukoqi pog`onaga ko`tardi. Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Xorazmiy tomonidan arab tilida yaratilgan musiqa ilmiga xos kitoblarda ilk bor musiqa san`atining nazariy asoslari ilmiy jihatdan ishlab chiqildi, ovoz, nag`ma, bu`d, jins (tetraxord) – jam tizimi tartibga solindi, iyko, vazn, usul nizomi asoslab berildi, musiqiy atamalar tizimi yaratildi va umumiy musiqa madaniyatiga oid qimmatli daliliy ma`lumotlar keltirildi. Bu asarlarga hozirgacha yashab, rivojlanib kelayotgan musiqa merosining an`anaviy ko`rinishlari, shakllari asos bo`lgan va shularga asosan musiqiy tafakkur o`z aksini topdi. Qadim yunon mutafakkiri Platon (Aflotun) ning “musiqa - davlat haqidagi ta`limotning tarkibiy qismi” va Aristotel (Arastu) ning “musiqa - she`riyat nazariyasining bir bo`lagi” degan qarashlaridan farqli o`laroq, XXI asrlar O`rta Osiyo mutafakkirlarining

musiqa ilmiga oid ilmiy asarlari Sharqda mustaqil musiqashunoslik fani vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Shunisi ham qiziqarliki, ularning andozasi, ulardagi musiqiy atamalar, keyinchalik Yakin va O'rta Sharq xalqlari tillarida, jumladan, forsiy, turkiy va urdu tillarida yozilgan risolalarga ham kirib keldi va iste'molda sobit qoldi. Demak bu qadim arabiy manbalarni o'rganish nafaqat XIII asrdan keyin bitilgan, "...maqom masalasi musiqa nazariyasining eng yirik va tub masalalaridan biri O'rta Osiyodan chiqqan olim va mutafakkirlar Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Abu Abdulloh Xorazmiy XI asrlar Sharq musiqa ilmining shakllanishiga va rivojiga asosiy va hal qiluvchi hissa ko'shganlar. Musiqaning kelib chiqishini turli afsonalar, diniy rivoyatlar bilan bog'lamagan holda ilmiy yondashuv bilan sharhlagan bu zotlar musiqa ilmini matematikaning tarkibiy qismi deb qaraganlar va ular yaratgan bu sof ilmiy yo'nalish xalflar tomonidan qabul qilingan. Xususan, Safiyuddin Urmaviy (1216-1294), Qutbiddin Sheroziy (1236-1310), Abdulqodir Marog'iy (XIV asr), Mahmud Omuliy (vafoti 1349), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Zaynulobidin Husayniy (XV asr), Najmiddin Kavkabiyy (XVI asr), Darvish Ali Changiy (XVII asr) kabi allomalar Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Xorazmiy asos solgan ilmiy yo'nalishidan borganlar.

X-XI asrlar Sharq musiqashunosligining yozma yodgorliklarini manbashunoslik va matnshunoslik jihatidan o'rganish XX asrning o'ttizinchi yillaridan qizg'in pallaga kirdi. Bu xayrli ishning peshqadami buyuk fransuz olimi Baron D'Yerlanje bo'ldi. 1930 – 1939 yillar davomida uning Parijda nashr ettirilgan "Arab musiqasi" nomli ko'p jildlik asarida o'rta asrlarda arab tilida yaratilgan musiqiy-nazariy risolalardan asosiylari fransuzcha erkin tarjimasini, tahlili va sharhi bilan berilgan edi. Biroq bu ulkan ish tarkibiga risolalarning asl matnlari kirmagan. Hozirgi kun nuqtai nazaridan musiqa atamalarining sharhida noanikliklar bordek tuyuladi. Bu noanikliklar Sharq (arab) musiqa atama va tushunchalarini Yevropa xalqlari musiqa atama va tushunchalariga moslashga harakat qilishda ham bo'lishi mumkin. Ammo D'Yerlanjening mazkur asari o'z qiymatini yuqotgan emas, o'rta asrlar Sharq musiqa ilmiga tegishli risolalarni o'rganuvchilar uchun u hamon qimmatli manbadir. Mashhur ingliz sharqshunosi H.J. Farmerning qator ilmiy asarlari o'rta asrlarda yozilgan arab tilidagi musiqiy risolalarning tarixiy jarayondagi o'rnini belgilab berdi. Shu bilan birga Yevropa musiqasiga ko'rsatgan ta'siri va qadimiy yunon musiqa nazariyasi bilan bo'lgan aloqasini ham ko'rsatdi. Nomlanishidan qat'iy nazar, aslida arab tilida yozilgan o'rta asrlar musiqa ilmiga oid kitoblar haqidagi H.J.Farmerning "Arab musiqasi tarixi" va "Arab musiqasi manbalari"³ kabi katta asarlari bilan birga, o'rta asrlar Sharq musiqa ilmining yirik namoyandalari Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Roziy va boshqalarga bag'ishlangan ixchamroq hajmdagi ishlari va tarjimalari ham

e'tiborlidir. Xususan, Abu Abdulloh Xorazmiyning "Ilmlar kalitlari" asarining musiqa haqidagi kichik bobining Farmer tomonidan qilingan inglizcha tarjimasi va sharhi yuqori baholanadi. Ularda arabcha musiqiy atama va tushunchalarning tarjimasigina emas, balki talaffuzi ham transkripsiyada berilgan. Germaniya bilan hayotini bog'lagan misrlik Mahmud Hafniyning ham bu sohadagi hizmatlari katta. 1931 yil Ibn Sinoning "Najot" nomli qomusiy asarining musiqa qismini u nemis tiliga tarjima qilib, tadqiq, sharh, nemis tilidagi tarjima va arabcha matni bilan Berlinda nashr ettirdi. Mahmud Hafniy o'rta asrlarda yozilgan arab tilidagi musiqiy risolalarning o'rganish tashqilotchilaridan biri sifatida xayrli ishlar qildi. U Forobiyning **كتاب الموسيقى الكبير** "Katta musiqa kitob" ining va Ibn Sinoning **جوامع علم الموسيقى** "Musiqqa ilmi to'plami" ning tanqidiy matnlari nashr etilishida jonbozlik ko'rsatdi va ularga kirish so'zlar yozdi. Mahmud Hafniy nemis sharqshunosi E.Neubauer bilan hamkorlikda Forobiyning **كتاب إحصاء الإيقاع** "Iyko sanog'i kitobi" va Ibn Sinoning **كتاب الشفاء** "Shifo kitobi" ning musiqa haqidagi qismini nemis tiliga tarjima qilib, nashr ettirdi. E.Neubauerning o'rta asrlar musiqiy risolalari xususidagi ilmiy asarlari ichida Forobiyning iyko nazariyasiga bag'ishlangan ishlari yuqori baholanadi. Eronlik ustoz Mehdiy Barkashli Forobiy va Ibn Sino musiqiy- nazariy qarashlarini tadqiq etish davomida manbalarni o'rgandi va bu masalaga bag'ishlab "Ibn Sino musiqasi" va "Forobiy musiqasi" atalmish asarlarini e'lon qildi. Eronlik sharqshunoslarning bu borada qilgan ishlari ichida yana Abu Abdulloh Xorazmiyning **مفاتيح العلوم** "Ilmlar kalitlari" qomusiy asarining qo'lyozmalarini o'rganib, to'laligicha Xadiujam tomonidan bajarilgan forsiy tarjimasini ko'rsatib o'tish mumkin. X-XI asrlarda O'rta Osiyodan chiqqan olimlar tomonidan arab tilida yaratilgan musiqa ilmiga oid uch muhim asar qo'lyozmalari XX asr arab sharqshunoslari tomonidan tadqiq etilgan, tanqidiy matnlari to'zilgan va nashr etilgan. Birinchisi, Ibn Sinoning **جوامع علم الموسيقى** "Musiqqa ilmi to'plami" ning tanqidiy matni 1956 yil Kohirada nashrdan chiqdi. Tanqidiy matn va kitob muqaddimasini Zakariya Yusuf tayyorlagan. Mukaddimada "Musiqqa ilmi to'plami" ning mavjud va ma'lum qo'lyozmalari haqida gap boradi. Kitobda yana Mahmud Ahmad Hafniyning kirish so'zi bor. Kirish so'zida o'rta asrlar Sharq musiqashunosligi, Kindiy, Forobiy va Ibn Sino musiqiy-nazariy qarashlari muhokama qilinadi va tanqidiy matnni tayyorlashda foydalanilgan qo'lyozmalardan ikkitasiga baho beriladi. Umuman, Ibn Sinoning "Musiqqa ilmi to'plami" asarining tanqidiy matni uchun yozilgan muqaddima ilmiy jihatdan kamtarona yozilgan. Ikkinchisi 1964 yil Zakariya Yusuf Ibn Zaylaning **كتاب الكافي في الموسيقى** "Musiqqa oid tuliq kitob" ining tanqidiy matnini chop etdi. Nihoyat, 1967 yili G'attos Abdulmalik Hashaba Forobiyning **كتاب الموسيقى الكبير** "Katta musiqa kitobi" ning tanqidiy matnini ilmiy sharhi bilan e'lon qildi. Mazkur tadqiqotga Mahmud Ahmad Hafniy muharrirlik qildi va kirish so'zi yozdi. Bundan

tashqari, tanqidiy matn oldidan tadqiqotchi G'attos Abdulmalik Hashabaning mukaddimasi bor. Ustoz Hashaba betma-bet berib borgan sharhlar hajmi tanqidiy matnning hajmidan ancha katta. Matnning sharhi ilmiy tomondan puxta jihozlangan. Ammo musiqiy – nazariy masalalarning tahlilida ham, musiqiy atama va tushunchalarning sharhida ham, hamma narsani arabchalashtirishga moyillik bor. Shunga qaramay, bu sohada shu vaqtgacha bajarilgan ishlar ichida ustoz G'attos Abdulmalik Hashabaning mazkur tadqiqoti o'z ilmiy salohiyati bilan eng qimmatli ishlardan hisoblanadi. Qozog'istonda Forobiy ilmiy merosini o'rganishga katta e'tibor beriladi. Jumladan, uning musiqiy-nazariy merosini tadqiq etish borasida ham muvaffaqiyatli ishlar qilingan. A.K.Kubesovning "Matematcheskoye naslediye Al-Farabi" asari shunday ishlar jumlasidandir. Unda Forobiyning musiqashunoslik bo'yicha yozgan risolalari haqida, xususan "Katta musiqa kitobi" qo'lyozma matnlari, nashri va ayrim qismlarining tarjimalari haqida bibliografik ma'lumotlar bor. Audanbek Kubesovning matematik tahlilga bag'ishlangan qayd etilgan asari va Saida Daukeyevaning «Filosofiya mo'ziki Abu Nasr Muxammada al-Farabi» nomli yirik tadqiqoti X-XI asrlar Sharq musiqashunosligining yozma yodgorliklarini o'rganishda musiqashunoslar, tarixchilar va tilshunoslar uchun ham katta qiymatga ega manbalardandir. O'rta asrlar Sharq musiqashunosligining yozma yodgorliklarini o'rganish borasida O'zbekiston va Tojikistonda muayyan tajriba orttirilgan. Bu tajriba asosan fors tilidagi manbalarga tegishli. Ustazoda san'atkor va sharqshunos olim Is'hok Rajabovning harakatlari bilan Moskvada 1967 yili, jumladan, Forobiy va Ibn Sinoning musiqa ilmiga oid risolalaridan ayrim qismlar I. Rajabov va A. Sagadeyev tarjimasi, izohlari bilan nashr etildi. Tojikistonda bajarilgan ishlarning eng salmoqlisi va eng muhimi B.A.Rozenfeld va N.A.Sadovskiy franso'z tilidan rus tiliga tarjima qilgan, S.Umarov va B.A.Rozenfeld esa kirish so'z va izohlar tayyorlab nashr ettirgan Ibn Sinoning "Donishnoma" atalmish qomusiy asarining matematika ilmlariga oid boblaridir. Uning musiqa ilmiga oid bob tarjimasi va izohlari juda mukammal bo'lsa ham, asar o'zi yozilgan fors tilidagi qo'lyozmalardan emas, fransuz tarjimasidan rus tiliga ugirilganligi sababli musiqiy atama va tushunchalar yevropalashtirilgandek tuyuladi. Forobiy va Ibn Sinoning musiqa ilmiga oid arab tilidagi asarlariga oid musiqashunoslik bo'yicha tadqiqotlar ham mavjud. Tadqiqot ishlarida ba'zilar g'arb tillaridagi tarjimalarga, ba'zilar fors tilidagi tarjimalarga asoslanadilar. Tadqiqot ishlarida fakat g'arb tillaridagi tarjimalargagina suyanganlar ham xato qiladilar. Masalan, Forobiy dunay [دو ناي] (ko'shnay) deb yozsa, fransuzcha tarjimadan foydalanganlar Forobiy "dubaye" degan, deydilar. Faqat fors tilidagi tarjimalarga suyanganlar ham xato qiladilar. Masalan, Forobiy "U (Katta musiqa kitobi) ikki kitobdan iborat" desa, fors tili

orqali bajarilgan tarjimalarida ikki kitobning o'rniga uch kitob deyiladi, musiqani ohang, nag'mani tovush, mashhur musiqachi Ibn Surayj Ibn Sarih deb tanitiladi.

O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalar qatori musiqa madaniyatida ham juda katta o'zgarishlar yo'z berdi. O'rta Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan bo'lgan o'zbek xalq madaniyati va ma'naviyati tarixini uning tarkibiy qismi bo'lmish musiqa madaniyati tarixini o'rganishga alohida ehtibor berila boshlandi.

Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishini, komil inson shaxsining shakllanishini milliy musiqa merosimizsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, milliy mustaqillik tufayli xalqimizni ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ma'naviyat sarchashmalaridan bahramand etish, ma'naviy qadriyatlarmizni tiklash, keng targ'ib etish imkoniga ega bo'ldik.

Musiqa madaniyatining qadimiy ildizlari Avesto yodgorligi bilan bog'lanib ketadi. Zardushgox dastlab badixa yo'li bilan ijro etilgan qo'shiqlardir. Avestoning marosimiy qismlari (yasna), Axuramazda va boshqa mahbudlarga bag'ishlangan madhiyalar ham aslida muayyan ijro yo'llari bo'lgan yakkaxon va ommaviy qo'shiqlardir. Buni Qur'oni Karimning qiroat usullariga o'xshatish mumkin. Yuksak musiqa madaniyati ildizlarini arxeologik yodgorliklarda ham uchratish mumkin.

Panjikent, Ayritom, Tuproqqal'a (Xorazm) kabi yodgorliklaridagi III-VIII asrlarga oid musiqa asboblarning suratlari va bo'rtma tasvirlari bizgacha yetib kelgan.

Qadimgi turklarning ko'p marosimlari qo'shiq orqali amalga oshirilgan. Bunday an'analarining musiqa san'atisiz rivoj topishi mumkin emas edi. Miloddan oldingi II asrda Xun davlatida xoqonning maxsus cholg'ulari bo'lganligi haqida Xitoy tarixiy manbaalarida ma'lumotlar bor. Xunlarda eng ommabop cholg'u asboblari qatoridan chinqobus, chang, nay kabi asboblarning muhim o'rin olgan.

Adabiyotning yozma shakli bilan bir qatorda og'zaki adabiyotning rivojida qobus cholg'u asbobi alohida o'rin egallaydi. Markiziy Osiyo turkiy xalqlarining kundalik turmush tarzi ijtimoiy hayotning tashqiliy shakllari «So'z - udum va urf - odatlar - musiqa» tizimi bilan chambarchas bog'liq tarzda rivojlangan. VI - VIII asrlarda yaratilgan xalq qo'shiqlari buning dalilidir.

Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'atit-turk» (XI asr) asaridagi to'rtliklarning ko'pchiligi qadimgi turk davriga oid xalq qo'shiqlari bo'lib, musiqa jo'rligida ijro etilgan.

Turkiston o'rta asr musulmon madaniyatida ko'plab musiqa nazariyotchilarining paydo bo'lishi bu yerda musiqa madaniyati an'analarining

qadimiyligidan dalolat beradi. Ayrim manbalarning (masalan, al - Isfaxoniy) ko'rsatishicha, Yaqin Sharq, xususan, arab musiqa madaniyatining o'rta asrlardagi rivojiga so'g'd, turk va eron san'atkorlari katta ta'sir ko'rsatganlar. Ma'lum bo'lishicha, xalq cholg'ulari ham o'z tarixiga ega. Tarixiy manbalarga tayanib, al-Isfaxoniy dastlabki musiqa cholg'ulari miloddan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilgan.

Musiqa ijrochiligida dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan.

Bo'lar: doira (baraban), nog'arasimon cholg'ular. Chunki, eng qadimgi mehnat qo'shiqlari raqslarning ritmik to'zilishi bilan bevosita bog'liqligi aniqdir.

Keyinroq shovqinli cholg'ular paydo bo'lgan, ijrochilar qarsak chalib ritmni takrorlaganlar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirishga ko'maklashganlar. So'ngra xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, xushtak, nay (bo'ylama nay, ko'p yo'lli naylar), arfasimon va torli mizrobli va torli kamonchali cholg'ular yaratilgan.

Bu cholg'ulardan saroy ahyonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarida, mavsumiy sayllarda keng foydalanilgan.

XX - asrning 30-40 yillari S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar O'rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan, xalq cholg'ularini o'rganishda qimmatli ma'lumotlar berdi.

Topilgan madaniy yodgorliklar: nay, rubobsimon cholg'ular, urma zarbli cholg'ular, chalinayotgan mashshoqlar tasvirlangan suratlardir. Bular: Ayroton, Tuproqqal'a, Afrosiyob kabi shaharlarda topilgan sopol idishlardagi mashshoq xaykalchalaridir. Ulardan turli xil musiqiy cholg'ular: lyutnya, tanbur, nay, surnay, karnay, doirasimon cholg'ularda mashq qilish holati oydin tasvirlangan. Keyinchalik, sharqlik bobokalon olimlarimiz: Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Sayfiddin Urmoviy, Abduqodir Marog'iy, Qutbiddin Ash Sheroziy va boshqalar o'z risolalarida xilma-xil cholg'ular haqida ibratli mulohazalar bildirishgan. Inson ovozini musiqa asboblari ichida eng yoqimligi deb hisoblaganlar.

Buyuk sharq mutafakkirlarining xalq cholg'ularining o'rganishga bag'ishlangan qimmatbaho merosi tarixiy ahamiyatga ega. Ulardan eng qimmatligi Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur «Musiqa haqida katta kitob» (Kitob al musiqa al kabir) asari o'lgan ahamiyatga ega. Farobiyning o'zi ham ijrochi sifatida shuhrat qozongan. Kitobning ikkinchi qismi boshidan ohirigacha o'sha davrda qo'llanilgan musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan. Bu bobda: lyutnya, ud, tanbur, nay, rubob, chang, shohruh, qonun kabi cholg'ular izchil va batafsil ta'riflanadi.

Farobiy torli muzroblı lyutnya cholg'usini o'sha davrda keng tarqalgan cholg'u deb hisoblaydi. Lyutnya o'ziga xos muzrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (ladlar) joylashgan IX – X asrlarda lyutnya arabcha nomlanib, ud nomini oladi.

Farobiy risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubob cholg'usini ham batafsil tavsiflaydi. O'sha davrda sharqning taniqli mutafakkiri, Safuddin Urmaviy musiqa ilmiy tizimini rivojlantiradi. U usta ud cholg'uchi, xonanda va mohir bastakor sifatida ham mashhur bo'lgan.

Ud cholg'usida olib borgan tajribalariga tayanib olim o'z nazariy qoidalarini bayon etadi. Urmaviyning «Taqvodorlik kitobi»da ud – ta'rifi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi: «Bilingi, cholg'ular orasida ud deb ataluvchi eng mashhur va eng zamonaviydir». Xulosa qilib aytganda, tarixiy risolalarda tasviriy san'atda va adabiy merosda ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ularining asosiy turlari haqida boy materiallar berilgan. Musiqa cholg'ulari yasovchi mohir ustalar: asrimiz boshlarida yashab ijod etgan usta Usmon Zufarov, usta Ro'zmat Isaboyev va ularning qator shogirdlarida, xalq ustalari bir parcha yog'ochga, qamishga, suyakka yangi hayot ato etdilar. Ular yaratgan cholg'u – asboblari hozirgi kunda ham keng qo'llanilmoqda, xalqimizga hizmat etib, musiqa san'atimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Tarixiy manbalarni ta'rif etar ekanmiz, hozirgi kunda ham musiqa cholg'ulari va ulardagi ijrochilik rivojlanib borayotganligini eslatib o'tishni lozim topdik. Qadimiy cholg'ulardan ud, qonun kabi cholg'ular va undagi ijrochilik keyingi 15-20 yil ichida qayta tiklandi hamda ushbu cholg'u asboblari xalq cholg'ulari ansamblini boyitdi. Shuningdek, bu cholg'ularning qayta tiklanishi musiqa madaniyatimizning rivojida muhim o'rin tutdi.

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar «Qobusnoma»da ham hofizlik va san'atkorlikning qoidalariga bag'ishlangan alohida bob o'rin olgan.

Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutorga, surnay, konunga, nayga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, miniatyura asarlaridagi sozanda va hofizlarning

rasmlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mo'g'om, Dastgox, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan - avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (Duvozdax) maqom mavjud bo'lgan. Bular «Ushshoq», «Navo», «Bo'zalik», «Rost», «Xusayniy», «Xijoz», «Rohaviy», «Zangula», «Iroq», «Isfahon», «Zirofkand», «Bo'zurg».

Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo'lsak, ulug' olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvozdah makom» (o'n ikki makom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xo'ja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog'iy, Xo'ja Sayfidin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bulgan: «Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Rohoh», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Xusayniy». Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, «Bo'lujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig'» singari kuylarni ixtiro qilganligini ta'kidlab o'tadi.

Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan xoli emas.

Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning «Shashmaqom» (Olti makom)i: «Bo'zruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning «Chor makom»i (To'rt makom), «Dugoh Husayniy»ning yettita yo'li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo'li, «Shaxnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik yo'li hamda «Bayot» yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Xorazm maqomlarida ham yuqorida ta'kidlangan olti makom ijrosini alohida uslubiy va o'ziga xos yo'nalishini ko'z atish mumkin. Bunda faqat keyinchalik yettinchi maqom sifatida chertim yo'lidagi «Panjgoh» maqomi kiritilgan. Shuning uchun avloddan avlodga o'tib kelgan bebaho musiqiy boyligi sanalmish Buxoro, Xorazm va Farg'ona, Toshkent maqomlari, betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug' ne'mat sifatida ardoqlanadi.

Xalq san'atining ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon Shakarjonov: «Milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro,

shohlari Farg'onadir», - deb ta'riflagan ekanlar. Ustozning bu so'zlarida katta ma'no yotadi.

Musiqiy ijrochiligimizning yana bir yo'nalishi dostonchilik san'ati Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalarida juda rivojlangan bo'lib, xalq baxshilari tomonidan sevib ijro etib kelinadi.

Tarixiy manbalarga murojat etadigan bo'lsak musiqiy madaniyatimiz uzoq tarix bilan bog'langanligini guvohi bo'lamiz. Bunga qadimshunoslar tomonidan topilgan ashyoviy dalillar tosh devorlarga chizilgan musiqiy sozlar va sozandalar suratlari, miniatura ko'rinishidagi shohlar saroylaridagi bazmlarda sozandalar tasviri, musiqiy ijrochiligimizning sadolari asrlar osha bizga yetib kelganligidan dalolat beradi.

IX-XII asrlarda O'rta Osiyo musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri bo'lganligi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Lekin X-XII asrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari va ularning ijodiy faoliyatlari haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ustoz musiqashunos olimlarning yozma manbalariga asoslanib ba'zilar ustida tuxtab o'tishni lozim topdik. VI-VII asrlarda yashab ijod etgan O'rta-Osiyolik Faxlobod Borbad hakida ma'lumotlarga qaraganda musiqashunoslik, bastakorlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo'q san'atkor bo'lganligi ehtirol etiladi. Afsonaviy ijrochilik mahoratiga ega bo'lganligi haqida yozgan ustoz musiqashunos olim Ar-roziy Borbadning buyuk ijrochilik mahorati bilan birgalikda musiqiy sozlarning ham yaratuvchisi bo'lganligini aytib o'tadi. Borbad yaratgan musiqa asbobi X-XII asrlarda Xuroson va Turonda keng tarqalganligini va uning 4 torli bo'lganligini yozadi.

Qadimiy qo'lyozmalarda X-XII asrlarda ijod qilgan Abubakr Rubobiy, Bunasr, Buamir va changchi Lukoriy va boshqa sozanda va hofizlarning nomlari eslab o'tiladi.

IX-X asrda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o'z zamonasining chang sozlarini chalishda mohir bo'lganligi, ayniqsa «Bo'yi juyi muliyon» she'rini ushshoq kuyida aytilgani qadimgi qo'lyozmalarda ko'rsatilgan. Adabiyotshunos olim N.Mallayev qadimiy qo'lyozmalar asosida X-XII asrlarda tanbur, rubob, kus nog'ora, qo'biz, tabl, tanburoq, zir, nay, chag'ona, shaypur, surnay, karnay, arg'unan, qonun kabi torli, zarbli va puflab chaladigan cholg'u asboblari o'lkamizda keng tarqalganini va o'n ikki maqom taraqqiy topib takomillashganini ko'rsatib o'tgan.

O'sha davrning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otiy turk» asarida qadimiy turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi va qo'shiqlari, bayram va marosimlaridagi mehnat qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari haqida namunalar berilgan bo'lib, o'sha zamonda qo'shiqchilik janri rivoj topganini ko'rsatadi.

X-XII asr musiqa va ashula san'atiga doir bayon etilgan noyob ma'lumotlar Yusuf Xos Xojibning « Kutadg'u bilig» asarida ham uchraydi. X asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug' kashfiyotchisi Abu Nasr Al Forobiy (873-950) bo'lib, uning musiqa sohasida yaratgan asarlari asosida ovro'pa olimlari ham qator asarlar yaratganlar. Farobiy o'z faoliyatida musiqa ilmini tadqiq etish bilan birga fiziologik asoslarini ishlash ustida ijod qildi va «Qonun», «G'ijjak» kabi yangi musiqiy sozlarni kashf etdi. Uning musiqa sohasidagi nazariy asarlaridan «Kitab ul musiqa al- kabir» («Katta musiqa kitobi»), «Kalom fakultet-il musiqi» («Musiqha haqida so'z»), «Kitob fi ixsoal ibkoh» (kuylar tasnifi haqida kitob»), «Kitob fi-n nakra mo'zofa ilal ibkoh» (Ritmga ko'shimcha qilinadigan siljishlar haqida kitob») kitoblari ma'lum. Akademik Muzaffar Xayrullayevning «Forobiy» asarida uning musiqa ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi.

Forobiy Turkistonning Farob (O'tror) shahrida tug'ilgan bo'lib, uning otasi Muhammad Tarxon turkiy qabilalardan edi. Avval O'trorda, o'qib, so'ngra Bog'dodga borib unda falsafa, tabiyot, musiqa fanlari bilan chuqur shug'ullanadi. Qadimgi Yunon foylasuflaridan Aflotun (Platon), Arastu (Aristotel) larning dunyo qarashlarini chuqur o'rganib, ularning ta'limotlarini qaytadan ishlab chiqdi. Bu esa unga Aristotel-dan keyin «Ustod soniy» (Ikkinchi ustod) nomini beradi. U o'sha davrning eng o'tkir sozandasi, bastakori, O'rta Osiyoda va Yaqin Sharqda musiqa madaniyatining yirik arbobi sifatida tanildi. Forobiy o'sha davr ijrochilik san'atida ham benihoya katta shuhrat qozondi. Uning musiqa yo'nalishidagi nazariy asarlari kelajakda O'rta Osiyo xalqlari musiqa fani taraqqiyotiga asos bo'ldi va shu bilan birga dunyo musiqa fani rivojiga ham katta hissa bo'lib qo'shildi.

Yana bir ulug' alloma Abu-Ali Ibn Sino (980-1037) ham musiqa nazariyasi bilan shug'ullangan bo'lib, 1931 yilda Maxmud al Xavfning Berlinda nashr etilgan Ibn Sinoning musiqa ijodiga bag'ishlangan kitobida Abu-Ali Ibn Sinoni katta musiqa nazariyachisi va uning musiqa asboblari ham kashf etgani to'g'risida ma'lumot beradi. Yana shu kitobda ulug' olimning musiqa haqidagi «Kitob uchun najot» asarining arabchadan nemischaga tarjimai berilgan. Abu Ali Inb Sino medisina, falsafa, musiqa sohasida «Alqonun fit-tib» («Tib konun»), «Kitob ul shifo» («Shifo kitobi»), «Donishnoma», «Risola fial musiqiy sayr mo fi al shifo» («Musiqha to'g'risida» «Shifo»da berilgandan boshqa risola») kabi qator asarlarni yozdi. Ibn Sinoning musiqaga doir mulohazalari «Kitob ush shifo» asariga alohida bir qism qilib kiritilgan. Yuqoridagi asarlarda Ibn Sino musiqaning estetik ahamiyati va ta'sir kuchiga e'tibor berib, ayrim jismoniy va ruhiy kasalliklarni musiqa vositasi bilan shifolash usullarini o'z amaliyotida joriy qiladi. Bu yana o'sha davrda musiqa san'atining yuksaklikka erishganini ham ko'rsatadi. Abu Ali Ibn Sino Buxoroning Afshona qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, otasi Abdulloh asli Balxlik davlatmand va madaniyatli kishi bo'lib, o'g'lini yoshligidan qobiliyati,

iste'dodini, zehni ko'ra bilgan holda uning o'qishiga katta e'tibor beradi. Ibn Sino Buxoroda yashagan davrida Somoniylarning boy kutubxonasidan foydalanadi va Yunon kitoblarini tinmay qiroat qiladi. 999 yilda Qoraxoniylar tomonidan Somoniylar davlati qulatilgach, O'rganchga kelib Xorazm olimlari qatoridan joy oladi. Keyinchalik Mahmud G'aznaviy taziqi ostida ko'p shaharlarni kezib 1037 yilda Hamodonda vafot etadi.

X asrda yashab ijod qilgan Muhammad Ibn Al Xorazmiy musiqa haqida asar yozib, o'zining «Mafotix ul ulum» deb atalgan qomusiy asariga asosiy boblardan qilib qo'shgan. Xorazmliklar qadimdan musiqa va raqs hamda qiziqchilik shaydosi bo'lganliklariga Alisher Navoiy ham shohidlik beradi.

Shundan ko'rinadiki, qadimgi zamonlardan beri musiqiy san'at dunyosida Xorazm yuksak o'rinda bo'lgan. XI-asrda dunyoga kelgan «Qobusnoma» asarining 36-bobi ham musiqa san'atiga bag'ishlangan bo'lib, unda kitob muallifi Kaykovusning cholg'uchi va hofizlarga qanday kuy tanlash va qachon, qayerda ijro etish hamda san'atkor odobi va madaniyatlari to'g'risidagi nasihatlarini, o'sha davrda musiqiy san'atning taraqqiyoti yuksak darajada ko'tarilganligidan dalolat beradi.

XII asrdan boshlab Al-Forobiy, Abu Ali Ibn Sino musiqa nazariyalari zamirida mahalliy tillarda musiqa fani haqida qator asarlar maydonga kela boshladi. Xorazmlik olim Ar-Roziiy o'zining XII -asrda yozgan «Jomehul -ulum» qomusining bir bo'limini musiqa faniga bag'ishlagan. XIII - asrda Muhammad Ibn Mahsud ash- Sheroziy (1236-1310) «Dar ilmiy musiqiy», Sayfutdin Abdul Mo'hmin al Urmaviy (1294 yilda vafot etgan) ning «Risolatun Sharafiya» kabi asarlari ham musiqaga bag'ishlangan. Musiqa ilmi bilan o'rta asr olimi Muhammad al Amuliy ham shug'ullangan. Zamonamizning atoqli musiqashunos olimi san'atshunoslik doktori Is'hok Rajabov (1927-1982) XIII- asrda maydonga kelgan al-Urmaviyning «Risolatun Sharfiya», Ash-Sheroziyning «Dar ilmiy musiqiy» asarlariga ilova qilingan va ud sozi uchun yozilgan qadimiy musiqa notalarini shartli belgilar bilan hozirgi zamon notasiga o'girishda tajribalar o'tkazdi. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu tadqiqotda XIII-asrda notaga olingan qadimiy musiqa to'zilishini hozirgi zamon o'zbek kuylariga juda yakinligi aniqlangan.

Tarix zarvaraklariga nazar solganimizda ulug' bobimiz Amir Temur davrida ham madaniyat va san'at rivojlanganligini guvohi bo'lamiz.

Ayniqsa Abdulqodir Marog'iyning Shom davlatidan olib kelib saroy musiqachilarining rahbari etib tayinlanganligi ham uning musiqa san'atiga ixlosmand bo'lganligidan dalolat beradi. XVII- asr musiqa tarixchisi Darvish Alining ma'lumotiga qaraganda Xo'ja Abdulqodir Marog'iy isfaxonlik bo'lib, o'sha davr Sharqining buyuk musiqa olimi, bastakor va nazariyotchisi edi. U

Samarqandga kelgach, saroy teatri va musiqasiga rahbarlik qildi. Samarqandda o'z maktabini yaratdi, ko'plab shogirdlar tayyorladi va musiqiy taraqqiyotga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub «Zubdatul advor», «Maqosidul ilhon» nomli kitoblar yozilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lib, Darvish Ali yana «Miatayin» nomli musiqa to'plami yaratgani haqida ma'lumot beradi.

Amir Temur o'z tuzuklarida o'ninchi toifa hunar-san'at egalaridir. Ularning davlat xonaga keltirib o'rdada o'rinlar belgilangan, deb ta'riflaydi. Yozma manbalarda yana shu davrning yirik bastakor sozandalaridan Sayfitdin Nayi va Kutbi Nayi, Said Yusuf (ko'bo'z), Darvish bek kabi musiqa sohasida mashhur bo'lgan san'atkorlar qalamga olinadi.

Movarounnahr madaniyati va san'ati ayniqsa Ulug'bek (1394-1449) zamonasida yuksaklikka ko'tarildi.

Professor Abdurauf Fitrat Ulug'bek davrida Samarqandda ijod qilgan Darvish Axmadiy Qonuniy, Sulton Ahmad Nayi, musiqiy risola yozgan qoraqo'llik Hisoriy, Xorazmlik Abu Vafo, musiqashunos olim mavlono Sohib Balhiy, Shahrizabzlik bastakor Abo'l Baraka, mashhur sozanda Navoiyning muallimi Xo'ja Yusuf Burxon, Navoiyning tog'asi Muhammad ali G'aribiylar kabi o'sha zamonning mashhur san'atkorlarini qalamga olib o'tadi. Mashhur musiqashunos Hofiz Darvish Alining qalamiga mansub «Tuhfatus surur» asarida aytilishicha Ulug'bek Mirzoning o'zi ham musiqiy olimlardan sanalgan.

«Muhit at tavorih» kitobida uni bastakor sifatida «Bo'lujiy», «Shodiyona» - (bu bizgacha yetib kelgan), «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuli Bahri» kabi yirik musiqa asarlari yaratgani ko'rsatiladi. Ma'lumotlarda shahar san'atkorlari ichida yallachi ayollar va raqqosalar ham bo'lganligi aytib o'tiladi.

Ulug'bek vafotidan so'ng san'atdagi rivojlanish davri Hirotga ko'chdi. Buning bevosita rahbarligida ulug' bobomiz Alisher Navoiy turdi, podshoh va shoir Husayn Boyqaro homiylik qildi. Navoiy butun Movarounnahr, Xuroson san'at va adabiyot, madaniyat ahlining sarboni bo'lib yangi taraqqiyot pog'onasiga olib chiqdi. Shu davr ichida o'zbek xalqining musiqa madaniyati yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Buyuk musiqa ustozlari eng iste'dodli talabalarni o'z tarbiyasiga oldi. Yangi kuylar, qo'shiqlar, musiqa nazariyasiga oid asarlar maydonga keldi, talantli sozandalar, bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi. Ustozi va do'sti buyuk shoir Abdurahmon Jomiy ham bu borada qalam tebratib «Risolal musiqiy» asarini yozdi. Bu asarda o'zbek xalqining qadimiy o'n ikki maqomi haqida qimmatli ma'lumotlar berildi. Yana bir zamondosh olim Zaynobuddin Al Xusayniy «Qonuni ilmi va amali musiqiy» nomli musiqiy darslik yozib, uni Navoiyga bag'ishladi. Nuritdin Marg'iloniyning «Maqsadul advor» («Musiqa ilmini maqsadi») risolasi ham maydonga keldi. Navoiy faqat san'atkorlarning homiysi bo'libgina qolmay, u musiqa olimi va bastakori ham bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur uning bir

qator musiqa asarlari yaratganini, jumladan «Naqshi» (ashula)lari, «Peshrav» (musiqa)lari borligini «Boburnoma» asarida hikoya qiladi. O'zlarining taxalluslari ham «Navo» ga bog'langanliklari zamirida musiqaga yaqindan oshno bo'lganliklarini ko'rsatadi!.

Navoiy «Mahbubo'l-qulub» asarining ikkinchi mutrib (ashulachi), mug'anniy (sozanda) faslida mutrib va mug'anniylar ijrolarini ta'sirchanligi va tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritadi va nay, g'ijjak, tanbur, chang, ud, rubob, qo'bo'z, qonun, chag'ona, kabi musiqa asboblarni fazilatlarini ham ta'riflaydi. «Mezonul avzon» asarida Navoiy tuyuk changi, turkiy, orzuvoriy, muhabbatnoma, mustahzod kabi xalq qo'shiqlarining 8 turi, ularning vazn xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi. «Hamsatul-mutahayyirin» asarida esa Navoiyning musiqa nazariyasiga katta e'tibor bergani namoyon bo'ladi. Bu asarda Mavlono Ali O'ohning tengi yo'q sozanda, nazariyotchi ekanini va unga bir nazariy darslik yozishni topshirganini aytadi. Bundan tashqari ustod Qulmuhammad, Xo'ja Shahobiddin, Abdullomarvaridiy, mavlono Binoiy kabi musiqashunoslarning musiqaga oid asarlar yozganlarini ko'rsatib o'tadi. Navoiy «Xolati Pahlavon Muhammad» asarini o'z davrining buyuk bastakori, o'n ikki maqomning takomillashuvida katta hissa qo'shgan Pahlavon Muhammadning musiqa ijodiga bag'ishladi.

O'sha davr musiqa madaniyati haqida Zahriddin Muhammad Bobur ham qimmatli ma'lumotlar bergan. Uning yozishicha ustodlar Qulmuhammad, Abdullo Marvoridiy, Xusayn Udiy, Darvishbek, Yusuf o'g'loki (qo'biz), G'ulom Shodi, Shayxi nayi, Shayx kuli (g'ijjak)lar Navoiyning yordami va g'amxo'rliqi tufayli shuhrat topganlar. Zayniddin Vosifiy o'zining «Badoyehul vakyeh» asarida Navoiy zamonasida xalq san'atini katta rivoj topgani to'g'risida yozib, Hasan Nayi, Ahmad G'ijjakiy, Ali Kuchak Tanburiy, Hasan Boloboniy, Mirzo Bayram, G'iyosiddin kabi sozanda va bastakorlarni nomlarini keltiradi.

Zayniddin Vosifiyning ma'lumotlariga qaraganda Hirot Safaviylar tomonidan ishg'ol qilinganda besh yuzga yaqin san'at ahli Movarounnahr ga ko'chish qilganligi, bular orasida Qosim Ali qonuniy, ashulachi va sozanda ayol (tug'anniya) Chakar Xonim, Said Ahmad G'ijjakiy, Muhibi Ali Boloboniy, Hasan Udi, Husan Udi, Xusayn Kuchak nayi, Hofiz Marxonanda, raqqoslardan Maqsud Ali kabilar borligi aytiladi.

Professor Abdurauf Fitrat ham XV-asrda Movarounnahr va Hirot da ijod qilgan. «Ishrat» ismli cholg'u sozini chaladigan ustod Abo'lqosim va Husayn Boyqaroning musiqiy muallimi, andijonlik mavlono Yusuf Badiyi, (Husayn Boyqaro ham musiqa bilan shug'ullanganligi shundan ko'rinadi), tanburga bir sim qo'shimcha qilib ijro etgan. Mahmud Shayboniy, Abduqodir Marg'iloniy, Habibo'lloiy changi, Muharramiy changchi, Ali Shunkar, Mehtar Shamsiddin

nog'orachi, Mehtar Imom nog'orachi, Alijon g'ijjakiylar kabi o'sha zamonning musiqiy ustozlari haqida ma'lumot beradi.

XIV asr oxiri XV asrda Farg'ona, Toshkent, Buxoro, Kesh va Xeva kabi Movarounnahrning boshqa viloyat va shaharlarida ham madaniy hayot, jumladan musiqiy madaniyat rivoj topdi. Farg'ona hukmdori Umarshayx (Boburning otasi) o'z poytaxti bo'lmish Andijonga san'at ahlini yig'ishga harakat qilgan. O'sha davr san'at ravnaqi haqida «Boburnoma»da ma'lumotlar beriladi. Bobur o'sha davr Andijon musiqiy muhitining ustozlaridan Xo'ja Yusufni, Vosidiy esa Toshkentlik bastakor, sozanda Shoh Husaynni eslab o'tadilar.

XVI-XII asr musiqiy san'atning taraqqiyotiga nazar solsak, o'rtadagi bir qancha o'zilishlardan so'ng, oldinga siljishlar ro'y berganini guvohi bo'lamiz. XVI-asrning yirik shoiri va musiqashunos olimi Najmitdin Kavkabiy (1576 yilda vafot etgan) rahbarligida o'n ikki maqom yanada mukammalashdi. Darvish Alining hikoya qilishicha, Hirotda tahsil ko'rgan mavlono Najmitdin Kavkabiy Ubaydulloxon tomonidan Buxoroga oldirib kelingan va bu yerda o'z maktabini yaratib, o'zbek musiqasi takomili ustida ish olib borgan. U Xo'ja Muhammad Mavlono Rizo Samarkandiy, Xo'ja Hasan Nisoriy, Mavlono Hasan Kavkabiy, Boki jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlagan. Kavkabiy «Risolai musiqiy» asarini yaratib musiqa nazariyasi faniga katta hissa qo'shgan.

XVI asr oxiri XVII asrda Shayboniylar hukmdorligi davrida Buxoroga turli yerlardan san'atkorlarni olib kelib to'plash davom ettiriladi. Ubaydulloxon (o'zi shoir sifatida devon qoldirgan) Hirotni bosib olganda mashhur Hofiz Axiy Garaviyni Buxoroga oldirib keladi va Garaviy Buxoroda maqom ijrochilari maktabini tashkil qiladi. Darvish Alining shohidlik berishicha Axiy Garaviy maktabida Xo'ja Hamza Toshkandiy, Xo'ja Bobo changiy, Darvish Mahmudiy Andijoniy, Hofizi Ushshokiy kabi Movarounnahrning turli joylaridan kelgan hofizlar tarbiyalanganlar.

XVII -asrning yirik sozandasi, musiqa tarixchisi va nazariyotchilaridan biri Darvish Ali Changi bo'ldi. U 12 bo'limdan iborat «Risolaiy musiqi» asarini yaratdi. Bu asar o'sha davr musiqa tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib hizmat qiladi. Unda maqomlar, maqomlarning sho'balari, usullariga va musiqa nazariyasiga keng to'xtaydi. Darvish Ali risolasiga turli davrlarda yashagan sozandalar haqida va o'sha zamon musiqa asboblari tanbur, chang, nay, qo'shnay, qonun, ud, barbad, rubob, qo'bo'z, rud, g'ijjak, ishrat, kungura, dutor, setor, surnay, bolobon, nog'ora, karnay, doira kabi sozlar to'g'risida keng ma'lumot beradi. Bu davrda yana noma'lum mualliflar tomonidan «Risolatun fiilmil musiqiy», «Prisolai karamiya» kabi musiqa nazariyasiga oid asarlar ham yoziladi.

XVII-asrning ikkinchi yarmiga kelib musiqa san'ati yana tushkunlikka tushadi. Movarounnahrning uch xonlik va amirlikka bo'linib ketilishi sezilarli

ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida madaniy-musiqiy hayotda ajralishlar ro'y beradi. Shunga qaramasdan Xiva xonligida, Buxoro amirligida, Qo'qon xonligidagi musiqiy san'at muhiti o'z holicha davom etdi va birmuncha muvaffaqiyatlarga ham erishildi.

O'tmishda nota yozuvi bo'lmaganligi sababli og'izdan og'izga o'tib kelgan mavjud xalq mumtoz kuy va qo'shiqlari endilikda notaga olingan bo'lib, bu xayrli ishni V.A. Uspenskiy, Ye.Ye. Romanovskaya, I.A. Akbarov, M. Yusupov, akademik Yunus Rajabiy singari allomalar amalga oshirdilar. Bu borada, ayniqsa, ustoz Yunus Rajabiyning hizmatlari beqiyosdir. Natijada «O'zbek xalq mo'zikasi», «Shashmaqom», «Xorazm maqomlari», «Gulyori Shaxnoz» singari ko'p jildli qator musiqiy to'plamlar dunyoga keldi va xalqimizning chinakam ma'naviy boyligiga aylandi.

Ushbu to'plamlarda maqomlarni va xalq an'anaviy qo'shiqlarini nasr va mushkulot, aytim va chertim yo'llarini ustoz hofizlar va mohir sozandalar ajoyib sayqallar berib ijro etishib kelmoqdalar. Yana shuni aytish joizki, xalqimizning ulkan musiqa merosini, folklor san'atini ilmiy tahlil qilib, uni xalqqa yetkazish borasida musiqashunos olimlarimizning ham hizmatlari katta bo'lib, o'zlarining kitob va monografiyalarida, qo'llanma, darsliklarida, maqola va chiqishlarida ilmiy nuqtai nazar bilan asoslab bermoqdalar. Bu borada Fayzulla Karomatov, Ilyos Akbarov, Isxok Rajabov, To'xtasin G'ofurbekov, Rustambek Abdullayev, Abdumannon Nazarov, Oqilxon Ibrohimov, Otanazar Matyokubov, Ravshan Yunusov singari taniqli musiqashunoslarimizning mehnatlari beqiyosdir.

O'lkamizda musiqiy merosimizning ajralmas qismi bo'lmish hofizlik azaldan muqaddas sanalgan. Islom olamida muqaddas kitobimiz bo'lmish «Qur'on» oyatlarini dilga jo qilib, uning zeri - zabarlari bilan yoddan ijro etgan allomalarni «Hofizi Qur'on» deb yuritganlar.

«Hofiz» arabcha so'z bo'lib, «yodda saqlamoq» ma'nosini anglatadi. Hofiz - Ollohning 99 ismlaridan biri deb ham ta'riflanadi. Mumtoz hofizlarimiz islomiy bilimlardan hamda badiiy she'riyatdan xabardor bo'lganlar. Shuning uchun ham ular ijro etgan qo'shiqlar nihoyat ta'sirchan bo'lib, tinglovchilarni o'zlariga rom eta olgan. Mumtoz shoirlarimizning beqiyos ma'noga ega bo'lgan g'azallarini kuyga solib, ijro etgan qo'shiqlari uchun «Hofiz» degan nomga musharraf bo'lishlari ham qandaydir ramziy ma'no kasb etishi tabiiydir.

Shundan ko'rinadiki, musiqa inson jismiga jon bilan kirganligini, bunda ilohiy qudrat borligini islom ulamolari ham ehtirol etishgan. Ulug' alloma Alixonto'ra Sog'uniiy «Tarixi Muhammadiy» kitoblarida shahodat berishlaricha, payg'ambarimiz Rasululloh (S.A.V.) Makkadan Madinaga hijrat qilib shaharga kirishlarida yosh joriya kizlar childirimalar chalishib, qo'shiq va alyorlarni aytishgan ekan.

Shundan ko'rinadiki, qo'shiq, alyor, lapar aytish Payg'ambarimiz (S.A.V.) davridan bizga meros bo'lib qolgan.

O'tmishdan maqom va an'anaviy mumtoz qo'shiqlarning dunyoga kelishida va ijro etilishida barcha davrlarda yashagan xalq bastakorlari va hofizlarining ijodlari davr bilan hamohang bo'lgan. Bunga mashhur bastakor va ijrochilar Borbad Marvaziy, Abu Xafz Sug'diy, Abu Bakr Rubobiy, Abo'l Abbas Baxtiyor, Abdulqodir Marog'iy, Darvishali Changiy, Paxlavon Muhammad singari bobokalonlarimizning ijodlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham musiqa san'ati katta o'rin tutgan. G'azal satrlarida Navoiyning hofiz ahliga bo'lgan chuqur hurmat-ehtiromi, xonanda san'atini ulug'lash, xushxon hofizlarning sifatlari ifodalanadi. Bolaligidan cholg'uchi bo'lgan Dovud payg'ambar musiqa san'atining piri hisoblanadi. Shu sababdan ushbu g'azalda «Nahmayi Dovud» iborasi qo'llanilgan.

O'zbek xalq musiqasining janrlariga asoslanib yaratilgan asarlarni ijro etuvchilar qadimdan turlicha nomlangan: xonanda, hofiz, ashulachi, qo'shiqchi, yallachi, katta ashulachi, laparchi, talqinchi, maqomxon, savtxon, baxshi, shoir, zokir, mug'anniy, mutrib, yirovchi, go'yanda singarilar.

Bu ijrochilar bir necha guruhga bo'linadilar, chunonchi, maqom ijrochilariga maqomxon, hofiz, xonanda, savtxon deyilsa, doston, musiqa ijrochilariga baxshi, shoir, dostonchi, yirovchi deyilgan. Xalq orasida keng tarqalgan janr ijrochilari - yallachi, laparchi, ashulachi, qo'shiqchi singari nomlar bilan atalib kelingan.

Shu o'rinda aytish kerakki, barcha maqom ijrolari va mashhur qo'shiqlar turli davrlarda qaysidir bastakor tomonidan yaratilgan. Bu ijrolar xalqona bo'lganligi sababli xalq orasiga singib ketgan va xalqning ma'naviy boyligiga aylangan. Shu bois bizning davrimizda ham yaratilgan an'anaviy qo'shiqlarimizning mashhurlari bastakorlar tomonidan yaratilib, xalq orasida mashhur bo'lib ketishining sababi ham shundadir. Masalan, Yunus Rajabiyning «Ne navo», «Kuygay», To'xtasin Jalilovning «Kokiling», «O'ynasin», Komiljon Jabborovning «Etmasmidim», Imomjon Ikromovning «So'lim», Saidjon Kalonovning «Ey sarvi ravon», Doni Zokirovning «Ey sabo», Orifxon Hatamovning «Xoh inon, xoh inonma», Rahmatjon Tursunovning «G'amzasin» singari yuzlab qo'shiqlar bunga misoldir.

An'anaviy qo'shiq ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'lkamizda bu muqaddas san'atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdulg'ani, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Zohidxon hofiz, Madali hofiz, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Matyoqub Xarratov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir.

O'tmishda nota rivojlanmagan bo'lib, Ovrupa musiqa terminlari o'rnida hofizlarimiz ovoz maromiga qarab «Gulligi», «Binnigi», «Shikami», «Xonakohiy» deb atalmish nafas olish, chiqarish va ijro yo'llaridan foydalanishgan. O'sha davr hofizlarining ovozlari o'ktam, baquvvat bo'lganligi sababli ular ko'proq «Shikami» yo'lida ijro etganlar. Bu yo'lda ijro etish g'oyatda murakkab bo'lib, shinavandalar tomonidan juda qadrlangan. Chunki hofiz tovushini ichkaridan tejamkorlik bilan qorin bo'shlig'idan chiqarib qo'shiq aytadi. Shuning uchun ham «Shikami» yo'li chukur nafas olishga asoslanishi, tiniqligi hamda jarangdorligi bilan «Gulligi», «Binnigi» kabi ashula yo'llaridan farq qiladi.

Ustoz hofizlar o'z ijrochilik mahoratlarini oshirish uchun aks-sado beruvchi maxsus gumbazli binolarda mashg'ulot o'tkazganlar, shu tariqa ovozlari sayqal berishgan. «Shikami» yo'lidan farq qiluvchi «Xonaqohiy» yo'li bo'lib, unda hofiz qo'shiq so'zlarini aniq talaffuz etib, tinglovchiga g'azal mazmunini ifodali qilib yetkazgan.

Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbek musiqiy madaniyatining tarixiy rivojini so'zlab bering?
2. O'zbek musiqa ijrochiligi qaysi yo'nalishlarda rivojlangan?
3. O'n ikki maqom haqida nima bilasiz?
4. Mirzo Ulug'bek musiqiy merosi haqida so'zlab bering?
5. Musiqamiz rivojida musiqashunos olimlarning o'rnini qanday tushunasiz?
6. «Hofiz» so'zining ma'nosini bilasizmi?
7. Payg'ambarimiz (S.A.V) dan qanday meros qolgan?
8. A.Navoiyning «Hofiz» radifli g'azalini yoddan aytib bering?
9. Xalq bastakorlarining ijodini so'zlab bering?
10. An'anaviy ko'shikchilikda xalq hofizlarining o'rni qanday?

Nazorat uchun mavzular

1. O'zbek musiqa madaniyatining tarix bilan bog'liqligi va rivoji.
2. O'zbek musiqiy ijrochiligi yo'nalishlari.
3. O'zbek musiqa madaniyatini yoritishda musiqashunoslarning o'rni.
4. «Hofiz» so'zining ma'nosi va mohiyati.
5. Payg'ambarimiz (S.A.V) dan qolgan meros.
6. Musiqa rivojida xalq bastakorlarining ijodlari.

7. An'anaviy qo'shiqchilik va xalq hofizlari.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot omillari». T., O'zbekiston, 1997 y
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T., O'zbekiston, 1999.
3. Maqolani yozishda O'zbek Davlat Konservatoriyasining dosenti X.Nabiyevning shaxsiy kutubxonasidagi qo'lyozma materiallardan foydalanildi.

3 - mavzu: Sharq allomalarining musiqa ilmi rivojlanishga qo'shgan hissasi Borbad Marvaziy

Sharq madaniyati xususan Movaraunnahr musiqa san'ati haqida so'z borganda Borbad nomini eslamay bo'lmas. Borbad kelajak avlod uchun g'oyat katta, uslub va mazmun jihatdan beqiyos darajada chiroyli boy va o'lmas meros qoldirdi. Uning asarlari Markaziy Osiyo xalqlari musiqa nazariyasi va amaliyotining eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgandir. Borbad Marvaziy asl ism sharifi Falaxbad bo'lib, Marvaziy uning taxallusidir (Marv shahriga). Borbad-bu ulug' bastakor va mug'anniyning Xusrav II Parvez saroyida musharraf bo'lgan faxrli unvonidir. Bu haqda XIX asrning eng mashhur izohli lug'ati «G'iyos ul-lug'at» muallifi Muhammad G'iyosiddin o'zining mazkur kitobida shunday deb yozadi: Borbad Xisrav Parvezning eng sevimli hofizlaridan bo'lib, musiqa bobida katta iste'dodi bor edi. Borbad so'zi ikki qismdan iborat bo'lib, lug'aviy ma'noga ega. «Bor» degani «dalolat qilish, ijozat berish» va «bad» deganda ilohiylik yoki boy-badavlatlilik ma'nolarini bildiradi. Parvez uni majlis ahli oldiga olib chiqib, hammaga tanishtiradi va o'zining iste'dodi, aqlu-zakovati ana shu unvonni ya'ni «Borbad» nomini olishga musharraf bo'ldi.

Borbadning tug'ilgan va vafot etgan yillari noma'lum. U faqat melodiy 628 yillargacha yashaganligi haqiqatga yaqindir.

Barbod o'ziga Marvaziy (marvlik) taxallusini qabul qilgan bo'lsada, aslida u Xurosonning shimoliy qismida joylashgan Nasa shaharchasida tug'ilgan. Aniq ma'lumotlarga asoslanib, shuni aytish mumkin, bu joy suv va dov-daraxtlarga boy bo'lishiga qaramasdan, tabiiy sharoiti jihatidan ancha noqulay bo'lgan. Ehtimol shu sabab bo'lib, Barbodning ota-onasi ham bu joydan uncha uzoq bo'lmagan Marvga ko'chib o'tadilar. Shu tariqa Borbadning o'smirlik yillari Marv shahrida o'tgan bo'lishi mumkin.

Marvda Barbod musiqa bilimini chuqur egallab, yuksak hofizlik malakasiga ega bo'ldi. Manbalarda aytilishicha Barbod yoshligidayoq ajoyib sozandagina emas, balki iste'dodli shoir sifatida ham tanilgan. Taxminan 590-600 yillarda Barbod Eron poytaxti Ktisefon shahriga ko'chib o'tadi. Xisrav saroyining hofizi bo'lishi uchun juda ko'p vaqt sarflaydi. Kunlarning birida shunday voqea yuz beradi: Shoh saroyi bog'ida ko'ngilxushlik bazmi o'tkazilishidan xabardor bo'lgan Barbod bu yerga pinhona tarzda keladida, daraxt ustiga chiqib, kuyuk barglar orasiga yashirinib oladi. Bu vaqt Xusrav sharob to'ldirilgan qadahni birinchi bor ko'targanda «Olloh yaratdi» degan qo'shiqni kuylaydi. Shoh ikkinchi qadahni ko'targanida «Parxor partavi» va uchinchi marta qo'liga qadah olganida esa «Sabz andar sabz» qo'shiqlarini aytadi. Ashulalardan g'oyat ta'sirlangan hukmdor darhol hofizni topib kelishni buyuradi. Biroq Barbod o'zoq kuttirmay shoh oldida o'zi hozir bo'ladi va Xusravga ta'zim bajo keltiradi. Shundan keyin shoh hofizi va saroy shoiri bo'lib qoladi.

Buyuk bastakor, musiqashunos Barbod misli ko'rilmagan mo'jiza - 12 maqomga asos solgan. Ma'lumki, bizgacha yetib kelgan maqomlar oltita ya'ni «Shoshmaqom» deyiladi. Barbod esa bir yilning 12 oyi tartibida 12 makom (Duvazdax maqom) yaratgan. Bu maqomlarning har biri oyning 30 kuni hisobidan kelib chiqib, ya'ni 30 xil ohangdan iboratdir. Demak, u yilning 365 kuni uchun 365 xil ohang yaratgan.

Borbad asos solgan 12 maqomlar quyidagicha nomlangan.

- | | |
|--------------------|--------------------|
| 1. Rost | 7. Busalik |
| 2. Isfahon | 8. Ushshok |
| 3. Irok | 9. Xusayniy |
| 4. Zirafkan | 10. Zangula |
| 5. Bo'zruk | 11. Navo |
| 6. Hijoz | 12. Raxoviy |

Borbad yaratgan 12 maqom tizimi keyinchalik «Shashmaqom» ning yaratilishiga asos bo'ldi.

Borbad zamondoshlari. Ramtin (557-620). Xisrav Parviz saroyida xizmat qilgan movarounnaxrlik san'atkor, changchi va bastakor. Asarlari: «Ramishidjon»

(«Kalb chog'lanishi»), «Ramishxon» (xofiz, kuylash), «Sozgari». **Nokis Changiy (549-623)**. Xisravshox saroyida hizmat qilgan bastakor, xonanda va betakror sozanda. Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa»sidagi «Xisrov va Shirin» dostonida Nokis va Borbadning bellashuvi hakidagi ma'lumot. Asarlari: «Navro'z», «Pardai Rost», «Roxi Ushshoq», «Pardai Yoqut» va b. **Sarkash (568-625)**. Xisrovshox saroyida hizmat qilgan sozanda, xonanda va bastakor. Asarlari: «Varshon», «Sesam», «Sarkash», «Sarandoz», «Shodvard» va b. **Ozodvar Changiy (592-649/650)** – xofiza, changchi va bastakor. Ayollardan tarkib topgan changchilar ansamblini tuzgan

San'atkorning bosib o'tgan yo'li g'oyat keskin qarama-qarshiliklar, o'tkir kechinmalardan iborat bo'lgan hayoti fojia bilan tugagan bo'lsada, uning qoldirgan musiqiy merosi biz uchun va kelajak avlod uchun bebaho boylik sifatida saqlanib qolaveradi.

ABU NASR FOROBIY (873-950)

Rivoyat qilishlaricha «Kunlarning birida obro'li bir kishi o'z ho'zuriga musiqachilarni chaqiradi, ularni o'z mahoratlariga qarab o'tirishlarini taklif etadi. Shu payt yig'inga juldur kiyingan bir kishi kirib keladi. Uy sohibi uni uyning to'riga o'tkazadi. Bundan musiqachilar ranjiydilar. Shunda mezbon haligi kishidan biron kuyni chalib berishni iltimos qiladi. Bu odam yonidan yog'och asbobni chiqarib shunday kuy chaladiki, majlisda o'tirganlar nihoyatda shod bo'ladilar.

Keyin boshqa bir ta'sirli, mungli kuy chaladiki, o'tirganlar qalbi qayg'u-iztirobga to'ladi. So'ng uchinchi bir kuyni chaladiki, o'tirganlar o'xlab qoladi. Shundan so'ng musiqachi xonadan chiqib ketadi. Keyinchalik mezbondan bu kishi kim edi? deb so'raganlarida - bu kishi Forobiy edi degan ekanlar».

Sharq ilk uyg'onish davri olimi Abu Nasr Forobiy (870-950) tabiiy-ilmiy, falsafiy, ahloqiy, masalalar bilan bir qatorda musiqa nazariyasiga oid bir nechta asarlar yaratdi. Uning:

- 1. Musiqaga doir katta kitob.**
- 2. Musiqaning uslublari haqida kitob.**
- 3. Musiqa kitobi.**
- 4. Fanlar klassifikatsiyasiga doir kitob.**
- 5. Musiqa ritmlari haqida kitob** kabi asarlarida bevosita san'at nazariyasiga oid qarashlar bayon etilgan.

Buyuk sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning asari «Musiqa haqida katta kitob» (Kitob al musiqa-al kabir) ulkan ahamiyatga ega.

O'rta asr olimi bu kitobda ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangini inson ovozi qo'shiq san'ati va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mashhur ijrochi sifatida musiqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi rolini o'rganish ahamiyatiga ega. Va u «...Jangu jadallarda, raqslarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngilochar bazmlarda hamda ishq-muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor» - deb yozgan edi.

Forobiyning yuqorida keltirilgan fikrlari cholg'ularning turli tumanligi va ularning nafaqat saroy ayonlari balki, shahar va qishloq aholisi hunarmandlari orasida, shuningdek. musiqa madaniyatida yetakchi rol o'ynaganligini tasdiqlaydi.

Buyuk qomusiy olim Forobiy o'zining musiqa haqidagi risolalarida musiqaning inson kamolotidagi o'rni xususida alohida to'xtaladi. Musiqiy ta'sirni Forobiy uch guruhga ajratadi. Ayrim musiqa asarlari kishiga ho'zur-halovat bag'ishlaydi. Ikkinchi turi esa inson his-hayajonini junbushga keltiradi, unda tushkun ehtiroslarni qo'zg'aydi va uchinchi xili esa insonni chuqur fikrlashga, tafakkur yuritishga undaydi.

Ma'lumki, bunday ta'sir natijasida inson hayotga faol qaraydigan, yaxshi va yomonning farqini his qiladigan «Ma'naviy madaniyatning zaruriy shart-sharoitlarini, ya'ni uning pedagogik asoslarini talqin qila oladigan bo'ladi.

Forobiy va musiqa mavzusidagi ilmiy maqolasida bu haqda alohida to'xtalib o'tiladi: «Forobiy musiqaning rivojlanish bosqichlarini, uning inson ruhiga u yoki bu holda ta'sir qilishini, musiqa insonga ma'naviy ozuqa berib, uni yaxshi ishlarga ruhlantirishini, xursandchilik va qayg'uda odamga hamdam bo'la olishini va nihoyat, musiqa odamni katta ishlarni amalga oshirish uchun kurashga chorlay olishini bashorat qila olgan».

Forobiy o'zining «Ixso al-ulum» asarida musiqaning inson didi, axloqi, ma'naviy kamoloti va madaniylashuv jarayoni haqida fikr yuritib shunday deydi: «Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarining tartibga solinishi va o'z substansiyasiga moslashtirilish orqali sog'ayadi».

Sharqshunos olim M.Xayrullayev o'z tadqiqotlarining bir qismini buyuk mutafakkir alloma Forobiyning ilmiy-pedagogik qarashlarini o'rganishga bag'ishlagan. Uning ta'kidlashicha, Forobiy o'z ijodida 30 ga yaqin turli sohalarga bag'ishlangan fanlarning kelib chiqishi, fanlarning tasnifi va ularga xos xususiyatlar tafsilotlariga alohida o'rin bergan.

Forobiy fanlarni tasniflashda ularning mazmuni, tabiati va yo'nalishiga ko'ra beshta katta guruhga ajratadi.

Bu guruhlarning ikkinchi yo'nalishi tasnifiy tizimida arifmetika, geometriya, optika, astranomiya, mexanika kabi fanlarning yettitasidan biri sifatida, musiqani qayd etadi.

Forobiy inson kamolotga erishish uchun eng avvalo barcha bilimlardan xabardor bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi va bunda ijtimoiy fanlar aqliy tarbiya uchun, ta'lim tarbiyaga oid siyosat, axloq va boshqalar, kishilar o'rtasidagi muloqot tartibini o'rgatish uchun zarur bo'lishi haqida fikr bildiradi. Buyuk olim bu fanlarni o'rganishning asl mazmunida insonni aql zakovatli, ma'rifatli, ma'naviyatli va madaniyatli qilish muammosi yotishini takidlaydi. «Ixsu al ulum», «Akl to'g'risida», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Fozil odamlar shahri», «Ideal jamoa haqida» kabi asarlarida allomaning pedagogik qarashlari o'z ifodasini topgan va bunda insonning ma'naviy madaniyatini, ya'ni kamolotini ta'minlash muammosi birinchi o'ringa ko'tariladi.

Ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatga erishish uchun insonlar bir-birlarining yordamlariga, tarbiyasiga muhtoj ekanligini buyuk alloma kuyidagicha ta'riflaydi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday to'zilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lishi uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilar bir-birlariga yetkazib beradi va o'zaro yordam beruvchi ko'p kishilarning intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishish uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib berdi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning alohida yashaydigan kismiga o'rnashdilar».

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida barcha mavjudotlar ichida faqat insonning xos bo'lgan xususiyat dunyoni idrok qilish, tafakkur yurita olish qudratiga ega ekanligi haqida fikr bildirar ekan, Forobiy bilishning ikki muhim jihatiga to'xtaladi. Bu hissiy bilish va aqliy bilishdir. Hissiy bilish va aqliy bilish insonga hos besh sezgi organlari orqali ko'rish, eshitish, ta'm bilish, tan sezgisi va aqliy sezgilar orqali insonni atrof-muhit bilan bog'laydi va uning barcha psixologik xususiyatlarini ishga soladi va ularning faoliyatini mustahkamlaydi. Shu tariqa insondagi xotiray olish diqqat, his tuyg'u, iroda, qobiliyat, malaka va ko'nikmalar orttirish kabi insonning haqiqiy inson ekanligini belgilovchi xususiyatlari shakllanib, kamol topib boradi. Hissiy bilishlar aqliy bilishni takomillashtirib boradi va insonda barkamol, yetuk, ya'ni ma'naviyatli va madaniyatli insonning shaxs sifatida rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Insonning kamol topishida Forobiy muhim uch jihatni ta'kidlab o'tadi:

- 1) inson o'z kamolotiga o'zi yashab turgan jamiyatda va kishilarning o'zaro munosabati muloqoti jarayonida erishadi;
- 2) inson dunyodagi barcha tirik jonzotlardan farqli o'laroq voqelikni ruhiy his qila olish va ongli mushohada qila olishi bilan ustundir;
- 3) inson o'z qobiliyatlarini, uquvini muntazam o'stirib boradi va ma'lum yetuklikka erishishga intiladi.

Forobiyning bu qarashlari insonni kamolga yetishtirishning eng muhim pedagogik manbalardan hisoblanadi.

Forobiy barkamol insonni tarbiyalashda musiqiy tovushlarning o'rni beqiyos ekanligini alohida ta'kidlaydi. Forobiyning fikricha, ohang bir necha tovushlarni birin-ketin ma'nodor qilib bayon etishdan boshlanadi. Ohanglarning tartibli ravishda mazmunan yangi-yangi talqinlar bilan kelishi kuyning ma'lum bir fikrni bayon etishiga, ma'lum bir g'oyani talqin etishga hizmat qiladi. Musiqa sadolari va ohanglarining bunday ma'no tizimi orqali bastakor yoki ijrochi o'z yuragidan aytmoqchi bo'lgan barcha fikrlarni bayon qilishga erishadi.

Forobiyning «Kitob al-Musiqiy al-kabir» («Katta musiqiy kitob») asarida musiqaga xos nazariy bilimlar bilan bir qatorda, uning inson aqliga, axloqiy-estetik qarashlariga ham o'z ta'sirini o'tkaza olishi haqida so'z yuritiladi.

Musiqani Forobiy nazariy va amaliy qismlarga bo'ladi va o'zining «Ixso al-ulum» asarida musiqaga haqida quyidagicha fikr bildiradi: «Musiqa ilmiga kelganda qisqacha shuni aytish mumkinki, u ohanglarning turlarini, ularning tuzilishi nimalardan iborat ekanligi va qaysi yo'llar bilan tashkil topishi hamda qanday hollarda o'tkir va ta'sirchan bo'lishini o'rganadi».

Ma'naviy madaniyatli odam, ayniqsa, bo'lajak musiqashunos mutaxassislari ma'lum bilimlar tizimini egallashi muhimdir. Shu o'rinda Forobiyning inson bilimlari tizimida musiqashunosning tutgan o'rni va u bilan aloqadorligi haqidagi bildirgan fikri barcha ilm sohiblari singari bakalavrlar uchun ham qimmatlidir.

«Nazariy bilimlardan xabardor yetuk san'atkor, – deb yozadi Forobiy – qaysi bilimlar bo'lmasin, shu uch narsaga ega bo'lishi kerak:

1. Har bir bilimning usul va qoidalarini to'la bilish lozim.
2. Shu bilimning turli holatlaridan hosil bo'lgan usul va qoidalarning natijalarini sharh va izoh etishga qobil va iste'dodli bo'lishi kerak.
3. Musiqa (san'ati) haqida noto'g'ri nazariyaga ega bo'lgan yozuvchilarning noto'g'ri nazariyalarini tanqid eta bilsin, xato va to'g'ri nazariyalarini talqin eta bilsin, xato va to'g'ri nazariyalar o'rtasidagi farqni ko'rsata bilsin».

Forobiy nafaqat musiqashunos olim, balki u amaliyotda ham mohir ijrochi, o'ta ma'rifatli va madaniyatli inson bo'lgan. Forobiy musiqashunos asboblari sozlarining

sehrli tovushidan qay holatda qanday foydalanish mumkinligini yaxshi bilgan va san'atning ta'sir kuchidan mahorat bilan foydalana olgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bo'lajak musiqa mutaxassislari shaxsiyatida ma'naviy madaniyatni shakllantirishda tarixiy ilmiy manbalar bilan bir qatorda buyuk allomalar hayotidan olingan ibratli hikoyatlar ham ta'limiy-tarbiyaviy jihatdan muhim pedagogik omildir. Shu ma'noda Forobiyning buyuk san'atkor bo'lganligidan dalolat beruvchi quyidagi muhim voqeaning bayoni ahamiyatlidir.

Kunlardan bir kuni Forobiy «Sohib obod» sharafiga berilgan bazmga kirib bordi. Hech kim uni tanimas ekan. Forobiy bazmga kirib, bir chekkada jim o'tirdi. Chamasi biror soat o'tgandan so'ng musiqa asbobini qo'lga olib, ajoyib bir kuy chala boshladi. Kuyning birinchi qismini chalganda, atrofdagilarning hammasi nihoyatda xursand, kayfiyatlari chog' bo'ldi. Kuyning ikkinchi qismini eshitib nihoyatda ma'yus holatga tushdilar, yig'lab ko'z yosh to'ka boshladilar. Kuyning uchinchi kismi ijro etilganda, hammalari hayajonga tushdilar, so'ngra esa uhlab qoldilar. Shunda mehmon cholg'u asbobining dastasiga «Forobiy keldi, shu yerda bo'ldi-yu, ketdi», - deb yozib ketdi.

Forobiyning ilmiy merosi, xususan, uning musiqa haqidagi traktatlari musiqa pedagogikasining metodologik asoslariga taalluqli salmoqli bir qismni tashkil qiladi.

Forobiy shuningdek nayni ham ta'riflaydi. U turli xil davomli musiqa cholg'ularini ovoz hosil qilish prinsipiga ko'ra naysimon guruhga kiritadi, ya'ni nay quvurida havoning damli harakati orqali tovush hosil bo'ladi. Ulardan oddiy nay yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay, bu turdagi bo'ylama naylar yoki turlicha, ataluvchi naylar hozirgi kunda ham sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vietnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizg'a, ozarboyjonlar ney (juda kam uchraydi), qirg'izlar uoo, chor cho'ponlari cholg'u asbobi, o'zbeklar nay deb ataydilar.

Olim ko'pincha o'rik yoki tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham to'xtaladi.

Forobiy shuningdek dunay, mizmarni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usi sosha-dilli tyuy dyuk (qo'sh qamish naychadan to'zilgan cholg'u) ga o'xshaydi.

Forobiy risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o'xshab rezenator ancha o'zun dastadan to'zilgan. Ikki chertma torli rubob mavjud bo'lgan. Birinchi yog'och dekali va asosiy qismga yog'ochdan; ikkinchi pastki qismi charmdan ishlangan dekali.

Forobiy shahodat berishicha chang, ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovush qatoriga

ega bo'lgan. Risolada ta'riflangan barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligi jo'r bo'lishida foydalanilgan. Forobiyning guvohlik berishicha ud cholg'usi ansambli ijrochiligi yetakchi rol' o'ynagan. «Cholg'u asboblari haqida kitob»da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularning udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib sharqning ulug' allomasi musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohaga asos soldi. Bu soha keyinchalik olimlarning asarlarida ham keng yoritildi va rivojlantirildi,

Abu Nasr Forobiy insonning o'z-o'zini tarbiyalashda uni estetik rivojlanishida nazm va musiqa san'atining o'rnini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, san'atning barcha turlari bir-biridan farkq qiladi; nazm san'ati so'z bilan, tasviriy san'at esa bo'yoqlar bilan, musiqa san'ati esa ohanglar bilan ish ko'radi, lekin ular insonga bir xil ta'sir ko'rsatadi

Forobiy musiqa san'atida o'z mohiyatiga ko'ra inson ruhiy hayotining in'kosi ekanligini yaxshi tushungan. Uning fikricha musiqaning kishilar tuyg'usiga ta'siri buyuqdir. Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yuqotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, nokis xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan kishilar xulqining muvozanatini saqlab turadi, deydi u. Forobiy musiqaning shifobaxsh kuchini uqtirib, «bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir» deydi.

Forobiy «Musiqha haqida katta kitob» degan ko'p jildli asari bilan o'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida mashhur bo'ldi. U musiqa ilmining nazariy va amaliy tarmoqlarini, kuylarning ichki tuzilishi, qonuniyatlarini hisobga olib, ularni ta'rif va ilmi ikoga ajratadi.

U musiqa nazariyasida tovushlar vujudga kelishining tabiiy ilmiy ta'rifini beribgina qolmay kuylar ohangdorligini matematik tamoyillarini ochadi, turli jadvalarni keltiradi. Sharq musiqasini, uning ritm-zarblari asoslarini dalillar bilan sharhlab beradi. Mutafakkirning ritm-zarb haqidagi ta'limoti tez yoki sust so'zlarni talaffuz qilishiga asoslangan. U ritm-zarblarini tashkil etgan birlikda bo'lishi nahralat, ular birikmasidan hosil bo'ladigan ruknlarning turli xillari asosida yaratiladigan ritm-zarb o'lchovlari va turlarini yoritib bergan. Musiqha haqida katta kitobda faqat musiqa nazariyasi va tarixi bayon etilmay, sharqda ma'lum-mashhur bo'lgan rubob, tanbur, nog'ora, ud, konun, nay kabi musiqa asboblari hamda ularda kuy ijro etish qoidalari tafsiloti hati berilgan. Forobiyning mohir sozanda, bastakor, xonanda va yangi musiqa asboblarining ijrochisi ham bo'lgan. Bu musiqaga inson ahloqini tarbiyalovchi sihat-salomatligini yaxshilovchi tor ilova qilib, uning takomillashtirgan, ovoz imkoniyatini oshirgan.

I. Abu Nasr Forobiyning bizgacha yetib kelgan musiqaga oid asarlari: **كتاب الموسيقى الكبير** . 1 “Katta musiqa kitobi” ning birinchi kitobi. Bu kitobning to'liq

tanqidiy matni nashr etilgan³⁰. U to'laligicha faqat fransuz tiliga erkin tarjima qilingan³¹, ayrim bo'laklari ko'p tillarga, jumladan o'zbek, qozoq, rus tillariga o'girilgan va o'rganilgan. Uning qo'lyozma matnlari dunyoning turli kutubxonalarida mavjud, xususan, eng qadimiysi 1138 yil Ibn Bojja uchun ko'chirilgan matni Madrid kutubxonasida 602 raqam ostida saqlanmoqda. Undan tashqari, 1257 yil ko'chirilgan Konstantinopol (Istanbul) kutubxonasida 22 - raqam ostida saqlanayotgan matn, 1347 yil ko'chirilgan Milan kutubxonasida 289 – raqam ostida saqlanayotgan matn va 1089 yil ko'chirilgan matndan 1537 yil ko'chirilgan Leyden kutubxonasida 1427 raqam ostida saqlanayotgan matnlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

2. كتاب إحصاء الإيقاع “Iyko sanog'i kitobi” yoki كتاب في إحصاء الإيقاع “Iyko sanog'i haqidagi kitob”. Bu kitobning qo'lyozma matni Istanbuldagi Manisa kutubxonasida 1705-raqam ostida (59a-81v, davomi 88a-89v varaqlar)

saqlanmoqda. Nemis tiliga tarjima qilingan³². 3. كتاب الإيقاعات “Iykolar kitobi”. Bu kitobning qo'lyozma matni Turkiyaning To'pqopi saroyi Ahmad III kutubxonasida 1878-raqam ostida (160v-167a bet) saqlanmoqda. Nemis tiliga tarjima qilingan³³.

4. إحصاء العلوم . 4 “Ilmlar sanog'i” kitobining musiqaga bag'ishlangan bo'limi. U ikki varaqni tashkil etadi. O'rta asr G'arb olimlari “De scintis” deb ataganlar. Arab matni ko'p bor nashr etilgan. Rus, o'zbek, qozoq tillari kabi bir necha tillarga tarjima qilingan,. 5. “Ilmlarning paydo bo'lishi” asarining musiqaga bag'ishlangan qismining lotincha tarjimasi “Dt ortu scientiari” nomi bilan saqlangan, rus tilidagi tarjimasi ham bor³⁵, ruscha tarjima asosida o'zbek tiliga ham o'girildi³⁶, ammo asli arabcha matni saqlanmagan. II. Abu Nasr Forobiyning bizgacha yetib kelmagan yoki shu paytgacha topilmagan, ammo turli qadim manbalarda zikr etib o'tilgan musiqa ilmiga oid asarlari:

1. كتاب الموسيقى الكبير “Katta musiqa kitobi” ning ikkinchi kitobi.

2. كلام في النقرة مضافا الى الإيقاع “Ikkinchi kitob” deb ataydi. “Iykoga qo'shimcha nakra haqida so'z”. Bu asarni Ibn abi Usaybia eslab o'tadi.

3. كتاب في مضافا الى الإيقاع “Iykoga qo'shimcha ko'chish haqida so'z” deb ataydi. Umuman bu asarning nomi turlicha atalib kelingan. Abu Nasr Forobiyning musiqa ilmiga oid kitoblari ichida eng ahamiyatlisi, o'z davrining buyuk musiqiy asari “Kata musiqa kitobi”dir. Mazkur kitob Abu Abbos xalifaligi davrida bir muddat (hijriy 322 – 329-yillar) vazir bo'lgan Abu Jafar Muhammad bin Kosim Kurxiy (Kurjiy) ga bag'ishlangan degan fikr ko'p ta'kidlansa ham, aslida somoniylar amiri talabiga ko'ra ta'lif etilgan va unga atalgan bo'lishi kerak. Chunki ba'zi ishonarli ma'lumotlarga qaraganda, Forobiy Damashqqa ko'chib o'tguniga qadar Vatanida bo'lgan (925-928) va Mansur ibn Nuh iltimosiga ko'ra التعليم الثاني “Ikkinchi ta'lim” atalmish juda katta hajmda

buyuk bir qomusiy asar yozgan. Bu asardan bizgacha uning mantiqiy bir parchasi va shu asar tarkibiga kirgan ikki kitobi yetib keldi. Bu kitoblardan biri, “Ptolemeyning al-Magestosiga sharh”, ikkinchisi, musiqa bo’yicha “Katta musiqa kitobi” dir. Bulardan shunday xulosa qilish mumkinki, كتاب الموسيقى الكبير “Katta musiqa kitobi” 925 – 928-yillar orasida yozilgan va u Mansur ibn Nuhga bag’ishlangan. “Katta musiqa kitobi”ni yozmasdan oldin, Forobiy musiqa ilmiga oid kichikroq asarlarini yozdi. “Forobiy yoshligidan boshlab musiqaga berilgan, o’sha paytlarda O’rta Osiyoda mavjud bo’lgan musiqa asboblarini yaxshi chala bilgan. Shu bilan birga, u musiqa nazariyasini ham mukammal egallagan”, ya’ni u musiqa amaliyoti, so’ng nazariyasi bilan yoshligidan oshno edi. Bu haqda juda ko’p rivoyatlar bor. “Katta musiqa kitobi”ning tarkibi haqida Forobiy shunday yozadi: Tarjimasi: “Biz (musiqa ilmiga oid) yozgan narsalarimizni ikki kitob qilmoqqa qaror qildik. Birinchi kitobni bu ilm qonun-qoidalarining shakllanishida foydali bo’lgan masalalar bilan boshladik va so’ng shu qonun-qoidalarga tegishli boshqa narsalarni ham qo’shdik. Unda musiqa ilmi bo’limlarini tamom o’rgandik. Biz bu borada faqat o’zimizga xos bo’lgan yo’ldan bordik, ya’ni uni o’zgalarning uslubiga o’xshatmadik. Ikkinchi kitobda bu fan sohasidagi mashhur olimlarning bizgacha yetib kelgan fikrlarini berdik, noanik, chalkash bo’lgan gaplarini sharhladik, fikrlarini bironta kitobda qoldirgan kishilarning fikrini birma-bir tadqiq etdik, ulardan har biri ilmda nimalarga erishganlarini ko’rsatib o’tdik va ilmiy qarashlarida xatoga yo’l quyganlarning xatosini tuzatdik. Birinchi kitob ikki qismdan iborat: Birinchi qism musiqa san’atiga kirish haqida va ikkinchi qism musiqa san’atining o’zi haqida. Musiqa san’atiga kirish haqidagi qismni ikki maqola (qism) dan tashkil qildik. Musiqa san’atini o’zi haqidagi qism esa uch bobdan iborat: Birinchi bob - musiqa san’atining asoslari va unga oid umumiy masalalar haqida. Bu bobdan o’z kitoblarini bizga qoldirgan qadimgi olimlar va ularga ergashib, faqat taqlid qilganlarning ko’pchiligini topamiz. Ikkinchi bobni bizdagi mashhur musiqa asboblariga bag’ishladik. “Asoslar kitobi”da keltirilgan gaplarni musiqa asboblarida (amalda) ijod qilinishi, u yoki bu asbobdan odatda chiqariladigan (nag’ma)ni tushuntirish va bu asboblarning har biridan (nag’ma) chiqarishga o’rgatuvchi ko’rsatma haqida bo’ldi.

Uchinchi bob - musiqa yaratish haqida. Mazkur uch bobning har biri ikki maqoladan iborat. Shunday qilib, birinchi kitobda hammasi bo’lib sakkizta maqola, ikkinchi kitobda esa, to’rtta maqola va bu ilm bo’yicha aniqlagan narsalarimizning jami o’n ikki maqoladan iborat bo’ldi”³⁷. Forobiy “Katta musiqa kitobi” da yunon olimlaridan ko’plarining nomlari va asarlarini tilga olish bilan birga³⁸, qadim Sharq musiqa ilmining yirik namoyandalarini eslab o’tadi.

Forobiyning musiqa nazariyasiga, ritmga va musiqaning uslublariga oid asarlari sharq xalqlari musiqa tarixida alohida o’rin tutadi.

ABU ALI IBN SINO (980-1037)

O'rta Osiyo uyg'onish davrining buyuk allomalaridan biri Abu Ali ibn Sino 57 yil o'zining estetik qarashlarida estetika bilan ahloq muammolarini bir-biriga uzviy bog'laydi. U «Kitob ush shifo» asarining so'z boshida musiqaning estetik xususiyati haqida gapirib, bu san'at turining ahloqiy tarbiyadagi ahamiyatiga musiqaning kishilarga go'zal fazilatlar singdirish imkoniyatlari haqida to'xtalib o'tadi.

Abu Ali ibn Sino yosh avlodni tarbiyalash oila va davlatning muhim vazifasi, jamiyat taraqqiyoti, uning yutuqlari bevosita ma'lumotli, madaniyatli kishilarning o'sishiga bog'liq deb hisoblaydi, bor bilimlarga ega narsalar mukammalikka moyildir deb ta'lim beradi. «Mukammallik» bu insonning ichki go'zalligi va ezgulikka intilishini ifodalaydi.

Abu Ali ibn Sino musiqaga oid 5 ta asar yozgan. Uning musiqaga doir eng katta asari «Jome' ilm-al-musiqiy» (musiqa bilimiga oid to'plam)dir. Bu kitob olimning ko'p jildlik mashhur asari «Ash-Shifo» turkumiga kirib matematik bilimlar qatoridan joy olgan.

Abu Ali ibn Sinoning musiqaga oid qarashlarini o'z ichiga olgan asarlaridan biri uning «An-Najot» kitobidir. «An-Najot» yuqorida ko'rsatilgan qisqartmasidir.

Abu Ali ibn Sinoning «Donishnoma» asarida ham musiqaga oid bo'limi bor. «Donishnoma»ning musiqa qismi to'qqiz fasldan iborat bo'lib, ularda muallif tovushlar, ularning baland pastligi, nag'malarning bir-biriga bog'liqligi, ritmlari, kuylar ijrosi musiqa asboblari va kuyni bezash kabi masalalar ustida fikr yuritadi.

Bunda ham Borbad, tanbur, shoh, rud, nay kabi asboblari haqida fikr bayon etilgan. Abu Ali ibn Sinoning musiqaga oid 4 asari «al-Madhad ilmiy minnat al - musiqiy» Musiqa san'atiga kirish kitobidir. Abu Ali ibn Sinoning bu asari ibn Abu Usaybayning ko'rsatishicha al-Najotga kirgan qism emas, u alohida bo'lib, uning bizgacha yetib kelmaganligi hozirda noma'lum. Abu Ali ibn Sino asarlari «Risola fi al-musiqiy gayr mo-fi-ali shifo»da musiqaga oid risola keltirgan.

Abu Ali ibn Sinoning musiqaga oid 5 asari «Kitob al-Lavoxik» (Ko'shimchalar kitob)dir. Bu maxsus kitob sifatida tarqatilgan va alohida nom olgan.

Abu Ali ibn Sino «Musiqa bilimiga oid to'plam» asarida musiqa tovushining sezgi organlariga ta'siri, uning yoqimli va yoqimsizligi tovushni eshitganda lazzatlanishi yo nafratlanishi insonning paydo bo'lishi haqida yozilgan. Musiqaning kishi hayotida qanchalik zarurligi va uning paydo bo'lishi sabablari

haqida fikrlar yuritiladi, chunki inson tabiati yoqimli narsalar orqali yengil tortadi, orom oladi, aks bo'lsa og'irlik tortadi, oromi yo'qoladi, nafrat ko'zatiladi.

Abu Ali ibn Sino musiqiy tovushlarning inson sezgi organlariga ta'siri beqiyosligini ta'kidlab shunday misollar keltiradi.

Tabobat olamining buyuk dahosi Abu Ali Ibn Sinoning pedagogik qarashlarida ham inson kamoloti, ma'naviyatli va axloqiy madaniyatiga oid durdona fikrlarni ko'plab uchratish mumkin. Alloma o'zining «Ash-shifo» deb nomlangan risolasining muqaddima qismida musiqa insonning ma'naviy ehtiyoji tufayli dunyoga kelishi, u tovushlar orqali o'z hissiyotida sezishi va bu kayfiyat hamda voqealar tafsilotini boshqa odamlarga ham yetkazishi mumkin bo'lgan vosita ekanligini hamda bu muloqot insonlar ongi va ma'naviyatini kamolga yetkazishi, ularni axloqiy madaniylashtirishi mumkin ekanligi haqida fikr bildiradi.

Ibn Sino tovush, ohang va nutqni o'z xohishiga bo'ysundira olishi uning kamolotga erishganligidan, uning madaniylashganligidan dalolat berishini ta'kidlaydi.

Alloma o'zining «Ash-shifo», «An-Najot», «Donishnoma» asarlarida musiqaning insonni ma'naviyashtirish quroli ekanligini o'qtiradi. Shuningdek, bunday fikrlar ibn Sinoning buyuk asari «Tib qonunlari»da ham uchraydi. Alloma bu asarida musiqasiz inson kamolotga erisha olmasligi, uning axloqiy madaniylashuvida musiqa hal qiluvchi rol o'ynashini yozadi: «...bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llash kerak, deb yozadi buyuk olim. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi».

Abu Ali Ibn Sino ruhiy kasallarni to'zatishta musiqaning shifobaxsh, ta'sirchan kuchidan foydalangan. «Risoi musiqa» asarida musiqa nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi bog'lanishlarga to'xtalgan bo'lsa, «Kitob ul-najot»da bu fikrlarni yanada chukurrok talkin qiladi va uning ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtaladi.

Ibn Sinoning musiqa tarixiga bag'ishlagan kitoblari XI-XII asrlardayok Yevropa tillariga tarjima qilinib, maktablarda musiqa darsligi sifatida foydalanilgan.

Musiqa faniga oid o'z ilmiy risolalaridan biri, xususan, «Kitob ul-najot» haqida shunday bayon qiladi: «Bu yozgan asarlarida ajdodlarimiz xikmatlaridan besh nuktasi jamlangan bo'lib, besh nuktaning to'rtinchisi «Musiqa ilmidir». Unda musiqa ovozlarining yokimli va ta'sirchan bo'lishi uchun qanday ishlar qilish lozimligi haqida yozadi hamda musiqaning yokimsiz bo'lish sabablarini anik belgilab beradi. Bu bilimlar musiqa fani uchun pedagogik manba bo'lib, u ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatga molikdir.

«Yosh chaqaloqlarning sezgi organlari hali unchalik shakllanmagan bo'ladi, unga baqirib, chaqirsangiz ham, qarsak chalsangiz ham e'tibor qilmaydi, lekin musiqa asbobining bir torini sekin chertib ko'rsangiz yosh bola sergaklanib tovushning qaysi tomonidan kelayotganligini ilg'ab olishga harakat qiladi».

Olim o'z asarlarida yokimli va yoqimsiz tovushlarning mavjudligi haqida fikrlar yuritadi. Tovushlarning cho'zimi tebranuvchi jismning ya'ni torning tebranib turish vaktiga bog'likligi, uning baland-pastligi esa tor bilan uning cholg'uvchi jism (mediatr, naxun)ning urilish tezligiga bog'likligi haqida ilmiy fikrlarni aytib o'tgan. Yoqimli tovushlar tartibga solingan bo'lib, boshlanishi va tugash toniga ega deb o'tgan fikri hozirgi kunda Kosonans deb yuritiladi.

Yoqimsiz tovushlar deb aniq ton yoki tebranishga ega bo'lmagan, noaniqlik xususiyatlariga ega tovushlarni keltirib o'tgan.

Hozirgi kunda musiqada bu- dissonans deyiladi. Ibn Sinoning musiqiy yo'nalishi bo'yicha qilgan ishlari va bildirgan fikrlari hozirgi kun «Musiqqa nazariyasi» fani uchun asos bo'lib hizmat qilgan desak xato qilmagan bo'lamiz.

Abu Ali ibn Sinoning musiqaga oid asarlarini Sharq Uyg'onish davri musiqqa madaniyati kay darajada bo'lganligini ko'rsatib turuvchi bir mezon estetik tafakkurning naqadar taraqqiy etganidan dalolat beruvchi manbadir.

4 - Mavzu: O'rta asrlar davri musiqa ta'limi

Reja

- 1. O'rta Osiyo qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri.**
- 2. Sharq xalqlarida qo'llanilgan musiqa nazariyasining yuzaga kelishi**
- 3. IX-X asr musiqa madaniyati.**

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri - O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa ko'shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy va qadimiy merosga ega. O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeologlari tomonidan topilgan yodgorliklar buning dalili bo'ladi va shu xalqlarning yuksak madaniyatga ega bo'lganligini tasdiqlaydi. Lekin arab istilosi davrida (VII-IX asrlar) boshka madaniy yodgorliklar katorida musiqaga doir yozma manbalar kam kuydirilib, yo'qotib yuborilgan. Shuning uchun O'rta Osiyo xalqlarining so'ngi ming yillik madaniyati tarixiga oid yozma manbalargina bizgacha yetib kelgan. IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda xalq ozodlik kurashining avj olishi, yerlik xalqlarning istilochilarga qattiq qarshilik ko'rsatishi va qo'zg'olonlari natijasida arab xalifaligi hukmronligi ag'darilib, mahalliy Tohiriylar va so'ngra

Somoniylar davlati barpo etildi. Bu davrda fan, madaniyat va san'atning rivojlanishi uchun bir kadar sharoit yaratildi. O`rta Osiyodan chikkan kator olimlar xuddi shu davrlarda o`rta asr fani tarixida o`zlarining ilmiy asarlari bilan jahonga mashhur bo`ldilar. Fanning boshqa sohalarida ham o`lmas ilmiy asarlar yaratgan al-Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy kabi ko`pgina buyuk olimlar musiqa nazariyasi («Ilmi musiqiy») bo`yicha ham ilmiy asarlar yaratdilar hamda Sharq musiqa fani tarakkiyoti tarixida butun bir davr ochib berdilar. Bu olimlar Sharq xalqlarida qo`llanilgan musiqa nazariyasining yo`zaga kelishida hal etuvchi rol o`ynadilar.

Buyuk faylasuf-olim, o`rta asr Sharq musiqa nazariyasining asoschilaridan biri - Abu Nasr Muhammad al-Forobiy 871 yilda Sirdaryo yoqasidagi Forob shahrida tug`ilib, 950 yilda vafot etgan. U O`rta Osiyo turkiy qabilalaridan chiqqan bo`lib, dastlabki ma`lumotni o`z yurtida oladi. Durustgina bilim egasi bo`lgan al-Forobiy Bag`dod, Damashk shaharlariga, so`ngra Misrga boradi va u yerlarda o`z ma`lumotini oshiradi. Al-Forobiy ajoyib musiqachi va musiqa nazariyachisi edi. U, o`z davrida mavjud bo`lgan barcha musiqa asboblarida chalardi. Kuylarni ayniksa nay va tanburda katta mahorat bilan ijro etardi. Ba`zi manbalarda ko`rsatilishicha, al-Forobiy **qonun** asbobini ixtiro etgan, o`sha davrlarda mashhur bo`lgan ud sozini takomillashtirishda juda katta ishlar olib borgan.

Al-Forobiy falsafa, mantiq, matematika va boshqa fanlar bo`yicha katta-katta ilmiy asarlar yaratgan zamonasining yetuk olimlaridan edi. Musiqa ilmi esa matematika fanlaridan biri hisoblanib, ularga arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa ilmlari kirardi.

Al-Forobiy o`zining musiqaga bag`ishlangan risolalarida Sharq musiqa nazariyasini asoslab berdi. Uning musiqa asarlari «Kitabo`l-musiqiy al-kabir» («Musiqaqa doir katta kitob»), «Kilamu fil-musiqiy» («Musiqaning uslublari haqida kitob»), «kitabo`l-musiqiy» («Musiqa kitobi»), «kitabun fi-ihsa`il - ulum» («Fanlar klassifikatsiyasiga doir kitob»)ning musiqaga bag`ishlangan qismi, «Kitabun fi-ihsa`il-ika`» («Musiqa ritmlari - iko` klassifikatsiyasi haqida kitob») va boshqalardir.

Al-Forobiy va o`sha zamondagi boshqa olimlarning ilmiy-nazariy asarlari zamonasi talablariga ko`ra arab tilida yozilgan bo`lib, Sharq musiqasi nazariyasining tub masalalarini sharhlab beradi. Al-Forobiyning musiqa nazariyasiga bag`ishlangan kitoblari Sharkda bu hakda yozilgan asarlarning eng mukammali va eng mashhurlaridan bo`lib, o`zidan so`nggi davrlarda yashab, ijod etgan musiqa olimlari kitoblarining yozi-lishida asos bo`lib xizmat qildi. Al-Forobiy yo`lini davom ettirganlardan biri - Abu Ali ibn Sino edi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) Buxoroga yaqin - Afshona qishlog`ida tug`ilgan. U buyuk faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib, shu bilan birga ajoyib musiqa

nazariyachisi ham edi. Ibn Sinoning «Kitabush-shifa'» («Shifo kitobi»), «Donishnoma» («Bilim kitobi»), «Risalatun fi-ilmil musiqiy» («Musiqiy ilmi haqida risola») va boshqa kitoblarining musiqaga doir qismi al-Forobiy asarlari qatorida jahon musiqasi fani va madaniyati tarixida alohida ahamiyatga ega.

Abu Ali ibn Sino musiqasi haqida maxsus asarlar yozish bilangina chegaralanmadi, balki u musiqasi nazariyasiga bag'ishlangan katta-katta asarlarini tibbiyot kitoblariga ham kiritdi. Bu tasodifiy hol emas edi, albatta. Abu Ali ibn Sino o'zining tibbiyotga oid. o'lmas asarlarida, musiqaning hissiy ta'sir kuchiga katta baho bergani holda, ruhiy kasalliklarni davolashda uni yuksak kadrladi. Xususan, Ibn Sinoning «qonunu fit-tibb» kitobida bir necha o'rinda musiqasi asarlarini ruhiy kasalliklarga «shifo dasturi» sifatida tavsiya etiladi va uning shu kabi asarlarida musiqasi nazariyasini sharhlab beradigan alohida bo'lim ajratiladi.

Uning «kitabush-shifa'», «kitabun-najat» («Najot kitobi») asarlari shular jumlasidandir. Manbalarda sharh etilgan musiqaning ayrim nazariy masalalarini taqqoslab ko'rish shuni isbotlaydiki, Abu Ali ibn Sino o'zining musiqasi haqidagi asarlarida al-Forobiyning musiqaviy-estetik qarashlarini yanada rivojlantirdi va uni yuqori bosqichga ko'tardi.

IX-X asr musiqasi madaniyati tarixida O'rta Osiyodan chiqqan buyuk olim Abu Abdullah Muhammad ibn Yusuf al-Kotib al-Xorazmiyning «Mafatixul-ulum» («Ilmlar kaliti») ensiklopediyasining musiqasi nazariyasiga bag'ishlangan qismi ham alohida o'rin tutadi. Al-Xorazmiyning asari O'rta Osiyo xalqlari fan va madaniyat tarixini yoritishda muhim manbalardan biridir.

Sharq olimlari o'zlarining ensiklopediya tarzida yozilgan kitoblarida, dastlab musiqani falsafa fanlaridan biri deb hisoblaganlar, shu bilan birga, falsafa fanlarining biri sifatida o'z asarlariga kiritganlar. Bunda ular, shubhasiz, musiqaning badiiy-estetik kuchi va ijtimoiy-tarbiyaviy rolini hisobga olgan bo'lsalar kerak.

So'nggi davrlarda esa musiqasi ilmi matematika fanlarining biri sifatida ensiklopediya tarzidagi kitoblarga kiritilgan edi.

Al-Kindiy (IX asr), al-Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy kabi mashhur olimlarning asarlari ko'p asrlar davomida Sharq xalqlari musiqasi nazariyasini sharhlab berishda asosiy manba bo'lib xizmat etdi va so'nggi davrlarda yaratilgan musiqasi risolalarining mazmunini aniklab berdi. Al-Forobiy zamonasidan boshlab, qariyb XV asrlargacha yozilgan musiqaga oid nazariy risolalarning mavzui, mundarijasi (ularning ichki mazmunidagi ba'zi tafovutlardan kat'iy nazar) bir-biriga juda ko'p masalalarda yaqin turadi.

Musiqasi nazariyasiga bag'ishlab turli davrlarda yaratilgan bu risolalarda ayrim

masalalar yo'zasidan ba'zi ixtiloflar mavjud. XIII asrning ulkan olimi Safiuddin Abdulmo'min al-Urmaviy, al-Forobiyning nazariy mulohazalarini ba'zi masalalarda to'g'ri kelmasligini isbotlashga harakat qilgan edi. Bunday ixtiloflar musiqa akustikasi, musiqa tovushi (savt yoki nag'ma), ritm (iko') ta'rifida, ud asbobidagi ayrim pardalarning o'rnini aniklashda va boshqa masalalarda o'z ifodasini topgan. Bunday ixtiloflarda kariyb, uch asrdan ko'prok davr musiqasining tarixiy tarakkiyoti jarayonida yo'zaga kelgan o'zgarishlar o'z aksini topdi. Sharq musiqa risolalarida qo'yilgan masalalar hozirgi zamon boshlang'ich musiqa nazariyasiga yaqin turadi..

Lekin o'rta asr musiqa risolalarida Sharq xalqlari o'tmish musiqasining amaliy tomonlari bilan bog'lik bo'lgan masalalar ham borki, hozirgi zamon musiqa nazariyasida bo'lar umuman uchramaydi. O'rta asr musiqa olimlari nazariy masalalarda ko'proq al-Forobiy, ibn Sino asarlarida berilgan ta'rifni asos qilib olganlar. Musiqa nazariyasi so'nggi davrlarda yashab, ijod etgan olimlar-Safiuddin Abdulmu'min, Mahmud bin Mas'ud ash-Sheroziy (XIII-XIV), Xo'ja Abdulkodir Marog'iy (XIV asr), («Jamiul-alxan», «Makasidul-alkan» risolalari avtori), al-kusayniy, Abdurahmon Jomiy (XV asr) va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan edi. Bu olimlarning musiqa risolalarida maqom masalasi musiqa nazariyasining eng yirik va tub masalalaridan biri sifatida qaraladi. Chunki musiqa nazariyasini sharhlab berishdan maqsad uni jonli musiqa asarlari - maqomlar bilan bog'lashdan hamda musiqa amaliyotini umumlashtirib tushuntirib berishdan iborat edi.

Shunday ekan, maqomlar haqidagi mulohazalarni bayon etishdan oldin ularga bog'liq bo'lgan va qadimiy musiqa risolalarida sharh etilgan ba'zi masalalar haqida qisqacha fikr yuritimiz. Bu masalalar maqomlarning nazariy va amaliy tomonlarini va umuman sharq xalqlari jonli musiqa asarlarining tashqil etadigan elementlarini ta'riflab beradi.

O'zbek xalqi uzoq musiqiy tarixiy merosiga ega. Markaziy Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotida musiqaning ma'naviy-tarbiyaviy omil sifatida keng qamrovda talqin etilishi uni pedagogik ilmlar bilan bir qatorda falsafa, tarix, musiqashunoslik, axloq ilmi asoslari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganilishini taqozo etadi. Musiqaning insoniyat hayotidagi badiiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyati haqida qator Sharq mutafakkirlari o'zlarining boshqa sohalarga bag'ishlagan asarlari ichida bayon qilganlar, shuningdek musiqiy risolalar yozganlar. IX-XII asrlarda Movarounnahrda madaniyat, ilm-fan, san'at va adabiyot islom madaniyati yo'nalishida rivojlandi va tarakkiy etdi. Bu davrda Ahmad Al Farg'oniy, Muso Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy, Abdulloh Ro'dakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, az Zamaxshariy, Yusuf

Xos Hojib, Najmiddin Kubro kabi yuzlab fozillar yashab, ijod qildilar. Bu zabardast daholar – jahon madaniyati yulduzlari qoldirgan meros ham o'zgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu daholarning falsafiy-estetik qarashlari ahli din, ilmi hayrat, ilmi hol va kol kabi ta'limotlar tarzida shakllanib, borlikni mushohada etishda, nafosat (estetik) qadriyatlarni baholashda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarimiz barkamol insonni voyaga yetkazishda badiiy–estetik tarbiya vositalari, jumladan, musiqa san'atining ahamiyatini chukuq anglab, yoshlarning ichki hissiy dunyosini boyitishda, ma'naviy - axlokiy fazilatlarini shakllantirish va kamol toptirishda musiqaning yuksak ijtimoiy jihatlariga diqqat – e'tibor bilan qarashgan.

O'sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg'u bilan ta'kidlashgan. Kelajak jamiyat a'zosining insoniy va ijobiy fazilatlarini aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Qadimgi risolalardan birida, « ... kimda–kim musiqa san'atiga murojaat etsa, uning nomiga hyech qanday dog' tushmaydi..., musiqa ta'sirida o'ziga, Vataniga katta foyda keltiradi, hyech kayerda muvozanatni bo'zmay, hamma yerda donolik va tartibga qat'iy rioya qiladi» , deyilgan.

Musiqa ashula va raks tarkibida ham vujudga keladi va keyinchalik badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi, o'ta o'ziga xos badiiy ifoda «tili»ga ega bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu «til»ning manbaidir.

Musiqa san'atida ham shoxobchalar – ko'rinishlar tizimi mavjud. Ularga tovushlar hamohangligi (simfoniya), oratoriya, ovoz va soz ijrosi ko'rinishlari kiradi. Ko'rinishlar musiqiy «til»ning nisbatan turg'un qismlari majmui bilan bog'langan bo'ladi. Shu narsa muhimki, har qanday musiqiy ko'rinish qiyofasi bitta ifoda vositasi bilan emas, balki bir necha vositalar majmui bilan belgilanadi. Mazkur qismlar, ayniqsa, vaznni mutlaqlashtirish mukarrar tarzda musiqa imkoniyatlarini cheklashga, uning g'oyali–tuyg'uli ta'sir kuchining pasayib ketishiga olib keladi. Har bir ko'rinishda bitta vositaning o'zi turlicha o'rin tutadi. Masalan, harbiy yurish (marsh) musiqada vazn tizimi, lirik musiqada esa kuy asosiy o'rin egallaydi.

Musiqani kattalar, bolalar va qarilar ham sevib tinglashadi, xoh u mumtoz bo'lsin, xoh xalq musiqasi, xoh yengil yoki vazmin musiqa bo'lsin, barchamiz uni bajonudil tinglaymiz. Ushbu musiqiy oqimlarni anglash juda qiyindir, ayniqsa bolalarga. Hayotda hamma ham musiqa tilini tushunavermaydi. Ko'pchilik mumtoz musiqamizga nisbatan o'ta befarqdir. Buning sababi bolalikda musiqiy tarbiyaga kerakli e'tibor berilmaganidandir.

O'zbek musiqasi tarixida musiqiy ta'lim qay darajada taraqqiy etganligiga e'tiborimizni qarataylik.

Temuriylar davri madaniyati va san'ati taraqqiyotida Abdulqodir Marog'iy boshchiligidagi Markaziy Osiyo musiqasi nazariyasi va amaliyoti maktabi alohida o'rin tutadi.

Afsuski, o'sha uzoq vaqtlarda qo'llanilgan o'qitish tizimi qayd etilgan yozma manbalar saqlanib qolgan emas. Faqat badiiy obidalar, zamondoshlar xotiralarida, madaniyat tarixiga oid umumiy asarlarda aks etgan bilvosita materiallar, ma'lumotlar mavjud.

Biroq bizning zamonamizgacha individual shogird tarzida musiqa o'qitish an'anasi yetib kelgan. Bunda professional musiqachi havaskor musiqachini o'qitgan. Ko'pgina mashhur o'zbek ijrochilari o'zlarining butun bir maktablariga ega bo'lganlar, bunda tahsil ko'rganlar butunlay ustoz qaramog'ida bo'lganlar. Shuningdek, bir qancha xususiy maktablar ham bo'lib, unda mashhur musiqachilar odatda muayyan miqdordagi shogirdlar o'qitganlar. Ular o'qituvchining butunlay moddiy ta'minotida bo'lganlar. Bu maktablar muayyan darajada Italiyada XV-XVI asrlarda mavjud bo'lgan badiiy maktablarni eslatadi.

Usta qo'lida 10-15 yil tahsil ko'rgan shogird tovushining harakatchanligi, nafas olish, improvizatsiya qobiliyatini egallagan. Bu maktab an'alarida turli registr to'rtta, xususan, yuqori registrda qo'shiq aytish qadrlangan. O'qitish, asosan, ustaning shogirdga ko'p miqdordagi kuy, she'r, usullarni og'zaki o'rgatishidan iborat bo'lgan. Shogird usta qanday kuylaganini, musiqa chalganini tinglashi, ko'rishi va eslab qolishi lozim bo'lgan. Musiqa cholg'ulari chalishni o'rganganda, shogird ustaning ijrochilik manerasini qabool qilgan. «Qorixonalar» (bu maktablar shunday deb atalgan) o'ziga xos o'quv yurti bo'lgan (Qori - qiroat qiluvchi, o'quvchi; xona-uy). Bu yerga yaxshi ovozga, aksari hollarda tenor diapazonli bolalar va o'smirlar qabool qilingan. Qorixonalardagi mashg'ulotlar ayrim sura (bob)lari ni yod olishdan iborat bo'lgan.

«Bu yerda musiqa cholg'ularini chalishga o'rgatilmagan, balki ovozni sozlash, kuylash manerasiga, kuyni anik qilib tiklash va ritmik tasvirga katta ahamiyat bepagan shu kuylarni qayta tiklash va ritmik tasvirning fapqli tomonlari bo'lgan, chunki suralarning kuylash aniq rechitativ, yuqori tessitura chegarasidagi kuy utitlar hamda mayin tez nihoyatda xilma-xil dinamik osenkalar hamda emosional taranglik bilan qo'shib olib borilgan». (K. Alibayeva, M. Ahmedov. Narodniye muzikanti O'zbekistana. Toshkent, O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959, 9-10-betlar).

O'zbekiston musiqa madaniyatini tarixiy jihatdan ko'rib chiqilar ekan, uning O'rta Osiyo territoriyasida yashovchi qardosh xalqlar madaniyati bilan aloqasini qayd etmoq kerak. «Qadimgi vaqtlarda O'rta Osiyoda joylashgan xalqlar-

sug'dlar, baqtriyaliklar, saklar, massagetlar o'zbeklarning ham, tojiklarning ham ajdodlari bo'lishgan. Bu sovet tarixchilari, arxeologlari, etnograflari va boshqa olimlari tomonidan isbotlangan. Shuning uchun ham bu xalqlarning madaniy merosida nihoyatda ko'p umumiylik mavjud. Boshqacha qilib aytganda, hozirgi o'zbeklar, tojiklar va O'rta Osiyoning boshqa ayrim xalqlari (qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar) qadimiy O'rta Osiyo madaniyatining vorislaridirlar. X-XI asrgacha bo'lgan O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati o'rganilarkan, uni o'zbek va tojik musiqa madaniyati taraqqiyoti uchun asos bo'lib xizmat qilgan umumiy musiqa madaniyati deb qarash kerak.

Hozirgi xalqlar shakllanmasdan ancha ilgari paydo bo'lgan O'rta Osiyo sivilizasiyasini, bamisoli rus, ukrain va belorus xalqlarining ajdodlari tomonidan yaratilgan va ruslar, ukrainlar va beloruslarga taalluqli bo'lgan Kiyev Rusi madaniy merosi singari, O'rta Osiyoning barcha xalqlari ajdodlari tomonidan yaratilgan va bu xalqlarga birdek taalluqli bo'lgan madaniy meros sifatida qarash kerak.». (*Vekslep S. M. Ocherki istorii o'zbekskoy muzikalnoy kulturi* . T., «O'qituvchi» nashriyoti, 1965,.7-bet).

Bunday fikrlar O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyatining yaqin o'zaro aloqasini tasdiqlaydi. Biroq o'zbek xalqining musiqa madaniyati yorqin va o'ziga xosdir.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati xalq va professional ijod mahsuli bo'lgan musiqa asarlari og'izdan–og'izga o'tishi asosida asrlar davomida to'plangan an'ana zahirida rivojlangan. U bizgacha hofizlar, musiqachilar, baxshilar orqali yetib kelgan. Unda xalq ijodining eng yangi namunalari, xalq hamda uning professional ijrochilari tomonidan chalingan musiqa qolgan.

San'atshunoslik doktori F. Karomatovning qayd qilishicha, «... so'ngi yillarda olib borilgan tadqiqotlarning natijalari XVIII asrda o'ziga xos nota yozuvi bo'lganidan va undan musiqaga oid nazariy ishlarda qo'llanilganidan guvohlik beradi. Lekin hozircha afsus o'z davri musiqa praktikasida keng qo'llanilganini tasdiqlovchi asos shu. Faqat musiqa folklori emas, balki o'zbek xalqining professional musiqasi ham asosan og'izdan–og'izga o'tish yo'li bilan tarqalgan». (Karomatov F. *Iz istorii zapisi muzikalnogo folklor v O'zbekistane*. Sb. statyey «Voprosi muzikalnoy kulturi O'zbekistana». G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969, 3–bet).

Tayanch tushunchalar:

1. **Q o n u n** - Forobiy tomonidan ixtiro qilingan cholg'u asbobi.
2. **"Kitabo'l-musiqiy al-kabir"** - Al-Forobiyning musiqaga bag'ishlangan risolalasi.
3. **"Risalatun fi-ilmil musiqiy"**- Ibn Sinoning musiqaga bag'ishlangan

risolalasi.

4.«**Mafatixul-ulum**» («**Ilmlar kaliti**») al-Xorazmiyning ensiklopediyasi.(uning musiqa nazariyasiga bag`ishlangan qismida, musiqa nazariyasida ham alohida o`rin tutadi)

Nazorat savollari:

1. Al-Xorazmiy- musiqa nazariyasi bo`yicha qanday ilmiy asarlar yaratgan ?
2. IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnabr va Xuroson musiqa madaniyati ?
3. O`rta asr musiqa risolalari ?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Ye.Solomonova. O`zbek musiqasi tarixi. T.1981.y.
2. I.Rajabov Makomlar masalasiga doir. T.1963.y.
3. O.Matyakubov Og`zaki an`anadagi professional musiqaga kirish. T.1983.y
4. O.Matyakubov Makomot. T.2004.y.

5 - Mavzu : AmirTemur va Temuriylar davrida musiqa madaniyati, musiqa pedagogikasi rivoji

1. **XIII - XIV- asrlar musiqa madaniyati.**
2. **Temur va uning vorislari musiqa san`atiga bo`lgan etiborlari.**
3. **Xoja Abdulqodir Marog`iy Temuriylar davri madaniyatining ko`rki .**

XIII - XIV asrlardagi O`rta Osiyo xududidagi o`zaro nizolar madaniyatning taraqqiy etishiga xalal yetkazdi. Ayniqsa mo`g`ullar istilosi davri (13-asr) da, ya`ni yirik shaharlar, jumladan Buxoro to`la yoki qisman vayronalikka uchragan davrda madaniy hayot susaydi. O`rta Osiyo Temur hokimiyati ostiga birlashtirilishi munosabati bilan XIV asrning ikkinchi yarmidanok madaniyat va san`atda yangi yuksalish boshlandi. Temur va temuriylar hukmronligi davrida O`rta Osiyo juda katta tashqi mavqeyga ega bo`ldi. Arxitektura gullab-yashnadi, davlat poytaxti Samarqand hamda Temurning ona shahri Kesh (Shakrisabz) ulkan kurilishlar bilan obodonlashtirildi va bezatildi. Bosib olingan Xuroson, Eron, Suriyaning madaniy markazlaridan Temur turli xil hunarmandlar, jumladan musiqachilarni ham keltirgan edi. O`sha davr kishilarining guvohlik berishicha, dabdabali saroy marosimlari musiqa jo`rligida o`tkazilgan. Masalan, hofizi Abro` yozadi:

«Xushovoz hofizlar va shirinnavoz sozandalar esa fors namunalari, arab ohanglari, turkiy an'analar, mo'g'ul ovozlari, xitoyliklar (ashula aytish) qonunlari va oltoyliklar o'lchovlari asosida kuy chalib, qo'shiq aytar edilar».

Taniqli olim va musiqachi Abdulqodir avval Temur, keyinchalik esa uning vorislari saroyida xizmat qilgan. U saroy musiqa shakllari bayon qilingan musiqa risolasining muallifidir. Abdulqodir madhiya xarakteridagi («Mayatayn») musiqa asari ham ijod qilgan. Risolada tarje', peshrav va boshqa bir qator bizning davrimizgacha yetib kelgan musiqa janrlari ham eslatib o'tilgan.

Movaraunnahr zaminida Amir Temur asos solgan yangi davlatda yo'zaga kelgan ijtimoiy-madaniy muhit Islom madaniyatining Ikkinchi Uyg'onish davri deb e'tirof etiladi. Shunga ko'ra saltanat poytaxtiga aylangan Samarqandga dunyoning turli burchaklaridan atoqli olimlar, hunarmandlar, shoiru san'atkorlar quyilib kela boshladilar. Ular orasida ko'plab hofizu cholg'uchilar, sozandayu go'yandalar ham bor edi.

Saltanatning bosh sozandasi Xoja Abdulqodir Marog'iy bo'ldi. U o'z davridayoq "sohibi advor" ("advor egasi"), "saromadi advor" ("advor ilmining eng oldingi vaqili") degan yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan. Temuriylar davri madaniyatining ko'rki hisoblangan Abdulqodir ijodi nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosida katta ahamiyatga ega. Musiqashunoslik borasida XX asrning yirik olimlaridan biri Genri Jorj Farmerning ta'kidlashicha, u Forobiy, Ibn Sino va Safiuddin Urmaviy bilan bir qatorda Sharq musiqa ilmining asosiy ustunlaridan hisoblanadi .

Marog'iy - zamonasining deyarli barcha diniy va dunyoviy ilmlarini egallagan, qomusiy ko'lamdagi shaxs. Olim qalamiga mansub "Zubdat ul-advor", "Makasid ul-ilkon", "Jome' ul-alkon" va boshqa musiqa risolalari bugungi kunda ham o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Bundan tashqari, u qur'on ilmini o'zlashtirgan mohir hofiz, maxsus diniy qo'shiqlar ijrochisi-go'yanda, xilma-xil asboblarda ijro etadigan zabardast cholg'uchi, arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan shoir va turli janrlardagi musiqiy asarlarning muallifi bo'lgan. So'nggi sohada u shunday bir oliyjanob namunalari ijod qilganki, ularning shon-shuhrati bizning davrimizgacha saqlanib kelgan. Masalan, Marog'iy zamonida "miyatayn" (arabcha lug'aviy ma'nosi ikki yo'z") deyiladigan 200 usuldan iborat musiqiyning murakkab shakli joriy etilgan. Marog'iyning o'zi shunday bir "miyatayn" yaratganki, uningdovrug'i keyingi vaqtlarda ham pasaygan emas. Yoki bo'lmasa, u paytlarda klassik musiqaning eng murakkab turlaridan biri - "navbati murattab"(tartiblashgan navbat) bo'lgan. Navbat (lug'atda navbaning ko'plik soni, istiloxda izma-iz keluvchi) murakkab, ko'p qismli asarni bildiradi. Murattab - "tartiblashgan", "tartibga solingan degan ma'noni ifodalaydi. "Navbati murattab" esa qonun-qoidalari muhimlashgan turkumli asar ma'nosini anglatadi. Marog'iy

davrida "navbati murattab" quyidagi to'rtga asosiy qismdan iborat bo'lgan: 1) kavl - vazmin va ulug'vor holatdagi musiqa asari, so'z matni arabcha; 2) g'azal - lirik kayfiyatdagi forsiy va turkiy she'rlar ijro etilgan asar; 3) tarona - kichikroq hajmdagi

Hirotda Temurning vorisi Shohruh saroyida, ayniqsa Samarqandda, Shohruhning o'g'li Ulug'bek saroyida musiqa taraqqiy etdi. Ulug'bek Samarqandni ilmiy va madaniy hayotning markaziga aylantirdi. U shoir va musiqachilarga homiylik qildi. Adabiyot va musiqa ko'proq xalq elementlari singdirila boshladi. Turkiy tilda ijod qiladigan shoirlar o'rtasida folklorga, turkiy xalq ohanglariga qiziqish ortib bordi. «Ma'shuqa turkiy qo'shiqlarini kuylar ekan,- deyiladi g'azallarning birida,- uning mag'rur qo'shig'i qalbimga olov yoqdi». Samarqand shoir va musiqachilarini boshqa shaharning boylari taklif qilardi. Hatto oliy martabali ruhoniylar ham musiqa ishtirokida ziyofatlarni uyushtirganlar. Biroq, bu odat diniy qoidalarga zid bo'lib, shariat peshvolarining g'azabini keltirardi. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib Samarqand o'zining madaniy mavqeyini Hirotda berib qo'ydi. Hirotda adabiyot va san'at- arxitektura, rassomchilik, musiqa yuksaldi. Hirotda madaniy hayotning gullab-yashnashi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liqdir. Chunki u shoh Sulton Husayn Boyqaroning o'ng qo'l vaziri bo'lib, shoirlar, musiqachilar, rassomlar, xususan san'atning yuqori baholangan turlaridan biri miniatyura ustalarini rag'batlantirdi va ularga yo'l ko'rsatdi.

XIII - XIV asrlardagi O'rta Osiyo xududidagi o'zaro nizolar madaniyatning taraqqiy etishiga xalal yetkazdi. Ayniqsa mo'g'ullar istilosi davri (13-asr) da, ya'ni yirik shaharlar, jumladan Buxoro to'la yoki qisman vayronalikka uchragan davrda madaniy hayot susaydi. O'rta Osiyo Temur hokimiyati ostiga birlashtirilishi munosabati bilan XIV asrning ikkinchi yarmidanoq madaniyat va san'atda yangi yuksalish boshlandi. Temur va temuriylar hukmronligi davrida O'rta Osiyo juda katta tashqi mavqeyga ega bo'ldi. Arxitektura gullab-yashnadi, davlat poytaxti Samarqand hamda Temurning ona shahri Kesh (Shahrisabz) ulkan qurilishlar bilan obodonlashtirildi va bezatildi. Bosib olingan Xuroson, Eron, Suriyaning madaniy markazlaridan Temur turli xil hunarmandlar, jumladan musiqachilarni ham keltirgan edi. O'sha davr kishilarining guvohlik berishicha, dabdabali saroy marosimlari musiqa jo'rligida o'tkazilgan. Masalan, hofizi Abro' yozadi: «Xushovoz hofizlar va shirinnavoz sozandalar esa fors namunalari, arab ohanglari, turkiy an'analar, mo'g'ul ovozlari, xitoyliklar (ashula aytish) konunlari va oltoyliklar o'lchovlari asosida kuy chalib, qo'shiq aytar edilar».

Taniqli olim va musiqachi Abdulqodir avval Temur, keyinchalik esa uning vorislari saroyida xizmat qilgan. U saroy musiqa shakllari bayon qilingan musiqa risolasining muallifidir. Abdulqodir madhiya xarakteridagi («Mayatayn») musiqa asari ham ijod qilgan. Risolada tarje', peshrav va boshka bir qator bizning

davrimizgacha yetib kelgan musiqa janrlari ham eslatib o'tilgan.

Movaraunnahr zaminida Amir Temur asos solgan yangi davlatda yo'zaga kelgan ijtimoiy-madaniy muhit Islom madaniyatining Ikkinchi Uyg'onish davri deb e'tirof etiladi. Shunga ko'ra saltanat poytaxtiga aylangan Samarqandga dunyoning turli burchaklaridan atokli olimlar, hunarmandlar, shoiru san'atkorlar quyilib kela boshladilar. Ular orasida ko'plab hofizu cholg'uchilar, sozandayu go'yandalar ham bor edi.

Saltanatning bosh sozandasi Xoja Abdulqodir Marog'iy bo'ldi. U o'z davridayoq "sohibi advor" ("advor egasi"), "saromadi advor" ("advor ilmining eng oldingi vaqili") degan yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan. Temuriylar davri madaniyatining ko'rki hisoblangan Abdulqodir ijodi nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosida katta ahamiyatga ega. Musiqashunoslik borasida XX asrning yirik olimlaridan biri Genri Jorj Farmerning ta'kidlashicha, u Forobiy, Ibn Sino va Safiuddin Urmaviy bilan bir katorada Shark musiqa ilmining asosiy ustunlaridan hisoblanadi.

Marog'iy - zamonasining deyarli barcha diniy va dunyoviy ilmlarini egallagan, qomusiy ko'lamdagi shaxs. Olim qalamiga mansub "Zubdat ul-advor", "Makasid ul-ilkon", "Jome' ul-alkon" va boshka musiqa risolalari bugungi kunda ham o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Bundan tashqari, u qur'on ilmini o'zlashtirgan mohir hofiz, maxsus diniy qo'shiqlar ijrochisi-go'yanda, xilma-xil asboblarda ijro etadigan zabardast cholg'uchi, arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan shoir va turli janrlardagi musiqiy asarlarning muallifi bo'lgan. So'nggi sohada u shunday bir oliyjanob namunalar ijod qilganki, ularning shon-shuhrati bizning davrimizgacha saqlanib kelgan. Masalan, Marog'iy zamonida "miyatayn" (arabcha lug'aviy ma'nosi ikki yo'z") deyiladigan 200 usuldan iborat musiqiyning murakkab shakli joriy etilgan. Marog'iyning o'zi shunday bir "miyatayn" yaratganki, uningdovrug'i keyingi vaqtlarda ham pasaygan emas. Yoki bo'lmasa, u paytlarda klassik musiqaning eng murakkab turlaridan biri - "navbati murattab" (tartiblashgan navbat) bo'lgan. Navbat (lug'atda navbaning ko'plik soni, istiloxda izma-iz keluvchi) murakkab, ko'p qismli asarni bildiradi. Murattab - "tartiblashgan", "tartibga solingan degan ma'noni ifodalaydi. "Navbati murattab" esa qonun-qoidalari muhimlashgan turkumli asar ma'nosini anglatadi. Marog'iy davrida "navbati murattab" quyidagi to'rtga asosiy qismdan iborat bo'lgan: 1) kavl - vazmin va ulug'vor holatdagi musiqa asari, so'z matni arabcha; 2) g'azal - lirik kayfiyatdagi forsiy va turkiy she'rlar ijro etilgan asar; 3) tarona - kichikroq hajmdagi

Hirotda Temurning vorisi Shohruh saroyida, ayniqsa Samarqandda, Shohruhning o'g'li Ulug'bek saroyida musiqa taraqqiy etdi. Ulug'bek Samarqandni ilmiy va madaniy hayotning markaziga aylantirdi. U shoir va

musiqachilarga homiylik qildi. Adabiyot va musiqaga ko`proq xalq elementlari singdirila boshladi. Turkiy tilda ijod qiladigan shoirlar o`rtasida folklorga, turkiy xalq ohanglariga qiziqish ortib bordi. «Ma`shuqa turkiy qo`shiqclarini kuylar ekan,- deyiladi g`azallarning birida,- uning mag`rur qo`shig`i qalbimga olov yoqdi». Samarqand shoir va musiqachilarini boshqa shaharning boylari taklif qilar edi. Hatto oliy martabali ruhoniylar ham musiqqa ishtirokida ziyofatlarni uyushtirganlar. Biroq, bu odat diniy qoidalarga zid bo`lib, shariat peshvolarining g`azabini keltirar edi. Hirotda madaniy hayotning gullab-yashnashi Alisher Navoiy nomi bilan bog`liqdir. Chunki u shoh Sulton Husayn Boyqaroning o`ng qo`l vaziri bo`lib, shoirlar, musiqachilar, rassomlar, xususan san`atning yuqori baholangan turlaridan biri miniatyura ustalarini rag`batlantirdi va ularga yo`l ko`rsatdi.

Tayanch tushunchalar:

1. **Abdulqodir Marog`iy** - Taniqli olim va musiqachi .
2. **"Saromadi advor"** - advor ilmining eng oldingi vaqili degan yuksak unvon
3. **"Miyatayn "** - arabcha lug`aviy ma`nosi ikki yo`z degan. 200 usuldan iborat musiqiy murakkab shakli
4. **"Murattab"** - "tartiblashgan", tartibga solingan

Nazorat savollari:

1. Saroy marosimlari qanday o`tkazilgan ?
2. Temuriylar saltanatning bosh sozandasi kim bo`lgan ?
3. Marog`iy - musiqadan tashkari qanday ilmlarini egallagan ?
4. Temurning vorislaridan kim Samarkandni ilmiy va madaniy hayotning markaziga aylantirgan ?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Ye.Solomonova. O`zbek musiqasi tarixi T.1981.y.
2. I.Rajabov Makomlar masalasiga doir T.1963.y.
3. O.Matyakubov Og`zaki an`anadagi professional musiqaga kirish T.1983.y
4. O.Matyakubov Makomot T.2004.y.

Ma'ruza matnlari

6-Mavzu: Musiqa san'atining tarbiyaviy ahamiyati.

Reja:

1. O'zbek xalq musiqa pedagogikasida ta'lim-tarbiya uslubiyotlari.

2. Respublika umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi Kontsepsiyasining qabul qilinishi va ahamiyati.

3. Kontsepsiya tuzilishi, uning boblari xususida.

O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruxiyati, oliy insoniy fazilatlari, badiiy ma'naviyati, istiqlol va mustaqillik uchun kurashi hamda orzu-umidlari yorqin ifodasini topadi. Shuningdek o'zbek musiqasi ta'lim-tarbiyasi uslubiyotiga doir mukammal maktablar shakllangan. Milliy an'anaviy musiqa pedagogikasida quyidagi musiqa ta'lim-tarbiyasi uslubiyotlari mavjud:

1. Ommaviy xalq musiqa pedagogikasi. Bu xalqning kundalik hayotida, oilaviy marosim, mehnat jarayoni va boshqalarda o'z ifodasini topib, tabiiy ravishda va beixtiyor amalga oshirilib boriladi. To'y-hashamlarda, ta'zionalarda musiqaning ommaviy janrlari yakka va jamoaviy tarzda ijro etiladi. Shu jarayonda yangi kuy hamda qo'shiqlar vujudga keladi. Bu esa xalqning badiiy musiqiy rivojida, musiqa merosimizni boyitishda, ayniqsa yosh avlodni axloqiy-badiiy tarbiyalashda bebaho omil hisoblanadi.

2. Kasbiy musiqa ta'limi uslubiyoti mukammal maktabga ega. Uning amaliyotida ta'limning ilmiyligi, davomiyligi va izchilligi mantiqan bog'langan. Ta'lim mazmuni kasb fazilati va nafosati hamda sharqona axloqiy tarbiya tufayli bo'ydir. Bunda ustoz-shogird amaliyotida ustozni tajribada ega ekanligi ayniqsa, mohir ijrochiligi va ma'naviy boyligi muhim rol o'ynaydi. Yosh san'atkorlar yillar davomida musiqani nazariy va amaliy mukammal o'rgangandan so'nggina xalq xizmatiga bel bog'lashga, ustozlar oq fotahasini olganlar. Kasbiy musiqa ustozligida mohir ijrochilar- cholg'uchilar-xalfalar, dostonxonlar va maqomchilar uetishib chiqadi. Ayni holda ularning ko'pchiligi bastakorlik ilmidan ham saboq olib, musiqa merosimizni boyitib kelmoqdalar.

Xalq va kasbiy musiqa pedagogikasi amaliy o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini boyituvchidir.

3. Milliy musulmon maktablari va madrasalarida musiqa falsafa ilohiyot va adabiyot ta'limi bilan uygun tarzda bog'lanib o'qitiladi. Bu ko'proq savod chiqarish va Qur'oni Karim suralarini qiroat qilish jarayonida yakka, guruhli va jamoaviy talaffuz ifodaliligi va musiqiy ohangdorligi (aniq-burroligi,

mantiqiyligi, tovush hosil qilish va ovoz maromlari, nafas tartiblari v.b.) ustida muayyan usullarni qo'llab ish olib boriladi.

Adabiyot fanini o'qitilishi ham san'at sifatida azaldan musiqa bilan uzviy bog'langan. Bunda she'riyat va musiqa vaznlari aruz o'lchovlari asosida mushtarak o'rganilgan. Shu bois ko'pchilik adiblar va olimlar musiqa ilmining rivojiga salmoqli ulush qo'shganlar. Madrasalardagi o'ziga xos badiiy ta'lim musiqa merosimizning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu ko'proq so'fiylar ta'limoti ta'sirida maqomlar hamda darvishlar, zikrchilar va qalandarchilikning musiqiy-badiiy mazmunida falsafiy g'oyalarning rivojlanishi uchun muhim rol o'ynagan.

Sho'ro davrida O'zbekiston maktablarida musiqa san'ati fan sifatida o'qitilganligi, ijobiy hol bo'lgan, albatta. Bunda muayyan tajribalarga, maxsus kadrlar tayyorlashga erishildi. Ammo bu tadbirlar yosh avlodning musiqa madaniyatini tarkib toptirishiga uetarli darajada qodir bo'lolmadi. Bunda quyidagi muammolar sabab bo'ldi:

- Musiqa o'qitish nazariyoti va amaliyoti mazmuni va uslubiyoti tor kommunistik g'oyaviylik qolipidagi Rusiya maktablari dasturlari va o'qitish uslubiyotiga asoslanganligi, milliy musiqa pedagogikasi bilan uzviy bog'lanmaganligi;
- Musiqa predmetiga ikkinchi darajali fan sifatida qaralib, unga oz o'quv soati ajratilganligi, zaruriy shart-sharoitlar yaratilmaganligi hamda uslubiy va moddiy ta'minotning zaifligi;
- Musiqadan iqtisodli va iqtisodiy cheklangan bolalarning bir qolip, bir sharoitda o'qitilishi, qobiliyatli bolalar va o'quvchilar iqtidorini rivojlantirish uchun bog'cha va maktablarda zaruriy shart-sharoitlar yaratilmaganligi, qobiliyatli bolalar uchun turli tipdagi maxsus musiqa va san'at maktablarining kamligi;
- bolalar musiqa folklori deyarli tadqiq etilmaganligi, to'planmaganligi hamda nashr etilmaganligi, milliy bolalar cholg'u asboblari yaratilmaganligi;
- kompozitor va bastakorlarimiz asosan bolalar qo'shiqlari yaratish bilan kifoyalaniib, kichik va syujetli cholg'u hamda musiqa sahna asarlari esa deyarli yaratilmaganligi;
- musiqadan kam va sifatsiz o'qituvchi kadrlar tayyorlanganligi, ularning umumiy hamda milliy musiqadan nazariy va amaliy bilim-malakalarining sayozligi kabilar sabab bo'ldi.

Yuqoridagilarning har biri bugungi kunda dolzarb muammoga aylandi. Bu inqirozli ahvoldan chiqishning yagona va to'g'ri yo'li musiqa ta'lim-tarbiyasini milliy-madaniy an'analar asosida qayta qurishdan, maktablarning moddiy uslubiy ta'minotini yaxshilashdan va ixtisosli kadrlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Toki

musiqa ta'lim-tarbiyasi «millatni oliy maqsadga chorlovchi, uning vakillari kelajakda ishonch tuyg'usini uyg'otuvchi, yaratuvchilik va bunyodkorlik faoliyatiga ko'maklashuvchi oliy maqsadi – ma'naviy madaniyatimizning yuksalishiga munosib hissa qo'sha olsin».

Musiqa ta'lim-tarbiyasining yangi Kontsepsiyasiga asosan musiqa ta'lim-tarbiyasi maqsadi – yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qilib, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan hamda qadrlaydigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishdan iboratdir. Buning uchun har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyogini oshirish, musiqadan zaruriy bilim, amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish- maktab musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Mazkur oliy maqsad va vazifani amalga oshirishda «Musiqa» faniga ijtimoiy rivojlantiruvchi omil sifatida qarash, muammolarni hal etishda keng o'qituvchilar ijodiga tayanish, musiqa o'qitish uslubiyotini har tomonlama ilmiy-metodik izlanish natijalari va ilg'or tajribalar asosida takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Musiqa ta'lim tarbiyasi Kontsepsiyasining 3-bobi «Musiqa ta'lim-tarbiyasida mazmuni, tuzilishi va tabaqalanishi» deb nomlanadi. Musiqa sabog'i tarbiyalovchi, shaxsning badiiy tafakkurini shakllantiruvchi ta'lim sifatida muhimdir. Uning vositasida nafosat hissiyotlarini tarbiyalash bilan birga yosh avlodda oliy insoniy fazilatlarini tarkib toptirish nazarda tutiladi. Bunda milliy va umumbashariy musiqa ta'limshunosligi hamda o'qitish uslubiyotiga tayanish lozim bo'ladi. Musiqa ta'lim va tarbiyasi mazmunida esa milliy musiqa merosimiz asosiy o'rin egallaydi. Milliy musiqamiz qonuniyatlariga qiyoslab qardosh xalqlar va umumbashariy musiqa madaniyati bilan tanishish, ya'ni «ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarining ustivorligi»ga amal qilish musiqa o'qitishning muhim didaktik yo'nalishi hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni ikki shaklda – dars va sinfdan (shuningdek, maktabdan) tashqari musiqiy mashg'ulotlar tarzida amalga oshiriladi. O'qitishning asosiy hamda barcha o'quvchilar uchun zaruriy shakli musiqa darslaridir. SHu bois dars tuzilishlari va o'qitish usullarining xilma-xil shakl turlarini qo'llash va tajriba jarayonida darsning yangi tuzilma, usullarini kashf etish dolzarb masala bo'lib turadi. Bunda milliy va Sharq musiqa ta'limshunosligini o'rganish, undan unumli foydalanish muhim omil hisoblanadi.

Musiqa ta'limi nazariyoti va amaliyoti ilg'or tajribalarga tayanadi, uning mazmuni musiqa san'atining umumiy qonuniyatlariga tayangan va musiqiy-mavzuviy tizim asosida ishlab chiqilgan dasturlar asosida amalga oshiriladi. Unda ta'lim-tarbiya uyg'unligiga amal qilinadi va maktab bitiruvchilarining barcha

fanlar qatori musiqa san'ati sohasida ham ijobiy ko'nikmalarni shakllantirib, madaniy hayot uchun zarur bo'ladigan umumiy bilim malakalariga ega bo'lishlari ko'zda tutiladi.

Musiqa ta'lim-tarbiyasi mazmuni quyidagicha tarkib topadi:

Boshlang'ich maktab (I-IY-sinflar). Boshlang'ich maktabda o'quv musiqa madaniyatining asosiy poydevori shakllanadi. Ammo maktabgacha tarbiya inson shaxsi shakllanishining muhim, mas'uliyali davri sifatida mustaqil ahamiyat kasb etadi. Chunki u boshlang'ich ta'limning tayyorgarlik bosqichidir. Shu bois, bolalar bog'chalariga qatnamaydigan bolalar uchun davlat aralash (qisman pulli) hamda xususiy (pulli) shakldagi musiqiy-badiiy tayyorlov guruxlarini ochish (san'at, nutq, axloq, tabiatshunoslik, hisob o'qitish)ga e'tibor kuchaytiriladi.

Boshlang'ich maktab musiqa darslarida bolalarning aqliy rivojlanishlari me'yoriga mos oddiy musiqiy bilim, tushuncha va malakalar tarkib toptiriladi.

Musiqani tinglash, qo'shiq kuylash, oddiy cholg'ularda chalish orqali badiiy idrok etish, musiqadan olgan taassurotlari, bilganlari haqida gapirib berish, asarni badiiy baholash, musiqa ijodkorligi malaka-ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyotlari vositasida o'quvchilarda musiqaga havas va badiiy ehtiyoj uygotiladi.

Musiqa darslari maktabda teng huquqli fan hisoblanib, haftada ikki soatdan o'qitiladi, maktab o'quv rejalari va dasturlariga yozma ishlar, reyting hamda muqarrar va ixtiyoriy imtihonlar joriy etiladi.

Iqtidorli va ishtiyoqmand o'quvchilar badiiy ehtiyojlariga qarab fakultativ darslar, musiqa to'garaklari va boshqa mashg'ulotlarda badiiy rivojlantiriladi. O'quvchilarni musiqiy rivojlantirish, badiiy ehtiyojini qondirish, iqtidorli o'quvchilarni ijobiy rivojlantirish yo'lida tabaqalashtirib o'qitish uchun zarur imkoniyatlar yaratiladi.

Kontseptsiyada tabaqalashtirib o'qitishning quyidagi shakllari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Musiqani chuqur o'rganuvchi maktab (sinflar) ochiladi; iqtidorli bolalar uchun o'quvchilar uylarida turli musiqa to'garaklari va studiyalari hamda bolalar musiqa maktablari tarmoqlari kengaytiriladi; malakali mutaxassis va zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo'lgan maktablarda cholg'uchilik, raqs, xonandalik va boshqalardan guruxli hamda yakka darslar, ota-onalar roziligi va maktab pedagogik kengashi qarori bilan yarim pullik yoki to'la pullik yakka hamda guruxli musiqa darslari tashkil etiladi.

Iqtidorli o'quvchilar badiiy ehtiyojlarini qondirish yo'lida izlanishlar olib boriladi, bunda rivojlangan mamlakatlar tajribalari o'rganiladi. Musiqani mufassal o'rganadigan kollejlarda va litseylarda ochiladi, xususiy san'at maktablari tarmoqlarini rivojlantirishga imkoniyatlar beriladi.

Musiqa o'qitishning barcha shakllariga doir dasturlar ilmiy asosda ishlab chiqiladi va yangi darsliklar, o'quv metodik ko'rgazmali qo'llanmalar yaratiladi. Eng yaxshi dasturlar va darsliklar uchun tanlov e'lon qilinadi.

Kontseptsianing 4-bobi «Hozirgi zamon musiqa o'qituvchisi» deb nomlanadi. Unda hozirgi zamon musiqa o'qituvchisi yuksak madaniyatli, o'z kasbiga cheksiz sadoqat, ilg'or pedagogik tafakkur egasi bo'lmog'i lozimligi ta'kidlanadi. U o'zini uzluksiz kasbiy va madaniy rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi shartligi, musiqa, nafosat (estetika), pedagogika va psixologiya-fiziologiya fanlaridan, xususan musiqani o'qitish uslubiyotidan kompleks tarzda chuqur bilim hamda malakalar egasi bo'lmog'i darkor. Ayniqsa, musiqa o'qituvchisi ixtisosida zarur me'yorda cholg'uchilik, xonandalik, xor dirijerligi va musiqa nazariyotchiligi sifatlariga ega bo'lmog'i lozimligi ham alohida o'qittiriladi. Zamonaviy musiqa o'qituvchisi milliy musiqa hamda o'zbek adabiy tilini mukammal bilmog'i, umumbashariy musiqa madaniyatidan, kundalik musiqaviy-madaniy hayotdan voqif bo'lishi shart. Musiqa o'qituvchisi pedagogik muloqot egasi bo'lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozimligi aytib o'tiladi.

Musiqa o'qituvchisi kasbiy sifatlariga ta'rif berilib, hozirgi musiqa o'qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi, izlanuvchan va ijodkor bo'lib, musiqa o'qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog'i lozimligi bayon etiladi. O'qituvchi musiqa ta'limi va tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik hayot bilan bog'lab, boyitib olib borishi kerakligi haqida ham uqtirib o'tiladi.

Izlanuvchan va ijodkor o'qituvchining ilg'or tajribasi va kashf etgan yangi usullari maktabdagi musiqa ta'lim-tarbiyasini doimo takomillashtirib, rivojlantirishning asosiy tayanchi, ilhom manbai ekanligi, bilimdon va tajribali musiqa o'qituvchisi san'at ziyolisi sifatida maktabda musiqiy-ma'rifiy ishlarning sarkori bo'lishi lozimligi eslatib o'tiladi.

Kontseptsianing so'nggi 5-bobi «Musiqa ta'lim-tarbiyasining ilmiy-uslubiy ta'minlanishi»ga bag'ishlanadi.

Unda umumiy ta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi mazmuni hamda uslubiyoti milliy musiqa boyligimiz madaniy an'analarimizga tayangan holda ishlab chiqiladi. Bunda qardosh va jahon xalqlarining bu sohadagi ilg'or tajribalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi. Shu asosda yangi o'quv dasturlarining xilma-xilligiga erishilishi aytib o'tiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodkorligi va izlanuvchanligiga keng imkoniyatlar berilishi, ularning tajribalariga tayanib, yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratishlarida, bu ishga bilimdon olimlar, tajribali musiqa muallimlari keng jalb etiladi. Birinchi navbatda ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, bugungi ilmiy ishlaridagi sun'iylik, ilmiy sayozlik,

ko'chirmachilik, amaliyotdan uzoqligiga barham berish choralarini ko'rilishi alohida uqtirib o'tiladi. Buning uchun ilmiy pedagogik tadqiqot ishlariga ko'proq tajribakor amaliyotchi o'qituvchilar jalb etilishi, keng sinov amaliyotlaridan hosil bo'lgan puxta nazariyot asosidagina metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi haqida aytib o'tiladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi Kontsepsiyasining qabul qilinishi muhim madaniy-ma'rifiy ahamiyatga molik masalalardan biridir. Mazkur hujjatda Respublika xalq maorifi tizimida musiqa ta'lim-tarbiyasi ishining rivojlantirish istiqbollari, musiqa madaniyati fanini o'qitishni sifatli bosqichga ko'tarish, musiqa ta'limi maqsad vazifalari asosida ma'rifiy-musiqiy ishlarni tashkil etish, musiqa o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligi ishlarini yanada takomillashtirish xususidagi istiqbol yo'nalishlar bayon etib berilgan. Bugungi kunda musiqa madaniyati fani o'qituvchilari, shu soha bo'yicha tayyorlanayotgan bo'lg'usi mutaxassislar albatta, Respublikada musiqa ta'lim-tarbiyasining yangi Kontsepsiyasini qunt bilan o'rganib, unda izohlangan boblarning mohiyatini chuqur tushunib, idrok etib o'zlarining pedagogik faoliyatlarida tadbiiq etishlari lozim.

Savollar:

1. Musiqa ta'lim -tarbiya uslubiyotlari haqida ma'lumot.
2. Ommaviy xalq musiqa pedagogikasi .
3. Kasbiy musiqa ta'limi uslubiyoti.
4. Milliy musulmon maktablari va madrasalarida musiqaning falsafa, ilohiyot va adabiyot ta'limi bilan bog'liq holda o'itilishi xususida.
5. Sho'ro davrida musiqa ta'lim-tarbiyasidagi mazmuni haqida tushuncha.
6. Musiqa ta'lim-tarbiyasi Kontsepsiyasiga ta'rif.
7. Boshlang'ich sinflarda musiqa ta'lim-tarbiyasining mazmuni.
8. Musiqa ta'lim-tarbiyasi Kontsepsiyasi boblari xususida.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Xalqning milliy ruxiyati, kasbiy musiqa ta'limi, aruz o'lchovlari, sufiylar ta'limoti, ijtimoiy rivojlantiruvchi omil, nafosat hissiyotini tarbiyalash, badiiy tafakkur, musiqa san'atining umumiy qonuniyatlari, ta'lim-tarbiya uygunligi, tabaqalashtirib o'qitish, istiqbol yo'nalishlar, ma'rifiy- musiqiy ishlar.

Mavzu yuzasidan adadiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha sinf dasturi. (1-7 sinflar). – T., 1998.
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya. - T., 1999.
3. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi Kontsepsiyasi. «Ma'rifat» gazetasi, 1992, 25-noyabr.
Hasanov A.Sh. Musiqa va tarbiya. - T., 1993.

7-Mavzu: Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning shaxs tarbiyasida musiqa ta'limining roli haqidagi qarashlari.

(1 4 1 4 - 1 4 9 2)

Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad, Jomiy — fors-tojik she'riyatiga katta hissa qo'shgan shoir, olim, faylasuf-so'fiy. Abdurahmon Jomiy 1414 yil 7 noyabrda Samarqand viloyatining Jom deb yuritiladigan joyida tug'ilgan. O'qishni erta boshlagan. U birinchi ta'lim olgan joyi Xirotdagi «Dilkash» madrasasi bo'lgan. Shu vaqtning o'zida u arab tilini o'zlashtirdi. O'z bilimlarini yanada oshirish maqsadida u Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida o'qishni davom ettirdi. U yerda Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi buyuk falaqiyotshunos olimlardan, musulmon xuquqshunosligi (fiqxi bo'yicha Fazlulloh, Abullays va boshqalardan ta'lim oldi. Til, adabiyotni o'rganishni davom ettirdi, matematika, astronomiya, falsafa, xuquqshunoslik, dinshunoslik asoslari, hadislar va ularning tafsirlarini o'zlashtirdi.

Jomiy Xirotda qaytib, so'fizm falsafasi bilan jiddiy shug'ullandi. Uning ma'naviy ustози (piri) Shayx Sa'diddin Qoshg'ariy bo'lib, Jomiy uning o'git va ma'ruzalarini tingladi. Sufizmning yorqin vakili Xo'ja Ahror bilan tanishdi. So'fizm asoschisi Bahouddin Naqshband va uning izdoshlarining g'oyalari ta'siri ostida Jomiyning dunyoqarashi shakllandi, bu uning asarlarida o'z aksini topdi. Jomiy Shohrux, Abulqosim Bobur, Abu Said, Xusayn Boyqaro kabi temuriylar xukmronligi davrida Xurosonda yashadi. Xirotda Xuroson hokimiyatining tepasiga Sulton Xusayn Boyqaro kelganida, Jomiyning nomi yanada ko'proq taniladi. Husayn Boyqaro uni o'z avlodining muridi deb e'lon qiladi.

Jomiy Alisher Navoiy bilan Abusaid hukmronligi davrida tanishadi. Navoiy Jomiyning juda hurmat qilar va uni o'zining piri va do'sti deb hisoblardi. Jomiyning ko'plab asarlari Alisher Navoiyning ta'siri va maslahati bilan yozilgan.

Joiny Xirotda 1492 yil 8 noyabrda vafot etadi.

Jomiy 100 ga yaqin adabiy va ilmiy asarlar yaratdi. «Lujjat ul- asror» («Sirlar dengizi», 1475), «Ashiat ul-lamoat» («Yiltillagan nur», 1476) kabi diniy-falsafiy qasidalarini Ibn Sinoga bag'ishlaydi. U qator dostonlar ham yaratgan. Jumladan, «Hirodnomai Iskandariy» (1485) Nizomiyning «Iskandarnoma» asari taassuroti ostida yozilgan, «Yusuf va Zulayho» (1483), «Layli va Majnun» (1484) va boshqa asarlari muhabbat mavzusiga bag'ishlangan. Pedagogika va tarbiya masalalari bo'yicha 7 ta doston yaratgan. Ulardan biri - «Silsilat o'z-zahab» («Oltin zanjir»)ning (1472) o'g'liga nasihat bobida Jomiy shunday yozadi:

*Kitobg'a yuz o'girgin, ey, jigarim farzandim,
Kitobg'a ulfat bo'lg'in, quloqqa ol bu pandim.
Tanholikda munising, bilsang agar kitobdir,
Donolikning tongiga, shu'la sochar kitobdir.
Bepul, beminnat senga, ustoz bo'lib o'qitar,
Bilim bag'ishlab senga, chigallaringni yechar,
Kitobdur yaxshi hamdam, teri yopingan olim,
Ish siridan goh so'zlab, ammo goho turar jim.
Uning ichi g'unchadek, varaqlardan liq to'la,
Har vorog'i guyoki, durdonadir bir yo'la.*

Uning Navoiy iltimosiga ko'ra va Forobiyning musiqa haqidagi asarlari ta'siri ostida yaratilgan «Risolai musiqi» («Musiqa risolasi») asari musiqa sohasida juda mashhur bo'lgan.

Nizomiddin Mir Alisher, Navoiy – buyuk o'zbek shoiri, mugafakkir, davlat arbobi.

Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Xirotda temuriylar sulolasiga yaqin bo'lgan oilada tug'ildi. Bolalik chog'idan bo'lajak sulton Xusayn Boyqaro bilan birgalikda tarbiyalandi. O'qishni erta boshladi, 4 yoshidanoq maktabga bordi va boshlang'ich bilimlarni tez o'zlashtirdi. O'zbek tilidan tashqari, u fors tilini mukammal egalladi. 10 yoshidan she'rlar yoza boshladi, 15 yoshida tan olingan shoirga aylandi. Turk tilidagi she'rlarni u Navoiy, fors tilidagilarni esa Foniylar taxallusi ostida yozardi. 1455-1457 yillar davomida, otasi va Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur vafotidan so'ng Navoiy o'ziga eng yaqin kishilarni yo'qotganligidan qattiq iztirob chekdi. 1457 yilda sulton Abu Said hokimiyat tepasiga kelgach vaziyat keskinlashdi. Navoiy bu paytda madrasada tahsil olardi, keyin esa Xirotda kuchib o'tdi, ammo Samarqandga jo'nab ketishga majbur bo'ldi va bu yerda 1456-1469 yillarda o'qidi va ishladi. Xuroson taxtiga Xusayn Boyqaro o'tirgach, Alisher Navoiy uchun yangi hayot boshlanadi. Alisher Navoiy 1469 yilda Xirotda qaytib do'sti va safdoshiga bag'ishlangan o'zining yangi «Hiloliya» qasidasini tortiq qiladi. Xusayn Boyqaro Alisher Navoiyni avval muhrdor, keyin

maslahatchi, 1472 yilda esa bosh vazir etib tayinlaydi. Bu lavozimda Alisher Navoiy 15 yil ishladi. Bu yillar Xurosonda ilm-fan, madaniyat, san'at gullab-yashnadi, tinchlik va farovonlik hukm surdi (birorta ham urush bo'lmadi). Madrasalar, machitlar, kutubxonalar, shifoxonalar va boshqa inshootlar barpo etildi. Ushbu tadbirlar uchun Navoiyning o'zi ham mablag' ajratadi. Xurosonda bu davrda buyuk olimlar, musiqachilar, rassomlar yashab ijod qildilar. Ular orasida buyuk miniatyurachi va rassom Kamoliddin Behzod, Alisher Navoiy o'zining ustози va do'sti hisoblagan shoir, olim va faylasuf Abdurahmon Jomiyilar bor edi. Navoiy o'zining fors tilidagi «Tuhfat ul-afkor» nomli katta qasidasini Jomiyga bag'ishlagan. Bu davrda Navoiy turkiy-o'zbek tilida yana bir nechta yirik devonlar — «Badoye' ul-bidoye» («Badiiylik ibtidosi»), «Navodir un-nihon» («Behad nodirliklar»), «Chixil **hadis**» («Qirq hadis» yoki «Arbain»), shuningdek o'zining muammoli masalalarni yozish metodlari to'g'risidagi «Mufradot» nomli adabiyotshunoslikka oid she'riy asarlarini yaratadi. Nihoyat, 1483-1485 yillarda Navoiy o'zining besh dostonidan iborat mashhur «Xamsa»sini yaratadi. Bular: «Hayrat ul-abror.» («Yaxshilar hayrati»), «**Farhod va Shirin**», «Layli va Majnun», «Sab'ayi sayyor» («Yetti sayyora»), «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») dostonlaridir. Bu buyuk asar o'zbek poeziyasini shon-shuhratga burkadi va jahon adabiyoti xaznasidan joy oldi.

Alisher Navoiy obro'sining xalq orasida tobora ortib borishi, samarali ijodi unga qarshi saroy fitnalariga sabab bo'ladi. 1487 yilda Xusayn Boyqaro Navoiyni bosh vazir lavozimidan ozod qiladi va uni Astrobodga hokim qilib jo'natadi, bu yerda **ham** u obodonlashtirish ishlari, she'riyat va ilm-fan bilan shug'ullanishni davom ettiradi. Astrobodda u o'zining «Chor devon» asarini yozadi. Biroq, ikki yildan so'ng, Alisher Navoiyning davlat ishlaridagi salohiyati va xalq orasidagi obro'-e'tiborini anglab yetgan Xusayn Boyqaro Navoiyni Xirotda qaytaradi. Ammo Navoiy o'ziga taklif etilgan davlat lavozimlaridan voz kechadi. Navoiyni saroyda olib qolish uchun maxsus «Sultonga eng yaqin shaxs» lavozimi joriy qilinadi. Ushbu lavozimda u barcha davlat ishlarida ishtirok etishi va sulton bilan uchrashishi mumkin edi. Shularga qaramasdan, Navoiy davlat ishlari bilan kamroq qiziqar, ko'proq ijod bilan shug'ullanardi. Alisher Navoiy Said Hasan Ardasher (1488), Abdurahmon Jomiy (1492), Pahlavon Muhammad (1493) kabi do'stlari, shoir va olimlarning vafotidan qattiq iztirobga tushardi. Ularning xotirasiga bag'ishlab u bir nechta asar yozadi. Shuningdek, u Xusayn Boyqaroning suyukli nabirasi, o'zining shogirdi Mo'min Mirzoning o'ldirilishidan iztirob chekadi, u kelajakda Mo'min Mirzoning davlat arbobi bo'lib etishishiga umid bog'lagandi. Bularning hammasi, so'zsiz, Navoiyning sog'ligiga ta'sir qilmay qolmasdi. Hayotining so'nggi yillarida Navoiy ijod bilan faol shug'ullanishni davom ettiradi. Uning qalamiga mansub «Majolis un-nafois» («Nafis majlislar», 1492), «Mezon

ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi», 1494), «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari», 1495), «Chor devon» (1498-1499), «Devoni Foni» (1499), «Lison ut-tayr» («Qushlar tili», 1499), «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi», 1499), «Mahbub ul-qulub» («Qalblar sevgilisi», 1450) kabi poeziya, tarix, ilm-fan, pedagogikaga oid durdona asarlar yaratildi.

1501 yilning boshlarida sulton Xusayn Boyqaroning harbiy yurishdan qaytayotganini eshitgan. Alisher Navoiy sultonga bag'ishlangan o'zining so'ngi she'rini yozadi va 1501 yilning 3 yanvarida u bilan tantanali uchrashuvda hushidan ketib, buyuk shoir hayotdan ko'z yumadi. «Hamma — sultondan tortib to hunarmandgacha g'am chekardi, — deb yozadi solnomachi, - ko'kka ko'tarilgan faryodlardan uning musaffo sathi bulutlarga to'ldi va ko'z yoshlar yerga shiddat bilan oqa boshladi»

Alisher Navoiyning adabiy merosi butun insoniyatning madaniy boyligi hisoblanadi. Navoiy iqtidorining dahosi cheksiz. Uning **asarlaridagi** shoirona obrazlar, fikrlarning donoligi va olijanobligi hayotni yorqin ideallarning sofliigi bilan yoritib turadi. Navoiy haqida xalq orasida rivoyat va naqlar to'qilgan. Ot-onalar o'z farzandlariga uning nomini quyishadi. Shahar va qishloqlarga, kucha va maydonlarga, teatr va ta'lim muassasalariga uning nomi berilgan.

Pedagogika, musiqa, musiqa pedagogikasida Navoiyning obro'-e'tibori ulkan. Uning kitoblari va asarlari asosida yoshlar tarbiyalanadi. Uning «Hamsa» («Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ayin sayyor», «Saddi Iskandariy»), «Fikrlar hazinasi», «Qalblar sevgilisi», «Ikki til muhokamasi» va boshqa asarlarida yuksak ma'naviy va estetik g'oyalar haqida so'z yuritiladi, onaga, otaga, oilaga, mehnatga, o'qishga bo'lgan muhabbat kuylanadi. Navoiy asarlarida shaxsning sofdillik, kamtarlik, mehr-shafqatlilik, olijanoblik, donolik, saxiylik kabi sifatlariga yuksak baxo beriladi, o'zini yaxshi tutish borasida nasixatlar qilinadi, bilimga, xayot va turmushni farovonlashtirishga intilish rag'batlantiriladi, insonning ma'naviy go'zalligi ulug'lanadi. Navoiyning pedagogik qarashlari aql-idrok, ma'naviylik, estetik kutarinkilik va chuqur insonparvarlikka asoslangan.

Musiqa san'atida xalq va kompozitorlik ijodiyotining katta, ulkan hajmdagi musiqa asarlari Navoiy nomi bilan bog'liq. «Navoiy» so'zi «kuychan, ohangdor» ma'nosiga ega ekanligi bejiz emas. Navoiy bolaligida usha davrdagi taniqli musiqachi, bastakor Xoja Yusuf Burhon qo'lida musiqadan saboq olgan. Uning o'zi ham kuy va qushiqlar bastalagan. Navoiy doimiy ravishda musiqachilarga homiylik qilgan. Yuqorida tilga olingan asarlarda u musiqa cholg'ularini tavsiflaydi, xofiz va ijrochilar, maqomlar, musiqaning kuch-qudrati, uni qabo'l qilish xususiyatlari, musiqa tarbiyasi tug'risida so'z yuritadi.

Alisher Navoiyning tog'asi Muhammad Ali, taxallusi «G'aribiy» «Ko'proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xub erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi».

Alisher Navoiy o'zining «Munshoot» («Maktublar majmui») asarida asrab olgan o'g'liga murojaatini keltiradi, biroq uning ismini aytmaydi. Maktub monolog xarakterida bo'lib, unda u o'g'lining o'zini yomon tutishidan noroziligini ifoda etadi, xolbuki uning tarbiyasiga ko'p kuch va e'tibor sarflagan edi, Maktubda o'g'liga nisbatan quyidagi gina so'zlari mavjud: «Men seni davrning Fisog'ursi qildim, sen musiqa nazariyasi bo'yicha bilimlar egasi bulding, Abu Nosir Forobiydek yuksaklikka erishding, mana shu sifatlar tufayli sen taniqli kishilar, hatto xukmdor suhbatlari va majlislarida ishtirok etishga muyassar bo'lding. Biroq, afsuski, sen bularning hammasini qadrlamading va yana aysh-ishrat, beadabliklarga berilib ketding. Sen ko'p marotaba kechirim surading va qaytadan fitna va pastkash odamlar dunyosiga shung'iding».

Uning zamondoshlari Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Xusayniylarning musiqa xaqidagi ilmiy ishlari Alisher Navoiy maslaxatlari asosida yaratilgan, ulardan ayrimlari esa Navoiyga bag'ishlangan.

A.Navoiy so'zlariga juda ko'plab xalq ashulalari, katta ashula va maqom musiqasi mavjud. Masalan, musiqashunos Zarifa Karimova o'zining «Navoiy v muzike» kitobida ta'kidlashicha, taniqli toshkentlik xofiz Mulla Tuychi Toshmuxamedov (1863—1943) repertuaridan tashkil topgan «Armug'oni Xislat», bayon (turli mualliflar to'plami) dagi Navoiyning «Qora ko'zim» g'azali — «Ushshoq» kuyiga, «Soxar Hovar» («Tong shafaq quyoshi») - «Savti bayot» kuyiga ijro etilgan. Akademik Yunus Rajabiyning ta'kidlashicha, «Bayot II», «Guluzorim», «Ushshoq», «Qo'sh chinor», «Kucha bog'i II», «Hargiz», «Hanuz», «Chorgox II» va «Yali-yali» nomli qadimiy ashulada Navoiy so'zlaridan foydalanilgan. Bu asarlar uzoq vaqtlar davomida faqat Navoiy so'zlari bilan ijro etib kelingan. Tuxtasin G'ofurbekovning tadqiqotlarida, yuqorida keltirilgan Navoiy so'zlari bilan ijro etiladigan xalq musiqasidan tashqari, yana «Navo», «Dugoh», «Iroq» maqomlari ham ko'satiladiki, ulardagi kuplab musiqalar Navoiy g'azallari bilan ijro etiladi. Darvesh Ali Changiyning (XVI asr) musiqa haqidagi risolasida kursatilishicha, qadimdan mavjud bo'lgan 12 usuldan 7 tasi Alisher Navoiyga tegishli bo'lgan. Navoiy she'rlaridan xalq musiqasida foylalanilishiga yana ko'plab misollar keltirish mumkin.

Agar xalq musiqa ijodiyotida kuplab asarlar Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq bo'lsa, kompozitorlik ijodida esa bunday asarlar behisobdir. Bularning hammasi «Navoiy va musiqa» katalogi, lug'atini yaratishga turtki beradi. 1920 yillarda shoir va dramaturg Xurshid tomonidan «Farhod va Shirin» (1922), «Layli va Majnun» (1925) spektakllari sahnalashtirilgan. Bu spektakllar uchun, asosan,

xalq musiqasi tanlangan. «Layli va Majnun» boshqa spektakllardan farqli ravishda tuliq musiqa jo'rligida quyilgan. Shu sababli u opera deb atay boshlangan. Spektaklga musiqani Tolibjon Sodiqov bastalagan. Ammo, spektaklda xalq, maqom musiqasi ham ishlatilgan. Quyidagi musiqali dramalar ana shular jumlasidan: N.N.Mironov va T.Sodiqov «Layli va Majnun» (1933), V.A.Uspenskiy «Farxod va Shirin» (1934), bu spektakl 1936 yilda G.Mushel bilan hamkorlikda qayta ishlangan. 1940 yilda R.M.Glier va T.Sodiqovning «Layli va Majnun» (Xurshid librettosi) — dastlabki o'zbek operalaridan biri yaratildi. Keyin «Sab' ai sayyor» dostoni asosida M.Leviyevning «Suhayl va Mexri» baleti (1948) va M.Ashrafiyning «Dilorom» operasi (1958) yaratiladi. Simfonik ijod soxasida G.Mushelning Ikkinchi simfoniyasi (1941), V.Zolotarevning «Navoiyning 6 g'azali» (1941), A.F.Kozlovskiyning «Donolarga ug'itlar» kantatasi (1948), M.Burxonovning «Alisher Navoiyga qasida» (1986) va «Alisher Navoiy» operasi (1986), M. Tojiyevning so'z ustasi va simfonik orkestr uchun «Shoir muhabbati» (1968), Yunus Rajabiy va Sayfi Jalilning «Navoiy Astrobodda» musiqali dramasi (1967), M.Burxonovning Uyg'un va I.Sultonning «Alisher Navoiy» dramasi yozgan musiqasi (1943), «Alisher Navoiy» kinofilmiga R.M.Glier va T.Sodiqovlar yozgan musiqa (1948), R.Abdullayevning «Navoiy xotirasiga» simfonik poemasi (1971), I.Akbarovning «Shoir xotirasiga» poemasi (1954), «Xamsa» poemasi (1988), «Layli va Majnun» baleti (1968), M. Bafoyevning Navoiy she'rlariga «Konsert-rapsodiya», «Ruboiy» asarlari (1979), N.Zokirovning «Istadi» poemasi (1968), X.Rahimovning «Navoiy g'azallariga poema» (1990) va boshqa asarlar yaratildi.

Yuqorida keltirilgan asarlar ruyxati yirik shakldagi musiqa asarlarini tuliq qamrab ololmaydi. Lekin, shu misollarning uzidanoq «Alisher Navoiy» mavzusida yaratilgan asarlar xajmi qanchalik katta ekanligini tasavvur qilish mumkin. Tabiiyki, Navoiy so'zlariga yozilgan kichik shakldagi vokal asarlar — qushiqlar, romanslar, vokal turkumlari, xor uchun asarlar boshqa janrlardan son jihatdan ustunlik qiladi.

«Mahbub ul - qulub»dan
Yigirma ikkinchi fasl

Mutrib va mug'anniyalar zikrida

Mutribi tarab afzo, mug'anniyi g'amzudo — ikkisiga dardu hol ahli jon qilurlar fido.

Ulki ko'rguzgay muloyim taronau nag'ma, agar eshitguvchining hayoti naqdi anga fido bo'lsa ne g'am. Kungul quvvati xushnavozdin, ruh quti ovozdin. Xushxon mug'anniydin dard ahlining o'ti tezdur, agar malohati bo'lsa, hol ahlig'a

rustoxezdur. Har mug'anniyki, dardmandonaroq nag'ma chekar, aning zaxmasi zaxmliq yurakka qorgarroq tegar. Otashin yuzluk mug'anniyki, halqidin muloyim surud chiroqq'ay, hol axlining kuygan bag'ridin dud chiqorg'ay. Muloyim mutribki, tab' va faxm anga yor bo'lg'ay, odamiy kungli toshdin bo'lsa anga zor bo'lg'ay, xususanki, xam aytgay va ham cholg'ay, ko'ngul mulkiga ne qo'zg'olonlarki solg'ay.

Suluk ahlig'a bir maxuf yer bu manzildurkim, anda xam kamol, xam nuqson hosildur. Solik bu yerda bir muhlik **oh** bila ham maqsudg'a yetibdur va bir na'rai jonkoh bila yillar kozg'ong'oni ham ilgidin ketibdur.

Shibliy va Nuriy... samo'da kettilar va bu yo'l suluki bila ma ksud sarmanzili'ga yettilar. Baso ahlullohki, arg'anun unidin dayrg'a kirdi va din va islom naqdin mug'bachalarga boy berdi.

Mayxonada kimki maydin ibo qilg'ay, nay uni bir dilkash navo bila ani rasvoqilg'ay. Agar kishi may havosin boshidin chiqorur, g'ijjak maddi nolasi bila anga yolborur. Va tanbur nardadag'i fitnadin halok etar va ofiyat pardasin chok etar va chang zorlik bila bugzin tortar va ud lisoni nag'masining targ'ibi changdin ham ortar. Andakim, rubob boshin yerga quyub niyoz kurguzgay va qo'buz quloq tutub ayshg'a targ'ib ohangin tuzg'ay. Chun konun va chag'ona nolasi quloqqa tushgay va mahvashi soqiy yukunub, may ayoqqa tushg'ay, ul vaqt zuhdu taqvog'a ne e'tibor va hushu xiradg'a ne ixtiyor. Agarchi ishq faqr aqlini rasvo qilurda bulardin farog'dur va lekin ul o'tni yoruturg'a nay damidin yelu maydin yog'dur. Arab tevasi «xudiy» lahni bila bodiya qat'ida tez bo'lur, bulut buxtisi ra'd sadosidin soiqa angez. Insong'a maxzi g'alat hayoldur va odamiyg'a bu ofatdin qutulmog'liq maholdur.

Ammo bu toifaning soiri ham agarchi tarab oyin va mehnatzudodurlar va lekin filhaqiqat, laim siyrat va gadodurlar. Ayt quvchi va cholg'uvchi zorlig' va iynalmak bila olg'uvchi. To buyurg'uvchida sila va in'om bor, alar mulozimdurlar va xizmattor. To suxbatda ne'mat kup, alarga barcha amru naxying jub. Chun bazmda tana'um oz bo'ldi, alar ishi istig'nou noz bo'ldi. Ne'mat degan nimaki tamom yuq bo'ldi, alarning kungli sendin tamom to'q bo'ldi. Agar yillar baxra olibdurlar ehsoningdin, oshnolig' bermay utarlar yoningdin. Oz olsalar nosipos, kup olsalar haqnoshunos. Aksari fosiq va badxo'y va qolg'oni kajtab'u durushtguy. Xarakotlari tuzuksiz so'zlaridek va kalimotlari xashv va maxalsiz nozlaridek. Vafo alar tab'idin maslub. Vafo axli alar olida mardud va mankub. Mug'anniy vafosiz, kungir xayosiz. Agar yillar rioyat qilibsen va hamxonadur, bir katlaki nima bermading begonadur.

Er suratida shohidedur tannoz va muloyim kisvatida muf-sidedur xona barandoz. Xavosqa dilfirebedur savt va nag'am bila, avomg'a rohzanedur tablu alam bila. Nazm:

*Kishiga bo'lmasun bu fitna duchor,
Ki unidin najoti tayri uchor,
Yonsa ko'nmoqqa tabl urar har dam,
Kim o'shul kushqa ko'prak o'lg'ay ram.*

"Mahbub ul- kulub" kitobidan

«Ashulachi va cholg'uvchilar — mutrib va mug'anniylar to'g'risida»

Shodlik oshiruvchi xonanda, g'amni tarqatuvchi sozanda — bularning har ikkisiga hissiyotga berilgan kishilar **va** ahli dardlar jon fido qilardir. Modomiki, ular muloyim tarona bilan kuylar ekanlar, eshituvchining naqd xayoti unga ne g'am? Axir, kungil xush oxangdan quvvat, **ruh** esa xush ovozdanda oziq oladi. Yoqimli ovozu mahorat bilan kuylaydigan xonandadan dard axlining o'ti yana alangalanadi. Agar go'zal bo'lsa, hissiyot ahlining o'rtasida qiyomat kutariladi. Har bir sozandaning kuyi dardliroq ijro **etilsa**, uning chertishi dardli yurakka katqroq ta'sir qiladi. Ochiq chehrali xonanda yoqimli ovoz bilan kuylasa, dardli odamning kuygan bag'ridan tutun chiqaradi. Fahm-farosatli sozandaning yoqimli ijrosi xatto toshko'ngil odamni **ham** maftun qiladi. Xususan o'zi cholib, o'zi kuylasa, kungil mulkiga qo'zg'olon soladi.

Suluk ahlig'a yashirin bo'lgan bu manzilda inson ham kamolot topadi, ham zarar orttiradi. Solik bu yerda bir dardli **oh** bilan maqsadiga yetibdur va bir na'rai jonkoh bilan yillar buyi qozongani ham ilgidan — qo'lidan ketibdur.

Shibliy va Nuriy... samo'da ketdilar va bu yo'l tariqat birla maqsad manziliga yetdilar. Kup olloxni istaguvchilar arg'anun — organ sadosiga maftun bo'lib, butxonaga kirdi **va** dinu islom naqdini mug'bachalarga boy berdilar.

Mayxonada kimki may ichishdan ibo qilsa, nay ovozi bir dilkash navo bilan uni rasvo qiladi-quyadi. Agar kishi may zavqini unutib, ichishdan tortilar ekan, g'ijjak cho'ziq nolalar chekib, unga yolboradi va tanbur pardalari maftunkorlik bilan xalok etadi, uning xalovat pardasini chok etadi, chang zorlanib, bug'zini cho'zadi: ud tilining ingrab yolborishi changnikidan xam ortadi. Qachonki rubob boshini yerga quyib iltimos qilganda, qo'buz quloq tutib, kayf-safo ohangni tuzadi. Bular bilan baravar qonun va chag'ona asboblarining nolasi quloqqa eshitilganda, shu payt oydek soqiy qadahlarga may quyib, ta'zim bilan uzatsa, parhezdorlikka kim e'tibor beradi-yu, aql-hushning ixtiyorini kim o'z qo'lida tuta oladi?! So'fi va taqvodorlarga ham bu bazmda e'tibor qolmaydi, Garchi ishq ahlining rasvo bo'lishi uchun bu narsalarga extiyoj yo'q esa-da, ularning dard o'tiga nay yel berib, may esa yog' bo'lib tuyiladi va u yanada alanga oladi.

Arab tevasi haydovchining "huddiy" degan xonishi bilan sahroda yurishini tezlatadi, bulut parchasida esa moma qaldiraq sadosidan chaqmoqcha kadi. Inson

musiqa sadosini tinglar ekan, xayoli bo'zilishi tabiiy va odamniig bu jon ofatidan qutilishi maholdir.

Ammo xonanda va sozandalarning sayoqlari, garchi g'amni tarqatuvchi, shodlik taratuvchi bo'lsalar **xam**, lekin xaqiqatda pastkash va tilanchidirlar. Bunday ashulachi va cholg'uvchilar zorlanib va yalinchilik bilan pul topadilar. Agar buyuruvchidan in'om-ehson bo'lsa, uning xizmatini bajaradilar. Suxbatda noz-ne'mat tukin bo'lsa, ular har qanday amr-farmonni bajarishga tayyordirlar. Agar bazmda maishat kam bo'lsa, ular nozistig'no va injiqlik bilan qiliq kursatadilar. Va agar noz-ne'mat degan narsa tamom yuq bo'lsa, ularning kungli sendan o'zildi xisob. Ular agarchi yil buyi sening ehsoningdan baxramand bo'lgan esalar-da, yoningdan tanimay o'tib ketaveradilar. Oz olsalar – yerga o'radilar; kup olsalar — qadrlamaydilar. Ularning kupchiligi axloqsiz, badfe'l, qolganlari **ham** ulguday qaysar va dag'al so'zli bo'ladilar.

Xarakatlari xaddan tashqari tuturuqsiz so'zlaridek, gaplari esa bemaxal kelgan nozlaridek, ular vafo degan fazilatdan benasib qolganlar; shuning uchun vafodorlar ular oldida qadsiz va xarob. Vafosiz mug'anniy-hayosiz muttaham. Agar yillar bo'yi izzat-hurmat qilib, unga yedirib- ichirgan bo'lsang ham bir gal uni quruq quysang — sendan kechadi, tanimadi quyadi. Bular erkak suvratidagi tannoqlar va bashang kiyim kiygan uy buzur axloqsizlardir. Ular qo'shiq aytib va soz chalib, ba'zilarni talovchi, yo'lto'sarlardir:

Masnaviy:

Xech kimga bu fitna duch kelmagay,

Chunki ovoizdan najot qushi uchib ketadi,

Kush ko'nmoqchi bo'lsa, doim dovul uradi,

Bu bilan o'sha qushni uzoq muddatga hurkitib yuborish mumkin.

8-mavzu: O'rta asr mashhur musiqachilarning musiqa ta'limi va pedagogika rivojiga qo'shgan hissalar

Qadimgi yunon olimi Aflotun o'zining «Davlat haqida» asarida jamiyatni jismoniy, ma'naviy jihatlardan rivojlantirishda sport va musiqa mushg'ulotlari katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlangan edi.

«Agar gimnastika gavdani mustahkamlash uchun zarur bo'lsa, musiqa esa qalb gimnastikasidir» - degan edi. Pifagor maktabi tomonidan musiqaning kishilarga poklovchi ta'siri xususida axloqiy yo'l-yo'riqlar sistemasini ishlab chiqilgan.

Aflotun, Arastu, Plutarxlar har qanday ijtimoiy tarbiya, xox pedagogik, xox estetik, xox intellektual bo'lsin, asosan musiqaviy tabiyaga asoslanishi haqidagi fikrga keladilar.

Biz mashhur tabib deb bilgan Abu Ali ibn Sino san'atining ikki turi – she'riyat bilan musiqani sintez qilishga, ma'naviy tarbiyada ular o'ynaydigan rolga, ularning o'zaro aloqadorligiga katta ahamiyat bergan. Ibn Sino o'zining musiqaga doir risolalarida «latif musiqa yoqimli kayfiyat yaratadi hamda ko'ngilni ochadi, yomon musiqa esa zardani qaynatadi» - deb o'qtiradi. Musiqaning ta'siri g'oyat keng miqyosli bo'lib, uning samarasini yo'qdir.

Hozirgi zamon musiqa ta'limi haqida gapirsak, umumiy dunyo qarash insonning voqeylikni bilishiga asoslanadi. Ta'lim jarayonini bilish jarayonining turi bo'lib, o'quv materialini o'zlashtirish bilishning maqsadi hisoblanadi.

Musiqa san'ati vositalari yordaimida badiiy obrazni bilishda, umuman hosil qilingan bilimlarning miqdoriy olami ham katta rol o'ynaydi. Shunday qilib, musiqa darslarida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda ularning bilish faoliyatini aktivlashtirish uchun quyidagi jihatlarni ta'minlash zarur.

Maqsad mavjudligi hamda shaxsning yuksak ma'naviy hislatlarini rivojlantirish.

Musiqaning o'quvchilar ma'naviy olamiga emosional ta'siri.

O'quvchilarning bilish faoliyatida amaliy jihatlar birligi.

Voqeylik va san'atning ijtimoiy roli ahamiyatini ko'rsatish va musiqa qonuniyatlarini anglash.

O'z bilganlarini amaliy qo'llay bilish mahoratini hosil qilish.

Musiqa asarlarini ahloqiy, falsafiy, ijtimoiy – siyosiy pozisiyadan turib baholay bilish.

Musiqa darslarida bilish aktivligining ushbu jihatlari o'quvchilar dunyoqarashlarini shakllantirish muammolarini ochib berishni boyitadi. Shuning uchun ham biz maktabda musiqadan yuksak darajada amaliy va nazariy bilim bermog'imiz kerak.

Musiqa va qo'shiqni sevgan, unga ixlos qo'ygan kishidan hech qachon berahm, qotil kishilar chiqmaydi. Chunki musiqaning ta'sir kuchi bor. Musiqa insonning ruhiga ta'sir etadi, ruh bu jon demakdir.

Musiqa pedagogikasi tarixi, umuman pedagogika tarixi kabi qadimiy ildizlarga zga. Yer yuzida inson paydo bo'lgan davrdan boshlab yuzaga kelgan musiqa pedagogikasi tarixi insoniyat sivilizasiyasi, uning musiqa madaniyatining rivojlanish mohiyatini aks ettiradi. Diniy marosim, raqslaridan to zamonaviy baletgacha, alladan to kantata va operalargacha, xalq maishiy tarbiya metodlaridan to zamonaviy, axborot pedagogik texnologiyalargacha musiqa pedagogikasi musiqa san'atini o'zlashtirshi, tovushlar olami go'zalligi va mukammalligining

badiiy xususiyatini anglash va tushunishning yangidan yangi imkoniyatlarini ochib bermoqda.

O'zbek musiqa pedagogikasi tarixi musiqa ta'limi va tarbiyasining eng yaxshi shakl va uslublarini asrlar davomida rivojlantirib, boyitib kelayotgan xalq madaniyati va turmushi bilan bog'liq. Musiqa pedagogikasi sohasida tuplangan tajriba har tomonlama o'rganilishi va kelajak avlodlarga yetkazilishi lozim. Mazkur bobning mazmuni ushbu musiqiy- pedagogik boylikni o'rganishga bag'ishlangan.

Musiqa pedagogikasi rivojining tarixiy davrlari va madaniy asoslari

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi va suvereniteti e'lon qilingandan boshlab (1991) xalq xo'jaligining barcha sohalarida o'zbek xalqining milliy madaniy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirish masalalari juda, muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Istalgan milliy madaniyatning hayotiy muhim bo'lgan ushbu asosi umuminsoniy madaniy boylikni rivojlantirishning bazaviy poydevori hisoblanadi. Milliy madaniy qadriyatlarni dunyo miqyosida rivojlantirish — jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotining garovidir, zero milliy madaniy qadriyatlarda vaqt sinovidan o'tgan avlodlar aql-zakovati, insoniyat tajribasi muhrlangan.

Mana shu metodologik asosga tayangan holda, musiqa ta'limi va tarbiyasi tarixi, nazariyasi va metodikasining bundan keyingi rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladigan o'zbek xalqining milliy, tarixiy va madaniy qadriyatlarining shu bazaviy asosini ko'rib chiqamiz. Bundan asosiy maqsad — ushbu yo'nalishdagi mavjud ma'lumotlarni yagona tarkibda umumlashtirish bo'lib, undan O'zbekistondagi musiqa ta'limi va tarbiyasi tizimining pedagogik nazariyasi va amaliyotida ko'rgazmali qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

Mazkur tarkibda quyidagilar taqdim etilgan: O'zbekiston rivojlanishining tarixiy bosqichlari, adabiy yodgorliklar, shuningdek musiqa madaniyati va musiqa pedagogikasi tizimlari. Ushbu tarixiy va madaniy asoslar musiqa pedagogikasi tarixini o'rganishda bazaviy poydevor vazifasini o'taydi.

Rivojlanishning tarixiy davrlari

Eramizgacha 500 minginchi yil — Selungur (Farg'ona vodiysida), Ko'lbuloq (Toshkent yaqinida) — O'zbekiston hududida qadimiy odam madaniy hayotining qoldiqlari topilgan.

Eramizgacha 150 minginchi yil — I ming yillik — Teshiktosh, Omonqo'ton, Obirahmat, Uchtut, Zamonbobo, Chust, Amirobod, Sopollitepa va boshqa tarixiy madaniyat yodgorliklari.

Eramizgacha I ming yillik — eramizning I asri — Baqtriya, Xorazm, Sug'd (Sug'diyona), Parfiya, Marg'iyona, Afrosiyob, Kant, Parkana, Tohariston va boshqa qadimiy davlatlar.

/—XIV asrlar — Kushon podshohligi, Xunnu, Xeonitlar, Eftalitlar, Turk hoqonligi, Arab halifaligi (Movarounnahr), Somoniylar, qoraxoniylar, qarluqlar, Uguzlar, Saljuqiylar, Oltin O'rda (Chig'atoy ulusi).

XIV—XVI asrlar — Temur va temuriylar, Shayboniylar.

XIV—XIX asrlar — o'zbek xonliklari (Xiva, Buxoro, Qo'qon).

An'anaviy maktablar, "ustoz-shogird" ta'lim tizimlari.

1865—1917 yillar — o'zbek xonliklarining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi. Jadidlarning madaniy-ma'rifiy faoliyati (Munavvarqori, Bexbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Avloniy, Ayniy, Zafariy, Shakuriy va b.). Ular tomonidan yangi uslub maktablarining tashkil etilishi.

1917—1924 yillar — sovet totalitar tizimining o'rnatilishi, Xorazm XSR , Buxoro XSR , Turkiston ASSRning tashkil etilishi.

1924—1991 yillar — O'zbekiston SSRniig tashkil topishi. 1928 yil arab yozuvidan lotin yozuvi grafikasiga, 1940 yildan kirill yozuvi grafikasiga o'tish.

1991 — O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi. 1995 yildan O'zbekiston maktablarining birinchi sinflarida lotin yozuvi grafikasi asosidagi ta'lim joriy etildi.

Musiqqa madaniyatining adabiy yodgorliklari va yozuv manbalari

1. Avesto, Qur'on, Hadislar, rivoyatlar, pand-nasihatlar, dostonlar, musiqa asarlari va b.

2. O'rta asr Sharq olimlarining musiqa haqidagi kitob va risolalari.

Forobiy -- (873—950) - "Kitab al-musiqqa al-kabir" ("Musiqqa haqida katta kitob"), "Risolai musiqiy" ("Musiqqa hakida risola"), "Kitab fi ixsaasnafil iyqa'at" ("Ritmlar toifalarining tasniflanishi haqidagi kitob"), "Kitabul-iyiqa'at" ("Ritmlar hakidagi kitob"), "Kitab fi-n naqra muzafa ilal iqa'" ("Ritm bilan bog'liq kuylar hakidagi kitob").

Ibn Sino (980—1037) - "Kitab ash - Shifa " ("Shifolar kitobi")ning "Matematika" bo'limidagi "Javami ilm al-musiqqa" ("Musiqqa haqidagi ilmlar to'plami") , "Kitab an-Najot" ("Najotlar kitobi")dagi musiqa haqidagi bob, "Donishnoma" kitobidagi musiqa haqidagi bo'lim.

Ixvon al-Safa (Tozalik og'alari) (X asr) — "Kitabul ixvanus safa xullan ul vaf'a" ("Tozalik og'alari va sodiqlik do'stlari nomasi") kitobida musiqa haqida.

Kaykovus (1021—1098) - "Qobusnoma".

Urmaviy (1294 yilda vafot etgan) — "Risolat ush-Sharafiya ("Shon- sharaf risolasi").

Ash-Sheroziy (1236—1310) "Durratit-taj li-g'urratid-debaj" ("Libosni bezash uchun toj marvaridi").

Al-Amuliy (1349 yilda vafot etgan) — "Mitl'a al ulum" ("Ilmlar javohiri").

Marog'iy (1435 yilda vafot etgan) - "Maqosid al-alhon" ("Kuyning o'rni (vazifasi)", "Jami' al-alhon" ("Kuylar to'plami"), "Sharh al- advor" ("Doiralalar sharhi").

Jomiy (1414—1492) - "Risolai musiqiy" ("Musiqa haqida risola").

Al-Husayniy (XV asr) — "Qonuni ilmi va amali musiqiy" ("Musiqanng ilmiy va amaliy qoidalari").

Kavkabi (1532 yilda vafot etgan) — "Risolai musiqiy" ("Musiqa haqida risola").

Darvesh Ali Changiy (XVI asr — XVII asrning 20-yillari) — "Tuxfat as-surur" — "Risolai musiqiy" ("Musiqa haqida risola").

Ad-Dehlaviy (1551—1642) - "Tahqiq as-sama'" ("Musiqa tinglash haqida tadqiqotlar") va b.

O'zbekiston musiqa madaniyatining tizimlari, vositalari va tashkil etilishi

Xalq, xalq-professional musiqasining shakl va janrlari — alla, qo'shiq, lapar, ashula, yor-yor, yalla, kuy, terma, yig'i, sadr, marsiya, doston, katta ashula, suvora, maqom.

Bolalar musiqa folklori namunalari — " Oq terakmi, ko'k terak", "Choriy chanbar", "Oshxo'r akam kaptar", "Zuv-zuv borag'ay", "Tomdan tarasha tushdi", "Olatoy", "Qichqir xo'rozim", "Quyvon", "Laylak keldi", "Boychechak", "Yomg'ir yog'aloq", "Bahor keldi", "Ramazon", "Chuchvara qaynadi", "Chitti gul" va b.

Xalq musiqa cholg'ulari — dutor, rubob, tanbur, sato, g'ijjak, ud, chang, nay, surnay, qo'shnay, karnay, doira, nog'ora, safoil, qayroq.

Bastakor va kompozitorlar ijodi — an'anaviy janrlar, musiqali dramalar, operalar, baletlar, simfoniyalar, kantatalar, qo'shiqlar, romanslar, kamer cholg'u va vokal musiqasi, spektakl, film, radioeshittirish va teleko'rsatuvlar uchun musiqa.

Musiqa madaniyatining tashkilot va muassasalari — hukumat, nodavlat va davlat tashkilotlari, idoralari, vazirliklarning musiqa bo'limlari. Teatrlar, konsert zallari, filarmoniyalar, ansambllar, ijodiy uyushmalar,

birlashmalar, gazeta, jurnal, nashriyotlar tahririyatlari, ommaviy axborot vositalari, ishlab chiqarish birlashmalari, tarbiyaviy va ilmiy muassasalar.

O'zbekiston musiqa pedagogikasi tizimi

Qadimgi davrdan boshlab musiqa ta'limi va tarbiyasining turlari va shakllari — maishiy, diniy, marosim, maxsus, professional. Sanab o'tilgan tushunchalarning har biri musiqa pedagogikasining alohida tizimi — boshlang'ich maktablar, o'rta asr akademiyalari, universitetlar, dabirlar maktabi, madrasa, ilmiy jamiyatlar, kutubxonalar, machitlar qoshidagi maktablar, maktablar, musiqa ansambllari va truppalari, xalq bayramlari, sayllar, musiqiy-pedagogik tizimlar, "ustoz- shogird", xalq sozanda va bastakorlari, yevropacha namunadagi dastlabki maxsus musiqa o'quv yurtlari va umumta'lim maktablarida musiqa tarbiyasi.

Zamonaviy musiqa ta'limi va tarbiyasi muassasalari — bolalar bog'chalari, maktablar, gimnaziya, litseylar, internatlar, bolalar uylari, tugaraklar, klublar, studiyalar, ijodiyot markazlari, ommaviy axborot vositalari, teatrlar, bolalar musiqa va san'at maktablari, kollejlari, institutlar, universitetlar, konservatoriya. Musiqa ta'limi va tarbiyasining zamonaviy shakllari va turlari — oilaviy, maishiy, maktabgacha, maktab, umumiy va maxsus, maktabdan tashqari, sinfdan tashqari, o'rta maxsus va oliy, aspirantura, doktorantura, stajirovka, malaka oshirish, mustaqil bilim olish.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi tizimlari — tashkiliy-boshqaruv tarkibi, kadrlar, musiqa ta'limi standartlari, o'qituvchi-o'quvchilar, ta'lim tug'risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, o'quv-uslubiy materiallar tizimi, musiqiy faoliyat turlari tizimi.

Musiqa ta'limining uslubiy va texnik jihozlanishi — o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, kitoblar, jurnallar, notalar, qo'llanmalar, to'plamlar, musiqa cholg'ulari, musiqani texnik yozib olish va eshittirish apparaturasi, diaproektorlar, ko'rgazmali qo'llanmalar, kompozitorlar portretlari, auditoriyalar, kabinetlar, sinflar, zal va boshqa xonalar jihozlash.

Zamonaviy axborot texnologiyalari — kompyuterlar, DVD , CD, internet, multimedia, innovasion pedagogik texnologiyalar va b.

Izohlar:

- mazkur tarkibiy rejadagi har bir qism alohida tizim, davr, shakl, janrga ega bo'lib, ular ham mustaqil tarzda o'rganilishi va ko'rib chiqilishi mumkin;

- ushbu tarkibiy rejani tuzishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanildi: tarixiylik tamoyili, komplektlilik va milliy-madaniy pedagogik, musiqiy qadriyatlarini keng tushunish tamoyili hamda nazariya va amaliyotning birligi tamoyili;

- mazkur tarkibiy rejadan ko'rgazmali qo'llanma sifatida foydalanish maqsadida, uni plakat, jadvallar ko'rinishida tasavvur etish mumkin, bu taqdim etilayotgan materialni bir vaqtning o'zida, yaxlit idrok etish imkonini beradi.

9-mavzu: XVI –XIX asr boshlarigacha bo'lgan davrda O'zbekistonda musiqiy madaniyat, san'at va pedagogika

1. Farobiy va musiqa
2. Ibn Sino va musiqa
3. Safiuddin Urmaviyning musiqiy ijodi.

ABU NASR FOROBIY

Buyuk qomusiy olim, mutafakkir *Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug' Tarxan Forobiy* 873 yilda Forob (O'tror) shahri yaqinidagi Vasij qishlog'ida tug'ildi. Otasi kelib chiqishiga ko'ra turklardan bo'lib, harbiy xizmatchi edi. Forobiy Shosh (Toshkent), Samarqand va Buxoroda o'qiydi. U o'z bilimlarini takomillashtirish uchun xalifat markazi bo'lgan Bag'dodga yo'l oladi. Yo'lda Eronning Ray (Tehron), Hamadon, Isfahon va boshqa shaharlarida to'xtab o'tadi. Bag'dodda u mashhur olimlar bilan tanishadi, antik adabiyot, falsafa, tibbiyot, mantiq, til va boshqa fanlarni o'rganadi.

Forobiy 70 ga yaqin tilni bilgan. Arastudek fan arbobining asarlarini chuqur o'rganganligi va ularga sharhlar bitganligi, turli fanlar rivojiga o'lgan hissa qo'shganligi uchun uni "Al-Muallim as-soniy" («Arastudan keyin, ikkinchi muallim»), «Sharq Arastusi» deb atashgan. 941 yilda muhtojlik olimni Damashq shahriga ketishiga majbur qiladi, bu yerda u shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib ishlaydi. Shunga qaramasdan, u falsafa va boshqa fanlar bilan faol shug'ullanadi. Forobiy Aleppo (Xalab) shahri hokimi Hamdamidning (943-967 yillarda boshqargan) e'tibori va homiyligiga sazovor bo'ladi, hokim uni o'z saroyiga yashash va ishlash uchun taklif qiladi. Biroq Forobiy hayot va ijod erkinligini tanlab, bu taklifni rad etadi. Forobiy Halab shahrida samarali ishini (943—949) davom ettiradi. 949—950 yillarda u Misrda, keyin hayotining so'nggi kunlarigacha Damashqda yashaydi. Forobiy Damashqdagi «Bob as-sag'ir» qabristoniga dafn etilgan.

Forobiyning fanga qo'shgan hissasi katta. Uning tomonidan 200 ga yaqin asar yaratgan. Uning asarlari falsafa, mantiq, huquqshunoslik, siyosatshunoslik, fiziologiya, psixologiya, pedagogika, tibbiyot, alkimyo, astronomiya, fizika, matematika, musiqa, etika, ritorika, estetika, poeziya kabi fan va san'at turlariga, shuningdek Arastuning «Metafizika» si masalalariga, fanlarning kelib chiqishi, fan

va san'atning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan. Saqlanib qolgan asarlaridan eng mashhurlari: «Donolik asoslari», «Fozil shahar aholisining fikrlari qarashlarining asoslari haqida kitob», «Aql tug'risida», «Mantiq ilmiga kirish», «Dialektika kitobi», «Qonunlar kitobi», «O'lchovlar haqida kitob», «Ilmlarning tasnifi haqida kitob», «Katta musiqa kitob» va boshqa asarlari mavjud.

Yuqorida ta'kidlanganidek, fundamental nazariy bilimlardan tashqari, Forobiy musiqa cholg'ularini yasash va ularda ijro etishni mukammal egallagan edi. Odamlar uning ijrochilik san'atidan hayratlanardilar. Tabiiy va gumanitar fanlarga oid chuqur bilimi, tinglovchilar tomonidan musiqani qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlarini nozik his etishi va tushunishi musiqa bilan amaliy shug'ullanishi Forobiyning musiqiy - pedagogik qarashlarini ham shakllantirdiki, bu uning asarlarida o'z aksini topdi.

ILMLARNI KELIB CHIQISHI TO'G'RISIDA

(Falsafiy ilmlarni keltirib chiqargan sabablar, bu ilmlarning tartibi va ularni o'rganish to'g'risida maktub)

(4) Musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablarni bilish haqida so'z.

Men tasdiqlaymanki, substansiya harakatga ega bo'lgandan so'ng ovozga ham ega bo'ldi va bu ovoz uch turga bo'lindi, xususan, baland, past va ular o'rtasidagi oraliq. Ana shuda baland, past va ular o'rtasidagi oraliq ovozlarni bilishga yordam beradigan ilmga ehtiyoj tug'ildi. Bu ovozlarning to'g'risidagi ilmdir.

Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan. (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka erishmaganlarni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) ning muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh, ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi, ruh, esa o'z kuchlarining tartibga solinishi va o'z substansiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi. Bu ilmning uch asosi bordir: band, melodiya (ohang) hamda kuy va boshqa a'zolar harakati. Band aqliy tushunchalarni ma'lum tartib-tenglikka keltirish uchun kashf qilingan, melodiya past va yuqori ovozlarni ma'lum tartib tenglikka solish uchun kashf etilgandir: bu har ikki asos eshitish sezgisiga bo'ysunadi. Qo'l va (badanning) boshqa a'zolari harakati ko'rish sezgisiga bo'ysungan; ular shunday va o'zaro taqqoslab kurish lozim bo'lgan shunga uxshash xarakatlarni band va ovoz bilan moslashtirib turish uchun yaratilgandir. Qo'l va (badan) a'zolarining xarakati xaqidagi ilm bu ikki muxim sezgiga, ya'ni eshitish va ko'rishga buysunadi. Shunday qilib, musiqa ilmining qayerdan va qanday kelib chiqqanligi aniqlanadi.

Bu bilan pedagogik, ya'ni tarbiyalovchi ilmlar deb ataluvchi ilmlar tugaydi. Yuqorida (ko'rsatilib o'tilgan) to'rt ilm shuning uchun ham tarbiyalovchi ilmlar deb ataladiki, ular bu ilmlarni o'rganuvchini tarbiyalaydi, uni yanada nafis qiladi va unga so'nggi ilmlarni o'rganishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatad.

Forobiy (taxallusi, to'la nomi esa Abu Nasr Muhammad ibn O'zlug Tarxon Forobiy) - o'rta asr Sharq musiqa madaniyatining eng yirik namoyandasi. Fanda, Forobiyning hayoti va faoliyatiga doyr aniq ma'lumotlar, afsuski, juda oz. U 873 yilda Sirdaryoning Forob deb nomlanuvchi joyida tug'ilgan (hozirgi Qozog'istonni Chimkent viloyati xududi). Forobiyning otasi, xarbiy xizmatchilik qilgan. Uning yoshligi o'z vatanida o'tgani va yigitlik chog'larida Toshkent, Buxoro va Samarqandda bo'lgani, unda taxsil ko'rgani ma'lum. Keyinchalik Forobiy o'z bilimni oshirish maqsadida xalifalikning madaniy markazi Bog'dodga qarab yo'l olgan. U Eronning Isfaxon, Xamadon, Ray shaharlarida ham bo'lgan. Taxminan 940 yildan u Damashqda yashagan. Forobiy umrining keyingi yillari esa Xalab (Aleppo) shaxrida o'tgan. U Sayfuldavla Xamdamiy huzurida xizmat qilib, uning iltifotiga sazovar bo'lgan.

Manbalarda ko'rsatilishicha, u zabardast bastakor hamda ud, tanbur, g'ijjak, nay, chang va qonun asboblarining mohir ijrochisi bo'lgan. Forobiy o'tkir didli va ajoyib musiqaviy qobiliyati tufayli O'rta va Yaqin Sharqda yashovchi turli xalqlarning musiqa madaniyati bilan yaqindan tanish bo'lgan. Uning musiqaviy qarashlarining shakllanishida, ayniqsa O'rta Osiyo va Eron xalqlarining musiqa merosi katta ta'sir ko'rsatgan. Bu xalqlarning musiqa merosini ilmiy va amaliy tomonlarini chuqur o'zlashtirganligi Forobiyning asarlarida ma'lum bo'ladi. Forobiy musiqa ilmi va amaliyotida bab-baravar dong taratgan. Uning ijrochilik va bastakorlik ijodi shu qadar yuksak cho'qqilarga erishganki, xatto bu to'g'rida xalq orasida ko'plab afsonalar yuzaga kelgan. Afsonalarni birida Forobiyni soz chalib, kuy ijro etib, odamlarni sarosimaga solganligi, goxida jo'shqin kishilarni xomush axvolga tushirib, ba'zan esa ziyraklarni uxlatib, shinavandalarni xayratda qoldirganligi to'g'risida rivoyatlar mavjud. Ilmda esa, u olam-shumul axamiyatga molik asarlar bunyod etib, musiqashunoslik tarixida sunmas iz qoldirgan.

Forobiy musiqaga oid ko'p asarlar yozgan. Manbalqarda uning «Ilmlar klassifikatsiyasi» («Ixso al-ulum»), «Katta musiqa kitobi» («Kitob al-musiqa al-kabir»), «Musiqaga kirish» («Mad-hal fi-l-musiqa»), «Ritmlar klassifikatsiyasi kitobi» («Kitob ixsa al-iko'») va boshqa ko'plab asarlari tilga olinadi. Bu asarlarning ayrimlari qo'l yozma sifatida dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Zamonaviy ilmga Forobiyning asosan, ikkita musiqa asari keng joriy qilingan. Ular - «Ilmlar klassifikatsiyasi»ning musiqaga bag'ishlangan bo'limi va «Katta musiqa kitobi»dir.

Musiqa ilmi masalalarining atroflicha va chuqur yoritilishi jixatidan o'z

davrida tengsiz bo`lgan «Katta musiqa kitobi» jahon fanining shox asarlaridandir. Forobiy bu asarida oldinlari boshqa fanlarning tarkibiy qismi bo`lgan musiqani, mustaqil ilm darajasiga ko`targan.

«Katta musiqa kitobi»ning dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadigan bir necha nusxalari ma'lum. Forobiy tavalludining 1100 yilligi munosabati bilan arab olimlari Zakariyo, Yusuf hamda Mahmud Dafniy tomonidan mavjud qo`l yozmalar asosida kitobning mukammal matni tayyorlanib, nashr qilindi.

Bu kitob musiqa olamida ko`p asrlar davomida mashhur. O`rta va Yaqin Sharq musiqa fanida u doimo eng nodir va markaziy asarlardan biri bo`lib xizmat qilib kelgan. Sharq musiqa ilmida Forobiy ijodi bilan aloqador bo`lmagan biron-bir ko`zga ko`ringan olimni topish qiyin. «Katta musiqa kitobi» Yevropada ham anchadan buyon ma'lum. U dastlab XII asrda Zoxid Guldislav tomonidan latin tiliga tarjima qilingan edi.

So`nggi vaqtlarda «Katta musiqa kitobi» bir qancha zamonaviy tillarga ham ag`darilgan. 1840 yilda nemis sharhshunosi Land kitobning cholg`u asboblarga oid qismini latin tiliga tarjima qilgan. XX asrning 30 yillarida «Katta musiqa kitobi» baron Rudolf D. Erlanje tomonidan fransuz tiliga to`la tarjima qilinib, «Arab musiqasi» to`plamida chop etilgan.

Ushbu tarjima orqali Forobiy merosi Yevropaga keng joriy qilingan. «Katta musiqa kitobi»ning turli boblari fors va turk tillarida ham nashr etilgan. Bu asar rus, o`zbek va qozoq tillariga qisman tarjima qilingan.

Asar muqaddimasida, Forobiyning ta'kidlashicha, «Katta musiqa kitobi» ikki qismdan iborat bo`lgan. Birinchisida ushbu ilmning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan bo`lsa, ikkinchisi - o`tmish olimlarining musiqa ilmidagi «xatolariga» izohlar berishga qaratilgan. Kitobning ana shu so`nggi qismi bizgacha yetib kelmagan.

«Katta musiqa kitobi»ning xozirgacha saqlangan nusxasining o`zi ham ikki qismdan iborat. Birinchisi - «Musiqqa san`atiga kirish» («Madxam sinoatu fi-l-musiqqa»), ikkinchisi - «Asosiy qism («Jo`zvi asl») deb nomlanadi. O`z navbatida «Musiqqa san`atiga kirish» xar biri ikki bobdan iborat bo`lgan ikki faslga ajratiladi. Asosiy qism esa birinchisi-ikki, ikkinchisi- uch, uchinchisi ham uch bobdan iborat uch faslga tashkil qiladi. Shunday qilib, «Katta musiqa kitobi» jami 12 bobdan iborat.

Yuqorida qayd qilinganidek, Forobiy musiqa ilmini nazariy va amaliy qismlarga ajratadi. Nazariy ilm musiqani asoslari (tub qonunlari) va ularni o`rganish uslublari fikr yuritadi. Har qanday nazariy ilmda insonning kamol topmog`i uchun uch narsa kerak deydi:

1. Uning asoslarini egallash.
2. Shu fan asoslaridan kerakli natijalar chiqara bilish.

3. Shu fanga oid xato natijalarni topa olish, o`zga olimlar fikrini chuqur tushuna olish, ularning yomon fikrlaridan yaxshilik kashf eta bilish, yo`l qo`yilgan xatolarni tuzata olish»-deb yozadi «Katta musiqa kitobi»ning debochasida Forobiy.

Forobiy ilmu ta`lifning yuqorida zikr etilgan xar bir kategoriyasini keng va mukammal bayon qiladi. Ilmu ta`lif dastlabki tushuncha tovushning musiqaviy va fizik xususiyatlarini o`rganishdan boshlanadi. Tovush biron-bir kattik yoki yumshoq tananing tebranishidan xosil bo`ladigan fizikaviy xodisa, deb ta`riflanadi.

Keyinchalik tovushning akustik xususiyatlari, ya`ni tebranuvchi tananing xajmi va tovush baland-pastligi o`rtasidagi munosabatlar, turli cholg`u asboblari misolida ochib beriladi hamda ularning miqdorlarini matematik uslubda ifodalash omillari tushuntiriladi. «Kuylar qasida va she`r bilan qiyoslanadi. She`riyatda dastlabki element xarflar bo`lib, ulardan sabab, vatad ularning qo`shilmasidan misra va baytlar xosil bo`lgani kabi, kuylar tuzilishida ham dastlabki va ikkinchi darajali elementlar borki, ulardan qasida va she`r bilan solishtirilayotgan kuy kelib chiqadi. She`riyatdagi harflar vazifasini kuylarda o`taydigan narsa nag`malardir»- deb yozadi Forobiy.

Demak, tovushdan kelib chiqadigan tushuncha – nag`ma (musiqaviy tovush, ton, parda)dir. Forobiy nag`malarining past-balandlik sabablari, mutanosiblik omillari va shu xususiyatlar orqali xissiyotga ta`sir ko`rsatish masalalari ustida muloxaza yuritadi (Forobiy. «Katta musiqa kitobi», Kohira, 1967 yilda chop qilingan). Bud (interval) kategoriyasi ilmu ta`lifning markaziy tushunchalaridan hisoblanadi. Chunki, parda xali o`zi, alohida kuy bo`lagi bo`la olmaydi.

Intervallar hosil bo`lishini Forobiy tebranadigan tananing xajmi va miqdorini o`lchash va yuzaga kelgan bo`laklarni sonlar nisbatida ifodalash yo`li bilan tushuntiradi. Tovush baland-pastligini belgilovchi omillar turlichadir, torli cholg`ularda torning o`zunligi va yo`g`onligi, puflab ijro etiladigan asboblarda xavo tebranadigan tananing uzunligi, bo`yi va eni. Ammo, bular orasida eng muhimi uzunlikdir. Shuning uchun asosan o`zunlik miqdori o`lchanadi.

IBN SINO

(980-1037)

Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al Hasan ibn Ali (Ibn Sino) — jahon ilm-fani va tibbiyotiga ulkan hissa qo`shgan buyuk qomusiy olim, faylasuf.

Ibn Sino 980 yil avgust oyida Buxoro yaqinida joylashgan Afshona qishlog`ida dunyoga keldi. U 5 yoshga to`lganida oilasi bilan Buxoroga ko`chib o`tadilar. Otasi unga Qur`on va adabiyotni o`rgatish uchun o`qituvchilar yollaydi. 10 yoshga yetganida u o`zining bu fanlar bo`yicha egallagan bilimlari bilan atrofdagilarni lol qoldiradi. Qur`onni to`liq yod oladi. Keyin u musulmon

huquqshunosligi (fiqx), matematika, arab tili va adabiyotini o'zlashtirdi. Usha davrning taniqli olimi, faylasuf Abu Abdulloh, Natiliydan saboq oladi va tez orada falsafa sohasidagi bilimlari bilan o'qituvchisidan o'zib ketadi. Mustaqil ravishda fizika, metafizika, musiqa, kimyo va boshqa fanlarni o'rganadi. «Tez orada, — deb eslaydi Ibn Sino, — menda tibbiyotga nisbatan moyillik uyg'ondi va men shu fanga bag'ishlangan asarlarni o'rganishga kirishdim. Shifokorlik ilmi murakkab fanlar sirasiga kirmasligi sababli, eng qisqa muddatda shunchalik bilimga ega bo'ldimki, mendan hurmatli shifokorlar ta'lim ola boshladilar. Bemorlar bilan amaliyot o'tishimda, menga tajriba asosida hech qayerda yozilmagan davolash usullari ochildi... Usha vakt men 16 yoshda edim».

Ibn Sino 17 yoshida Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni muvaffaqiyatli davolagani uchun usha davrda eng yaxshi hisoblanga amir kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Qisqa vaqt ichida u mazkur kutubxonadagi barcha kitoblarni o'qib chiqadi. Shu vaqtning o'zida u Arastuning «Metafizika»sini ushbu asarga o'z vaqtida Abu Nasr Forobiy bergan sharhlari yordamida o'zlashtiradi.

Ibn Sino barcha bilimlar asosiga Buxoroda ega bo'ldi. 18 yoshga kirganida uning birinchi ilmiy ishlari paydo bo'ladi. 999 yilda somoniylar Buxorosi qoraxoniylar ixtiyoriga o'tadi. 1002 yilda uning otasi vafot etadi.

1002—1005 yillarda qoraxoniylar va somoniylar o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro shafqatsiz urush davom etadi. Ibn Sino hozircha qoraxoniylar qaramligidan holi bo'lgan Xorazmga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi. Gurganj (Urganch)ga kelgan Ibn Sino Xorazm shohi Ali ibn Ma'mun tomonidan xizmatga qabul qilinadi. Xorazmning gullab-yashnayotgan madaniy va ilmiy hayoti «Ma'mun Akademiyasi» atrofida mujassamlashgan edi, uning saflarida yirik matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq, taniqli shifokorlar va faylasuflar Abu Sahl Masihiy, Abul-Xayr Hamar va buyuk olim Abu Rayhon Beruniy bor edi. Ushbu olimlar qatoriga Ibn Sino ham qo'shildi. Xorazm shohi Ali ibn Ma'mun saroyidagi olimlar to'liq ta'minlangan edilar va ilm-fan bilan shug'ullana olardilar. Lekin Sharqda Mahmud G'aznaviyning kuchayib borayotgan hukmronligi Xorazm osoyishtaligiga rahna soldi. U Xorazm shohidan eng yaxshi olimlarni yuborishni talab qiladi, ular orasida Ibn Sino ham bor edi. Ammo Ibn Sino borishdan bosh tortdi. Shu vaqtdan Ibn Sinoning darbadarlik va sargardonlikka to'la hayoti boshlanadi.

Ibn Sino maxfiy ravishda Xorazmni tark etadi va 1008—1011 yillar davomida turli shaharlar (Nisa, Obivard, Tus, Shiqqon, Jajarm) bo'ylab darbadar kezishdan so'ng 1012—1014 yillarda Jurjonda yashaydi, Bu yerda uni sodiq o'quvchisi u va do'sti Abu Ubayd Juzjoniy bilan yaqinlashtirgan voqea yuz beradi, shundan so'ng butun hayoti davomida (25 yil) o'z ustozini yonida bo'ladi, Shu davrda Ibn Sino «Tib qonunlari» asari ustida ish boshlaydi va 1023 yilda uni tugatadi.

Shundan so'ng Ibn Sino Ray, Qazvin, undan so'ng esa Hamadonda yashaydi (1015-1023), bu yerda u amir Shamsuddavla saroyida vazir lavozimida ishlaydi. Amir vafotidan so'ng Ibn Sino Isfaxonga kuchib utadi (1023— 1037), bu yerda uni amir Alouddavla yaxshi qabul qiladi. Amir ko'rsatmasiga ko'ra har juma kunlari saroyda olimlar majlisi o'tkaziladi. Juzjoniyning yozishicha, bu majlislarda biror bilim soxasida hech kim ustozidan o'ta olmagan.

Isfaxonda yashagan yillari eng samarali davr bo'ldi. Bu yerda Ibn Sino o'zining «Kitob ash-shifo», «Kitob an-najot», «Donishnoma», «Sharq falsafasi», «Ko'rsatma va nasihatlar kitobi» va boshqa qomusiy asarlarini yaratadi va tugallaydi.

Amir Alouddavla bilan Xamadonga yurishlardan birida. (1037) Ibn Sinoning eski oshqozon kasalligi avj olib ketadi va 1037 yil 18 iyunda 57 yoshida u vafot etadi. Uni Xamadonda dafn etishadi. Buyuk olimning qabri o'rnida 1952 yilda maqbara va muzeydan iborat me'moriy yodgorlik barpo etildi.

Zamondoshlari Ibn Sinoni «Shayx ar-Rais» («Donishmandlar sardori», «Allomalar boshlig'i»), «Sharaf al-mulk» («Yurt sharafi»), «Hujjat al-haq» («Haqiqat ishonchi»), «Xakim al-vazir» («Doshinmand vazir») deb atashgan.

Ibn Sino o'z davriniig barcha bilim soxalarida ish olib bordi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, uning tomonidan 450 dan ortiq asarlar yaratilgan. Ulardan hozirgacha 242 tasi yetib kelgan. Ibn Sino asarlari Sharqda ham, G'arbda ham juda ommalashib ketgan. Uning 5 qismdan iborat «Tib qonunlari» nomli nazariy va klinik tibbiyot ensiklopediyasi yunon, rim, hind va O'rta Osiyolik shifokorlarning qarashlari va tajribalarini umumlashtirgan bo'lib XVII asrgacha Yevronada barcha shifokorlar uchun majburiy qo'llanma bo'lib keldi va 30 ga yaqin lotin tilidagi nashr yuzini ko'rdi.

Ibn Sinoning Musiqa san'ati, musiqashunoslik, musiqa pedagogikasi bo'yicha quyidagi beshta asari mavjud: «Kitob ash-shifo»dagi «Musiqa ilmiga oid to'plam» bo'limi, «Kitob an-najot»dagi «Musiqa haqidagi bilimlarining qisqacha bayoni» bo'limi, «Donishnoma»dagi «Matematika» bo'limining qismi va bizgacha yetib kelmagan «Musiqa san'atiga kirish» risolasi, shuningdek muallifning «Kitob ash-shifo»da faqat muallifning eslatish bo'yicha ma'lum bo'lgan «Aniqlovchilar hakidagi kitob» nomli asaridir.

Ibn Sinoning tarjimai holidan

"Bu kezlarda biron kecha ham kun davomida ham uxlamas edim, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmas edim. Kechqurunlari oldinga chiroqni quyib olib, to uyqu bosguncha o'qish va yozish bilan band budar edim... Uxlayotgan vaqtimda ham usha o'ngimdagi masalalarni ko'rar edim. Shu taxlitda

ko'p masalalar tushimda menga ayon bo'lar edi. Shunday qilib, hamma ilmlarni mustahkam egallab oldim. Insonning qobiliyati imkon berar darajada ulardan xabardor bo'ldim".

Safiuddin Urmaviy (vafoti 1294 y.).

Safiuddin Urmaviy Sharq musiqa ilmini, Forobiy va Ibn Sinodan keyin, eng yirik namoyandasi hisoblanadi. Safiuddin Abdulmo'min Urmaviy buyuk Forobiy kabi musiqa ilmi va amaliyotida barobariga zabardast bo'lgan. U qadimiy Ozarbayjonning Urmiya shahrida (Tehrandan 120 km, janubda) tug'ilgan. «Pekin uning deyarli butun umri Abbosiylar saltanatining poytaxti Bag'dodda o'tganligi sababli arab tadqiqotchilari uni Safiuddin Urmaviy Bag'dodiy deb ham yuritadilar. Safiuddin Urmaviy 19 yoshligida mohir ijrochi, hofiz va mashhur bastakor bo'lib tanilgan. Safiuddin Urmaviy musiqa san'ati, bilim va mahorati haqida o'z davrida va keyingi zamonlarda ko'plab rivoyatlar yuzaga kelgan. Safiuddin boshqa ilmlarda, xususan, aniq fanlar borasida ham katta shuhrat qozongan. Zamonasining yirik matematigi Nasriddin Tusiy asarlari Safiuddin ijodiga zo'r ta'sir ko'rsatgan va uning musiqaviy qarashlarida ratsionalistik g'oyalarni yuksak cho'qqiga ko'tarilishiga olib kelgan.

U o'zidan oldin o'tgan olimlar Forobiy, Ibn Sino meroslarini ijodiy o'zlashtirib, musiqa ilmini yangi pog'onaga ko'targan. Safiuddin Urmaviyning musiqaga oid mashhur risolalari: «Sharafiya» («Kitob al-Sharafiya») va «Davrlar kitobi» («Kitob al-advor»).

Urmaviyning ilmu ta'lif borasidagi qarashlari Sharq musiqasida hozirgacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bu ta'limotning xususiyati nimada? Agar Forobiy va Ibn Sino musiqaning parda tuzilish sistemasini empirik asosda (ya'ni tajribaga tayanib) tuzgan bo'lsalar, Urmaviy bu jixatdan mafkuriy g'oyalarni oldinga suradi. U Forobiy va Ibn Sino tovushqatorlari asosida katta-kichikligi turlicha bo'lgan pardalar yotsa, Urmaviy ularni bir xilda teng taqsimlashni joriy qiladi. Oldingi nazariyaga ko'ra, jins pardalari turlicha bo'lganligi sababli, ularning faqat mos keladiganlarnigina o'zaro ulash mumkin bo'lgan. Safiuddin sistemasida jins intervallar yagona negizdan xosil bo'lganligi uchun ularning barchasini bir-biriga qo'shish imkoniyati turiladi va shu tufayli jinslardan hosil bo'ladigan ja'mlar doirasi nihoyatda kengayadi.

Safiuddin Urmaviy tovushqatorida, oldindan ma'lum bo'lgan I bakiya (nisbati 243/256) intervali asos qilib olinadi. Jinsning butun pardalari (mutlaq-sabboba va sabboba - binsir oralari) uning yordamida bo'linadi. har bir butun pardadan ikki bakiya va kichik qoldik - fazla intervali xosil bo'ladi.

Muhim tomoni shundaki, fazla mustaqil parda sifatida qo'llanilmaydi, balki

boshqa intervallarning tarkibiga qo`shilib, ularning mohiyatini o`zgartiradi. Fazlaning ahamiyatini ma'lum darajada rus alifbosining yumshatish va ayiri belgilariga qiyos qilish mumkin. Bu belgilarning mustaqil fonetik ahamiyati bo`lmasa ham, boshqa xarflarga qo`shilib, so`z mazmunini tubdan o`zgartiradi. Fazla yordamida butun va yarim pardalarning katta va kichik variantlari hosil bo`ladi. Bakiyayi sirar Bakiyayi kubar Mujannab Taniniy 90 sent 114 sent 180 sent 204 sent

Shunday qilib, xilma-xil pardalarning o`rniga, ularni teng bo`lingan variantlari ishlatiladi. Ushbu intervallarning turli tartibda joylashuvidan Safiuddin Urmaviy to`rt pog`onalik jinslarning 7, besh pog`onalik jinslarning 13 turini hosil qiladi.

Yuqorida qayd qilinganidek, Safiuddin sistemasida barcha jinlar o`zaro ulanishi mumkin. Demak, nazariy jixatdan jamlarning soni 91 ta bo`ladi (bu raqam to`rt pog`onalik va besh pog`onalik jinslarning ko`paytiruvidan kelib chiqadi $7 \times 13 = 91$). Lekin bo`larning hammasi ham amalda ishlatiladigan jamlar emas. Amalda ishlatiladiganlari esa o`zining oxangdorligiga qarab turlarga bo`linadi. Jamlar mutanosibliigi esa undagi sof intervallarning miqdoriga qarab belgilanadi. Agar jamdagi sof intervallar (oktava, kvinta, kvarta) yig`indisi bosqichlar soniga teng yoki undan ko`p bo`lsa, bu toifa - maqomlar deb yuritiladi. Shu tariqa 91 jamning 12 tasi maqomlar kategoriyasiga kiradi. Musiqa ilmida jamlarning eng oliy navlariga nisbatan qo`llaniladi.

Maqom iborasi birinchi bo`lib Safiuddin Urmaviy tomonidan ishlatilgan. Sharq musiqasida keng tarqalgan «12 maqom» sistemasi ham ana shundan boshlanadi. Keyinchalik atoqli tojik mutafakkiri Abdurahmon Jomiy (XV asr) 12 maqomni professional musiqaning eng qadimiy yullari deb biladi.

Urmaviyning zamondoshi Qutbiddin Sheroziy (1236-1311 yillar) o`z zamonasning ulkan musiqashunosi va olimi edi. Urmaviy va Sheroziylarning musiqaviy qarashlari ko`p jixatdan yaqinligi sababli, Sheroziy nazariyasiga batafsil to`xtalib o`tirmasdan, ular bayon etgan doiralarning qiyosiy jadvalini I. Rajabovning «Maqomlar masalasiga doyr» kitobidan ko`rib ko`prok ma'lumotlar olish mumkin.

O`n yetti pog`onalik tovushqator to`g`risida zamonamiz musiqashunoslari orasida turli baxslar xaligacha davom etib kelmoqda. Ayrimlar Sharq musiqasi, jumladan, o`zbek musiqasining xususiyatlarini faqat shu o`n yetti pog`onalik tovushqator aks ettirishi mumkin va uning nazariy asoslari ham shunga tayanib, ochib berilishi lozim deb tushunganlar.

Tayanch tushunchalar:

1. «**Kitob ixsa al-iko'**»- Al-Forobiyning ritmlar klassifikatsiyasiga bag`ishlangan risolalasi.
2. **Bo`d** - zamonaviy musiqadagi interval tushunchasi.
3. «**Kitob al-kafiy fi almusiqa**»- Ibn Zaylaning musiqa haqida yozgan yagona asari «**To`liq musiqa kitobi**» deb ham yuritiladi.
4. «**Sharafiya**» - Safiuddin Urmaviyning musiqaga oid mashhur risolasi.

Nazorat savollari:

1. Farboyning "Katta musiqa kitobi" hozirgi zamon musiqasidagi ahamiyati ?
2. Ibn Sinoning musiqa merosi ?
3. Safiuddin Urmaviy Sharq musiqa ilmini rivojiga qo`shgan xissasi ?
4. Fazla nima ?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Ye.Solomonova. O`zbek musiqasi tarixi T.1981.y.
2. I.Rajabov Maqomlar masalasiga doir T.1963.y.
3. O.Matyaqubov Og`zaki an`anadagi professional musiqaga kirish T.1983.y
4. O.Matyaqubov Maqomot T.2004.y.

10-Mavzu: Xalq musiqa pedagogikasi

K A Y K O V U S (1 0 2 1 - 1 0 9 8)

Unsurulmaoliy Kaykovus ibn Iskandar ibn Qobus ibn Vushmag'ir ibn Ziyor — davlat arbobi, yozuvchi, mashhur «Qobusnoma» didaktik risolasining muallifi. Kaykovus Kasniy dengizining janubidagi Gilon va Xuroson o`rtasida joylashgan Tabariston (Mozandaron)da tug`ildi. Amir Qobus ibn Vushmagir o`g`li Kaykovus kelib chiqishiga ko`ra mashhur g`ilon avlodiga mansub. Ayrim tarixiy ma`lumotlarga ko`ra Unsurulmaoliy Kaykovus Jurjon hukmdori bo`lgan. U o`z davrining ma`lumotli kishisi bo`lgani uchun olim va shoirlarga homiylik qilgan. Uning o`zi fors va arab tillaridagi «Kamol al- bolag`a» («Yoshlar tarbiyasi»), «Al-

forida fi-l amsal va-l adab» («Noyob maqol va hikmatlar»), «Risola fi-l iftihor va-l itob» («Mukofotlar va jazolar haqida risola») kabi she'r va asarlar muallifidir.

Uning 63 yoshida fors tilida yaratgan va o'g'li Gilonshohga bag'ishlangan didaktik xarakterdagi «Qobusnoma» asari dunyoga mashhur. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, uning o'g'liga kasb tanlash, ma'naviy-ahloqiy me'yorlar, olijanoblik, or-nomus, turmushdagi turli vaziyatlar yuzasidan nasihatlaridan iborat. «Qobusnoma» bir necha asrlar davomida Sharqda katta shuhratga ega bo'lgan. Bu asar Sharq pedagogikasining asosi sifatida bahonlangan, madrasada didaktika asoslarini o'rganishda qullanilgan va yoshlarni tarbiyalashda amaliy qullanma sifatida foydalanilgan. Ushbu asar dunyoning kuplab xalqlari tillariga tarjima qilipgan. Musiqa san'ati va pedagogikasiga ta'luqli o'ttiz oltinchi bobdan namuna keltiramiz.

O' T T I Z O L T I N C H I B O B **HOFIZLIK VA SOZANDALIK ZIKRIDA**

Ey farzand, agar hofiz bo'lsang, hushfe'l, quvnoq bo'l, hamisha pok, mutayyab va xush zabon bo'lg'il va o'z ishingamashg'ul bo'lg'il, yaramas xulq, qo'pol bashara bo'lmag'il. Hamma vaqt og'ir yo'llarni chertmag'il, chunki barcha mashq va ohangni bir xilda chertish shart ermasdur, nedinkim odamlarning barchasi bir xilda bo'lg'on ermaslar, ta'blari ham bir- biriga muvofik ermas, ya'ni xalq muxtalifdurlar. Shul vajdin bu fanning ustodlari san'atga shundog' tartib bermishlarki, avval podshohlar majlisi uchun xisravona dostonlar tuzmishlar, undin so'ng vaznsiz bir og'ir yo'l tuzmishlarki, uni ikki surud bila aytsa bo'lur va unga og'ir yo'l deb ot quymishlar. Bu yo'l qarilarning va xiradmandlarning ta'biga mos kelmush erdi va bul yo'lni mazkur qavm uchun tuzdilar. Undin so'ng ersa ko'rdilarki, xalqning barchasi qarilar va xiradmandlar ermasdurlar. Shundin keyin lojaram yigitlar uchun bir yo'l tuzatdilar. Undin keyin yengilroq vaznlik she'rlar uchun yengil yo'llar tuzib, ularga xafif deb ot quydilar, og'ir yo'ldan so'ng bu xafif yo'lni chertdilar Mutriblar qarilar ham, yigitlar ham undan bahramand bo'lsinlar, dedilar. Undin keyin yosh o'g'lonlar va latif ta'b odamlarning ba'zilari bebahra qoldilar. Mazkur qavm uchun tarona aytmoqni paydo qildilar, toki mazkur qavm ham bahra va rohat topg'aylar, chunki barcha vaznlarning orasida taronadin latifroq vazn yo'qdur. Demak, bularning barchasini birdek qilib chertmag'il va bir xilda kuylamag'il, mening bayon qilg'onimdek chertib, aytg'il. Bas, barcha ulus sening sozingdin, ovozingdin bahramand bo'lsin.

Bir majlisda o'ltursang, majlis ahliga qarag'il, agar eshituvchi qizil yuzlik va mosh-birinchi soqollik bo'lsa, payvas zer tor bila chertg'il; agar sariq yuzlik

bo'lsa, bush tor bila chertg'il; agar qora yuzlik, nahif va savdoyi bo'lsa, ko'proq uch tor bila chertg'il, agar oq, semiz va martub bo'lsa, ko'proq bam bila chertg'il, nedinkim, bu rudni odamning turt ta'bi uchun muhayyo qilmishlar. Bu aytg'onlarimda mutriblik, ya'ni she'r aytmoq sharti va rasmi yo'qdur. Hofizlik qilsang, she'r yozmoqni ham bilsang, o'z she'ringni aytmoqqa haris bo'lmag'il, nedinkim, sening she'ring o'zingga xush kelsa ham, boshqaga xush kelmasligi mumkin, chunki hofizlar xalq she'rining roviysidir, o'z she'rining roviysi emas.

Agar seni bir majlisga olib borsalar, unda ikki kishi nard uynab utirg'on bo'lsa, garchi sen nardboz bo'lsang ham, hofizlikni tark etib, ularning ta'lim va tomoshasiga mashg'ul bo'lma, chunki seni hofizlik uchun keltirmishlar, nardbozlik uchun keltirg'on emaslar.

Har surudni o'rg'onsang, vazndin g'ofil bo'lmag'il, vaznsiz tarona aytmag'il va g'azal yozmag'il. Kuylar vaqtingda suruding boshqa joydin, sozing boshqa joydin bo'lmasin. Agar bir kishiga oshiq bo'lsang, butun kunni boshidin oxirigacha o'zingga xush kelg'on g'azalni aytmoq bila o'tkarmag'il, (bunday g'azal) o'zingga xush kelsa ham, o'zgalarga xush kelmag'usidir. Har surudni boshqa bir ma'nida aytg'il.

She'r va g'azalni ko'p yod bilg'il va har turli she'r yozishni o'zingga lozim bilg'il. Har vaqtning o'ziga munosib g'azallarni o'qig'il: bahorda xazonga munosib, xazonda bahorga munosib, qishda yozga munosib va yozda qishga munosib g'azallarni o'qimag'il.

Agar nazirsiz ustod bo'lsang ham majlis ichidagi hariflarga qarag'il, agar musiqiydan zavq olg'uvchi qarilar va xos odamlar bo'lsa, mutriblik qil, yaxshi yo'llarni va navolarni chertg'il, qarilik va dunyoning mazammatidin ko'proq surud aytg'il. Agar majlis axli yosh yigitlar bo'lsa, yengil yo'llarni kuproq chertg'il va oson surud aytg'il. Agar majlis ahli sipohiy va bahodirlar bo'lsa, urush qilmoqqa, qahramonlikka va iyorlik qilmoqqa oid maxsus she'rlarni o'qig'il. Bunday vaqtda ulug' yo'llardin — iroq, navo, faryod va bularga uxshashlarni chertaman deb majlisni sovutmag'il. Yana diqqat qilib qarag'ilki, mazkur bazmda har kishi qaysi yo'lni yaxshi ko'radi, shu kishiga kosa yetg'on choqda uni aytg'il. Unday vaqtda ul odamlardin biror narsa umid qilsang, shuni topasan, nedinkim hofizlik yaxshi hunardirki, eshitg'on odamlarning ko'nglini olursan.

Har majlisdaki bo'lsang, bodani va nabizni oz ichg'il, chunki sen tanga olishing lozim. Tangadin esa qancha bersalar, rozi bo'lg'il. Hargiz ummatlarga istiza qilmag'il va ishrat ahli, mast bo'lg'on paytda sen o'z do'stlaring bila so'zlashmakka mashg'ul bo'lg'il, nedinkim, tanga bu ishdin hosil bo'lur.

Hofiz bo'lsang arbada qilg'uvchi bo'lmag'il, toki arbada sababidin hofizlik tangasi qo'lingdin ketmasin va boshing yorilib, to'ning yirtilib, tanburing sinib,

uyingga qaytib bormag'il, nedinkim hofizlar mastlarning muzduri bo'lurlar. Arbada va gustohlik qilg'on muzdurga muzd bermaslar.

Agar majlisda bir odam seni maqtasa, ta'rif qilsa, sen unga mehribonlik ko'rgazg'il va u qaysi surudni xoxlasa shuni aytg'il, toki o'zgalar ham seni ta'rif qilsunlar, mast bo'lg'onlaridin so'ng ul ta'rifga loyiq tanga bersunlar. Agar mastlar bir yo'la surud ayt desalar, uni aytmoq senga malol kelmasin, har na buyursalar, shuni chertg'il va shuni aytg'il, nedinkim, mutriblarning ulug' hunari mastlarning ishiga sabr qilmoqdur. Agar sabr qilmasalar, muzdurlik in'omidin mahrum bo'lurlar. Yana debdurlarki, hofiz ko'r, kar va soqov bo'lmog'i kerakdir. Agar hofiz bir majlisga borsa, unda qo'rg'on va eshitg'on narsalarni o'zga joyga borib aytmasun. Bunday mutrib hamisha aziz va arjumand bo'lur.

11-mavzu: Ustoz shogird maktablarida musiqa o'qitish sistemasi.

Tarixdan ma'lumki, yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning o'z madaniyati va san'ati, shuningdek, musiqiy madaniyati mavjud bo'lib, ularning ma'naviy boyligi hisoblangan. Ayniqsa, Sharq xalqlarining musiqiy madaniyati har bir xalq milliy musiqasining asosini tashkil etgan, nazariy va amaliy ijrochilik maktabiga ega bo'lgan. Sharq xalqlarining musiqiy boyligi bo'lgan maqom, mug'om, navba, raga, kyui singari musiqiy ijrochilikning aniq turkumlari turli davrlarda turli ko'rinish va yo'nalishlar bilan ijro etilib kelingan va rivojlangan.

Maqom turkumlari, «Shashmaqom» ham o'zbek va tojik xalqlarining ulkan musiqiy boyligi hisoblanib, xalq bastakorlari ijodi natijasida shakllangan va boyib borgan. Hozirga kelib, bu turkum ijrolarining aniq shakliga, xarakteriga va an'anaviy ijro uslublariga to'liq egamiz deb ayta olamiz. Albatta, buning boisi, o'tgan maqomdon va bastakor ustozlarning bu borada qilgan ulkan ijodiy mehnatlarining natijasidir. Maqom ijrolari musiqiy madaniyatimizning asosini tashkil etganligi sababli bu mavzuga ko'proq to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

«Maqom» so'zining lug'aviy ma'nosi arabchadan kelib chiqqan bo'lib, «joy», «makon» ma'nosini anglatadi. Musiqiy ma'noda tovush hosil qiladigan joy yoki aniq parda ma'nosini tushunish mumkin. Albatta, ijroda tovushsiz yoki aniq pardasiz ijro shakllanmaydi va aniq musiqiy ohangni kashf etolmaydi. «Maqom» so'zining ma'nosi shundan kelib chiqishi tabiiydir. Chunki maqom aniq pardadan boshlanadigan va tugallanadigan kuy va ashulalar majmuasini ifodalaydi.

Maqom atamasi VIII-X asrlardan Uqlidis, Arastu singari yunon olimlarining musiqa nazariyasiga bag'ishlangan asarlarining arab tiliga tarjima qilinishi natijasida qo'llanila boshlangan. Lekin IX asrda yashab ijod etgan Yaxyo bin Abu

Mansurning musiqa nazariyasiga doir asarida, musulmon sharqi xalqlarida yunon musiqa nazariyasidan oldin ham o'z yerlik xalqlarning o'ziga xos musiqa nazariyasi mavjud bo'lganligini aytib o'tadi.

Maqomlarning nazariy va amaliy tomonlarini IX- XV asrlarda yashab ijod etgan al - Kindiy, al- Forobiy, al- Xorazmiy, Ibn Sino, al- Urmaviy, ash - Sheroziy, al- Xusayniy, al- Marvaziy singari ulug' olimlarning ko'plab asarlarida chuqur ilmiy sharhlar bilan asoslab berilgan.

O'n ikki maqom

XIV- XVII asrlarda Markaziy Osiyo, Xuroson, Ozarbayjonda o'n ikki maqom (duvoz dax maqom) mavjud bo'lganligi tarixiy manbalarda o'z aksini topgan.

O'n ikki maqom haqida aniq ma'lumotlarni XVI - XVII asrlarda yashab ijod etgan olimlar Najmiddin Kavkabiy Buxoriy va Darvesh Ali Changiy o'z asarlarida aks ettirib berganlar. Ularning risolalarida Buxoro xonligi davrida ijro etilgan o'n ikki maqom va ular asosida bastakorlar tomonidan bastalangan kuy va ashulalar va bastakorlar haqida ma'lumotlar beriladi. Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, o'n ikki maqom XVIII asrgacha qo'llanilgan. XVIII asr o'rtalariga kelib o'n ikki maqom asosida shashmaqom shakllangan deyishga to'la asos bo'ladi. Chunki o'n ikki maqomdagi nomlarning ko'pchiligi nota yozuvi bo'lmaganligi sababli barcha ijrodagi maqom turkumlari saqlanib qolmagan ham bo'lishi mumkin, degan xulosa ham ehtimoldan xoli emas. O'n ikki maqomning sho'hbalarida Shashmaqomning barcha sho'hbalari nomlarini uchratamiz. Najmiddin Kavkabiy o'n ikki maqom tuzilishini quyosh burjlariga asoslab 12 yulduz turkumlariga qiyoslaydi va quyidagi nisbat bilan tartib beradi:

- | | |
|------------------------|--------------------|
| 1. Hamal - Rohaviy | 7. Mezon -Rost |
| 2. Savr - Zangula | 8. Aqrab - Hijoz |
| 3. Javzo - Buzurg | 9. Qavs - Iroq |
| 4. Saraton - Husayniy | 10. Jadiy -Busalik |
| 5. Asad - Ushshoq | 11. Dalv - Navo |
| 6. Sunbula - Zirolfand | 12. Xut - Isfahon |

Yuqorida ko'rsatilgan burjlar, quyoshning falak bo'ylab harakatlanishi yo'lida joylashgan yulduzlar nomi bo'lib, quyosh yil davomida har birida bir oy bo'lib o'tadi. Burjlar aylanasining avvalida hamal oyining kelishi esa yangi yil hisobi Navro'z bilan boshlanishi va shu kunda quyosh hamal burjiga kelishi bilan izohlanadi. O'n ikki maqomning nomlari, ovoza va sho'hbalarini quyidagi jadval asosida ko'rsatish mumkin.

O'n ikki maqom tuzilishi:

O'n ikki maqom nomlanishi

Ovozalari Sho'hbalar
Ushshoq Navro'z Dugoh
Segoh Navo Chorgoh Panjgoh
Busalik Salmak Ashiyan
Bayotiy Rost Navro'zi arab
Navro'zi xoro Xusayniy Gardoniya Navro'zi Bayotiy
Xisor Xijoz Nukuft
Uzzol Roxaviy Gavasht Avj
Nayriz Zangula Maborkah
Rajb Iroq Moya Navro'zi sabo
Xumoyun Isfaxon Zovuliy
Isfaxonak Zirolqand (kuchak) Shaxnoz Ro'yi iroq
Bastan nigor
Buzurg (buzruk) Nihovand
Javziy
Muhayyar

Albatta, buni mukammal jadval deyish o'rinli bo'lmasa-da, har holda o'n ikki maqomning tuzilishi nuqtai nazaridan yaqinlashish deb tushunish mumkin bo'ladi.

ShashMAQOM (Olti maqom)

Shashmaqom tojikcha so'z bo'lib, olti maqom ma'nosini anglatadi. Shashmaqom ijrosi qadimdan bastakorlik an'analari natijasida dunyoga kelgan va xalq bastakorlari ijodining mahsulidir. Bastakor so'zi forsiy atama asosida bog'lovchi degan ma'noni anglatadi. Barcha maqom turkumlari ijrolarining sho'hbalarini qaysidir bir bastakor yaratgan va xalqona bo'lganligi uchun xalq mulkiga aylanib ketgan. Shuningdek, buning natijasida maqom yo'llari boyib boravergan. Hozirda ham bu an'ana davom etmoqda. Shashmaqom o'zbek musiqiy madaniyatida beqiyos o'ringa ega va xalqimiz musiqiy merosining asosini tashkil etadi. Uning tarkibida 250 ga yaqin mushkulot (cholg'u) va nasr (ashula) yo'llari bo'lib, bularning barchasi aniq lad va uslublar asosida bir-biriga bog'langandir. Shashmaqom tarkibida o'ziga xos shakldagi yirik turkumlar bo'lib, ular Buzruk, Rost, Navo, Dugox, Segox, Iroq deb nomlanadi. Bularning har biri 20tadan 45 tagacha katta va kichik hajmdagi maqom yo'llaridan iboratdir. Shashmaqomdagi har bir turkum yakka kuy va ashulalar tarzida sozanda, xonanda va dastalar tomonidan ijro etilgan va hozir ham ijro etiladi. Maqomlarning har

biri ikki bo'limdan iborat bo'lib, ular cholg'u va ashula bo'limlarga ajraladi. Yuqorida aytganimizdek, mushkulot va nasr deb ataladi.

Maqomlarning mushkulot qismida bir xil nom bilan aytadigan cholg'u qismlari mavjud bo'lib, ohanglari turlicha bo'ladi, lekin usuli bir xil chalinadi. Ular Tasnif, Tarji, Gardun, Muhammas, Saqil deb nomlanadi. Maqomlarda nomdosh bo'lmagan cholg'u qismlar ham uchraydi. Masalan, Navoda - Nag'mai Oraz, Dugohda Peshravi Dugoh va Samoi Dugoh, Segohda - Xafifi Segoh va hokazo. Har bir cholg'u qism xona va bazgo'ylardan tashkil topgan.

«Xona» - uy ma'nosini bildirib, kuyning o'zgaruvchan bo'lagidir. Bunda kuy mazmuni yangicha uslubda avj tomon harakatlanib, bosh pardaga qaytib tushadi va mazmunan boyib boradi. «Bozgo'y» - «qaytariq» ma'nosini anglatadi, bunda kuy xonalaridan so'ng takrorlanadi va tugallanadi. Yana ijrolarning takomillashuvida «peshrav» kuy qismlari katta ahamiyat kasb etadi. Peshrav - oldinga yuruvchi ma'noni beradi va kuyning turli balandliklarida bir necha marta takrorlanadi va bozgo'ygga ulanib ketadi. Shashmaqomning nasr (ashula) bo'limining sho'hbali ham bastakorlik ijodining mahsulidir. Bunda 200 dan ortiq turli shakldagi ashulalar mavjud bo'lib, ular asosida ham bastakorlar tomonidan yuzlab kuy va ashulalar yaratilgan. Shashmaqomning ashula bo'limlari anchagina murakkab shakldagi sho'hbalaridan tarkib topgan va asosan, bir-biridan ajralib turadigan ikki xil sho'hbalar guruhiga bo'linadi. Birinchisi _ Sarahbor, Talqin, Nasr va Ufar qismi. Ikkinchisining esa asosan, Savt - mo'g'ulcha shaklidagi sho'hbalar kiradi. Ashula bo'limi ijrolarida namudlar katta o'rin tutadi. «Namud» - ko'rinish, o'xshash ma'nosin anglatib, ma'lum bir ashula qismining ikkinchisida qaytarilishi tushuniladi. Namudlar shashmaqomning ashula bo'limida ko'p uchraydi. Bular Dugoh, Segoh, Bayot, Navo, Uzzol, Ushshoq, Oraz, Nasrullovi, Muhayyari Chorgoh namudlaridan iborat bo'lib, bularning atalishidan maqomning qaysi sho'hbasidan olinganini bilib olish mumkin. Bir maqomdan olingan namud ikkinchi maqomda foydalanilganda, shu maqom sho'hbasining kuy harakati, tuzilishi va doira usullariga moslashtiriladi. Namudlar yirik shakldagi xalq ashulalarida ham uchraydi. Bundan tashqari, an'anaviy qo'shiq ijrosidagi asosiy ishlatiladigan avjlar, yahni Zebo pari avji, Turk avji singari avjlar ham namudlar vazifasini bajaradi va ijroga jilo beradi.

Zebo pari avji - Segoh maqomidan tashqari barcha maqomlarda ishlatiladi va mashhur avj sanaladi. Bu avjni isfaralik mashhur hofiz Zebo pari yaratgan bo'lib, maqom va an'anaviy qo'shiq ijrosiga yangilik sifatida kirib kelgan va mashhur bo'lib ketgan. Turk avji deb nomlanuvchi avj qadimiy bo'lib, Buzruk va Segoh maqomlari sho'hbalarida foydalanilgan. Bundan tashqari, an'anaviy qo'shiq ijrosida ham juda zaruriy avj sifatida ishlatiladi. Mazkur namud va avjlar maqom sho'hbalarida kuy tuzilmalarining qonuniy rivojlanishi, kuyning ruhi,

qiyofasi lad asosining parda tuzilishi va doira usulining xususiyatlariga moslab olinadi. Ular turli usuldagi ashulalarda o'ziga xos ohang bilan jilolanadi. Yuqorida aytganimizdek, Shashmaqomning birinchi guruh sho'hbalariga Sarahbor, Talqin, Nasr, ularning taronalari va Ufar qismlari kiradi. Har bir maqom turkumi Sarahbor bilan boshlanadi. Sarahbor - tojikcha «sar», yahni bosh, axbor - arabcha «xabar» ma'nosini beradi va bosh ijro yo'li mazmunini anglatadi. Olti maqomning har birida ular maqomlar nomi bilan qo'shilib, Sarahbor, Buzruk, Sarahbori Rost, Sarahbori Navo, Sarahbori Dugoh, Sarahbori Segoh, va Sarahbori Iroq - deb nomlanadi. Ular 11-14-15 bo'g'inli shehriy vaznda ijro etiladi.

Talqin - arabcha «tushuntirish» ma'nosini anglatib, bu sho'hiba Iroqdan tashqari barcha maqomlarda uchraydi va Talqini Uzzol, Talqini Ushshoq, Talqini Bayot, Talqini Chorgoh, Talqini Segoh deb yuritiladi. Talqinning taronalari esa, Sarahbordagi kabi vazifani bajaradi. Foylatun-foylatun-foylatun-foylun shehriy vazn bilan ijro etiladi.

Nasr - sochma ma'nosini anglatib, ular Shashmaqomda o'n to'rtta nom bilan ataladi:

Buzrukda - Nasrullohi, Nasr Uzzol;

Rostda - Nasr Ushshoq, Navro'zi Sabo;

Navoda - Nasri Bayot, Orazi Navo, Xusayniy Navo;

Dugohda - Nasri Chorgoh, Orazi Dugoh, Xusayniy Dugoh;

Segohda - Nasri Segoh, Navro'zi Xoro, Navro'zi Ajam;

Iroqda - Muxayyari Iroq.

Ular mafoiylun - mafoiylun - mafoiylun vaznli shehriy turkumlar asosida ijro etiladi. Ufar - maqom ijrolarining yakunlovchi qismi bo'lib, sho'x doyra usulida ijro etiladi. Har bir maqomning sho'hbaları va ularning taronalari turkum tarzida ijro etilib, ufar bilan tamomlanib, oxirgi suporish bilan yakunlanadi. Ufar ijrolarida turli vazndagi shehrlardan foydalaniladi. Ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'hbaları Savt va mo'g'ulchalar usulida ijro etiladigan ashula yo'llaridir. Ikkinchi guruh sho'hbaları besh qismdan iborat bo'lib, asosan ashula yo'llaridan iboratdir. Bundan tashqari, Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar shaxobchalari ham mavjuddir. Ular Ramal, Komil, Muzoreh, Rajaz, Mutroqiy vaznidagi shehrlar bilan ijro etiladi.

Ikkinchi guruh sho'hbaları orasida Rok, Iroqi Buxoro, Mustahzodi Navo o'z tuzilishi bilan Savt mo'g'ulcha sho'hbalaridan farq qiladi va ularning bosh qismlari Sarahbor va Talqin usullarida ijro etiladi.

Biz quyida Shashmaqomning har bir turkumining nomlanishi, mazmuni, kuy va ashula yo'llari tuzilmalari haqida qisqacha bayon etishni lozim topdik va shu asosda jadvalda ko'rsatishga harakat qildik.

Buzruk maqomi

Oltita maqomning birinchisi shu nom bilan ataladi. Bu maqom qadimdan mashhur bo'lgan. Qadimiy musiqiy manbalarda Buzruk aniq lad tuzilmasini va unga mos kuy va ashulalarni ifodalagan. Hozirgacha esa Shoshmaqom tarkibidagi kuy va ashula yo'llari bilan ifodalanadi.

«Buzruk» - forsha so'z bo'lib, «katta, ulug'» ma'nolarini bildiradi va ma'nosiga qarab ham ko'plab kuy va ashula yo'llarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham ulug' maqom deb nomlanadi. Buzruk maqomining cholg'u bo'limi Tasnifi Buzruk, Tarjei Buzruk, Garduni Buzruk, Muhammasi Buzruk, Muhammasi Nasrullovi, Saqiliy Islimiy, Saqiliy Sulton cholg'u ijrolaridan iborat. Bu cholg'u qismlar kuy tuzilishi, ohangdorligi bilan mukammal asarlar sarasiga kiradi. Buzruk maqomining cholg'u va ashula yo'llarining badiiy qimmatini shundan iboratki, ular asosida bastakorlar tomonidan juda ko'p kuy va ashulalar yaratilgan. Buzrukning cholg'u qismidagi kuylar birin - ketin ijro etilgandan so'ng, sho'halarga o'tiladi. Bu sho'habalar Sarahbori Buzruk, Talqini Uzzol, Nasrullovi, Nasri

Uzzol, Ufori Uzzol nomlari ostida taronalari bilan turkum tarzda ijro etiladi. Ular orasida Nasrullovi va Nasri Uzzol Nasr sho'habalari sanaladi. Ularning avjlari Ushshoq, Uzzol, Muhayyari, Chorghoh namudlari asosida bo'lib, Nasrulloviya esa turk avjidan foydalanilgan. Hyech qaysi sho'habalarni kamsitmagan holda Buzruk maqomining asosiy Nasr sho'habalaridan bo'lmish Nasrullovi haqida biroz to'xtalamiz. Nasrullo - shu nomli kuy va ashulani yaratgan bastakorning tahallusidir. Bahzi manbalarga qaraganda, Xuroson hukmdori Sulton Sanjar zamonida mashhur Nasrullo hofiz o'tganligi, podshoh Sanjar va Nasrullo hofiz haqida rivoyatlar ham mavjud. Xalq orasida mashhur bo'lgan Nasrullovi sho'habasi 12 maqomda «Rohaviy» nomi bilan atalgan. Nasrullovi ijrolari Buzrukning boshqa sho'habalaridan farq qiladi va musiqa ijodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Uning asosida turkum tarzida ijro etiladigan Nasrullovi nomi bilan mashhur bo'lgan 5 qisimli kuylar Farg'ona Nasrullovi deb nomlangan ashula yo'llari yaratilgan bo'lib, so'nggi yillarda mashhur hofiz va bastakor Fattoxxon Mamadaliyev bu ijro yo'llarini yangicha talqin etdi. Nasrulloviyining 5 qisimli kuylar majmuini ko'hna qadimiy sozlar bilan to'ldirilgan «Meros» ansambli mashhur sozanda G'ulomjon Xojiqulov rahbarligida muvaffaqiyatli ijro etdilar. Buzruk maqomidagi yana bir mashhur ijro ikkinchi guruh sho'habalaridan biri «Savti Sarvinoz» nomi bilan mashhur. Savti Sarvinozdagi kuy va ashulalar ohangdorligi bilan ajralib turadi. Bu ashula ohanglari asosida XIX asrning oxirida Shahrisabzlik mashhur bastakor maqomdon hofiz Abdurahmonbek uch qisimli turkum yaratdi. Bu turkum hozirgacha sevib ijro etiladi.

XX asrning boshlarida Marg'ilonlik Madali hofiz Abdurahmonbegi turkumini to'ldirib, uni yettita ashula yo'lini yaratdi va o'z davrida bu ijrolar «Madalibegi» nomi bilan mashhur bo'lgan va 1912 yilda plastinkaga yozdirilgan. Bu noyob plastinka hozirda Marg'ilon san'at muzeyida saqlanadi. Buzruk maqomining 2 guruhdagi sho'hbalaridan biri xalqning sevimli ijrolaridan Iroqi Buxoro sanaladi. Bu ijro o'zining jozibasi bilan kuy tuzilishi, avjining xilma - xilligi bilan ajralib turadi. Iroq yo'llari asosida Cho'li Iroq, Suvoriy singari mashhur cholg'u asarlari, Toshkent Iroqi kabi ashulalar yuzaga kelgan va sevib chalinib, kuylanib keladi. Umuman, Buzruk maqomi Shashmaqom tarkibida bosh katta maqom vazifasini o'zining musiqiy salobati bilan to'ldirib turadi.

BUZRUK MAQOMINING TUZILISHI

ChOLG'U BO'LIMI

1. Tasnifi Buzruk
2. Tarjei Buzruk
3. Garduni Buzruk
4. Muhammasi Nasrullovi
5. Saqili Islimiy
6. Saqili Sulton

AShULA BO'LIMI

Birinchi guruh sho'hbalari

1. Sarahbori Buzruk. Tarona 1,2,3,4,5
2. Talqini Uzzol Tarona
3. Nasrullovi Tarona 1,2,3,4
4. Nasri Uzzol
5. Ufori Uzzol. Suporish. Ufar

Ikkinchi guruh sho'hbalari

1. Mo'g'ulchai Buzruk shahobchalari
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar.
 2. Savti Sarvinoz shahobchalari:
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar
 3. Iroqi Buxoro shahobchalari:
Talqincha, Chapandoz, Soqiynoma, Ufar.
 4. Rok sho'hbalari:
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar
- Jami: 44 ijro.

Rost maqomi

«Rost» maqomi - qadimiy maqomlardan biri bo'lib, 12 maqomning biri hisoblangan. Rost maqomi borasida turli afsonalar ham mavjud bo'lib, Odam ato va Momo Havodan qolgan deb ham yuritiladi. «Rost» iborasi «mos keladigan, to'g'ri tushadigan» ma'nolarini bildiradi. Bu maqomning ladiga ko'p kuy va ashulalar mos kelgani uchun Rost deb nomlangan. Rost maqomi ham cholg'u va ashula bo'limlaridan iborat bo'lib, mushkulot qismi Tasnifi Rost, Garduni Rost, Muhammasi Rost, Muhammasi Ushshoq, Muhammad Panjigoh, Saqiliy vazmin, Saqiliy Rag-rag deb nomlanadi. Rostning ashula yo'llari birinchi va ikkinchi sho'hbalardan tarkib topgan bo'lib, birinchi guruh Sarahbori Rost, Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Navro'zi Sabo sho'hbali va Ufari Ushshoq qismidan iborat.

Rost maqomining ashula bo'limi bosh mavzui bo'lgan Sarahbori Rost o'zining kuy tuzilishi jihatdan betakror ashula yo'llaridan bo'lib, juda murakkab qiyofaga ega. Rost maqomining ikkinchi sho'hbasi «Talqini Ushshoq» deb nomlanadi. Bu maqomda Ushshoqnoma bilan mashhur bir necha sho'ha va qismlar mavjud. Birinchi guruh sho'hbalarida Nasri ushshoq va Ufari Ushshoq ashula yo'llari mavjud. Ularning barchasi bir-biri bilan hamohang bo'lib, kuy tuzilishi va tarkibiy qismlari ham bir xildir. Ushshoq iborasi arabcha «Oshiqlar» ma'nosini anglatadi. Ushshoqning cholg'u va ashula yo'llari ishqiy, lirik ohang kasb etishini o'zi ushbu ma'noga monandligini ko'rsatadi. O'tmish musiqiy manbalarida Navro'zi Arab, Navro'zi Xoro, Navro'zi Bayot, Navro'zi Ajam, Navro'zi Sabo singari navro'z bayramiga nisbatan berilgan sho'hbalar mavjud bo'lganligi aytiladi. Bahor manzaralarini lirikasini tasvirlaydigan ushbu ijrolar 12 maqomda rohaviy maqomini sho'hbasi sanalgan. Shashmaqomda esa Rost maqomi tarkibiga kiritilgan. Rost maqomining birinchi guruh sho'hbali juda mashhur ashula yo'llari sanaladi. Ular asosida Savt ijrolari, ularning shohobchalari, Ushshoqning qator variantlari, Gulyori Shahnoz va uning shahobchalari, surnayda chalinadigan qator musiqa asarlari yuzaga kelganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Rost maqomining birinchi guruh sho'hbali Sarahbori Rostdan boshlanib, uning 4 ta taronasi aytiladi. Turkum esa Talqini Ushshoqqa ulanib ketadi. Taronasining ijrosidan so'ng Talqini Ushshoqqa ulanib ketadi. So'ngra ikkita taronasi, Navro'zi Sabo uning talqinchasiga o'tiladi. Birinchi guruh sho'hbali Ufari Ushshoq va oxirgi siporishi bilan yakunlanadi. Rost maqomining ikkinchi guruh sho'hbalariga Savti Ushshoq, Savti kalon, Savti Sabo kiradi va Rostning birinchi guruh sho'hbali asosida yaratilgan bo'lib, ularning variantlari sanaladi. Bulardan Savti Ushshoq sho'hbasi alohida mazmunga ega bo'lib, yangicha sayqal bilan jilolanadi va boy mazmundor ashula yo'llariga

egadir. Savti Ushshoqning kuy ohanglari asosida xalq bastakorlari juda ko'p kuy va ashulalar yaratganlar. Xalqimiz orasida mashhur bo'lgan «Guluzorim», «Farg'onacha tanovar», «Tong otguncha», Xorazm dostonlarida aytiladigan «Naylayin» ashulasi «Izlayman» va boshqa Farg'onacha qo'shiq va yallalar bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, Muxtor Ashrafiyning «Dilorom» operasidagi Dilorom ariyasi, Doni Zokirovning «Ko'rmadim» romansi, Dadaali Soatqulovning Muqimiy g'azaliga yozgan «Navbahor» romansi, To'xtasin Jalilov ijodiga mansub bir necha ashula yo'llari, G'anijon Toshmatovning «Istadi» qo'shig'iga o'xshagan mashhur ijrolar Savti Ushshoq hamohangligi natijasida yaratilgan bo'lib, musiqiy madaniyatimizning durdonalariga aylanib ketgan. Rost maqomining mashhur sho'hbalaridan biri «Savti kalon» sanaladi. «Kalon» so'zi bastakor taxallusidir. «Savti kalon» besh qismli ashula yo'li bo'lib, uning shahobchalari Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufordir. Ular asosida ko'plab kuy va ashulalar yaratilgan bo'lib, Qalandar 1- II (raqqosasidan) «Farhod va Shirin» dramasidagi Shirin ariyasi shular jumlasidandir.

Ushbu sho'hbadagi Soqinomayi Savti kalon ashulasi mashhur ijrolardandir. Rost maqomi yo'llariga mos kuy va ashulalar xalqimiz musiqiy merosidan munosib o'rin olgan bo'lib, san'atkorlarimiz tomonidan sevib ijro etilib kelinadi.

Rost maqomining tuzilishi

CHOLG'U BO'LIMI

1. Tasnifi Rost
2. Garduni Rost
3. Muhammasi Rost
4. Nasri Ushshoq. Tarona 1,2
5. Muhammasi Panjgoh
6. Saqili vazmin
7. Saqili rag-rag

ASHULA BO'LIMI

Birinchi guruh sho'hbalari

1. Sarahbori Rost Tarona 1,2,3,4
2. Talqini Ushshoq Tarona
3. Muxammasi Ushshoq
4. Navro'zi Sabo. Talqincha
5. Ufori Ushshoq Siporish

Ikkinchi guruh sho'hbalari:

1. Savti Ushshoq, Shaxobchalari:

Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar
2. Savti Kalon. Shaxobchalari:
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar
3. Savti Sabo shaxobchalari:
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar
Jami: 35 ijro

NAVO MAQOMI

«Navo» maqomi - «Shashmaqom» tarkibidagi uchinchi maqom sanalib, uning tarixi ham o'tmish zamonlarga borib taqaladi. «Navo» atamasi arabcha so'z bo'lib, yoqimli kuy, ohang degan ma'noni anglatadi. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy ham o'z taxallusini shu atamaga monand qo'llagan bo'lib, «Navo chekuvchi, kuylovchi» ma'nolarini anglatgan. O'tmish musiqa risolalarida Navo maqomi Nag'maiy Dovudiy, yahni Dovud payg'ambar kuyi deb ham ataladi. O'n ikki maqomda navo maqomi ikkinchi cholg'u va ashula bo'limlaridan iborat. Ashula bo'limi, birinchi va ikkinchi guruh sho'hbalaridan tarkib topgan. Navo maqomi sakkizta cholg'u qismiga ega bo'lib, Tasnifi Navo, Tarjei Navo, Garduni Navo, Nag'mai Orazi Navo, Muhammasi Navo, Muhammasi Bayot, Muhammasi Xusayniy, Saqili Navo deb nomlanadi. Tasnif - maqomning bosh kuyi, Tarjeh - qaytarma ohanglardan iborat kuy, Gardun, Muhammas va Saqil iboralari doyra usullarining ifodasidir. Shuningdek, Nag'mai Orazi Navo, Xusayniy bastakorning taxalluslariga nisbatan berilgan atama sanaladi. Navoning cholg'u yo'llari ohanglarga boy, tez ta'sir etadigan, kuylardan tuzilgan. Navoning cholg'u qismida usullar o'zgarsada, birin-ketin kelgani uchun bir-biriga bog'liqlikni kuzatish mumkin. Navo maqomi asosida qator cholg'u kuylari, surnay navo yo'llari yaratilgan. Navo maqomining ashula bo'limi birinchi guruh sho'hbaları Sarahbor, Talqin, uchta Nasr va bitta Ufar qismlaridan tarkib topgan. Birinchi guruh sho'hbalar - Sarahbori Navo, Talqini Bayot, Nasr sho'hbaları - Nasr Bayot, Orazi Navo, Husayniy Navo deb nomlanadi va o'zlarining tonlariga ega. Ularning birinchisi Savti Navo, Navo ohanglari ta'sirida yuzaga kelgan. Chapandoz doyra usulida ijro etilgani uchun «Chapandozi navo» deb ham nomlanadi. Ustoz Yunus Rajabiy «Savti» doyra usulini qo'shib, kuy yo'lining barcha harakatlarini saqlab qolib, ashula yo'lini yuzaga keltirdi. Natijada Savti Navo to'ldirilib, uning olti qismli shakli yuzaga keldi. Savti Navoning bosh ashula yo'li ijro etilgandan so'ng ijro etiladi. «Chapandozi Savti Navo» va uning Talqinchasi, Qashqarchasi, Savti Navoning mashhurligi shundaki, shu asosda barcha ijrolarda sevib aytiladigan «Avji Turk» yuzaga kelgan. Navo maqomining ikkinchi guruhga kirgan mashhur

sho'hbalaridan biri Mo'g'ulchai Navo deb nomlanadi hamda Talqincha va Qashqarcha ashula yo'llari mavjud bo'lib, turkum sifatida ijro etiladi. Navo maqomining ikkinchi guruh sho'hbalaridan uchinchisi Mustahzodi Navo deb nomlanadi va unda ham Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar qismlari mavjud. «Mustazod» shehr vazni ifodasi bo'lib, arabchada «orttirilgan» ma'nosini anglatadi. Mustahzodi Navoning kuy yo'lida ham shehr shaklidagi kabi orttirilgan kuy bo'lagi mavjud bo'lib, har bir kuy jumlasini ketidan uni yakunlab boruvchi kichik bir kuy bo'lagi qo'shiladi. Mustahzodi Navoning birinchi xati - daromad, ikkinchi xati - miyonxat, uchinchi va to'rtinchi xatlar Bayot namudi, beshinchi xati Navo namudi, oxirgi xati esa - tushirim qismlardan iborat. Mustahzodi Navoning bosh yo'li ijro etilgandan so'ng uning shahobchalari - Talqinchasi, Qashqarchasi, Soqiynomasi, Ufori o'qiladi. Umuman olganda Navo yirik maqomlardan bo'lib, uning ohanglari asosida juda ko'p kuy va ashula hamda surnay yo'llari yaratilgan. Bu asosda Farg'ona, Toshkent, Tojikiston vohalarida mashhur bo'lgan bayot ijrolari va turkumlari yaratilganligi va sevib ijro etilganligi yaqqol misol bo'la oladi. Bayot yo'llari shu qadar keng tarqalganki, uning asosida ko'plab variantlar yaratilgan va hozir ham izlanishlar davom etmoqda. Bastakorlar bu asosda kuy va ashulalar yaratmoqdalar. Shundan ko'rinadiki, Navo maqomi asosida kelgusida ham ko'plab musiqiy asarlar yaratiladi.

Navo maqomining tuzilishi

ChOLG'U BO'LIMI AShULA BO'LIMI

1. Tasnifi Navo
2. Tarjei Navo
3. Garduni Navo
4. Nag'mai Orazi Navo
5. Muhammasi Navo
6. Muhammasi Bayot
7. Muhammasi Xusayniy
8. Saqili Navo

Birinchi guruh sho'hbalarini:

1. Sarahbori Navo. Tarona 1,2
2. Talqini Bayot Tarona
3. Nasri Bayot Tarona 1,2
- 4 Orazi Navo Tarona 1,2,3
5. Xusayniy Navo
6. Ufari Bayot. Suporish

Ikkinchi guruh sho'hbalarini:

1. Savti Navo shaxobchalari:

Chapandozi Savti Navo, Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar.

2. Mo'g'ilchai Navo shahobchalari:
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar.
3. Mustahzodi Navo shaxobchalari:
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar.
Jami: 40 ijro

Dugoh maqomi

Shashmaqom tarkibiga kirgan to'rtinchi maqom - Dugoh maqomidir. Dugoh atamasi ikki o'rin, ikki joy ma'nosini bildiradi. O'n ikki maqom majmuasida Xusayniy moqomining sho'hbalaridan biridir. Dugoh maqomining Xusayniy sho'hasini, yahni Dugoh Xusayniyni tinglab ko'rilsa, kuy boshlanishidagi tovushlar oralig'idagi daromaddan oldin keladigan ikki pardani guvohi bo'lamiz. Yahni ashula tonikadan oldingi pardadan boshlanadi.

Ey tan bas ayla g'amli qish o'tsa bahor bo'lur

Shunga o'xshash ijrolarni dugoh maqomining ko'p sho'hbalarida uchratish mumkin. Dugoh Shashmaqom tarkibida mustaqil maqom bo'lib, boshqa maqomlar singari cholg'u va ashula bo'limlaridan iboratdir. Cholg'u qismi va sho'hbalar turkum tarzida ijro etiladi. Dugohning cholg'u yo'llari Tasnifi Dugoh, Tarjei Dugoh, Garduni Dugoh, Peshravi Dugoh, Samo'i Dugoh, Muhammasi Dugoh, Muhammasi Chorgoh, Muhammasi Hoji Xo'ja, Muhammasi Chor Sarxona, Saqili Ashqullo deb nomlanadi. Dugoh maqomining cholg'u yo'llari kuy tuzilishi jihatdan mukammal asarlar bo'lib, ular badiiy bo'yoqlarga boydir. Cholg'u bo'limidagi kuylar ijro etilgandan so'ng ashula yo'li sho'hbalariga o'tiladi. Ashula bo'limi birinchi guruh sho'hbalar taronalari bilan yaxlit holda turkum tarzida ijro etiladi. Bular asosiy yo'llar sanalib, Sarahbori Dugoh, Talqini Chorgoh, Orazi Dugoh, Xusayniy Dugoh sho'hbalaridir va Ufar Chorgoh qismidir. Sarahbori Dugoh maqom sho'hbalarining asosiy mazmunini tashkil etadi va Navoiyning:

Xolu xating xayolidin, ey sarvi gul uzor,
Gahi ko'zimga xol tushibdur, gahi g'ubor

nomli mashhur g'azali bilan ijro etiladi. Sarahbori Dugoh kuy tuzilishi jihatdan murakkab bo'lib, bir necha kuy qismlaridan tarkib topgan. Uning daromad va miyonxat qismi cholg'u muqaddima bilan boshlanib, yana bosh pardaga qaytib tushadi. Uchinchi xat Zebo pari avj, to'rtinchi, oltinchi xatlar Chorgoh namudi, yettinchi xat tushirim qismlaridan iboratdir. Sarahbori Dugoh Farg'ona - Toshkent ijrochiligida mashhur bo'lgan Chorgoh yo'lga juda yaqinlik seziladi va keyin oltita taronasiga ulanib ketadi. Oltinchi taronasi suporish orqali Talqini Chorgoh,

Nasri Chorgoh, Ufori Chorgoh ashula yo'llariga ulanadi. Talqini Chorgoh kuy bilan boshlanib, Daromad, Miyonxat, Muhayyari Chorgoh namudi va tushirim qismlari mavjud. Dugoh maqomining Nasr sho'hbalaridan biri uchta taronasi bir-biriga ulanib ketadi. Oxirgi taronasida suporish aytilib, Xusayniy Dugohga ulanib ketadi. Bu ijro rivojlanib, Farg'ona-Toshkent mashhur ijro yo'llaridan Dugoh Xusayniy turkumlariga olib keladi. Surnay Dugohi, o'yin Dugohi ham shu ijroning davomiyligidir. Dugoh Xusayniy olti qisimli ashula yo'llarini birlashtirgan. Ular bir-birlaridan Dugoh Xusayniy I, II, III, IV, V, VI deb farqlanadi. Dugoh maqomining ikkinchi guruh sho'hbalari Savti Chorgoh, Mo'g'ulchai Dugoh, Oromijon - deb nomlangan ashula yo'llari va ular asosida yaratilgan ashula namunalaridan iborat. Bular ichida murakkabrog'i Savti Chorgoh bo'lib, Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar shahobchalari turkum tarzida ijro etiladi. Savti Chorgohning Qashqarcha, Soqiynoma yo'llari bir-biriga o'xshash bo'lib, Ufari esa Chorgoh va Ufari Oromijon bilan hamohangdir.

Dugoh maqomining ikkinchi guruh sho'hbalaridan biri «Sarahbori oromijon» deb atalib, birinchisi Sarahbori Oromijon, Oromijon, Ufori Oromijon deb atalgan uch qismga bo'linadi. S.O. Daromad, Miyonxat, Muhayyari Chorgoh namudi va tushirish qismlaridan tarkib topgan. Boburning mashhur bayti bilan ijro etiladi:

Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglimdin o'zga mahrami asror topmadim.

Dugoh maqomi asosida juda ko'p ashula yo'llari yaratilgan bo'lib, ayniqsa, Farg'ona- Toshkent ijrochiligida Dugohi Xusayniy, Chorgoh turkumlari juda mashhurdir. Dugohi Xusayniyning shahobchalari oltita bo'lib, I-Sarahbori usulda, II-Savti usulda, keyingisi Qashqarcha usulda ijro etiladi. Dugoh Xusayniyning surnay yo'llari ham mashhur bo'lib, Surnay Dugohi, mushkuloti dugoh, Samoyi Dugoh deb nomlanadi. Yana bir mashhur turkum «Chorgoh» bo'lib, I, II, III, IV, V, VI tartibida ijro etiladi. Chorgoh I, kuy tuzilishi jihatdan Sarahbori Dugohning bir ko'rinishidir. Chorgoh II esa Savti Chorgohning o'zgacha variantidir. Savti Chorgoh va Chorgoh III ning kuy tuzilishi bir xildir. Chorgohning IV, V, VI shahobchalari kuy mavzui jihatdan bir-birining ritmik variantidir. Chorgoh yo'llari asosida ko'plab cholg'u yo'llari, patnisaki ashulalar, surnay yo'llari yaratilgan bo'lib, ular xalqimiz musiqa merosining rivojlanishida juda katta qiymatga ega.

Dugoh maqomining tuzilishi

ChOLG'U BO'LIMI AShULA BO'LIMI

1. Tasnifi Dugoh
2. Peshrav
3. Tarjei Dugoh
4. Garduni Dugoh
5. Samo'i Dugoh
6. Muxammasi Dugoh
7. Muhammasi Chorgoh

Birinchi guruh sho' hbalari

1. Sarahbori Dugoh.
Tarona. 1,2,3,4,5,6
2. Talqini Chorgoh. Tarona
3. Nasri Chorgoh. Tarona
4. Orazi Dugoh. Tarona 1,2,3
5. Xusayniy Dugoh
8. Muhammasi Xojixo'ja
9. Muxammasi Chor Sarxona Suporish
10. Saqili Ashqullo Ufar

Ikkinchi guruh sho' hbalari:

1. Savti Chorgoh shahobchalari:
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar
2. Mo'g'ulchai Dugoh shaxobchalari:
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar, Qalandar
(ashula yo'li) Samandar (ashula yo'li).
3. Sarahbori Oromijon. Oromijon. Ufari Oromijon.

Dugoh maqomi asosida yaratilgan kuy va ohanglar:

Dugoh Husayniy I, II, III, IV, V, VI

Chorgoh I, II, III, IV, V, VI

Jami: 55 ijro.

Segoh maqomi

Segoh - o'n ikki maqom tizimidagi maqomlarning uchinchi pardasidan boshlanib ijro etiladigan kuy va ashulalarning namunasi bo'lib, «uch o'rin» ma'nosini anglatadi. Hozirda Segoh atamasi kuy va ashula yo'llarini

boshlang'ich uch pardasi ijro jarayonida ishlatiladi. Segoh maqomining cholg'u va ashula yo'llari xalq orasida juda keng tarqalgan. Segohning patnisaki yo'li ham mavjud. Segohning cholg'u bo'limida Tasnifi Segoh, Tarjei Segoh, Xafif Segoh, Garduni Segoh, Muxammasi Segoh, Muxammasi Ajam, Muxammasi Mirzo Xakim, Saqili Bayot Nigor deb nomlangan qismlar mavjud. Segoh maqomi turkum tarzida ijro etilsa, Tasnifi Segohdan boshlanadi. Tasnifi Segohning kuy mavzui Segohning boshqa cholg'u qismlari va sho'hbalarida tez-tez namoyon bo'lib turadi. Tarjei Segoh xonalari Tasnifi Buzrukdagi Peshravlarni eslatadi. Xafifi Segoh cholg'u yo'li Tasnifi Segohning ma'lum variantidir. Doyra usullari ham bir-biridan farq qilmaydi. Gurduni Segoh kuyi mashhur bo'lib, juda yoqimli eshitiladi. Segoh muhammasidagi xona va bozgo'ylarning har biri to'rttadan bo'lib, 16 taktdan iborat. Segohning Muxammasi Ajam, Muxammasi Mirzo Xakim, Saqil Basta Nigor cholg'u qismlari kuy tuzilishi jihatdan rang-barang ohanglardan iborat. Segoh maqomining cholg'u qismlari ijrosidan so'ng ashula qismiga o'tiladi. Ashula qismlari sho'hbaları ikki guruhdan iborat bo'lib, birinchi guruhga Sarahbori Segoh, Talkini Segoh, Nasri Segoh, Navro'zi Xoro, Navro'zi Ajam va Ufari Segoh qismlari kiradi. Bu sho'hbalar bir necha taronalari bilan turkum tarzida ijro etiladi. Bu sho'hbalar orasida Sarahbori Segohda yetti tarona, Talqini Segohda, Nasri Segoh va Navro'zi Ajamda bittadan tarona, Navro'zi Xoroda uchta tarona mavjud. Bu sho'hbalar orasida uchta nasr sho'hbalar bo'lib, ular Nasri Segoh, Navro'zi Xoro va Navro'zi Ajam nomlari bilan mashhurdir. «Xoro» so'zi arabchada tog'li joy, «Ajam» iborasi sharq xalqlari nomlanishi ifodasidir. Ashula bo'limi Sarahbori Segoh sho'hbasi bilan boshlanadi. So'ngra uning taronalari o'ziga xos yangraydi. Oxirgi yettinchi taronasi suporish deb ataladi. Sarahbori Segohga Talqini Segoh sho'hbasi ulanib ketadi. Talqini Segoh betakror ashula yo'li bo'lib, ko'proq Xusayniy Navo ohangini eslatadi. Nasri Segoh talqini Segoh bilan hamohangdir. Lekin yangicha ohang va mazmun kasb etadi va avjida Navo va Oraz namudlari uchraydi. Navro'zi Xoro, Navro'zi Ajam, Navro'zi Sabo sho'hbaları o'tmishda o'n ikki maqom tizimidagi sho'hbalar nomi bilan sanaladi. Navro'zi Ajam sho'hbasining kuy tuzilishi bo'yicha boshqa sho'hbalardan farq filadi. Unda Turk avji orqali Ufari Segohga ulanib ketadi. Segoh maqom yo'llari asosida juda ko'p xalq kuylari va ashula yo'llari yaratilgan bo'lib, yakka sozlarda, xalq cholg'u dastalari, ashulachilar ansambllari tomonidan sevib ijro etiladi.

Segoh ohanglari zamirida avj ham yaratilgan bo'lib, Segoh namudi deb yuritiladi. Segohning ikkinchi guruh sho'hbaları Mo'g'ulchai Segoh va segoh ohanglari asosida yaratilgan kuy va ashulalardan iborat. Mo'g'ulchai Segoh o'z shahobchalari bilan boshqa maqomlardagi mo'g'ulchalardan farq qiladi. Uning tarkibida Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar yo'llaridan tashqari

chapandoz doyra usullari ijro etiladigan nimcho'poniy deyilgan shahobchasi ham bor. Mo'g'ulchai Segohning Talqinchai Mo'g'ulchai Segoh, Nimcho'poniy, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufarlari uning kuy tuzilmalari negizida yuzaga kelgan. Mo'g'ulchai Segoh talqinchasi ketidan ulanib aytiladigan shahobchasi «Karimqulbegi» deb nomlanadi. Mo'g'ulchai Segohning ikkinchi shahobchasi Nimcho'poniy ham xalq orasida Karimqulbegi deb ataladi. U Segohning bosh pardasidan boshlanadi. Avjida Segoh namudi va turk avjidan foydalanilgan. Karimqulbegi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan mashhur xonanda va bastakordir. Mo'g'ulchai Segohning oxirgi shahobchasi Ufar qismidir. Ufari Mo'g'ulchai Segoh o'ziga xos nodir ashula yo'llaridan bo'lib, sho'xchan yangraydi. Segohning cholg'u va ashula bo'limi juda yoqimli kuy va ashulalardan iborat bo'lib, ular asosida juda ko'p kuy va ashulalar yaratilgan. Ulardan biri xalq orasida mashhur bo'lgan «Giryā I-II» ashulalaridir. «Giryā 1» Chapandoz usulida ijro etilib, muxammas shaklidagi shehrlar bilan aytiluvchi kichik hajmli ashuladir. Uning avjida namudlar tushib qoldirilgan.

Qo'shilsin bu muxammas bazm ichra savti gulyora

Qo'ying yo'l bermangiz ulfatlar ichra bo'lsa ag'yora.

Giryā ikkinchining kuy tuzilishi birinchidan farq qiladi va jadalroq surhatda ijro etiladi. «Fig'on», «Suvora», «Guluzorim» kabi ajoyib ashula yo'llari ham Segoh sadolariga asoslangan. Segoh yo'llari zaminida juda ko'p cholg'u yo'llari, maxsus surnayda chalinadigan kuylar ham yaratilgan edi. Mushkuloti Segoh va uning Ufari, Patnisaki Segoh, Sayqal, Navro'zi Ajam va uning taronalari, Ufari Ajam shu kungacha sevib ijro etiladi. Segoh yo'llari Xorazmda ham keng tarqalgan bo'lib, «Norim-Norim» kuyi, «Feruz» ashulasi, «Eshvoy» qo'shig'i o'zining ohanglari jihatdan Segoh yo'llarining o'zgacha ko'rinishidir. Segoh maqomining cholg'u va ashula qismlari va ular asosida yuzaga kelgan namunalar o'zining badiiy - estetik qimmatini bilan musiqa merosimizda sezilarli o'rin egallaydi.

Segoh maqomining tuzilishi

ChOLG'U BO'LIMI ASHULA BO'LIMI

1. Tasnifi Segoh Birinchi guruh sho'hbalari:
2. Tarjei Segoh 1. Sarahbori Segoh
3. Xafifi Segoh Tarona 1,2,3,4,5,6,7
4. Garduni Segoh 2. Talqini Segoh
5. Muxammasi Segoh Tarona
6. Muxammasi Ajam 3. Nasri Segoh. Tarona
7. Muxammasi Mirzo Xakim 4. Navro'zi Xoro. Tarona 1,2,3
8. Saqili Basta Nigor 5. Navro'zi Ajam. Tarona

6. Ufari Segoh. Suporish

Ikkinchi guruh sho'hbalar:

1. Mo'g'ulchai Segoh shahobchalari:

Talqinchai Mo'g'ulchai Segoh Karimqulibegi. Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar

2. Segoh maqomi asosida yaratilgan kuy va ohanglar:

Mushkuloti Segoh va Ufar, Patnisaki Segoh, Sayqal, Navro'zi Ajam va taronalari, Ufari Ajam, Giryra I, II.

Jami: 45 ijro

Iroq maqomi

Iroq maqomi qadimgi maqomlardan bo'lib, u xaqda ma'lumotlar ming yildan buyon manbalarda qayd etiladi. Bu davrlarda lad qurilmalari kuy va ashula bo'limlari bir necha bor o'zgarishi tabiiy bo'lib, «Shoshmaqom» tarkibida esa asrlar osha takomillashuvi natijasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan maqomdir. «Iroq» iborasi Sharqda mashhur bo'lgan arab mamlakati va unga nisbatan berilgan maqom nomidir. Maqomlar qadimdan mashhur mamlakatlar, shaharlar, yaratilgan betakror bastakorlar nomlari bilan nomlanib kelgan.

«Iroq» maqomi sharq xalqlari musiqasida muhim o'rin tutadi va turli xalqlarda birbiriga o'xshamagan o'ziga xos ohanglar asosida yuzaga kelgan. Shashmaqomdagi Iroq maqomi esa o'zbek va tojik xalqlari musiqasining lad-tonalligi, vazn va usullari, kuy tuzilishi xususiyatlari orqali chambarchas bog'liqdir. Uning tayanch pardalari I, IV, V, VI-bosqichlardir. Iroq maqomi ham cholg'u va ashula bo'limidan tarkib topgan bo'lib, uning cholg'u bo'limida Tasnifi Iroq, Tarjei Iroq, Muxammasi Iroq, Saqili Iroq 1, 2, Saqili Kalon deyilgan kuy yo'llari mavjuddir.

Tasnifi Iroq ushbu maqomning bosh kuy mavzui bo'lib, ancha keng. Sakkizta xona va bozgo'ydan iborat. Iroq maqomining Tasnif, Tarjeh, Muxammas va Saqil yo'llari yaxlit holda birin-ketin ijro etilgandan keyin, uning ashula bo'limi sho'hbalariga o'tiladi. Ular Sarahbori Iroq, Muxayyari Iroq, Chambari Iroq va Ufari Iroq deb nomlanadi. «Iroq»da ikkinchi guruh sho'hbalar uchramaydi. «Iroq» maqomi sho'hbalarining kuy tuzilishi va ijro etish uslubi murakkab bo'lgani uchun ko'pchilik xonandalar ijro eta olmaganlar. Lekin professor Fitratning yozishicha, mashhur Buxorolik maqomdon hofiz Ota Jalol Muhayyari Iroq asosida besh qismli Savt sho'hasini yaratgan va «Savti Jaloliy» deb nomlangan. Uning Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar shahobchalari bo'lgan. Iroqning ashula yo'llari turkum Sarahbori Iroq bilan belgilanadi. Bu ashula yo'lining kuy tuzilishi juda murakkab bo'lib, u kichik oktavaning «lya»

pardasidan boshlanib, ikki yarim oktavagacha, yahni uchinchi oktavaning “re” pardasigacha ko’tariladi. Bu ijroni kamdan - kam hofizlar bajarishgan bo’lib, ko’proq xotin-qiz ovozlari bo’lgan maqom ansambllarda avjlarini to’ldirganlar.

Sarahbori Iroq cholg’u muqaddimasidan so’ng ikki baytdan iborat ashula jumalari bilan boshlanadi. Uchinchi xati o’rta parda, yahni Miyonxat, to’rtinchi va beshinchi xatlar Zebo pari avji, oltinchi va yettinchi xatlar - Muhayyari Chorgoh namudi, oxirgi xat tushurish qismlaridan iborat.

Saraxbori iroq xalqimiz orasida iroq nomi bilan mashhur hamma kuy ashulalarning asosi bo’lib xizmat etgan. Sarahbori iroq o’qilgandan so’ng uning oltita taronasi birin-ketin ijro etiladi. Qolgan to’rtta taronasi esa Nasr doyra usulida ijro etiladi.

Sarahbori Iroq taronalari bilan birgalikda ijro etilgandan so’ng Muxayyari Iroq sho’hbasiga o’tiladi. Muxayyari Iroq nasr sho’hbasi bo’lib, Muxayyari Chorgoh namudining turli balandliklarda takror ijro etiladigan variantidir. Muxayyar - «tanlab olingan» degan ma’noni bildiradi. Muhayyari Iroq Dugoh maqomi ladiga mos bo’lib, Chorgoh sho’hbasi bilan hamohang kuylanadi. Shuning uchun uning asosida yaratilgan namud «Muxayyari Chorgoh» deb atalishi ehtimoldan holi emas. Muxayyari iroq mungli, dardli, ta’sirchan yangraydi.

Muxayyari Iroq ijrosidan so’ng uning to’rtta taronasi va siporishi o’qiladi. Birinchi taronasi Farg’ona va Toshkentda mashhur bo’lgan «Chorgoh-2»ning o’zidir. Lekin avjida muxayyari Chorgoh namudi kiritilgan. Ikkinchi tarona ham Chorgoh yo’llarini eslatadi. Uchinchi va to’rtinchi taronalari kuy tuzilishi boshqacha bo’lib, bastakor ohanglardan iborat. Suporish esa Sarahbori Iroq kuy jumalalaridan iborat. Iroq maqomining yana bir sho’hbasi Chambari Iroq deb nomlanib, birgina ashula yo’lidan iborat. Chambari Iroq Farg’ona va Toshkentda mashhur bo’lgan «Suvora»ni eslatada, talqincha doyra usulida ijro etiladi. Chambari Iroq cholg’u muqaddima bilan boshlanadi. Uning birinchi xati - Daromad, ikkinchi va uchinchi xatlar - o’rta pardalarda ijro etiladigan Miyonxat, to’rtinchi xati Zebo pari avji, beshinchi, yettinchi xatlar Miyonxatning yangilanishi, oxirgi xati esa tushirim qismlaridan iborat. Iroq maqomining Ufari muxayyari Iroq bilan ohangdosh bo’lib, uning Ufar doyra usulidagi ko’rinishidir. Umuman olganda, Iroq maqomi turkum boshqa maqomlarga nisbatan anchagina ixcham, uning tarkibida Sarahbor va bittagina Nasr sho’hbasi hisoblangan Muxayyari Iroq mavjud bo’lib, unda «Talqin» yoki «Chapandoz», ikkinchi guruhga kiradigan «Savt» va «Mo’g’ulcha» sho’hbalari ham yo’q. Lekin Iroq yo’llari asosida juda ko’p kuy va ashula yo’llari yaratilgan bo’lib, misol uchun Cho’li Iroq, Ufari Mushkuloti Iroq, Toshkent Iroqi, Bozurgoniy, Surnay Irog’i va qator ijrolarni ko’rsatish mumkin. Shunday qilib, Iroqning cholg’u yo’llari ijro etilib, uning Sarahbori va Nasr sho’hbalari taronalari bilan o’qilgandan so’ng Ufar qismi va suporish bilan turkum tugallanadi.

Iroq maqomining tuzilishi

ChOLG'U BO'LIMI

ASHULA BO'LIMI

1. Tasnifi Iroq
2. Tarjei Iroq
3. Muxammasi Iroq
4. Saqili Iroq 1,2
5. Saqili Kalon

Ufar, Suporish

Birinchi guruh sho'hbalari:

1. Sarahbori Iroq.
Tarona 1,2,3,4,5,6
2. Muxayyari Iroq
Tarona 1,2,3,4

Ikkinchi guruh sho'hbalari:

1. Chambari Iroq, Ufar, Suporish
2. «Savti Jaloliy» sho'hbasi: Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar
3. Iroq maqomi asosida yaratilgan kuy va ohanglar: Cho'li Iroq, Ufari Mushkuloti Iroq, Toshkent Iroqi, Bozurgoniy, Surnay Iroqi.

Jami: 31 ijro

Umumiy Shashmaqom ijrosi bahzi taxminlar asosida 250 ijro deb olindi.

XORAZM MAQOMLARI

Xorazm maqomlari asoslariga kelsak, bu masalaga ikki tomonlama yondoshish zaruriyati tug'iladi. Chunki Xorazm maqomlari yuzasidan turlicha qarashlar, bahstlab fikrlar mavjud bo'lib, barchasiga ma'lum darajada yondoshish, qaysi tomonning fikri haqiqatga yaqinroq ekanligini idrok etish zarur bo'ladi. Bu san'at muxlislarining fikriga bog'liq. Birinchidan, Xorazm maqomlarining yaralishi va ijro uslublari haqidagi bahslarga quloq tutmoq zarur bo'ladi. Bahzi ma'lumotlarga qaraganda, xorazmlik sozanda va bastakor Niyozjon Xo'ja XIX asr boshlarida Buxoroga borib «Shashmaqom»ni o'rganib, Xorazmda uni targ'ib qilgani, Xorazm maqomlari «Shashmaqom»ning o'zginasi ekanligi aytib o'tiladi. Ikkinchi bir manbalarda Xorazm maqomlarining ayrim qismlaridagi parchalar tuzilish jihatidan va xarakter jihatidan bir-biridan farq qilinishi aytiladi. Qanday bo'lmasin, Xorazm maqomlari Muhammad Rahimxon Soniy - Feruz davrida mashhur shoir va musiqashunos Komil Xorazmiy va o'g'li Muhammad Rasul Mirzo hamda shogirdlari tomonidan Xorazm olti yarim maqomi «Tanbur chizig'i»ga notalashtirilganligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud. Xonning o'zi ham yetuk shoir, sozanda, bastakor, hofiz bo'lganligi, qadimiy maqom kuylari asosida «Navo», «Segoh», «Dugoh»larga bog'lab kuylar yaratgani, u yaratgan Feruz I, II, III ijrolari xalq ichida mashhur bo'lib ketganligi aytib o'tiladi. Hatto Xorazm

maqomlarini xalqning daxlsiz mulki deb ehlon qilib, maqomlarni kamsitgan yoki buzib ijro etganlarni qattiq jazolash haqida farmoni oliy chiqarganligi aniq manbalar asosida ko'rsatiladi. Xorazm maqomlarini notalashtirishga qator musiqashunos olimlar qo'l urishgan. Mulla Bekjon bilan mashhur musiqashunos Matyusuf Devon 1925 yilda Moskvada chop etilgan «Xorazm musiqiy tarixchasi» asarida Xorazm maqomlarining tuzilishi, shakllari, ijro yo'llari haqida ma'lumotlar berishgan va ayrim nota ko'rinishlari bilan to'ldirishgan. Xorazm maqomlari bilan taniqli musiqashunos Ye.Ye. Romanovskaya ham shug'ullangan bo'lib, shunday yozadi:

«So'nggi xonlar davrida (XIX asr) Xivada ijro etib kelingan maqomlar ham 1934 yilda O'zbekiston san'atshunoslik ilmiy tekshirish instituti ekspeditsiyasi yozib olgan maqomlar aslida Buxoro maqomlaridir. Bu maqomlarni bundan taxminan 130 yil burun Niyozxo'ja degan sozanda, mashshoq Buxorodan Xivaga olib kelgan»

Bu haqda qanday fikrlar aytilmasin, baribir, Xorazm maqomlari ijrosida alohida uslub va shakllarga ega bo'lgan, usul va ritmi jihatidan «Shashmaqom»dan farq qiladigan alohida ijro maktabini kuzatamiz. O'z davrida Xorazm ijrochilik maktabining buyuk namoyondalari yetishib chiqdilar. Muhammad Yoqub devon, Bobo bulomon, Komil Xorazmiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Qurji ota, Polli do'zchi, Muhammad Rasul Mirzo, Xudoybergan Muhrkan, Muhammad Yusuf Devon-Chokar, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Sheroziy, Xojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov singari ulug' san'atkorlar shular jumlasidandir. Xorazm maqomlarini Matpano ota, Madrahim Sheroziy, Xojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov va boshqa ustozlardan o'rganib notaga olgan, uni avval bir jild, keyin 1980 yilda uch jildlik etib chop qildirgan, yana bir ulkan bastakor Matniyoz Yusupovdir (1925-1992). Xorazm maqom san'atini viloyatda yanada rivojlantirish to'g'risida, «Tanbur chizig'i»da bitilgan Feruz zamonasidagi chizig'iga ko'chirish bilan kelgusi avlodga to'laligicha yetkazish borasida Xorazm hokimligining 1995 yil 29 sentyabr 203- sonli qarori ehlon qilindi. Ushbu qarorga binoan, taniqli sozandalar Ahmad Masharipov, Ozod Ibrohimov, Ozod Bobonazarovlardan iborat 3 kishilik guruh tuzildi va bu ishlar muvafaqqiyat bilan amalga oshirildi. Xorazm maqomlari quyidagi tartibda keladi:

Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq, Panjgoh. Xorazm maqomlarining bevosita tuzilishi va ijroviy xususiyatlariga kelsak, avvalda Shashmaqom yo'llarining aytim bo'limidagi sho'hbalar saqlab qolingan. Lekin key-inchalik Xorazm ijrochilik maktabining tez rivojlanishi natijasida ashula yo'llarida juda ko'p o'zgaruvchanlikni kuzatamiz. Bahzi sho'hbalarning nomlanishida ham ijro xususiyatlarida ham o'zgaruvchanlik mavjud. Masalan, tarona qismlari «Rost» maqomida, «Suvora», «Naqsh», «Faryod»; «Buzruk»da esa «Sayri gulshan»,

«Navo»da - «Suvora», «Faryod», «Naqsh»; «Dugoh»da - «Suvora»; «Segoh»da - «Naqsh» va «Muqaddima» deb nomlanadi. Aytim bo'limlarining bosh sho'hbasi bo'lgan Sarahborlar Xorazmda maqomlar nomi bilan - Maqomi Rost, Maqomi Buzruk, Maqomi Navo, Maqomi Segoh, Maqomi Dugoh deb nomlanadi. Shunday holat - chertim bo'limlarida ham kuzatiladi. Xorazm maqomlaridagi aytim va chertim bo'limlarining boshlanish qismidagi bir xillik bunga sababdir. Xorazm maqomlarida Sarahborlarning bahzi taronalari terma holda, avj qo'shilib, yirik shakldagi ashulaga aylantirilgan. «Sarahbori Rost»da uchta tarona mavjud bo'lib, «Tarona», «Suvora», «Naqsh» deb nomlanadi. Sarahborlar taronalari bilan aytilganidan so'ng, talqin sho'hbalariga o'tiladi. Ular Talqini Rost, Talqini Buzruk, Talqini Navo, Talqini Segoh deb nomlanadi. Xorazm maqomlarida o'n beshta nasr yo'llari mavjud bo'lib, «Xorazm maqomlari» itobida sakkizta nasr sho'hbalari beriladi. Ular «Rost» maqomida «Navro'zi sabo», «Buzruk»da Nasrulloyi, Navoda - Faryod va Orazi Navo, Dugohda Chorgoh va Bayot, Segohda - Sabo, Navro'zi Xoro, Nasri Ajam deb nomlanadi. Xorazmda keng tarqalgan aytim ijrolaridan biri Suvora yo'llaridir. Suvora iborasi tojikcha otliq, chavandoz ma'nolarini bildiradi. Suvoralar shakl jihatdan maqom sho'hbalari kabi yirikdir va usullari Soqiynoma yoki Ufar doyra usullarida bo'ladi. Hozirda Suvora yo'llarining turli namunalari keng tarqalgan. Birinchi asosiy Katta Suvora «Ona Suvora» deyiladi yoki «O'zbek Suvorasi» deyiladi. Bahzida «Tojik Suvorasi» deb ataladi. Asosiy suvoralar quyidagilardan iborat:

1. Ona Suvora (katta Suvora).
2. Chapandozi Suvora.
3. Yakparda Suvora.
4. Kajhang Suvora.
5. Qo'shparda Suvora.
6. Besh parda Suvora.
7. Kalta Suvora.

Farg'ona – Toshkent maqom ijrochiligi yo'llari

Milliy musiqiy ijrochiligimiz uch asosiy yo'nalishda, yahni Xorazm-Buxoro-Farg'ona ijrochilik maktablari zamirida rivojlanganligi barchamizga ma'lum. Har bir voha xalqining etnik joylanishi, urf-odatlar, mahalliy mentaliteti, yashash turmush tarzi zamirida o'ziga xos musiqiy ijrochilik uslublari ham mavjuddir. O'n ikki maqom asosida Shoshmaqom yaratilganligi, Shashmaqom zamirida bastakorlarimiz tomonidan bir-biridan go'zal cholg'u va ashula yo'llari yaratilganligi aniq manbalar asosida bizgacha yetib kelgan. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ana shunday mashhur ijrolarning mahsulidir.

«Dugoh Xusayniy», «Shaxnozi Gulyor», «Bayot», «Chorgoh» ijrolari turkum sifatida mashhur bo'lganligi sababli «Chormaqom» (to'rt maqom) deb ham yuritiladi. Farg'ona, Toshkent, Samarqand vohalarida, Qozog'istonning Chimkent viloyatida va boshqa shaharlarda Shashmaqom asosida turli shakllardagi cholg'u va ashula yo'llari yaratilganligi ma'lum. Shular jumlasidan mashhur cholg'u asarlar: besh qisimli Nasrulloiy, Munojot turkumi, Cho'li Iroq, Navoning bir necha cholg'u namunalari, Navro'zi Ajam, Ajam va uning taronalari, Ilg'or, Miskin va Adoyining besh qisimli turkumi, ikki qisimli Mirzadavlat, Madalibek, Beksulton, Cho'li Qurd, Sayqal, Suvora yo'lari, Mushkuloti Dugoh va uning Ufari, Dutor Bayoti, O'yin Dugohi, Rost Panjgoh Qashqarchasi, Dilhiroj, Mushkuloti Segoh va uning Ufari, patnisaki uslubda chalinadigan Dugoh, Segoh va Ushshoq namunalari Qari Navo, Surnay yo'llaridan Buzruk, Navo, Iroq, Dugoh, Dugohi Xusayniy, Nasrulloiy, Chorgoh, Mustahzod, Dashti Navo kabi o'nlab kuylar mahalliy bastakorlar tomonidan maqomlar asosida yaratilgan bo'lib, musiqiy madaniyatimizning bebaho durdonalari sanaladi. Yuqoridagi sanab o'tilgan cholg'u yo'llari turkumli va yakka-yakka ijro etiladigan kuylardan iboratdir. Farg'ona-Toshkent maqomlarining ashula variantlari ham turkum va yakka tarzda ijro etiladigan ashulalar bo'lib, juda katta ko'rinish hosil qiladi. Turkum sifatida keladigan mashhur ijrolar quyidagilardir:

«Bayot» I, II, (II), III (III), IV, V.

«Chorgoh» I, II, III (III), IV, V, VI

«Dugoh Xusayniy» I,II,(II), III (tarona), IV (IV), V, VI, VII

«Shaxnozi Gulyor» I, II, III, IV, V

(Qavs ichida ko'rsatilganlari qo'shimcha variant ijrolaridir).

Ushbu turkum ijrolarga qisqacha sharh berib o'tamiz. Bayot 1-Navo maqomining Bayot sho'hbali asosida yaratilgan va shu sho'hbada uchraydigan avjlar va namudlar ma'lum darajada saqlanib qolgan. Bayot II Navo maqomidagi Nasri Bayotning II-III taronalari kuy tuzilishi va harakati shakli bilan bir xillik kuzatiladi. Bayot III, IV, V kuy tuzilishi, shakli jihatdan oldingi qismlardan keskin farq qiladi. Ular Bayot I, II ijrolarining daromad boshlanish pardasidan besh parda, yahni Kvinta yuqoriga ko'tarib ijro etiladi. Lekin ijro tugashida yana daromad pardaga qaytiladi. Shu bilan Bayot turkumining to'liq ijrosi aniq boshlanish va tugallanish pardasiga ega bo'ladi.

Yana bir mashhur ijro turkumi bo'lgan Chorgoh esa Dugoh maqomidagi Sarahbori Dugoh, Talqini Chorgoh, Nasri Chorgoh, Savti Chorgoh sho'hbalar asosida yaratilgan. Chorgoh 1 da Sarahbori Dugohning doira usuli, ashula ijrosi, shehr o'lchovi va tushirish qismlari Savti Chorgoh shahobchalarining ma'lum ko'rinishidir. Chorgoh III ning ashula ijro yo'li Savti Chorgohga hamohangdir. Chorgohning IV, V, VI shahobchalari har xil doira usuli bilan ijro etiladigan bir xil

ko'rinishlardir. Farg'ona - Toshkent maqom yo'llaridan biri Dugoh Xusayniy turkumi, Shashmaqomdagi Xusayniy Dugoh asosida yaratilgan bo'lib, keyingi sho'hbalardan va taro-nalaridan foydalanilgan. Dugoh Xusayniyning I-qismi Sarahbor, ikkinchi qismi Savti, keyingilari Qashqarcha usullarida ijro etiladi va Ufar, Suporish bilan tugallanadi. Dugoh Xusayniyning hamma shahobchalari xalq orasida keng tarqalgan. Farg'ona-Toshkent ijrochilik yo'llarida «Shaxnozi-Gulyor» ashulalar turkumi ham juda mashhurdir. «Shaxnozi Gulyor» Rost maqomi ashula yo'llari asosida yaratilgan bo'lib, birinchisi Gulyor, ikkinchisi Shaxnoz, uchinchisi Chapandozi Gulyor, to'rtinchisi Ushshoq, beshinchisi Qashqarchai Ushshoq nomlari bilan mashhurdir. Birinchi Gulyor Sarahbor usulida, Shahnoz - tarona usulda, uchinchisi - Chapandoz, to'rtinchisi - Sarahbor, beshinchisi – Qashqarcha doyra usullarida ijro etiladi.

«Shaxnozi Gulyor» o'z tuzilishi jihatdan Bayot, Chorgoh, Dugohi Xusayniy turkumlaridan tubdan farq qiladi. Farg'ona - Toshkent maqom yo'llarida yana bir mashhur ijrolardan biri Rost maqomi sho'hbalari asosida yaratilgan Ushshoq turkumlaridir. Ushshoqning besh xil yo'li bo'lib, har biri alohida yakka ashula sifatida ijro etiladi. Ularning kuy tuzilishi, ohangi bir xil bo'lsada, shaklan sal bir-biridan farqi bilan ajralib turadi. Ushshoq ijrolarida Uzzol sho'hbasining ohanglari daromadda, namudlari avjlarda ishlatilgan. Ushshoq ijrolarining birinchisi qolganlaridan besh parda yoki kvinta ko'tarilib ijro etilishi bilan farqlanadi. So'nggi qatordan daromadga tushiladi va daromad pardadan keyingi Ushshoqlar boshlanadi. Ubaydiy g'azali bilan aytiladigan Ushshoq Farg'ona vodiysi va Toshkentda mashhur bo'lgan. Farg'ona-Toshkent ijrochiligida quyidagi turkum ijrolar ham mashhurdir:

Buzruk maqomi sho'hbalari bilan hamohang Abdurahmonbegi i - ii va uning Ufari, marg'ilonlik Madali hofiz tomonidan 7 ta ijrogacha to'ldirilgan bo'lib, Farg'ona vodiysida «Mahdalibegi» deb ham yuritilgan. Abdurahmonbegi I,II, III,IV,V,VI, VII ijrolari aksariyati o'sha davrda zamondosh bo'lgan Muqimiy g'azallari bilan aytiladi.

Rost maqomining «Savti Kalon» sho'hbasi shahobchalari asosida yaratilgan Qalandar I-II ashulasi ham to'ldirilib, Qalandar I,II,III,IV,V tarzida ijro etiladi. Yana bir el sevgan mashhur ijrolardan «Tanovar» turkumidir. Hozirda Tanovarning 13 ta ijrochilik yo'llari mavjud bo'lib, 9 ta ashula - yalla yo'li, 4 ta musiqiy yo'li bilan jilolanadi. Bulardan to'rtinchisi dutor tanovari deb yuritiladi. Xalq bastakorlari Farg'ona - Toshkent ijrochilik yo'llariga monand yuzlab ashulalar va musiqalar yaratganlar. Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Doni Zokirov, Muxtorjon Murtazoyev, Jo'raxon Sultonov, Orifxon Hotamov singari bastakorlar ijodlari bunga misol bo'la oladi. Natijada maqom yo'llari asosida yuzlab ashulalar va musiqalar xalq mulkiga

aylandi. Keyinchalik bastakor Imomjon Ikromov Navoiyning «Qaro ko'zim» radifli g'azalini juda mohirlik bilan shu yo'lga solib, yana ham mashhur ijroga aylantirdi. Bu ijro Toshkent Ushshoqi deb ham yuritiladi. Ushshoq 1 dan kelib chiqadigan Daromadi Ushshoq, Xoji Abdulaziz tomonidan qayta ishlangan Samarqand Ushshoqi, ijroda bir xillik kasb etadi. Ushshoqning yana bir namunasi xo'jandlik hofiz va bastakor Sodirxon Bobosharipov tomonidan jilolangan va «Sodirxon Ushshoqi» nomi bilan mashhur bo'lgan varianti ham «Ushshoq I» ning shakliga hamohangdir. Ushshoq ijrolari orasida Qo'qon Ushshoqi sadolanish shakli, avjlardagi o'zgarishlar jihatidan boshqa Ushshoq yo'llaridan sezilarli farq qiladi. O'ziga xos ohanglar tuzilmasiga egadir. Shunisi diqqatga sazovorki, Ushshoqlarning barcha ijrolari Shashmaqomdagi Ushshoq sho'hbali ohanglariga asoslangan bo'lsada, ularning har biri o'ziga xos kuy tuzilishiga ega, ta'sirchanlik xususiyatlari ham har xildir. Farg'ona-Toshkent ijrochiligida o'ziga xos ijro maktabiga ega bo'lgan katta ashula ijrosidir. Katta ashula mashhur ijro yo'li bo'lib, Farg'ona vodiysida, qisman Toshkentda ijro etiladi. Katta ashula ikki, uch, bahzan to'rt hofiz tomonidan aytiladi. Patnisaki katta ashula deb ham yuritiladi. Ashula so'zlari ijro yo'nalishiga qarab bo'lib olinadi va ma'lum joylarda birga kuylanadi va birga tamomlanadi. «Rabbano dodimga yet», «Aylansin quling», «Bir kelsun», «Shafokat», «Adashganman», «Ey dilbari jononim», «Yovvoyi Chorgoh» singari patnisaki ashulalar juda mashhurdir. Keyinchalik «Bog' aro», «Kirib bo'stonni kezdin», «Kanolim», «O'zbekistonim» kabi katta ashulalar ham shu qatorga qo'shiladi. Hamroqul qori To'raqulov, Xolqora hofiz, Erka qori Karimov, Haydarali Hikmatov, Sherqo'zi Boyqo'ziyev, Boltaboy Rajabov, Mamadbobo Sattorov, Jo'raxon Sultonov singari mashhur hofizlar katta ashula bobida dong taratganlar. Xulosa qilib aytganda, o'zbek musiqiy san'atida Farg'ona-Toshkent ijrochilik maktabi alohida o'rin tutadi. Bu maktabning musiqiy va ashula ijrochiligi aniq uslubga, doyra usuliga, musiqiy tuzilmasiga egadir. Bu an'ana davom etmoqda va hozirda ham xalq bastakorlari ijodlarining samarasi bilan Farg'ona-Toshkent ijrochilik yo'llari boyib bormoqda. Ushbu ijroni amalga oshiradigan sozanda va hofizlar ham yetishib chiqmoqda.

O'zbek xalqining dosotonchilik san'ati

O'zbek xalqining dostonchilik san'ati haqida so'z borganda Surxondaryo-Qashqadaryo, Samarqand-Buxoro, Xorazm dostonchilik musiqiy uslublari haqida so'z yuritish joiz bo'ladi. Surxondaryo-Qashqadaryo dostonlari adabiy-musiqiy asar sifatida talqin qilinadi. Ular nasriy va nazmiy qismlarga bo'linib, o'zaro bir-biriga bog'langandir. Doston ijrochilarini baxshi, shoir, yuzboshi deb ataydilar. Dostonlar asosan do'mbira cholg'u jo'rligida bo'g'iq ovozda kuylanadi. Bo'g'iq ovozni hosil qilish va ishlatish alohida mashqlar natijasida amalga oshiriladi.

Ushbu malakani oshirishda ustoz-shogird an'alariga rioya qilinadi. Natijada shogirdlar ushbu vohalarda mashhur bo'lgan «Alpomish», «Avazxon», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish» dostonlarini yod oladilar va ko'rikdan o'tadilar.

Baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini qo'shiq shaklida kuylaydilar.

Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik san'atida Shahrisabz va Sherobod maktablari asosiy markaz sanaladi. Abdulla Nurali o'g'li va Islom Nazar o'g'li kabi baxshi shoirlar Shahrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari bo'lsa, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umar Safar o'g'li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur ijrochilari hisoblanadilar. Dostonlarni ijro etish ham asosan mavsumiy bo'lib, kech kuzda dehqonlar hosillarini yig'ishtirib bo'lganlaridan so'ng boshlanib, erta bahorgacha davom etadi. Dostonchi baxshilar xonadonlarda uyushtirilgan dostonchilik kechalariga taklif qilinadilar va mahalla, qo'ni-qo'shni yig'ilishib, dostonlar tinglashadi. Bu azaldan odat tusini olgan bo'lib, baxshilarni oilaviy bayramlarga, to'y-tomoshalarga, hosil bayramlariga ham taklif etganlar. Yahni dostonchi baxshi o'z dostonlarini qisqacha aytim yo'li bilan tahriflab beradi va eshituvchilarning xohishiga ko'ra bir dostonni boshlaydi. Dostonchi baxshilar doston ijrolaridan tashqari bag'ishlov ijrolariga ham juda usta bo'lib, biron yaxshi kunga, marosimga, mashhur odamlarning ismlariga monand bag'ishlovlarni nasriy va shehriy yo'llarda ham ijro etadilar. Bu ijro baxshilardan o'ta zukkolikni talab qiladi. Hozirgi davr dostonchilik ijrochiligi Shoberdi baxshi Boltayev maktabi yetakchilik qilmoqda. Surxondaryo-Qashqadaryo musiqasida dostonchilik san'atidan tashqari keng ommalashgan mehnat qo'shiqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Qo'sh, o'rim, yorg'inchoq qo'shiqlari dehqonchilik bilan bog'lansa, «xo'sh - xo'sh», «Churey», «Turey-turey» qo'shiqlari chorvachilik bilan bog'liqdir. Charx, o'rmak, kashta, bo'zchi qo'shiqlari esa hunarmandlar mehnati qo'shiqlari sanaladi.

Buxoro-Samarqand musiqa uslubiga doir dostonchilik maktablari asosan viloyat tumanlarida qaror topgan bo'lib, ular, «Bulungur dostonchilik maktabi», «Narpay dostonchilik maktabi» kabi ataladi. Shulardan Bulung'ur va Qo'rg'on dostonchilik maktablari mashhurroqdir. Bulung'ur dostonchilik maktabida «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Rustamxon», «Go'ro'g'lini tug'ilishi» kabi qahramonlik dostonlari yetakchi o'rin tutadi. Jo'rovoz soz sifatida dombra sozi qo'shiladi. Amin baxshi, Chinni Shoir, Tavbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Yo'ldoshbubul, Yo'ldoshshoir, Qo'ldash Suyar kabi baxshilar bu maktabning o'tmishidagi (XIX asr) yirik namoyandalari. Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) bu maktabning so'ngi yirik vakillaridan biri edi. Qo'rg'on dostonchilik maktabida «Alpomish» dostoni ijro etilgan bo'lsa-da, biroq unda ishqiy-romantik dostonlarga jumladan, «Gumor pari», «Qunduz» bilan «Yulduz», «Oysuluv», «Kuntug'mish» singari dostonlarga e'tibor beriladi. Qo'rg'on dostonchilik maktabining

o'tmishdagi yirik vakillari qatori Yodgor, Laras, Mulla-Tosh, Mulla Xolmurod, Jumanbulbul kabi baxshilarni aytish kerak. Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) va Po'lkan shoirlar (1874-1941) bu maktabning so'ngi yirik namoyandalari edi.

Xorazm dostonchilik maktabi o'z an'alariga ega bo'lib, boshqa mahalliy dostonchilik maktablardan farqli jihatlariga ega. Bu farqlar asosan quydagilardan iborat. A) Xorazm dostonlari «Bo'g'iq ovozd» emas, balki «Ochiq ovoz» uslubida kuylash xususiyatlari bilan ohanglanadi.

B) Ko'pincha mahalliy dostonchilik maktablarida do'mbra sozi jo'rnavoz siyratida qo'llanilsa, Xorazm dostonchiligida dutor, tor so'zlaridan foydalaniladi. Shuningdek, doston aytishda ijrochilik ansambli qatnashadi. Bunda ustoz baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlar esa g'ijjak, bo'lamon va bahzan doira sozlarida jo'r bo'lib turishadi.

V) Xorazm dostonlari repertuarini «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Bozirgon», «Oshiq Oydin» kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq, Xorazm dostonchiligida qahramonlik dostoniga mansub «Alpomish» namunasi uchramaydi. Xorazm dostonchiligining yirik vakillari Ahmad baxshi, Bola baxshi, Ro'zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish joizdir. O'tmishda doston aytuvchilarni go'yanda, ular ijro qiladigan yo'llarini noma deb yuritilgan.

Ergash Jumanbulbulning quyidagi shehrida esa Nurota maktabi uslubiga oid dostonlar nomalari sanab o'tiladi:

Yigirma xil ohang bilan so'z aytib,

Yigirma xil noma do'mbra chertib

Xoh katta, xoh kichik eshitsa,

Har qanday odamni balqitib, eritib

Sherobod maktabining mashhur baxshisi Umar shoir Safar o'g'li ijodiga mansub shehrda esa Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchiligidagi nomalar soni keltiriladi.

Ey do'mbiram kajakdor,

O'ttiz ikki nomang bor,

Hammasi ham maftunkor,

Birin chalsam biri bor...

deb, 32 noma borligi tahriflanadi. Keyinchalik 60 ga yetkazilgan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki, doston qo'shiqlari qadimdan nomalar deb yuritilgan. Xorazm nomalari yirik hajm, kuy yo'nalishi, parda, lad va avjlari o'ziga xos yorqin uslubi bilan ajralib turadi. Maxsus til irodasi, musiqiy nuqtai nazardan Xorazmda ikkita yirik dostonchilik uslubi mavjud. Ular baxshilarning iboralari bilan Shirvoniy va Eroniy yoki Janubiy yoki Shimoliy xorazm uslublari deb yuritiladi. Shirvoniy uslub o'z ichiga Hazarasp, Bog'ot, Yangiariq, Qo'shko'pir, Urganch, Xonqa, Shovot, Toshhovuz viloyatining Ilonli, Ko'hna Urganch, Qoraqolpog'istonning To'rtko'l, Ellikqalha tumanlarini qamrab oladi. Uning

markazini shartli ravishda Xiva shahri deb belgilash mumkin. Mazkur uslub nomalari 72 ta bo'lib, ular doston shehrlarining vazni, bo'g'inlariga ijrochi baxshini ovoz imkoniyatlariga qarab o'qiladi.

Eroniy uslub Gurlan tumanining bir qismini Qoraqolpog'istonning Amudaryo, Xo'jayli Toshhovuz viloyatining shimoliy tumanlarini o'z ichiga qamrab oladi. Uning markazini shartli ravishda Mang'it shahri deb belgilash mumkin. Ustoz baxshilarning fikricha musiqiy mohiyatga ko'ra shirvoniy uslub 72, eroniy uslub 32, Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarining Sherobod maktabi 64 nomadan iborat. Xulosa qilib aytganda doston ijrochiligi o'zbek musiqa san'atining ajralmas bo'lagidir.

Milliy musiqamizning ta'sirchanlik xususiyatlari alqimiz madaniyatini va ma'naviyatini yuksaltirishda, ularning dunyoqarashini kengaytirishda, fikrlash qobiliyatini o'stirishda milliy musiqamizning va an'anaviy ijrodagi qo'shiqlarimizning o'rni beqiyosdir. Milliy musiqamiz durdonalari va an'anaviy qo'shiqlarimiz avvaldan xalqimiz orasida ardoqlanib, og'izdan-og'izga o'tib, kuylanib, sozlar orqali chalinib kelingan va ularni katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Mumtoz kuy va qo'shiqlarimiz milliy tafakkurni ma'naviy kamol toptirishda asosiy vosita sanalgan. Xalqning og'ir kunida ham, shodlik, xursandchilik paytlarida ham doimo hamroh bo'lgan. Shirali kuy, yoqimli ovoz o'z ta'sirchanligi bilan inson qalbiga sirli hayajon soladi, uning ruhiyatini tetik qiladi. Ulug' mutafakkir shoir Sahdiy Sheroziy kuy va qo'shiqni «Ruh ozuqasi» deb atagan ekan. Shuning uchun ham kishi yaxshi bir kuy yoxud qo'shiq tinglaganida jaholatdan yiroqlashadi, qalbini yaxshilik tug'yonlari qamrab oladi. Muhabbat, sadoqat, insoniylik, go'zallik kabi yuksak darajadagi insoniy his-tuyg'ularni qalban his qiladi. Musiqa shunday ajoyib san'atki, uning uchun hech qanday til to'sig'i yo'q, tarjimonga muhtoj emas. Musiqa shunday ajoyib shifobaxsh fazilatlariga egaki, buni o'z navbatida Abu Nasr Muhammad al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino kabi ulug' daholar o'z asarlarida ta'riflab berganlar.

Islom dini mafkurasida bahzi mazhablarda musiqa eshitish shariat bo'yicha gunoh deb sanaladi. Ammo Hadisi Sharifda bunga boshqacha nazar tashlanadi. Quyida musiqashunos olimimiz Is'hoq Rajabovning «Maqomlar masalasiga doir» kitobidan misol keltiramiz:

«Qodiriya» deb atalgan So'fiylar mazhabining yirik vakillaridan hisoblanmish Abdulhaq Dehlaviy (XVI asr) o'zining «Taqqiqus simoh» («Eshitish masalasi tahqiqoti») asarida shayxlar va so'fiylarning musiqayu - ashhor eshitishlariga oid fikrlarini aks ettiradi. Dehlaviy turli musulmon mazhablarining yirik vakillari (Junayd Bag'dodiy, Muhammad al - G'azzoliy, Abdulla Ahror, Yusuf Hamadoniy va boshqalar) asarlariga va «Hadis»ga suyanib musiqa eshitish masalasini tadqiqot etadi. «Hadis»da keltirilishicha, Muhammad (S.A.V)ning suyukli rafiqalari Bibi

Oysha huzurida ikki joriya qiz ashula aytib, o'yin - kulgi qilib o'tirishganida, Bibi Oyshaning otalari Abu Bakr kirib, musiqa, o'yin-kulgu shariat bo'yicha harom va gunoh ekanini aytib, mahn etadi. Bu paytda choponiga o'ralib yotgan Muhammad (S.A.V) o'rinlaridan turib: «Bu kun bilan bizning bayramimiz, ularga halal bermang»- demishlar. Keyin payg'ambarimiz (SAV) «Hadis»da Qurhon suralarini chiroyli ovoz bilan bezashni tavsiya etib, uni ohanga solib aytinglar, dinning obro'sini oshiradi, degan ekanlar Ulug' mashoyiqlardan Jaloliddin Rumi ham o'zining «Masnaviy» asarini rubob, nay, doyra jo'rligida ijro etib, shogirdlariga yozdirganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Shu qadar ardoqli, quvonchu-qayg'ularga hamisha hamdardu hamroh bo'lmish bu sirli, maftunkor musiqiy ohanglar hamma davrlarda barchaga ma'naviy ozuqa, madad bo'lib kelgan.

Milliy musiqamizning ta'sirchanlik xususiyatiga kelsak, kuy ohanglarining o'ziga xos bir xil tebranish bilan jilolanishi inson ruhiy olamini ana shu ohanga vobastaligi va ta'sir kuchini o'z mehyorida ushlab turishi natijasida eshitish darajasi qandayligi va ta'sir etish xususiyatlari kuzatiladi. Ayniqsa, bu holni an'anaviy qo'shiqlarimiz misolida kuzatishimiz mumkin.

An'anaviy qo'shiqlarimiz xalqona bo'lganligi uchun, g'azaldagi ma'no, kuy va musiqa bilan mutanosib holda birlashib, aniq bir uslubda quloqqa eshinishi eshituvchining ta'sirchanlik qobiliyatini kamol toptiradi va ta'sir etish faoliyatiga moyil qiladi. Bu xususda quyidagi yo'nalishlarga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi.

1. G'azal matni va mazmuniga e'tibor berish va g'azal mazmuniga tushungan holda eshitish ko'nikmasini hosil qilish.

2. Kuy va musiqa ijrosini va ulardagi uyg'unlikni seza bilgan holda eshitish ko'nikmasini hosil qilish.

3. G'azal, shehr va kuy, musiqaning vobastaligida umumlashgan ijro ko'nikmasi orqali eshitish imkoniyatiga ega bo'lish.

An'anaviy qo'shiq ijrochiligida tez ta'sir etish xususiyatiga ega ijrochilik janrlari ko'plab ijrolarni o'z ichiga oladi.

Masalan, alla ijrochiligini olganimizda, buning yorqin misoli sifatida quyidagilarni aytish mumkin. Allalar onalarning jigarband farzandlariga qilgan hasratlaridir. Qadimdan allalar inson mehr-muhabbati bilan siynasi to'la onalarning orzu-umid sadolari bo'lib yangragan.

Tol ichinda tanlab olgan,

Tol chovginim bolam, alla.

Gul ichinda iskab olgan,

Guli rayhonim, bolam, alla.

Yo'lbarsday yurakligim,

Qoplonlarday bilakligim, alla,
Yaxshi - yomon kunimda
Menga juda kerakligim, alla.

Qo'shiqning bu turi cholg'usiz mayin orom beruvchi ohang bilan kuylanadi. Ulug' alloma Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarining I-kitobida shunday yozadi:

«Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va ashuladir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan istehdodi hosil qilinadi». Ulug' bobokalonimizning bu so'zlari bola tarbiyasida musiqaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. O'zbek xalqining ta'sirchan an'anaviy folklor qo'shiqlaridan biri yor-yorlardir.

«Yor-yor»lar nikoh to'ylarining ikkinchi bosqichi - qiz uzatish kechasi aytiladigan qo'shiqlardan biri hisoblanadi. «Yor-yor»lar nafaqat o'zbeklarda, balki qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq kabi turkiy xalqlarda ham keng tarqalgan. Tojik xalqining ham sevimli aytishuvidir. «Yor-yor» ijrosi har qanday odamga tez ta'sir qiladi va yurakning tubiga yetib boradi. Chunki yoshlarning eng baxtli kuniga bag'ishlangan bu qo'shiq ijrosi insondagi hissiyotni, yoshlarga, farzandlarga bo'lgan mehri, qiz bolani o'z davridan kelinlik davriga o'tayotganligini ifodalovchi his - tuyg'uni junbushga keltiradi. «Yor-yor» mavzusi nihoyatda keng bo'lib, ularda kelin va kuyovni tahriflash, ularning ahil yashashi va bola chaqali bo'lishi, shirin turmush qurishlariga undash, turmushda bo'ladigan achchiq-chuchuklarga qanoat qilish kabi ohanglar bilan birga, kelin bo'lishdek baxtga muyassar bo'lgan qizga dugonalarining va boshqalarning orzu-havasmandliklari ham bayon etiladi. Masalan, shunday misra keltirish mumkin:

Qat-qatgina qatlamalar qatlanadi, yor-yor,
Qizni olib yangalari otlanadi, yor-yor,
Qizni olib yangalari tura tursin yor-yor,
Oq sut bergan onalari rozi bo'lsin, yor-yor.

Shundan ko'rinadiki, ta'sirchanlik xususiyati qo'shiq ijrosining mavzuiga qarab o'z ifodasini topadi va har qanday odamni o'ziga rom etadi.

An'anaviy qo'shiqlarimizning ta'sirchanlik xususiyatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo, asrlar bo'yi xalqimizning boy ulkan merosiga aylangan maqom ijrochiligining insonlarga ta'sirini aytmadan ilojimiz yo'q. Maqom ijrochiligi o'zining musiqa va ashula qismlari bilan ijro etiladi. «Shashmaqom»ning Nasr qismi ijrolari mumtoz shehriyatimiz durdonalaridan, ma'nodor g'azallardan tarkib topgan musiqiy uyg'unlikdagi ashulalar bo'lganligi uchun, g'azal ma'nosi musiqiy ijro bilan birlashib, go'zal bir ijroni tashkil qiladi. Hofizlar tomonidan yuqori

saviyada ijro etilgan bu ashulalar insonlarda ichki tuyg'uni, ota-bobolarimizning ma'naviy merosiga bo'lgan hurmatini, ulkan tarix zarvaraqlarining inson organizmiga ta'sirini qadimdan tibbiyot ilmi ham hozirgi zamonaviy medisina ham ehtirol etadi. Chunki musiqa asab xastaliklarini davolashda muhim o'rin tutishini, miya faoliyatini yaxshilashda ijobiy ta'sir etishini hozirgi zamon medisinasini ham isbotlab bergan. Roviylarning naql qilishlaricha, mashhur olim Muhammad al-Xorazmiy Xalifa Mahmud taklifi bilan Bag'dod shahriga kelgach, shaharning taniqli olimu fuzalolari uni imtihon qilibdilar:

- Tibbiyotda davolashning uch turi bordur. Sizga alarning qaysi turi ko'proq xush keladi?

- Bizda davolashning uch emas, to'rt turi bordur. Biri so'z, doru biri, keskir pichoqdir bittasi, Dag'i Xiva mulkida mashhur erur sozning sasi.

Menga ana shu to'rtinchisi, yahniki, soz bilan davolash usuli ko'proq xush yoqadi, - deb javob bergan ekan. Shundan xulosa chiqadiki, maqom kuylari, musiqa ohanglari bilan bemorlarni davolash tarzi qadimdan mashhur ekan. Buni turli zamon allomalari ham o'z asarlarida ehtirol etganlar.

Hozirgi zamon medisinasida bu usul, ayniqsa, Yevropada juda rivojlanganligini aytish mumkin. Hyech kimga sir emas, hozirgi davrda zamondoshlarimizda tashqi ta'sir natijasida ko'proq Yevropa va Sharq estrada musiqasiga va qo'shiqlariga moyillik sezilmoqda. Bu tushunarli hol, albatta. Chunki bu musiqalarning targ'iboti juda keng qamrovli bo'lib, hammasi iqtisodiy o'lcham va san'at biznesi bilan bog'liq. Bizning respublikamizda ham televideniye, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari bu san'at yo'nalishiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Natijada ayniqsa, yoshlarda unga ergashish, taqlid qilib raqsga tushish, so'zlarni tushunib-tushunmay qo'shiq aytish singari holatlar kuzatilmoqda. Natijada, hayotga ham yengil-yelpi ko'z bilan qarash, uning qadriga yetmaslik hollari ham sezilmoqda.

Bu borada milliy musiqamizga, an'anaviy qo'shiqlarimizga suyanib, uning ta'sirchanlik xususiyatlarini saqlagan holda xalqimiz ongiga yetkazish muhimdir. Buning uchun milliy musiqamiz va an'anaviy qo'shiqlardan tuzilgan konsert dasturlarini televideniye va radio orqali tez-tez aniq vaqtlarda xalqqa yetkazish zarur. Axborot vositalari orqali targ'ib qilmoq zarur. Bu borada mutasaddi tashkilotlar aniq dasturlar asosida ishlarini yo'lga qo'ymoqliklari taqazo qilinadi. Milliy musiqamizning ta'sirchanlik xususiyatlarini ilmiy-metodologik yo'l bilan, musiqashunos olimlarning fikrlari asosida olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Milliy musiqamizdagi mushkulot qismi, yahni cholg'u qismidagi musiqiy ijrolar ularning ta'sirchanlik xususiyatlari, nasr qismi yoki aytim bo'limi, an'anaviy qo'shiqlarimiz, mumtoz shehriyatimiz durdonalaridan tuzilgan g'azal mazmunlari

musiqiy tuzilma bilan hamohanglikda xalqona ijrosi bilan insonga tez ta'sir etuvchi vositadir.

Milliy musiqiy madaniyatimiz durdonalari odamlarni yaxshilikka, odobga, diyonatga chaqiradi. Qalbda milliy g'urur tuyg'usini uyg'otadi, yurakni junbushga keltiradi. Albatta, bunday ta'sirchan kuchga ega bo'lgan, tarbiyaviy ahamiyati bilan foydasi tegadigan ma'naviy omildan foydalanishimiz, hozirgi kunda mehnatkashlarni, ayniqsa, yoshlarni e'tiborga olib, ushbu san'at vositasi orqali bahra oldirishimiz zarur. Tabiatan nozik ta'bi, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqa merosi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgasidir.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Maqom tarixi haqida nima bilasiz?
2. 12 maqomni sharhlab bering?
3. «Shashmaqom»dagi maqomlar tahlilini bilasizmi?
4. «Buzruk» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilishini sharhlab bering?
5. «Rost» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilishini sharhlab bering?
6. «Navo» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilishini sharhlab bering?
7. «Dugoh» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilishini sharhlab bering?
8. «Segoh» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilishini sharhlab bering?
9. «Iroq» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilishini sharhlab bering?
10. Xorazm maqomlari haqida nima bilasiz?
11. «Xorazm tanbur chizig'i» haqida so'zlab bering?
12. Xorazm maqomlari tuzilishini sharhlab bering?
13. Farg'ona -Toshkent maqom ijrochiligi yo'llari haqida nima bilasiz?
14. «Chor maqom» ijrosi qanday tuzilgan va turkumlar ijrolari qanday nomlanadi?
15. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari asosida qanday mashhur ijrolar yaratilgan?
16. O'zbek xalqi dostonchilik san'ati haqida nima bilasiz?
17. Dostonchilik maktablarini sharhlab bering?
18. Milliy musiqamizning ta'sirchanlik xususiyatini qanday tushunasiz?
19. Islom dini va musiqa orasidagi bog'lanish haqida so'zlab bering?
20. Alla va yor-yor ijrolarining ta'sirchanligini sharhlab bering?
21. Milliy musiqamiz taraqqiyotida hozirgi zamon musiqasining ta'sirini qanday tushunasiz?

Nazorat uchun mavzular

1. Maqomat san'atining tarixiy ildizlari.
2. 12 maqom «Shashmaqom»ning asosi.
3. «Shashmaqom» va uning turkumlari.
4. «Shashmaqom» asosida yaratilgan ashula va musiqa ijro yo'llari.

5. Xorazm maqomlari va «Xorazm tanbur chizig'i» orasidagi farqlar.
6. Farg'ona-Toshkent ijro yo'llari va «Chormaqom» ijroviy tuzilishi.
7. Dostonchilik ijrosi va tahlili.
8. Milliy musiqamizning ta'sirchan kuchi.
9. Islom dini va musiqa.
10. Milliy musiqa va zamon taraqqiyoti.

12-mavzu: XIX-XX asrlarda O'zbekistonda musiqa madaniyati. San'at va pedagogikaning rivojlanishi.

- Xalq og'zaki ijodiyoti, Maqomlar.
- Musiqa asboblari.
- V.A.Uspenskiyning o'zbek maqomlarini yozib olishi,

N.N.Mironov va xalq qo'shiqlari.

- Y.Y.Romonovskaya va H.Muhammedovaning hizmatlari,

A.Fitrat va o'zbek klassik musiqasi

Tayanch iboralar: Xalq qo'shiqlari namunalari. Farg'ona-Toshkent yo'llari. Torli musiqa asboblari. Puflab chalinadigan musiqa asboblari. Birinchi o'zbek etnografik komissiyasi. Samarqand musiqa instituti. Birinchi o'zbek xalq qo'shiqlari asosida simfonik asarlar.

XIX asrning ikkinchi yarmisidan boshlab O'rta Osiyo Rossiya bilan qo'shilganida rus madaniyati bilan O'rta Osiyo xalqlari tanisha boshladilar. Ulka xalqlari asta-sekin rus xalq qo'shiqlari va musiqiy asboblari bilan, rus sozanda va xonandalarining Toshkentda boshlagan konsert gostrollari, opera truppalarning chiqishlari bilan yaqindan tanishdilar.

Asrimiz boshida Rossiyadan birqancha qobiliyatli san'atkorlar kelib o'zbek musiqalari bilan tanishib ular asosida asarlar yaratdilar. Bular A.Exgorn, F.Leysek, N.Mironov, V.Uspenskiy, Ye.Romonovskayalar edilar.

Rus madaniyati ayniqsa shoirlar Furqat va Muqumiy asarlarida o'z ta'sirini topgan. H.H.Niyoziy rus musiqa madaniyati asosida o'z qo'shiqlarini ijod etgan. Hamza 1916 yilda birinchilardan bo'lib Farg'onada o'zbek puflab chalinadigan orkestrini tashkil qilgan.

Asrlar osha o'zbek musiqa san'ati asta-sekinlik bilan rivojlanadi va yuksaladi. Bu yuksalishlar hozirgi mustaqillik jarayonida yana ham yuqori pog'onalarni egallab, butun jahon musiqa madaniyatiga ma'lum hissa qo'shib kelmoqda.

XX asrning 20 yillari davomida o'zbek xalq qo'shiqlari mazmunida asosan turmush sharoitlarini kuylash va ijrochilik mahoratlarini yana ham oshirishdan iborat edi. Lekin bu qo'shiqlarning asosida o'zbek xalqining boy musiqiy merosi turar edi. Bu meros qadimdan avloddan-avlodga og'zaki holatda yetib kelgan.

O'zbek xalqining o'tmishi, turmush sharoitlari, qayg'u va alamlari, og'ir mehnat va ozodlik uchun kurashganliklari xalq musiqa san'atida o'z aksini topgan. Xalq qo'shiqlari serqirrali bo'lib-alla, bolalarga atab ijod qilingan qo'shiqlar, lirik, mehr va muhabbat, hazil va mutoiba, yil fasllariga bag'ishlangan kabi musiqiy asarlar kuylangan. Ko'pqirrali bu xalq musiqa merosini mavzular bo'yicha ikkita katta bo'limga bo'lish mumkin. Ulardan biri-marosim, mehnat va boshqa turmush sharoitlari bilan bog'langan («Yor-yorlar», «Yig'i-sadrlar», «Mayda», «Yozi», «Alla») bo'lib, ikkinchisi-qo'shiqlar (ashulalar) dir. Bu qo'shiqlar biror-bir turmush sharoitlari bilan bog'lik bo'lmagan mazmunidagi asarlar: laparlar, yallalar, ashulalardir.

O'zbek xalq professional og'zaki musiqa merosida asosiy o'rinni maqomlar egallaydi. O'zbekistonda maqomlar mahalliy sharoitlarga ko'ra ikkiga bo'linadilar-Buxoro va Xorazm maqomlari. Lekin shu maqomlarning ba'zi-bir qismlari Farg'ona vodiysida ham ijro etilib musiqa tarixlarida uchinchi Farg'ona-Toshkent yoki «CHormaqom» deb nomlangan edi. Professional musiqa ijrochilari va musiqa olimlari bu «CHormaqom»ni alohida ajratish maqul emas deb ta'kidlab uning Buxoro maqomi bilan birlashtirganlar.

Maqomlar mazmuni asosan lirik bo'lib ulardagi klassik she'rlar-hofiz, Navoiy, Bedil, Jomiy, Muqimiylarga mansubdir. Maqom musiqalarida xalq she'rlari ham ishlatiladi. O'zbek-tojik musiqa merosi Buxoro maqomi «SHashmaqom» deb nom olgankim, bo'lar: Bo'zruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroqdir. Har bir maqom ikki bo'limga-cholg'u bo'limi va ashula bo'limiga bo'linadi. CHolg'u bo'limi-Mushkilot va ashula bo'limi Nasr deb nomlangan. CHolg'u bo'limi yana bir necha qismlarga-Tasnif, Tarje', Gardun, Muhammas va Soqillarga bo'linadi. Ashula qismiga esa-Saraxbor, Talqin, Nasr, Qashqarcha, Soqiynoma, Uforga bo'linadi. Maqom ijrosida asosiy musiqa asboblari tanbur va doira bo'lib, har qaysi maqomda tanbur alohida sozlanadi. Masalan Bo'zruk, Dugoh, Segoh va Irok maqomlarini ijro etishda soz kvartaga (o'rtancha tor bilan oxirgi tor oralig'i) sozlanadi. Rost maqomini ijro etishda soz kvintaga sozlanadi.

1920 yillardan boshlab xalq og'zaki ijodiyotini o'rganish va uni yozib olish alohida o'rinni egalladi. 1919 yilda Turkiston respublikasida badiiy-etnografik komissiya to'zildi va bu komissiya hayatida V.A.Uspenskiy, G'ulom Zafariy, E.Melngaylis, N.Mironovlar kirdilar. Komissiya o'ziga maqsad qilib birinchi o'rinda «SHashmaqom»-ni va O'rta Osiyoda yashovchi barcha xalqlar ijodiyotini o'rganishni o'z oldiga qo'ydi. 1923 yilning boshlarida V.A.Uspenskiy

boshchiligida komissiya Buxoroda bo'lib Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'anilarning maqom majmuasini hammasini yozib oladilar. Lekin bu noyob xalq durdonalarini yozib olishda ancha qiyinchiliklar ham bo'lgan, chunki maqomlardagi qochirmalar, nolalar va kuylarning yo'nalishi Uspenskiylarni qiynab qo'yishdi. SHashmaqom bilan bir qatorda kamissiya hayati xalq qo'shiq va kuylarini ham yozib olgan edilar.

1925 yilning bahorida V.A.Uspenskiy boshchiligidagi komissiya hayati Qo'qond uezdining Isfara ovullarida bo'lib u yerdan ham birqancha xalq qo'shiqlarini yozib oladi. Masalan: «Lola bayrami»-dagi Naqshi kalon, Naqshi xurd va boshqalar.

V.A.Uspenskiy boshchiligidagi ekspeditsiya faqatgina xalq qo'shiqlarini yozib olmasdan balki ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug'illanadilar va 1927 yilda «O'zbeklar klassik musiqalari» nomli katta maqola chop etadilar. O'sha yili Uspenskiyning bu maqolasi qatorida Abdurauf Fitratning «O'zbeklar klassik musiqalarining tarixi» nomli ishi ham chop etiladi va bu to'plamda Abdurauf Fitrat mahalliy mutaxassislardan ilmiy ishlarni tayyorlash to'g'risidagi o'z fikrlarini bayon etadi. Fitrat to'plamida «SHashmaqom» qismlari to'g'risida batafsil fikrlar yuritilib ularning ijrochilari haqida ham yozilgan.

1928 yilda Samarqandda musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti ochildikim, bu oliy dargohda milliy musiqa mutaxassislarini tayyorlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan edi. Institutga N.N.Mironov rahbarlik qiladi va u kishi o'sha davrda mashhur bo'lgan hofizlar, xonanda va sozandalardan: Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodov, Abduqodir Ismoilov (nay, qo'shnay, surnay ijrochisi), Matyusuf Harratovlar bilan bir qatorda yosh san'atkorlar M.Ashrafiy, T.Sodikov, SH.Ramazonovlarni o'qishga taklif etadi.

Institut ilmiy ishlarini natijalari sifatida biz N.N.Mironovning kitoblarini «O'zbeklar musiqasi» (Samarqand, 1929 yil), «O'zbeklar va boshqa SHarq xalqlarining musiqa madaniyati to'g'risida» (Samarqand, 1931 yil), «Buxoro, Xiva, Farg'ona qo'shiqlari» (Toshkent, 1931 yil) misol keltirishimiz mumkin.

Samarqand instituti ilmiy ishlar bilan bir qatorda Toshkentda Ye.Ye.Romonovskaya boshchilik ekspeditsiya ham xalq kuy va qo'shiqlarini yozib olgan edi. Bu ekspeditsiyaning eng muhim ilmiy yozuvlaridan biri bu o'zbek Xotin-qizlarining ichkarida aytiladigan kuy va qo'shiqlari edi. Ye.Ye.Romonovskaya bilan H. Muhammedovalar bu ishga asos solgan edilar.

1917-1932 yillardagi ilmiy ishlar folklor yozishlarni yakunlab shuni ta'kidlash keraki, xalq noyob durdonalarini yozib ularning abadiy tarixda va xalqimizga taqdim etilib bu buyuk xalq musiqiy asarlari qanchadan-qancha avlodlarga meros sifatida qoladi.

Xalq kuy va qo'shiqlarini yozib olish bilan bir qatorda ularni qayta ishlash, xor va orkestr jamoalariga moslash ishlari ham boshlanadi. 1922 yilda V.A.Uspenskiy va N.N.Mironovlarning birinchi simfonik qayta ishlagan partituralari tinglandi. «SHarq musiqa kechalari» konsertlarida Mironovning «Turkiston» va Uspenskiyning «Latifa», «Zar kokul» xalq qo'shiqlarini qayta ishlab orkestrga moslaganlari tinglovchilar diqqatini o'ziga jalb etdi.

«Turkiston» syuitasida-4 o'zbekcha va 4 qozoqcha xalq qo'shiqlari garmoniyalashtirilib orkestrga moslashtirilgan. Bu asarda o'zbek xalq qo'shiqlaridan «Sarbozlar», «Azizam», «Layzongul» va «G'ayro-g'ayro dambadam»-lar qayta ishlanib orkestr ijrosida o'zgacha jiloga erishgan.

Puflab chalinadigan orkestr uchun ham o'zbek xalq kuy va qo'shiqlarini qayta ishlash ishlari boshlanib bu hayrli ishlarni chex millatiga mansub V.V.Leysek bajarishga kirishgan. Masalan: Leysek «Rajabia» nomli kuyni orkestrga moslab qayta ishladi va bu asar o'sha yillardagi konsert dasturlaridan mustahkam joy oldi.

20 yillarda Karim Abdullaev fortepiano asbobi uchun o'zbek xalq kuy va qo'shiqlarini qayta ishlab shu fortepiano asbobi uchun «16 ta o'zbek qo'shiqlari» nomli to'plamini nashrdan chiqardi.

1929-1930 yillarda Ye.Ye.Romonovskaya ham xor jamoasi uchun «Paxta teradi» nomli asarni qayta ishladi.

Qilgan ishlarni xulosa qilib shuni izohlash kerakki, 20-30 yillar davomida xalq kuy va qo'shiqlarini aranjerojka va orkestrlash ishlari boshlanib, o'zbek diyorining musiqa san'atini rivojlantirishda bu xayrli ishlar o'zbek musiqa muammolarini barchasini bajarishdagi birinchi qadamlar edi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligining yemirilishi hamda Buxoro Xalq Sovet respublikasi (1920 y.), Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (1920 y.), ular negizida O'zbekiston Respublikasi (1924 y.), so'ngra Tojikiston Respublikasi (1929 y.)ning tarkib topgan. Aynan shu vaqtda asrlar qariidan kelayotgan klassik musiqa an'analarida o'zgacha qarashlar sodir bo'la boshladi. Yangi siyosiy bo'linishlar natijasida maqom san'atining qadimiy o'choqlari bo'lmish Buxoro, Xorazm, Farg'ona va Toshkent O'zbekiston hududiga kirganligi munosabati bilan Buxoro, Xorazm va Farg'ona-Toshkent uslublari umumlashtirilib, mushtarak an'ana sifatida ko'rilga boshlandi. Shuning uchun A.Fitratning 1927 yilda chop etilgan kitobi "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" deb nomlanishi ham bejiz emas.

O'zbekistonning markazi dastlab Samarqand bo'ldi. Poytaxtga xos bo'lgan barcha madaniy muassasalar ham shu shaharda joylashdi: markaziy konsert, teatr tashkilotlari, respublika radiosi va o'quv muassasalari. San'at sohasidagi birinchi o'quv va ilmiy dargoh -Musiq va xoreografiya instituti ham 1928 yilda Samarqandda ochiddi. Bu institutda o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlari barobariga olib

borildi. O`quv dasturlari an'anaviy hamda yevropa yo`nalishlarida amalga oshirilgan. Milliy musiqadan ta'lim berishda tarixiy shakllangan uchala maqom maktabi ham nazarda tutilgan. Farg`ona yo`lidan Abduqodir Ismoilov, Xorazm uslubidan Matyusuf Xarrotov, Buxoro Shashmaqomidan Domla Halim Ibodov, Abdurahmon Umarov kabi yetuk ustozlar dars berish uchun jalb etilgan. Yevropa musiqa savodidan N.N.Mironov o`qitgan. Ayni chog`da u institut direktori lavozimida bo`lib, o`zbek va tojik musiqasiga oid ilmiy izlanishlar ham olib borgan .

1928 yilda tashqil qilingan Samarqand musiqa va xoreografiya ilmiy-tekshirish instituti o`z davrida musiqa merosini o`rganish buyicha eng katta dargox bo`lgan. Bu yerda ta'lim olgan M. Burxonov, T. Sodikov, M. Ashrafiy, M. Leviyev, D. Zokirov va ko`plab boshqa kompozitor, ijrochi hamda musiqashunoslar ta'lim oldilar .

Sho`ro hukumatining dastlabki yillarida Buxoroda Fitrat tashqil etgan "Sharq musiqa maktabi"ga o`xshab Xivada ham bolalar musiqa maktabi ochildi. Uning birinchi direktori Muhammad Yusuf Xarrot (Matyusuf Xarrotov) bo`ldi. Otasi Matyoqub Xarrot shu maktabda yoshlarga maqom o`rgata boshladi. Lekin maktabning milliy musiqa o`rganish bilan bog`lik faoliyati uzoq davom etmadi. 1924-25 yillarning uzidayoq u butunlay boshqa yo`nalishdagi "Bolalar uyi"ga aylantirildi. Xiva musiqa maktabi o`qituvchi va talabalari atoqli maqom ustozlari Matyoqub Xarrot bo`lgan keyinchalik u Xiva va Urganch teatrlarida ijrochilik qilgan. Nuroniy sozandaning hayoti kutilmaganda achinarli tugagan 1937 yoki 1938 yilning yoz faslida Urganch teatrining ochiq sahnasida divijokdan quvvat oladigan elektr chiroqlari tez - tez o`chavergan. Osmonda esa oy charaqlab to`rgan. Shunda Matyoqub Xarrot hech qanday g`arazsiz -Ollohning nuri porlab to`rganda "jin chiroqning" nima keragi bor ekan, degan emish. Shu "mish-mish" gapning o`zi keksa san'atkorga "Ilich chirog`i"ni hakorat qildi, deb ayb qo`yilishi uchun kifoya bo`lgan. "Xon saroyida hizmat qilgan" degan ustama "ayb" ham qo`shilgan. Xullas, siyosat ko`chasiidan o`tmagan qariya "xalq dushmani" sifatida ta`qib ostiga olingan.

Matyusuf Xarrotning o`zi esa 1928 yil tashkil etilgan Samarqand "Musiq va xoreografiya ilmiy-tekshirish instituti"da "Xorazm uslubi"dan dars berish uchun taklif etilgan. So`ngra markaz Toshkentga ko`chishi munosabati bilan u poytaxt radiosida sozandalik vazifasini bajargan. Biroq umrining oxirigacha (1952 y.) xavf -xatar ostida yashagan. Hattoki siyosatdan qo`rqib, adabiy taxallusi "Chokar" (xizmatkor) ekanligini yashirib yurgan.

Shu davrlarda ko`pgina nomdor sozandalari ham o`zining xon saroyiga aloqadorligini yashirishga majbur bo`lganlar. Ularning xos san`atiga yangi tuzumning ehtiyoji ham bo`lmagan.

O`zbekiston poytaxti Toshkentga ko`chirilishi munosabati bilan mazkur institut 1932 yildan ilmiy tadqiqotlar markazi sifatida faoliyatini davom ettirdi.

Milliy musiqa merosini yozib olish va qayta ishlashga doir ishlar 1919 yil dekabrda Turkiston respublikasi maorif Xalq Komissarligi San`at bo`limi qoshida Badiiy-etnografik komissiya tashkil etildi. Komissiyaning dastlabki vazifalaridan biri bo`lib hisoblangan musiqa folklorini yozib olish ishning boshqa barcha turlarini ham o`ziga qaratdi, natijada komissiya bir butun, Musiqali-etnografik komissiya deb atala boshladi. F. Zafariy, N. Mironov, V. Uspenskiy komissiya a`zolari edi.

O`zbekistonda musiqa folklorshunosligiga asos soluvchilar orasida V. A. Uspenskiy alohida ajralib turdi. Uspenskiy ko`p asrlik badiiy madaniyat an`analarining vakillari—xalq musiqachilari orasida juda tez do`stlar topar edi, shuning o`zi ko`pincha uning ishlarining muvaffaqiyatini belgilab berardi.

Shashmaqomning yozib olinishi muhim ish bo`ldi. Ana shu maqsadda Musiqali-etnografiya komissiyasi Uspenskiyni Buxoroga komandirovka qilgan edi. Uspenskiy Buxoroda bir yildan ko`proq (1923—24) turib, taniqli ijrochilari—hofiz Ota Jalol Nosirov va tanburchi Ota G`iyos Abdug`anilar bilan hamkorlikda ish olib bordi.

20-yillarning ikkinchi yarmida O`zbekiston va Turkmaniston bo`ylab bir qator Musiqali-etnografiya ekspeditsiyalar tashqil etildi. Ekspeditsiya materiallari V. Uspenskiy va V. Belyaevning birinchi tomi 1928 yilda Moskvada nashr qilingan «Turkmenskaya musiqa» asarida berildi. Uspenskiy notaga olgan Shashmaqom sikli «Shest mo`zikalnix poem (maqom)» nomi bilan 1924 yilda Buxoroda nashr qilindi.

O`rta Osiyo respublikalarida bu sohada dastlabki qadamlar V. A. Uspenskiy va N. N. Mironov tomonidan qo`yildi. Ular qayta ishlagan xalq kuylari 1922 yil fevralda Toshkentda ijro etildi. Mironovning syuitasi simfonik orkestr uchun moslashtirilgan sakkizta xalq qo`shig`ini (to`rtta o`zbekcha va to`rtta qozoqcha) o`z ichiga olgan edi..

Uspenskiyning 20-yillarning boshlarida alohida pesalar tarzida maydonga kelib, keyinchalik «Chetire melodi narodov Sredney Azii» (v obrabotke dlya simfonicheskogo orkestra) degan umumiy nom bilan Moskvada nashr etilgan (1934) partiturasini o`zgacha belgilarga ega. Partitura simfonik orkestr uchun qayta ishlangan o`zbekcha, afg`oncha va ikkita qozoqcha qo`shiqdan tashkil topgan.

Uspenskiy bilan bir qatorda o`zbek xalq kuylarini garmoniyalashda boshqa musiqachilar ham o`z kuchlarini sinab ko`rdilar. 20-yillarning oxiriga kelib O`zbekistonda N. N. Mironov rahbarligidagi Samarqand o`zbek Musiqa va Xoreografiya instituti (Inmo`zxoro`z) folklorshunoslik ishlarining tashkiliy markaziga aylandi. Institut o`zining Samarqandda ishlagan yillari mobaynida

(1928-32) nusxa ko`chiruvchi valiklarda besh yuzdan ortiq xalq ijodi asarlarini yozib oldi hamda bir qancha kitoblarni nashrga tayyorladi. Bular orasida Mironovning «Mo`zika o`zbekov» (1929), «Obzor mo`zikalnix kultur o`zbekov I drugix narodov Vostoka» (nota yozuvi M. Ashrafiy, Sn. Ramazonov va T. Sodiqovlarniki, 1931, «Pesni Fergani, Buxari i Xivi» (1931) kitoblari bor edi. Har bir nashr etilgan kitob Mironovning kirish maqolari bilan ochilgan bo`lib, ularning shogirdlari notaga olgan xalq kuylari to`plamidan iborat edi.

Institut milliy san`atni o`rganish bilan birga musiqa ta`limi bilan ham shug`ullandi. Shashmaqomni hamda xalq cholg`u asboblarini chalishni o`rganar edilar. Buxorodan (Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov), Xorazmdan (M. Xarratov) va Farg`onadan (A. Ismoilov, A. Umurzokov) taniqli hofiz va sozandalar Samarqand institutida jamlanganligi tufayli o`quvchilar respublikaning turli oblastlari musiqasining mahalliy xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`ldilar. Shu bilan birga o`quvchilar uchun elementar musiqa nazariyasi va solfedjio ham o`tilar edi, ularning o`zlari ham asarlar yaratishni, ayrimlari esa orkestrga dirijorlik qilishni o`rganar edi. Bu erda keyinchalik mashhur bo`lib ketgan T.Sodiqov, M. Ashrafiy, M. Burhonov, D. Zokirov, M. Leviev, Sh. Ramazonov, O. Halimovlar o`zlarining musiqiy bilimlarini chuqurlashtirdilar.

Birinchi musiqali teatrlar 1918 yili Toshkentda tashkil etilgan rus opera teatri Turkistondagi birinchi musiqali teatr edi. Teatr tashkil bo`lganga kadar havaskorlar musiqali teatr jamiyati kuchi bilan klassik operalardan parchalar ko`rsatar edi. Bu postanovkalarining eng aktiv va talantli ishtirokchilari opera teatrining birinchi sostaviga solist sifatida kirgan edilar. Teatr o`z faoliyatini boshlashidanoq o`zining xor va simfonik orkestriga ega edi (birinchi dirijyori F. Sedlyachvk). Teatr sostavi tez orada Rossiyaning etakchi teatrlari artistlari bilan mustahkamlandi. Spektakllarda O`rta Osiyoda gastrolda yurgan rus opera sahnalarining ustalari L.V.Sobinov, A.V.Nejdanova, G. S. Pirogov, P. I. Sesevich va boshqalar ishtirok etdilar. 20-yillar teatr postanovkalari orasida Dargomijskiyning «Suv parisi», Chaykovskiyning «Evgeniy Onegin» va «Mazepa», Verdining «Traviata» hamda «Rigoletto» va boshqa klassik operalar bor edi. Teatr sahnasida G. I. Gizler (Arskiy)ning «Stenka Razin» ops-rasi muvaffaqiyat bilan o`ynaldi.

Rus opera teatri faoliyati bilan teng ravishda o`zbek musiqali teatrini tashkil etish bo`yicha ishlar olib borildi. Bu sohada dastlabki qadam 1918 yilda Farg`onada «Musulmon yoshlarning musiqali-dramatik truppasi»ni tuzgan Hamza tomonidan qo`yilgan edi. Truppa spektakllarida musiqa etakchi o`rinni egallardi: pesa davomida artistlar qo`shiq va musiqali dialoglar ijro etishar edi, xor (bir ovoqli) va xalq cholg`u asboblari ansambli ishtirok etardi. Bu spektakllarning musiqasi truppa ishtirokchilari tanlagan xalq kuylari va Hamzaning qo`shiq-laridan iborat edi.

Asarlarni tanlash va o`rgatishda (notasiz) musiqa merosimizning taniqli

bilimdonlari, hofizlar Mulla To`ychi Toshmuhamedov va Shorahim Shoumarov ishtirok etdilar. Bosh qahramon — Halima rolini (20-yillarning oxirida) keyinchalik nom qozongan o`zbek opera solistkasi Halima Nosirova o`ynadi. Bu spektakl tomoshabinlar ommasida katta muvaffaqiyat qozondi.

Respublika musiqali teatr san`ati tarixida o`zbek adabiyotining asoschisi A. Navoiy dostonlarining instsenirovkalari ham muhim rol o`ynadi. Bu sohada «Farhod va Shirin» spektakli «dastlabki qaldirg`och» bo`ldi. Bu spektakl Navoiyning ana shu nomli dostoni asosida yaratilib, havaskorlar trupпасi tomonidan 1922 yilda avval Toshkentda, so`ngra esa boshqa shaharlarda sahna yuzini ko`rdi. Spektakl musiqasi maqomlardan parchalar va boshqa og`zaki an`anadagi professional musiqa janrlari namunalariidan tashkil topgan bo`lib, xalq cholg`u asboblari ansambli jo`rligida artistlar tomonidan ijro etilardi. Navoiyning «Layli va Majnun» dostonining instsenirovkasi Toshkentda gastrolida bo`lgan ozarbayjon trupпасining sezilarli ta`siri ostida amalga oshirilgan. O`zbek artistlari tomonidan qo`yilgan «Layli va Majnun»ning ilk postanovkalari (1922—23) da ozarbayjoncha musiqa saqlanib qolgan. 30- yillarning boshiga kelibgina «Layli va Majnun» musiqali dramasi o`zbek milliy repertuarining asari sifatida vujudga kelgan.

30-yillar musiqa ijodchiligida muhim tendentsiyalar ta`kidlanadi. Bu davrga kelib o`zbek musiqali teatrining shakllanishi yangi bosqichga kirdi, yangi janrlar— opera va balet vujudga keldi. O`zbek folklori kuylari zaminida simfonik asarlar paydo bo`lib ularning eng yaxshilari respublika musiqa hayotidan o`rin oldi. O`zbek romansi va kamercholg`u pesalar yaratishdagi birinchi tajribalar ana shu davrga to`g`ri keladi.

Tayanch tushunchalar:

1. **Matyusuf Xarratov** - Xorazm maqomlarini bilimdoni.
2. **N.Mironov** - Samarqand musiqa va xoreografiya institut direktori.
3. **"Chokar"**- 4-kasb egasi

Nazorat savollari:

- 1.San`at sohasidagi birinchi o`quv va ilmiy dargoh qayerda va qachon ochilgan?
- 2.Buxoro "Sharq musiqa maktabi" nia Xivadagi bolalar musiqa maktab tashqilotchilari kimlar ?
3. 1937-38 yillarda qatog`on qurbonlari bo`lgan san`atkorlar kimlar ?

13-Mavzu: Furqat ijodida musiqiy qarashlar (1 8 5 9 - 1 9 0 9)

Zokirjon Mulla Holmuhammad o'g'li Furqat — atoqli shoir, ma'rifatparvar, publisist. Furqat Qo'qonda 1859 yilda tavallud topgan. U o'zi yashab turgan tuman maktabida o'qib, mudarris va kitoblardan xattotlik va arab tilini o'rgangan. 1873—1876 yillarda madrasada tahsil oladi. Furaat Alisher Navoiy ijodini, fors adabiyotini yaxshi bilgan va fors tilini mukammal o'zlashtirgan.

1876 yilda u Farg'onaga ko'chib o'tadi, amakisiga savdo ishlarida yordam beradi, o'zi kichkina dukon ochadi. Shu yillarda u shoir va ma'rifatchi sifatida shakllanadi. 80-yillar boshlarida Qo'qonga qaytib kelib uylanadi, ijod bilan shug'ullanadi. Muqimiy va Muhiy raxbarligidagi adabiyot kechalari, majlislarda faol ishtirok etadi, ularda shuningdek Zavqiy, Nodim, Nisbat, Muxayir va boshqa taniqli shoirlar, adabiyotchilar ham qatnashganlar.

Furqat ijodi, uning g'azallari, muhammaslari lirik musiqiy, haqqoniy xarakterga ega. O'zining lirikasida u ona diyor go'zalligi, sevgi-muxabbat va eng ezgu insoniy fazilatlarni kuylaydi. Furqat maxalliy boylarning jaxolati va zo'ravoiligini, Farg'onaning chor Rossiyasiga qaramligini qoralaydi. O'zining mashhur «Sayding quyaber, sayyod, sayyora ekan mendek» she'rida Furqat zo'ravonlik, zulm asoratlariga qarshi chiqadi va shaxs mustaqilligi va erkinligini yoqlaydi. Ushbu she'rdan zavqlanib Hamza «Sayyora» qo'shig'ini yaratgan.

1886—1887 yillarda Furqat Marg'ilonda yashaydi. Keyin Toshkentga yo'l oladi, yo'lda Xujandga kirib utadi. Hamma yerda shoirlar, adabiyotchilar bilan uchrashadi, ijodiy kechalar o'tkazadi.

1889 yilda Furqat Toshkentda, «Ko'kaldosh» madrasasida yashaydi. Toshkentda u rus ziyolilari, turli mamlakat olimlari bilan tanishadi. Uni rus teatriga, ko'rgazmalarga, konsertlarga, ta'lim muassasalariga taklif etishadi. U zamonaviy ilm-fan va madaniyatning progressiv ahamiyatini yaxshi tushunadi. Bularning hammasi Furqatning dunyoqarashini o'zgartiradi. 1890 yildan u «Turkiston viloyatining gazetisi» bilan rasmiy hamkorlik qila boshlaydi. Shu vaqtdan boshlab uning faol publisistik faoliyati boshlanadi. Bu o'zgarishlar uning ijodida o'z aksini topadi. Uning «Gimnaziya», «Ilm xosiyati», «Vistavka xususida», «Toshkand shahrida bo'lgon nag'ma bazmi xususida», «Nag'ma va nag'magar va aning asbobi va ul nag'ma ta'siri xususida» va boshqa she'rlari chop etiladi. Ijodkor inson sifatida Furqat haqiqiy san'atni, uning o'zbek xalqi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini nozik his etadi. 1890 yil Toshkent rus musiqa jamiyatida tashkil etilgan konsertga tashrif buyurganidan so'ng cholg'u va cholg'uchilar hakida o'zining she'rida u shunday yozadi:

O'zimga tushdi bir kun ushbu ahvol,

*Bor erkan nag'ma oning oti rayol.
Eshittim bir qia anda baxri hojot
Qilur nag'ma tili birla munojot.
Xazin ovoz ila yig'lab xudog'a,
Karam qil der men bag'ri adog'a.
Maqomini qilur har nav' bunyod,
Gahi qattiq fig'on, gah narmi faryod.
Gahi naydek chekar oxista nola,
Keturur goh navo mashqin xayola.
Menga ul nag'ma andoq qildi ta'sir,
Jigardin o'tti go'yo tez par tiyr.
Ushal dam bo'ldi xolotim digar gun,
Tulub-toshti yurak monandi Jayhun.
Kugul erdi agarchi sangi xora,
Erib ko'zdin sirishk urdi favora.
Menga mustavli o'ldi girya ul dam,
Giribon o'ldi ko'z yoshim bila nam.
Men anda bildim ul ko'ngulni xolin,
G'amu shodiyu ummidu maolin.
Tilar kunglim tag'in ul yerga yetsam,
Ushal qizning munojotin eshitsam.
Yetib ul nag'madin jonimg'a rohat,
Zamani ulturub topsam farog'at.
Ki oning nag'masi jismimda jondek,
Yurur ta'siri ham rang ichra qondek.
Ayo Furqat, quloq sol zabt etib xush,
Ki shoyad naslimiz solg'ay debon gush.
Keyin qo'shiq ijrosi haqida Furqat shunday yozadi:
Ba'dazon qildi ashula bir kishi,
Nag'ma erdi yonida bir zon ishi.
So'ngra chiqdi bir quyosh ruxsora zon,
Eg'niga kiygan edi kuk piraxan.
Tal'ati guyoki erdi mushtari,
Rashk etar kursa jamolini pari.
Qulda xat, qildi ashula noz ila,
Urtada tanxo, maxin ovoz ila.
Ikki odam ang'a bo'ldi nag'ma soz,
Biri rayolu biri barbat navoz.
Nag'mau ovoz ikov bir pardada,*

*Ya'ni savtu soz ikov bir pardada.
Zavq topti dil alarning sozidin,
Shavq topti jon muning ovozidin.
Buyla savtu sozda mohir ko'rub,
Qildi istihson ham el qars urub.*

Musiqa ijrochiligidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'p ovozlilik Furqat e'tiboridan chetda qolmaydi. Xor ijrochiligini tasvirlab, u quyi va yuqori ovozlarning baravar sadolanishini ta'kidlaydi; cholg'ular haqida so'z yuritib, u sozandalar birga ijro etayotganlarida **xar** bir cholg'udan «turli tovush» chiqishini ta'kidlaydi va dirijer ishoralariga o'z tavsiyasini beradi. Mazkur konsert haqida Furqat yana shunday yozadi:

*Jam'i qizlar chiqdi un beshdin ziyod
Bir qari ustoda aylab inqiyod.
Qildilar xonish xama yakborasi,
Suv bo'lub oqdi jigarlar porasi.
Qo'l bilan usto maxorat kurgo'zib,
Ya'ni xonishga ishorat kurgo'zib.
Anda ul noz ofarin tannozlar,
Tortishib pastu baland ovozlar.
Chiqmay ovozi alar andozadii,
Ayladi maftun kungulni tozadin.
Onha mardumkim tamoto ayladi,
Borini ovoz shaydo ayladi.
Savt birla aqimi lom etdilar,
Nag'madin ko'nlimni behol etdilar.
Xech yerda buyla savt eshitmadim,
Xayriyatkim anda o'zdin ketmadim.
Nag'masin vofirligig'a ofarin,
Savtg'a mohirlig'ig'a ofarin.
Kirdilar ichkori ul qizlar tamom,
Bazm xam ul dam tugaldi, vassalom."*

1891 yilda Furqat chet elga — Marv, Ashxobod, Boku, Batumi orqali Istambulga, u yerdan Bulg'oriya, Yunoniston va Bolqon yarim orolining boshqa shaharlariga safar qiladi. 1892 yilda Istanbul shahridan u Makka, Jidda va Madinaga borib, haj amalini ado etadi. Uning «Xajнома» asari shunga bag'ishlangan. Hajdan so'ng u Bombay va Hindistonning boshqa shaharlarida bo'ladi. U yerda «Kashmirda», «Bulbul» she'rlarini yozadi. 1893 yilda Kashmir va Tibet orqali Sharqiy Turkistonning (hozirga Xitoy) Yorkand (Shache) shahriga keladi va xayotining so'nggi kunlarigacha shu yerda qoladi. Furqatning o'z vatanidan jo'nab ketishining

sababi hozirgacha ma'lum emas. Biroq so'zsiz unda ona yurtiga sog'inch kuchli bo'lgani aniq.

14-Mavzu: A.Avloniyning musiqa pedagogikasining rivojlanishiga qo'shgan hissasi

ABDULLA AVLONIY (1878 - 1934)

Abdulla Avloniy - buyuk ma'rifatparvar, pedagog, shoir, dramaturg, aktyor, musiqiy folklor to'plovchi, jurnalist, davlat va jamoat arbobi, jadidlik xarakatining yorqin vaqili, professor, Mehnat qahramoni.

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentning Merganchi mahallasida, tuquvchi hunarmand oilasida dunyoga keldi. 7 yoshidan eski usuldaga maktabda o'qishni boshladi, keyin 12 yoshidan madrasada o'qib, uni 1895 yilda tugatdi. U otasining ishiga yordam berar, mustaqil bilim olish bilan faol shug'ullanar, adabiyotni o'rganardi. Avloniy arab, fors va rus tillarini mukammal o'zlashtirdi. U Tolstoy, Ushinskiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. 1906 yilda Avloniy o'zining she'rlarini chop ettira boshladi. Avloniy «Taraqqiy» (1906), «Shuhrat» (1907), «Osiyo» (1908) gazetalari chiqishini tashkillashtiradi.

1908 yilda Toshkentning Mirobod tumanida Abdulla Avloniy yangi usuldagi maktab ochadi, unda o'zi o'zbek tili va adabiyotidan dars beradi. U «Jamiyati Xayriya» (1909) ning tashkilotchisi bo'lib, bu jamiyat orqali yetim bolalarning ma'lumotli bo'lishlariga yordam beradi. Shuningdek, Avloniy Toshkentning Degrez maxallasida ham maktab ochadi (1912). Munavvarqori Abdurashidxonov, Muxammadjon Poshoxujayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov va boshqa ilg'or hamda badavlat kishilar bilan hamkorlikda— «Nashriyot» turli birlashmalari (1914), «Maktab» (1916) shirkat xujaliklarini tashkil etadi.

1913 yilda Abdulla Avloniy M. Abdurashidxonov va Toshkentning boshqa ziyoli, mu'tabar va badavlat kishilarining moddiy va ma'naviy kumagida O'zbekistonda birinchi «Turon» teatr truppasini tashkil etadi va unga o'zi rahbarlik qiladi. Mazkur truppaning teatr mavsumi 1914 yil 27 fevralda «Kolizey» teatrida (keyinchalik Sverdlov nomli konsert zali) Mahmudho'ja Behbudiyning «Padarqush» pyesasi bilan ochiladi. Bosh rollarni A. Avloniy, S. Ziyoboyev, M. Poshoxo'jayev, B. A'lamovlar ijro etadilar. Truppada Mannon Uyg'ur, Sulaymon Xo'jayev, Sidqiy Ruhillo, G'ulom Zafariy, Abror Hidoyatov, Abdurahmon Akbarov, Shokir Najmiddinov, Mahsuma Qoriyeva, Obid Jalilov va boshqa yetuk rejissyor, dramaturg va aktyorlar ishlaganlar. Teatrda Fitrat, Yunus, Chulpon, Hamza, Xurshid, Hojibekov va boshqalarning pyesalari quyilardi. Musiqali spektakllar, ayniqsa G'ulom Zafariyning «Halima» (1920) asari juda ommaviylashib ketgandi. Bu «Turon» teatr trupпасi asosida keyinchalik

Toshkentdagi mashhur milliy dramatik, musiqali drama va yosh tomoshabinlar teatrlari tashkil etildi.

1917—1918 yillarda Avloniy «Turon» va «Ishtirokyuon» gazetalarini chiqara boshlaydi. 1919—1920 yillarda u Afg'onistondagi sobiq sovet elchixonasining bosh konsuli lavozimida ishlaydi. Toshkentga qaytgach, Avloniy xalq ta'limi tizimidagi ishini davom ettiradi. 1921 yilda u «Kasabachilar harakati» jurnalining bosh muharriri, shuningdek kasaba ittafoqi harakatining mas'ul rahbari bo'lib ishlaydi, maorif bilim yurtlarining ayol va erlar bo'limlariga rahbarlik qiladi (1923—1924), Toshkent harbiy bilim yurtida dars beradi (1924—1929).

1930—1934 yillarda A. Avloniy O'rta Osiyo universiteti kafedrasiga mudirlik qiladi, professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ladi. 1925 yilda unga Mehnat qahramoni unvoni beriladi.

Abdulla Avloniy 1934 yil 25 avgustda Toshkentda vafot etadi.

Abdulla Avloniy butun hayotini o'z xalqini ma'rifatli qilishga bag'ishladi. Uning tomonidan pedagogika bo'yicha «Birinchi muallim» (1911), «Ikkinchi muallim» (1912) kabi asarlar yaratilgan. Agar birinchi kitobni «alifbo» deb atash mumkin bo'lsa, ikkinchisini «xrestomatiya» deyish mumkin. Ikkinchi kitobga Avloniyning «Maktab», «Bolalar bog'chasi», «Maktabga da'vat», «Ilmsizlik balosi», kabi she'rlari kirgan uning yana bir kitobi «Turkiy guliston yohud axloq» (1913). Mazkur kitob pedagogika buyicha o'zbek tilidagi odob-axloq masalalariga oid birinchi darslikdir. Har bir mavzuga Avloniy she'rlar ham yozadiki, bu mazkur axloq-odob me'yorlarini qabul qilish va tushunishni sezilarli darajada kuchaytiradi. 4 qismli «Adabiyot» tuplami 1909—1915 yillar davomida yaratildi. Avloniy «Maktab gulistoni» (1915), «Mardikorlar ashulasi» (1917); 7 sinf uchun yangi dastur asosida «Adabiyot xrestomatiyasi» (1933), she'r tuplamlari va boshqa asarlar yaratdi.

Musiqqa san'ati, musiqqa pedagogikasi masalalari buyicha musiqashunos Barno Muxamedova o'zining «Avloniy va musiqqa san'ati» maqolasida yozishicha, Avloniy o'z ijodi va pedagogik amaliyotida musiqaga katta e'tibor qaratgan. Uning «Sanoye nafisa», «Musiqi», «Maktabga targ'ib», «Adabiyot», «Andijonda musulmoncha teatr», «Mardikorlar ashulasi», «Madaniyat tulqinlari» kabi maqola, tuplam va she'rlarida musiqqa san'ati masalalari kurib chiqiladi. Ushbu masalalar alohida ta'kidlashga loyiq: musiqqa va tabiatning birligiga, musiqqa va musiqqa cholg'ularining paydo bo'lishi, musiqaning insonga ijobiy ta'siri, kompozitor va shoir, musiqqa va maktab, musiqqa va teatr, musiqqa va din, zamonaviy madaniyat va qator boshqa masalalar. Abdulla Avloniyning o'zi go'zal ovozga ega bo'lgan va kupincha musiqachilar, «Turon» teatr truppasining xoriga ulardan nima talab qilinayotganini kursatib bergan. U maxsus «Munojot», «Saodat shundadir», «Milliy nag'ma», «Hofizdan» va boshqa she'rlarni u yoki bu musiqqa uchun

maxsus yaratgan. Masalan, yuqorida kursatilgan she'rlar «Segoh», «Qashqarcha», «Tasnif», «Bayoti sheroz» kabi musiqa asarlari uchun yozilgan.

15-Mavzu: Pedagog, san'atshunos sifatidagi faoliyati

F I T R A T (1 8 8 6 - 1 9 3 8)

Dars rejasi:

1. Fitrat va musiqa.
2. Fitrat musiqamiz tarixini yoritish borasidagi qilgan ishlari.
3. Fitrat o`zbek xalq og`zaki ijodini o`rganish borasidagi qilgan ishlari.

Abdurauf Abdurahim o'g'li, Fitrat — yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, siyosatshunos, pedagog-olim, davlat va jamoat arbobi. Birinchi o'zbek professori (1926). Abdurauf Fitrat 1886 yilda Buxoroda tug'ildi. «Fitrat» — uning taxallusi bo'lib, «qobiliyatli», «iste'dodli», «dono» ma'nolarini anglatadi. Uning otasi Abdurahimboyning — millati o'zbek bo'lib, savdo bilan shug'ullangan. Onasi Bibijon — tojik millatiga mansub, o'z davrining bilimli ayoli bo'lgan, farzandlari tarbiyasiga ko'p kuch sarflagan. Fitrat o'qishni eski usuldagi maktabda boshladi, keyin Mir Arab madrasasida o'qidi. Arab va turk tillarini mukammal o'zlashtirdi, shuningdek Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini yaxshi o'rgandi. 1902-1903 yillarda haj amallarini bajardi: arab mamlakatlari, Turkiya, Hindistonda bo'ldi. 1906—1908 yillarda Rossiyaning Moskva, Peterburg va boshqa shaharlarida bo'ldi.

Fitrat jadidlar harakati rahbarlaridan biri edi, bu harakat XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Qrim (asoschisi Ismoilbek Gasprinskiy), Turkiya, Volgabuyi, **Urta** Osiyo va boshqa sharqiy hududlarda keng tarqalgan edi. Ushbu harakatning asosiy g'oyalari «birlashish va suverenitet», «ma'rifat va rivojlanish», «Sharq va Fapb birligi» edi. O'zbekistonda yangi usuldagi maktablar (ko'p fanli, sinf-dars tizimiga asoslangan) ochila boshladi. O'quv fanlari buyicha yangi dasturlar va darsliklar tayyorlana boshlaydi. Shuningdek, birin-ketin ma'rifiy va xayriya jamiyatlari ochildi. Shunday jamiyatlardan biri — «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») yordamida Fitrat 1909 yilda **turt** yilga Istambulga o'qishga junab ketadi. U yerda u o'zining «Munozara» nomli adabiy asarini, mustaqillik va vatanparvarlik hakidagi «Sayxa» nomli birinchi she'rlar to'plamini yozadi. 1912 yilda uning «Sayyohi hindi» kitobi chop etiladi. Bu asarlar jadidlik g'oyalari bilan

sug'orilgan. Turkiyada Fitrat «Yosh turklar» harakati ta'siri ostida «Buxoro ta'limi maorif jamiyati»ni tashkil etadi.

Vataniga qaytgach Fitrat o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanadi, yangi usuldagi maktablarni tashkil etishda qatnashadi, jadidlik g'oyalarini targ'ib qiladi, «yosh buxoroliklar» harakatining rahbarlaridan **biri** bo'ladi. Bu yillarda (1914—1916) u «Rahbari najot», «Oila», «Mavludi sharif yoki Mur'oti xayr **ul**-bashar» asarlarini yozadi. 1917 yildan boshlab Samarqandda «Hurriyat» gazetasi muharriri vazifasida ishlaydi. 1918 yilda Fitrat Toshkentga keladi, 1919—1920 yillarda «Chig'atoy g'urungi» nomli adabiy-ma'rifiy uyushma va «Tong» jurnalini tashkil etadi. Ushbu jurnalning shiori — «Miya o'zgarmaguncha boshqa o'zgarishlar negiz tutmas!». Buxoro **xalq** socialistik respublikasi tashkil bo'lgandan keyin Fitrat Buxoro maorif vaziri (1921), tashqi ishlar vaziri (1922), xalq xo'jaligi Kengashining raisi, Markaziy Ijroiya qo'mitasi va Xalq nozirlari sho'rosi raisining o'rinbosari **va** boshqa lavozimlarda ishladi. Uning faol ishtirokida 70 nafar qobiliyatli **va** iqtidorli bolalar Germaniyaga o'qishga jo'natildi.

1921 yilda Fitrat Buxoroda «Sharq musiqa maktabi»ni ochadi. Shu maktabga direktorlik qiladi va unga o'ziga tegishli yerni tuhfa qiladi.

Ushbu maktabdagi ta'lim o'zbek av'anaviy musiqa metodlari asosida olib borilar edi. Bu yerda u xalq hofizlari Ota G'iyos, Ota Jalol va kompozitor V.A.Uspenskiy yordamida Shashmaqomni birinchi marta notaga yozish ishlarini tashkil etadi. Mazkur ish «Olti musiqali poema (maqom)» nomi bilan Fitrat va N.N.Mironov tahriri ostida 1924 yilda nashr etildi.

1921-1923 yillarda Fitrat ijod qilish bilan birga davlat ishlari bilan ham faol shug'ullanadi. Uning tashabbusi va bevosita ishtirokida Buxoro respublikasida o'zbek tiliga davlat maqomi beriladi. Aholidan nodir kitoblarni yig'ish tashkil etiladi, shuningdek amir va uning yaqinlarining boy kutubxonasi davlat mulki deb e'lon qilinadi. Vaqf (mulkni davlat tasarrufiga o'tkazish) ishlari uchun Fitrat Toshkentdan Munavvarqori Abdurashidxonovni, davlat teatridagi ishni tashkil qilish va u yerda ishlash uchun esa Mannon Uyg'ur (rejissyor, aktyor, dramaturg) va Cho'lpon (yozuvchi dramaturg, tarjimon, tanqidchi)larni taklif qiladi.

1923 yilda Moskvadan kelgan komissiya Fitratni Moskvaga ishga o'tkazishi va chaqirilishi bahonasida uni ishdan bo'shatadi. Fitrat Moskvaga junab ketadi. Bu yerda u Sharqshunoslik ilmiy-tekshirish institutida ishlaydi, shuningdek Leningrad universitetida ma'ruzalar o'qiydi, bu yerda u avval professorlik ilmiy unvoniga tavsiya qilinadi, keyin esa tasdiqlanadi (1926).

1926 yilda Fitrat O'zbekistonga qaytib keladi. 1927 yildan 1937 yilgacha Fitrat asosan ijodiy, ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadi. Samarqand oliy pedagogika institutida, Buxoro va Toshkent o'qituvchilar instituti, O'zbekiston madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutida, Toshkent til va adabiyot

ilmiy-tekshirish institutida ishlaydi. Bu yillarda u A.Samoylovich, S.Malov, Ye.E.Bertels kabi nomlari dunyoga mashhur olimlar bilan faol hamkorlik qiladi. Yirik o'zbek olimlari va adabiyotshunoslari — Yahyo G'ulomov, Ibrohim Muminov, Oybek, Xodi Zarifov, Izzat Sulton, Homil Yoqubov Fitratni o'zlarining bevosita yoki bilvosita ustozlari deb hisoblaganlar.

1937 yilda, shaxsga sig'inish va qatag'on davrida Fitrat Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Chulpon, Elbek kabi davlat arboblari va yozuvchilar qatori hibsga olinadi va 1938 yil 4 oktyabrda, hukm chiqarilishiga bir kun qolganida otib tashlanadi. U o'limidan so'ng oqlandi. Shaxsga sig'inish va qatag'on davri umumxalq fojiasiga aylandi — u minglab begunoh, va vatanning munosib o'g'lonlarini hayotdan olib ketdi.

Abdurauf Fitratning o'zbek adabiyoti, san'ati, ilm-fani, pedagogikasini rivojlantirish, jamiyatni farovonlashtirishga qo'shgan hissasi shunchalar ulkanki, uni XX asrdagi O'zbekistonning eng yirik arboblardan deb hisoblash uchun to'liq asos bor.

Uning adabiy asarlari — «Munozara», «Sayyohi hindi», «Qiyomat», «Me'roj», «Oq mozor», «Zayd va Zaynab», «Zahroning imoni» va b.; «Na'ra», she'rlar to'plami, «Sayha», «Yurt qayg'usi», «Mirrix yulduziga», «Sharq», «Shoir», «O'zbek yosh shoirlari» va boshqa she'rlar; teatr uchun «Begijon», «Qon», «Abu Muslim», «Temur sahnasi», «O'g'izxon», «To'lqin» (opera librettosi), «Chin sevgi», «Xind istilochilari», «Abulfayzxon», «Shaytoning tangriga isyoni», «Arslon», «Sho'rishi Vose» va b. asarlari; ilmiy adabiyotshunoslikka oid «Bedil», «Navoiyning forsiy shoirliigi va uning forsiy devoni tug'risida», «Qutadg'u bilig», «Ahmad Yassaviy», «Yassaviy maktabi shoirlari tug'risida tekshirishlar», «Xibbat ul- haqqoyiq», «O'zbek shoiri Turdi», «XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash», «Muxammad Solih», «Fors shoiri Umar Hayyom», «Mashrab», «Farhodu Shirin» dostoni tug'risida», «She'r va shoirlik», «Adabiyot qoidalari», «San'atyaing manshai», «Aruz haqida» va b. asarlari.

Pedagogika, maorif, musiqashunoslik va musiqa pedagogikasi sohasida Fitrat tomonidan «Rahbari najot» (1913), «Oyila» (1916), «Mavludi sharif yoki Mur'oti xayr ul-bashar» (1914), «O'quv» (1917), K. Ramazon va Sh. Raximiylar bilan hamkorlikda yozilgan «Ona tili» darsligi (1918), «O'zbek tilining sarfi tug'risida» (1925), «Sarfi zaboni tojik» (1925), «O'zbek tili qoidalari tug'risida bir tajriba: Sarf» (1925), «O'zbek tili qoidalari tug'risida bir tajriba: Nahv» (1926), «Adabiyot qoidalari» (1926), «Turk adabiyoti namunalari» (1926), «O'zbek adabiyoti namunalari» (1928), «Eng eski turk adabiyoti namunalari» (1928) kabi asarlar yaratilgan. Fitrat musiqa mavzusida quyidagi asarlarni yozgan va chop ettirgan: N. N. Mironov bilan hamkorlikda «Oltita musiqiy poema (maqom)» deb nomlangan

Shashmaqom nota yozuvining tahriri (1924), «O'zbek musiqasi tug'risida», «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» (1927) va b.

Fitratning musiqashunoslik va musiqa pedagogikasi soxasidagi shu fanlarning rivojlanishiga asos solgan eng yirik asari sifatida yuqorida keltirilgan «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi»ni hisoblash mumkin. Mazkur kitobda olim va musiqachilar (Jomiy, Navoiy, Bobur, Marog'iy, Urmaviy, Muhammad ibn Mahmud, Muhammed Yusuf, Rauf Yaktabek, Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy, Mulla Bekjon, G'ulom Zafariy, M.Yunus, Qori Yoqubov, N.N.Mironov, V.A.Uspenskiy va boshqalar)ning katta amaliy materiallari asosida Fitrat umuman sharq musiqasi, jumladan o'zbek musiqasining tarixi, nazariyasi, pedagogikasiga nazar solib, zamonaviy yuqori malakali olim-musiqachilarni tayyorlash hamda mavjud musiqa namunalarini tezroq notaga yozib olish zarurligi tug'risida gapiradi. Unda alohida tarixiy davrlar tahlil qilinadi, ularni o'rganishga yondashuv tizimlashtiriladi, maqomlar, ularning bo'lim va qismlari, usul tizimlari, «nag'ma», «niqra», tushunchalari, musiqaning «aruz», «barmoq» kabi she'riy vaznlar bilan aloqalari kurib chiqiladi, musiqa cholg'ulariga tavsiflar beriladi. Fitrat musiqa tarixi obzorida «sharq musiqasi» tushunchasining paydo bo'lishi musulmon xalqlari tomonidan yaratilgan «Madrasa birligi» bilan bog'liqligi haqida gapiradi.

Musiqa pedagogikasi va uning o'zbek musiqa san'ati rivojiga ta'siri borasida shuni ta'kidlash mumkinki, Fitrat o'z ishida yozishicha, Temur davrida «... xar tomondan keltirilgan mutaxassis olimlarning g'ayratlari bilan **bu** san'at birdan jonlandi, oyoqqa bosti. Islom sharqining har tomonidan keltirilgan cholg'ular, cholg'uchilar bizning bu kungi klassik musiqamizning yuksalishiga, kutarilishiga xizmat qildilar. Oz zamonda yerlilardan **ulug'** musiqiyshunoslar yetishdilar».

Marog'iy, Urmaviy **kabi** taniqli boshqa yurtdan kelgan musiqachi olimlar musiqa ilmi va san'atining rivojlanishiga o'zlarinnng qimmatli xissalarini qo'shdilar.

O'zbek musiqa pedagogikasi tarixidan Najmiddin Kavkabiy, Xofiz Axiy, Amir Fathiylarning taniqli shogirdlari va yaratgan maktablari xaqida Fitratning ishida biz quyidagi ma'lumotlarni uchratamiz: «Temur zamonida Marog'ali Xuja Abdulqodir qanday esa, o'zbeklar zamonida Kavkabiy shundaydir. Xo'ja Hasan Nisoriy, Mavlono Hasan Kavkabiy, Xo'ja Muhammad Kavkabiy, samarqandlik Rizo, samarqandlik Boqiy Jarroh, kabi zamonlarining mashxur musiqiyshunoslari Najmiddin Kavkabiyning (Hirotda taxsil olgan - **R.Q.**) shogirdlaridir. Hirotdan Turkistonga kuchirilgan musiqiy ustozlaridan ikkinchisi **Xofiz** Axiy edi. Buni ham Ubaydulloxon kuchirdi, bu ustodning Turkistonda yetishtirgan shogirdlaridan eng mashhurlari - toshkentlik Xoja bobo Changiy, toshkentlik Xofiz Xamza, andijonlik Darvesh Maqsud (Toshkentda bobo Axmadjon xizmatida mehtarxona boshlig'i bo'lgan).

To'qquz **yuz** yetmishlarda (xijriy - **R.Q.**) xonliq taxtida o'turg'an mashxur o'zbek xoni Abdulloxon zamonida yetishgan mashxur musiqiyshunos **Xofiz** Darvesh Ali Changiy degan zotdir. Bu zot Abdulloxon zamonida yetishgan bo'lub, Toshkentning Amir Fatxiy degan musiqiyshunosining shogirdidir. **O'zining** otabobolari musiqiyshunos bo'lub o'tkan. Bu kun menim qo'limda Darvesh Ali Changiy tomonidan yozilgan ikkita musiqiy risolasi bor».

Keyin Fitrat xorazmlik Niyozxonxoja maktabi va uning shogirdlari, shuningdek Polvonniyoz Mirzaboshi Komilning «xorazm notasi» va undan foydalanish metodlari tug'risida gapiradi. Kitobning «So'ng so'z»ida o'zbek musiqasini notaga olish, musiqa o'quv yurtlarini tashkil etish, zamonaviy yuqori malakali musiqa mutaxassislarini tayyorlashning o'ta zarurligi ta'kidlanadi.

Abdurauf Fitrat qomusiy bilim egasi bo'lgan buyuk insonlardan biri . Shuning uchun ham islom va adabiyotimiz tarixi, O'rta Osiyoda yer-suv munosabatlari, arxitektura, tarix, o'zbek tili va madaniyati ravnaqi yo'lida samarali xizmat qildi. Fitrat klassik adabiyotning bilimdoni, tadqiqotchisi va targ'ibotchisi edi. U ulug' turk shoiri Tavfik Fikrat, qadimiy turk adabiyoti tadqiqotchisi Muhammad Fuod Kupirlizoda, Ismoil hikmat asarlarini mutola qildi, ularga ergashib, 250 yaqin bosma ilmiy-badiiy meros qoldirdi.

Fitrat musiqamiz tarixini yoritish, «Shashmaqom»ni to'plash va notaga tushirish ishlarini O'zbekistonda birinchilardan bo'lib boshladi. U yaqin Sharq musiqa maktabini tashkil etishda tashabbus ko'rsatdi. Buxoro hukumatining farmoni bilan 1921 yilning 10 avgustida Fitrat Sharq musiqa maktabini birinchi boshkoni (direktori) qilib tayinlandi. Sharq musiqa maktabiga adib o'z hovlisini hadya etgan. (Buxorodagi Dzerjinskiy ko'chasidagi 8-hovli. Shu kunlarda shahar Kommunal xo'jaligi yotoqxonasi). Mazkur musiqa maktabiga Domla Halim Ibodov ilmiy bo'lim mudiri, «Shashmaqom» bilimdonlaridan Shohnazar Shahobov, Boboqul Fayzullayev o'qituvchi bo'lib, keladilar. Tarixiy manbalarda yozilishicha , Fitrat Buxoroning barcha nohiyalaridan iste'dodli yoshlarni atrofiga to'plagan. Uspenskiyga o'z yonidan haq to'lab «Shashmaqom»-ni notaga tushirishdek xayrli ishni bajargan. Biz shu kungacha buxorolik mashhur hofiz va bastakorlar Levicha hofiz, Gavriil Patak, kupincha ellarning na ijodini, na hayotini bilamiz. Bu uchala zot "Bozori shab"da har kuni xonish qilishgan. Fitrat afandi ular bilan bevosita aloqada bo'lgan.

1928 yili «Alanga» jurnalining 2-sonida Fitratning «"O'zbek musiqasi to'g'risida» maqolasi bosildi. Musiqamiz haqida shunday yozadi: «...U bir musiqaki yolg'iz o'zining klassik qismida uch yuzdan ortiq kuy saqlagan; bir musiqaki, bu kun o'n beshga yaqin cholg'uning egasidir; bir musiqaki, loyiq nazariyasi, usuli bor; uni maqtag'anlar to'g'ri so'zlaylar». Fitrat musiqamiz nazariyasi; tarixini chuqur xis etgan, bilgan. O'z davrining musiqachilaridan Ota

Jalol bilan juda yaqin bo'lganligidan, Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida ta'kidlashicha, "Segoh" maqomidagi "Savt" sho'bachasini Ota Jalol Fitratning tashfiqi bilan 1922 yilda bastalagan.

Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitoba madaniyatimiz, jumladan, musiqa fanida katta voqeyadir. Ushbu kitob 1926 yilda yozilgan va 1927 yilda O'zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan Samarqandda chop etilgan. U 75 sahifadan iborat bo'lib, eski o'zbek yozuvida bosilgan. Risolaning orqa muqovasida mashhur bastakor Ota G'iyos Abdulg'aniyevning (1854 -1927) surati bor. Kitobning "muqaddima" fasli «O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi» tomonidan yozilgan. Kitob ikki qismdan iborat bo'lib birinchisida Sharq musiqasi (o'zbek musiqasi), usul va pardalar, har bir maqomning sho'bachalari hamda tanbur, mizrob, dutor, rubob, qo'biz, chang, g'ijjak, qo'shnay, nay, bolabon, surnay, karnay, doira va nog'oraning kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari haqida so'z boradi. Ikkinchi qism esa «Musiqamiz tarixiga bir qarash» yoki «Turk musiqasi» deb nomlangan.

«Bizning eski kuylarimiz orasida, - deb yozadi Fitrat, - «Rok», «qator sarang» degan kuylar bor. «Rok» hindcha «maqom» demakdir. «Sarang» esa hind cholg'ularidan biridir. Bular musiqamizning ko'p eskidan (yolg'iz arab, eron emas) hatto hind musiqasidan ta'sirlanganligini ko'rsatadir». Fitrat mazkur risolada islomgacha bo'lgan musiqamiz tarixini ishonchli dalillar asosida baholashga harakat qilgan. U Abdulqodir Marog'iyning "Zubdat ul-advor", Muhammad ibn Mahmudning «Nafois ul-funun», Muhammad Fuod Kupirlizodaning «Milliy tatabbo'lar majmuasi», hofiz Darvesh Ali Changiyning «Tuhfat us-surur», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», 1925 yilda Xorazmda yaratilgan «Xorazm musiqa tarixchisi» kabi muhim manbalarni chukur o'rgangan. Shuning bilan birga makomdagi har bir usulning nazariy tomonlarini nozik fahm ta'b ila yoritdi. O'zbek musiqasida ko'llanadigan 24 usulning bir-biridan farkli tomonlarini nazariy jihatdan farklab berdi. O'n to'rtta cholg'u asbobi xususida mufassal ma'lumot yozib koldirdi. Masalan, u tanbur haqida shunday yozadi: "Burungi musiqa kitoblarimiz «tanbur so'zani», «Tanbura» shaklida yozadirlarda, aslida yunoncha bir so'z ekanini so'ylaydilar. Bu cholg'uning chindanda yunondan bizga kelib-kelmaganini terandan tekshirish mumkin bo'ladi. Birok bu cholg'uning Sharkda juda eski bir narsa ekani ma'lumdir. Mashhur Nosir Sayyorning Xuroson valiyligi zamonida Xurosondan Shom shahriga «Tanbur»lar, «Barbat»-lar istanilgani «Ravzat us-safo»da xabar berilgan. O'rta Osiyo xalqlari orasida «Do'n'bira» atalgan bir cholg'u bor. Tori ikkitadir. O'zi bu kungi bizning dutorimizdan kichkina, pardalari ham undan ozdir. Tanbur, Tanbura, Do'n'bura so'zlarining birgina so'z ekanida shubha yo'kdir. Mana shu ma'lumotga tayanib eskidan borlig'i xabar etilgan. Tanbur - Tanburaning bu kungi do'nburaning xuddi

o`zi yo shunga yakin bir narsa ekaniga, ya`ni bu kungi bizning tanburimizning ikki torli, ibtidoiy bir shakli bo`lg`oniga hukm etilsa, yanglish bo`lmaydir. Hijriy o`ninchi asrda o`tgan hofiz Darvesh Ali Changiy tomonidan «tanburning burun zamonlarda ikki torli bo`lgani, so`nralari Husayn Boyqaro zamonida Mahmud Shayboniy otli bir musiqashunosning unga bir tor orttirg`ani» to`g`risida berilgan xabar esa yukoridagi fikrimizning kuchini orttirgan bo`ladir...» Fitrat har bir cholg`u asbobi xususida so`zlaganda uning uch tomondan ko`rinishini ham tasvir etadi.

«O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi» kitobining ikkinchi fasli "Musiqamizning keng tarixiga bir qarang" yoxud "Turk musiqasi" deb nomlangan. «Arab istilosidan burun, - deb yozadi Fitrat, - millatlar orasida hech bir turli «olish-berish yo`k edi diyemiz. Bor edi, kuchli edi, hamda kuchli edi. Biroq bu "olish-berish" shaklidagina bo`lar edi "birini tashlab - birini olish" shaklida emas edi». Hakikatdan ham, islomgacha turli xalqlar o`rtasida o`zaro iktisodiy, ma`daniy alokalar bo`lganligi tabiiy bir hol. Arxeologik izlanishlar natijasida topilayotgan ko`pgani musiqasi asboblari ham fikrimizning dalilidir. Ikkinchidan, insoniyat yer yo`zida paydo bo`lgandan boshlab kuyga tabiiy ehtiyoj sezdi, Tabiat hodisalari, tiriklik olamidagi turli harakatlarni o`z «san`ati»ga singdira bordi. Shuning uchun har bir el tarixi bilan musiqasi tarixi o`zviy bog`likdir. Fitrat aytmokchi, islomgacha o`zbeklarning ham o`z musiqalari, "o`z boshli nazariyalari" bo`lgan. Bu hakda quyidagi dalilni keltiradi: "Usmoniyali musiqasi-shunoslardan Raif Yaktabekning marog`ali Xo`ja Abdulkodirdan ko`chirib yozganiga ko`ra turk (o`zbek)larda uchta «usul doirasi» bor emish. Turklar butun kuylarni, ashulalarni shul uch usul "usul doirasi" o`zra ijro qilar emishlar. Bo`larga «Ko`k»lar demishlar. Xitoylarda 360 ko`k bor emish. Turk hokonlarining majlislarida har bir kunda chalinib bir yilda tamom bo`lur emish. Bu 360 ko`kning buyugi, asosi to`kkiz «Ko`k» emish. Bo`larning o`zlari: «Ulug` «Aslon chop», «Pure», "kulodu", "kutatg`u", "Bo`ristorka", "Jontoy", "koliksoy", "Shaydok" emish".

Fitratning xizmatlaridan yana biri, ushbu risolasida ilgarigi zamonlarda yashab ijod qilgan bastakor, hofizlar nomlarini, ular koldirgan kitoblarini zikr qiladi. «hatto «Tuhfat us-surur»ning aytishiga ko`ra, - deb yozadi Fitrat, - mashhur Ulug`bek mirzoning o`zi ham musiqasi olimlaridan sanalgan. Temurning bolalari zamonida konunchi Darvesh Ahmadiy (Samarkand), naychi Sulton Ahmar (samarkandlik), turkcha, forscha ikki devon bilan musiqada bir risola egasi bo`lg`an. Korako`llik hisomiy musiqada bir risola yozgan. Xorazmlik Abdul Vafo Tabib ham musiqasi olimi bo`lgan. Balxlik Mavlono Sohib, o`z zamonasida atokli bastakor sanalgan shahrisabzlik Abdulbaraka kabi kishilar yetishib musiqamiz uchun xizmat qildilar. Nag`orachi ham shoir bo`lgan qadimiy, Navoiyning musiqasi muallimi Xo`ja Yusuf Burhon, Navoiyning tog`asi Muhammad Ali

Haribiylar ham shul zamonning mashhur musiqashunoslaridan edila». Fitrat o`zbek musiqasining Ulug`bek zamonigacha bo`lgan davrini alohida ko`rib chikish bilan birgalikda XIV-XV asrda Samarkandda o`zaro jang-jadallar, fisku fasod kuchayib «go`zal san`atlar»ning markazi hirotga ko`chganligini yozadi: «Husayn Boykaro ham Alisher Navoiyning himoyalari ostida chig`atoy (o`zbek) adabiyoti, chig`atoy musiqasining «oltin davri» hirotida ko`rila boshlaydir. Hirotida Husayn Boykaro to`g`risidagi musiqa ustodlaridan so`zlaganda, boshlab, Navoiydan gapirishni kadrshunoslar yo`zasidan lozim, deb bilamiz». Fitrat Navoiyning musiqa ilmi, o`z atrofiga musiqashunoslarni to`plab g`amxo`rlik qilganliklarini Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" sidan misollar keltirish bilan kayd etadi. Alisher Navoiyning o`zi ham bastakor bo`lgan degan fikrni ilgari suradi: «Musiqaning nazariy-amaliy yoklaridan yaxshi bilar edi. Bobur mirzo o`zining mashhur asarida Navoiyning asarlarini sanar ekan «yana ilmi musiqada yaxshi nimalar bog`laptur, yaxshi «peshravlari» bordur» deb, u zamonning istelohida ashula kuylarga «naksh», ashulasiz kuylarga «peshrav» der ekanlar. Navoiyning usta bir san`atkor bo`lganini ko`rsatadir». Fitratning o`z iborasi bilan aytganda, haqiqatdan ham, u Alisher Navoiyning «buyuk kadrshunosi» edi. XVI asrda «Musiqha haqida risola» yozgan, Najmiddin Kavkabiyning fojjali tagdiri haqida keltirilgan ma`lumotlar ham kimmatlidir.

Fitrat o`zbek xalq og`zaki ijodi uchun muhim faktlarni topadi: «Turk musiqasining bizda kolgan eng burung`i so`zlari - Baxshi - o`zanko`bo`z so`zlaridir. «Baxshi so`zining bugungi ma`nosi el «shoir-cholg`uchi»sidir. El orasida "ko`biz" yo "do`nbira" chalib dostonlar o`kib yo`rgan maxsus kishilar - shoir-cholg`uchilar bor. Biz mana shularga «baxshi» deymiz. Xolbuki. Hijriy to`qqiz yuzinchi mo`ljalda , (Navoiy zamonida) bu so`z uyg`urcha yozgan kotib ma`nosida ishlatilar edi. Professor Kupirlizodaning Halokuxon zamonida «yozilg`on «Zich ilxon»idan ko`chirganiga ko`ra, «baxshilar har oyda uch kun parhez tutib nbodat qilar va belgili yemaklar yerlar». Bu so`zlardan Shark musiqasi va musiqashunoslarning ibtidoiy madaniyati haqida kimmatli ma`lumotlarni bilib olishlari mumkin.

Fitrat musiqa qudrati, sehrini chuqur bilgani uchun dramatik asarlarida kahramonlarniig rukiyl holatlarini yorishda musiqadan unumli foydalangan. Ashtarxoniylar sulolasining so`nggi vaqili Abo`lfayzxon (1711-1747) otasi, og`ainilari, yakin kishilarining konini to`kib, o`zi hokimiyatni egallab, ta`kib va shubha vasvasasida qolgan holatini Fitrat «Abo`lfayzxon» tarixiy fojjiasida mahorat bilan yaratgan.

«Xon (Ulfatga)... tanburchilarga ayt, ikki tanburni kamoncha qilib, bir «husayniy» chalsunlar»...«Xon kulog`ini kiyib, yotokda o`zanib yotar. Tag`arida ikki kamonchining «husayniy» cholg`oni eshitilar. Cholg`u sekinlab, bitganda xon

uxlag`on bo`lur. Bir oz so`ngra xonning o`ldurilgan akasining xayoli konli kafan bilan ko`rinadir...»Ko`rinib turibdiki mungli kuy Abo`lfayzxonga ta'sir etadi. U o`z qilmishlarini ko`z oldiga keltiradi, vijdon azobiga chidolmaydi. Fitrat kuy yordamida ajoyib ruhiy holat yaratgan.

Abulfayzxon taxtdan ajrab, farzandlari ham o`z o`limini kutayotgan holatini esa «Bebokcha» kuyi yordamida beradi. Zero, "bunday ruhiy azob holatini shu kabi kuydan boshka narsa ifoda etishi mumkik emas. Shu o`rinda beixtiyor, o`ylab kolasmz. «O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi»ni yozgan, Sharq musiqa maktabiga boshkonlik qilgan, «Shashmaqom»ni to`plashda faollik ko`rsatgan, o`zi tanbur chalib, maromiga yetkazib g`azal ko`ylay oladigan Fitrat nahotki biror kuy bastalamagan bo`lsak har holda bu savolga izlanishlar orkaligina javob berish mumkin.

Xullas, Fitrat «O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi»ni yozib musiqashunosligimizda o`chmas iz koldirdi. U xalqimiz va merosimizning o`zi aytmokchi, benazir kadrshunosi edi. Bu singari bebaho risolalarni tezrok chop etib xalqimizga berishimiz lozim.

Tayanch tushunchalar:

1. **Ota Jalol** - Buxoro maqomlarini bilimdoni, hofiz.
2. **Baxshi**- shoir-cholg`uchi,doston ijrochisi .
3. **«Bebokcha** "- kuyni nomi .

Nazorat savollari:

1. Fitrat o`z yonidan hak to`lab «Shashmaqom»-ni notaga tushirish kimga topshirgan ?
2. Fitratning "O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi "kitobida qanday tarixiy ma'lumotlar berilgan ?
3. Fitrat o`zbek musiqasining Ulug`bek zamonigacha bo`lgan davrini qanday ta'riflagan ?

16-mavzu: O`zbek musiqali drama janri asoschisi, pedagog, san`atshunos, G`ulom Zafariy faoliyati

G`ulom Zafariy — shoir, aktyor, dramaturg, pedagog, san`atshunos, o`zbek musiqali drama janri asoschisi. G`ulom Zafariy 1889 yilda Toshkentning Beshyog`och dahasida tug`ildi. Eski usuldagi va rus-tuzem maktablarida o`qidi, 1912 yilda esa Xo`ja Ahmad va Ko`kaldosh madrasalarini tugatdi. 1912—1914 yillarda O`sh shahrida G`ulom Zafariy jadidlarning yangi usul maktabini ochadi. 1914 yilda u «Turon» jadidlar jamiyatiga qatnaydi, 1916—1921 yillarda esa

«Turon» teatr truppasining aktyori va dramaturgi sifatida ishlaydi (yangidan tashkil etilgan (1913) teatr truppasining rahbari Abdulla Avloniy edi).

G'ulom Zafariy mazkur truppada Mannon Uyg'ur, Sulaymon Xujayev va boshqalar bilan birga Abror Xidoyatov, Abduraxmon Akbarov, Shokir Najmiddinov, Maxsuma Qoriyeva, Obid Jalilov va boshqa buyuk aktyorlar avlodini tarbiyaladi.

Bu yillarda (1913-1926) G'ulom Zafariy o'zining mashhur «Bahor», «Binafsha», «Erk bolalari» va boshqa bir pardali musiqali spektakllarini yozadi va sahnalashtiradi. Ushbu spektakllarda musiqali nomerlar sonining kupligi tufayli ularni «kichik operalar* deb atash odat tusiga kirgan. Shuningdek, uning uch pardali «Buzuqlik armug'oni» dramasi (1926) hamda «Paxtaxon», «Yangi odam» «Sayil va tuy» va boshqa pyesalari (1936-1937) qo'yiladi.

G'ulom Zafariyning O'zbekistonda musiqali drama janriga asos solgan eng mashhur spektakli 4 pardali «Halima» musiqali dramasi (1918-1921) bo'ldi. Mazkur musiqali dramaning birinchi ijrochilari Mahsuma Qoriyeva va Abror Xidoyatovlar bo'lishdi, bu ijro ularga katta shuhrat keltirdi. Spektaklga xalq musiqasi tanlandi, taniqli kuy va qo'shiqlar qahramonlar tomonidan o'zbek xalq musiqasi cholg'u ansambli jurligida ijro etilardi.

Spektakl O'zbekistonning turli teatrlarida zo'r muvaffaqiyat bilan 1936 yilgacha qo'yilib keldi. Ushbu spektaklda yaratilgan eng ajoyib qaxramon ayol obrazlaridan biri yetuk xonanda, O'zbekiston xalq artisti Halima Nosirobaga tegishli. Hozirgi kunlarda ham ushbu spektakl yangidan sahnalashtirilmoqda (Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, 2007).

G'ulom Zafariy, shuningdek, «Gulyor» (1923), «Rahimli o'qituvchi», «Chin Temir» (1924), «Yoshlar endi berilmas» (1926), «Chip Temir botir», «Ketmon chopti», «Qora kunlar» (1927), «Yangi ro'zg'or erlari», «Vanneycha» va boshqa qator she'riy dostonlar muallifidir.

1917-1931 yillar davomida G'ulom Zafariy madaniyat va maorifning turli sohalarida faol mehnat qiladi: «Ishchilar dunyosi» jurnalining bo'lim mudiri, «Turk ROSTA» gazetasi muharriri, Buxoro musiqa texnikumi direktori, Maorif komissarligida san'at bo'yicha rais, «Uchqun» maktabida o'qituvchi, O'z davlat kino direktori urinbosari, musiqa texnikumi direktori, Termizdagi pedagoglar tayyorlash kurslari mudiri, Samarqand musiqa va xoreografiya instituti direktorining o'rinbosari vazifalarida ishlaydi.

1932 yilda G'ulom Zafariy aksilinqiobchilik va millatchilikda shubxa ostiga olinib, qamaladi va Sibirga surgun qilinadi. Surgundan 1935 yilda qaytgach, 1937 yil oktyabrda u NKVD xodimlari tomonidan yana qamoqqa olinadi va shu yilning 4 dekabrda (dalilsiz) otib tashlanadi. 1957 yilda oqlanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, G'ulom Zafariy musiqa san'atida o'zbek musiqali dramasi asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning tomonidan Fitrat, V. A. Uspenskiy, Elbeklar bilan hamkorlikda musiqiy folklorni o'rganish, to'plash va yozib olish bo'yicha ishlar olib borilgan. U musiqa san'atiga oid «Sharq kuylari va cholg'ulari» (Inqilob, 1923, 3-soni), «Cholg'umizni o'limdan qo'tqaraylik» (Maorif va o'qituvchi, 1925, 1-soni), «O'zbek kuylarini qanday saqlash mumkin» (Yer yuzi, 1926, 8, 9-soni), O'zbek musiqasi tug'risida (Alanga, 1930, 1-soni), «Musiqamiz muammosi» (Qizil O'zbekiston, 1930, 20 mart), El ashulalari (Elbek bilan hamkorlikda, «Xalq qo'shiqlari» to'plami, 1925) kabi maqolalar muallifidir.

G'ulom Zafariyning faoliyatida o'zbek klassik musiqasi masalalari» (Shashmaqom an'analari va zamonaviylik. T., 2005 y.) maqolasida musiqashunos Barno Muhamedova shunday yozadi: «Musiqa merosini o'rganishda G'.Zafariy faol va iqtidorli (tadqiqotchi) lardan biri edi. ... Uning fojiviy taqdiri tufayli asarlari va shaxsiy arxivining ko'p qismi saqlanib qolmagan» (12-6.). G'ulom Zafariyning hayoti va ijodi uning yirik olim, yozuvchi, dramaturg, pedagog va jamoat arbobi bo'lganligidan guvohlik beradi,

Quyida G'ulom Zafariy tomonidan tuzilgan ustozlar maktabi chizmasini keltiramiz, uni G'. Zafariyning o'zi «Musiqachilar shajarasi» deb atagan. Ushbu chizma hozirgi kunda Yunus Rajabiy uy-muzeyida saqlanmoqda". Mazkur kitobga G'ulom Zafariyning «O'zbek musiqasi tug'risida» maqolasi va G'ulom Zafariy haqida musiqashunos Barno Muhamedova maqolasi kiritilgan.

Barno Muhamedova

G'ULOM ZAFARIYNING FAOLIYATIDA O'ZBEK KLASSIK MUSIQASI MASALALARI

1920—30 yillarda O'rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida katta o'rin tutgan jadid ziyolilarining o'zbek mumtoz musiqa san'ati ravnaqiga qushgan o'lkan xissalari o'zbek tarixiy musiqashunosligida hali to'la-to'kis o'rganilmagan.

Bugungi ma'ruzamizni XX asr milliy uyg'onish davrining yorqin namoyandalaridan biri — shoir, dramaturg, pedagog, san'atshunos olim G'ulom Zafariyning ilmiy faoliyatiga bag'ishladik.

Tabiatan musiqaga ishtiyoqi baland bo'lgan, nozik did egasi G'.Zafariy sermazmun va mashaqqatli umrini eng ezgu ishlarga bag'ishlagan. Ammo u 1932—35 yillar mobaynida Sibirga surgun qilingan va 1937 yilda «xalq dushmani» sifatida otib tashlangan.

Bu kamtarin va fidoyi shaxs o'zbek musiqa merosini to'plab o'rganishda, kelajak uchun saqlab qolishda, musiqa sohasida maxsus ta'lim tizimini tashkil qilishda hamda birinchi milliy musiqiy teatrni yaratishda bevosita ishtirok etgan.

20-yillardayoq A.Fitrat, M.Uyg'ur, A.Cho'lpon, Hamza, S.Abdulla, B. Pestovskiy, V. Uspenskiy singari zamondoshlari va do'stlari G'.Zafariyning milliy musiqa sohasidagi bilimini juda yuqori baholaganlar.

Musiqa merosini o'rganish sohasida F.Zafariy eng faol va layoqatlilardan biri bo'lgan, desak hech yanglishmaymiz. Uning musiqashunoslikka doir ilmiy maqolalarini tafsirlab, shunday xulosaga keldik va o'z ma'ruzamizda shuni dalillashga harakat qilamiz.

Bu fidoiy insonning fojeali taqdiri tufayli uning ko'pgina adabiy asarlari va shu jumladan shaxsiy arxivi saqlanib qolmagan.

G'.Zafariyning o'zbek klassik musiqasini o'rganish borasidagi bajargan ishlari, ilmiy kuzatishlari, uzoq safarlarda hofizu sozandalar bilan qo'rgan suhbatlaridan olgan ma'lumotlari xususida uning usha davr matbuotida chop etilgan maqolalaridan bilishimiz mumkin.

G'.Zafariyning maqolalari davr talablaridan unib chiqqan va o'zbek klassik musiqiy merosiga nisbatan katta e'zoz va kuyunchaklik bilan yozilgan.

1922 yilda «Inqilob» jurnalining 3-sonida R.Zafariyning «Sharq kuylari va cholg'ulari» deb nomlangan maqolasi bosiladi. Bu vaqtda hozirgi kunda hammaga ma'lum bo'lgan A.Fitratning «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» (1927 y.), B.Rahmon va M.Xarratovlarning «Xorazm musiqiy tarixchasi» (1925 y.) kitoblari hali yaratilmagan edi.

Maqolada G'.Zafariy Turkiston kuylari umumiy Sharq kuylarining asli bo'lganligini aytib o'tadi va 200 ga yaqin kuylarning nomini keltiradi.

Birgina shu maqolani tahlil qilib, G'.Zafariy o'zining ilmiy izlanishlarida tug'ri va muhim xulosalarga kelganligini kuramiz:

1. O'zbek musiqasi tarixi uzoq o'tmishga borib taqalishini Turkistonning turli qishloq va shaharlarida bo'lib, xalq og'zaki ijodini o'rganib, **ertak**, rivoyat, xikoyalar asosida dalillaydi.

2. O'zbek musiqasining ko'pqatlamliligini va sermazmunligini aniq ko'rib, uni uch guruhga ajratadi:

a) birinchisi «Sharqning mushtarak kuylari» deb atalgan. O'rta Osiyo xalqlarining mushtarak mulki bo'lgan Sharq kuylarining asosiysi 12 ta deb nomlarini aytib o'tadi:

1. Raxoviy. 2. Xusayniy. 3. Rost. 4. Xijoz. 5. Buzruk. 6. Kuchak. 7. Iroq. 8. Isfaxon. 9. Navo. 10. Ushshoq. 11. Zangula. 12. Buslik.

Ularning tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, ijro etilish vaqtlari haqida ma'lumotlar keltiradi.

Zafariy shu guruhga oid eron va xind kuylari haqida so'zlab, ularning ham nomlarini keltiradi va shunday xulosa qiladi: «Sharq kuylari yuqorida kursatilgani kabi 12 ta bo'lsa xam, ammo Turkistonda oltitaga tushirilib, «Shashmaqom» deb nomlangan».

Maqomlarni Zafariy Turkiston kuylari deb atab, ularning tuzilishi haqida fikrlaydi. Albatta, bunday ma'lumotlarning keltirilishi G'.Zafariy qadimiy Sharq olimlarining musiqa san'atiga doyr risolalari bilan tanish bo'lganligidan xabar beradi;

b) ikkinchi guruxga arab istilosidan avval **va** doimo bo'lgan xalq ijodidagi kuy **va qo'shiqlarni**, ya'ni folklor asarlarni kiritadi. Bular haqida shunday yozilgan: «...O'zbekning o'z ruhi, o'z yuragidagi yil sayin turluk tuyg'ular ta'siri bilan chiqorilib turgan kuylar juda ham kupdir. Bunday kuylarni Sirdaryoda «terma», Farg'onada «reza» deb ataydilar». Aynan shunday kuy **va qo'shiqlarni** Zafariy yaxshi o'rgangan **va** Elbek bilan hamkorlikda, 1925 yilda «El ashulalari» deb nomlangan to'plamni bosmadan chiqargan;

v) uchinchi guruhga Zafariy Turkiston kuylarining yana bir turini ajratadi: «Turkistonning o'zida ham Sharq kuylariga uxshatinqirab yasalg'on kuylar bordir» deb qator nomlarini keltiradi. Bu guruhga kiritilgan qo'shiq va ashulalar maqom yo'llarida yozilgan bo'lib, ayrim jihatlari bilan xalq qo'shiqlariga ham yaqin turadi (Misol: Nolish, Tirnim, Giryay, Ko'chabog'i, Karimqulbegi, Qalandar, Rohat, Gulyor va xokazo).

O'zbek musiqasi tarqoq xoldaligini Zafariy shunday ta'rifnaydi: «...bizning Sirdaryoda cholinadurg'on kuylardan ba'zisini Farg'onada bilmaydilar. Farg'onadagini Sirdaryoda, Buxorodagini Farg'onada bilmaydilar. Har holda tekshirilsa, «ikki yorti bir butun» degandek, unutilgan kuylarimizni topmoq, bilmaganlarimizni bilmoq mumkindir».

Demak, G'.Zafariy turli vohalardagi kuylarni o'rgangan, taqqoslagan, qiyosiy tahlillar qilgan va o'zining ilmiy kuzatishlari asosida xulosalar chiqargan.

«Sharq kuylari va cholg'ulari» maqolasidan bilishimiz mumkinki, G'.Zafariy milliy musiqa asboblari tarixini ham puxta o'rgangan. Qator cholg'ularning nomlarini keltirib, ularning tarqalish hududini, yuqolib ketish arafasida turgan ahvolini jamoatchilikka ochib bergan.

Ma'lumki, 30-yillarga kelib, madaniyat maydonida milliy klassik musiqiy merosga turli salbiy, notug'ri munosabatlar avj oldi. «Alanga» jurnalining 1930 yil 1-sonida G'.Zafariy «O'zbek musiqasi tug'risida» deb nomlangan maqolasini chop etadi va unda mumtoz san'atimizni ilmiy nuqtai nazardan himoya qiladi, oqlaydi. Shu sababdan u maqolada keltirilgan har bir fikrni, xulosani qayta-qayta dalillaydi va mashhur ustoz san'atkorlar nomidan tasdiqlaydi.

Ijodiy safarlar chog'idagi ilmiy izlanishlar natijasida G'.Zafarniy Farg'ona-Toshkent hofizlik maktabi tarixini o'rganadi va, o'zining ta'rifi bilan aytganda, «Musiqachilar shajarasi»ni tuzadi.

«O'zbek musiqasi tug'risida» maqolasiga aynan shu jadval ilova qilingan. Maqolaning eng qimmatli tomoni shundaki, unda G'.Zafariy ayrim izohlar bilan jadvalning tub mohiyatini ochib berishga harakat qilgan.

«Men musiqamiz tarixini o'rganmoq bo'lib Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Nomongon musiqiy ustalari bilan bo'lgan musohabam natijasida shunday kurinadikim, hamma musiqachilarimiz bir yo ikki vosita bilan mashhur Xudoy Berdi ustozga taqaladi, bari uch-turtagina Solihbekka boradi. Toshkent, Qo'qon musiqachilari Qo'qon xoni Xudoyorxonning mahrami Ashur Ali Mahram shogirdlari bo'lib, (u esa) Xudoy Berdi ustozning shogirdi ekan. Qolganlari esa Xudoy Berdi ustozning boshqa shogirdlaridan ta'lim olganlar», - deb yozadi G'.Zafariy.

Amir Umarxon zamonida (1225 x.) Xorazmga borib musiqachilikni o'rganib kelgan mashhur qashqarlik Xudoy Berdi ustoz haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Bu ustoz xon saroyida xizmat qilib, kuppina xonzodalarga saboq bergan va shu tufayli musiqachilikka rag'bat orta boshlagan ekan. «Xatto Umarxondan so'ng Madalixon musiqachilikka juda ham xavasli bo'lib, Urganchdan Solihbek degan cholg'uchi va Muminbek degan cholg'u ustalarini chaqirtirib musiqachilikka tarqalishiga sabab bo'ladi» — deb yozadi Zafariy.

Shu ma'lumotlarni asoslash uchun Zafariy bir nechta dalillarni keltirishni lazim topgan. Bu borada xivalik Muxammad Yusuf Devonzoda, samarqandlik Hoji Abdulaziz Rasulov va toshkentlik Sayd Axmadxon kabi mashhur maqom ustalarining so'zlarini keltiradi. «Samarqanddagi Musiqachilik va xoreografiya institutining muallimlaridan Muxammad Yusuf Devonzoda bilan suylashganimda, — deb yozadi Zafariy, — Xudoy Berdi degan bir qashqar(l)i bunday taxmin 150 yillar ilgari Urganch (ga) kelib, uylanib 18 yil musiqachilikni o'rganib, so'ng Farg'ona (ga) borib tuxtab qolgan ekan». G'.Zafariy Matyusuf Xarratov bu ma'lumotlarni eski ustolardan eshitganligini aytib o'tganlar.

Samarqandlik xofiz Hoji Abdulaziz ijodida Farg'ona-Toshkent maqom yullarini sezilarli ahamiyatga egaligi haqida G'.Zafariy quyidagicha yozadi:

«Hoji Abdulaziz urtada bir usta vositasi bilan urganchlik Yoqub Darchiga boradi xam Farg'ona yo'llarini Ashur Ali Mahramdan ta'lim olib o'zi muxammas boylab o'zlashtirib olganini o'z og'zi bilan suylaydi».

Maqola yozilgan vaqtda 78 yoshni qarshilagan, kup ustozlarni ko'rgan toshkentlik san'atkor Sayid Axmadxon ham bu masalada shunday degan ekan: «...bizning musiqachilikda Urganch va qashqar ta'siri bor, chunki kup musiqachilik

ustalarimizning ustasi Xudoy Berdi ustoz qashqarlik 18 yil Urganchda musiqa o'rganib Umarxon zamonida Farg'onaga kelib qolgan, undan chiqqan shogirdlar hozirgi hamma musiqashunoslarimizning ustozlari».

Mazkur maqolada G'.Zafariy yana qator muhim ilmiy kuzatishlarini qiladi. Bu ham bo'lsa u arab-eron ta'siridan avvalroq qo'shnimiz Xitoy musiqasining juda katta ahamiyati bo'lganligini ta'kidlaydi va arab istilosidan burun Sharqdagi turli millatlar orasida kuchli aloqa bo'lganligini eslatadi. Shu sababdan «Hozirgi musiqamizda xatto eron va xindlashgan bo'lsa-da, Xitoy ta'sirini kuramiz», deydi u. Shu fikrga qo'shimcha qilib Zafariy «Istar maqom, istar klassik yo'llarimizda juda kup «Qashqarcha» va «Mug'ulcha» degan qo'shimchalar ham «Chapandozlar» uchraydi, mana bular albatta o'z tomonimizdan qo'shilgan bo'lishiga shubha yo'q», deb ta'kidlaydi.

Olim Xitoy va Turkiston o'rtasidagi o'zaro madaniy munosabatlar tarixini o'rganish turkiy xalqlarning musiqa tarixini yoritishga kumak beradi degan fikrga keladi. Bu fikrning nechog'li tug'riligini hozirgi kunning yetakchi manbashunos olimlari xam tasdiqlaydilar. Manbashunos olim Qosimjov Sodiqov «Qadimgi yozma yodgorliklar» tuplamida shunday yozadi: «Urta va Markaziy Osiyo xalqlarining islomdan burungi tarixini o'rganishda qadimgi xitoy manbalari, ayniqsa, xitoy sayyohlarining ulkamizga qilgan sayoxatlari asosida bitilgan estaliklar katta ahamiyatga ega».

Maqolada G'.Zafariy bir tug'ri g'oyani ilgari suradi. U musiqa san'atining o'ziga xosligidan kelib chiqib, har bir musiqa asari yaratilganidan so'ng, albatta, o'zgarmasdan turmaydi, kimdir tomonidan mukammallashtiriladi, o'zga ta'sirlardan xoli bo'lmaydi, deb xisoblagan. Boshqacha so'zlar ila ta'riflaganda, musiqa asari bu jonli jarayon, vaqt utgan sari yangi jilvalar bilan tovlanadi. O'zbekistonning turli chekkalarida Sharq kuylari o'zgarishlarga duch kelib, turli qiyofalarga kelib qolgan deb, Zafariy Toshkentning mashhur tanburchisi Mulla Shobarotning so'zlarini keltiradi: «Bizning musiqa yo'llarimiz (so'z Farg'ona-Toshkent uslublari haqida — B.M.) kuproq Urganch ta'sirida bo'lsa-da, qashqar ta'siridan **xam** qocha olmagan. Ikkala ta'sir ostida bo'lgan musiqamiz o'z ruhimizga kura bir qancha qochiriq va tuzatishlar bilan yaxshigina silliqlangan. Buxoro, Samarqand, Xiva yo'llaridan katta ayirma bilan ayriladi».

Umumsharq san'ati **xar** joyda o'ziga xos ranglar bilan sayqallangan va, Zafariyning so'zlari bilan aytganda, «o'z ruximizga kura o'zlatshilgan, ya'ni o'zbeklashtirilgan». Shu sababli Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari Eron, Ozarbayjon, Buxoro yo'llari bilan solishtirganda katta farq qiladi. «Farg'ona va Toshkentda kuproq Shashmaqom yo'llari deb Bayot, Dugoh, **Segoh**, Chorgoh, Nasrullo, Shahnoz kuylarini ataydilar. Qo'qon, Andijonda bularga Buzruk,

Ushshoq, Iroqlarni **xam** qushadilar. (...) Klassik musiqa yo'llarini biluvchilar **har** shaharda topiladi», deb yozadi Zafariy.

«O'zbek musiqasi tug'risida» maqolasida aytib o'tganlarimizdan tashqari juda noyob va qiziqarli tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, Madalixon o'zi yaxshigina cholg'uchi va bastakor bo'lib, xozirgi zamongacha yetib kelgan «Madalixon» degan kuyni chiqarganligini; va uning yaqin beklaridan bo'lgan Karimqulbek degan inson «Karimqul begi» kuyini bastalaganligini aytib, «bu davr bizning musiqamizning oxirgi eng kutarilgan vaqti bo'lganligini aa xozirgi kup, balki hama musiqa ustalarimizni yetkazib bergan bo'lganligini» tahmin qiladi. Tadqiqotchi «Musiqachilar shajarasi»dan urin topgan xofiz va bastakor Zebo Pari haqida ham esga oladi: «Buxoro, Samarqand va Farg'ona yullarida kup kuylarning avji «Zebo Fari» ataladir, kim uni quqon musiqachilari mashxur Xudoy Berdi ustoz shogardi qo'qonlik Zebo Fari degan hofiz (ashulachi)ga nisbat berishga juda qattiq turadirlar (nisbat bermoq - biror kimsa yoki narsaga olib borib bog'lamoq – B.M).

Mazkur maqola bosilgan «Alanga» jurnalini varaqlab, biz **bir** zarur ma'lumotga ega bo'ldik. Bu ham bo'lsa jurnalning 2-betida idora tomonidan berilgan G'.Zafariyning tuzgan jadvaliga tegishli «Muxim tuzatish»dir: Ma'lum bo'ldiki, xozirgi kunda maqomshunos olimlarga tanish bo'lgan shajarada qator sezilarli xatolar mavjud. Topilgan tuzatishlar shajarani ilmiy jixatdan chuqur o'rganishni maqsad qilganlar uchun juda ahamiyatli ekanligini hisobga olib, ma'ruzaning yozma matnida ilovada to'liq keltirishni lozim topdik. G'. Zafariyning fakaq ikki maqolasini o'rganib biz qator xulosalarga keldik.

G'.Zafariy adolatli va ziyoli inson sifatida tarixiy manbalar, xaqqoniy dalillar asosida, faktlarga suyanib, xolisona o'rganish kerakligini juda tug'ri his etgan va amalda qo'llagan.

Bu soxa bo'yicha aniq ma'lumotlar qolmaganligi uchun va asrlar mobaynida o'zga madaniyatlar ta'sirida o'zgarib kelgan o'zbek musiqasining izlarini boshqa yurtlarda yashovchi turkistonlik shoirlar ijodidan topish mumkinligini aytib utadi va o'zi shunga amal qiladi.

Uning maqolalariga ilmiylik xos bo'lib, ular asosan isbotlangan dalillarga suyanib yozilgan. Vaqt kursatdiki, o'zbek klassik musiqasini o'rganish borasida G'.Zafariy tug'ri xulosalar qilgan.

Afsuski, bu kamtarin, zukko musiqashunos olimga barcha ilmiy tajribalarini jamlab kitob shakliga keltirish uchun na imkoniyat va na umr yetgan.

G'.Zafariyning musiqashunoslik ijodini o'rganish XX asr musiqa tarixini to'la va xaqqoniy yoritishga, shu bilan birga maqom san'ati sirlarini anglab yetishga ko'mak beradi, deb uylaymiz.

Muhim tuzatish

«O'rtoq Zafariyning «O'zbek musiqasi tug'risida» maqolasiga oid 42-saxifadagi jadvalda quyidagi xatolar ketgan: Shajaraning o'ng tomonidagi Ashur Ali Mahramdan nuqtali chiziq bilan tushgan kundalang turgan qator kataklarda kursatilgan birinchi katak yanglish — Fozil Chuloq, 2-si Xoji Abdulaziz bo'lib yozilib qolgan. Shuni birinchisini **Xoji** Abdulaziz, 2-sini Xoji Rahim qul deb uqilsin.

Chap tomondan shu qatordagi kundalang kataklarga chiziq o'qlar chapdan o'ngga otilgan, buni ungdan chapga deb hisoblansin.

Shajarada Xudoy Berdi ustoz bilan Ashur Ali Mahram o'rtasidagi tudalar orasida Ortiq Hofizdan chiziq o'q Ota Xujaga tushgan, shuni Usta Majidga deb hisoblansin.

Xudoy Berdi ustozdan chiqqan shogirdlarni ungdan chapdan xisoblab 2-sidan chiqqan shogirdlar; yuqoridan pastga birinchisi Madali Hoji bo'lmay Karimbek **Xoji**, 2-si Jo'ra Xon bo'lmay Vali Xon To'ra, deb Xisoblansin. *Idora**.

17-Mavzu: Respublika musiqa san'atining rivojlanishiga hissa qo'shgan san'atkorlar

Viktor Aleksandrovich Uspenskiy — kompozitor, musiqa etnografi, pedagog, jamoat arbobi, Turkmaniston (1929) va O'zbekiston (1937) xalq artisti, professor (1934), san'atshunoslik fanlari doktori (1943).

V.A.Uspenskiy 1879 yil 31 avgustda Kalugada davlat xizmatchisi oilasida tug'ildi. Ko'p utmay ularning oilasi Urta Osiyoga, Ush shaxriga (Qirg'iziston) kuchib utadi, V.A.Uspenskiyning bolalik davri shu yerda utadi. Otasi uni bolalik chog'idan skripka cholg'usida chalishga urgatdi va unda musiqaga nisbatan muxabbat xissini uyg'otdi. Orenburg kadetlar korpusida o'qish yillari (bu chor Rossiyasidagi sara ta'lim tizimi hisoblangan) Uspenskiy musiqa bilan shug'ullanishni davom ettirdi. Bu yerda u o'qishdan bush vaqtlarida royal, damli cholg'ular orkestrida gelikon, torli cholg'ular orkestrida kontrabas chalardi. 1898 yilda, kadetlar korpusidagi o'qishni tugatgandan so'ng, Uspenskiy Yelisavetgrad yunkerlar bilim yurtiga o'qishga kiradi. Mazkur bilim yurtini tugatib, u zobit sifatida Kavkazda (Leninakan shahri, 1900-1904) xizmat qiladi. 1905 **yili** Germaniyada bo'lgan kezlari bir yil davomida Leypsig konservatoriyasining erkin

tinglovchi talabasi bo'lgan. Uspenskiyni hech qachon musiqani professional darajada o'rganish istagi tark etmagan.

1908 yilda V.A.Uspenskiy Peterburg konservatoriyasiga kompozisiya buyicha A.K.Lyadov sinfiga o'qishga kiradi. Bir vaktning o'zida arfa sinfida professor Ye.A.Valter-Kyuneda o'qiydi. Lekin Peterburgning nam va zax obxavosi qattiq shamollash va o'pkasining kasallanishiga sabab bo'ladi. 1910 yilda Uspenskiy davolanish uchun Davos (Shveysariya)ga junab ketadi va bir oz vaqt o'tgach, Peterburgga qaytib, konservatoriyadagi o'qishini endi faqat kompozisiya buyicha, davom ettiradi. A.K.Lyadovning kompozisiya sinfi (u o'z navbatida N.A.Rimskiy-Korsakovda o'qigan edi) V.A.Uspenskiyning kelajakdagi pedagogik faoliyati uchun mustahkam asos vazifasini o'tadi. A.K.Lyadovning kompozisiya sinfini, shuningdek, B.V.Asafyev, M.F.Gnesin, N.Ya.Myaskovskiy, S.S.Prokofyev, V.M.Belyayev va boshqalar ham o'qib tugatgan edilar. V.A.Uspenskiy konservatoriyani 1913 yilda tugatdi va «erkin ijodkor» unvoniga ega bo'ldi. Muntazam armiya zobiti sifatida 1914—1917 yillarda V.A.Uspenskiy birinchi jahon urushida qatnashadi.

1917 yilda Petrograd konservatoriyasi badiiy kengashining qarori bilan uning rektori A.K.Glazunov boshchiligida V.A.Uspenskiy «mahalliy xalq qo'shiqlari va xalq musiqa san'atini o'rganish uchun Kavkaz va Turkiston shahar va qishloqlariga» junatildi (1917 yil 20 sentyabrdagi xizmat safari guvoxnomasidan kuchirma). Shu tarzda endi Uspenskiy uchun o'z xayotini umrining oxirigacha uspirinlik davri o'tgan joylar bilan bog'lagan musiqa etnografi, pedagog, kompozitor sifatidagi yangi, kup qirrali va samarali faoliyati boshlandi.

O'zbekistonda V.A.Uspenskiy Toshkentdagi xalq konservatoriyasining tashkilotchilaridan biri bo'ldi (1918). Uning o'zi bu yerda nazariy fanlardan dars berdi. 1920 yilda u Maorif xalq komissarligi qoshida musiqiy-etnografik bo'lim tashkil etishda faol ishtirok etadi. O'zbek xalq qo'shiqlari, kuylarini yozib ola boshlaydi, xalq konservatoriyasida folklor xonasini tashkil etadi va Toshkentda turkum etnografik konsertlar o'tkazishda tashabbus ko'rsatadi.

1923 yilda Uspenskiy Fitratning taklifiga kura Buxorodagi Sharq musiqa maktabida ishlaydi. Bu yerda tanburchi Ota G'iyos va xofiz Ota Jaloldan tarixda birinchi marta Shashmaqomning nota yozuvini amalga oshiradi («Oltita musiqiy poema (maqomlar)» A .Fitrat va N.N.Mironov tahriri ostida. Buxoro, 1924).

Etnografiyaga oid ishlardan tashqari Uspenskiy O'zbekistonda birinchi marta xalq kuylarini garmoniyalashtirdi, bu kuylar simfonik orkestr ijrosida konsert sahnasidan jarangladi («Urta Osiyo xalqlarining to'rtta kuyi», 1934). 1928-1934 yillar mobaynida Uspenskiy Toshkent musiqa texnikumida dars berdi, 1934 yildan hayotining oxirigacha Oliy musiqa maktabining professori lavozimida

ishladi, bu maktab 1936 yilda Toshkent konservatoriyasiga aylantirildi. 1932 yildan boshlab bir vaqtning o'zida Uspenskiy San'atshunoslik ilmiy-tekshirish instituti musiqa-folklor kabinetida ilmiy xodimi sifatida ishlaydi.

V.A.Uspenskiy kompozitorlik ijodida xalq qo'shiq va kuylarini qayta ishlash masalasiga doim o'ta ehtiyotkorlik va e'tibor bilan yondashardi. U xalq merosi, oxanglarini buzmasdan, folklor namunalaridan o'z asarlarida foydalanishga harakat qildi. Shu tarzda qayta ishlangan qator xalq qo'shiq, kuylari hamda ovoz, xor, fortepiano va simfonik orkestr uchun original asarlar paydo bo'ldi.

1934 yilda Uspenskiy tomonidan «Farhod va Shirin» musiqali dramasi yaratildi (A.Navoiy dostoni asosida), unda u O'zbekistonda birinchilardan bo'lib kichik simfonik orkestr va vokal ansambllaridan foydalandi (1936 yilda ikkinchi tahrirdagi varianti va 1937 yilda G.Mushel bilan hamkorlikda opera yaratildi). Simfonik orkestr uchun «Urta Osiyo xalqlarining to'rt kuyi» (1934), «O'zbekcha poema-rapsodiya» (1944), «Turkmancha kaprichcho» (1945), Alisher Navoiy xotirasiga «Lirik poema» (o'zbek xalq cholg'ulari va yakkaxon xonandalar bilan, 1947); fortepiano uchun «Novella» (1947) va b.; bolalar dramatik pyesalari — Sh.Sa'dullaning «Yoriltosh» (1943, Yosh tomoshabinlar teatri, Toshkent), X-Olimjonning «Muqanna» (G.Mushel bilan hamkorlikda, 1943, Xamza nomidagi o'zbek dramatik teatri, Toshkent)ga musiqa va boshqa asarlarida V.A.Uspenskiy o'zbek xalq musiqasi, uning ohanglaridan juda tabiiy ravishda foydalandi, ularni polifonik va garmonik vositalar bilan mohirona uyg'unlashtirdi, bu bilan o'zbek ko'p ovoqli musiqasini boyitdi va uning rivojlanishi sari yo'l ochib berdi.

O'zining musiqiy-etnografik ishi buyicha V.A.Uspenskiy San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti bilan, ayniqsa 1932 yilda institut Samarqanddan Toshkentga kuchib kelgan vaqtdan boshlab, yaqindan aloqada bo'ldi. Tadqiqot ishlaridan tashqari, usha yillarda institut shuningdek ta'lim muassasasi vazifasini ham bajarar edi. Unda T.Sodiqov, M.Burxonov, M.Ashrafiy, M.Leviyev va boshqa bulajak atoqli kompozitorlar tahsil olganlar. Institutda o'zbek musiqasidan Ota Jalol Nosirov, Domla Xalim Ibodov, Abduraxmon Umarov, Abduqodir Ismoilov, Axmadjon Umurzoqov, Matyusuf Xarratov va boshqa ajoyib sozanda va xofizlar dars berishardi. Institut direktori N.N.Mironov bilan V.A.Uspenskiy 1922 yildan 1928 yilgacha birgalikda Toshkent, Buxoro va Samarqand viloyatlarining turli tumanlarida musiqiy folklor namunalarini tuplash buyicha ekspedisiya uyushtirdilar. V.A.Uspenskiy, shuningdek, yirik musiqashunos V.M.Belyayev bilan yaqindan hamkorlik qiladi, uning ana shu ishlaridan biri — «**O'zbekiston** musiqa cholg'ulari» 1933 yilda chop etildi. San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining V.A.Uspenskiy rahbarlik qilgan musiqa-folklor bo'limida uning eng yaqin yordamchilari bo'lgan Ye.Ye.Romanovskaya va I.A.Akbarov musiqa

folklorini to'plash buyicha utkazilgan kuplab ekspedisiyalarda **xam** u bilan birga bo'ldilar.

V.A.Uspenskiyning musiqa materialini nota yozuviga aniq va puxta tushira olishdagi nozik eshitish va ajoyib qobiliyati unga o'zbek musiqasining yuzlab namunalarini saqlab qolish imkoniyatini berdi. Uning musiqa folklori yozuvlari «Oltita musiqiy poema (maqom) (M.- Buxoro, 1924)», «Turkmancha musiqa» (V.M.Belyayev bilan hamkorlikda, M., 1928, Ashx., 1979), A.Navoiy matniga musiqa» (1940), «**O'zbek** vokal musiqasi» (1950) kabi tuplamlarda chop etilgan. Shuningdek, V.A.Uspenskiy tomonidan xorazm tabulaturasi, tanbur notasiyasi (nota chizig') yozib olingan va taqdim etilgan, ushbu ish kuplab tadqiqotchilar tomonidan, jumladan uning shogirdi Ilyos Akbarovning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Yuqorida aytib utilganidek, Sankt-Peterburg konservatoriyasi, jumladan o'z navbatida N.A.Rimskiy-Korsakov A.K.Lyadov kabi yirik vakillari timsolidagi ta'lim **tizimi** V.A.Uspenskiy pedagogik faoliyatining asosini tashkil qilgan. **O'zbekiston** musiqa bilim yurtida V.A.Uspenskiy qator musiqiy-nazariy fanlardan, garmoniyadan dars berdi, o'z o'quvchilarida xalq ijodiyotiga nisbatan qiziqish va muhabbat uyg'otdi. Ushbu fanlar buyicha undan saboq olgan kup sonli o'quvchilari orasida Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasida Yunus Rajabiy (1919- 1923), Toshkent konservatoriyasida Ilyos Akbarov (1936-1941) **uning maktabining** eng yorqin vakillari hisoblangan. Ko'rinib turibdiki, ushbu musiqachilar ijodida o'zbek xalq musiqasini ijro etish, o'rganish va notaga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilyos Akbarov keyinchalik V.A.Uspenskiyning musiqiy-etnografik faoliyatida **unga** birinchi yordamchi bo'ldi.

Musiqa pedagogikasida o'qitish maqsadida V.A.Uspenskiy tomonidan 1930 yillarda ikki va to'rt qo'l uchun maqom va xalq musiqasi asosida uncha katta bo'lmagan fortepiano asarlari tuplami tayyorlandi. Ushbu fortepiano pyesalari quyidagilar: «Miskin», «Muhammasi Iroq», «Savti Ajam», «Samoi Dugoh», «Askariya» - ikki qo'lda ijro etish uchun; boshqa to'plamdagi «Ufar>>, «Bayonchi», «Naylaram», «Usmoniya», «Rajabiy» - to'rt qo'lda ijro etish uchun.

Musiqa nazariyasi buyicha, musiqa nazariyasining boshlang'ich ma'lumotlari (o'lchov, takt, ularning nomlanishi, notalarning bo'linishi, ularning kalitlardagi nota chiziqlarida joylashuvi, fortepiano klaviaturasi, dutor pardalarida joylashuvi va b.)ni o'zlashtirish uchun V.A.Uspenskiy tomonidan oltita bezakdor uslubiy jadvallar tayyorlangan. Ulardan birini misol tariqasida keltiramiz.

Musiqa ta'limi uchun boshqa uslubiy qo'llanma «Musiqiy domino» ko'rinishidagi qiziqarli uyin edi. U domino ko'rinishidagi alohida tug'ri burchakli kartochka yoki taxtachalardan iborat bo'lib, ularda qo'shiqning **so'z** bilan birga ikki takti yozilgan bo'ladi. Uyin ishtirokchilarining vazifasi ulardan yaxlit qo'shiqni tug'ri ketma- ketlikda tuzib chiqishdan iborat.

Taniqli musiqa arbobi V.A.Uspenskiyning butun hayoti va ijodi o'zbek musiqasini rivojlantirish, musiqa folklorini tuplash va pedagogik faoliyatga bag'ishlangan edi. Butun musiqa jamoatchiligi uning 70 yoshini tantanali kutib olishga tayyorgarlik ko'rayotganida – 1949 yil 9 oktyabrda V..A.Uspenskny vafot etdi. Toshkentdagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik liseyiga V.A.Uspenskiy nomi berilgan.

YUNUS RAJABIY

(1897-1976)

Yunus Rajabiy — respublika musiqa san'atini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan bastakor, sozanda (nay, dutor), xofiz, musiqa folklori to'plovchi, xalq ansambllari tashkilotchisi va rahbari, O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1939), O'zbekiston xalq artisti (1953), Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekiston FA akademigi (1966).

Yunus Rajabiy 1897 yil 5 yanvarda Toshkentning Beshyog'och dahasida bog'bon va qassob Rajab Sarimsoqov oilasida tug'ildi. 7 yoshidan boshlab eski usul maktabida o'qishni boshladi va 1910 yilda uni tugatdi. Keyin 3 yil davomida madrasada o'qidi. Bu yerda u o'zbek poeti ijodiyoti namunalarini katta qiziqish bilan o'rgandi.

Yunus Rajabiyda musiqaga bo'lgan muxabbat juda erta namoyon bo'ldi. O'z esdaliklarida yozishicha, bolaligida musiqaga qiziqishini sezgan Shukur akasi unga dutor sotib olib beradi. „Usha yillarda akam Rizqi Rajabiy mohir tanbur ijrochisi edi. Men asta-sekin u bilan birga turli tadbirlarda chiqa boshladim». Shuningdek, Yunus Rajabiy Mirza Qosim, Mulla Tuychi Toshmuhamedov, Shorahim Shoumarov, Abdusoat Vahobov, Xoji Abdulaziz Rasulov, Domla Halim Ibodovlarni o'zining ustozlari deb hisoblaydi. Ushbu taniqli san'atkorlardan Yunus Rajabiy maqom, xalq qo'shiqlari, ularni chuqur tushunib yetish va mohirona ijro etishga o'rgandi.

Ulardan kuplari Yunus Rajabiyga Turkiston xalq konservatoriyasining xalq cholg'ulari bo'limida o'qigan kezlari (1919— 1923) dars berganlar. Nazariy fanlar buyicha bu yerda u V.A.Uspenskiyda tahsil oldi. Turkiston xalq konservatoriyasi tugatilgandan so'ng, 1923 yildan 1927 yilgacha Yunus Rajabiy yullanma buyicha Samarqandda musiqa o'qituvchisi», keyin esa Samarqand musiqali drama teatrining rahbari bo'lib ishladi. Samarqandda Yunus Rajabiy ustozlari Xoji Abdulazizda ijrochilik mahoratini takomillashtirish ustida ishlashda davom etdi. Turli ijrochilik uslublarini o'zlashtirdi, Shashmaqomni, ustozlari yuksak mahorat bilan ijro etgan «Guluzorim», «Belboqcha», «Bozurgoniy» va boshqa qo'shiqlarni chuqur o'rgandi.

1927 yilda O'zbekiston Radiokomiteti ochilishi bilan Yunus Rajabiy xalq cholg'u ansamblini (keyinchalik xalq cholg'ulari orkestri) tashkil etish uchun Toshkentga taklif qilinadi va unga badiiy raxbar etib tayinlanadi (1927-1942, 1945-1959). 1942-1945 yillarda Yunus Rajabiy Yangiyo'l musiqali drama teatrlarining musiqa rahbari bo'lib ishlaydi. 1959 yilda Yunus Rajabiy radio qoshida maqomchilar ansamblini tashkil qiladi va xayotining ohirigacha unga rahbarlik qiladi.

1939 yilda tashkil etilgan xalq artisti Lutfixonim Sarimsoqova rahbarligida dutorchi qizlar ansambliga turli asarlari i ijro etishda Yu.Rajabiy juda katta uslubiy yordam kursatdi.

Ustozlik va o'quv faoliyati bilan bir qatorda, Yu. Rajabiy o'z bilimlarini doimiy takomillashtirib bordi. 1934 yilda u Toshkent oliy musiqa maktabining tayyorlov kursida, 1940—1941 yillarda esa Moskvada Kompozitorlar uyushmasi qoshidagi bastakorlar kursida o'qidi, bu yerdagi o'qituvchilar uning ayniqsa solfedjio, musiqa diktantlari yozish buyicha yuqori iqtidorga ega ekanligini ta'kidladilar (Ushbu kurslar rahbari V. S. Vinogradov esdaliklariga qarang).

Musiqa asarlarini yaratishda professional kompozitorlar (V.Uspenskiy, G.Mushel, B.Nadejdin, N.Mironov, B.Zeydman, T.Sodiqov, D.Zokirov, B.Brovsin, O. Halimov) bilan hamkorlikda ishlash Yunus Rajabiy uchun katta maktab vazifasini o'tadi.

Yunus Rajabiy ajoyib, ta'sirchan ovozga, nay va dutor cholg'ularida mohirona ijro etish texnikasiga ega edi. U juda katta mahorat bilan «Girya», «Ushshoq», «Kucha bog'i», «Eshvoy», «Kurd», «Qalandariy», «Gulyor-Shaxnoz», «Bayot», «Dugoh Husayniy», «Chorgoh», «Miskin», «Nasrulloiy» va boshqa kuplab ashula, kuylar, maqomlardan parcha va qismlarni yuksak mahorat bilan ijro etardi. Ovozining muloyimligi, tembr buyoqlarini nozik xis etishi unga shu darajada kerakli vokal tembriga erishish imkoniyatini berardiki, u xatto boshqa ijrochilar ovozlari taqlid qila olar edi. Adabiy manbalarda shunday voqea bayon etiladi: radioeshittirishlarining birida Yunus Rajabiy respublikaning taniqli Xofizi Mulla Tuychi Toshmuxamedov o'rniga chiqishiga tug'ri keladi. U buni shunday mahorat bilan bajaradiki, bu almashuvni hech kim sezmaydi, Mulla Tuychining o'zi esa Yunus Rajabiy bu muvaffaqiyatli ijro bilan tabriklaydi.

«Subhidam», «Yolg'iz», «Sayqal», «Fig'on», «Oraz», «Begi Sulton» va boshqa xalq-professional yunalishidagi yirik qo'shiqlarni tiklash, qayta ishlash va ijro etish Yunus Rajabiy ijodiga mansub. Yunus Rajabiy O'zbekistonda birinchilardan bo'lib xalq qo'shiqlari asosida «Farhod va Shirin» (Xurshid, 1922—25, Sh.Shoumarov bilan hamkorlikda), «Layli va Majnun» (Xurshid, 1926), «Rustam» (U.Ismoilov, 1933), «Avaz» (A.Xidoyatov, 1935), «Xolisxon» (Xamza, 1940) va boshqa spektakllarga musiqalar yaratdi. Professional kompozitorlar bilan

hammualliflikda «Qasos» (Uyg'un, 1941, B.Nadejdin bilan hamkorlikda), «Qo'chqor Turdiyev» (S.Abdulla, Chustiy, 1942, N.Mironov bilan hamkorlikda), «Muqanna» (H.Olimjon, 1943, G.Mushel bilan hamkorlikda), «Nodira» (S. Qosimov, Ya.Mamatxonov, 1942—43, O.Halimov bilan hamkorlikda), «O'g'il uylantirish» (H.G'ulom, 1964, B.Zeydman bilan hamkorlikda), «Navoiy Astrobodda» (I.Maxsumov, 1968, Sayfi Jalil bilan hamkorlikda) kabi qator musiqali dramalar yaratdi. Kompozitorlar B.Zeydman, D.Zokirov va T.Sodiqov bilan birgalikda Yunus Rajabiy «Zaynab va Omon» (1958) operasining yaratilishida ishtirok etdi. Mashhur «Fabrika yallasi», «Bizning davron», «Mirzacho'l tuyi», «O'zbekiston», «Yangrasin gulyor», «Dugonalarga», «Qadah», «Koshki», «Gul sochar», «Judo», «Ra'nolanmasun», «Chapandoz», «Kuygay» qo'shiqlari va «Uyin bayoti», «Uyin dugohi», «Paxta» va boshqa raqs kuylari Yunus Rajabiy qalamiga mansub.

Xalq musiqasini chuqur bilish, amaliy faoliyatdagi katta tajriba, musiqiy tovushlarni farqlash, ajoyib eslab qolish qobiliyatlari Yu.Rajabiyga xalq, xalq-professional va bastakorlik (Hamza, T.Jalilov, K.Jabborov, N. Hasanov, S.Kalonov, F.Sodiqov, M.Mirzayev va b.) musiqa ijodiyoti namunalarini nota va audio yozuvlari orqali bizgacha saqlash imkoniyatini berdi. 1939 yildayoq Ye.Romanovskaya va I.Akbarovlar tomonidan tuzilgan «O'zbek xalq qo'shiqlari» tuplamiga xalq musiqa ijodiyotining uning o'zi notaga tushirgan 29 ta namunasi kiritilgan edi. 1955-1959 yillarda Yunus Rajabiy «O'zbek xalq musiqasi»ning 5 ta jildini (muharrir I.Akbarov), 1966-1975 yillarda «Shashmaqom»ning 6 ta jildini (muharrir F.Karomatov) tayyorlashda monumental ishni amalga oshirdi, 1970 yillarda «Shashmaqom» tuliq audio yozuvining bir necha adadi chiqarildi. Ushbu tuplamlarning barchasi buyuk iste'dod va ulkan mehnat natijasi bo'lib, ular musiqa san'ati, fani, shuningdek musiqa pedagogikasida bebaho qimmatga ega. Mazkur tuplamlar asosida musiqachilarning kuplab avlodlari ta'lim olib kelmoqdalar. Yunus Rajabiyning folklorshunoslik va ilmiy ijodi haqida, u o'z xajmi va ahamiyati buyicha bir butun institut faoliyatiga teng keladigan darajada ishlarni amalga oshirganligi aytiladi. Yunus Rajabiyni o'zbek musiqa san'atining Alisher Navoiysi deb atashadi. Buyuk o'zbek san'atkorlari T.Sodiqov, D.Zokirov, D.Soatqulov, F.Sodiqov, N.Xasanov, K.Jabborov, S.Kalonov, K.Mo'minov, O.Imomxujayev, O.Alimahsumov, T.Alimatov, B .Davidova, K.Ismoilova va boshqalar uni o'zlarining ustozlari deb hisoblashadi.

Yunus Rajabiy tomonidan yaratilgan maktab va uning noyob ijodiy faoliyati o'zbek milliy musiqa san'ati rivojida mustahkam poydevor bo'lib hizmat qiladi.

O'zbekiston maqomchilar ansambli, Jizzax musiqali va komediya teatri, pedagogik kollej, kucha, metro bekati, Toshkentdagi uy-muzey Yunus Rajabiy nomi bilan ataladi.

Yunus Rajabiy xayoti va ijodi haqida hujjatli filmlar yaratilgan (1967,1990,2001,2007), «Rajabiyxonlik» ilmiy-amaliy konferensiyalari o'tkaziladi, 2001 yilda Yunus Rajabiy madaniy markazi tashkil qilindi, u haqda quyidagi kitoblar chop etilgan: Axmedov M., Yunus Rajabiy, 2- nashri, T., 1980; Akbarov I. Yunus Rajabiy, M., 1982; Rajabiyxonlik, T., 1993,1994 va boshqalar.

**BORIS BORISOVICH
NADEJDIN
(1905-1961)**

Boris Borisovich Nadejdin — kompozitor, pedagog, O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1950), professor, birinchi o'zbek kompozitorlarining ustози.

B.B.Nadejdin 1905 yil 4 mayda Smolensk shahrida tug'ildi. Olti yoshida u oilasi bilan Yaroslavlga kuchib utadi, bu yerda uning otasi Zemskiy Uprava (Viloyat Boshqarmasi)da xalq ta'limi bo'limi mudiri etib tayinlanadi. B.Nadejdining musiqaga bo'lgan muhabbati erta namoyon bo'ldi. U qiziqish bilan, uzoq vaqt musiqa tinglardi, dumbirada, gitarada, royalda tanish kuylarni chala olardi. 11 yoshidan boshlab Moskva konservatoriyasining A.N.Skryabin sinfini medal bilan tugatgan, (ajoyib pianinochi va pedagog Anna Vasilyevna Kucherenkoning xususiy musiqa maktabida katta qiziqish bilan o'qiy boshladi. Biroq, u musiqani yaxshi kurishiga qaramasdan, otasi uning injener bo'lishini istardi. Shu sababli bir necha texnika o'quv yurtlari: real bilim yurtining ikki sinfi, 1920—1922 yillarda — kasab-hunar maktabi va 1922 va 1925 yillarda Yaroslavl mexanika texnikumida o'qishiga tug'ri keldi. Lekin texnikumning oxirgi kursida otasiga injenerlik kasbi uni qiziqtirmasligi va u musiqachi bo'lishga qat'iy qaror qilganligini aytadi. Bu ular urtasidagi munosabatning buzilishiga olib keladi. U oilasidan alohida, dustining uyida yashaydi. Shu yilning o'zida B. Nadejdin Yaroslavl musiqa texnikumining fortepiano bo'limiga o'qishga kiradi. U tirikchilik o'tkazish uchun musiqadan dars berish va kinoteatrlarda pianino chalish bilan mablag' ishlab topardi.

1929 yilda B.Nadejdining uzoq kutgan orzusi ushaladi, u Gnesinlar nomidaga Moskva musiqa texnikumiga (hozirga Rossiya musiqa akademiyasi. Gnesinlar nomidaga oliy maktab) o'qishga kiradi. M.F.Gnesin sinfida shug'ullanadi. Texnikumda Moskva konservatoriyasining G.I.Litinskiy, I.V.Sposobin, V.Ya.Shebalin, D.R.Rogal-Leviskiy, M.V.Ivanov-Boreskiy kabi ilg'or o'qituvchilari dars berardilar. Musiqashunos N.S.Yanov- Yanovskaya «B.B.Nadejdin» maqolasida shunday yozadi: «Shu yillarda Nadejdinda Skryabinga

nisbatan katta qiziqish mavjud edi. Fransuz impressionistlari, pguningdek Grig, Mayaskovskiy, Prokofyevlar uning sevimli kompozitorlariga aylandi.

Moskvaning musiqiy hayotida ham ko'plab qiziqarli voqealar ruy berardi: N.S.Golovanov, I.Suk, yosh Shostakovich, endigina chet eldan qaytib kelgan Prokofyevning chiqishlari yosh Nadejdinning dunyoqarashini kengaytirar, faol ijodiy rivojlanishi uchun yordam berardi». Shu yillarda u o'zining torli kvarteti, skripka va fortepiano uchun poema, shuningdek fortepiano sonatasi, fuga va boshqa asarlarini yaratadi.

1932 yilda B.B.Nadejdin Moskva konservatoriyasiga, N.A.Rimskiy-Korsakov o'quvchilari M.M.Ippolitov-Ivanovh.S.Arenskiy, S.I.Taneyev- larda o'qigan va R.M.Glierning o'quvchisi G.I.Litinskiy kompozisiya sinfiga o'qishga kiradi (S.I.Taneyev esa N.G.Rubinshteyn va P.I.Chaykovskiylarning o'quvchisi bo'lgan). Konservatoriyada B.B.Nadejdin skripka va fortepiano uchun syuita, torli orkestr uchun fuga, damli orkestri uchun syuita, simfoniya va boshqa asarlar yozdi. Pedagoglik ishiga moyil bo'lganligi sababli, u o'qish bilan bir vaqtda konservatoriya qoshidagi Tatar studiyasida musiqa shakllari tahlili va musiqa adabiyoti fanlaridan dars beradi. Shu yillarning o'zida u otasi bilan yarashib, yaqinlashadi.

Konservatoriyani tugatgandan so'ng, 1937 yilda B.B.Nadejdin yo'llanma buyicha Toshkent konservatoriyasiga ishga junab ketadi, bu yerda endigina kompozitorlik sinflari tashkil etilayotgan edi. Bu haqda eslab, B.B.Nadejdin shunday degandi: «Buxoro musiqa bilim yurtidan kup, 50 ga yaqin talabalarni olib kelishdi (bu men kelganimning to'rtinchi kuni edi), men eng yaxshilarini tanlab oldim. G'ulom Hamroyev, Sulton Jurayev, Taxalovlar boshqalardan ajralib turishardi. 25 kishidan iborat (yuqori kurslardagi besh nafar talabalar bilan birga) sinf paydo bo'ldi. Barcha buxoroliklar notani bilishar, o'z kuylarini yozish qo'llaridan kelardi. Ammo boshqa hech narsa bilishmas edi. Avvaliga men uchtovushlik qanday tuzilishi va u kuy bilan qanday qo'shilishini kursatib berdim. Takt bir garmoniya bilan birlashtirilar va u tor joylashuvda berilardi. 2—3 darsdan keyin garmoniyani qanday qilib umumiy ton orqali bog'lashni tushuntirdim. Ish shu tarzda yurishib ketdi. Bir-ikki yil o'tgandan so'ng biz talabalar pyesalaridan tashkil topgan tuplam tayyorladik, u 1939 yilda chop etildi». Iste'dodli va o'z ishiga sodiq kompozitor, pedagog B.B.Nadejdinning ijodiy va o'quv faoliyati shunday boshlaydi. Toshkent konservatoriyasida B.B.Nadejdinning kompozisiya sinfini tugatganlar: I.Akbarov, V.Meyen, Pak Yendin, B.Giyenko, G.Sobitov, I.Hamroyev, R.Qodirov, S.Boboyev, Yu.Nikolayev, X.Izomov, A.Muxamedov, SVarelas, V.Zudov, X-Raximov, A.Berlin, S.Xayitboyev, F.Yanov-Yanovskiy, M.Yusupov, A.Malaxov, Ye.Shvars, T. Qurbonov va boshqalar.

B.B.Nadejdin o'zining barcha o'quvchilari bilan hatto konservatoriyaning tugatganlaridan keyin ham yaqin, ishonchli, dustona munosabatlarni saqlagan. Kupincha uning konservatoriya yaqinidagi, Oloy bozori ortida joylashgan xonadonining mehmondust hovlisida yig'ilishardi. Barcha qiziqtirgan masalalar buyicha undan maslaxat olardilar. Uning obro'si, professional darajasi va insoniylik sifatleri talabalar uchun doimo namuna bo'lgan. Ta'lim jarayonidagi tashqi erkinlik, dustona xususiyatga qaramasdan, B.Nadejdin qo'pollik, pastkashlik, didsizlik, noprofessionallikka nisbatan qat'iy qarshi turardi. O'qitish uslubiyotida u tomonidan talabalarga quyidagi pedagogik talablar tuzib chiqilgan edi:

«Kompozitorni shunday tarbiyalash kerakki, toki u zamonaviy tinglovchi talablariga yaqin bo'lsin.

I. Talabaga umumiy qoida va talablar:

- 1) Xalq, melodikasi bilan aloqadorlik. Tushunarliklik, ifodaviylik, kelajakka ishonch, mavzu tilining yorqinligi.
- 2) Garmonik tilning melodika bilan tabiiy uyg'unligi (murakkabliklar: o'zbek musiqasidagi ladlar, Yevropa musiqaga xos qonuniyatlarning buzilishi).
- 3) Cholg'u fakturasi.

II. Sinfdagi ish. Quyidagilarni hisobga olgan holda reja tuzish:

- 1) Dasturiy talablar.
- 2) Talaba nima qila olishi mumkin (real imkoniyatlar).
- 3) O'z kamchiliklarini bartaraf etish uchun talaba nima qilishi kerak.

III. Adabiyot:

- 1) Rus va g'arbiy Yevropa musiqasini o'rganish, texnika va an'analarni o'zlashtirish.
- 2) Tinglab qabul qilish kunikmalari (darsliklar, konsertlar, mustaqil ijro etish, turt qo'llik chalish).

IV. Umumiy fortepiano:

- 1) Cholg'uni o'zlashtirish.
- 2) Notani varaqdan o'qib chalish.
- 3) Turli uslublar bilan tanishish.

V. Konsertlar, muhokama qilish».

Haqiqiy pedagog sifatida B.B.Nadejdinni nafaqat konservatoriya talabalari, balki bolalar rivojlanishining, ularni musiqiy tarbiyalashning dastlabki davrlaridan boshlab barcha bosqichlaridagi musiqa ta'limi uylantirardi. U kichkintoylar va ulardan kattaroq yoshdagi bolalar uchun «Bahor», «Boychechak», «Mening xo'rozim», «Tilla qo'ng'iz», «Qaldirg'och», «Bizning yoshligimiz» kabi qo'shiqlar yozdi, «Bolalar qo'shiqlari» (1950), «Yoshlik qo'shig'i» (1954), «Bolalar ashulasi» (1955), qo'shiqlar to'plamlari, «Yosh bolalar uchun qo'shiqlar»

mualliflik to'plamini (1940), fortepiano uchun pyesa va albomlar yaratdi, Yosh tomoshabinlar teatrining «Qahramon» pyesasiga musiqa va bolalar uchun eng yaxshi asarlardan biri bo'lgan «Bolalarga» simfonik syuitasini yozdi. B.B.Nadejdin bolalar bilan ishlashni yaxshi ko'rardi, uni bolalarning musiqiy tarbiyasi masalalari tashvishga solardi. 1938— 1939 yillardayoq u Toshkent pionerlar saroyida musiqa asari yozish buyicha seminar tashkil etgandi. 1941-1945 yillarda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida dars berdi. 1956 yildan boshlab esa B.B.Nadejdin Uspenskiy nomidagi musiqa maktabida musiqiy asarni bastalash sinfini ochdi. Muvaffaqiyatni kup kutishga tug'ri kelmadi, bir-ikki yil utgandan so'ng yosh kompozitorlar o'zbek radiosi va televideniya'sida chiqish **qila** boshladilar.

B. B. Nadejdining o'zbek musiqasini o'zlashtirishida taniqli o'zbek bastakorlari T.Jalilov, Yu.Rajabiy va boshqalar bilan hamkorlikdagi ijodiy ishi samarali bo'ldi. T.Jalilov bilan birgalikda «Asrlar» (1943), «Alpomish» (1949); Yu.Rajabiy bilan «Qasos» (1941), «Farhod va Shirin» (1944) musiqali dramalarini, «Paxta» simfonik xoreografik manzara asarini (1951 yilda Moskvada o'tkazilgan o'zbek san'ati va adabiyoti dekadasida muvaffaqiyat bilan ijro etilgan) yaratdi.

B.B.Nadejdinning «Yakkaxon, xor va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun sakkizta xalq qo'shiqlari», simfonik orkestr uchun «Simfonietta», «Vals», «Ikkita pyesa», «Bolalarga» kabi asarlari tinglovchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Bu asarlarning so'nggilari o'z ishiga sodiq pedagog, kompozitor xayotining oxirida yozilgan edi. B. B. Nadejdin 1961 yil 7 martda Toshkentda vafot etdi.

O'zbekiston kompozitorlar uyushmasida o'zining halolligi, sodiqligi, yuksak professionalizmi, ziyrakligi va ajoyib pedagoglik qobiliyati kabi sifatleri tufayli B.B.Nadejdin Musiqa jamg'armasi raisi (1948—1955) lavozimida ishladi va uzoq vaqt maslahatchi bo'ldi. Toshkentdagi 5-bolalar musiqa maktabi B.B.Nadejdin nomi bilan ataladi.

ILYOS AKBAROV **(1909-2002)**

Ilyos Akbarov — musiqashunos, kompozitor, folklorshunos, pedagog, O'zbekistonda hizmat kursatgan san'at arbobi (1956), professor (1979), O'zbekiston musiqa san'ati, musiqa ta'limi va fani rivojiga katta hissa qo'shgan.

Ilyos Akbarov 1909 yil 5 mayda Toshkentda hunarmand usta oilasida tug'ilgan. U avval jadidchilik xarakati rahbarlaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov ochgan «Muxtoriyat» maktabida o'qidi. Keyin pedagogik texnikumda tahsil oldi. 1927 yilda Munavvarqorining tavsiyasiga ko'ra Toshkent musiqa texnikumiga o'qishga kirdi. U yerda Abdusoat Vahobovda dutor sinfida,

Shorahim Shoumarovda tanbur sinfida, nazariya va garmoniyadan u 20-yillardan folklor buyicha birgalikda ish olib borgan vaqtdan bilgan V.A.Uspenskiyda o'qidi. Pedagogika soxasidagi iqtidori va qobiliyati Ilyos Akbarovga 1930 yildan 1942 yilgacha shu musiqa texnikumining o'zida nazariy fanlardan dars berish imkonini berdi. Uni 1932 yilda tugatib, Ilyos Akbarov Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida ilmiy hodim sifatida ishlay boshlaydi, bu yerda u 1943—1948 yillarda direktor lavozimini egalladi. 1934-1940 yillarda «O'zdavnashr»da musiqa bo'limi mudiri lavozimida ishlaydi. 1936 yilda Ilyos Akbarov yangi ochilgan Toshkent davlat konservatoriyasiga birinchi talabalar qatorida o'qishga kiradi. Musiqashunoslik va kompozisiya fakultetida Ilyos Akbarov musiqiy-nazariy fanlar buyicha V.A.Uspenskiy, Yu.A.Fartunatov, V.A.Sukerman, Ya.B.Pekkerlardan ta'lim oladi, kompozisiya buyicha avval G.A.Mushelda, keyin esa B.B.Nadejdinda shug'ullanadi. Ilyos Akbarov konservatoriyaning birinchi bitiruvchilari qatori 1941 yilda tugatadi.

Ilyos Akbarovning V.A.Uspenskiy, Ye.Ye.Romanovskayalar bilan uzoq va sermahsul hamkorligi O'zbekistonda musiqiy folkloristikaning rivojiga asos soldi. Bu ishda Ilyos Akbarovga uning umr yo'ldoshi va hamkasbi, musiqashunos-etnograf Xafiya Muxamedova yaqindan yordam berdi. Ular musiqiy folklor materiallarini tuplash, qayta ishlash buyicha kuplab ekspeditsiyalarda birga bo'ldilar, keyin esa ularni chop ettirdilar.

1931 yilda V.A.Uspenskiy rahbarligida Ye.Ye.Romanovskaya, I.Akbarov va X.Muhamedova Farg'ona vodiysi (Andijon, Ush, Marg'ilon) buylab o'zlarining birinchi musiqiy-etnografik ekspeditsiyalarini uyushtiradilar. 1935 yilda Ye.Romanovskaya bilan hamkorlikda I.Akbarov Xorazm viloyatiga (Urganch, Xiva) ikkinchi musiqiy-etnografik ekspeditsiyaga junab ketadi. Keyin 1937 yilda I.Akbarov Farg'ona vodiysi buylab bir o'zi safar uyushtiradi, unda u xalq musiqa ijodiyoti namunalari yozib oladi. 1939 yilda Ye. Romanovskaya bilan birga I. Akbarov Shohimardonga borib, Hamzaning va Hamza haqidagi qo'shiqlarni yozib oladilar. Ushbu qo'shiqlardan kuplari **o'zbek** kompozitorlari tomonidan **o'zining** original hamda qayta ishlangan asarlarida foydalanilgan. «**Hamza Hakimzoda** Niyoziy. Ovoz va fortepiano uchun qo'shiqlar. T., 1949.» tuplamida chop etilgan. I.Akbarov umr yo'ldoshi va bosh yordamchisi X.Muhamedova **bilan** birga 1946 yilda Andijonga junab ketadi, u yerda uyg'ur qo'shiqlarini tuplaydi va yozib oladi. I. Akbarovning so'nggi musiqiy-etnografik ekspeditsiyalaridan biri 1959-1960 yillarda musiqashunos M.Axmedov bilan **birga** Andijonga uyushtirilgan edi. Ushbu safarlarda xalq **cholg'u** va qo'shiq ijodiyotining yuzlab namunalari magnitofonga yozib olingan. Folklor ishlarida I.Akbarov Xorazm tanbur notasiyasini o'rganish masalalariga katta e'tibor qaratdi.

O'zining uzoq va samarali musiqiy etnografik faoliyati natijasida I. Akbarov O'zbekiston **musiqa** folkloristikasi **buyicha** qator tunlamlarni **nashr** ettirdi **va bu ishlarda** faol ishtirok etdi. «**O'zbek ashulalari**» (X.Muhamedova bilan hamkorlikda, 1934), «Ashularar tuplami (1939), O'zbek **xalq** qo'shiqlari (ikkita tuplam, ulardan biri Ye.Romanovskaya **bilan** hamkorlikda, 1939), «**O'zbekiston** kompozitorlari qayta ishlagan qo'shiqlar» (1949), «Navoiy matnlariga o'zbek xalq qo'shiqlari» (1949), «Doyra usullari» (Usta Olim Komilovdan **yozib** olingan, 1952), «O'zbek xalq musiqasi» (to'qqiz jildlik, 1955—1962, I.Akbarov tahriri ostida. I—V jildlarni Yu.Rajabiy, VI, VII, IX jildlarni M.Yusupov, VIII **jildni** A.Halimovlar tuplaganlar va notaga tushirganlar. Ushbu jildlardagi **kirish** maqolalarining kup qismini I.Akbarov Yu.Kon bilan hamkorlikda yozgan.), «Muqimiy va Furqat ashulalari» (1959), «Xorazm maqomlari» (**1980-1987**) uch jildlik, maxsus muharrir I.Akbarov, M.Yusupov tuplagan va notaga tushirgan.

1943 yildan I.Akbarov Toshkent davlat konservatoriyasida dars bera boshladi, u yerda 1963-1992 yillarda musiqa nazariyasi kafedrasiga mudirlik qildi. 1940 yildan boshlab O'zbekiston kompozitorlar uyushmasi a'zosi, 1955 yilda shu uyushma boshqaruvi a'zosi bo'ldi, 1957 yildan boshlab bir necha bor sobiq SSSR kompozitorlar uyushmasi boshqaruvini a'zoliciga saylandi, shuningdek O'zbekiston kompozitorlar uyushmasi raisi o'rinbosari va musiqa jamg'armasi raisi bo'ldi.

I.Akbarov qator kitob va maqolalar muallifi: «Tuxtasin Jalilov» (M., 1974, T., 1978), «Yunus Rajabiy» (M., 1982), «O'zbekiston kompozitorlari (A. Asinovskaya bilan xammualliflikda, 1959), «O'zbek xalq musiqasi» O'zbekiston musiqa madaniyati masalalari (1961), «Xamza Xakimzoda Niyoziy» / / Xamza qo'shiqlari (1958), «V.A.Uspenskiy. Maqolalar, esdaliklar, maktublar» kitobi tuzuvchisi, kirish so'zi va birinchi maqola muallifi (1980) va boshqalar.

I .Akbarovning musiqa pedagogikasi, uslubiyoti, umumiy musiqa tarbiyasi va bolalarga atalgan musiqa ijodiyotiga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bu sohada uning xizmatlari buyuk. O'zbek kompozitorlari va uslubiyotchilari orasida u birinchilardan bo'lib bolalar uchun musiqa yoza boshladi, qo'shiqlar tuplamlari, uslubiy, o'quv va yordamchi adabiyotlar chop ettirdi. Birinchi o'zbek bolalar teatri tashkil etilayotgan 1930 yillardayoq u o'zbek xalq ertaklaridan «Yoriltosh» spektakliga musiqa yozdi, 1934 yilda X.Muhamedova bilan hamkorlikda bolalar uchun «Oltita ommaviy qo'shiq» deb nomlangan birinchi tuplamni nashr ettirdi. Keyin 1935 yilda V.A.Uspenskiy, Ye.Ye.Romanovskaya va X. Muhamedovalar bilan birga «30 qo'shiq» tuplamini, 1939 yilda I.Akbarov «Maktabgacha yoshdagi bolalar qo'shiqlari» va «Biz kuylaymiz» to'plamlarini nashr ettirdi. Bu tuplamlarga xalq qo'shiqlari, bolalardan yozib olingan qo'shiqlar va bolalar uchun Ilyos Akbarovning bolalar uchun

mualliflik qo'shiqlari kiritilgan edi. Bular O'zbekistonda bolalar uchun fortepiano jurligidag birinchi notali tupamlar bo'ldi. Keyinroq I.Akbarov «Bolalar ashulasi» (1948), «Kichkintoylar musiqasi» (1955), «Quvnoq qo'shiqlar» (1956) kabi yana **bir** nechta qo'shiqlar tupamlarini chiqardi. Ularga, shuningdek, birinchi o'zbek kompozitorlarining bolalar uchun yaratilgan qo'shiqlari kiritildi.

Ilyos Akbarovning «Ayiqcha», «Archa qo'shig'i», «Baxtli bolalar», «Gullola», «Salomat», «Yangi yil», «Qish» va boshqa kuplab qo'shiqlari O'zbekiston kompozitorlarining bolalar uchun qo'shiqlari janrining shakllanishiga asos soldi. Mazkur qo'shiqlar ajoyib obrazlar, shakl, mazmunga ega, oson yodda qoladi va bolalar tomonidan maroq bilan ijro etiladi.

Ilyos Akbarov umumta'lim maktablari uchun 60- va 70- yillarda nashr etilgan «Musiqqa savodi», «Ashula alifbesi», «Ashula darsligi» kabi birinchi musiqqa darsliklari, ularga oid uslubiy tavsiyalar muallifidir, ularning kup qismi T.Xusainov bilan hammualliflikda yozilgan.

I.Akbarovning birinchi darsligi «Nota savodi» (Ye.Romanovskaya bilan hammualliflikda) 1938 yilda chop etilgan. Shundan so'ng uning— «Musiqqa nazariyasi» (S. Pavlyuchenkoning «Teoriya muziki» darsligining I.Akbarov va I.Xamzinlar tomonidan tarjimasini, unga o'zbek, qozoq, qirg'iz va turkman musiqasidan misollar qo'shilgan, 1952), «Musiqqa savodini mustaqil o'rganuvchilar uchun» (1952), «Musiqqa savodi» (1953), «Musiqali topishmoq» (1974) kabi qator darsliklari nashrdan chiqdi. Shuningdek, Ilyos Akbarov o'zbek tilidagi birinchi «Musiqqa lug'ati» (1987, 1997) muallifidir.

1960 yildan 1980 yilgacha I.Akbarov O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika o'quv metodik markazining musiqqa tarbiyasi buyicha kengashiga raislik qildi. U katta ma'rifiy faoliyat olib bordi, ijodiy uchrashuvlar, konsertlarda bevosita ishtirok etdi, O'zbek davlat filarmoniyasida ma'ruzalar bilan chiqishlar qildi. O'zbek musiqqa madaniyati rivojiga qushgan xissasi uchun Ilyos Akbarovga «O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan san'at arbobi» (1956) fahriy unvoni berildi, u «Hurmat belgisi» (1959), «El-yurt xurmati» (2000) ordenlari, medallar va fahriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

Ilyos Akbarov hayoti va ijodi haqida kitob va maqolalar: Musiqqa og'ushida o'tgan *xayot* / To'plovchi va nashirga tayyorlovchi X. Akbarov. T., 2009; Ilyos Akbarovich Akbarov tavalludining 100 yilligiga: Maqolalar tuplami. T., 2009; Kompozitorı O'zbekistana: Biograficheskiye ocherki. T. 1959; Kompozitorı i muzikovedi O'zbekistana. T., 1975; **O'zbekiston** bastakorlari va musiqashunoslari: Ma'lumotnoma. T. 2004; A. Jabborov. Akbarov **Ilyos** Akbarovnch // **O'zbekiston milliy ensiklopediyasi** I-j. T., 2000, 6.171; Qodirov P. F. Musiqqa pedagogikasi: **O'quv qo'llanma**. T., 2009, b. 308-313 (rus).

SHERMAT YORMATOV

(1939)

Shermat Yormatov — xor dirijyori, kompozitor, pedagog, O'zbekiston xalq **artisti** (1996), O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va Ma'rifat markazi rahbarining 1-muovini (1994—1999), Yunus Rajabiy nomidagi musiqa-pedagogika bilim yurtining direktori (1999—2000), bolalar musiqa tarbiyasi rivojiga katta xissa qushgan.

Shermat Yormatov 1939 yil 17 oktyabrda Farg'ona viloyatining Log'on qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. U 1947 yilda maktabga bordi, 1959 yilda **Toshkent** madaniy-okartuv texnikumida o'qiy boshladi, 1962 yilda esa **Toshkent** davlat konservatoriyasining xor dirijyorligi fakultetiga professor V.I.Knyazatov sinfiga o'qishga kirdi. Musiqa yozishga qiziqqan Sh.Yormatov, konservatoriyada o'qish davrida, Pak Yendin kompozisiya sinfiga qatnadi. Konservatoriyada o'qishni tugatib, 1967 yilda **O'zdavteleradio** qoshidagi xor jamoasida ishlay boshladi, bu xorga o'z vaqtida o'zbek xor san'atining yirik namoyandalaridan biri Botir Umidjonov rahbarlik qilgan edi.

Shermat Yormatovning bolalar musiqiy tarbiyasiga bo'lgan muxabbati konservatoriyada o'qib yurgan yillaridayoq namoyon bo'ldi. 1963 yildan boshlab u Toshkentning 99-son umumta'lim maktabida musiqa o'qituvchisi bo'lib ishlay boshladi. Shu yerda u o'zining birinchi ansambli — «Boychechak» bolalar xor studiyasini tashkil qildi. Ushbu studiya negizida 1970 yilda, **hukumatning «O'zbekistonda qo'shiq san'atini rivojlantirish tug'risida»**gi qaroridan so'ng, O'zdavteleradio qoshida u «Bulbulcha» bolalar ashula va raqs ansamblini tashkil qildi. O'z ishini 10—15 nafar bola bilan boshlagan bu ansamblda hozirgi kunda 500 nafarga yaqin bolalar ishtirok etmoqdalar. Uning tarkibida turli yoshdagi bolalardan iborat 9ta guruh bor: kichik xor (3—8 yosh), bolalar xori (9—15 yosh), o'smirlar xori (16—20 yosh), maqom ansambli, folklor ansambli, raqs ansamblari (kichik **guruh** 4—8 yosh, o'rta **guruh** 8—16 yosh), estrada va cholg'u ansamblari.

«Bulbulcha» bolalar ashula va raqs ansambli ko'plab xalqaro tanlovlar sovrindori, yuksak «Gran Pri»lar sohibi, respublikamiz va chet ellarda (Rossiya, Latviya, Estoniya, Yugoslaviya, Kongo, Finlyandiya, Turkiya va b.) o'tkazilgan kuplab konsertlar, festavallar ishtirokchlaridir. Mazkur ansambl yuksak professional darajadagi bolalar musiqa jamoasi hisoblanadi. Uning maktabini hozirgi kunda mashxur bo'lgan **O'zbekiston** xalq **artisti** G'ulomjon **Yoqubov**, **xizmat** kursatgan artistlar Ilxom Farmonov, Dilfuza Raximova, Sevara Nazarxon, Ravshan Solixov, estrada yulduzlari Isroil Saidumarov, Anvar Sanayev, Asliddin Dustov, «Sevinch», «Kamalak», «Tantana» bolalar musiqa jamoalari rahbarlari Saodat Muzaffarova, Nargaza Mirzayeva, Fotima va Zuxra Ziyamuhamedovalar va

tashkil etilganiga deyarli 40 yil bo'lgan mazkur ajoyib jamoada shug'ullangan boshqa qator musiqachi, pedagog, tarbiyachilar o'taganlar. Kup sonli radioeshittirish va teleko'rsatuvlar ushbu ansambl ishtirokida olib boriladi. O'zbek kompozitorlarining kuplab qo'shiqlari aynan-shu jamoada ilk bor ommaviy ijro etilgan.

Shermat Yormatovning bolalar uchun qo'shiq ijodiyoti juda turli- tuman. Ular ichida maktabgacha yoshdagi kichkintoylar uchun oddiy qo'shiqlardan tortib to yirik syuita, kantata, vokal-xoreografik asarlargacha mavjud. «Dadamlarga uxshasam», «Ikki quymang o'qituvchi», «Temir-tersak», «Uynadik hech tuymadik», «O'n beshtamiz besh oldik» (P.Mo'min so'zi), «Barmoqlarim» (M.Muhamedov so'zi), Ayyomlaring muborak», «Norin daryo» (T.Sodiqova so'zi), «Bahor» (Z.Azimova so'zi), «Mehnat qo'shig'i» (M.Zayniddinova so'zi), «Muallim» (Yu.Shomansur so'zi), «Nurli avlod» (H.Rahimov so'zi), «Onajonim» (X.Muhammad so'zi), «Oymomajon rom bo'ldi», «Xo'rozim» (Q.Muhammadiy so'zi), «Sumalak», «G'ildiragim» (T.Baxromov so'zi), «Umidjon nolvon» (R.Shukurov so'zi) va kuplab boshqa qo'shiqlar Sh. Yormatov qalamiga mansub; akapella xori uchun: «Gullola» (T.Sodiqov so'zi), «Dorboz» (T.Bahromov so'zi), «Islom bobo» (M.Raxmon so'zi), «Keldi Navro'z» (A.Isoqov so'zi), «Kuylak» (Mirmuhsin so'zi), «Maysa» (R.Tolipov so'zi), «Ona tuproq», «Salom maktab» (P.Mo'min so'zi), «Ona tilim» (D.Sarimsoqov so'zi), «Oy Vatanim», «Zamonim, o zamonim» (Qambar ota so'zi), «Sog'lom avlod qo'shig'i» (S.Barnoyev so'zi), «Yalpiz» (Yu.Shomansur so'zi), «**Qor** yog'ar» (B. Isroil so'zi), «**Qo'zichoq**» (D.Abdurahmonov so'zi) va b. Sh.Yormatovning bolalar xori uchun qayta ishlagan «Boychechak», «Yoshligim» va boshqa o'zbek xalq qo'shiqlari **juda** mashhur. Kup qismli xor asarlari ichida quyidagilarni alohida ta'kidlab kursatish mumkin: «Assalom, **hayot**» (T.Ilhomov so'zi) 5 qismli kantata, «Chitti gul» (N.Karimov so'zi) va «Bu gulshan soz ekansan» (bolalar xalq qo'shiq va she'rlari asosida) vokal –xoreografik syuitalari.

Shermat Yormatov umumta'lim maktablarining musiqa darsi uchun Ye. Kenzer, D.Omonullayev va boshqa uslubiyotchilar bilan hammualliflikda yozilgan qator darslik va o'quv qo'llanmalar muallifidir. Bu o'quv qo'llanmalari quyidagilar: «Birinchi sinfda musiqa darslari» (1987), «Ikkinchi sinfda musiqa darslari» (1987); darsliklar: 6-sinf uchun «Musiqa» (1977), 7-sinf uchun «Musiqa» (1978), 8-sinf uchun «Musiqa» (1978).

Shermat Yormatovning 30 yildan ortiq vaqt davomida o'zbek radio va televideniyesi orqali olib borayotgan mualliflik eshittirish va kursatuvlari alohida e'tiborga loyiq. Ular ichida «Qo'shig'im, jon qo'shig'im», «Birgalikda kuylaymiz» teleko'rsatuvlari, «Qo'shiq sehri» radioeshittirishlari bor. Bu ko'rsatuv va eshittirishlarining kuylari G'afur **Qodirov**, Fattoh Nazarov, Sobir Boboyev, Doni

Zokirov, Aleksandr Berlin, Abdurahim Muhamedov, Nodim Norxo'jayev, Farhod Alimov, Avaz Mansurov, Dilorom Omonullayeva, Muxammad Otajonov va boshqa ko'plab o'zbek bolalar qo'shiqlari ijodkorlarining hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Mazkur kursatuv va eshittirishlarda Sh.Yormatov musiqaning, so'zning ulug'vor qudrati haqida gapiradi, bolalarga **yangi qo'shiqlar** o'rgatadi. Bu kursatuv va eshittirishlar kuplab musiqa o'qituvchilari, musiqa tarbiyachilariga ularning amaliy ishlarida katta uslubiy yordam bermoqda. Ular shu ko'rsatuv va eshittirishlarni daftarlarga, magnitafonlarga yozib oladilar, keyin undan umumta'lim maktablaridagi, bolalar bog'chalaridagi musiqa darslarida hamda bolalar musiqiy tarbiyasining boshqa shakllarida foydalanadilar.

Bolalar musiqiy tarbiyasida bunday yuqori natijalarga qanday erishish mumkin, degan savolga Sh.Yormatov shunday javob beradi: «asosiy sabab, asosiy sir musiqaning o'zida. Kuy, so'z, tembr, lad, ritm go'zalligi bolalarni o'ziga maftun etadi, ijodga, artistlik san'tiga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi. Keyin, men **hech qachon** bolalarni urushmayman, balki ularni sabr-toqat, diqqat bilan tinglab, **har** biriga mos tarzda, alohida yondashishga harakat qilaman, qolgan barcha ishni musiqaning o'zi, uning ajoyib, buyuk qudrati amalga oshiradi». Bunga qo'shimcha qilib Shermet Yormatovning bolalar musiqiy tarbiyasi sohasidagi kundalik mehnatini, maqsad sari g'ayrat bilan intilishini, kup yillik ish tajribasini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Uning shaxsiy sifatlari, bolalarga nisbatan muhabbat — bu ajoyib musiqachi, pedagog muvaffaqiyatining garovi bo'lib xizmat qiladi.

1994 yilda bolalar musiqiy tarbiyasi rivojiga qo'shgan katta hissasi uchun Sh. Yormatov «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan mukofotlandi.

Tashabbus ko'rsatib mehnat qilish hamda yuqori professionalizm musiqa pedagogikasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Musiqa madaniyatining rivojlanishi, insonning musiqa olamiga quygan ilk qadamlari, barkamol shaxs rivojida uning musiqiy iqtidorini takomillashtirish aynan Shermet Yormatov kabi o'z ishiga sodiq pedagog va musiqachilardan boshlanadi.

Shermet Yormatov hayoti va ijodi haqida adabiyotlar: Yormatov Shermet// O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-j. T., 2002, b. 485; Shermet Yormatov // Jabborov A.X., O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. T., "2004, 6.100-102; Yormatov Shermet Yormatovich // Shamaxmudova B.V. Xor lug'ati. T., 2009, b. 41-43, 198-199; Shermet Yormatov // / Qodirov P.F. Musiqa pedagogikasi. T., 2009. b. 314-323 (rus. tilida); T., 2011, 6.144-148 (*o'zb.* tilida)

18-mavzu: O'zbekistonda musiqa ta'limi dargohlarining ochilishi musiqa ta'limi va pedagogikasi konsepsiyasi

REJA:

- Xalq konservatoriyalarining tashkil bo'lishi**
- Buxoroda sharq musiqa maktabi**
- Ilmiy-tadqiqot instituti**
- Musiqa maktablari**
- Birinchi o'zbek konsert guruhlari**
- O'zbek konsert guruh Parijda**
- Konsert dasturlari**

Tayanch iboralar: Xalq konservatoriyalari. Musiqiy san'at sirlari. Samarqand musiqa maktabi.

1918 yilda Turkistonda birinchilar qatorida xalq konservatoriyasi-musiqa o'quv dargohi Toshkent shahrida ochiladi. Bu Turkiston davlati universitetining bir bo'limi edi. Bu tashabbus rus ziyolilari tomonidan boshlanib shu xildagi xalq konservatoriyalari 1919 yilda Buxoro, Samarqand, Farg'onada ham ochiladi. Xalq konservatoriyalarining asosiy maqsadi keng ommani musiqa san'atiga jalb etish, yosh, qobiliyatli musiqa ixlosmandlariga musiqa asboblari cholg'ishni, musiqa olamini sirlarini o'rganishni, xalq kuy va qo'shiqlarini keng omma orasida targ'ibot etish muammolari turardi.

Xalq konservatoriyalari qoshida konsert guruhlari tashkil qilinib bu guruh a'zolari asosan konservatoriya o'qituvchilaridan iborat bo'lgan. Konsert dasturlarida turli musiqa asboblari asarlar ijro etish, simfonik orkestrining chiqishlari va yakkaxon qo'ishqchilar o'z san'atlarini namoish etardilar. Lekin xalq konservatoriyalarining katta kamchiliklaridan biri bu milliy kadrlarni yetishmaganni bo'lib keyinchalik 1921-1922 yillarda bu xalq konservatoriyalari maxsus musiqa texnikumlariga yoki hozirgi vaqtda ularni musiqa bilim yurtlari va san'at bilim yurtlari deb nomlanganlar. O'sha yillari Toshkent musiqa texnikumi eng katta o'quv dargohi hisoblanardi. Dars jarayoni yakka va guruh tartibidan o'tilib asosan kechki vaqtda saboq berilardi.

1921 yilda Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan Buxoroda Sharq musiqa maktabi ochiladi va bu maktabda asosan o'zbek va tojik musiqa merosi bo'lmish – Shashmaqom o'rgatilardi. Shu maktabni O'zbekiston va Tojikistonda ko'zga

ko'ringan san'at arboblari: M.Ashrafiy, F.Shahobov, Sh.Sohibov va A.Xalilovlar bitirib respublikalar musiqa san'atini rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelganlar.

Musiqa o'quv dargohidan tashqari (musiqa maktablari, bilim yurtlar, konservatoriyalar) O'zbekistonda boshqa tashqilotlar ham bor edi, Ki bular musiqiy ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'illangan. Masalan: Samarqand musiqa va xoreografiya instituti (1928 yil). Institutning asosiy maqsadi o'zbek milliy musiqa merosini o'rganish bilan shug'illanib yana talabalarga saboq berish ishlarini olib borganlar. Institutda respublikada mashhur san'atkorlar dars berganlar. Ota Jalol G'iyosov, Domla Halim Ibodov, tanburchi-M.Xarratov, naychi –Abduqodir Ismoilov, qo'shnaychi Ahmadjon Umirzoqov va boshqalar. Musiqa nazariyasi va tarixini institut direktorii N.N.Mironov olib borgan. O'zbekiston musiqa madaniyati yuksalishiga Samarqand musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti katta ahamiyatga molidir. M.Ashrafiy, M.Leviyev, T.Sodiqov, A.Halilovlar shu dargohni bitirganlar.

XX-chi asrning 20 yillaridan boshlab respublikada musiqa ma'lumotiga ega bo'lish muammolariga katta diqqat va e'tibor qaratilib maxsus musiqa bilim dargohlari, ilmiy-tadqiqot oliy dargohlari ochiladi va O'zbekistonning madaniyatini yuksalishiga katta hissa qo'shdi.

Birinchi o'zbek konsert guruhlari 20-nchi yillarning boshlarida Turkistonning barcha shaharlarida San'at ishchilarining uyushmasi (Rabis) tomonidan tashqil etilgan. Barcha san'at ahli bu uyushmaga a'zo bo'lib, konsert guruhlari tashqil qilinib korxonalar tashqilotlariga o'z san'atlarini namoish etishga kirishadilar. Toshkentda bu uyushmaga tanburchi M.Yusupov va X.Ubaydullayevlar, marg'ilonda doirachi Usta Olim Komilov, Samarqandda Xoji Abdulaziz Abdurasulovlar boshchilik qildilar. Bu konsert guruhlari musiqiy targ'ibot ishlarini mitinglarda, bayram namoishlarida va saylovlar vaqtida o'tkazadilar. Birinchidan bo'lib shu xildagi konsert guruhlari Andijonda tashqil etilib unda To'xtasin Jalilov boshchilik qilgan. O'sha davrning ko'zga ko'ringan konsert guruhlaridan biri «O'zbek Davlat etnografik konsert truppsi» bo'lib, unga mohir san'atkor, ajoiib qo'shiqchi Muhiddin-Qori Yoqubov rahbarlik qilgan. Oddiy ishchi farzandi Qori Yoqubov Farg'onada 1896 yilda tug'ilib, yoshligidan san'atni sevib, Andijonda puflab cholinadigan orkestr to'garagida qatnashadi. Qori Yoqubov o'zining chiroyli ovozi bilan Hamzaning pyesa va qo'shiqlarini ijro etib katta olqishlarga sazovor bo'lar edi. «Ishchi», «Qarmoqcha» nomli kichik pyesalarda Qori Yoqubov bilan birga Hamzaning o'zi ham chiqishlar qilardi.

Turkistonda birinchi bo'lib Qori Yoqubovga respublika xalq artisti unvoni 1923 yilda taqdim etilgan.

1925 yilda Qori Yoqubov guruhiga qobiliyatli qo'shiqchi va raqqosa Tamaraxonum (Tamara Petrosyan) qabul qilinib o'sha yili Parijda bo'lib o'tgan

Butundunyo san'at ko'rgazmasiga qatnashib katta muvoffaqiyatlar bilan o'z yurtiga qaytadi.

1926 yilning 1 apreldan boshlab bu ijodiy kollektivning mustaqil tug'ilish sanasi deb hisoblana boshlandi. Guruhda yetakchi xofizlar, xonanda va sozandalar, qiziqchilar jami 18 kishidan iborat san'atkorlar ishlaganlar. Bular: Yusufjon –qiziq Shakarjonov, dutorchi Davlat Oxun Qurbonov, qo'shnaychi Ahmadjon Umirzoqov, qo'shiqchi va «katta ashula» ijrochisi Jo'raxon Sultonov, Xotin-qizlardan birinchi bo'lib sahnaga chiqqan Tamaraxonum, Usta Olim Komilov, naychi Abduqodir Ismoilovlar edilar. Badiiy rahbar Muxiddin Qori-Yoqubov bo'lgan. Bu Davlat ansambli juda ko'p shahar va qishloqlarda bo'lib, o'zbek milliy musiqa san'atini targ'ibot etishda alohida hissa qo'shgan san'atkorlar hisoblanadilar va o'zlari ham kundan-kunga o'z san'atlarini yuqori saviyada ko'tarib, kamol topib xalqimizga madaniy xizmatini ayamaganlar.

O'zbek musiqali drama teatrlarining tashqil topilishida yuqorida nomlari keltirilgan musiqa guruhlari, konsert ansambllari, drama to'garaklarining hissalariga katta va ana shular musiqali drama teatrlarining asosiy tashqilotchilari hisoblanadilar. O'zbek musiqali drama teatrlarining tashqil topilishida Farg'ona tashqil etilgan yoshlar drama to'garagi alohida e'tiborga loyiqdir. To'garakning chiqishlari o'sha davr talabiga ko'ra tuzilardi. Masalan tomoshabinlarni diqqatini o'ziga jalb etish uchun namoyishlardan oldin konsert nomerlari qo'yilardi. Konsertdan keyin kichik musiqiy lavhalar qo'yilardi. Bular «Biz ishchimiz», «Hoy ishchilar», «Kapital» va boshqalar. Barcha chiqishlarning so'zlari va kuylari Hamza tomonidan ijod qilingan. Namoyishlarda o'zbek klassik qo'shiqlari, xalq kuylari, hazil qo'shiqlari ijro etilib ish bilan birga qatnashchilarning mahoratlari ham oshardi.

Kuy va she'rlarning mazmunida ommani savodli bo'lishga chaqirish, ozod mehnatni, do'stlikni targ'ibot etish va musiqali dramalar yordamida ozod xalqni ma'rifatga davat etish muammolari turar edi.

Turkistonning barcha viloyatlarida 20-30 yillar davomida: Andijonda, Buxoroda, Xorazmda, Qo'qonda havaskorlik musiqali teatrlar guruhlari tashqil etila boshladikim keyinchalik bu guruhlar professional teatr guruhlariga aylandilar. Bu jamoalar dramatik asarlar bilan bir qatorda musiqali-spektakllarni ham sahnalashtirar edilar. «Arshin mol-alan», «Layli va Majnun», «Er va Xotin», «U bo'lmasi, bu bo'lsin» nomli asarlar shular jumlasiga kirib bu spektakllarga asosan Uzeir Hojibekov musiqalar bastalagan. Bu spektakllar ham o'zbekcha va ham ozorbayjon tillarida ijro etilgan.

30 yillar davomida G'ulom Zafariyning pyesalari juda katta olqishlarga sazovor bo'ladi. «Erk farzandlari», «Binafsha», «Bahor» nomli pyesalar shular jumlasiga kiradi. Bu spektakllarda ko'p kuy va qo'shiqlar bo'lganligi sababli bu

spektakllarni kichik operalar ham derdilar. G'ulom Zafariyning ko'zga ko'ringan asarlaridan biri bu «Halima» pyesasi edi. Bu asarda muallif sof muhabbat, boylik va qashshoqlik, zo'rlik va xastalik muammolarini ko'targan Kim, bu mavzular davr talabiga javob Bera olardi. Bu asar teatrlar sahnalarida ko'p yillar qo'yilib tomoshabinlarning olqishiga sazovar bo'lgan.

Asar mazmunida kambag'al oilada tug'ilgan 18 yoshli Halima ismli qizni ota-onasi majburiy holatda yoshi katta boy kishiga berganliklari, Halimanisevikli yori Ne'matni o'ldirilganliklari va bu xo'rlikka chidaolmasdan Halima o'zini-o'zi nobud qilgani to'g'risida fikr yuritilgan. «Halima» musiqali drama spektaklidagi musiqalar xalq og'zaki ijodiyotidan tanlab olingan bo'lib asar mazmunini aks ettiraoladigan kuy va qo'shiqlardan iboratdir. Unda «Toshkent Iroqi», «Ko'cha bog'i», «Bayot III», xalq marosim qo'shiqlaridan «Yor-yor», «Muborak», «Omonyor», «Bahor bo'ldi» nomli xalq asarlari kiritilgan. Bu musiqalarni Mula To'ychi Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarov» Shohyunus Shohyusupovlar tanlaganlar.

Halima obrazini talqin etishda chiroyli va jarangli ovozga ega bo'lgan xonandalar Duriya Xonum, Maqsuma Qoriyeva, Salomatxon Najmiddinova, Tursunoy Saidazimova, Nazira Inog'omova va keyingi yillarda Halima Nosirovalar ishtirok etganlar. «Xalima» musiqali-dramasi uzoq yillar davomida respublikamizning sahnalarida ijro etildi va musiqali drama janrini rivojiga salmoqli hissa qo'shib keldi.

Keyingi yillarda sahnalashtirilgan asarlar qatoriga Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» musiqali dramasida xalq cholg'u asboblari ansambli bu spektaklga jo'r bo'lib asar katta olqishlarga sazovor bo'ldi.

«Farhod va Shirin» dostoni Sharq mamlakatlarining juda ko'p tillarda ezoz etilgan, lekin barcha xalqlar ijrosidagi asarning yagona mazmuni bu chin muhabbat va undagi sadoqat asosiy maqsad bo'lib qolgan. Bu spektakl musiqalarini xalq musiqa merosimizdan Shorahim Shoumarov bilan Yunus Rajabiy tanlaganlar va unda-«Bayot II», «Bayot III» E »Bayot V», «Ushshoq», «Guliyor IV», «Suvora», «Chorgoh II», «Chorgoh IV», «Mug'ulcha» va boshqa xalq kuy va qo'shiqlari ishlatilgan. Bu musiqali-drama respublikamizning barcha viloyatlari teatrlarida sahna yuzini ko'rdi.

«Layli va Majnun» musiqali-dramasining tarixi boshqacharoq bo'lib bu asarni Turkistonda birinchi marotaba 1915 yilda ozorbayjon san'at guruhi olib kelib tomoshabinlar diqqatiga havola etganlar. «Layli va Majnun» musiqasi-dramasi» 30-nchi yillarda kelib o'zbek musiqali-dramasiga aylandi.

Muhiddin Qori Yoqubov boshchiligidagi o'zbek Davlat etnografik musiqa guruhi konsert dasturlari bilan bir qatorda musiqali spektakllarni ham sahnalashtirib kelganlar va xayrli ishda: Tamaraxanum, Gavhar Petrosyan,

Begimxon va Nurxon Yo'ldosh Xo'jayevalar, Zuhur Qobulov, Boborahim Mirzoyev va bir qancha ko'zga ko'ringan sozanda, xonandalar o'z hissalarini qo'shganlar. Bu guruh ijrosida «Halima», «Farhod va Shirin» va Komil Yashinning «O'rtoqlar» musiqali asarlari o'rin oladi.

«O'rtoqlar» musiqali dramasi kolxozlar tashqil etish davrlarini aks ettiradigan asarlar jumlasiga kirib undagi musiqalarni To'xtasin Jalilov bastalagan.

Respublikamizning barcha viloyatlarri teatrlarida musiqali-drama asarlarini sahnalashtirishda ko'zga tashlanadigan kamchiliklaridan asosiyari bu mahalliy mutaxassislarning yetishmagani, spektakl jarayonida cholg'uchilar va xonandalarning oralaridagi ajralishlar, asosiy tonliklardan chiqib ketishlar, bandler sonlarini adashtirilganlari ko'zga tashlanardi. Shu bilan bir qatorda ansambl cholg'uchilari orasida asta-sekin Yevropa musiqasi asboblari ham kiritila boshlandi (fortepiano, truba, skripka, kontrabas). 1930 yilda Moskvada teatr san'atining olimpiadasi bo'lib o'tadi va bu olimpiadada o'zbek teatrlari ham ishtirok etib-«O'rtoqlar», «Halima», «Lolaxon», «Erk bolalari» asarlari tomoshabinlar diqqatiga haovla etiladi. Yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar ham hakamlar tomonidan ko'rsatiladi. Ayniqsa madaniy ijro etishlar, milliy sahna bezaklari, xalq kuy va qo'shiqlarini qayta ishlash kabi nuqsonlar takidlanadi.

Kelgusida o'zbek musiqali teatr jamoalari anna shu kamchiliklarni bartaraf etish, sozandalar, raqs ijrochilari, milliy kompozitorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni kuchaytirib yuborishsa o'zbek milliy musiqali teatrlarini yuksalishga o'z barkamol hissalarini qo'shgan bo'lgan bo'lardilar.

40-nchi yillar davomia bu janrda bir qancha e'tibor kuchayib milliy dramaturglar va kompozitorlar yetishib chiqib ularning asarlari asosida zamonaviy mavzu alohida o'rinni egalladi. 50-60 yillarning oxirida musiqali drama asarlarining soni 40-tadan oshib boradi. Bu spektakllarda ko'proq xor jamoasi uchun asarlar, vokal ansamblari, musiqiy sahnalar, xalq kuy va qo'shiqlarini orkestrlar uchun mostlash ishlari alohida e'tiborga loyiq bo'ldi.

Keyingi yillar davomida musiqali drama asarlari orasida Komil Yashin va To'xtasin Jalilovlarning «Nurxon», S.Abdullo va T.Jalilovlarning «Muqimiy», «Ravshan va Zulxumor», M.Uyg'un va M.Leviyevlarning «Oltin ko'l», Z.Fatxullin va S. Boboyevlarning «Vatan ishq», Ch.Aytmatov va Ikr.Akbarovlarning «Mo-mo yer» ijod qilinib tomoshabinlar diqqatiga havola etildi.

Yuqorida nomlangan spektakllardan «Nurxon» asari ko'p tomoshabinlarni olqishga sazovor bo'ldi. Bu asar o'zining sermazmunligi, oddiyligi va ohangdorligi biln ajralib turar edi. Asarda tarixiy voqyealar o'z aksini topgan. Dramaturg K.Yashenni qisqa ammo sermazmun hayot kechirgan aktirisa nurxon yo'ldoshxo'jayevaning faoliyati qiziqtiradi. K.Yashenni o'sha yillarda yosh

qizning eski qoldiqlarga qarshi chiqib teatr sahnasiga obrazlar yaratgani, Nurxonning akasini ruhoniylar tomonidan g'azablantirib o'z singlisini pichoq bilan o'ldirganligi dramaturgni hayratlantiradi. K.Yashen «Gulsara» asarida boshlagan mavzu Xotin-qizlarni ozodlikka intilishlari, huquq tengligi uchun kurashganlari, tinch mehnatni e'zozlaganliklari borasidagi fikrlarini «Nurxon» asarida ham davom ettiradi. Agar «Gulsara» musiqali dramada Gulsara faranji tashlash, erkinlikka intilish maqsadi uchun kurashgan bo'lsa, Nurxon teng huquqlik, erkin kasb tanlash, jamoa ishlariga Xotin-qizlarning o'rni kabi muammolarni o'rta tashlagan va uning uchun kurashgan Xotin-qizlardan biri bo'lgan.

«Nurxon» musiqali dramada bir qancha yoqimli va chiroyli musiqalar borki, bu kuylar To'xtasin Jalilov tomonidan katta mahorat bilan ijod qilinib asar mazmunini yana ham boyitgan. Masalan «Assalom», «Ey sabo», «Qora sochim», «Baxtu iqbol», bir necha do'stlar, ansambllar xor asarlari shular jumlasiga kiradi.

Musiqali drama janrida mustaqil ijod qiladigan kompozitorlar ham respublikamizda voyaga yetdi. Anna shulardan biri kompozitor Manas Leviyev bo'lib M.Uyg'ur bilan hamkorlikda «Oltin ko'l» musiqali dramasini yaratdilar. Bu musiqali drama qishloq aholisining turmush sharoitlariga bag'ishlangan bo'lib, halol mehnat, tinch yashash, oq oltin hosilini yig'ib olish kabi maqsadlar o'rta tashlangan. Biroq qishloq sharoitida ham dangasa, yalqov, ishbuzarmandlar borligi va ularning xulq-atvori halol kolxozchilarga ta'sir etganlari ham bu asarda ko'rsatib berilgan.

To'rt pardali bu musiqali dramada kompozitor Manas Leviyev milliy o'zbek musiqalarini tinglovchilarga yoqimli, kuygan, jozibador ravishda qayta ishlab o'z mohir kompozitorlik qobiliyatini ko'rsatib bergan.

«Oltin ko'l» musiqali dramada sho'x va o'ynoqi 2-3 ovozli xor asarlari, ansambllar, duyetlar, laparlar vositalari bilan mustaqil o'zbek diyorini go'zal manzaralarni ozod kolxozchilar mehnatini, obu-havosini yil fasllarining o'zgartirishlarini yoritib bergan. Bu asarlar b'zan mungli va yoqimli, ba'zan sho'x va o'ynoqi jilolar bilan tinglovchilarga asar mazmunini yoritib beradi. Bular «O'rgilay», «Qoshingni qarosiga», «Bizning kolxoz qizlari» va boshqa musiqiy asarlar o'zbek musiqa madaniyatining oltin fondidan joy olgan.

Hozirgi davrda musiqali drama janri eng hayotiy va talabga javob beradigan musiqiy merosdirkim, rivojlanib borayotgan mustaqil respublikamiz taraqqiyotini, xalqlarimizning turmush sharoitlarini va tinch hayotini e'zozlaydigan asarlar bilan yana boyimoqda. Ko'zga ko'ringan kompozitor M.M.Burxonov aytganicha-«Opera janri bilan bir qatorida musiqali drama asarlari xalqimiz orasida eng kerakli va muhim janrlar qatoriga kiradi. Oxirgi yillar davomida kompozitorlarimiz bu janr yo'nalishida ancha ijod qildilar. Bu janrda hayotimizdagi hilma-hil voqyealar,

turmush o'zgarishlari va ayniqsa zamonaviy mavzulardagi asarlar ijod qilinmoqda».

Turkistonda uzoq yillar davomida rus ziyolilarning yashab turganlari, ularning san'atga bo'lgan qiziqishlari natijasida Toshkentda rus opera teatri ochiladi. Opera teatrining tashqil topishida asoiy turtqilarda yana biri Italiya opera guruhining 1900 yilda Toshkentda qilgan gastrollari bo'lgan. (ijodiy safarlari). Italiyaliklar Toshkentda «Rigoletto», «Traviata», «Trubadur», «Karmen», «Payası», «Faust» kabi operalarni rus ziyolilariga tonishtirganlar. Shu bilan birga rus ziyolilari o'z konsert dasturlarida g'arb va rus klassik kompozitorlarining simfonik asarlarini operalardan parchalarni, simfonik syuitalarni ijro etishlari bilan rus opera teatrining tashqil topilishida poydevor tuzganlar. Opera teatrining birinchi spektakllari Dargomyjskiyning «Rusalka», Chaykovskiyning «Yevgeniy Onegin» operalari bo'lgan. Opera janrining keng ommaga tarqalib borgani tufayli rus opera teatri sahnasida Verding «Rigoletto», Gunoning «Faust», Rubinshteynning «Demon», Chaykovskiyning «Pikoaya dama», «Musorgskiyning «Boris Godunov», Boroddining «Knyaz Igor», Verding «Traviata», «Aida», Puchchinining «Bogema», Rossiyaning «Sevilskiy seryulnik» asarlari sahna yuzini ko'rdi. Rus opera teatrining san'atkorlari O'zbekiston viloyatlariga chiqishlar tashqil qilib opera san'atining o'zbek xalqi orasida targ'ibot etaboshladilar va bu xizmatlar o'zbek operalarini tashqil topishiga asos bo'ldi.

30-nchi yillarning II-yarmisidan boshlab birinchi o'zbek operalari vujudga kela boshladi. Bular S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning «Bo'ron» lperasi bilan R.Gliyer va T.Sodiqovlarning «Layli va Majnun» operalari edi.

«Bo'ron» operasi bosh pardali katta asar bo'lib uning mazmunida 1916 yilda Jizzaxda bo'lib o'tgan o'zbek xalqining chor hukumati bilan bo'lgan to'qnashuvlari o'z aksini topgan. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa ham lekin o'zbek xalqining ozodlikga chiqish uchun intilishlari asarda asosiy maqsad bo'lib qolgan.

Operaning qisqacha mazmuni Boydan qarzdor bo'lgan Bo'ron osmli dehqon yerlarini tortib oladilar. Lekin shu vaqtda Bo'ron jo'ra ismli o'g'lini Norgulga o'ylantirish kerak edi. Yon-qo'shnilar Bo'ronga moddiy yordam berib to'yni boshlaydilar. To'y avjida mahalliy amaldaorlar kelib o'zbek yigitlarini boshqa shaharlarda «Mardikorlikga olib yubormoqchi bo'ladilar. Lekin amaldorlar o'z farzandlarini qoldirib kambag'allar bolalarini jo'natmoqchi bo'ladilar. Dehqonlar qarshilik ko'rsatib o'nboshini o'ldiradilar. Bo'ron boshchilik bir guruh otryad taqqa chiqib ketadi. Ularga Jo'ra ham qo'shiladi. Podshoh tomonidan yuborilgan qo'shinlar qishloqda ancha qon to'kadilar vash ular qatorida Norgul ham nobud bo'ladi. Bo'ronning hovlisiga o't qo'yadilar. Shu vaqtda Bo'ron boshchilik otryad qishloqqa kirib kelib podshoh qo'shinlarini quvib yuboradi.

Operaning qisqacha mazmunini (lebrettosini) Komil Yashin yozgan. Unda ikki tuzim qarama-qarshiligi xalqlar orasidagi do'stlik aniq o'z ifodasini topgan. Operadagi asosiy qahramon bu xalq. Xalq Bo'ron boshchiligida podshoh tuzimiga qarshi kurashadi.

Operada juda ko'p xalq qo'shiqlari «Gul o'yini», «Girya qozoq», «Chamanda gul», «Tannovar», «Oq oydin kechalar», «Farg'onacha»-lar kompazitorlar tomonidan orkestrashtirib asar mazmunini boyitishga sababchi bo'lganlar.

«Bo'ron» operasida Hamzaning «Ishchi bobo», «Biz ishchimiz», «Hoy ishchilar» qo'shiqlari ishlatilgan. «Bo'ron» da ariyalar uncha ko'p bo'lmasada lekin bor ariyalar obrazlari xarakterlarini yoritishida salmoqli musiqiy asarlar jumlasiga kiradi.

S.Vasilenko bilan M.Ashrafiy bu operani olti oy davomida ijod qilib 1939 yilning 25 martida tugallaydilar. «Bo'ron» operasini sahnalashtirishda ancha qiyinchiliklarga duch keladi. Birinchidan bu Yangi janrni sahnada ijro etishda xonandalarga noqulayliklar tug'dirdi, chunki musiqali drama bilan opera orasida katta farq bor edi. Lekin shu bilan birga milliy o'zbek og'zaki an'analari bilan bog'liq bo'lgan sahnalar ham ijrochilarga va tinglovchilarga ham maroq bag'ishlagan edi.

«Bo'ron» operasini sahnalashtirishi bu ikki (rus va o'zbek) orasidagi birodarlikni mustahkamlashda va ikki kompazitorlar S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning ijodiy hamkorliklarini timsoli bo'ladi.

Opera 1939 yilda Toshkentda sahnalashtirilib o'zbek musiqali drama teatri O'zbek Davlat opera va balet teatriga aylandi. Asosiy rollarni Halima Nosirova (Norgul), Karim Zokirov (Bo'ron), Fotima Boruxonova (Zebiniso) ijro etganlar.

O'zbek operasining dunyoga kelishi bu zamon talabi bo'lib respublikamizning madaniy rivojiga yana bir katta qadim hisoblandi.

«Bo'ron» operasi bilan bir qatorda G.M.Gliyer va T.Sodiqovlarning «Layli va Majnun» operasi ijod qilindi Kim, asar A.Navoiyning shu nomli poemasi asosida edi.

Operaning qisqacha mazmuni. Layli ismli arab qabila boshlig'ining qizi Qays nomli yigitni sevadi. Layli Qaysning ishqiy she'rlariga, xotin-qizlarni e'zozlaydigan asarlariga mahliyo bo'lgan edi. Lekin shariat qoidalariga ko'ra Qays islom diniga xiyonat qilgan, chunki ayollarni erkaklar bilan tenglashtirgan. Ruhoniylar Qaysni-Majnun, ya'ni devona deb kamsitishadilar. Odamlarning diqqatiga tushib qolgan Qays Layli bilan bo'lgan muxabbatini oxirigacha yetishiga ishonch hosil qilgach dashtu-saxrolarga yovvoyi hayvonlar orasiga chiqib ketadi. Layli esa otasining ixtiyori bilan badavlat kishi Ibn-Salomga turmushga chiqishi kerak bo'lganda sevgan yigiti Qaysni qumsab o'ladi. Uning qpbri ustida Qays ham

jon beradi. Ular motamlarni faqat yaqin qovmu-qarindoshlari tutadilar. Ikki sevishgan qabrida ikkita qizil gul o'nib chiqadi Kim, bu-o'lmas sevgi hamisha yoshlik timsoli edi.

«Layli va Majnun» operasida obrazlar ariyalari o'zbek musiqa merosi maqomlar, xalq kuy va qo'shiqlari asos bo'lib unda «Iroq», «Segoh», «Ushshoq», «Chorzarb», «Chorgoh», «Bayot», «Chapandozi gulyor»-lar ishlatilgan.

40-50 yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Davlat opera va balet teatri sahnasida bir necha opera asarlari sahnalashtiriladi. Uning repertuaridan rus va chet el opera va balet asarlari o'rin olib ishlar qatoriga qardosh xalqlar kompozitorlarining asarlari ham teatr sahnasidan joy oldiyu D.Kabalevskiyning «Taras oilasi», T.Xrennkovning «Bo'ronda», G.Mayborodaning «Arsenal» va A.Kozlovskiyning O'zbekistonda ijod qilgan «Ulug'bek» operalari shular jumlasiga kiradi. Lekin ko'zga tashlangan muammolardan eng asosiy bu milliy o'zbek operalarini ijod qilish va ularni sahnalashtirishdan iborat edi. Shuning uchun ham 1947-1967 yillar davomida bir necha o'zbek milliy operalari ijod qilinib teatr sahnasida qo'yildi. Oldingi yillar sahnalashtirilgan operalar: S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning «Ulug' kanal», R.Gliyer va T.Sodiqovlarning «Gulsara», T.Jalilov va B.Brovsinlarning «Toxir va Zuxro», G.Mushel va V.Uspenskiylarning «Farxod va Shirin» operalari bilan bir qatorda Yangi ijod qilingan o'zbek milliy operalari ham asta-sekin musiqa san'atining opera janrida ijod qilinib sahna yuzini ko'radi. Bular-M.Ashrafiyning «Dilorom», T.Sodiqov, B.Zeydman, Yu.Rajabiy, D.Zokirovlarning «Zaynab va Omon», S.Yudakovning «Hamza», M.Yusupovning «Xorazm qo'shig'i», M.Ashrafiyning «Shoir qalbi», R.Hamroyevni «Zulmatdan ziyo» asarlardir.

Yuqorida nomlangan asarlar orasida A.Navoiyning «Sa'bai sayyor» poemasidan «Dilorom» operasi dramaturglar K.Yashin va Mumtoz Muxammedovlar bilan kompozitor M.Ashrafiyning o'zbek klassik adabiyotidan zamonaviy asar yaratishda qilgan xizmatlari o'zbek musiqa madaniyatida alohida o'rinni egalladi.

To'rt parda va yetti ko'rinishdan iborat «Dilorom» operasi A.Navoiy nomli Davlat opera va balet teatri sahnasida qo'yiladi.yu Voqyealar shoh va amaldorlarning xalqqa nisbatan shavqatsizligi va zulmdan xalq norozi bo'lib qo'zg'olon ko'tarilishi, Diloromni kuch ishlatib olmoqchi bo'lgan shoh Baxrom va uning sheriklariga qarshi ko'tarilgan kurash fonida yuz beradi. Dilorom shavqatsiz shohga bo'ysinmaydi va o'z hayotini qurbon qilib nomus va muhabbatini saqlab qoladi.

Operaning qisqacha mazmuni. Badavlat Ulug' Xo'ja uyida uning quli bo'lgan go'zal ashulachi Dilorom voyaga yetadi. Dilorom ajoyib rassom Monini sevib qoladi. Moni o'z sevgilisini Ulug' Xo'jadan sotib olishga va unga uylanishga

ahd qiladi. Lekin go'zal Diloromni shoh Bahromni ko'rib unga maxliyo bo'ladi va katta sovg'alar evaziga Diloromni Ulug' Xo'jadan o'ziga sotib oladi. Moni Diloromni juda ko'p qidiradi va oxiri Baxromshoh dargohida topadi. Lekin Baxromshoh Monini zindonga tashlab Diloromni o'z qasriga qamab qo'yadi. Fursatdan foydalanmoqchi bo'lgan Baxromshohning vaziri Ardasher Dilorom qo'lga zahar berib Baxromshohni o'ldirishni buyuradi. Baxromshoh saroyida katta bazm o'tadi. Bazm yetti go'zal qatnashib har biri o'zining san'atini namoyish etadi. Dilorom ham o'zining sevgi haqidagi mungli qo'shig'ini kuylaydi. Ardasher bergan zaharni Dilorom o'zi ichmoqchi bo'lib turganda Ardasher uni qo'lidagi qadahni olib Baxromshohga uzatadi, lekin shoh bu qadahni go'zallardan biriga beradi. Go'zal uni ichib o'ladi. Baxromshoh bu voqeadan achchiqlanib Monini osishga va Diloromni cho'li-biyobonga olib borib tashlashga buyuradi. Cho'lda bo'ron ko'tariladi. Dilorom o'z sevgilisi Monini chaqiradi. Diloromni oxtarib yurgan Moni yetib keladi va sevishtanlar bir-birlari bilan uchrashadilar. Dilorom Monining qo'lida jon beradi.

Kompozitor M.Ashrafiy operani ijod qilishda xalq kuy va qo'shiqlaridan mohirlik bilan foydalangan. Yetti go'zal qiyofasida tojik, eron, hind va arab kuylarini ishlatib go'zallar obrazlarini yana ham boyitgan.

Moni Ariyasini ijod qilishda xalq kuyi bo'lmish «Karimqul-begi»ni ishlatgan. Monining boshqa ariyasida «Navo» maqomidan «Saroxbori navo» ni ustalik bilan qayta moslashtirilgan.

Dilorom ariyalari ham ashulachi qimyofasini ifodalashda yoqimli va kuychan musiqalar bilan shu obraz ochib tashlangan. Baxromshoh, Ulug' Xo'ja obrazlarini aks ettirishda ham kompozitor o'sha shaxslarga xos kuylarni bastalagan. Shoh saroyidagi bazmlarda ijro etilgan musiqalar ham o'zining tantanavorligi, quvnoqligi va o'ynoqligi bilan tinglovchilarning diqqati-e'tiborini o'qziga jalb etadi.

Faqatgina O'zbekistonda emas balki butun O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib komik opera janrida asar yaratish kompozitor Salomon Yudakovga muvaffaq bo'ldi. U kishi Hamza qalamiga mansub «Maysaraning ishi» komik operasini yaratadi.

Operaning qisqacha mazmuni. Maysaraxolaning kichkina haovlisiga yosh sevishtanlar Maysaraning jiyani podachi Cho'ponali va go'zal Oyxon uchrashadilar. Ikki yoshning hovlida uchrashganini qari Qozi va mirshab Xo'ja Darg'a ko'rib sharoitga xilo fish qilgani uchun Cho'ponalini xibisga olmoqchi bo'ladilar vash u bilan yosh qizcha bilan uchrashmoqga imkon tug'dirmoqchi edilar. Ular tomonidan yuborilgan soqchilar Maysara hovlisiga kirib keladi. Soqchilar Maysarani olib ketgach Qozi sandiqqa yashirib turgan Oyxonni o'g'irlab olib ketadi. Qozi zindonda Maysara qutilish yo'llarini rejalashtiradi. Shu mahal

Cho'ponali xolasini topib unga qochishni taklif etadi. Lekin Maysara to Oyxonni qutqazmaguncha hyej yerga bormasligini aytadi. Qozi Maysaraning oldiga tushib pul bilan Oyxonni gapga olishni taklif etadi. Maysara rozi bo'ladi. Qozi uyida Oyxon qayg'urib Qoziboboning yupatishlaridan achchiqlanadi. Qozi Maysaraga Oyxonning o'jarligini aytadi. Maysara Oyxonga o'z maxfiy rejalarini aytib unga Qozi bilan uchrashishga va Oyxon Qozining hamma shartlariga rozi bo'lishini tushuntiradi.

Maysara o'z hovlisida «Ulug' mehmonlarni» kutishga hozirgarlik ko'radi. Birinchi bo'lib Qozi keladi va hali o'tirishga ulgurmasdan hovli eshigi taqqilaydi. Maysara Qoziga jiyani kelganini aytadi va qo'rqib turgan Qozi ustiga xo'kkiz terisini tashlaydi. Shunday qilib Maysara Oyxonga «Oshiq» bo'lgan Hidoyatxonga ayol kuylagini, Xo'ja Darg'aga un qopini ustiga yopadi. Xalq bu sharoit peshvolari ustidan kuladi va opera Maysaraning donoligidan, ikki yosh maqsadlariga erishganlari va xursandchilik bilan tugaydi.

«Maysaraning ishi» operasi bu haqiqiy komik (hajviy) janrda ijod qilingan asar bo'lib bu asarda kuygan, yengil, obrazlar xarakteriga mos keladigan musiqalar bastalangan. Ayniqsa Maysara obrazini ifodalaydigan-ba'zan o'zining oilasi davrasida mehribon xolla, jonkuyar ayol, ba'zan, sharoitlarga ko'ra talabchan va o'tkir kishi, dovyurak, qo'rqmas, o'z so'zini ustidan chiqadigan shaxs sifatida operaning asosiy obrazi bo'lib turli musiqalar vositalari bilan ifodalab ko'rsatilgan. Maysaraxola ijro etadigan kuy va qo'shiqlar Hamzaning «Hoy ishchilar» qo'shig'i asosida bastalangan. Chunki bu kuy Maysara obraziga xos bo'lib ayolning ichki qiyofalarini ochib tashlashga yordam berishni kompozitor S.Yudakov yaxshi bilgan. Masalan Maysaraning «Bolalarimhammasi yaxshi bo'ladi» nomli ariyasi so'zimiz isboti bo'laoladi. Shu bilan birga Oyxon, Cho'ponali, Qozi, Xo'ja Darg'a, Hidoyatxon obrazlari musiqalari ham asar mazmunini ifodalaydigan kuy va qo'shiqlar bilan tasvirlangan. Opera musiqalari orasida xalq va qo'shiqlari ham mustahkam o'rin olgan-«Oromijon», «Ushshoq», «Bilakuzuk», «Yor-yor» va boshqalar.

70-80 yillar davomida opera janri yana bir necha asarlar bilan boyidi vash ular orasida bolalarga bag'ishlangan operalar-S.Boboyevning «Yoriltosh» va V.Xaetning «Etikli mushuk» asarlaridir.

Shunday qilib opera teatr iva opera asarlari oxirgi vaqtda o'z rivojini topadi va bu janr respublika musiqa san'atining yuksalishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Raqs san'ati respublikamizda eng rivojlangan san'at turiga kiradi. Topilgan qazinmalardagi suratlarda, tarixiy manba'larda raqs san'atini o'zbek va tojik xalqlari orasida keng ommalashib borgani to'g'risida bilishimiz mumkin.

O'zbekistonda sahna-raqsi yoki balet janrini tashqil topilishida raqs san'atining ustalari Usta Olim Komilov, Yusufjon-Qiziq Shakarjonov, Tamara

Petrosyan, Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilovlarning xizmatlari katta bo'lib Toshkent raqs bilim yurtining tashqil qilib bu o'quv dargohida ishlaganlar, yosh raqqos va raqqosalarni tarbiya qilishda salmoqli hissa qo'shganlar.

30-nci yillar davomida O'zbekistonda o'zbek musiqali teatrlarining rivoj topishi bilan bir qitorda balet san'ati ham asta-sekin vujudga keladi. Lekin o'zbek milliy kompozitorlarining yo'qligi munosabati bilan birinchi o'zbek balet asarlarini xalq og'zaki ijodiyotlari asosida rus kompozitorlari yaratganlar. 1933 yilda kompozitor N.Roslavs birinchi o'zbek baleti «Paxta»ni yozadi. Bu baletda milliylikning yo'qligi, asar mazmuni yuzaki ekani, hayot talabiga javob beraolmagani tufayli asar bir-ikki marotaba sahnaga qo'yilib tezda sahnadan tushadi va qayta qo'yilmadi. Ikkinchi o'zbek baleti 6 yilda keyin 1939 yilda ijod qilinadi. Bu baletni F.Tal «Shohida» nomi bilan sahnaga qo'yadi. Balet mazmunida bosmachilarga qarshi kurash mavzui turar edi. Lekin bu balet ham o'zbek milliy musiqalarida uzoq turganligi munosabati bilan sahnadan tez orada tushdi. 1936 yilda Toshkentda raqs bilim yurti (xoregraficheskoye uchilishye) ochiladi va bu o'quv dargoh respublikamizda raqs san'atini rivojlantirishda katta xizmat qildi.

1940 yilda kompozitor Ye.Brusilovskiy tomonidan Yangi «Gulandom» baleti ijod qilinadi. Asarning adabiy mazmunini Tamaraxonum va M.Uyg'ur yozganlar. Bu balet ham tarixiy voqyealar asosida dunyoga kelgan. Xorazm xonligida go'zal raqqosa Gulandom ismli qizning hayoti, sevgilisi Baxtiyor bilan xon zulmiga qarshi kurashganliklari va asar oxirida qahramonlar va xalq g'alabaga erishganligi to'g'risida batafsil so'z yuritilgan. «Gulandom» baleti sermazmun, milliy koloritlarga boy, ikki yo'nalish-yevropa raqs yo'nalishi va milliy o'zbek raqslar yo'nalishlarini o'z atrofiga olgan va bu asarni sahnalashtirishda xalq raqs san'atining ustalari Usta Olim Komilov, Tamaraxnum, I.Arbatov va V.Gubskayalarning mehnatlari ko'p bo'lgan. Asarda juda ko'p xorazm xalq kuy va qo'shiqlari, o'zbek folklori, sho'x va o'ynoqi musiqalar asar mazmunini yoritishda xizmat qilganlar. «Gulandom» baleti oldingi ikki baletlar «paxta» va «Shohida» baletlariga nisbatan bir necha yillar sahnaga qo'yilib undagi musiqalar hozirgacha konsert dasturlaridan joy olgan.

Urushdan keyingi yillar davomida balet janri ko'p o'zbek kompozitorlarini diqqatini o'ziga tortdi.

Manas Leviyevning «Suhayl va Mehri» beletini biz bir necha yillar davomida A.Navoiy nomli Toshkent opera va balet teatri sahnasida ko'rdik. Georg Mushelning «Balerina» («Gulnora») baleti ham kolxoz hayoti to'g'risidagi asar sifatida juda ko'p yillar davomida sahnada ijro etildi.

1956 yilda G.Mushelning «Tufelka Din» yoki boshqo'a nom bilan bu balet «Baxt guli» («Svetok schasty») bo'lib sahnalashtirildi. 1957 yilda D.Zokirov va

B.Glenkolarning «Oyniso», 1960 yilda Ikrom Akbarovning «Orzu» («Mechta») va G.Mushelning «Kashmir qo'shig'i» baletlari sahna yuzini ko'radi.

1964 yilda B.V. Brovsinning «Semurg'» baleti, B.Zeydmaning «Kulguchi inson» (V.Gyugo asari «Chelovek kotoryy smeyotsya» romani asosida), «Quyosh va Ajdaho» baletlari ijod qilinadi.

Yuqoridagi o'zbek baleti to'g'risidagi fikrlar O'zbekiston kompozitorlarining shu janrda bo'lgan ijodiy qiziqishlaridan darak beradi. Shu janrda bo'lgan kamchiliklar, ayniqsa adabiy izlanishlardagi noaniqlik, sifatsizlik balet asarlaridagi chiroyli musiqalarni ham sahnadan chetlanishiga asos bo'ladi. Shuning uchun kompozitorlarning o'zlari ham adabiy izlanishda dramaturg bilan birgalikda hamkorlik qilishlari lozim. Anna shu kamchiliklar bartaraf etilsa, o'zbek balet janri kelgusida barkamol janrlar qatoriga kiradi.

Musiq ta'lim tizimining tahlillari va o'zidagi ijobiy jihatlarini umumlashtirish musiq darslarining yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Zamonamiz taqazosi bilan musiq darslari yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun ularda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash yaxshi natija bermoqda. Darslar qiziqarliroq, jo'shqin, ko'tarinki ruhda o'tishi uchun biz quydagi dars turlarini taklif etamiz:

Konsert darslar, viktorina darslar, intervyu darslar, konkurs darslar, yo'naltiruvchi darslar (illyustrativ material yordamida), «stol atrofida» darslari, o'z-o'zini anglash darslari, himoya darslari, rasmlar galereya darslari, quvnoqlar va zukkolar darsi, bahs-munozara darslari va hokazolar. Bu darslarning har biri o'z tuzilishi, vazifasi va metodik asosiga egadir.

Boshlang'ich sinflarda darslarni o'yin tarzida olib borilsa, o'quvchilarning faolligi oshib boradi va ular berilgan vazifalarni nisbatan oson bajaradilar. Masalan, musiqiy cholg'ular mavzusini o'tganda, o'quvchilarga turli xildagi musiq cholg'ulari surati solingan kartochkalar beriladi. O'qituvchi magnitofon yordamida biror bir cholg'uda ijro etilgan musiqani qo'yadi. O'quvchilar musiqiy asar qanday cholg'uda ijro etilganligini qo'llaridagi kartochkalar orqali qo'rsatadilar. Eng faol qatnashgan o'quvchilar baholanadilar va rag'batlantiriladilar. Masalan, viktorina–dars, konsert–darslari o'quvchilarning bilimlariga asoslangan holda o'tiladi. Dars–sayohat video tasma yordamida tabiat qo'yniga, shaharlarga musiqiy sayohatga asoslanadi.

Hozirgi paytgacha keng qo'llanilib kelingan dars turlaridan:

1. Tashqiliy darslar.
2. Aralash darslar.
3. Dominantali (darsdagi biror faoliyat turi–qo'shiq kuylash, musiq tinglash, musiq savodi, musiqiy ijodkorlik–boshqalaridan ustunroq bo'ladi) darslar.
4. Kontrol–tekshiruvchi darslar.

5. Kompleks darslar.
6. Intervyu darslari.
7. Himoya darslari.
8. Yakunlovchi darslar.

Endi har bir dars turiga izoh berib o'tamiz.

Konsert darslari – o'quvchilardagi bor musiqiy–nazariy bilimlarni amalda qo'llash, o'zlari va boshqalarning bilimlariga baho berish, sahnada o'zini tutishni o'rganish, jamoa bo'lib kuylash va yakkanavozlik malakalarini shakllantirish, bolalar musiqiy cholg'ularida jo'r bo'lish, raqs elementlarini bajarish va hokazolarga keng imkoniyat yaratadi. Bunday darslarni asosan bir chorak tugab, boshqasi boshlanganda uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu dars turida o'quvchilar chorak davomida o'zlari o'rgangan qo'shiqlari asosida «konsert» o'tkazadilar. Bunday darslar o'quvchilar bilim darajasini aniqlashga va baholashga keng imkoniyat beradi. Dars avvaldan rejalashtiriladi. O'quvchilar o'zlari o'rgangan qo'shiqlarini tayyorlab keladilar. O'qituvchi avvalgi darsida har bir o'quvchiga vazifa belgilab bergan bo'lishi kerak. Darslar hammaning birgalikda davlat madhiyasini kuylashlaridan boshlanadi. Bu darslar shunisi bilan ahamiyatliki, o'quvchilar o'zlarining barcha ijodiy qobiliyatlarini, ijrochilik mahoratlarini ishga soladilar. Bunday darslar o'quvchilarning musiqiy did va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantirishga asos soladi. Shuningdek, o'quvchilarda sahnada o'zlarini tuta olish, artistizm, jamoa bo'lib kuylash, mustaqillik, tashabbuskorlik malakalari shakllanadi.

O'qituvchi darsdan bir dars avval o'quvchilarga qanday qo'shiq kuylashlarini taqsimlab bersa, qaysi qo'shiqdan keyin qaysinisi ijro etilishini taqsimlab bersa, darslar aniq bir tizimga asoslangan holda, tartibga rioya qilingan holda uyushtiriladi. Bunday darslarda o'qituvchi deyarli barcha o'quvchilarni baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. «Konsert» darslariga qo'shiqlarining mazmuniga mos holda kiyinib kelish o'quvchilarning qiziqishlarini yanada orttiradi va darsning samaradorligi ortadi. Konsert darslarda o'quvchilar o'zlarining bor bilim va iste'dodlarini ishga solishlariga imkon yaratilishi kerak. Masalan, kimdir yaxshi qo'shiq kuylasa, kimdir raqsga tushishni o'rniga qo'yadi, kimdadir aktyorlik qobiliyati kuchli. O'qituvchi ziyrak bo'lgan holda har bir o'quvchining hohish–istaklarini, imkoniyatlarini hisobga olib konsert uyushtirishi zarur. Konsert darslarni biror bir kompozitor yoki yozuvchining tavallud kuniga yoki ijodiga bag'ishlab ham o'tkazish mumkin. Bunda konsert darsda shu ijodkor yaratgan asarlar ijro etiladi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilardan biror bir boshlovchi muallifning hayot va ijodi haqida so'zlab beradi.

Viktorina darslari asosan musiqa tinglash jarayonlarida o'tkaziladi. O'qituvchi biror texnik cholg'u yordamida o'quvchilarga musiqa qo'yib beradi. O'quvchilar

o'z navbatida bu musiqaning nomi, ijrochisi, kompozitorini topadilar. Bunday darslar «Kompozitor, ijrochi va tinglovchi» mavzusi o'tilganda juda qo'l keladi. Bunday darslarda o'qituvchi o'quvchilarni qatorlarga, ya'ni jamoalarga bo'ladi. Har bir jamoaning faoligiga, to'g'ri berilgan javoblariga qarab bal berib boriladi. Viktorina darslari o'quvchilarni nafaqat musiqa tinglash, balki qo'shiq kuylash jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Bunda o'quvchilar musiqiy asarlarning yaratuvchilari—kompozitor, shoirlari va ijrochilari haqida ham ma'lum tushunchalarga ega bo'lish kerakligini o'rgatadi. Bunday darslarni har bir mavzuga moslab o'tish mumkin. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga qardosh xalqlar musiqalarini o'rgatganda har xil millat va xalqlar musiqasini tinglab, ularni qaysi xalqqa, qaysi millatga mansubligini aniqlash o'quvchilarning musiqiy idroklarini rivojlantiradi. Ular boshqa millat musiqalarini bir-biridan ajratishni o'rganadilar. Shuningdek ularning musiqiy dunyoqarashlari shakllana boradi. Viktorina darslari musiqiy did, musiqiy idrok va musiqiy dunyoqarashning shakllanishiga asos soladi.

Bahs-munozara darslari – musiqiy asarlarni chuqur tahlil qilish, musiqa savodiga oid bilimlar – musiqa tarixi, musiqa adabiyoti, musiqiy asar tahlili, musiqa shakli kabi musiqiy-nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi. Bu mashg'ulot turida asosan chorak yoki yarim yil davomida olingan musiqiy-nazariy bilimlarga asoslangan bo'ladi. Bahs-munozara darslari o'quvchilarning avval egallagan bilimlari asosida tashqil etiladi. Imkoni bo'lmagan masalalarni anglatish, munozarali qarashlarda bir to'xtamga kelish va shu asosda o'quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashlariga erishish, musiqiy tafakkur, musiqiy idroklarini, musiqiy madaniyatlarini shakllantirish maqsadida tashqil etiladigan dars sanaladi.

Bahs-munozara darslari boshqa darslardan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Ya'ni bu darslarda biror bir masala yuzasidan tortishuv bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashadilar. Bunday darslarda bahs kuchli bo'ladi va har bir fikr o'z isboti bilan tasdiqlanadi va eng maqbul variant qabul qilinadi.

Bahs-munozara darslari o'quvchilardan katta tayyorgarlikni talab etadi. Bu darslar o'quvchilarni hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga, voqyealarga ijodiy yondashishga, nutqlarining teranlashishiga asos soladi. Bir musiqiy asardan sinfdagi o'quvchilar turli xil taassurotlar oladilar. Shuning uchun o'z fikr mulohazalari bilan o'rtoqlashishlari ularning tafakkurlarini va tasavvurlarini yanada boyitishga imkon beradi.

Bahs–munozara darslari pedagogik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. U o'quvchilarning estetik tuyg'ularini tarbiyalashda ham muhim vositalardan hisoblanadi. Munozara mavzusini uning o'quv dastur mazmuni va talablariga,

shuningdek, o'quvchilarning yosh xusiyatlariga mosligi nuqtai nazaridan o'qituvchi tanlaydi. Bunda o'quvchilarning hohish-istaklari va qiziqishlari ham hisobga olinmog'i lozim. Munozarali savollarni o'qituvchi tuzadi va o'quvchilarni bahsga chorlaydi. O'qituvchi savollar bilan o'quvchilarni faollashtirib turadi va o'quvchilarning javoblarini izchil va aniq bo'lishiga ko'maklashib turadi. Bahs-munozara darslari o'quvchilarning nutqlarini aniq va ravon bo'lishiga, ularning muomala madaniyatlarini o'sishiga zamin yaratadi. Bunday darslarni tashqil etish o'qituvchi bilan o'quvchilarni bir-birlariga yaqinlashtiradi, do'stona munosabat uyg'otadi, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishning samaradorligini oshiradi. Bunday darslarni uyushtirish o'qituvchi va o'quvchilardan dars jarayonida bir qancha qoidalarga amal qilishlarini talab qiladi:

O'quvchilardan:

- o'z fikrlarini tushunarli qilib, shoshilmasdan ifodalash;
- munozara paytida suhbatdoshlariga nisbatan hurmatda bo'lish;
- odobni saqlash (qo'l ko'tarib navbat bilan javob berish);
- boshqa o'quvchilar gapirganda halal bermaslik;
- suhbatdoshlarini fikrlarini diqqat bilan tinglash;
- mavzudan chetga chiqmaslik;
- fikri noto'g'ri bo'lsa ham, munozarada ishtirok etishga intilish;
- o'z fikrini dalillar bilan isbotlash.

O'qituvchidan:

- o'quvchilarni munozaraga tortish;
- o'quvchilarni qiziqтира olish;
- o'quvchilar xatolarini tushuntirib, to'g'rilab turish;
- o'quvchilar fikrlarini bir tizimga solib turish;
- faol ishtirok etganlarni rag'batlantirish.

Quvnoqlar va zukkolar darsining asosiy maqsadi o'quvchilarning darslarda olagan bilimlarini sinovdan o'tkazish, ularni mustahkamlash, darsdan tashqari olgan bilimlarini nazorat qilish, ularni aniq bir maqsad sari yo'naltirish, o'quvchilarni musiqiy asarlar bilan muloqotda bo'lishlarini shakllantirishdan iborat. Darsning musobaqa tarzida tashqil etilishi o'rganilayotgan kompozitor ijodi yoki musiqiy asarning yaratilish tarixi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Bunday darslarda kompozitorlarning mahoratlari, ular yaratgan asarlar zamiriga singdirilgan musiqiy vositalarni anglatish, ularni o'zlashtirishga qiziqtirish, mustaqil mushohada yuritishga odatlantirish ham muhim hisoblanadi. O'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik, hushyorlik fazilatlarini shakllantirish ham bu dars maqsadining tarkibiy qismidir.

Quvnoqlar va zukkolar darsi – musiqiy mashg'ulotlarning qiziqarli o'tishini va o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlovchi noan'anaviy dars

shakllaridan biridir. Quvnoqlar va zukkolar darsini bir necha yo'nalishda o'tkazish mumkin. O'tilgan mavzularni takrorlash, qo'shiq kuylash tarzida, savol-javob tarzida, musiqa vositalarini aniqlash, tinglangan musiqiy asarlarni mazmun-mohiyatini izohlash, asarlarni yodga olish bo'yicha turli xil didaktik o'yinlar tarzida uyushtirish bunday dars yo'nalishlariga usul bo'lishi mumkin.

O'qituvchi quvnoqlar va zukkolar darsiga alohida tayyorgarlik qilishi kerak. U savollarni avvaldan tayyorlashi, darsda qanday ta'limiy-tarbiyaviy usullar qo'llanishini avvaldan rejalashtirishi kerak. Bunday darslarda musiqiy o'yinlarni uyushtirishning boy imkoniyati mavjud. Masalan, televideniye orqali namoyish etiladigan musiqiy ko'rsatuvlarga taqlid qilgan holda «Kuyni top!», «Mo'jizalar maydoni», «Ohanrabo», «Balli qizlar!», «Balli yigitlar!» kabi darslarni tashqil etish orqali darslarning samaradorligini oshirish mumkin. Quvnoqlar va zukkolar darslari o'quv yilininng yakunida, chorak oxirida, rejadagi har bir bo'lim yakunida uyushtirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday darslarda sinfdagi o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi, qizlar va bolalar, qatorlararo, parallel sinflararo bo'lish mumkin. Har bir jamoaga sardor saylanadi. Ikki raqib jamoalar o'z bilimlarini sinab ko'rishadi. Faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladilar. Bunday darslarda maktab rahbariyati, boshqa fan o'qituvchilarining, yuqori sinf o'quvchilarining jyuri a'zosi bo'lishi darsning ahamiyatini oshiradi va o'quvchilarning qiziqishlarini orttiradi. Quvnoqlar va zukkolar darsi o'quvchilarga uni tashqil etishdan bir hafta oldin ma'lum qilingan bo'lishi kerak. Musobaqaning shartlari avval o'tilgan darslarga asoslangan bo'lmog'i darkor. O'quvchilar bir hafta davomida bilishlari kerak bo'lgan ma'lumotlarni takrorlab, mustahkamlab, o'z ustilarida ishlaydilar. Musiqiy sahnalar, qo'shiqlar va boshqa musiqa savodiga oid bilimlar, ma'lumotlar umumlashtiriladi. O'quvchilarning har bir shart uchun to'plagan ballari doskaga va jyuri a'zolarining maxsus daftarlariga yozib boriladi. Dars oxirida ballar umumlashtiriladi va e'lon qilinadi hamda g'olib jamoa rag'batlantiriladi. Bunday darslarga tayyorgarlik jarayoni o'quvchilar uchun o'ziga xos o'quv-biluv, takrorlash va mustahkamlash, izlanish va boshqotirish, umuman olganda musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga aylanadi. Quvnoqlar va zukkolar darsidagi ta'limiy o'yinlar, mitti boshqotirmalar, sirli topshiriqlar, har xil faoliyatlarning almashib turishi o'quvchilarni fikrlashga, o'ylashga odatlantiradi, zerikish, zo'riqish va toliqishdan saqlaydi. Shuningdek, bu darslarda o'qituvchi o'quvchilarni har tomonlama: o'rtoqlariga nisbatan munosabati, muomala madaniyati, o'zlarini har xil vaziyatda qanday tuta olishlarini va boshqa xildagi xatti-harakatlarini, odatlarini yaqindan bilib, sinab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Quvnoqlar va zukkolar darsini tashqil etishda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- o'rganilgan mavzuning mazmun va mohiyati, undan kutilgan maqsad va amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar, o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda «Quvnoqlar va zukkolar» darsini rejalashtirish;
- quvnoqlar va zukkolar darsining mavzusini va dars o'tkaziladigan kun haqida o'quvchilarga bir hafta oldin xabar berish;
- quvnoqlar va zukkolar darsida beriladigan savol va topshiriqlarni oldindan tayyorlash, javoblarni sir tutish, dasturga muvofiq o'tilayotgan mavzuga mos bo'lishiga erishish;
- musobaqa shartlarini hamma bilan kelishilgan holda belgilab, tasdiqlab olish;
- quvnoqlar va zukkolar darsida qo'llaniladigan ta'limiy o'yinlarning, har bir shart uchun berilgan vaqt, ishtirokchilar sonini kelishib olish;
- quvnoqlar va zukkolar darsidagi o'yinlar va faoliyatlarning o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligiga ahamiyat berish;
- shartlarning xolisona, haqqoniy va odil baholanishiga erishish;
- g'olib jamoani mag'lub jamoani kamsitmagan holda rag'batlantirish.

Tahlil darsi – musiqa savodi, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash jarayonlarida o'tilgan asarlarni mukammal tahlil qilishga e'tibor beriladi. Zotan asarlarni batafsil tahlil qilish, ya'ni uning mualliflari haqida ma'lumotlar keltirish, asarning tempi, ritmi, o'lchovi, ladi, tonligi, dinamikasi, shakli, qanday jamoa yoki orkestr uchun yozilganligini aniqlash, janrini aniqlash, uning g'oyaviy mohiyati, badiiy qiyofasini o'rganish asar orqali musiqiy–nazariy bilimlarni o'zlashtirishga zamin yaratadi.

Tahlil darsini qanday tashqil etish va qay yo'sinda o'tkazish o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq. Bunday darslardan, avvalam bor amaliy maqsad ko'zlanadi. Tahlil darslari o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatadi, o'ylashga majbur qiladi, turli muammolarga duch kelib ularni yechishga undaydi.

Suhbat darslari – musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini jonli va qiziqarli o'tkazishning muhim vositalaridan biridir. Darslarni suhbat shaklida uyushtirish va o'tkazish o'qituvchidan ijodiy izlanishni talab qiladi. Suhbatni aniq tuzilgan reja asosida, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tarzda olib borish o'qituvchi mahoratining belgilovchi omili hisoblanadi. Suhbat dars jarayonida o'quvchi mustaqil fikrlashga va o'z fikrini bayon eta olishga o'rganadi. Suhbatning samarali, qiziqarli, ma'lumotlarga boy bo'lishi o'qituvchining rahbarlik mahoratiga, savollar tuzish va ularni to'g'ri tanlay olish uquviga bog'liq. Suhbat darslari o'zlashtirilgan musiqiy-nazariy bilimlarni tekshirishning eng samarali yo'llaridan biridir. Suhbat darslarining yana ham samaraliroq bo'lishi suhbatdoshlarning mavzuni aniq va yaxshi tushunishlariga, suhbat paytida beriladigan savollar aniq va lo'nda bo'lishiga bog'liq. Savollar og'zaki tarzda

berilib xuddi shu tarzda javob olinadi. O'qituvchi o'quvchilar javoblaridagi xatolarni kuzatib boradi va kerak bo'lgan hollarda tuzatib turadi. Suhbatda mustaqil o'rganilgan qo'shiq, tinglangan musiqiy asar, ko'rilgan konsert yoki musiqiy ko'rsatuv haqida so'zlashish mumkin. O'qituvchi dars mavzusini avvaldan aytib qo'ygan bo'lishi kerak. O'qituvchi tayyorlab qo'ygan savollarini beradi va o'quvchilar javob bera boshlaydilar. To'liq berilmagan javoblarni boshqa o'quvchilar to'ldiradilar. O'qituvchi suhbatni boshqarib boradi va o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Suhbat darslarida o'qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tuziladigan suhbat uchun qiziqarli va hayotiy savollar tayyorlash.
2. Savollar mavzuni to'la qamrab olishiga ahamiyat berish.
3. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalashlariga sharoit yaratish.
4. Savollar tizimli va izchil bo'lishiga erishish.
5. Barcha o'quvchilarni suhbatga jalb etish.
6. Suhbat davomida bir-birlariga hurmat ko'zi bilan qarashga erishish.
7. Muomalada o'quvchilarga namuna bo'lish.
8. Fikrlarni umulashtirish va xulosa chiqarish.

Musiqiy sayohat darslari – musiqashunoslik manbalarini o'rganish, biror bir kompozitorning ijodini kengroq o'rganish uchun kompozitorning uy muzeylariga, konsertlarga, musiqiy festivallarga, musiqiy tanlovlarga sayohat qilish orqali yoki video tasma yordamida biror mavzuga oid musiqiy sayohat qilish orqali uyushtiriladi. Sayohat obyektlari dars mavzusiga bevosita aloqador bo'lishi muhim shartlardandir. Bu o'z navbatida sinfda o'tilgan darslardan ancha samaraliroq bo'lib, o'quvchilar ongida uzoq saqlanib qoladi. Ularning musiqiy dunyoqarashlarini, musiqiy tafakkurlarni shakllantiradi hamda musiqiy-estetik his-tuyg'ularini uyg'otadi. Bunday darslar o'quvchilarda shu fanga va o'qituvchiga nisbatan hurmat va muhabbatni oshiradi. O'qituvchi bilan o'quvchilar bir–birlarini yaxshiroq tushuna boshlaydilar, bir-birlariga ruhan yaqinlashadilar. Musiqiy sayohat darslari ayrim shart-sharoitlarga bog'liq ravishda tashqil etiladi. Buning uchun shahar yoki viloyatda biror bir konsert yoki tanlov bo'lishi, sinfda video tasma yoki kompyuter mavjud bo'lishi bilan bog'liqdir.

Stol atrofidagi darslar – asosan musiqiy-nazariy bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilarning olgan bilimlarini tekshirish uchun tashqil etiladi. O'quvchilar jamoalarga bo'linadilar. O'qituvchi maxsus tayyorlangan konvertlarda savollarni qator qilib terib qo'yadi. Jamoa sardorlari galma-gal konvertlarni tanlaydilar va jamoalari bilan kelishgan holda javob beradilar. Har bir savolga tayyorlashin uchun belgilangan vaqt beriladi. Dars oxirida eng ko'p ochko yiqqan jamoa reyting tizimining eng yuqori ballari bilan baholanadi. Qolgan jamoa ishtirokchilari javoblariga muvofiq kamroq ballar bilan baholanadilar va hokazo. Bunday darslar

o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, ularni faollashtiradi. Stol atrofida darslari «Zakovat» televizion o'yiniga juda o'xshab ketadi. O'qituvchi savollar tuzishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, dars mavzusini hisobga olgan holda tanlashi lozim.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Raqs san'atini yuzaga kelishi.
2. «paxta» va «Shohida» baletlari.
3. G.Mushelning baletlari.
4. Balet janrining kelgusidagi rivoji.

Adabiyotlar

1. Istoriya uzbekskoy muziki. Tom I, II. Toshkent 1972, 1973
2. T.Ye.Solomonova «O'zbek musiqa tarixi» Toshkent 1981.

19-mavzu: Xorijiy musiqa ta'limi musiqa tarbiyasining zamonaviy sistemasi

Reja:

1. *Xorijiy mamlakatlarda Musiqa o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari*
2. *AQSh da musiqa o'qitishning maqsad va shakli*
3. *Angliyada musiqa tarbiyasi tuzimi*
4. *Yaponiyada musiqa o'qitishning o'ziga xos bo'lgan o'rni*
5. *Bolgariyada musiqa o'qitishning maqsad va shakli*
6. *Vengeryada musiqa o'qitishning maqsad va shakli*

Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil topgan o'quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz, katta qiziqish uyg'otmoqda. Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy iarbitya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo'lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Xor ijrochiligi elementlarini o'z ichiga olgan musiqiy tarbiyaning zamonaviy xorijiy uslublari orasida kuyida bayon etilgan yo'nalishlar butun dunyoda ommaviylashib ketgan: Z. Kaday (Vengeriya, solfedjio, musiqa o'quvini rivojlantirish), L.Daniel va F.Lisek (Chexiya, «tayanch» qo'shiqlari, solfedjio, qo'shiqchilik), B.Trichkov (Bolgariya, solfedjio), R.Muynnik (Germaniya, «yalen»

tizimi, solfedjio, qo'shiqchilik), K.Orf. (Germaniya-Avstriya, Musiqali ijod, metro-ritmik o'quvchni rivojlantirish), J.Jak Dalkroz (Shveysariya, Musiqali ijod), T. Sudzuki (Yaponiya, skripka ijrochiligiga o'rgalish orqali musiqiy malakalarni rivojlantirish), Dj.Kerven (Angliya, «Tonik-sol-fa» tizimi, solfedjio), P.Van Xauve (Gollandiya, musiqali ijod), D.Kabolevskiy (Rossiya, musiqa asrlarini idrok etish tajribasini rivojlantirish), N.Vetlugina (Rossiya, bolalar rivojlantirishning yaxlit tizimi), V.Bogadurova (Rossiya, ijrochilik malakalarini rivojlantirish).

Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi. Shuning uchun musiqa tarbiyasi mustaqillik mamlakatlarda e'tiqod uchun xorijiy mamlakatiarida esa burjua demokratiyasi uchun xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Xorijiy mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollejlar va oliy ta'lim dargohlari mavjud. Bularda turlicha darajada estetik tarbiyani amalga oshirishda o'qituvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan. O'qituvchi o'zining maktab sharoiti, imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o'zlashtirishlar kiritishi mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda san'at orqali hayotni o'rganish va unga shaxsiy munosabat bildirish, ijodiy munosabatda bo'lish malakalarini rivojlantiradi.

Musiqa darslarida yuksak rivojlangan texnik vositalaridan keng foydalaniladi. O'quvchilar elektrorganlarda chalib kuylaydilar, turli faoliyatlarni (aytishuv, harakatlar, bir-biriga jo'rnavezlik qilishlarni) bajaradilar. Bunda asosan o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni ro'yobga chiqarishdan iborat.

2. Amerika Qo'shma Shtatlari maktablarining birinchi-to'rtinchi sinflarida ashula darsi har kuni 20-30 minut hajmida o'tkaziladi. Darslarni umumiy o'quv fanlari bo'yicha dars beradigan o'qituvchilar o'tkazadilar. Darslarda bolalar musiqa sadolari ostida o'ynaydilar, qo'shiq va ibodat qo'shiqlarini ijro etadilar, turli usuldagi mashqlarni bajaradilar. O'rta maktabda musiqa darslari dars jadvaliga har doim kiritilmaydi, aksariyat hollarda ular darsdan tashqari, vaqtda otkaziladi. Darsdan keyingi vaqtda xor, orkestr, ansamblardan keng foydalaniladi.

Maktab o'quvchilari uchun doimiy ravishda, oldindan maktablarga xabar berib, simfonik kontsertlar ham o'tkaziladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida turli musiqa cholg'u asboblari-kichik baraban, uchburchak, musiqali qutichalardan foydaniladi. Uchunchi sinfdan boshlab turli orkestr cholg'ulari ijrochiligi

o'rgatiladi, keyinchalik orkestr sozandalari birlashtirilib, maktab orkest jamoasi tashqil qilinadi. Amaldagi musiqa ijrochiligiga alohida e'tibor beriladi. Turli turdagi (kichik cholg'u ansambl va kamer xor jamoasidan tortib to yirik simfonik orkestr va katta xorgacha) jamoalar tuzilib, bularning orasida turli xor jamoalari kontsert, kamer, madrigal, qizlar, o'g'il bolalar xor jamoalari o'z ifodasini topadi. Umumta'lim maktablari musiqa o'qituvchilarini tayyorlash bilan kollej va universitetlar shug'ullanadilar. AQSh dagi Musiqa ta'limi sohasida aniq tizim va uslubiy bir xillik mavjud emas; o'quv muassasalarini davlat ham, shaxslar ham, turli kompaniyalar ham boshqaradiki, natijada beqarorlik va xilma-xillik vujudga keladi. Har bir shtatda o'zining maktab tizimi mavjud.

Musiqa darslarining shakl va mazmuni, o'quv soatlari pedagoglar tomonidan belgilanadi; aksariyat hollarda, ular yetarlik professional ma'lumotga ega emaslar. Musiqa o'qituvchilarining yetishmasligi tufayli, ayniqsa quyi bosqichlarda, mamlakatning turli maktablarida yosh kompozitorlar pedagog sifatida faoliyat ko'rsatadilar; qayerda ularga ehtiyoj sezilsa va qayerda ularning musiqalari ijro etilsa, o'sha yerda ular o'z mahoratini namoyon etadilar. Natijada, maktabda ijro etish uchun o'ziga xos yagona repertuar vujudga kelib, o'quvchilar kompozitorlar bilan muloqot qilish imkoniga ega bo'ldilarki, bu narsa juda muhimdir.

O'quv yurtlaridagi o'quv rejaları tuzilish va mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladilar, shuning uchun bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalari sezilarli darajada turlicha bo'ladi. Maxsus musiqa ta'limi o'qish muddati 4 yil bo'lgan kollejlarda boshlanadi, keyinchalik bir yil davomida musiqa magistri unvonini olish uchun o'qishni davom yettirish va yana 2 yil (jami 7 yil) musiqa doktori unvonini olish uchun o'qish mumkin. Kollejlarning 3 ta ijrochilik, musiqashunoslik va pedagogik turlari mavjud, ularda musiqa o'qituvchilari tayyorlanadi. AQSh da XIX asrdayoq tashqil topgan konservatoriyalar vaqt o'tishi bilan universitetlarga qo'shilib ketgan. Bundan kutilgan maqsad, ta'limni yaxshilashga intilish, yoshlarga nafaqat musiqali tayyorgarlikni berish, shuningdek ularning adabiyot, san'atning boshqa turlari bo'yicha bilimlarini kengaytirishdir.

3. Angliya maktablarida, AQSh va boshqa burjua mamlakatlari qatori, yagona dastur va uslubiyatning yo'qligi sababli maktablardagi musiqiy tarbiya ishlarining ahvoli turli saviyadadir. Ijobiy misol tarikasida 1969-1970 yillarda Britaniya radio korporatsiyasining radio orqali 6-7 yoshdagi bolalar uchun tashqil etilgan 10 minutli musiqa eshittirishlarini keltirish mumkin. Bu eshittirishlardan ko'zda tutilgan maqsad-bolalarning musiqa cholg'ulari ijrochiligiga xohishlarini uyg'otish bo'lgan: bolalar radio eshittirish jarayonida musiqani ijro etishlari lozim bo'lgan keyinchalik, bu dasturlar magnit tasmalariga yozilib, maktablarga, ulardagi «Musiqa burchaklari» ga jo'natilgan.

Hozirda Angliya maktablarida ko'proq Dj.Kerven (1816-1880) tomonidan ishlab chiqilgan, reletiv tizimiga asoslangan o'qitish usullari qo'llanilmoqda. Angliyada boshlang'ich maktab o'qituvchilarni o'rta maxsus o'quv yurtlari-ikki yoki uch yillik kollejlar tayyorlaydi. Milliy musiqa maktabi, Kirollik musiqa akademiyasini bitirgan musiqachilar uchun 1 yillik maxsus pedagogik kurslar tashqil etilgan. O'rta maktab musiqa muallimlarini universitetlarning musiqa pedagogika fakultetlari tayyorlaydi. Ularda o'qish muddati 4 yilni tashqil etadi.

Universitetlar o'rta maktab uchun universal musiqa o'qituvchini tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganki, o'qituvchi nafaqat xor jamoasiga rahbarlik qilish, shuningdek, orkestrni boshqarish, musiqa va ashula ansamblida mashg'ulot olib borish, bolalarni musiqiy cholg'uda ijro etishga o'rgata bilishi lozim. Buyuk Britaniyada boshlang'ich sinflarda 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qiydilar. Barcha o'quv fanlarini bitta o'qituvchi olib boradi.

Boshlang'ich maktabni bitirgach, bolalar gumanitar yoki texnik yo'nalishga asoslangan o'rta maktablarga o'tadilar. Bularda musiqa ta'limiga ko'proq e'tibor beriladi.

4. Yaponiyada ham yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Yaponiyada musiqa tarbiyasining o'ziga xos sistemasi vujudga kelgan. Ularda bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya integratsiya qilingan fan bo'lib unga musiqa, tasviriy san'at va mehnat uzviy birlashgan. U bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

a) 1-5 yoshgacha bolalar bog'chasida

b) 6-14 yoshgacha toliqsiz o'rta maktab

v) 15-18 yosh o'rta maktabi

g) 18-23 yosh oliy ta'lim maktabi.

Bolalar bog'chasida «Suzduki» tizimi mashhurdir. Uning tizimida ona tilini o'qitilishi, musiqa tinglab idrok etishi bilan amalga oshiriladi. Bolalar cholg'u asboblarda kuy chalishlari muhira rol o'ynaydi. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning onasi ham ishtirok etadi. Mashg'ulot mazmuni va maqsadidan ogoh bo'ladi va oilada o'z ovozi bilan shug'ullanadi. Suzduking ta'dbirida onalar musiqa ma'lumotiga ega bo'lishi shart emas.

Oilada gramzapis, televideniye, kontsertlarda tinglangan asarlarni muhokama etadilar. Bunda bog'cha va oilaning hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Natijada 5-6 yoshli bolalar Betxoven sonatalarini chalishga erishadilar. Yuqori sinflarga ko'chgan sari estetik tarbiya ham bir predmet singari murakkablashib boradi. Yuqori sinflarda rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq san'ati tanqidchilari yetishadi.

O'qituvchi-kadrlar tayyorlash ishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ular oliy pedagogika va san'at oliyogohlarida tayyorlanadi. O'qituvchilar, shuningdek, ona Vatanida

olgan bilimlarga qoniqmay, rivojlangan Yevropa mamlakatlarga o'qishga borib o'z bilim va malakalarini oshiradilar.

5. Bolgariyada musiqa darslari, o'quv rejasiga muvofiq, maktabni birinchi sinfidan to'qqizinchi sinfga qadar o'tkaziladi, 10-11 sinflarda esa, ixtiyoriy mashg'ulotlar tarzida haftada ikki soatdan olib boriladi. Birinchi sinfda, musiqa darsiga haftada 1 soat, 2-6 sinflarda esa ikki soatdan ajratiladi. Birinchi sinf-tayyorlov sinfidir. Bunda bolalar kuylarni yodlab qo'shiq aytishni o'rganadilar, musiqa sadolari jo'rligida davrada o'ynab, kuylaydilar.

Ikkinchi sinfdan boshlab o'quvchilar darsda musiqa savodini va qo'shiq aytishni o'rganadilar. Bolgariyadagi ommaviy musiqiy tarbiyaning asosi-bu xalq qo'shiqlaridir. Bolgar xalq musiqasi o'ziga xos usul, ohang va boshqa xususiyatlarga ko'ra hozirgi zamon yoshlarining musiqa ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatiga egadir. Bolgariyada asosiy diqqat-e'tibor ommaviy havaskorlik jamoalari-folklor ansambllariga qaratilgan.

Ularning faoliyatida xalq ijodi namunalari milliy ijrochilik uslubiga yaqin ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Xalqchilik ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgan bolalar va yoshlarning qo'shiq va raqs xalq ansambllari ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi va badiiy-emotsional ta'sirning vositalaridir. Bolgar xalq qo'shig'ining boyligini egallash, uning o'ziga xos ohang ko'lamini o'zlashtirish, bolalarda musiqiy tasavvur hamda ijro malakalarini egallashga ko'maklashadi, milliy hamda jahon mumtoz musiqa asarlarining go'zallik va boyliklarini baholashga imkon beradi. Bolgariya ommaviy musiqa ta'limining milliy uslubiyati, uning bolalarda musiqaviy ijrochilik, ritmik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullari musiqiy tarbiyaning dastlabki bosqichida o'quvchining bajiha va boshqa ijodiy harakatlarini rag'batlantiradi.

Bolgariya musiqa ta'limi tizimida 1923 yilda Boris Trichkov tomonidan ishlab chiqilgan «Stolbitsa» (ustun) metodi keng tarqaldi. Oddiy, ommabop, qiziqarli bo'lgan «stolbitsa» usuli, ayniqsa umumta'lim maktab bolalari bilan ishlashda katta yordam bermoqda. Boshlang'ich sinflarda musiqa darsni barcha o'quv fanlaridan mashg'ulot olib boradigan pedagoglar o'tkazadilar, Ular gimnaziyani bitirgach, muallimlar institutida ta'lim oladilar.

Muallimlar institutida o'qish muddati uch yil. 5-8 sinflarda ashula darsini, ikki o'quv fani (masalan, til va ashula) bo'yicha pedagogika institutining maxsus fakultetida ta'lim olgan o'qituvchi o'tadi. 9-12 sinflarda esa, konservatoriyaning musiqiy nazariya fakulteti qoshida tashqil etilgan maxsus pedagogika bo'limlarining bitiruvchilari olib boradilar. Ularning o'qish muddati to'rt yil. O'quv dasturlarida ko'rsatganidek musiqa darslari asosini guruhli kuylash va musiqa cholg'ularida ijro etish tashqil etadi. Maktabdagi o'quv jarayoni darsliklar va o'qituvchilarga mo'ljallangan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlangan bo'lib,

bu narsa, albatta, ommaviy musiqiy tarbiyani amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Bolgariyada xor madaniyatini rivojlanishiga Sofiya o'smirlar saroyining «Bodrasmena» bolalar xor jamoasi katta hissa qo'shdi. Jamoa 1947 yilda tashqil topgan. Uzoq yillar mobaynida bu jamoaga Bolgariya xalq artisti, professor Boncho Bochev rahbarlik qilgan edi. Xor jamoasi tarkibida 380 a'zosi bo'lib, u katta va kichik yoshdagi bolalar guruhlarini 100 kishilik kontsert guruhidan iborat. Mazkur jamoasi ijro dasturiga murakkab ko'p ovoqli, turli janr va uslubdagi asarlar kirgan. Bolalar va o'smirlar havaskor xor maktab-studiyasi bolalar xor jamoalarining zamonaviy ko'rinishi sifatida yosh ijrochilar uchun ma'lum professional istiqbollarini ochib beradi.

Shunday jamoaning muntazam kontsert faoliyati, havaskor xor - jamoaning xor maktabiga aylanishidagi muhim shart-sharoitlaridan biridir. Bolalar va o'smirlar xor maktablari, ushbu maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar professional xor jamoalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xor jamoalari negizida-turli xil repertuarga ega bo'lgan kamer, madrigal, katta kontsert jamoalari shakl topishi mumkin.

B.Bochevning «Bodro smena» xor jamoasining ish tajribasini har bir bolalar xor jamoasiga tadbiiq etish mumkin. Bolalar va o'smirlar havaskor xor maktablarini mustahkamlash zamon tarablariga javob beradigan, mukammal tashqiliy-o'quv shakllarini vujudga keltirish mumkin.

6. Vengeriyada musiqiy tarbiya sohasida erishtilgan asosiy yutuqlar zamonaviy venger musiqasining asoschilaridan biri, kompozitor, xalq og'zaki ijodi bilimdoni, musiqashunos, pedagog Zoltan Koday (1883-1967) nomi bilan bog'liqdir. Bolalarning musiqiy tarbiya sohasidagi o'zining faol va sarmahsul faoliyatini Z.Koday 1920-yillardan boshladi. Z.Kodayning bolalar musiqiy tarbiya tizimi ommaviylik tamoyiliga asoslangan.

Buyuk alloma xor jamoasida qo'shiq aytish hammaga ham mumkinligini alohida ta'kidlagan, keng ommani xor ijrochiligiga jalb etib, bu ishga alohida diqqat va e'tiborni talab qildi. Uning butun musiqiy ta'lim jarayoni xalq kuylariga asoslangan. Koday ommaviy venger maktabiga «Tonika-sol-fa» usulini kiritdi. Uning g'oyalari ikkinchi jahon urushidan so'ng ommalashib ketdi. Koday metodi bu yaxlit tizim bo'lib, relyativ (nisbiy) solmizatsiya, kuylayotgan o'quvchilarga qo'l harakati yordamida beradigan ko'rsatmalar, venger xalq qo'shig'i, musiqani chuqur o'rganishga yo naltirilgan umumta'lim maktablari, jo'rsiz guruhli kuylashdan iborat.

Unutmaslik kerakki, Koday metodi haqida gap ketganida, so'z musiqiy tarbiya kontseptsiyasi haqida, kni hayotga tadbiiq etish yo'llari to'g'risida bormoqda. Bularni Z.Koday turli manbalardan olib, venger musiqasi xususiyatlariga

moslashtirdi. Guruhli kuylash Vengeriyada, haqiqatdan, umumxalq jarayoni bolib, bunga musiqa savodxonligi nota bo'yicha qo'shiq aytalish yordam beradi.

Z.Kodayning «2000 yilga kelib har bir umumta'lim maktabini bitirgan o'smir notani erkin o'qiy oladi» - degan orzusi amalga oshmoqda. Vengeriyada musiqiy tarbiya yuqori darajadadir. Bu mamlakatdagi umumta'lim maktab tizimining asosi sakkiz-yiilik to'liqsiz o'rta maktab bo'lib, uni bitirgan o'quvchilar to'rt sinflik gimnaziya o'tadilar. Birinchi sinfda bolalar haftada ikki mart 0,5 soatdan, ikkinchi-yettinchi sinflarda esa haftada ikki soat «Musika» o'quv fani bilan shug'ullanadilar. Bundan tashqari har hafta ikki soat orkestr mashg'ulotlariga ajratiladi.

Uchinchi-to'rtinchi sinflarda o'quvchilar musiqa adabiyoti bilan tanishish va birorta musiqa cholg'usini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Umumta'lim maktablari orasida musiqa-qo'shiqchilik to'liqsiz o'rta maktablari, ya'ni musiqani chuqur o'rganishga qaratilgan umumta'lim maktablari keng joriy etilgan. Ularda birinchi-to'rtinchi sinf o'quvchilari haftada olti soat, beshinchi-yettinchi sinflarda esa to'rt soat musiqa va ikki soat xor mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar.

Maktablarda shuningdek, fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg'ulari sinflari mavjud. Bunday maktablardagi sinflarda o'quvchilar soni umumta'lim maktab sinfidagi bolalar soniga nisbatan kamroq, ya'ni 26 o'quvchidan ortmaydi. Bundan tashqari, ularda umumta'lim yo'nalishdagi o'quv fanlarining soni ham barcha o'quv fanlaridan bilim berayotgan o'qituvchi musiqa darsini ham o'tadi. Beshinchi-sakkizinchi sinflarda bu darslarini musiqa mutaxassisi olib boradi. Bolalarning musiqa savodini chiqarishda ustoz tomonidan qo'l harakatlari, maxsus imo-ishoralar keng qolaniladi.

Relyativ solmizatsiyani chuqur o'rganganden so'ng, o'quvchilar muloq tizimga o'tadilar. Musika ta'limini berish, shu jumladan musiqa o'quvchini rivojlantirish uslubiyati, asosan, bolalar ongining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan va ularga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Umumta'lim maktablarida fortepiano, fleyta, yog'och tsimbala va ayrim urma cholg'ularidan foydalaniladi.

Koday tizimi ayniqsa, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim maktablarida o'zining yorqin ifodasini topmoqda. Har kungi musiqa darslari bolalarda usullarni ajrata bilish tajribasini, xotira, his-tuyg'ularni rivojlantiradi. 14-18 yoshdagi o'quvchilar ta'lim oladigan gimnaziyalarda musiqa tarixi fani o'rganiladi, barcha janr, uslub va davrdagi musiqa asarlari eshitiladi, shuningdek, sinfdan tashqari faoliyat ko'rsatadi. Vengeriyada maxsus musiqa ta'limi beradigan gimnaziyalar ham mavjud. Bunday gimnaziyalar bitiruvchilari, aksariyat hollarda, boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchilari bo'lib ishlaydilar. Shuningdek, Vengeriyada bir nechta musiqa bilim yurtlari ham mavjud. Mazkur

o'quv yurtlarida oquvchilar umtimta'lim fanlari bilan birga biror musiqa cholg'usini, solfedjio, garmoniya, guruhli kuylashni o'rganishadi.

Gimnaziya bitiruvchilari o'qishni (t'lim olish muddati uch yildan besh yilgacha bo'lgan) F.List nomidagi Musiqa akademiyasida davom yettirishlari mumkin. Uch yillik kurslarda umumta'lim maktablari uchun solfedjio, qo'shiq, biror musiqa cholg'u ijrochiligi bo'yicha mutaxassis-o'qituvchilar tayyorlanadi. Besh yillik ta'lim esa oliy malakali o'qituvchi va ijrochi-artistlarni tayyorlaydi. Bundan tashqari, Vengeriyada yuqori sinf musiqa o'qituvchilarni tayyorlaydigan to'rt yillik oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, bu yerda talabalar muayyan musiqa ixtisosligi (masalan, musiqa va tarix, musitqa va til va boshqalar) ni ham egallaydilar.

Ta'kidlash lozimki, Z.Koday tizimi Vengeriyadagi musiqa ta'limi va tarbiyassining barcha bosqichlarida joriy etilmoqda; Vengeriya musiqashunos-pedagoglarining tajribasi dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham musiqashunos va pedagogika mutaxassislari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

Z.Koday tizimi turli milliy madaniy an'analarga muhim ravishda moslashib bormoqda va shuning uchun u jahonning aksariyat mamlakatlarida keng miqyosda ommalashib ketdi. Vengeriyada butun xalq musiqiy savodini chiqarish vazifasi muvaffaqiyat bilan hal etilmoqda. Bunda musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim maktablarida har kuni o'tkaziladigan musiqa darslari katta ahamiyat kasb etmoqda. Guruhli kuylash Vengeriyada, chindan ham umumxalq jarayonidir, bunga odamlarning musiqa savodxonligi, notaga qarab kuylash malakasi ta'sir ko'rsatmoqda.

7.Germaniyaning yirik nemis kompozitori va buyuk pedagog Karl Orf (1895-1982) jahonda keng tarqalgan bolalar musiqiy tarbiya uslubiyatining asoschilaridan biri hisoblanadi. Shveytsariyalik pedagog E.Jak-Dolkroz (1865-1950) ning o'quv tizimiga asoslanib K.Orf «Oddiy musiqa» (elementar musiqa) g'oyasini ishlab chiqdi va bu g'oyani Myunxendagi Guntenshule (Gunter maktabi) gimnastika va raqs maktabidagi o'qitish uslubiga aylantiradi. 1953 yilda Avstriyaning Zaltsburg shahrining Motsarteum deb nomlangan musiqa dargohida Karl Orf instituti tashqil topib, u AQSh, Angliya, Germaniya, Xindiston kabi 30 dan ortiq mamlakatlarni birlashtirgan daobro ilmiy muassasaga aylanib ketdi. K.Orf nomidagi institutda 400 dan ortiq o'quvchi, 50 dan ziyod pedagog ta'lim oladi. Orf kashf etgan bolalar va o'smirlar musiqiy tarbiya usuli o'quvchilarning musiqiy folklordan keng miqyosda foydalanish, ularning ijodiy ko'nikma va imkoniyatlarini rivojlantirishga asoslangan. Ushbu o'quv usuli tamoyillari xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan «Shulverk» to'plamida o'zining badiiy-metodik talqinini topdi.

Besh jildlik «Shulverk» uslubiy qo'llanmasi, asosan umumta'lim maktablari va bolalar muassasalaridagi to'rt yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan bolalarning uzluksiz musiqiy ta'lim-tarbiyaga mo'ljallangan xalq musiqi ijodiga asoslangan bu qo'llanmadagi p'esalar bolalar ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

«Shulverk» asarlari xalq qo'shiqlari va ko'hna musiqi namunalari asosida bastalangan bo'lib, bu to'plamda xalq she'riyat matnlariga ham keng o'rin berilgan. Barcha namunalarga etnografik yoki tarixiy manbalar asosida izoh berilgan. Bu o'ziga xos hamma bolalarga majburiy musiqi ta'limini beradigan boshlang'ich maktabidir. Orfning fikriga ko'ra, boshlang'ich o'quvi hamda ritm hissiyotini rivojlantirish, kuylashga yoki biror cholg'u asbobida ijro etishga o'rgatish, balki, bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, yakka va jamoaviy ijro jarayonida musiqani ijod etish qobiliyatini rivojlantirish hamdir.

Guruhdagi bolalar soni 10-12 kishidan oshmasligi kerak. Barcha mashg'ulotlar jamoaviy tarzda olib boriladi, bunda bolalar qo'shiq ijro etib raqsga tushadilar, navbat bilan musiqi cholg'ularida chaladilar, turli jismoniy mashqlarni bajaradilar. Asta-sekin bolalar shu darajaga yetib boradiki, ular butun tomosha-sahnachalarni, keyinchalik hatto spektakl, undagi musiqi, she'riy matn, sahna jihozini, barcha xatti-harakatlarni ham o'zlari o'ylab topadilar.

K.Orf cholg'u jurnaovozligiga ham katta ahamiyat beradi. «Shulverk» da nazarda tutilgan jamoaviy cholg'u ijrochiligi bolalardan maxsus tayyorgarlik va bilimni talab qilmaydi, ammo unda ta'limning oddiyliigi bilan musiqi yangrashining yuqori sifatlari uyg'unlashadi. «Shulverk» dagi aksariyat namunalar aytim (vokal) mashqlarga asoslangan. Orfning uslubi notaga qarab ijro etish (ya'ni, nota savodi) ga bog'liq bo'lmasa-da, institut pedagoglari relyativ solfedjioga o'zgaya yondoshadilar: bolalarga tovushlarning nisbiy va mutloq nomlari barovar o'rgatadilar.

Hozirda «Shulverk» to'plamidan ko'p mamlakatlarda foydalanilmoqda. K.Orf ta'kidlab o'tganki «Shulverk» kitobini har bir mamlakatda milliy musiqi shu jumladan bolalar folklori bilan boyitish zarur. «Shulverk» ning frantsuz, yapon, ingliz, shved, ispan va boshqa milliy nashrlari mavjud. Mazkur kitob ko'r, saqov, maxsus logopedik bolalar maktablarida joriy etilmoqda.

Orf institutida ertalabki darslar yosh pedagoglar oliygoh talabalari bilan o'tkazilardi. Bolalar mashg'ulotlari esa kunning ikkinchi yarmida o'tadi. K.Orfning didaktik kontseptsiyasi jahon o'quv amaliyotida keng tarqalgan bo'lib, turli uslubiy yechimlarga yo'l ochadi va ijodiy tafakkurni rag'batlantirishga ko'maklashadi. Orf kontseptsiyasi Markaziy Osiyoda Chimkent shahrida shuningdek, Toshkent shahri ba'zi umumta'lim maktablarida tadbiiq qilinadi.

8. Gollandiyadagi bolalar musiqiy tarbiyaning tizimi, umrining 35 yilini musiqi faoliyatiga bag'ishlangan Per van Xauve (Delft shahri) nomi bilan

bog'liqdir. U Parijda va Bryusseldagi konservatoriyalarini dirijyorlik, musiqa nazariyasi hamda kompozitsiya sinflari bo'yicha tugatgan. Delftda musiqa maktabini tashqil etishi hamda uni boshqarish takliflarini qabul qilgandan so'ng u xor va orkestr jamoalarida dirijyorlik faoliyatini to'xtatdi. Hozirgi zamon pedagogik usullar bilan tanishish maqsadida Per van Xauve Yevropa mamlakatlariga, birinchi navbatda, Bavariyaga yo'l oldi. U yerda K.Orf va uning bolalar musiqiy tarbiyasi tizimi bilan tanishib, uning ashaddiy muxlisiga aylandi.

Shuningdek, Frantsiya va Belgiya. Italiya va Ispaniyada bo'lib qaytdi. Vengeriyada u Z.Koday bilan tanishdi. Kodayning musiqiy tarbiya tizimi Per van Xauve katta ta'asurot qoldirdi; u Koday shogirdlari katta yutuqlarga erishishga asos bergan relyativ tizimini qunt bilan o'rganishga kirishdi.

Bolalar bilan olib borgan amaliy faoliyat natijasida Per van Xauve musiqiy tarbiyadagi o'zining yangi tizimini yaratdiki, bu tizim ikki Orf va Koday usullarining o'zaro uyg'unlashgan mahsuli bo'lib, unda psixologiya va bolalar tasavvuriga mos keladigan asosiy tomonlari olingan edi.

Bu usulning mohiyati quyidagidan iborat: bolalarni o'yinga jalb etib (masalan, qarsak chalish, tarekalar, qo'ng'iroqlar, bubenlarni urib, tovush chiqarish), pedagoglar ularda musiqa bo'yicha malakalarini hosil qiladilar. Shu ravishda, hamma bolalar, musiqali bilim saviyalari turlicha bo'lishiga qaramay, ta'lim jarayoniga kirishib ketadilar. Ta'kidlash lozimki, Gollandiya musiqa maktablari bolalarga kasbiy ma'lumot berilishi o'z oldiga maqsad qilib qoymaydi, gar o'zining musiqaviy vaqti chog'ligi va xursandchiligi xaqida ketadi.

Delft musiqa maktabi tashqil topish davridan bir nechayildankeyin, Fer va Xauve o'z amaliyotida sinovdan o'tgan shaxsiy tarjibalariga asoslanib har bir sinf uchun "Musika bilan o'yinlar" nomli qator darsliklar yaratdi. Darsliklarda ko'plab musiqali p'esalar, mashqlar, o'yinlar, qo'shiqlar, aniq vazifalar mavjud bo'lib, ularni bajara borib, bola asta-sekin notani yozish va o'qishni, nota bo'yicha qo'shiq aytish va o'yin o'ynashni o'rganadi.

ADABIYOTLAR:

1. I.Akbarov .«Musika lug'ati»
2. Apraqšina O. «Методика музыкального воспитания в школе»
M. 1983
3. D.Omonullayev. «Umumiy ta'lim maktablarida musiqa dasturlari»T.1992
4. Gudkova Ye.A., Vasileva A.B. «Ashula dars metodikasi»

20 - Mavzu: Musiqa o'qitish metodikasi pedagogik fan sifatida

Reja:

1. Musiqa o'qitish metodikasi fanining mazmuni va maqsadi.
2. «Musiqiy ta'lim», «tarbiya metodikasi», «maktab» tushunchalari ahamiyati.
3. Musiqa o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan o'zaro bogliqligi.

Mustaqillikka erishilgach, Respublikamizda ma'naviyat va madaniyat masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Musiqa madaniyati darslarida san'atning bu turi bilan oshno bo'lish maktab o'quvchilarini milliy ruxda tarbiyalashda, ularning dunyoqarashi, ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Musiqaning keng tarbiyaviy imkoniyatlarini o'qituvchi amaliyotda tadbiiq eta olsagina, u bolalarning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning san'at asarlarini to'g'ri tushunish va baholay olishga o'rgatishi mumkin. Jamiyat tomonidan maktab oldiga qo'yilayotgan vazifalarni amalga oshirish fan oldida katta mas'uliyatni qo'yadi. Muhim vazifalarni bajarish musiqa tarbiyasini hayot bilan bog'lash, bolalar badiiy qiziqishlarini rivojlantirishni, mashg'ulotlar tarbiyaviy ta'sirini oshirish- musiqa madaniyati fani o'qituvchisidan o'z fanini chuqur bilishni va o'quvchi shaxsiga doimiy e'tibor bilan qarashni taqozo etadi.

Maktabda musiqa o'qitish metodikasi – bo'lg'usi musiqa o'qituvchisi tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega fandır. Predmet nomlanishining o'zi uning mazmunini yaqqol izohlab turadi. Ya'ni ushbu fan musiqa vositasida bolalarning tarbiyasini amalga oshirish masalalarini o'rganadi. Musiqa tarbiyasi metodikasini egallash uchun maktab dasturida musiqaning kiritilishi, musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini tarbiya ob'ekti sifatida zamonaviy o'quvchi shaxsini yaqqol tushunish talab etiladi. Tarbiyaning murakkab va ko'p qirrali vazifalarini hal etish uchun metodika fani o'quv rejalaridagi boshqa ko'pgina fanlardan foydalanadi. Tarixiy-nazariy turkum fanlar o'quvchilarga musiqa san'ati o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga, musiqiy obrazlarda hayot voqealarining aks etilishini, musiqa ifoda vositalarini anglashga yordam beradi. Musiqa tarixini bilish, uni rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilay olish, bastakorlik ijodiyoti, musiqa merosi xususidagi tushuncha va malakalar- o'quvchilar musiqiy didlarini tarbiyalashga asos bo'lib xizmat qiladi, ularning dunyoqarashlarini kengaytiradi.

Psixologik-pedagogik, metodologik fanlar esa hozirgi davrda maktabga o'qituvchi-tarbiyachiga o'quv-tarbiyaviy jarayonning printsip va shakllari tuzilishini bilishga, turli yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlari haqida

ma'lumotlarga ega bo'lishda katta ahamiyat kasb etadi. Bularsiz maktabda musiqa tarbiyasi maqsad, mazmun va tuzilishini tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqa o'qitish metodikasi fani yangi o'quv rejasiga asosan III-kursda 5-6 semestr davomida o'qitilib, u 80 soatlik ma'ruzani o'z ichiga oladi. Bu davrda olingan nazariy bilim, malaka va ko'nikmalar keyingi yilda bitiruvchi talabalarning Davlat pedagogik amaliyotida mustahkamlanadi.

Maktabda musiqa ta'lim-tarbiyasi inson ma'naviyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Zero, u eng avvalo musiqiy madaniyatlilik darajasini shakllantirishi bilan ahamiyatli. Madaniyat-ma'naviyat ko'rsatgichi sifatida keng qamrovli tushuncha bo'lib, bahs-munozaraga mavzu bo'ladigan muammolardan biridir. Musiqa madaniyatini to'g'ri yo'lga ko'yilishi tufayli insonda muayyan musiqiy bilim, tushuncha, malaka va ko'nikmalar shakllanib, ular o'z navbatida shaxsning musiqiy –ma'naviy dunyoqarashini tarkib toptiradi. Shaxsning musiqa madaniyati- qobiliyat, bilim, malaka, ko'nikma, musiqiy asarlarini baholay olish singari sifatlar majmuida namoyon bo'ladi, ma'naviy yuksalish omili bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, tarbiyaning ushbu turini tarkib toptirishning eng avvalo oiladan boshlamoq maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik bu jarayon o'rta maktab, o'quv-tarbiyaning o'rta maxsus va oliy bosqichlarida takomillashtirib boriladi.

Albatta, maktabda musiqani o'qitish metodikasi fani musiqiy madaniyatni tarkib toptirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur kurs bolalar bilan musiqiy ishlar sohasida o'ziga xos tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ham bildiradi. Shu narsa aniqki, mustahkam ilmiy asosga ega, keng amaliyotga qo'llanib, sinab ko'rilgan va shu bilan birgalikda doimo takomillashib boradigan metodikagina samarali hisoblanadi. Demak, musiqani o'qitish metodikasi tor amaliy masalalarni yoritishga qaratilgan u yoki bu aniq o'quv vazifalarni ifodalash bo'yicha tavsiyalarni belgilash bilan chegaralanmaydi. Fanning xususiyatlari va vazifalari uning nomlanishida o'z ifodasini topgandir.

Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasi. «Maktabda» atamasi asosida nafaqat yosh avlod haqida fikr borishi ta'kidlanadi, balki umumta'lim maktablarining 7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilari tushuniladi. Musiqa o'qituvchisi har bir sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini yaxshi bilmog'i lozim. Fan nomlanishidagi yana bir so'z «musiqa tarbiyasi», ya'ni musiqa vositasidagi tarbiya ham alohida ahamiyatga molik. Musiqachi- pedagogning butun bajariladigan ishi natijasi musiqa san'ati mohiyatini qanday tushunishi, uning xususiyati, mazmuni va tarbiyalovchi imkoniyatlarini anglashi, turli yoshdagi o'quvchilarni ongi hamda hissiyotiga ta'sirini his etishi bilan belgilanadi. Musiqa estetikasi sohasidagi asosiy yo'nalishlar o'qituvchining hamisha diqqat-e'tiborida bo'lishi kerak. Zero, musiqa

o'ziga xos mazmun va ifodaga ega. Tasviriy san'at, she'riyat, raqs san'atlari ham hayotni aks ettirishi bilan izohlanadi.

Ma'lumki «metodika»- bu pedagogikaning shunday qismidirki, didaktik printsiplar asosida qanday metod, usul yordamida o'quv-tarbiyaviy jarayon maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilib uning umumiy hamda alohida vazifalari hal etiladi. Masalan, qanday usulda, qaysi yo'l bilan musiqaning tarbiyaviy ta'siriga erishmoq o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish, kichik va o'rta sinf o'quvchilarida musiqa tinglashni tashkil etish, o'quvchilarni faol idrok etish malakasiga erishish masalalari hal etiladi. Shuning bilan birga metodika alohida masalalarni ham yoritadi. Masalan, turli o'quvchilar amaliyotida uchraydigan qo'shiq o'rgatish usullari, badiiy ifodali ijro malakalarini tarkib toptirish masalalari va h.k.

Musiqa o'qitish metodikasida tarbiya jarayoni har qanday ijtimoiy faoliyat singari tizimli va ilmiy boshqaruvni talab etishini alohida ta'kidlaydi.

Ta'kidlab o'tilganidek, musiqa o'qitish metodikasi pedagogik fanlar tizimiga kiradi va o'ziga nisbatan mustaqil o'ringa ega. U musiqa tarbiyasining mazmun va metodlarini takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o'rganadi.

Musiqa o'qitish metodikasining mohiyati yosh avlodning tarbiyasida musiqa san'atining muhim roli va ahamiyatini anglatish bilan belgilanadi. Musiqa tarbiyasi metodik fan sifatida rivojlanishi jamiyatning madaniyat, musiqa san'ati, maktablar takomillashuvi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Musiqa o'qitish metodikasi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqdir.

Metodika musiqashunoslik bilan bog'liq qaysikim, so'ngi paytlarda musiqa asarlarining tahlil etishni takomillashtirishga yana ham ko'proq e'tibor berilayotganligini ta'kidlash o'rinli. Musiqashunoslik nazariyasi musiqa tarbiyasining mazmun va metodlarining ishlanmalarida bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zining muammolarini hal etishda metodika psixologiya faniga tayanadi. Masalan: o'quvchilar musiqa idroki rivojlanishini, ularning ijodiy, musiqiy qobiliyatlarini bola ruxiyati qonuniyatlarini bilmay turib anglab bo'lmaydi. Shuningdek metodika o'quvchilarga u yoki bu materialni, uning hajmi, metodlardan foydalanish samaralari masalalarini psixologiya bilan bog'liq holda hal etadi.

O'quvchilarning kuylash malakalarini ularning o'ziga xos ovoz apparati tuzilishi masalalarini o'rganishda metodika fiziologiya sohasidagi tadqiqotlarga tayanadi.

Musiqa o'qitish metodikasi pedagogikaga tayanib tarbiyani ko'pgina omillar bilan bog'liq jarayon, deb qaraydi. Kishining musiqa madaniyati nafaqat maktab ta'sirida shakllanadi, balki unda oila, ommaviy axborot, ijtimoiy munosabatlar

tizimi katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga tabiiyki, aynan maktab o'quvchilarining musiqiy qiziqish va qobiliyatlarining tarkib topishda, ularda musiqa madaniyati asoslarini shakllanishida maktab hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Musiqa o'qitish metodikasi pedagogikaga, uning metodlar aniqlashiga tayanadi. Metodlar ishlanmasi qo'yidagi muammolar bilan bogliq: ularning musiqa tarbiyasi mazmuni bilan o'zaro bogliqligi, o'quvchilar ijodiy va musiqiy qobiliyatlarining rivojlanishi, musiqiy hotira va ovoz, musiqa idrokining yosh va individual xususiyatlari, o'quvchilar rivojlanishidagi turli musiqiy faoliyatlarning imkoniyatlari va boshqalar. Metodika vazifasiga shuningdek, o'quv-tarbiyaviy jarayonning turli shakllarini takomillashtirish ham kiradi. Jumladan, musiqa darslari, musiqadan fakultativ mashg'ulotlar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar (to'garaklar, bayramlar, diskoteka va h.k.)

Musiqa o'qitish metodikasi pedagogikaga tayanib tarbiyani ko'pgina omillar bilan bog'liq jarayon deb qaraydi. Kishining musiqa madaniyati nafaqat maktab ta'sirida shakllanadi, balki unda oila, ommaviy axborot, ijtimoiy munosabatlar tizimi katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga tabiiyki, aynan maktab o'quvchilarining musiqiy qiziqish va qobiliyatlarining tarkib topishida, ularda musiqa madaniyati asoslarini shakllanishida maktab hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Musiqa o'qitish metodikasi pedagogikaga, uning metodlariga tayanadi. Metodlar ishlanmasi quyidagi muammolar bilan bog'liq: ularning musiqa tarbiyasi mazmuni bilan o'zaro bog'liqligi, o'quvchilar ijodiy va musiqiy qobiliyatlarining rivojlanishi, musiqiy xotira va ovoz, musiqa idrokining yosh hamda individual xususiyatlari rivojlanishidagi turli musiqiy faoliyatlarning imkoniyatlari va boshqalar. Metodika vazifasiga shuningdek, o'quv-tarbiyaviy jarayonning turli shakllarini takomillashtirish ham kiradi. Jumladan, musiqa darslari, musiqadan fakultativ mashg'ulotlar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar (to'garaklar, bayramlar, diskoteka va h.k.)

Xullas, maktabda musiqani o'qitish metodikasi fani o'z mohiyati va mazmuni jihatidan bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini tayyorlash tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Musiqa ta'limi yangilanish yo'liga kirayotgan ekan, bu fanning ahamiyati yanada oshib borishi tabiiydir.

Savollar:

1. Maktabda musiqa o'qitish metodikasining fan sifatidagi ahamiyati.
2. Musiqa san'atining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirishda tarixiy nazariy turkum fanlarining ahamiyati.

3. Inson ma'naviyatini shakllantirishda musiqa ta'lim-tarbiyasining roli.
4. Maktabda musiqa tarbiyasi atamasining ta'rifi.
5. Metodika tushunchasiga ta'rif.
6. Musiqa o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
7. Musiqa o'qitish metodikasining pedagogik metodlariga tayanishi.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Milliy ruhda tarbiyalash, ma'naviy ehtiyoj, musiqiy did, musiqiy dunyoqarash, fanning xususiyat va vazifalari, musiqa vositasida tarbiya, musiqa estetikasi, musiqashunoslik nazariyasi, ovoz apparati, badiiy ifodali ijro, musiqaning tarbiyaviy tavsifi, fiziologiya sohasidagi tadqiqotlar.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yhati :

1. Apraksina O.A. Metodika muzo'kalgogo vospitaniya v shkole.- M., 1989.
2. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati asoslari (maxsus seminar dasturi. Tuz. T.V.Shevchenko) -T.1986.
3. Dmitrieva I.G, Chernoiivanenko N.M. Metodika muzo'kalgogo vospitaniya v shkole. -M.,1989.
4. Omonullaev D. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi (musiqa –pedagogika fakulteti studentlari uchun qo'llanma) -T., 1990.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha sinov dasturi (1-7-sinflar) - T., 1999.

21-MAVZU. Musiqa o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan talablar.

Reja :

1. Musiqaning madaniy hayotda tutgan o'rni.
2. Musiqa tarbiyasining bosh maqsadi va vazifalari.
3. Boshlangich sinflarda musiqa ta'limi mazmuni.

Mustaqillikka erishgach Respublikamizda madaniyat va ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Istiqlol tufayli xalqning ma'naviy ehtiyojlarini to'la qondirish, tarixni chuqur o'rganish, madaniy merosni asrab

avaylash, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni yosh avlodlarga etkazish jamiyat oldida turgan muhim vazifalardandir.

Bu vazifaning hal etilishi nihoyatda dolzarb. Zero, Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: «Ma'naviyat- insonning, xalqning jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarini beradi».

Madaniyat va ma'naviyatni tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim-tarbiyasi ishini qayta ko'rishni taqozo etmoqda.

Sho'ro davrida O'zbekiston maktablarida musiqa san'ati fan sifatida o'qitilganligi ijobiy hol bo'ldi, albatta. Bunda muayyan tajribalarga, maxsus kadrlar tayyorlashga erishildi. Ammo hali u bugungi madaniylashgan darajada yosh avlodning musiqa madaniyatini tarkib toptirishga yetarli asos bo'lmadi. Bunda quyidagi muammolar sabab bo'ldi:

- bugungi musiqa o'qitish nazariyasi va amaliyoti, mazmun va uslubiyoti tor kommunistik g'oyaviylik qolipidagi Rusiya maktablari dasturlari hamda o'qitish uslubiyotiga asoslanganligi, milliy musiqa pedagogikasi bilan uzviy bog'lanmaganligi;
- musiqa predmetiga ikkinchi darajali fan sifatida qaralib, unga oz o'quv soati ajratilganligi, zaruriy shart-sharoitlar yaratilmaganligi, uslubiy va moddiy ta'minotning zaifligi;
- musiqadan iqtidorli va iqtidori cheklangan bolalarning bir qolipda, bir sharoitda o'qitilishi, qobiliyatli bolalar hamda o'quvchilar iqtidorini rivojlantirish bog'cha, maktablarda zaruriy shart-sharoitlar yaratilmaganligi;
- bolalar musiqa folklori deyarli tadqiq etilmaganligi, to'planmaganligi, hamda nashr etilmaganligi;
- musiqadan kam va sifatsiz o'qituvchi kadrlar tayyorlanayotganligi, ularning milliy musiqadan nazariy amaliy bilim-malakalarning sayozligi kabilar sabab bo'lmoqda.

Mana shularning barchasi maktabda musiqa tarbiyasining maqsad va qonuniyatlarini aniqlashga yordam beruvchi metodika fani yutuq va kamchiliklarini anglashga ko'maklashadi.

Bugungi kunda Musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsadi va vazifasi nihoyatda muhim. Yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan va qadrlaydigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishdan iborat. Buning uchun har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish- maktab musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Musiqqa muallimiga qo'yiladigan asosiy talablar:

Har bir kasb o'ziga xos xususiyatga ega. Musiqqa muallimining o'z «sirlari» bor. Musiqqa muallimi musiqqa muhabbat, haqiqiy musiqqa tarbiyasiz komil inson sifatida shakllantirish mumkin emasligi to'g'risidagi g'oya va tasavvurlar bilan yashaydi. Bu kasbning murakkabligi shu bilan belgilanadiki, deb ta'kidlaydi taniqli pedagog O.A.Apraksina – «o'qituvchi» va «musiqachi» tushunchalariga kiruvchi har bir elementning mustahkam o'zaro bog'liqligidadir. Bu tushunchalar har biri o'z navbatida ko'p qirralidir. Musiqqa muallimi o'quv-tarbiyaviy ishlarni olib boradi, o'quvchilarning qarashlarini shakllantiradi, ularning ma'naviy ehtiyojini, didini tarbiyalaydi. Uning faqat o'z fanini biluvchi chuqur ma'lumotli kishi bo'lishi kamlik qiladi, shuningdek, o'qituvchi shaxs sifatida ham shakllangan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqqa ta'lim-tarbiya kontseptsiyasida IV-Bo'lim «Hozirgi zamon musiqqa o'qituvchisi» deb nomlanadi. Unda hozirgi zamon musiqqa muallimi yuksak madaniyatli, o'z kasbiga cheksiz sadoqat, ilg'or pedagogik tafakkur egasi bo'lmog'i lozim. U o'zining uzluksiz kasbiy madaniy rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi shart. U musiqqa, nafosat, pedagogika va psixologiya-fiziologiya fanlaridan, xususan, musiqqa o'qitish uslubiyotidan kompleks tarzda chuqur bilim va malakalar egasi bo'lmog'i darkor.

Ayniqsa, musiqqa o'qituvchisi ixtisosida zarur me'yorda cholg'uchilik, xonandalik, xor dirijerligi va musiqqa nazariyotchiligi sifatleri mujassam bo'lmog'i lozim. U milliy musiqqa hamda o'zbek adabiy tilini mukammal bilmog'i, umumbashariy musiqqa madaniyatidan, kundalik musiqiy-madaniy hayotdan voqif bo'lishi shart. Musiqqa muallimi pedagogik muloqot ustasi bo'lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim.

Hozirgi musiqqa muallimi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi, izlanuvchan va ijodkor bo'lib, musiqqa o'qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog'i lozim. U musiqqa ta'lim-tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik hayot bilan bog'lab, boyitib olib borishi darkor. Izlanuvchan va ijodkor muallimning ilg'or tajribasi va kashf etgan yangi usullari maktabdagi musiqqa ta'lim-tarbiyasini doimiy ravishda takomillashtirib rivojlantirishning asosiy tayanchi va ilhom manbaidir. Bilimdon va tajribali musiqqa muallimi san'at ziyolisi sifatida maktabda musiqqa-ma'rifiy ishlarning sarkoridir.

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqqa ta'lim-tarbiyasi kontseptsiyasi loyihasida musiqqa ta'lim-tarbiyasining mazmuni quyidagicha izohlanadi:

Boshlang'ich maktab (1- 4-sinflar). Boshlang'ich maktabda o'quvchi musiqqa madaniyatining asosiy poydevori shakllanadi. Ammo maktabgacha tarbiya

inson shaxsi shakllanishining muhim, mas'uliyatli davri sifatida mustaqil ahamiyat kasb etadi, chunki u boshlang'ich ta'limning tayyorgarlik bosqichidir. Shu bois bolalar bog'chalarida qatnamaydigan bolalar uchun davlat, aralash (qisman pulli) hamda xususiy (pulli) shakldagi musiqiy badiiy tayyorlov guruhlarini ochish (san'at, nutq, axloq, tabiatshunoslik, hisob o'qitish)ga e'tibor kuchaytiriladi.

Boshlang'ich maktab musiqa darslarida bolalarning aqliy rivojlanishlari me'yoriga mos oddiy musiqiy bilim, tushuncha va malakalar tarkib toptiriladi.

Musiqani tinglash, asho'la aytish, raqs tushish, oddiy cholg'ularda chalish orqali badiiy idrok etish, musiqadan olgan taassurotlari va bilganlari haqida gapirib berish, asarni badiiy baholash, musiqa ijodkorligi malaka ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyotlari vositasida o'quvchilarda musiqaga havas va badiiy ehtiyoj uyg'otadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar quyidagilar haqida bilim, malakalarga ega bo'ladilar:

Bolalar kuy-qo'shiqlari, musiqali o'yinlar, raqs va qo'shiqlar, xushnavo milliy cholg'ularimiz (1-sinf);

Yakkanavozlik; cholg'u dastasi; kuy nima? Kuyning ifoda tili (2-sinf);

Cholg'u turlari (cholg'ular bazmi); kuy va usul, tempning, kuyning takrorlanishi, uning o'zgarmas va o'zgaruvchan qaytarilishi, band va naqarot (3-sinf);

O'zbek xalq musiqasi; ommaviy xalq qo'shiqlari (alla, yalla, lapar, terma, qo'shiq aytim) va ommaviy kuylar; o'zbek kasbiy musiqasi (asho'la, katta asho'la); kompozitorlik musiqa ijodi haqida tushuncha; xalq musiqasi kompozitorlar ijodida (4-sinf).

Mavzu mazmunidagi amaliy mashg'ulotlar jarayonida nota yozuvi, oddiy kuylar tuzilishi misolida o'rganiladi, notaga qarab kuylashning dastlabki malakalari hosil etiladi.

Xullas, musiqa madaniy hayotda tutgan o'rni muhim bo'lib, musiqiy ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda uning bosh maqsad va vazifalarini to'liq anglab mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, o'qituvchining dolzarb vazifalaridandir.

Savollar:

1. Madaniy hayotda musiqa tarbiyasining ahamiyati.
2. Musiqa ta'lim-tarbiyasi maqsadi.
3. Musiqa ta'lim-tarbiyasi vazifalariga tavsif.
4. Musiqa muallimiga qo'yiladigan asosiy talablar.

5. Musiqa ta'lim-tarbiya kontsepsiyasiga hozirgi zamon o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.
6. Boshlangich sinf (1-4)larda musiqa ta'lim-tarbiyasining mazmuni.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Musiqa pedagogikasi, uslubiy va moddiy ta'minot, musiqa folklori, iqtidori cheklangan bolalar, vorislik qilish, spetsifik xususiyatlar, aralash dars, faol, emotsional ta'sir, ruhiy ta'sir, ta'lim-tarbiya kontsepsiyasi, pedagogik tafakkur egasi, badiiy ehtiyoj, badiiy baholash, kuyning o'zgarmas va o'zgaruvchan qaytarilishi, notaga qarab kuylash.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati:

1. Apraksina O.A. Metodika muzo'kalnogo vospitaniya v shkole. -M., 1989.
2. Maktabda musiqa tarbiyasi metod. lektsiyalar kursi.- T., 1990 .
3. Omonullaev D. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi (musiqa pedagogikasi fakulteti studentlari uchun qo'llanma) -T., 1990.
4. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi Kontsepsiyasi (loyiha) «Ma'rifat». 25-noyabr, 1992.

22-MAVZU. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari.

Reja:

1. Musiqa madaniyati darslarining xususiyati va tuzilishi.
2. Musiqa darsini maktabda o'qitishni tashkil etishning asosiy shakli.
3. Musiqa madaniyati darsining o'ziga xos xususiyati hamda imkoniyatlari.

O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlar, shu jumladan musiqa fani bo'yicha ham o'qitish Kontsepsiyasi ishlab chiqildi.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga mahorat, nafosat, badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqqa madaniyati o'quv predmeti umumiy ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar hamda bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topadi. Musiqqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi.

Musiqqa ta'limidan davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi.

O'quvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishlari uchun o'qituvchi o'zining ish faoliyatida sidqidil tayyorlanib, darslarni yuksak metodik darajada o'tilishini ta'minlashi lozim. Zero, dars o'qituvchidan katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik hamda turli pedagogik vaziyatlarga tezda munosabat bildirishini talab etadi. Samarasiz, omadsiz dars, kamchiliklar uzoq vaqt o'qituvchiga orom, halovat bermaydi, ortga nazar solib uning sabablarini qidirishga ehtiyoj sezadi.

Musiqqa madaniyati darsi – maktabda musiqqa tarbiyasini tashkil etishning asosiy shaklidir. Musiqiy to'garaklar, fakultativ mashg'ulotlar ham amaliyotda bo'lsa-da, dars hech qachon o'z ahamiyatini yuqotmaydi. Musiqqa madaniyati darslari musiqiy faoliyatning turli shakllarini o'z ichiga oladi. Bular- ommaviy jamoaviy aytim, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqqa tinglash, savodxonlik, musiqqa ijodkorligi, bolalar cholg'u asboblari chalish faoliyatidir.

Dars musiqqa tarbiyasi sistemasida etakchi omil hisoblanadi, zeroki, unda bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqqa darslari boshqa fanlar darslaridan o'zining badiiylik, qiziqarliligi va bolalarda ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqqa, ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, «Musiqqa tarbiyasiz bolalarga aqliy tarbiyani etarli darajada bajarib bo'lmaydi». Shuning uchun musiqqa darslari, eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning mantiqiy mazmunidir. Shu boisdan predmetimiz «musiqqa o'qitish metodikasi» emas, balki «musiqqa tarbiyasi metodikasi» deb ataladi.

Musiqqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, u musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa tahlili va adabiyoti, bolalar cholg'u asboblari chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir. Shuning uchun u aralash dars tipiga kiradi.

Ikkinchidan, musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot, badiiy so'z, tasviriy san'at ranglar va grafik chiziq, raqs, badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Agar tasviriy san'at va haykaltaroshlik asarlarini ko'rish orqali, badiiy adabiyotni o'qish va eshitish vositasida, kino va teatrni ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina idrok eta olamiz. Buning uchun hatto ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqa ijrochilarining yetishib chiqishlari bejiz emas. «Faqat musiqiy quloqgina musiqaviy hissiyotni uyg'ota oladi».

Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'layotgan san'atdir. Ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini ilib olib tinglamasa, asar mukammal idrok etilmaydi. Shuning uchun klassik asarlarni ham bir qayta tinglaganda uning yangi badiiy qirralarini his etamiz.

Musiqa vositasida ifodalanadigan his-tuyg'ularni so'z bilan ifodalash qiyin. «Qachonki so'z ojizlik qilsa, musiqa yordamga keladi».

Uchinchidan, musiqa bolalarga faol emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi, ijobiy kechinmalar uyg'otadi. Yahshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar quvnoq, xursand bo'lib, xordiq chiqaradilar.

Demak, agar musiqa darsi oxirgi darsda qo'yilgan bo'lganda ham, bolalar hordiq chiqarib, charchoqlari tarqaladi.

Bugungi kunda musiqa fanining yangi sohasi- funksional musiqa orqali musiqaning kishi psixikasi va fiziologiyasiga ta'sirini o'rganilishi buning bo'sidir.

Xulosa, musiqa darsi o'zining aralash dars tipi (tuzilmasiga ega), ifoda vositasi (tili) va aktiv psixologik ta'siri bilan farq qiladi. Demak, musiqa darslari bolalarning shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Musiqa madaniyati darslar uchun alohida emotsional muhit xarakterlidir. Bu tabiiy hol, albatta, chunki musiqa «hissiyotlar tili». Musiqa to'liqlantiradi, bolalarning ruxiyatiga ta'sir ko'rsatib, muayyan kayfiyat uyg'otadi. SHakllangan badiiy taassurotlar o'qituvchi ta'sirida nafaqat ifodali ijro, balki «so'z» san'ati, yuz ifodasi, turli harakatlar yordamida yanada kuchaytiriladi. O'quvchilar diqqati yangrayotgan musiqaga jalb etilib, ularning xayoloti rivojlantiriladi. Musiqiy obrazlar olamiga kirishishlari, ifodalilikni aniq his etishlariga erishiladi.

Umumiy jihatlariga qaramay har bir dars o'ziga xos va takrorlanmasligi bilan farq ham qiladi. Ma'lumki, hoxlagan ishning yahshi tashkil etilishi uning yarim yutug'i va bu to'liq ma'noda musiqa madaniyati darslariga ham taaluqlidir. Darsda barchasi o'ylangan bo'lishi kerak- maqsad va vazifalar, mazmun va tuzilma, vosita hamda metodlar. Aks holda hech qanday ijobiy natijalarga erishib bo'lmaydi. Darsga tayyorgarlik o'qituvchining pedagogik malakasi, mahoratiga bog'liq. Bu esa musiqa materialining tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tadbiiq etish yo'llarini ta'minlaydi. Darhaqiqat, musiqiy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish- asarni chuqur o'rganishni talab etadi. Ularni tanlab olish esa o'quvchilar musiqiy tayyorgarligi hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Dars mazmunida turli xil tabiatdagi, kayfiyatdagi musiqa asarlari bo'ladi. Ularning yaxlitligini ta'minlash uchun dars tuzilmasini aniqlab olish zarur. Bunda turli musiqiy faoliyatlarning birin-ketinligiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darsning emotsional tuzilmasini o'ylab o'qituvchi bir asardan boshqasiga o'tish jarayoniga o'quvchilardagi muhim hissiy holatni saqlab qolishi va ularning diqqatini jalb etish usullarini tadbiiq etishi lozim. Shuningdek, dars tuzilmasini tuzishda bolalar jismoniy, aqliy va emotsional holatlarini, sinfnig o'ziga xosligini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. Masalan, boshlang'ich sinflarda kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olishmaydi, shu bois ularning faoliyatini o'z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Bu bolalarning qiziqishlarini so'nishidan saqlaydi. Murakkab qo'shiqni, raqsni bir necha dars davomida o'rgatish samarali kechadi; murakkab musiqiy – ritmik harakatlar o'rganilishidan so'ng qo'shiq kuylashga o'tish maqsadga muvofiq emas. Shuningdek jadvalda musiqa darsining o'rnini ham, ya'ni o'sha kunda bu mashg'ulot nechanchi soatda o'tilishini ham hisobga olish lozim. Kunning so'ngi soat darslarida bolalarning charchab qolish holatlari ro'y beradi, shuning uchun turli hil ishlarni almashtirib, qiziqishni uyg'otuvchi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Qaysi darsdan so'ng musiqa madaniyati mashg'uloti bo'lishi ham ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyati mashg'ulotlari mehnat ta'limi va ayniqsa jismoniy tarbiya darslaridan keyin o'tiladigan bo'lsa, o'quvchilarni fikrlashga, idrok etishga undovchi faoliyatlardan boshlash lozim. Har bir muayyan holatda o'qituvchi sinfnig o'ziga xoslik jihatlarini, o'quvchilarning u yoki bu musiqiy faoliyatga qiziqishlarini, ularning tayyorgarlik darajalarini hisobga olishi maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, to'liq shart-sharoitlar hisobga olingan dars tuzilmasini amalga oshirish uchun o'qituvchining ijodiy yondashuvi talab etiladi. Bu esa har bir darsni takrorlanmas bo'lishiga yordam beradi. Axir bir mashg'ulotdan ikkinchisigacha bo'lgan davrda boshqa fanlar o'tilib, taassurotlar sayozlashishi mumkin. O'qituvchi hafta davomida musiqa darslarida yaxlit taassurotlar va qiziqishlarni saqlab qolishlariga erishmog'i kerak.

Dars oldindan rejalashtirilsa, o'ylab qo'yilgan reja asosida bo'lmog'i, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlik faoliyati doimiy jonli jarayon asosida amalga oshirilishi lozim. Biroq ayrim kutilmagan holatlar bo'lishi mumkin va muayyan har bir holatga maslahat berib bo'lmaydi. Ba'zan ko'zda tutilmagan holatlar yo'l- yo'lakay dars tuzilishida ham amalga oshirishga to'g'ri kelib qoladi. O'qituvchining kasb mahorati o'zini yo'qotmasdan har bir holatga tegishli xulosa chiqarishni taqozo etadi. Natijada dars maqsadiga erishilib, belgilangan tuzilmada amalga oshiriladi.

Tajribali o'qituvchilar yaxlit dars tuzilmasiga alohida ahamiyat berishadi. Zero darsning turli elementlari: bosqichlari o'zaro uygun va bir-biri bilan bog'liq bo'ladi. Turli metodlar (asarni taqqoslash, muammoli izlanish, o'yin holatlari) asosida o'qituvchi bolalarni ijodiy topshiriqlar orqali faolligini oshiradi va istagan natijalarga erishishlariga harakat qiladi.

Ma'lumki, zamonaviy musiqa madaniyati darslarining sifati o'quvchilar faolligi bilan belgilanadi. Faollik muammosi nafaqat darsning qiziqarli tuzilmasi, bolalarga qiziqishni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali hal etiladi. Ko'pincha o'qituvchining har bir o'quvchiga yakka-individual yondashuviga ham bog'liq bo'ladi. Shubhasiz, bu o'qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

O'qituvchi bolalar bilan hammasi bo'lib haftasida bir marotaba uchrashadi, musiqa madaniyati darsi sinf bilan keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu bois, o'qituvchi o'z o'quvchilarini yahshi bilmog'i, ularning kuchli va zaif tomonlarini, qiziqish va ehtiyojlarini to'g'ri anglab, bolalar dunyosiga kirishib har bir o'quvchi imkoniyatlarini baholashi kerak. Darsda bevosita muloqot o'rnatishga harakat qilish, savollarga undovchi, so'rovli nigoh, yuz ifodasida bayon etish vosita va usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Har bir musiqiy faoliyat bolalarga individual yondashish imkonini beradi. Ayniqsa, bu ikki, uch ovozli asarlarni o'rganishda bolalar musiqa cholg'u asboblari jo'r bo'lish, o'quvchilar imkoniyatiga ko'ra ijodiy xarakterdagi topshiriqlar berishda va h.k.larda buni yaqqol kuzatish mumkin. Differential

topshiriqlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularning muvaffaqiyatli bajaruvi esa o'quvchilar musiqiy rivojlanishlarini faollashtiradi. Natijalarni baholash, toza kuylashga erishish yoki ritmik jo'rovzlikni bajarish orqali o'qituvchi bolalikda o'z-o'zini nazorat qilish hissini rivojlantiradi. Shuningdek, bolalarga individual yondashuv ularda jamoatchilik hissini ham tarbiyalaydi. Bolalarning bajariladigan ijodiy topshiriqlarning sifatiga mas'ullik oshadi. Bu esa barcha o'quvchilarga quvonch qiziqish tuyg'ularini uyg'otadi.

Zamonaviy musiqa madaniyati darslarini maxsus jihozlangan sharoitsiz amalga oshirish murakkab. Musiqa xonasining estetik jihozlanishi bolalarga ruh bag'ishlab, darsga o'ziga xos kayfiyat uyg'otish kerak. Darsda bolalar musiqa cholg'u asboblari, texnik, ko'rgazmali vositalar juda ham muhim. Ularning sifatlilikidan, o'z vaqtida tayyorlanganligidan va unumli tadbiiq etilishidan darsning muvaffaqiyatli o'tishi ta'minlanadi.

Bugungi kunda o'qituvchi darslarda musiqa asarlarining turli ijrolarini (orkestr, ansambl ijrosida) sadolanishi texnik vosita, yozuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu vositalar o'quvchilarning har bir musiqa cholg'ularining jaranglashini va ovozning ifodaliligini idrok etish tasavvurlarini kengaytiradi, Fonoxrestomatiya esa o'qituvchida qo'shiq o'rgatishni yanada qiziqarli qilishga yordam beradi. Gramezuvlarda jo'r qismlari, Bolalar xor jamoalarining ijrolari o'z aksini topgan. Magnitafonda o'qituvchi dars davomida qo'shiq ijrosini yozib olib, o'quvchilarning o'ziga qaytib eshitirishi va ijroga nisbatan bolalarning munosabat hamda baholarini berishni taklif etadi. Keyingi paytlarda musiqa darslarida turli hil ko'rgazmali vositalardan keng foydalanilmoqda. Bular illyustratsiya, turli tasviriy manzaralar va boshqalar. Bu esa darsda tasviriy san'at, so'z san'ati namunalaridan ham unumli foydalanishni nazarda tutadi.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ko'rgazmali vositalardan foydalanish muhim. Nota tablitsalari yordamida bolalarda nota asosida kuylash malakalari egallanadi. Qo'shiq kuylashni tezroq o'zlashtirilishiga erishiladi. Tovushlarni to'g'ri va toza kuylash, eslab qolishlariga yordam beradi. Darsda texnik va ko'rgazmali vositalarini tadbiiq etish chuqur o'ylangan bo'lishi kerak. Ulardan unumli foydalanish musiqa tarbiyasi vazifalarini hal etishda muhim rol o'ynashini ta'kidlash lozim.

Shunday qilib, umumta'lim maktabida musiqa madaniyati darslariga puhta tayyorgarlik ko'rish va uni samarali o'tkazish o'qituvchidan doimo ijodiy yondashuvni, kasbiy tajribalarni, bilim, malaka va ko'nikmalarni faol tadbiiq etishni taqozo etadi.

O'qituvchi ijodining natijasi bo'lgan dars g'oyaviy-emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lib, o'quvchi ichki dunyosini zabt etib, musiqa san'atiga qiziqish va ehtiyojni tarbiyalaydi. Musiqa madaniyati darslarining muvaffaqiyati savodxon, chuqur bilimli, o'z kasbiga fidoiy bo'lgan o'qituvchi shaxsiga bog'liq. Shu bois, musiqadan bilim va malakalari yetarli bo'lmagan o'qituvchilarga musiqa darslarini mutaxassis mualliflardan zaruriy saboqlar olib, magnit yozuvlardan keng foydalanib, musiqa o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan unumli foydalangan holda dars o'tishlari maslahat beriladi. Aks holda o'quvchilarning belgilangan dastur talablarini o'zlashtirishlari mushkullashib, musiqa madaniyati darslari oldiga qo'yiladigan talablarga erishilmay qoladi.

Savollar:

1. Musiqa madaniyati darslarining tuzilishi.
2. Musiqa madaniyati darslari xususiyatlariga ta'rif.
3. Maktabda musiqa tarbiyasini tashkil etishda darslarning ahamiyati.
4. Dars tuzilmasini amalga oshirishda o'qituvchining ijodiy yondashuvi.
5. Yaxlit dars tuzilmasini tarkib toptirishda dars bosqichlarining o'zaro bog'liqligining ahamiyati.
6. Musiqiy faoliyatda o'quvchilarga individual ijodiy yondashish.
7. Musiqa xonasining estetik jihozlash talablari.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyat, obrazli tasavvur etish, ijobiy kechinmalar, aralash dars tipi, o'qituvchining pedagogik malakasi va mahorati, darsning emotsional tuzilmasi, emotsional holat, yaxlit dars tuzilmasi, dars elementlari, differentsial topshiriqlar, bolalarga individual yondashish, darsda texnik va ko'rgazmali vositalar.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dmitrieva L.G., Chernovnenko N.M. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole. - M., 1989.
2. Omonullaev D. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar majmui (kursi) . - T., 1990.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati fani bo'yicha sinov dasturi (1-7-sinflar) –T., 1998.
4. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya. -T., 1999 .

5. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi Kontsepsiyasi. «Ma'rifat» gazetasi, 1992, 25-noyabr.

23- Mavzu: Musiqa darslarining tamoyillari, musiqa o'qitish me'todlari

Reja:

1. Musiqa darslarida umumdidaktik printsiplari.
2. Emotsionallik va onglilikning birligi printsiplari.
3. Ijrochilik san'ati atamasi va uning musiqaviy predmeti o'qitishdagi roli.

O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni», «Kadrlar tayyorashning milliy dasturi», «Respublika umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyaning Kontsepsiyasi maktablarda boshqa fanlar qatori musiqani o'qitish oldiga ham yangi vazifalarni qo'ydi.

Har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqadan zaruriy bilim hamda amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berish kabi vazifalar shular jumlasidandir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun umumta'lim maktablarida musiqa o'qitishni tubdan yaxshilash, uning samarali metod hamda vositalaridan to'laqonli foydalanishni talab etadi.

Ushbu ma'ruza musiqa fanini o'qitish metodikasining eng muhim masalalaridan biri ta'lim printsiplariga bag'ishlanadi. Bu masalaning dolzarbligi bejiz emas, albatta. O'qituvchi ta'limning asoslari, qoida va talabalarini bilsa, o'qitishning samarali metodlari bilan to'la qurollangan bo'lsa-gina dars samaradorligiga erisha oladi.

Didaktikada ta'lim metodlari va printsiplarini ilmiy nuqtai-nazardan o'rganishda ma'lum muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan. Ammo, o'zbek musiqa ta'limining printsiplari, metodlari maxsus ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmaganligi tufayli metodik adabiyotlarda kam yoritilgan hamda musiqa o'qituvchilari ish amaliyotida o'zining to'la ifodasini topmayotgan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ta'lim printsiplari maktab oldida qo'yilgan talablardan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ma'naviy kamolotini ta'minlash, ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish ta'lim printsiplarini amalda muvaffaqiyatli qo'llash darajasi bilan chambarchas bog'langan.

O'qitish printsipti nima? «Printsipt»- lotincha so'z bo'lib «asos», «qoida», «talab» singari ma'nolarni anglatadi. Ta'lim printsipti deganda dars samaradorligini ta'minlashga qaratilgan, ta'lim jarayonini tashkil etish, uyushtirishda qo'yilgan asosiy talablar, qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoidalar va talablardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlagan holda amalda tadbiiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erisha oladi. Musiqa darslarida bir tomondan umumdidaktik printsiptlar, ikkinchi tomondan shu fanni o'qitishning o'ziga xos printsiptlarini hisobga olishga to'g'ri keladi. Umumdidaktik printsiptlar garchand maktabda o'qitiladigan barcha fanlarga aloqador bo'lsa ham, ammo u har bir fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Maktabda o'qitiladigan barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan didaktik printsiptlar: o'qitishning bolaga ma'lumot berishi, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi, o'qitishning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarliiigi, sistemalilik va izchillik, nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqasi, onglilik faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik, o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish va ularning real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish kabi printsiptlar garchand umumdidaktik printsiptlar sanalsa ham, ularning har biri o'ziga xos mazmun kasb etadi.

Musiqani o'qitishda umumdidaktik printsiptlar bilan bir qatorda shu fanning tabiatidan kelib chiqadigan quyidagi o'ziga xos printsiptlar ham mavjud. Bular – musiqa ta'limida ilmiylilik, sistemalilik va davomiylik, darsda o'quvchilarning onglilik va aktivligi, musiqa darslarida ko'rsatmalilik; musiqa materialining bolalar bilimi va malakalariga mosligi, musiqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi kabi printsiptlardir.

Yuqorida sanab o'tilgan musiqa ta'limi printsiptlariga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz:

1. *Musiqa ta'limida ilmiylilik, sistemalilik va davomiylik printsipti:*

Ta'limning ilmiyligi, sistemaligi va davomiyliigi printsiptlari o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan didaktik kategoriyalardandir.

Maktabda musiqa fani musiqashunoslik va pedagogikada qo'lga kiritilgan yutuqlarga tayanadi. Bu printsipt o'quvchilarni hozirgi musiqa-pedagogikasida ilmiy asoslangan bilimlar bilan qurollantirishni talab etadi. Shubhasiz, musiqa pedagogikasida va amaliyotida mavjud barcha bilimlarni bolaga berishning iloji yo'q. Biz o'quvchiga asosan o'zbek musiqasining boy imkoniyatlaridan va umumbashariy musiqa asarlaridan ayrim namunalardan nazariy hamda amaliy bilim-malakalarni berish imkoniyatiga egamiz, xolos. Ana shu ilmiy bilimlar ta'limning mazmunini belgilovchi muhim hujjatlar- musiqa madaniyati fanidan dastur va darsliklarda o'z ifodasini topadi. Albatta, har bir dars o'zining tuzilishi va

mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi- musiqiy ta'lim-tarbiyada asosiy omildir.

Dars jarayonida o'quv materialining bolalar bilim va tajribasiga mosligi, bolalar ovozing rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asarni bolalar fikriy qobiliyatiga mos tahlil etish va boshqalar-darsning ilmiylik printsiplarini tashkil etadi.

Ilmiylikni sistemaliliksiz amalga oshirish qiyin. Darsning barcha o'quv elementlari hamda keyingi darslarning ham o'zaro mantiqiy bog'lanishi-sistemalilikning asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bolalar bilim, malakalari aytim mashqlari darajasida xos tanlash va ularni soddadan-murakkabga, ma'lumdan-noma'lumga qarab o'zlashtirishni ta'minlash-sistemalilik demakdir.

Darsning har bir elementi, kelgusi mashg'ulotning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlarni amalga oshirilishi esa davomiylik demakdir. Darsdagi predmetlar aro aloqa (adabiyot, tasviriy san'at, tarix) mazkur printsiplar asosida darsning unumli, samarali o'tishini ta'minlaydi.

Sistemalilik va davomiylik printsiplari, ilmiylik va bilimlarning bolalar uchun tushunarli bo'lishi printsiplari o'zaro uzviy bog'langan. Sistemalilik va davomiylik printsiplarga qat'iy amal qilish natijasidagina o'quvchilar musiqa fanidan bilimlarga ega bo'lishlari mumkin. Demak, ilmiylik sistemalilik va davomiylik musiqa ta'limining mazmunini belgilovchi hujjatlarda ham o'qituvchi faoliyatida ham o'z ifodasini topadi. Bu printsiplarni amalda tadbiq etish ta'lim mazmunini takomillashtiradi, o'quvchilarning musiqiy o'quv faoliyatini aktivlashtiradi.

2. Darsda o'quvchilarning onglilik va aktivligi:

Onglilik-ta'lim jarayonida o'quvchilarning faollik ko'rsatishi bilan bog'liq, chunki ta'lim jarayonida o'quvchilarni musiqiy bilish faoliyatini aktivlashtirmasdan turib, o'quv materialining ongli o'zlashtirilishiga erishib bo'lmaydi. O'quvchi dars jarayonida ongli -emotsional o'zlashtirgan bilimlardangina amaliy faoliyatda bimalol foydalanishi mumkin. Ta'limda onglilik va aktivlik o'zaro uzviy bog'langan didaktik kategoriyalardir. Har qanday faollik asosida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Faollik deganda biz o'quvchining ham o'qish, ham musiqiy faoliyatlarini nazarda tutamiz. O'quv faolligi umumiy faollikning ajralmas qismi bo'lib, u musiqiy bilimlarni egallash, bilishga, anglashga qaratilgan faoliyatdir. Demak, bilish faolligi

bola faoliyatining mahsuli bo'lib, bilimlarni egallashda faol ishtirok etish, kuchaytirilgan faoliyat ko'rsatish demakdir.

Onglilik va aktivlik-didaktikaning yetakchi printsiplaridan, chunki bilimni o'zlashtirish- o'quvchi amaliy faoliyatining asosiy sifati bo'lgan- bilish jarayoniga bog'liqdir.

Musiqa idroki kishi hayoti tajribasini boyitadi, voqelikni badiiy his etib, bilish qobiliyatini o'stiradi, fikrlash xususiyatini rivojlantiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, musiqa san'atlar ichida o'ziga xos xususiyat va imkoniyatlarga ega. Musiqa tinglovchisi ham kuylovchisi, ijrochisi ham bastakor belgilagan sur'at (temp)ga sozlanishi, shu maromda kuylashi shart. Aks holda jaranglayotgan musiqa va uning tinglovchisi orasida uzilish hosil bo'lib, idrok buziladi. Ana shuning o'zi ham musiqa mashg'ulotlarida, ayniqsa onglilik va aktivlik nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Binobarin, o'quv materialini osondan-murakkabga va ma'lumdan-noma'lumga o'tish printsiipi asosida bolalarning ongli musiqa idrokini, aktivligini rivojlantirish yo'li bilangina ularning musiqa madaniyatini shakllantirish mumkin. Zero, mashhur pedagog-olimlarning «Bolalarni musiqaga qanday qiziqtirmoq kerak?» degan muammoni o'rta tashlashi bejiz emas. Darsda musiqa materialini ongli ravishda o'zlashtirishda ilmiylik muhim rol o'ynaydi, chunki u musiqa asarlarining nazariy asoslarini, ifoda vositalarini bilib olishga asosiy mezon hisoblanadi.

O'quvchilarning darsda onglilik va aktivligi ayniqsa, aytim malakalarini shakllantirish uchun zarur. Bunda o'qituvchining tushuntirish vositalari maqsadga muvofiqligi, aniq va ravshanligi, bolalar nutq boyligiga mosligi, qo'shiqlar esa ular ovozigga mos tushishi shart. Notalarni o'rganishda esa onglilik va aktivlik musiqaning nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri o'rganish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

3. Musiqa darolarida ko'rsatmalilik:

Bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishda barcha sezgi a'zolarining foaliyatini to'g'ri uyushtirish katta ahamiyatga ega. Sezgi a'zolari qanchalik ko'p ishtirok etsa, bilish shunchalik osonlashadi. Bu qonuniyat ancha ilgari Ya.A.Komeskiy, G.Pestolotsi, K.D.Ushinskiy kabi buyuk pedagoglar tomonidan asoslanib berilgan edi.

Ko'rsatmalilik musiqani o'qitishning ham muhim qonuniyati hisoblanadi, chunki bu fanning tabiati ko'rsatmalilikni ko'proq talab etadi.

Musiqa pedagogikasi fani namoyandalaridan biri N.L.Grodzenskayaning ta'kidlashicha: «Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi o'ziga ko'rgazmali vositadir. Chunki u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Masalan, o'qituvchi

mashq yoki qo'shiq ohangini chalib, kuylab ko'rsatganda ohang va so'z asosan quloq bilan «ko'rib» qabul etiladi. Musiqa tinglaganda ham asar tahlilida ham ohang ko'rgazma sifatida chalib «ko'rsatiladi».

O'qituvchining chalishdagi qo'l harakatlari, dirijerligi, yuz ifodasi, doskaga ilingan qo'shiq plakati, mashq yozuvi ham ko'rgazmali vositadir, ammo u musiqa sadosi ko'rgazmaliliga yordamchi, ikkinchi darajali vositadir. Buni shu bilan isbotlash mumkinki, musiqani ko'zi ojiz kishi idrok etadi; ammo u tasviriy san'atni idrok etolmaydi, tabiat go'zalligini ko'rolmaydi, ularni musiqa tasvirida tasavvur qilishi mumkin. Ammo boshlang'ich sinflarda asar syujetiga xos kartinalar asar badiiy mazmunini konkret tasavvur etib idrok etilishiga yordam beradi. Ayniqsa, doskaga ohangning grafik chiziqlar bilan ifodalanishi, klaviatura orqali musiqa tovushlarini chalib ko'rsatish dastlabki idrok malakalarini shakllanishiga muhim rol o'ynaydi. O'rta sinflarda esa ko'rgazmalilik nota yozuvlari orqali konkret va obsolyut sistemaga o'tadi.

4. Musiqa materialining bolalar bilimi va malakalariga mosligi printsiplari:

Mazkur printsiplari asosan dasturdan o'quv materiallarini va bu materiallar asosida dars mazmuni tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir sinfning umumiy bilim va malaka darajasi hisobga olinishi shart.

Har bir sinf o'quvchilarining bilim va malakasini hisobga olib, darsning yillik taqvimiy rejasini tuzish uchun musiqa darslarining o'quv dasturida o'qituvchi uchun asarlarni tanlash imkoniyati beriladi. Mazkur xususiyat bilan ham musiqa darsi boshqa fan darslaridan farq qiladi. Bunda qo'shiq kuylash, tinglash uchun asarlar, vokal-aytim mashqlari, musiqa savodi materiallari, asarlar tahlili uchun atamalar va bastakorlar ijodiga xos ma'lumot hamda dalillar hayotiy misollar bilan bolalarning bilim, malakalariga mos holda tanlanadi hamda dars rejalari tuziladi.

Agar boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini mutaxassis o'qituvchi olib bormagan bo'lsa, tabiiyki dastur o'zlashtirilishi ko'pincha bir tomonlama- u ham bo'lsa, asosan qo'shiq o'rganish bilan kifoyalangandir. Demak, bolalarning bilim darajasi va musiqa malakalari orqada qolgan, shuning natijasida ular 5-sinf o'quv materiallarini o'zlashtirishga qiynaladilar. Bunday holda o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quv materiallarining eng asosiy va zaruriy qismlarini o'quv yilining birinchi yarmida «tezlashtirib o'qitish metodlari» bilan o'tib olib, so'ng 5-sinf materiallarini o'tishga boshlaydi.

Umuman olganda mazkur didaktik printsiplarni barcha sinflarda darsga tayyorgarlik ko'rish jarayoni va uni sinfda amalga oshirish vaqtida qo'llanilib boriladi.

5. Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi printsiplari:

Mazkur printsiplarni amalga oshirishning eng asosiy sharti yuqorida bayon etilgan to'rtta printsiplarga jiddiy amal qilishdan iboratdir. Bilim va malakalarning chuqurligi, mustahkamligi va turg'unligiga erishish uchun ularning hayotiylikini ta'min etish lozim, ya'ni mazkur asar va uning ijro uslubi madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil etish lozim.

Ikkinchidan, asarlar tanlashda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- a) asarning bolalar badiiy va axloqiy tarbiyasi uchun mosligi:
- b) musiqa ta'limi, ya'ni bilim berilishiga bo'lgan xususiyati:
- v) sinfdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqtirish va ularni to'la o'zlashtirishga erishish.

Darsda olinadigan bilimlar doirasi va malakalar majmui uchun musiqa darsi amaliyotidagi takrorlanish va qaytarish xususiyati (qo'shiqni jumlalarga bo'lib qaytarib-qaytarib o'rganish, keyingi darslarda kuylash, musiqa asarlarini qayta tinglash) muhim rol o'ynaydi. Shu bois musiqa darslarida o'quvchilar tomonidan daftar tutishga ham unchalik hojat yo'q, chunki barcha bilimlar asosan dars jarayonida olinadi. Kuylash va tinglash malakalari esa amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi. Darsda olingan har bir yangi bilim elementi dars faoliyatida kuylanib o'zlashtiriladi va u keyingi darslarda keng qo'llanib doimiy bilim-ko'nikmaga aylanadi. Bu xususiyati bilan ham musiqa darsi boshqa fanlardan farq qiladi.

Ta'lim printsiplari o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan didaktik kategoriyalardir. Respublika umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiya Kontseptsiyasi musiqa ta'limi mazmunini yanada takomillashtirish, uni hozirgi davr talablari asosida qayta isloh etish, musiqa ta'lim-tarbiyaning milliy asoslari bilan boyitish, o'quv dastur amallari va darsliklarida ortiqcha, ikkinchi darajali narsalarni chiqarib tashlash, musiqiy o'quv materialining bolalar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash kabi muhim tadbir-yo'nalishlar alohida qayd etib o'tiladi. Shu bois, o'qituvchi umumdidaktik printsiplarni bilan bir qatorda musiqa ta'limining o'ziga xos printsiplarini ham yaxshi bilishi va ta'lim jarayonida unga qat'iy amal qilishi lozim.

Biz yuqorida maktabda musiqa ta'limining umumdidaktik hamda o'ziga xos printsiplari bilan tanishib, ularning ta'riflari haqida muayyan tushunchalarga ega bo'ldik. Ta'lim printsiplari bir-biri bilan chambarchas bog'langan, bir-birini to'ldiradigan yahlit bir pedagogik hamda metodik talab bo'lib, ularga qat'iy amal qilish dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarni puxta musiqiy bilim, ko'nikma

va malakalar bilan qurollantirish, musiqiy-ijodiy qobiliyatlari, imkoniyatlarini tobora kengaytirishga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birgalikda «musiqa madaniyati» predmeti o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq metodikasining o'ziga xos printsiplarini ham ilgari suradi. Bular- emotsionallik va onglilikning birligi printsiipi, badiiy va texnik birlik printsiipi, lad, ritmik hissiyot va shaklni his etish birligi printsiiplari. Bu printsiplar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, musiqaga qiziqish, did tarbiyasi va nihoyat musiqa madaniyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Emotsionallik va onglilikning birligi printsiipining muhimligi- musiqa san'atining o'ziga xos xususiyati, uni idrokining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Musiqiy idrokning rivojlanishi ongli emotsional taassurotlarni talab etadi. Musiqa asarlarini ta'sirini anglash, uning mazmunini ochishga yordam beradi.

Badiiyliigi va texnik birligi printsiip- asarning badiiy, ifodali ijrosi muayyan malaka hamda ko'nikmalarni talab etadi. Masalan, qo'shiq o'rgatish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga vokal-xor malakalarini shakllantiradi, kuyni ijro etish uchun bolalar musiqa cholg'u asboblari ritmik jo'r bo'lish uchun o'quvchilar bu cholg'ularda chalishning oddiy usullarini egallagan bo'lishlari kerak.

Lad, ritmik harakatlar hissiyot va shaklni his etish birligi printsiipi turli musiqiy faoliyatlarning asosida bo'lishi kerak. O'quvchilarda musiqiy qobiliyatlarning shakllanishi barobarida musiqaning rivojlanish printsiiplari, musiqiy nutq, musiqiy shakllarning ifodaviy imkoniyatlari haqida tasavvurlar shakllanadi.

Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan musiqa ta'limi printsiiplari bolalarda musiqiy ijodkorlik, tinglangan va idrok etilgan musiqa asari haqida munosabat bildirish, baho berish, musiqiy-ijodiy faoliyatlar mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda bayon eta olish, ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qilmog'i lozimdir.

Shunday qilib, musiqa darslari pedagogika fanining didaktik nazariyasi va printsiiplari (ta'lim amaliyotining umumlashgan nazariyasi) asosida tuziladi. Bu printsiiplar o'qituvchi hamda o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan ta'limning barcha komponentlari- dars mazmuni, metodlari va darsning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi.

Musiqa fani o'qitilishining printsiiplari bolalarda ijodiylik, musiqa haqida mustaqil fikr-munosabat bildirish, musiqa asarlarini ongli-emotsional idrok etish, ularning musiqiy qobiliyat hamda iqtidorlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilmog'i lozimdir.

Musiqa darslari-ijtimoiy faol shaxsni, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning vositalaridan biridir. O'quvchi musiqa mashg'ulotlari orqali san'at

olamiga kirib, musiqaning joziba kuchi, sir-asrorlarini egallaydi. Musiqa vositasida go'zallikni anglash unga o'z munosabatini bildirish o'unikmalarini rivojlantiradi. Bir so'z bilan aytganda musiqa mashg'ulotlarida o'quvchining ma'naviy kamolot tarbiyasi amalga oshiriladi.

Musiqa darslarida rivojlanish va maqsadga muvofiq tarbiya avvalo ta'limning dogmatik metodlaridan voz kechish, ko'proq o'quvchini uylash, fikrlash, musiqiy faoliyat ko'rsatishga undaydigan metodlarni qullash, musiqa darslarining ta'limiy, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini butun choralar bilan ishga solish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun avvalo musiqani o'qitish metodlarini mukammal bilish, metodlarni tanlash mahoratiga ega bo'lish va har bir metodni amalga oshirishning shart-sharoitlaridan xabardor bo'lish lozim.

Xo'sh, «Metod» qanday ma'noni anglatadi?

Metod (yunoncha metxodes- tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya ta'limot) voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari yoxud operatsiyalarning mazmunidir» (O'zb. S.Entsiklopediyasi, T. 1976, 7-tom, 171-bet)

Falsafiy ma'noda metod tushunchasi tabiat va jamiyat hodisalarini kuzatish hamda voqelikka ilmiy nuqtai nazardan yondashish demakdir. Didaktik ma'noda bu tushuncha o'quvchilarni bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish yo'llarini o'z ichiga oladi. Ayrim fanlarni o'qitish bilan aloqador masalalarni xususiy metodika o'rganadi. SHuning uchun ta'lim metodlarini didakt olimlarini ham, metodistlarni ham bab-baravar qiziqtirayotgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib sanaladi.

Didakt olimlar keyingi yillarda ta'lim metodlari va ularning tasnifiga oid anchagina salmoqli ilmiy izlanishlar olib bordilar. Ular o'qitish metodlarini turlicha tasnif qilishadi. Bir guruh olimlar (S.Petrovskiy, E.N.Golant) ta'lim metodlarini bilim olish manbaiga qarab og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarga bo'lsalar, ikkinchi guruhdagi olimlar (M.A.Danilov, B.P.Esipov) ma'lum tipdagi darslarda bajariladigan o'quv vazifasidan kelib chiqib bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, egallagan bilimlarni mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni tekshirish hamda baholash kabi metodlarga bo'lishadi.

Agar musiqa o'qitish metodikasini xususiy metodikalar oilasiga navqiron predmet ekanligi va unda metodlar borasida hali muammolar mavjudligini hisobga oladigan bo'lsak, maktabda mazkur fanning samaradorligini oshirishda uning optimal (qulay) metodlarini belgilash va ulardan darsda unumli foydalanish naqadar muhimligini tasavvur qilish qiyin emas. Bu ko'proq musiqa mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Musiqa tarbiyasi vazifalarini amalga oshirish darsda o'qitishning optimal metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Ammo maktabda musiqa o'qitishning optimal metodlari va ulardan foydalanish usullari amaldagi qo'llanmalarda etarlicha ochib

berilmagan. A.B.Abdullin, D. Kabalevskiy musiqa tarbiyasi tizimi asosida yaratilgan («Teoriya praktika muzo'kalnogo obucheniya v obxeobrazovatelnoy shkole» M., 1983) qo'llanmasida 4 metod asosli bayon etilgan. Darsni musiqaviy umumlashirish; o'tilajak darslarda oldindan «yugurib» bog'lanish va o'tilganlarga qaytish; dars mazmunining emotsional dramaturgiyasi; darsning pedagogik kuzatilishi hamda bilimlarning baholanishi.

Musiqa darslarida o'quvchi faoliyatini o'z-o'zidan faollashmaydi, albatta. U birinchi navbatda o'qituvchi tomonidan turli tanlangan metod bilan bog'liq. Ilmiy asosda tug'ri tanlangan metod bola shaxsini rivojlantirish va uni faollashtirishga asosiy o'rin egallaydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar ta'lim metodlarini tanlashda juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayrim o'qituvchilar ma'lum bir metodning rolini oshirib, ikkinchisini e'tibordan chetda qoldirsalar, ba'zilari har bir metoddan bir shingil olishga urinadilar.

Ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan tanlangan metodning tug'riligiga bog'liq. Musiqani o'qitishda metod tanlashda o'quvchilar imkoniyatini kengaytirish, o'quvchilar musiqiy faoliyatlarini oshirishga xizmat qiladigan ta'limning optimal (qulay) metodlarini ishga solish masalasi alohida ahamiyatga molik.

Hozirgi kunda o'qitish metodlari tasnifiga nisbatan bir necha qarashlar mavjud. Musiqa o'qitishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatida o'zaro aloqadorlik va o'quvchilarning bilish jarayonida mustaqil izlanishga undovchi metodlar sistemasini qullash maqsadga muvofiqdir. Zero, metodlar- o'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi vositachi hamdir. Chunki aynan bir metod (masalan, vokal-xor mashqlari) bilan o'qituvchi o'rgatadi, o'quvchilar o'rganadi.

Metodlar uch guruhga bo'linadi: Og'zaki, amaliy va ko'rgazmali metodlar.

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari:

Musiqa darsida o'qituvchining so'z mahoratiga alohida talab quyiladi. U o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan o'quvchilarni ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi, qiziqarli hikoya va suhbat bilan bolalar diqqatini musiqa obrazlariga yo'naltiradi, asarni badiiy idrok etishlariga erishadi. Bunda hikoya, suhbat, tushuntirish, savol-javob va izoh metodlaridan foydalaniladi.

Suhbat o'quvchi va o'qituvchi orasidagi dialogik shakldagi faoliyatdan iborat bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Suhbat jarayonida muallim o'quvchilar fikriy qobiliyatlarini kuchaytiradi, bilish qobiliyatlarini faollashtiradi, musiqa haqida bilim doirasini boyitib rivojlantiradi.

Tushuntirish – ilmiy isbotlash metodi musiqa darslarida ham ishlatiladi. U musiqa savodi, musiqa tuzilishi va rivojlanishi kabilarni (qo'llashda) o'rganishda qo'llaniladi.

2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari:

Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi melodik va garmonik tovushlardan iborat san'atdir. Uni faqat eshitish orqali tinglab, idrok etish mumkin. Bunda ko'rish asosiy rol o'ynamay, balki doskada ifodalangan nota yozuvlari, plakat, tablitsalar, o'qituvchining dirijyorlik harakatlari va boshqalar musiqani jonli aniq idrok etish yoki ijro etish uchun yordam beradi. Musiqa pedagogikasi fani olimalaridan biri N.L.Grodzenskayaning ta'biricha: «Musiqaning jonli yangrashi- darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

Amalda ko'proq harakatlanuvchi, masalan dirijerlik, musiqa o'lchovini taktlash, chalib ko'rsatish, raqs, o'yin, kuy harakatini, ritmik suratini doskaga grafik chiziqlarda ifodalash kabi ko'rgazmali vositalardan foydalaniladi.

3. Amaliy metodlar :

Amaliy metodlar vositasida o'quvchilarda vokal-xor malakalari musiqaning tuzilishi va ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash hamda nota yozuvini o'rganish malaka – ko'nikmalarini shakllantirish uchun ko'llaniladi. Masalan, vokal-xor malakalarini rivojlantirishda, nota yozuvini o'rganishda asosan Mashq metodidan ko'proq foydalaniladi, ular har hil faoliyat turlarida qo'llaniladi. Jumladan, vokal-xor ishlarida asho'lachilik nafasi, tovush hosil qilish, talaffuz, soz, ansambl malakalarini rivojlantirishga doir uslub va priyomlar (dirijyorlik, takrorlab kuylash, taqoslash, kuylab ko'rsatish, vokal mashqlari va h.k.) dan keng foydalaniladi. Unda vokal-xor mashqlari va mashq qo'shiq kuylash amaliy mashg'ulotining muhim vositasi hisoblanadi.

O'yin metodi- asosan boshlang'ich sinflarda yaxshi natija beradi. Qo'llanma va darsliklarda musiqiy o'yin va uning elementlaridan keng joriy etilmoqda. Sinfda kichik musiqiy o'yinlar «Bolalar va g'ozlar», o'rganilsa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda keng maydon talab etuvchi kuy va qo'shiqlar «Oq terakmi, ko'k terak», I.Akbarovning «Hazil», «Qorda o'yin» hamda boshqalar amaliy ijro etiladi.

Demak, musiqa tarbiyasi metodlari- muallim bilan o'quvchi faoliyatida juda muhim o'rin egallaydi. Musiqa tarbiyasi metodlarining xilma-xilligi- musiqa san'atining xususiyati hamda o'quvchilar musiqiy faoliyatining o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, o'quvchilarni musiqa asari bilan tanishtirishda o'qituvchi suhbatdan boshlaydi. Ularga bastakor, uning yaratgan asarlari haqida, ayrim tanish musiqalaridan namuna-misollar yangraydi. O'quvchilar musiqa asarini o'qituvchining jonli ijrosida yoki gramezuvida tinglashadi (ko'rgazma namunali metod) asar yaratilishi tarixiga doir qiziqarli ma'lumotlar beradi; ijro holati, tinglovchiga badiiy taassurotning uyg'otishi (ruhlantiruvchi-rag'batlantiruvchi metod; bolalar o'qituvchi savollariga javoblar berishadi, taassurotlarini o'rtoqlashishadi (suhbat metodi); o'quvchilar musiqa asarini tinglashadi; o'qituvchi tomonidan bolalarga badiiy-ijodiy topshiriqlar beriladi, tinglash, idrok etish orqali asarning ayrim fragment (qismlari taqqoslanadi va tahlil etiladi (tahlil va qiyoslash metodi); asar g'oyasi, mazmunini aniqlash va u haqda xulosa chiqarish (umumlashtirish metodi).

Bilimlarni muammoli bayon qilish o'quvchi musiqiy faoliyatini uyushtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi musiqiy faoliyatini uyushtirish deganda, biz ular tomonidan bilimlarni mustaqil egallash va bu bilimlarni malaka hamda ko'nikmaga aylantirish jarayonini tushunamiz. O'quvchilarning mustaqil bilim olishi o'qituvchi rahbarligidan ajralgan holda emas, albatta.

Musiqiy faoliyatlarga ruhlantirish metodlari orqali muallim o'quvchilar oldiga turli hil musiqiy-ijodiy topshiriqlar qo'yishi mumkin. Masalan, O'zbek xalq o'yinini o'rgatishda I-sinf o'quvchilariga qo'yidagicha savol-topshiriqlar bilan murojaat qilish mumkin: Jumladan, «O'yinni qay tarzda ijro etish maqsadga muvofiq bo'ladi, Bir kishi ijrosimi? Yoki ommaviy tarzda, doira yoki aylana shaklda turibmi?»

Bolalarga musiqa asboblarini ajratib olishda bir qo'shiqni yoki kuyni ijro etishda musiqiy obrazni ifodalashda qaysi bir asbobning imkoniyatlari kattaligini aniqlash kabi savollar, topshiriqlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Taqqoslash –musiqa ta'limi adabiyotida ancha keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, o'quvchilar badiiy qiziqishini oshirishda samarali yordam beradi. Sinf o'quvchilari tomonidan musiqiy-ijodiy topshiriqlarni bajarish albatta, musiqiy tahlilni talab etadi. Bu esa o'quvchilarni asar jaranglashi davomida ohang o'zgarishlarini va musiqiy obrazlar rivojlanishini «kuzatib», tinglab borishga, badiiy taassurotlarni anglash va xulosalar chiqarishga majbur etadi.

Avvalo kichik yoshli o'quvchilarda musiqa asarlari janrlaridagi xususiyatlarning qarama-qarshiligini aniqlab qiyoslash qiziqish uyg'otadi. Masalan: Balet janrining valsdan qiyoslanishi, ular orasidagi o'zaro umumiylik masalalari, agarda ularga «vals» janri bilan «marsh» janrlarini qiyoslash topshirilsa, ular ushbu janrlarining har birining farqi, o'ziga xos xususiyatlarini fahm etadilar: vals musiqaning to'lqinli, «aylanuvchan»

musiqiy harakatlarini, marsh musiqasining esa zalvorli, aniq usulli xususiyatlarini farqini anglaydilar.

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni tushunish kerakki, musiqa tarbiyasi metodlari soʻz, nutq bilan uygʻun ravishda tadbiiq etiladi. Ogʻzaki metodlar (hikoya, suhbat, tushuntirish) asar mazmunini ochishga yordam beradi, uning ijro uslubini anglashga, oʻquvchilarda estetik hissiyotni tarbiyalashda muhim oʻrin tutadi.

Taʼlimning oqzaki metodlari cholgʻu asboblari chalish, qoʻshiq oʻrganish va ritmik harakatlarni bajarish jarayonida ham amalga oshiriladi. Masalan, musiqa asboblari chalishni oʻrgatishda oʻqituvchi bolalarga qoʻl harakatlarining engil, elastik boʻlishini; raqs harakatlarini bajarishda esa musiqiy ritmik holatlarni nazorat qilib borishni; qoʻshiq kuylashda esa ovozning jarangdorligi, engil, mayin sadolanishini taʼminlashni shakllantirish muhimligi tushuntirib beriladi. Musiqiy faoliyatlardagi oqzaki va koʻrgazmali metodlarning bunday uygʻunlashuvi oʻquvchilarning bolalar musiqa asboblari chalish mahorati, ularda vokal-xor koʻnikmalarini egallashda ritmik harakatlarni bajarish koʻnikmalarini shakllanishida muhim shart-sharoitlar yaratadi.

Hikoya – bu oʻqituvchining musiqa asari haqidagi jonli, obrazli va emotsional-yorqin hikoyaviy bayonidan iboratdir. Hikoya-qisqa, obrazli va qiziqarli boʻlib, undagi bayon mazmuni asosiy maqsad- oʻquvchilarni asar obrazini badiiy tasavvur etishga va shu vosita bilan musiqa asarini badiiy idrok etishga erishishdan iboratdir. Faqatgina qiziqarli va obrazli qisqa hikoya bolalar qalbida oʻrganiladigan asarga nisbatan qiziqish va muhabbat uygʻota oladi. Masalan, bolalar bugungi darsda tanilayotgan asar bilan ilgari «uchrashganligi», ammo badiiy jihatdan idrok eta olmaganligi sababli unga uncha befarq qarashlari mumkin. Bunday holatda obrazli va qiziqarli hikoya vaziyatni tubdan oʻzgartiradi. Uch minutli qiziqarli va obrazli hikoya, - deb taʼriflashadi musiqa maorifining donishmandlaridan biri – bir necha soatli zavqli amaliy mashgʻulotni taʼmin etishi mumkin.

Qaysi holatlarda hikoya metodini qullash mumkin?- degan savol tugʻilishi, tabiiy. Birinchidan, bastakorning ijodiy biografiyasida hikoyabop qiziqarli voqea va lavhalar mavjud boʻlsa. Bunga V.A.Motsartning bolalikdagi iztirobli hayoti, uning qiziqarli faktlarga boyligi, masalan, 8 yashar Volfangning oʻzi ijod etgan musiqasini yuksak mahorat bilan ijro etganligi; N. Rimskiy Korsakovning uch marta dengiz boʻylab Jahonni sayohat etib, shu munosabat bilan Sharq xalqlari madaniyatiga katta qiziqish va hurmat bilan qarab, «Ming bir kecha» hikoyalari obrazlari asosida «Shaxrizoda» simfonik kartinasini yaratganligi, shuningdek, Hoji Abdulaziz Abdurasulov ikki marta Sharq va Arab mamlakatlariga sayohat qilib, u erlardagi oʻzbek musiqasini targʻibot qilib, u yurtlar milliy musiqasini oʻrganib,

ularning yuksak chuqqilarini musiqamiz amaliyotida tadbiiq etganligi, natijada «Cho'li Iroq», «Gadoyi», «Jazoir» kabi qator mumtoz kuy va qo'shiqlar yaratganligi misol bo'la oladi.

Ikkinchidan, asarning yaratish tarixi bayonida: masalan, bastakor M.Burxonov va shoir A.Oripovlarning «O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi» kabi mashhur hamda tarixiy asarlarning yaratilish sabablari va taqdirini faqatgina hikoya metodi bilan qiziqarli bayon etish mumkin bo'ladi. Bunda aniq va hujjatli dadil va faktlardan foydalanish zarur.

Uchinchidan, bolalarni yirik asarlar (musiqali drama, dostonlar, opera, balet) badiiy obrazlariga olib kirish uchun asarning syujetli mazmuni qisqa hikoya qilib beriladi. Bunda syujet mazmuni asosiy maqsad bo'lmay, balki u bolalarni asarning musiqiy badiiy obraziga olib kirishga yordam bermog'i lozim.

To'rtinchidan, mashhur va atoqli kishilar hayotida musiqa san'ati rolini bayon etishda. Masalan musiqa tarixi bayonida «Farobiy va musiqa», «Abu Ali ibn Sinoning musiqiy-nazariy ta'limotlari», A.Fitratning «Shashmaqomshunoslik faoliyati» va boshqalarni o'rganishda.

Suhbat metodining asosan ikki keng turi tarqalgan- bular hikoya-suhbat va suhbat dialog. Hikoya-suxbat vositasida o'qituvchi o'quvchilarning musiqa san'ati haqida tug'ri mushohada yuritishga va xulosalar chiqarishga erishadi. Dialogik-suhbat jarayonida esa ko'proq o'quvchilar etakchilik faoliyati ko'rsatadilar, o'qituvchi esa ularni boshqarib borib, to'g'ri xulosalar chiqarishga erishadi. Har ikkala holatda ham o'qituvchining o'rtaga tashlaydigan savollari muhim rol o'ynaydi. Shuni unutmaslik lozimki, suhbatlar jarayoni muhokama etilayotgan musiqa uning yangrashi bilan bog'lanib olib borilishi shart, aks holda suhbat quruq va qiziqarsiz bo'lib qoladi.

Shunday qilib, musiqa darslarida ta'limning samarali metodlaridan unumli foydalanish birinchidan, o'quvchilarning musiqiy o'quv materiallariga qiziqishini kuchaytirib, o'quv-biluv faoliyatlarini aktivlashtiradi; ikkinchidan, musiqa asarlari haqida munosabat bildirishga, ularni tahlil etishga intilish shakllanadi. Uchindan, musiqani o'qitishning amaliy yo'nalishini kuchaytirib, o'quvchilarni mustaqil ijodiy faoliyatga puxta tayyorlash imkoniyatlarini yaratadi.

Musiqiy ta'lim-tarbiya Kontsepsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan metodlar masalasi yana ham jiddiy tus olishi, tabiiy albatta. Musiqa muallimi uchun shakllanuvchi ta'lim (maxsus musiqa-pedagogika o'quv yurtida) olgan bilimi asosiy rol o'ynaydi. Rivojlanuvchi ta'lim (maktab faoliyatidan oladigan tajriba) esa maktab pedagogik jamoasidan, ko'pincha u maktabda yagona mutahassis sifatida ish ko'rishi sababli, metodik yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Ammo maktabda musiqa o'qitish metodikasidan boshqa mutaxassis yo'qligi sababli yosh o'qituvchi bunday yordamdan baxramand bo'lolmaydi. Demak, uning

asosiy tayanchi musiqa-pedagogika o'quv yurtida olgan bilim va malakadir. Shuning uchun yosh musiqa o'qituvchilari musiqa o'qitish uslubiyotini puxta o'rganishga e'tiborni kuchaytirishlari zarur tadbir hisoblanadi.

Savollar:

1. Metod haqida tushuncha.
2. Metodlar tasnifiga oid qarashlar xususida.
3. Metodlarning guruhlarga bo'linishi.
4. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari hakida ma'lumot.
5. Ko'rgazmali o'qitish metodlari o'qitish xususida.
6. Amaliy metodlar haqida tushuncha.
7. Ta'limning optimal metodlari xususida.
8. Ta'lim printsipli haqida ma'lumot.
9. Musiqa ta'limida ta'lim printsiplarining ahamiyati.
10. Didaktik printsiplar nima?
11. Musiqa ta'limida ilmiylik, sistemalilik va davomiylik printsipli.
12. O'quvchilarning onglilik va aktivligi tushunchasini izohlang.
13. Darsda ko'rsatmalilik printsipli.
14. Musiqa o'quv materialining bolalar bilimi va malakalariga mosligi printsipli haqida.
15. Dmitrieva L. G., Chernovivanenko N.M. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole.- M., 1989.
16. Gulomov A.K. O'qitish printsiplari va metodlari. -T., 1992.
17. Omonullaev D. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi (musiqa-pedagogika fakultetlari studentlari uchun o'quv qo'llanma)-T., 1990.
18. Telcharova R.A. Uroki muzo'kalnoy kulturo'. -M., 1991.
19. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha sinov dasturi (1-7 sinflar) -T., 1998.
20. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi Kontseptsiyasi. «Ma'rifat» gazetasi, 1992, 25-noyabr.
21. Hasanov A. Musiqa va tarbiya. -T., 1993.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Ma'naviy kamolot tarbiyasi, voqelikka ilmiy nuqtai nazardan yondashish, optimal metodlar didakt omillar, musiqaviy umumlashtirish metodlar tasnifi, badiiy kirish so'zi, musiqaning jonli yangrashi, musiqaviy o'quv materiali.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati :

1. Apraksina O.A. «Metodika muzo'kalnogo vospitaniya v shkole». –M., 1983.
2. Gudkova E.A. Kuldoshev L.H. «Musiqqa darsligi metodik qo'llanma. 4-sinf.- T. «O'qituvchi», 1967 y.
3. qulomov A.K.«O'qitish printsiplari va metodlari». -T., Qituvchi 1992 .
4. **Omonullaev D. «Maktabda musiqqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar majmui», T., «O'qituvchi», 1989.**
5. Hasanov A.Sh. «Maktabda asho'la» umumta'lim maktablarining vokal to'garagi rahbarlari uchun metodik qo'llanma.- T. «O'qituvchi», 1981.

24-Mavzu: Musiqqa darslarida faoliyat turlari va ularning o'zaro aloqasi. Musiqqa idroki

Reja:

1. Musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonida musiqqa idroki va musiqqa ijrochiligini tarbiyalash.
2. Musiqqa tinglashni rivojlantirish xususiyatlari. Musiqiy rivojlanish darajasiga bog'liqligi.
3. Musiqqa idrokini bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Musiqqa insonning his-tuyg'ularini ifodalash bilan birga hayot, voqelik va davr aksidir. Shu boisdan musiqqa dasturi printsiplarida bosh mezon-«Musiqqa va hayotdir». Musiqqa pedagogikasi olimlarining ta'kidlashicha:-«Musiqani o'rganish jarayonida bolalar birinchi darsdanoq unda hayot aks ettirilganligini u orqali hayotni o'rganishlarini osonlikcha his etadilar va tushunadilar».

O'quvchilarning hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqqa asari zamirida ma'lum voqelik, his-tuyg'u va fikrlar aks ettirilishi haqida tushuncha beriladi. Bu faqatgina dars jarayonida turli musiqqa faoliyatlarini bajarishda asar va uning obrazlarini idrok etish bilan amalga oshadi. Zotan, bir darsda qaysi musiqqa

faoliyatini olmaylik, u avval musiqa yangrashini idrok etish va uning obrazi hamda karakterlarini fahmlagandan so'ng ijobiy tarzda amalga oshiriladi. Demak, musiqa idroki dars jarayonining asosiy omili ekan. Shu boisdan musiqani eshitish, zavqlanish, qo'shiq kuylash, musiqa savodxonligiga doir xususiyatlarni anglab olish, raqs tushish musiqa ostida turli ritmik harakatlarni bajarish, chapak va cholg'u asboblarida chalib musiqaga ritmik jo'r bo'lish uchun belgilangan musiqalarni idrok etib borish kabi faoliyatlarni bajarish mumkin. Musiqa idroki darsda ikki tarzda- musiqa asarlarini maxsus eshitish (musiqa tinglash) va musiqani eshitib, anglab uning xarakteriga muvofiq turli faoliyatlarni amaliy bajarish.

Zamonaviy musiqa madaniyati darslarida musiqa idroki yetakchi faoliyat sifatida muhim rol o'ynaydi. U ikki holatda amalga oshadi. Birinchi holatda ma'lum asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy tavsiflari dars mavzuga doir oddiy musiqiy-pedagogik tahlil etiladi. Eshitish orqali asarni tushunish hamda ongli idrok etish asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) va badiiy mazmuni haqida ma'lum bilimlarga ega bo'linadi. Ikkinchi holatda musiqa asarlari tinglanib (idroki etilib), so'ng u yoki bu faoliyati ko'proq kuylash orqali o'rganiladi. Uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalanadi. Masalan, o'rganiladigan qo'shiq avval o'qituvchi ijrosida (tasma orqali ham) bir-ikki marta tinglanadi, asar xususiyati haqida suhbat qilinadi, so'ng o'rganishga kirishiladi, raqs musiqasi avval tinglanadi, kuy tavsiflari anglab olingandan so'ng, raqs harakatlari ifodasi o'rganiladi. Ko'pincha asar bir necha faoliyat uygunligida (tinglash, kuylash, raqs harakati va boshqa) o'rganiladi. Bunday mashg'ulot usuli asarni puxta o'rganish va ayni damda kompleks malakalarning rivojlanishi uchun imkon yaratadi.

Musiqa madaniyati darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zamirida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning mantiqan bir butunligi vujudga keladi. Musiqa savodxonligi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, kuylash, raqs va boshqa) qullanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochiligi va hokazo) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi.

Shu bois, musiqa savodxonligi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim tushunchalar majmuasi (musiqa shakllari, janrlari, cholg'uchilar ijrochiligi, xalq bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqa, nota savodi va boshqalarni singdirib borishdan iborat.

Shuni alohida e'tiborga olmoq zarurki, musiqa idroki (tinglash) va musiqa savodxonligi faoliyati o'zaro uzviy bog'lanish bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga etakchilik qiladi.

Kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqa-o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilar o'z ovoz ijrosini boshqaradi, o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga jo'r bo'lib kuylashga intiladi.

Zotan, tinglash va kuylash o'quv materiallari ta'lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan birga, cholg'uchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari bilan ham har tomonlama o'zlashtirish va musiqiy tavsiflarini ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlari yaratiladi.

Chorak mavzusidan kelib chiqib, asarning musiqaviy tuzilishi, xarakteri, ifoda vositalari, hayotdagi o'rni jihatidan o'rganib musiqa tinglash faoliyati quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Asarni tinglashga bolalar diqqatini jamlash va asar haqida o'qituvchining kirish so'zi.
2. O'qituvchi ijrosida yoki gramezuvda asarni tinglashni tashkil etish
3. Asarni suxbat yo'li bilan musiqiy-badiiy jihatdan oddiy tahlil etish.
4. Asarni butunligicha qayta takror tinglash. So'ng asar haqida o'quvchilarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish.

Mazkur ishlar jarayonida bolalarda musiqa haqida bilim va tushunchalar, malaka, ko'nikmalar hamda umumlashma badiiy taassurotlar, tajribalar hosil bo'lib boradi.

Tahlil davomida musiqaning tuzilishiga doir o'rganiladigan yangi atamalar (ijro sur'ati, xarakteri, ifoda vositalari, ijrochilari, cholg'u asboblari turlari, bastakorlari va boshq.) o'rganilib keyingi darslarda qo'llanilib boriladi. O'rganilgan asar yil davomida vaqti-vaqti bilan tinglanadi.

Shuni ham hisobga olish joizki, olti-etti yoshli bolalarning diqqat-e'tibori hali barqaror darajada emasligi tufayli ular faqat qisqa muddatli asarni to'laligicha idrok etadilar. Shuning uchun dastur va qo'llanma mazmuni kichik pesa va ixcham kuy-qo'shiqlardan boshlanadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga musiqani diqqat va mehr bilan tinglasalargina uni aniq idrok etish mumkinligini tushuntirish va bolalarda musiqa shinavandaligini tarbiyalab borishdan iboratdir.

Davlat ta'lim standartlariga asosan, musiqa madaniyati o'quv fanining musiqa tinglash mazmuniga bo'lgan minimum talablar nazariy va amaliy faoliyat majmuasidan tashkil topib, o'quvchilarning musiqa tinglash bo'yicha quyidagi mezonga javob berishi lozim:

Yakkanavoz va jo'rnavezlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilish, ovozlari va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did hamda idrokni rivojlantirish. O'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash va boshqalar.

Shunday qilib, musiqa madaniyati darslarida musiqa tinglash faoliyati – o'quvchilar madaniyatini shakllantirishning asosi sifatida muhim ahamiyatga egadir. Shunga ko'ra musiqa o'qituvchisi o'quvchilarga musiqa tinglash xususiyatlari, uning bolalar umumiy musiqiy rivojlanishlari uchun nihoyatda muhimligini chuqur anglab, musiqa tinglash faoliyatini tashkil etish bosqichlarini metodik jihatdan puhta, samarali tashkil etib, bosqichlarini amalga oshirishda, umuman musiqiy faoliyatni pedagogik boshqarishga jiddiy e'tibor berishi lozimdir.

Savollar:

1. Musiqa idroki xususida.
2. Musiqa tinglash- etakchi faoliyat sifatida.
3. Musiqa tinglash faoliyati bosqichlariga tavsif.
4. Musiqa tinglash faoliyatining boshqa bosqichlar bilan o'zaro bog'liqligi.
5. Musiqa tinglash- musiqa madaniyatini shakllantirishning asosi.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Musiqa dasturi printsiplari, ritmik jo'r bo'lish, musiqiy-pedagogik tahlil, kompleks malakalar, milliy musiqaning mahalliy musiqaning uslublari, klassik musiqa, musiqiy o'quv qobiliyati, musiqiy tavsif, musiqiy tahlil, yakkanavoz va jo'rnavezlik.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini taxminiy rejalashtirish. (tuzuvchilar D.Omonullaev va boshq.)- T., 1995.
2. Omonullaev D. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi (musiqa-pedagogika fakultetlari studentlari uchun o'quv qo'llanma). -T., 1990.
3. Telcharova R.A. Uroki muzo'kalnoy kulturo'. -M., 1991.
4. Umumiy o'rta ta'limning davlat standarti va o'quv dasturi. Musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya. -T., 1999.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha sinov dasturi (1-7 sinflar) -T., 1998.
6. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim tarbiyasi Kontseptsiyasi. «Ma'rifat» gazetasi, 1992, 25-noyabr.
7. Hasanov A.Sh. Musiqa va tarbiya. -T., 1993.

25-Mavzu: Maktabda jamoa (xor) bo'lib kuylash.

Reja :

1. Ommaviy musiqa madaniyati tarbiyasida jamoa bo'lib kuylashning tarbiyaviy ahamiyati va imkoniyatlari.
2. Turli yosh bosqichlarida bolalarning ovoz xususiyatlari.
3. Mutatsiya davri, uning muammolari.

Xor bo'lib kuylash – jamoaviy ijrochilik faoliyatining shakllaridan biri. U maktab o'quvchilarining kuylash madaniyatini rivojlantirishda, ularning umumiy va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, ma'naviy kamolga erishishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Musiqa madaniyati fanidan ta'lim standartiga asosan jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rovozlik qilishga intiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari, jahon hamda qardosh xalqlari kompozitorlari qo'shiqlari, mahalliy musiqa uslublariga oid folklor qo'shiqlari, maqom aytim yo'llaridan namunalarni o'zlashtiradi.

Musiqiy repertuarning badiiy ijrosini ta'minlashning o'quvchilar musiqa madaniyatini tarbiyalashda alohida o'rni bor. Musiqa asari, jumladan qo'shiqlarni mazmunli, ifodali ijro etish ushbu faoliyatga alohida e'tibor berish zarur. Zero, musiqa pedagogikasi fani olimlaridan biri N.L.Grodzenskayaning ta'kidlashicha: «Qo'shiq o'rgatishda biz nafaqat uning sifatiga, balki ijro darajasiga jiddiy qarashimiz kerak. Biz bolalarda qo'shiq ijrosi haqidagi ongli mulohazalarni uyg'otib, qo'shiq ustida ishlash- bu ijodiy jarayon ekanligini idrok etib tushunishlariga harakat qilmog'imiz lozim».

Jamoa bo'lib kuylash- o'quvchilar amalga oshiradigan faoliyat kuylash ovozi amaliy jihatdan barchada tarbiyalanishi mumkin.

Avvalo ovoz hosil bo'lishi xususida:

Tovush hosil bo'lishi ovoz apparatining harakati natijasida sodir bo'ladi. Bu apparat uch qismdan iborat: 1) Nafas organlari (o'pka, bronx, traxeya-tomoqning nafas yo'li), 2) hiqildoq (ovoz pardalari joylashgan qism), 3) rezonatorlar (yutkin, og'iz va burun).

Ovoz apparatining har bir qismi bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Tovush quyidagicha hosil qilinadi: o'pkadan chiqayotgan havo oqimi bronh, traheya orqali tomoqqa keladi va u erda ovoz pardalari to'siqiga uchraydi. Havo

bosimi ta'sirida ovoz pardalari harakatga kiradi, ularning takroriy ochilib yopilishi va tebranishi natijasida havo to'liqlari- tovush hosil qiladi.

Tovush hosil qilish bilan bog'liq bo'lmagan holdagi odatdagi nafas olish jarayonida ovoz pardalari sokin holatda bo'lib, havo uch burchak shaklidagi ovoz teshigidan erkin o'tadi. Tovush hosil bo'lishida ovoz teshigi torayadi. Tovush baland pardalarga ko'tarilgan sari ovoz teshigi torayib boradi va eng yuqori parda tovushlariga yetganda teshik berkiladi.

Xonandaning ovozi tovush kuchi, temбри va balandligi bilangina emas, balki diapazoni bilan ham harakterlidir. Ovoz diapazoni eng past tovushdan eng baland tovush oralig'idagi hajmni o'z ichiga oladi. Registr ovoz diapazonining bir qismi bo'lib, tembr va tovush yo'nalishining bir-biri bilan moyilligiga asoslanib aniqlanadi.

Yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda kuylash faoliyatini o'stirish sog'lom ovoz apparatini rivojlanishiga yordam beradi. Umumiy musiqiy ta'limda o'qituvchi ishining muvaffaqiyati ko'pincha u jamoa bo'lib kuylashning tarbiyaviy ahamiyatini qay darajada to'g'ri anglab olishi, o'quvchilarda kuylash malakalarini rivojlantirish metod va usullarini, bolalar ovoz xususiyatlarini bilish darajasi, asarni o'zlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish mahorati bilan belgilanadi.

O'qituvchining musiqa madaniyati darsiga vokal-xor faoliyatiga munosabati ishining umumiy natijasiga ta'sir etadi, albatta. Kuylash sevimli, ommaviy turlardan biridir. Zero, Respublikamiz rahbariyati ommani, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida musiqa, qo'shiq san'atining beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, diyorimizda har yili «qo'shiq bayramlari», turli darajadagi ko'rik-tanlovlar, festivallarni muntazam o'tkazib kelmoqda. Ayni paytda ta'kidlab o'tish joizki, bunda ommaviy kuylash san'ati rivojlanib bormoqda. Bu davrda o'g'il bolalar ovozi shartli ravishda erkakcha ovoz, qiz bolalar ovozi esa balog'atli xotin-qizlar ovozi tipiga asta –sekin o'ta boshlaydi.

Mutatsiya bolalar voyaga yetayotgan davrdagi ovoz o'zgarishi (ovozning rasta bo'lishi)dir. Mutatsiya davri odatda bolalarning 12-13 yoshida boshlanib, 16-17 yoshigacha, goho undan ko'p yoshgacha ham davom etishi mumkin. Bunday davrda bolalar ovozi ortiqcha kuylashga kuchi yetmaydi va diqqat hamda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. O'g'il bolalarda halqum tez o'sadi, ovoz pardalari uzunlashadi, ovoz pasayib kichik oktava tovushlariga o'ta boshlaydi. Ba'zi vaqtda mutatsiya davri og'ir va har hil holatda o'tishi sababli mashg'ulotlarni vaqtincha to'htatish zarur bo'lib qoladi. Qiz bolalarda mutatsiya osoyishta, asoratsiz o'tadi. Lekin shunga qaramay, qizlarning ovozini ham ehtiyot qilish zarur. Xonandalik rejimiga rioya qilinsa, mutatsiya davrining yengil o'tishiga yordam beradi.

O'g'il bolalar tomog'ida ovoz boylamlari yo'g'onlashadi, qizaradi, qirg'oqlarida ba'zan shishlar paydo bo'ladi. Natijada diapozon qisqarib, yuqori pardalarni kuylash og'irlashadi, tez charchash holatlari ro'y beradi. Mutatsiya davrida o'g'il va qiz bolalarda asho'la o'rgatish ishi mas'uliyatni talab etadi. Qo'shiqlar bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi va dars davomida ovozlarni asrab-avaylagan holda o'rgatilishi lozim. Darsning asosiy qismini qo'shiq o'rgatishga sarf etib ovozlarni charchatmaslik lozim. Ovozlarni partiyalarga aniq ajratib, ikki ovozda asho'la aytirish ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. O'qituvchining asosiy vazifalari:

1. Sinfdagi umumiy kayfiyatni va bolalarning musiqa madaniyati darsiga, musiqa san'atiga bo'lgan munosabatini har tomonlama o'rganib hisobga olish.
2. Har bir o'quvchining psixologik va fiziologik jihatdan chuqur o'rganish, uning ovoz o'sishi, mutatsiya davrini hisobga olib ovoz partiyasini belgilab olish.
3. Bolalarni musiqa san'ati va darsga qiziqtirish. Musiqa – bu ruh ozug'i, hayotning badiiy aksi, inson qalbining yo'ldoshi ekanligi haqida tushuncha hosil eta bilish.
4. Musiqa mazmunini madaniy hayotimiz bilan bog'lab o'tish uning vositasida axloqiy-estetik tarbiya berish, dars mazmunini boshqa predmetlar bilan bog'liq olib borish.

Shunday qilib, musiqa madaniyati darslarining jamoa (xor) bo'lib kuylash faoliyatida tavsiya etilgan musiqiy-o'quv materiallar ta'lim mazmunini tashkil etadi. Shu bois, ushbu faoliyatni tashkil etishda bolalarning nafas olish ustida ishlash, ovoz hosil etish, soz ustida ishlash kabilarga jiddiy e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Savollar:

1. Jamoaviy aytim tushunchasi haqida.
2. Musiqa pedagogikasi fani mutaxassis olimlarining jamoaviy aytim ahamiyati xususida.
3. Ovoz hosil bo'lish holati.
4. Mutatsiya davri nima?
5. O'qituvchining asosiy vazifalari.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Mahalliy musiqa uslublari, ovoz pardalari nafas organlari, mutatsiya organlari, mutatsiya davri, ovoz imkoniyatlari, o'quvchining psixologik va fiziologik jihatlari, ovoz partiyasini belgilash, xonandalik rejimi, umumiy musiqiy ta'lim, bolalar ovozi xususiyatlari, qo'shiq o'rgatish mas'uliyati, ovoz tarbiyasining vositasi ommaviy kuylash san'ati.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati :

1. Musabekova S.I. Musiqa tarbiyasi. -T., 1973.
2. Omonullaev D. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi (musiqa-pedagogika fakultetlari studentlari uchun o'quv-qo'llanma). -T., 1990.
3. Sizikova S. Horovoe penie v nachalno'x klassah (metodicheskoe posobie). Dushanbe, 1988.
4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha sinov dasturi (1-7 sinflar).- T., 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi Kontseptsiyasi. «Ma'rifat» gazetasi, 1992, 25-noyabr.
Qodirov R.G. Boshlang'ich maktabda ko'p ovozli kuylash.- T., 1997.

Oralik nazorati nazoratlar uchun

«Musiqiy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti» fanidan

Test topshiriklari:

1. Musiqiy meros deganda nimani tushunasiz?

- A. Milliy kadriyat, teatr ijrochisi
- *B. Milliy musiqiy madaniyatimiz
- V. O'zbek xalq adabiyoti
- G. Estrada janri

2. Xalq musiqasining ijodkori kim?

- *A. Bastakor, musiqashunos, kompozitor,
- B. Adabiyotshunos, shoir,
- V. Derijor, xormeystr, dizayner
- G. Allomalar, o'kituvchilar

3. Musiqa merosimiz kadriyat hisoblanadimi?

- A. Yo'k,
- *B. Ha,
- V. Ba'zi paytlar hisoblanadi
- G. Fakat musiqa ijro etgan paytda

4. Mumtoz kuy – ko'shiklar qanday cholg'ularda ijro etilgan

- A. Arfada,
- B. Fortepianoda,
- V. Gitarada
- * G. Milliy cholg'ularimizda

5. O'zbek musiqasida mahalliy uslublar deb nimani tushunamiz?

- A. Folklor musiqasini,
- B. Mumtoz kuy-ko'shiklar,
- *V. Samarkand-Buxoro, Farg'ona-Toshkent, Surxandaryo-Kashkadaryo va Xorazm musiqa uslublari,
- G. Xalq og'zaki ijodiyoti.

6. Mahalliy uslublar nechta?

- A. 3 ta, B. 12 ta, *V. 4 ta, G. 6 ta

7. Al – Forobiy musiqashunoslikka oid qanday asarlar yozgan?

- *A. «Kitabo'l al-musiqa al- kabir»,
- B. Davolash kitobidagi musiqa risolasi,
- V. Musiqiy merosimizga bir nazar,
- G. Musiqa ilmida ohanglar to'plami.

8. Yu.Rajabiy ijodiga mansub asarlarning nomi.

- A. Musiqa risolasi,
- *B. O'zbek xalq musiqasi, Musiqiy merosimizga bir nazar,
- V. Musiqa haqida katta kitob,
- G. Shashmakom kitobi.

9. O'zbek xalqining boy musiqa madaniyati cholg'u san'ati, nechanchi asrdan tarakkiy etishni boshlagan?

- A. 6 – 7 – asr
- *B. 9-10 – asr
- V. 19-20 – asr
- G. 20 - 21 asr

12. Al – Farobiy musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan: kishi ovoziga yaqin tovush chikaradigan cholg'u asboblari qaysi birlari?

Javob Doira, nog'ora
*Javob Nay, surnay
Javob Klarnet, truba
Javob Doira, nay

13. Moskvada o'zbek san'ati va adabiyoti dekadasi o'tkazilgan, shu nechanchi yil o'tkazildi?

Javob 1930 yil
Javob 1945 yil
*Javob 1937 yil
Javob 1951 yil

6. Shu dekadada o'zbek xalq cholg'u asboblari ansambli ishtirok etdi, ana shu ansamblga kim rahbarlik qilgan?

Javob Yu.Rajabiy
Javob M.Mirzayev
*Javob T.Jalilov
Javob M.Burxonov

15. O'zbekistonda melodist bastakor T.Jalilovning qanday asarini bilasiz?

Javob Jonon
*Javob Otmagay tong
Javob Kulcha non
Javob Rakkosasidan

16. Kompozitor M.Ashrafiy va mashhur rus kompozitori S.N.Vasilenko nechanchi yil «Bo'ron» operasini yozgan?

Javob 1941 yil
*Javob 1939 yil
Javob 1937 yil
Javob 1936 yil

17. O'zbekiston madhiyasining she'rini kim yozgan, musiqasini qaysi kompozitor yozganini ayting?

*Javob A.Oripov, M.Burxonov
Javob Ye.Voxiov, Yu.Rajabiy
Javob Said Axmad, T.Jalilov
Javob Abdulla Oripov, D.Zokirov

18. O'zbek kompozitorlaridan kimlarni bilasiz?

Javob P.Kulinkov
*Javob S.Boboyev

Javob N. Narimandze

Javob I.Chaykovsikiy

19. Kompozitor T.Jalilov qanday spektakllarga musiqa yaratgan?

*Javob Toxir va Zuxro

Javob Super kaynona

Javob Toshbolta ochik

Javob Layli va Majnun

20. D.Zokirov haqida bilganlaringizni so'zlab bering?

Javob Rubobchi sozanda

*Javob Dirijyor, Bastakor

Javob Baletmeyster

Javob Opera xonandasi

21. «Ansambl» - so'zi qaysi tildan olingan?

*Javob Fransiya

Javob O'zbekcha

Javob Ruscha

Javob Lotincha

22. Yu.Rajabiy nomidagi ansambl qanday ansambl deyiladi?

Javob Ashula va raks ansambli

Javob Folklor ansambli

*Javob Makomchilar ansambli

Javob Ko'shik va musiqa ansambli

23. Andijon shahrida so'ngi yillardan tashqil etilgan tanikli makom ansamblning nomi qanday ataladi?

Javob «Sumalak»

Javob «Shodlik»

Javob «Tavois»

*Javob «Meros»

24. Respublikamizda bir xil soz nomi bilan ataladigan mashhur ansambl qaysi?

Javob O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi changchi va doirachilar ansambli

*Javob G'.Toshmatov nomli dutorchilar ansambli

Javob «O'zbek raks» koshidagi «O'zbekiston» ansambli

Javob Samarkand viloyati Urgut tomonidagi «Besh karsak» ansambli

25. Yu.Rajabiy nomli makomchilar ansamblining hozirgi badiiy rahbari kim?

Javob Tuyg'un Otaboyev

Javob Mustafu Bafoyev
*Javob Abduhoshim Ismoilov
Javob Abduraxmon Xoltojiyev

26. O'zbekiston teleradiokompaniyasi koshidagi makomchilar ansambli qaysi san'atkor nomi bilan yuritiladi?

Javob Mannon Uyg'ur
Javob Muxtor Ashrafiy
*Javob Yunus Rajabiy
Javob To'xtasin Jalilov

27. O'zbekiston teleradiokompaniyasi koshidagi dutorchilar ansamblini qaysi tanikli sozanda, bastakor to'zgan?

Javob Tavakkal Kodirov
Javob Zamira Suyunova
Javob Fatoxon Mamadaliyev
*Javob G'anijon Toshmatov

28. O'zbek musiqasini, xususan ansambl ijrochiligini rivojlantirishda salmokli hissa ko'shgan, XX asr ijod qilgan sozanda nomini ko'rsating?

Javob Shuxrat Yo'ldoshev
*Javob Faxriddin Sodikov
Javob Donyor zokirov
Javob Jo'raxon Sultonov

29. XX asrning 2 – yarmida dunyoga dong'i ketgan ashula va raks ansamblini nomini ko'rsating.

Javob «Shodlik» ashula va raks ansambli
Javob «Zarafshon» ashula va raks ansambli
*Javob «Bahor» ashula va raks ansambli
Javob «Lazgi» ashula va raks ansambli

30. Folklor-etnografik ansambli boshka ansambllar ijrochiligidan nima bilan fark qiladi?

*Javob Xalq og'zaki ijodiga mansub asarlarni ijro etish b/n
Javob Shashmakom va makom yo'lidagi asarlarni ijro etish b/n
Javob Bastakorlar asarlarini ijro etish bilan
Javob Xar hil rakslari bilan

31. O'zbekiston va chet ellarga nomi eng mashhur folklor ansamblini aniklang.

Javob «Sumalak» ansambli
Javob «Besh karsak» ansambli
Javob «Parvoz» ansambli

*Javob «Boysun» ansambli

32. «Norim - norim» qaysi xalq musiqasi hisoblanadi?

Javob Andijon musiqasi

*Javob Xorazm musiqasi

Javob Farg'ona musiqasi

Javob. Buxoro musiqasi

33. Do'mbra asbobida qanday asarlar ijro etiladi?

*Javob Dostonlar, laparlar

Javob Katta ashula

Javob Nota bilan chalinadigan asarlar

Javob. Makom kuylari

42. Forobiyning musiqaga oid kitobi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

Javob «Davolash kitobi»

*Javob «Katta musiqa kitobi», «Kitob al-musiqa al-kabir»

Javob «Bilimlar kaliti»

Javob. «Shifo xazinasini»

35. M. Ashrafiy nechanchi yilda Konservatoriyada rektor vazifasini o'tagan?

*Javob 1948 yilda

Javob 1949 yilda

Javob 1952 yilda

Javob. 1947 yillar

36. «Bahor valsi» asarini yozgan bastakor nomini aniklang?

Javob Vasilev

Javob S. Komilov

*Javob Muxammadjon Mirzayev

Javob. M.Murtazoyev

37. Suvora, Faryod, Nakshlar qanday ashulalar hisoblanadi?

A. Buxoro xalq ashulalari,

*B. Xorazm xalq ashulalari,

V. Samarkand xalq ashulalari,

G. Surxandaryo-Kashkadaryo ashulalari.

38. Birinchi o'zbek milliy operasining nomi nima?

A. «Bahor»

B. «Sumalak»

*V. «Bo'ron»

G. «Kaldirg'och»

39. Xorazm raks – o'yin kuylari haqida nimalarni bilasiz?

- A. Tanovar, Munojot,
- *B. Norin – norin, Lazgi, Orazibon,
- V. Polka, Jonon, Yalla,
- G. Chipra dalli,dalli.

40. Surxandaryo – Kashkadaryo ijro uslubida mavjud an'anaviy cholg'uni ayting.

- *A. Dumbira, sibizg'a,
- B. Tanbur, chang, doira,
- V. G'ijjak, rubob, dutor,
- G. Nay, Afg'on rubob, doira.

«Musiqqa pedagogikasi tarixi»

fanidan

Yakuniy baholash uchun variantlar

V A R I A N T № __1__

Savol va topshiriklar:

1. Musiqqa pedagogikasi tarixi deganda nimani tushunasiz?
2. Musiqqa tarixining ahamiyati nimada ?
3. Darsda musiqqa mashg'ulotining maksadini aytib bering.
4. Musiqqa tinglash nazariyasini ayting.
5. «Klaster» medodini ta'riflab bering

V A R I A N T № __2__

1. Musiqqa o'kituvchisi qanday mashg'ulot o'tkazadi ?
2. Musiqqa kuylashning ahamiyati nimada ?
3. Darsda musiqiy mashg'ulotlarning maksadini aytib bering.
4. Musiqqa san'ati deganda nimani tushunasiz ?
5. «Akliy hujum» medodini ta'riflab bering

V A R I A N T № __3__

1. Musiqqa o'kituvchisining muomala odobi qanday bo'lishi kerak ?
2. Musiqqa darsi amaliy mashg'ulotlarining ahamiyati nimada ?

3. Musiqiy tafakkur qanday shakllanadi ?
4. Dars jarayonida mustaqil mashg'ulotlar turlarini ayting.
5. «Balik skeleti» medodini ta'riflab bering

V A R I A N T № __4__

1. Yangi pedagogik texnologiya haqida gapirib bering.
2. Musiqiy pedagogik mahoratning ahamiyati nimada ?
3. Darsda o'kituvchi va o'kuvchi faoliyatining maksadini aytib bering.
4. Mulokat deganda nimani tushunasiz ?
5. «Blis o'yin» medodini ta'riflab bering

V A R I A N T № __5__

1. Pedagogik texnologiyalarni asosiy jarayonlarni qanday tushunish mumkin ?
2. Interaktiv metodlar deganda nimani tushunasizlar ?
3. O'kuvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash boskichlarini ayting.
4. Bumerang texnologiyasini tariflab bering.
5. Skarabey texnologiyasini tariflab bering.

V A R I A N T № __6__

1. Musiqa madaniyati o'kituvchisining vazifalari nimalardan iborat ?
2. Pedagogik texnologiya deganda nimani tushunasiz ?
3. Boshlang'ich sinflarda o'kuvchilar ijodini qanday shakllantirish mumkin ?
4. Ta'lim texnologiyalari haqida gapirib bering.
5. Darslarda olib boriladigan ta'lim texnologiyalaridan misollar keltiring.

V A R I A N T № __7__

1. Innovasion texnologiya nimani anglatadi ?
2. Musiqa madaniyati o'kituvchisining mahorati nimada ?
3. Tarbiya berishda o'kituvchi oldiga qanday vazifalar ko'yiladi ?
4. O'kuvchilarni musiqa darsiga bo'lgan kizikishini qanday boskichlarda amalga oshirish mumkin ?
5. «Qanday, qanday?» texnologiyasi to'zilmasidan misollar keltiring.

V A R I A N T № __8__

1. Musiqa nazariyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy kadriyat, milliy g'oya nimani anglatadi?

3. Pedagogik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'naviy ruh deganda nimani tushunasiz?
5. Xalq musiqa namunalarida nimalar o'z ifodasini topadi?

VARIANT № __9__

1. Xalq musiqasining ijodkori kim?
2. Musiqa ilmiy-nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullangan qaysi allomalarni va ularning asarlarini bilasiz?
3. Forobiyning musiqa ilmiga ko'shgan hissasi haqida nima bilasiz?
4. Musiqa ta'limini milliy negizda barpo etish nimaga asoslanadi?
5. Milliy kadriyatlarga nimalar kiradi?

VARIANT № __10__

1. Umumta'lim maktablari musiqa ta'limi va tarbiyalash konsepsiyasi o'z mazmunida nimani ifodalaydi?
2. Interaktiv metodlar deganda nimani tushunasizlar ?
3. Umumta'lim maktablarida ta'limi necha bo'g'indan tashqil etiladi?
4. «Ta'lim to'g'risida»gi Konun va «KTMD» o'z mohiyatiga ko'ra qanday hujjat hisoblanadi?
5. Musiqa madaniyati darslariga qanday tayyorgarlik ko'rish mumkin?

VARIANT № __11__

1. 1 – sinfda o'kuvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar nimalardan iborat?
2. 2 – sinf yil mavzusi qanday nomlanadi?
3. 3 – sinf yil va chorak mavzulari qaysi janrlarga alohida o'rin berilgan?
4. 4 – sinfda o'kuvchilar xalq musiqasining qanday shakllari va turlari bilan tanishadilar?
5. 5 – sinf o'kuvchilari materiallari mazmuni haqida nimalarni bilamiz?

VARIANT № __12__

1. 6 – sinfda o'kuvchilar xalq musiqasining qanday shakllari va turlari bilan tanishadilar?
2. 7 – sinfda o'kuvchilar xalq musiqasining qanday shakllari va turlari bilan tanishadilar?
3. Musiqa san'ati deganda nimani tushunasiz ?
4. «Shashmakom» o'zbek xalq musiqa ijodiyotida qanday o'rin tutadi?
5. «Aklii hujum»r medodini ta'riflab bering

V A R I A N T № __13__

1. Davlat ta'lim standartlari va dasturlari to'g'risida gapirib bering.
2. Musiqiy pedagogik mahorat asoslarini ta'riflang..
3. Pedagogik texnologiyalar tushunchasi haqida ma'lumot bering.
4. Pedagogik texnologiya tasnifi.
5. Ta'lim usullaridan birini ta'riflab bering

V A R I A N T № __14__

1. Musiqa tarbiya ishlarini olib borishda o'kituvchining tayyorgarligi qanday bo'lishi kerak?
2. Musiqa darsida o'kituvchining so'z mahorati qanday rol o'ynaydi?
3. Boshlang'ich sinflarda tadbirlarni qanday o'tkazish mumkin ?
4. Maktablarida darsdan tashkari mashg'ulotlar kay tarzda olib boriladi?
5. Darsdan tashkari mashg'ulotlar uchun bir soatlik dars sstenariyasini to'zing.

V A R I A N T № __16__

1. Kadrlar Tayyorlash milliy dasturi to'g'risida gapirib bering.
2. Umumiy o'rta ta'lim DTS deganda nimani tushunasiz ?
3. Yaangi avlodni tarbiyalab, barkamol iison bo'lib yetishtirishdagi o'rni
4. Musiqa o'kituvchisining xususiyatlari to'g'risida ma'lumot bering.
5. Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlarini ayting.

«Musiqa pedagogikasi tarixi»

fanidan

Joriy nazorat savollari:

1. Musiqa pedagogikasi tarixi deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy kadriyat, milliy g'oya nimani anglatadi?
3. Pedagogik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'naviy ruh deganda nimani tushunasiz?
7. Xalq musiqa namunalari nimalar o'z ifodasini topadi?
8. Xalq musiqasining ijodkori kim?
9. Musiqa ilmiy-nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullangan qaysi allomalarni va ularning asarlarini bilasiz?
10. Forobiyning musiqa ilmiga ko'shgan hissasi haqida nima bilasiz?
11. Musiqa ta'limini milliy negizda barpo etish nimaga asoslanadi?
12. Milliy kadriyatlarga nimalar kiradi?
13. Umumta'lim maktablari musiqa ta'limi va tarbiyalash konsepsiyasi o'z mazmunida nimani ifodalaydi?
14. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish mazmuni qanday tamoyillarga asoslanadi?
15. Umumta'lim maktablarida ta'limi necha bo'g'indan tashqil etiladi?
16. «Ta'lim to'g'risida»gi Konun va «KTMD» o'z mohiyatiga ko'ra qanday hujjat hisoblanadi?
17. Umumta'lim maktablari uchun musiqa fani bo'yicha DTS va o'quv dasturlari mazmunida qanday bilim va malakalarga ustuvor ahamiyat berilgan?
18. 1 – sinfda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar nimalardan iborat?
19. 2 – sinf yil mavzusi qanday nomlanadi?
20. 3 – sinf yil va chorak mavzulari qaysi janrlarga alohida o'rin berilgan?
21. 4 – sinfda o'quvchilar xalq musiqasining qanday shakllari va turlari bilan tanishadilar?
22. 5 – sinf o'quv materiallari mazmuni haqida nimalarni bilamiz?
23. 6 – sinfda o'quvchilar xalq musiqasining qanday shakllari va turlari bilan tanishadilar?
24. 7 – sinfda o'quvchilar xalq musiqasining qanday shakllari va turlari bilan tanishadilar?
23. «Shashmakom» o'zbek xalq musiqa ijodiyotida qanday o'rin tutadi?

Masala va mashklar to'plami

1.1. Mavzu: «*Musiqqa pedagogikasi tarixi*» fanining **maksad va vazifalari**» mavzusi bo'yicha mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi **modeli**

Vakt:80 dakika	Magistrlar soni – 6
<i>Mashg'ulot shakli</i>	1 – Mavzu Amaliy seminar mashg'uloti
<i>Ma'ro'za dars rejasi:</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Musiqqa pedagogikasi tarixi fanini vujudga kelishi. 2. Pedagogik nazariy va tarixining maksad va vazifalari haqida. 3. Yangi pedagogik texnologiya tasnifi. 4. Davlat ta'lim standartlari va dasturlari tubdan yangilanishi
<i>O'kuv mashg'ulotni maksadi:</i>	<p>Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarini , pedagogik nazariya va amaliyotga tayyorlash.</p> <p>Magistrlarni yangi pedagogik texnologiyalarni ko'llashga o'rgatish</p> <p>Ta'lim usullardan foydalanishni shakllantirish</p>
<i>Ma'ro'za mazmuni</i>	Musiqqa nazariyasi tushunchasini o'rganishda, musiqiy meros va uning xalqimiz ijtimoiy, madaniy hayotimizdagi o'rni, milliy musiqaning an'anaviylik, tarixiy, siyosiy, madaniy, etnografik, etnopsixologik xususiyatlari. Ulardan ta'lim va tarbiya tizimida foydalanish borasidagi ijtimoiy buyurtmaning mazmun va mohiyati.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <i>Ta'lim tarbiyaga yondashuvlar</i>	Nazariy bilimlarni o'rganishda musiqqa san'ati hamda uning mazmun va mohiyati, ijrochilik shakllari haqida tushuncha beriladi. Musiqqa san'ati , musiqiy merosdan ta'lim tizimida foydalanishning maksad va vazifalari, hozirgi kundagi holati va muammolari haqida.
<i>Ta'lim usullari</i>	Amaliy, muammoli usul, akliy xujum, blis – so'rov, balik skeleti va boshka bir nechta ta'lim usullaridan va texnologiyalardan unumli foydalanish ko'zda tutilgan
<i>Ta'limni</i>	Yakka tartibda, ommaviy, jamoaviy, guruhli va hokazo

<i>shakli</i>	
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ro'za matnlarii, darsliklar, doska, kompyuter slaydlari, ko'rgazmali materiallar, nota pultlari, CD,VCD,DVD disk va boshkalar
<i>Ta'lim sharoiti</i>	Auditoriya, maxsus jihozlangan xona va katta zallar
<i>Monitoring va baholash</i>	Ma'ro'za, amaliy ijro, og'zaki nazorat: savol – javob , muammoni bajarish bo'yicha nazorat topshirig'i.

1.2. Mavzu: «Musiqqa pedagogikasi tarixi» fanining maksad va vazifalari» mavzusi
bo'yicha mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi **xaritasi**

Ish boskichlari	O'kituvchi faoliyatining mazmuni	Tinglovchi faoliyati mazmuni
1-boskich. Mavzuga kirish (15min)	1.1 O'kuv mashg'uloti mavzusi, savollarni va o'kuv faoliyati natijalarini aytadi. 1.2 Akliy hujum usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalar aniklanadi va bilimlarni faollashtiradi. 1.3. Mavzuni jonlashtirish uchun savollar beradi. (1-ilova).	Tinglaydilar Ijro etadilar Tinglaydilar Savollarga javob beradilar
2 -boskich. Asosiy bo'lim (50 min)	2.1. Milliy musiqiy meros va uning an'anaviy shakllari, janrlari ijrochilik uslublari haqida tushuncha beriladi. 2.2 Milliy musiqiy merosdan tarbiya tizimida foydalanishning maksad va vazifalarini yoritadi. (1-ilova) 2.3. Milliy musiqiy merosdan tarbiyaviy maksadlarda foydalanish bo'yicha dasturiy, miyoriy hujjat va ilmiy-uslubiy manbalar haqida ma'lumotlar beriladi. (3-ilova) 2.4. Fanni o'zlashtirish va mustaqil ishlash uchun tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi.(6-ilova. Asosilarini daftarga kayd qilishlari yeslatiladi, guruhlariga bo'ladi va savol topshiriklar tarkatiladi.	Tinglaydilar. Tinglaydilar Savollarga javob beradilar. Klaster usulida bajaradilar. Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar.

	2.4. Guruhlar bajargan ish bo'yicha o'z – o'zini baholaydi va tekshiradilar.	
3– boskich. Yakunlovchi (15 min)	3.1. Mashg'ulot bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni kayerda ishlatish mumkinligi ma'lum qiladi. 3.2.Mavzu bo'yicha bilimlarni chukurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. 3. 3.3.Keyingi mazvu bo'yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beradi. 3.4. Mustaqil ish uchun topshirik beradi va uning baholash mezonini aytadi (6 – ilova)	Savollar beradilar. Tinglaydilar O'UM ga karaydilar Yozadilar


1.2. ilova

Tezkor savollar

1. Musiqa tarixi , musiqa san'ati deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy kadriyat, milliy g'oya nimani anglatadi?
3. Pedkgogik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'naviy ruh deganda nimani tushunasiz?

BALIK SXEMASI TEXNOLOGIYASI

1.3.ilova



1.4 ilova

Kichik guruxlarda ishlash koidasi.

1. Magistrlar ishini bajarish uchun bilim va malakalarga ega bo'lishi lozim.

2. Guruhlarda anik topshiriklar berilmog'i lozim.

1.5. ilova

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. «Barkamol avlod orzusi» .T.. Shark 1999
2. Karimov I. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» . T..Ma'naviyat.2008
3. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi konuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi . T.. 1997
4. Umumta'lim maktablari 1-7- sinf musiqa fani bo'yicha DTS va o'kuv dasturi , Darsliklar
5. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi.. Toshkent., - X.T.V , 1995
6. Musiqa o'kitish metodikasi (Ma'ro'za matni), G.Sharipova TDPU 2000

1.7. ilova

Mustaqil ish turlari:

Takrorlash va mashk qilish: Takrorlash, tahlil qilish, mustahkamlash, amaliy ijro qilish, malakasini shakllantirish.

Mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.

2.1. Mavzu: «O'zbekistonda musiqiy- pedagogik ta'limning zamonaviy konsepsiyasi» (Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi konsepsiyasi) mavzusi bo'yicha mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi **modeli**

Vakt:80 dakika	Magistrlar soni – 6
<i>Mashg'ulot shakli</i>	2 – Mavzu Amaliy seminar mashg'uloti
<i>Ma'ro'za dars rejasi:</i>	1. Umumiy ta'lim maktablarida musiqa o'kituvchilarining yangi dastur buyicha ish faoliyati. 2. Musiqa o'kitish buyicha ilmiy-medodik ishlar, dasturlar, darsliklar ta'minoti va tashqiliy jihatlari. 3. Pedagogik universitetlarda musiqa o'kitishni tashqil etish, o'kuv materiallari bilan tanishish hamda yetuk mutaxassislarni tayyorlash. 4. Umumta'lim maktablarida milliy musiqiy ta'lim mazmuni va mohiyati.

<i>O'kuv mashg'ulotni maksadi:</i>	Yosh avlodni milliy ma'naviy ruhda, milliy kadriyatlarimizga ongli munosabat tushunchalarini shakllantirishda milliy musiqani o'rganishning o'rne va ahamiyatini tushuntirish.
<i>Ma'ro'za mazmuni</i>	Barkamol avlod tarbiyasida musiqiy merosdan foydalanish maksad va vazifalari. Milliy musiqa namunalari yoshlarda milliy o'zlikni anglash, milliy ong, dunyokarashni shakllantirishning muhim omili. Ta'lim-tarbiya tizimida foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va uni kelgusida yanada takomillashtirish tamoyillari.
Pedagogik vazifalar: <i>Ta'lim tarbiyaga yondashuvlar</i>	Magistrlarga milliy, madaniy, mafkuraviy omillar, ular tarkibida milliy musiqiy merosni o'rne va ahamiyati tushuntiriladi. Musiqiy merosdan ta'lim tizimida foydalanish dolzarb vazifa ekanligi haqida ma'lumotlar beriladi.
<i>Ta'lim usullari</i>	Amaliy, muammoli usul, akliy xujum, blis – so'rov, balik skeleti va boshka bir nechta ta'lim usullaridan va texnologiyalardan unumli foydalanish ko'zda tutilgan
<i>Talim shakli</i>	Yakka tartibda, ommaviy, jamoaviy, guruhli va hokazo
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ro'za matnlarii, darsliklar, doska, kompyuter slaydlari, ko'rgazmali materiallar, nota pultlari, CD,VCD,DVD disk
<i>Ta'lim sharoiti</i>	Auditoriya, maxsus jihozlangan xona va katta zallar
<i>Monitoring va baholash</i>	Ma'ro'za, amaliy ijro, og'zaki nazorat: savol – javob , muammoni bajarish bo'yicha nazorat topshirig'i.

1.2. ilova

Tezkor savollar

1. Vatan tuyg'usi deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy kadriyat, milliy g'oya nimani anglatadi?
3. Pedagogik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'naviy ruh deganda nimani tushunasiz?


1.3.ilova

Qanday?

qanday?

qanday?

qanday?



1.4 ilova

Kichik guruxlarda ishlash koidasi.

1. Magistrlar ishini bajarish uchun bilim va malakalarga ega bo'lishi lozim.
2. Guruhlarda anik topshiriklar berilmog'i lozim.

1.5. ilova

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. «Barkamol avlod orzusi» .T.. Shark 1999
2. Karimov I. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» . T..Ma'naviyat.2008
3. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi konuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi . T.. 1997
4. Umumta'lim maktablari 1-7- sinf musiqa fani bo'yicha DTS va o'kuv dasturi , Darsliklar
5. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi.. Toshkent., - X.T.V , 1995
6. Musiqa o'kitish metodikasi (Ma'ro'za matni), G.Sharipova TDPU 2000

1.7. ilova

Mustaqil ish turlari:

Takrorlash va mashk qilish: Takrorlash, tahlil qilish, mustahkamlash, amaliy ijro qilish, malakasini shakllantirish.

Mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.

3.1. Mavzu: «**Musiqiy pedagogik ta'lim jarayoni**» mavzusi bo'yicha mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi **modeli**

Vakt:80 dakika	Magistrlar soni – 6
---------------------------	---------------------


<i>Mashg'ulot shakli</i>	3 – Mavzu Amaliy seminar mashg'uloti
<i>Ma'ro'za dars rejasi:</i>	1. Musiqiy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti fanining mazmuni va maksadi. 2.«Musiqiy ta'lim», «tarbiya metodikasi», «maktab» tushunchalarining ahamiyati. 3. Musiqiy pedagogik ta'lim nazariyasi fanining boshka fanlar bilan o'zaro bog'likligi. 4. Umumta'lim maktablarida milliy musiqiy ta'lim mazmuni va mohiyati.
<i>O'kuv mashg'ulotni maksadi:</i>	Yosh avlodni milliy ma'naviy ruhda, milliy kadriyatlarimizga ongli munosabat tushunchalarini shakllantirishda milliy musiqani o'rganishning o'ri va ahamiyatini tushuntirish.
<i>Ma'ro'za mazmuni</i>	Barkamol avlod tarbiyasida, musiqiy merosdan foydalanish maksad va vazifalari. Milliy musiqa namunalari yoshlarda milliy o'zlikni anglash, milliy ong, dunyokarashni shakllantirishning muhim omili. Ta'lim-tarbiya tizimida foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va uni kelgusida yanada takomillashtirish tamoyillari.
<i>Pedagogik vazifalar: Ta'lim tarbiyaga yondashuvlar</i>	Magistrlarga milliy, madaniy, mafkuraviy omillar, ular tarkibida milliy musiqiy merosni o'ri va ahamiyati tushuntiriladi. Musiqiy merosdan ta'lim tizimida foydalanish dolzarb vazifa ekanligi haqida ma'lumotlar beriladi.
<i>Ta'lim usullari</i>	Amaliy, muammoli usul, akliy xujum, blis – so'rov, balik skeleti va boshka bir nechta ta'lim usullaridan va texnologiyalardan unumli foydalanish ko'zda tutilgan
<i>Talim shakli</i>	Yakka tartibda, ommaviy, jamoaviy, guruhli va hokazo
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ro'za matnlarii, darsliklar, doska, kompyuter slaydlari, ko'rgazmali materiallar, nota pultlari, CD,VCD,DVD disk
<i>Ta'lim sharoiti</i>	Auditoriya, maxsus jihozlangan xona va katta zallar
<i>Monitoring va baholash</i>	Ma'ro'za, amaliy ijro, og'zaki nazorat: savol – javob , muammoni bajarish bo'yicha nazorat topshirig'i.

1.2. ilova

Tezkor savollar

1. Musiqiy nazariya, musiqa san'ati deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy kadriyat, milliy g'oya nimani anglatadi?
3. Pedagogik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'naviy ruh deganda nimani tushunasiz?

1.3. ilova



1.4 ilova

Kichik guruxlarda ishlash koidasi.

1. Barkamol avlod tarbiyasida milliy musiqiy merosdan foydalanish maksad va vazifalari.
2. Milliy musiqa namunalari yoshlarda milliy o'zlikni anglash, milliy ong, dunyokarashni shakllantirishning muhim omili.
3. Magistrlar ishini bajarish uchun bilim va malakalarga ega bo'lishi lozim.
4. Guruhlarda anik topshiriklar berilmog'i lozim.

1.5. ilova

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. «Barkamol avlod orzusi» .T.. Shark 1999
2. Karimov I. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» . T..Ma'naviyat.2008
3. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi konuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi . T.. 1997

Mustaqil ish turlari:

Takrorlash va mashk qilish: Takrorlash, tahlil qilish, mustahkamlash, amaliy ijro qilish, malakasini shakllantirish.

Mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.

4.1.Mavzu: «Musiqiy pedagogik ta'lim texnologiyalari shakl va uslublari»
mavzusi bo'yicha mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi **modeli**

Vakt:80 dakika	Magistrlar soni – 6
<i>Mashg'ulot shakli</i>	4 – Mavzu Amaliy seminar mashg'uloti
<i>Ma'ro'za dars rejasi:</i>	1. Davlat ta'lim standartlari va dasturlari tubdan yangilanishi. 2. Musiqiy pedagogik mahorat. 3. Pedagogik texnologiyalar tushunchasi haqida. 4. Pedagogik texnologiya tasnifi. 5. Xulosa
<i>O'kuv mashg'ulotni maksadi:</i>	Pedagogik texnologiyalar va musiqa san'ati hamda uning milliy madaniy kadriyatlarimiz tizimidagi o'rni, milliy mafkuramizni shakllantirishda yosh avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.
<i>Ma'ro'za mazmuni</i>	Pedagogik texnologiyalar tushunchasini o'rganishda, musiqiy meros va uning xalqimiz ijtimoiy, madaniy hayotimizdagi o'rni, milliy musiqaning an'anaviylik, tarixiy, siyosiy, madaniy, etnografik, etnopsixologik xususiyatlari. Ulardan ta'lim va tarbiya tizimida foydalanish borasidagi ijtimoiy buyurtmaning mazmun va mohiyati.
Pedagogik vazifalar: <i>Ta'lim tarbiyaga yondashuvlar</i>	Pedagogik texnologiyalar musiqa san'ati hamda uning mazmun va mohiyati, ijrochilik shakllari haqida tushuncha beriladi. Milliy g'oya, musiqiy merosdan ta'lim tizimida foydalanishning maksad va vazifalari, hozirgi kundagi holati va muammolari haqida.
<i>Ta'lim usullari</i>	Amaliy, muammoli usul, akliy xujum, blis – so'rov, balik skeleti va boshka bir nechta ta'lim usullaridan va

	texnologiyalardan unumli foydalanish ko'zda tutilgan
<i>Ta'limni shakli</i>	Yakka tartibda, ommaviy, jamoaviy, guruhli va hokazo
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ro'za matnlarii, darsliklar, doska, kompyuter slaydlari, ko'rgazmali materiallar, nota pultlari, CD,VCD,DVD disk va boshkalar
<i>Ta'lim sharoiti</i>	Auditoriya, maxsus jihozlangan xona va katta zallar
<i>Monitoring va baholash</i>	Ma'ro'za, amaliy ijro, og'zaki nazorat: savol – javob , muammoni bajarish bo'yicha nazorat topshirig'i.

1.2. ilova

Tezkor savollar

1. Musiqiy nazariya, musiqa san'ati deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy kadriyat, milliy g'oya nimani anglatadi?
3. Pedagogik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'naviy ruh deganda nimani tushunasiz?

1.3.ilova

« Insert » jadvali – Mustaqil o'kish vaktida olgan ma'lumotlarni , eshitgan ma'ro'zalarni tizimlashtirishni ta'minlaydi; olingan ma'lumotni tasdiklash, chetga chikish, ko'zatish. Avval o'zlashtirgan ma'lumotlarni bog'lash kobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.
Magistrlar jadvalni to'ldirish koidasi bilan tanishadilar va alohida o'zlari: O'kish jarayonida olingan ma'lumotlarni tizimlashtiradilar – matnda belgilangan kuyidagi belgilarga muvofik:
« V » – men bilgan ma'lumotlarga mos;
« – » – men bilgan ma'lumotlarga zid;
« + » – men uchun yangi ma'lumot;
« ? » – men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniklash, to'ldirish talab etiladi.

Insert jadvali

V	–	+	?

1.4 ilova

Kichik guruxlarda ishlash koidasi

1.5. ilova

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. «Barkamol avlod orzusi» .T.. Shark 1999
2. Karimov I. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» . T..Ma'naviyat.2008
3. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi konuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi . T.. 1997
4. Umumta'lim maktablari 1-7- sinf musiqa fani bo'yicha DTS va o'kuv dasturi , Darsliklar
5. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi.. Toshkent., - X.T.V , 1995

1.7. ilova

Mustaqil ish turlari:

Takrorlash va mashk qilish: Takrorlash, tahlil qilish, mustahkamlash, amaliy ijro qilish, malakasini shakllantirish.

Mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.

5.1.Mavzu: «Barkamol insonni tarbiyalashda musiqa madaniyati darslarining ahamiyati» mavzusi bo'yicha mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi modeli

Vakt:80 dakika	Magistrlar soni – 6
<i>Mashg'ulot shakli</i>	5 – Mavzu Amaliy seminar mashg'uloti
<i>Ma'ro'za dars rejasi:</i>	1. Madaniy hayotimizda musiqani tutgan o'rni 2. Musiqa ta'limotini rivojlantirishga musiqa madaniyati darslarini ahamiyati 3. Shaxsni shakllanishida musiqaning roli 4. Musiqa o'kituvchisi olidiga ko'yilgan zamonaviy talablar 5. Xulosa
<i>O'kuv mashg'ulotni maksadi:</i>	Musiqa san'ati hamda uning milliy madaniy kadriyatlarimiz tizimidagi o'rni, milliy mafkuramizni shakllantirishda yosh avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.
<i>Ma'ro'za</i>	Muammoli o'kitish tushunchasini o'rganishda, musiqiy meros

<i>mazmuni</i>	va uning xalqimiz ijtimoiy, madaniy hayotimizdagi o'rne, milliy musiqaning an'anaviylik, tarixiy, siyosiy, madaniy, xususiyatlari. Ulardan ta'lim va tarbiya tizimida foydalanish borasidagi ijtimoiy buyurtmaning mazmun va mohiyati.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <i>Ta'lim tarbiyaga yondashuvlar</i>	Musiqqa san'ati hamda uning mazmun va mohiyati, ijrochilik shakllari haqida tushuncha beriladi. Milliy g'oya, musiqiy merosdan ta'lim tizimida foydalanishning maksad va vazifalari, hozirgi kundagi holati va muammolari haqida.
<i>Ta'lim usullari</i>	Amaliy, muammoli usul, akliy xujum, blis – so'rov, balik skeleti va boshka bir nechta ta'lim usullaridan va texnologiyalardan unumli foydalanish ko'zda tutilgan
<i>Ta'limni shakli</i>	Yakka tartibda, ommaviy, jamoaviy, guruhli va hokazo
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ro'za matnlarii, darsliklar, doska, kompyuter slaydlari, ko'rgazmali materiallar, nota pultlari, CD,VCD,DVD disk va boshkalar
<i>Ta'lim sharoiti</i>	Auditoriya, maxsus jihozlangan xona va katta zallar
<i>Monitoring va baholash</i>	Ma'ro'za, amaliy ijro, og'zaki nazorat: savol – javob , muammoni bajarish bo'yicha nazorat topshirig'i.


1.2. ilova

Tezkor savollar

1. Musiqiy nazariya, musiqqa san'ati deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy kadriyat, milliy g'oya nimani anglatadi?
3. Pedagogik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'naviy ruh deganda nimani tushunasiz?

1.3.ilova

“Piramida” chizmasi



1.4 ilova

Kichik guruxlarda ishlash koidasi.

1. Magistrlar ishini bajarish uchun bilim va malakalarga ega bo'lishi lozim.
2. Guruhlarda anik topshiriklar berilmog'i lozim.
3. Milliy musiqiy ta'limni yo'lga ko'yish va xalq musiqi ijodiyoti haqida tushuncha hosil qilish

1.5. ilova

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. «Barkamol avlod orzusi» .T.. Shark 1999
2. Karimov I. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» . T..Ma'naviyat.2008
3. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi konuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi . T.. 1997
4. Umumta'lim maktablari 1-7- sinf musiqi fani bo'yicha DTS va o'kuv dasturi , Darsliklar
5. Umumta'lim maktablarida musiqi ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi.. Toshkent., - X.T.V , 1995
6. Musiqi o'kitish metodikasi (Ma'ro'za matni), G.Sharipova TDPU 2000

Mustaqil ish turlari:

Takrorlash va mashk qilish: Takrorlash, tahlil qilish, mustahkamlash, amaliy ijro qilish, malakasini shakllantirish.

Mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.

6.1.Mavzu: «Musiqiy ta'lim jarayonija muammoli o'kitish texnologiyalari» mavzusi bo'yicha mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi **modeli**

Vakt:80


Magistrlar soni – 6

dakika	
<i>Mashg'ulot shakli</i>	6 – Mavzu Amaliy seminar mashg'uloti
<i>Ma'ro'za dars rejasi:</i>	1. Musiqa darslarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish muammolari. 2. Musiqa darslaridarayonida mulokatni tashqil etish. 3. Musiqa o'kituvchisining pedagogik xususiyatlari. 4. Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari. 5. Xulosa
<i>O'kuv mashg'ulotni maksadi:</i>	Musiqa san'ati hamda uning milliy madaniy kadriyatlarimiz tizimidagi o'rne, milliy mafkuramizni shakllantirishda yosh avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashdagi o'rne va ahamiyatini ochib berish.
<i>Ma'ro'za mazmuni</i>	muammoli o'kitish tushunchasini o'rganishda, musiqiy meros va uning xalqimiz ijtimoiy, madaniy hayotimizdagi o'rne, milliy musiqaning an'anaviylik, tarixiy, siyosiy, madaniy, xususiyatlari. Ulardan ta'lim va tarbiya tizimida foydalanish borasidagi ijtimoiy buyurtmaning mazmun va mohiyati.
Pedagogik vazifalar: <i>Ta'lim tarbiyaga yondashuvlar</i>	Musiqa san'ati hamda uning mazmun va mohiyati, ijrochilik shakllari haqida tushuncha beriladi. Milliy g'oya, musiqiy merosdan ta'lim tizimida foydalanishning maksad va vazifalari, hozirgi kundagi holati va muammolari haqida.
<i>Ta'lim usullari</i>	Amaliy, muammoli usul, akliy xujum, blis – so'rov, balik skeleti va boshka bir nechta ta'lim usullaridan va texnologiyalardan unumli foydalanish ko'zda tutilgan
<i>Ta'limni shakli</i>	Yakka tartibda, ommaviy, jamoaviy, guruhli va hokazo
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ro'za matnlarii, darsliklar, doska, kompyuter slaydlari, ko'rgazmali materiallar, nota pultlari, CD,VCD,DVD disk va boshkalar
<i>Ta'lim sharoiti</i>	Auditoriya, maxsus jihozlangan xona va katta zallar
<i>Monitoring va baholash</i>	Ma'ro'za, amaliy ijro, og'zaki nazorat: savol – javob , muammoni bajarish bo'yicha nazorat topshirig'i.

Tezkor savollar

1. Musiqiy nazariya, musiqa san'ati deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy kadriyat, milliy g'oya nimani anglatadi?
3. Pedagogik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'naviy ruh deganda nimani tushunasiz?

Klaster



Kichik guruxlarda ishlash koidasi.

1. Barkamol avlod tarbiyasida milliy musiqiy merosdan foydalanish maksad va vazifalari.
2. Milliy musiqa namunalari yoshlarda milliy o'zlikni anglash, milliy ong, unyokarashni shakllantirishning muhim omili.
3. Magistrlar ishini bajarish uchun bilim va malakalarga ega bo'lishi lozim.
4. Guruhlarda anik topshiriklar berilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. «Barkamol avlod orzusi» .T.. Shark 1999

2. Karimov I. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» . T..Ma'naviyat.2008
3. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi konuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi . T.. 1997

7.1.Mavzu: «Musiqqa fanlarini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish» mavzusi bo'yicha mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi modeli


Vakt:80 dakika	Magistrlar soni – 6
<i>Mashg'ulot shakli</i>	7 – Mavzu Amaliy seminar mashg'uloti
<i>Ma'ro'za dars rejasi:</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish. 2. Pedagogik texnologiyalarning asosiy elementlari 3. Yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalari. 4. Texnologik treninglarni ko'llash to'g'risida 5. Xulosa
<i>O'quv mashg'ulotni maksadi:</i>	Musiqqa san'ati hamda uning milliy madaniy kadriyatlarimiz tizimidagi o'rni, milliy mafkuramizni shakllantirishda yosh avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.
<i>Ma'ro'za mazmuni</i>	Interfaol usullar tushunchasini o'rganishda, musiqiy meros va uning xalqimiz ijtimoiy, madaniy hayotimizdagi o'rni, milliy musiqaning an'anaviylik, tarixiy, siyosiy, madaniy, etnografik, etnopsixologik xususiyatlari. Ulardan ta'lim va tarbiya tizimida foydalanish borasidagi ijtimoiy buyurtmaning mazmun va mohiyati.
<i>Pedagogik vazifalar: Ta'lim tarbiyaga yondashuvlar</i>	Musiqqa san'ati hamda uning mazmun va mohiyati, ijrochilik shakllari haqida tushuncha beriladi. Milliy g'oya, musiqiy merosdan ta'lim tizimida foydalanishning maksad va vazifalari, hozirgi kundagi holati va muammolari haqida.

<i>Ta'lim usullari</i>	Amaliy, muammoli usul, akliy xujum, blis – so'rov, balik skeleti va boshka bir nechta ta'lim usullaridan va texnologiyalardan unumli foydalanish ko'zda tutilgan
<i>Ta'limni shakli</i>	Yakka tartibda, ommaviy, jamoaviy, guruhli va hokazo
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ro'za matnlarii, darsliklar, doska, kompyuter slaydlari, ko'rgazmali materiallar, nota pultlari, CD,VCD,DVD disk va boshkalar
<i>Ta'lim sharoiti</i>	Auditoriya, maxsus jihozlangan xona va katta zallar
<i>Monitoring va baholash</i>	Ma'ro'za, amaliy ijro, og'zaki nazorat: savol – javob , muammoni bajarish bo'yicha nazorat topshirig'i.

1.2. ilova

Tezkor savollar

1. Musiqa tarixi, musiqa san'ati deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy kadriyat, milliy g'oya nimani anglatadi?
3. Pedagogik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'naviy ruh deganda nimani tushunasiz?



Kichik guruxlarda ishlash koidasi.

1. Magistrlar ishini bajarish uchun bilim va malakalarga ega bo'lishi lozim.
2. Guruhlarda anik topshiriklar berilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. «Barkamol avlod orzusi» .T.. Shark 1999
2. Karimov I. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» . T..Ma'naviyat.2008
3. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi konuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi . T.. 1997

8.1.Mavzu: «Musiqiy fanlarni o'kitishda o'yin va interfaol usullardan foydalanish»mavzusi bo'yicha mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi **modeli**

Vakt:80 dakika	Magistrlar soni – 6
<i>Mashg'ulot shakli</i>	8 – Mavzu Amaliy seminar mashg'uloti
<i>Ma'ro'za dars rejasi:</i>	1. O'kuvchilarni musiqa darslariga bo'lgan kizikishlarini o'stirish. 2. Musiqa madaniyati darslarida o'kuvchilarning ijro sifatlarini oshirish 3. O'kuvchilarni musiqiy-ijodiy faoliyatga tayyorlash 4. Musiqaning ifoda vositalari (3 – sinf musiqa madaniyati darslari), 5. Musiqada dinamik belgilarni ishlatilishi xususida 6. Mustaqil ijodiy topshiriklar
<i>O'kuv mashg'ulotni maksadi:</i>	Milliy g'oya va musiqa san'ati hamda uning milliy madaniy kadriyatlarimiz tizimidagi o'rni, milliy mafkuramizni shakllantirishda yosh avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.
<i>Ma'ro'za</i>	Milliy g'oya tushunchasini o'rganishda, musiqiy meros va

<i>mazmuni</i>	uning xalqimiz ijtimoiy, madaniy hayotimizdagi o'rnini, milliy musiqaning an'anaviylik, tarixiy, siyosiy, madaniy, etnografik, etnopsixologik xususiyatlari. Ulardan ta'lim va tarbiya tizimida foydalanish borasidagi ijtimoiy buyurtmaning mazmun va mohiyati.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <i>Ta'lim tarbiyaga yondashuvlar</i>	Milliy g'oya va musiqa san'ati hamda uning mazmun va mohiyati, ijrochilik shakllari haqida tushuncha beriladi. Milliy g'oya, musiqiy merosdan ta'lim tizimida foydalanishning maksad va vazifalari, hozirgi kundagi holati va muammolari haqida.
<i>Ta'lim usullari</i>	Amaliy, muammoli usul, akliy xujum, blis – so'rov, balik skeleti va boshka bir nechta ta'lim usullaridan va texnologiyalardan unumli foydalanish ko'zda tutilgan
<i>Ta'limni shakli</i>	Yakka tartibda, ommaviy, jamoaviy, guruhli va hokazo
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ro'za matnlari, darsliklar, doska, kompyuter slaydlari, ko'rgazmali materiallar, nota pultlari, CD,VCD,DVD disk va boshkalar
<i>Ta'lim sharoiti</i>	Auditoriya, maxsus jihozlangan xona va katta zallar
<i>Monitoring va baholash</i>	Ma'ro'za, amaliy ijro, og'zaki nazorat: savol – javob , muammoni bajarish bo'yicha nazorat topshirig'i.

1.2. ilova

Tezkor savollar

1. Musiqiy g'oya, musiqa san'ati deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy kadriyat, milliy g'oya nimani anglatadi?
3. Pedagogik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'naviy ruh deganda nimani tushunasiz?

“Nilufar guli” chizmasi

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	

“Nilufar” guli chizmasini tuzish qoidalari

Amaliy nuqtai nazardan barcha g'oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitta-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi.

Sizga katta qog'oz varag'i zarur bo'ladi. Doimo o'zingiz mushohadalarinigiz natijasini bir varaq qog'ozda ko'rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.


1.4 ilova

Kichik guruxlarda ishlash koidasi.

1.5. ilova

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. «Barkamol avlod orzusi» .T.. Shark 1999
2. Karimov I. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» T..Ma'naviyat.2008
3. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi konuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi . T.. 1997
4. Umumta'lim maktablari 1-7- sinf musiqa fani bo'yicha DTS va o'kuv dasturi , Darsliklar
5. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi
Konsepsiyasi.. Toshkent., - X.T.V , 1995



Ijodiy topshiriklar:

– Magistr tomonidan mustaqil ravishda javob yozishni (referat yoki hisobot shaklida) talab etuvchi savollar ishlab chiqiladi. Magistrning ijodiy kobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriklar ishlab chiqiladi.

Yozma mustaqil topshiriklar:

– Musiqiy asarlarni nota daftarlariga ifodali yozish hamda ularni ulchovlarini hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chikish.

Laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar to'zish va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Grafik mustaqil topshiriklar:

– Ularga ya'ni Magistrlarga turli loyihalarni tayyorlash, notalarni to'g'ri yozish, chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, fraza va taktlarni tasvirlash, (ayrim detal va belgilarni chizib ko'rsatish va x.z) nota yozish usuli va uslublari, interval va

akkordlar to'zish, ko'zatishtish natijalarini tasvirlash va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriklar:

– Magistrlar o'kituvchi topshirikig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida nota davtari va ijro etish uchun maxsus pultalarni tayyorlash, cholg'u asboblarni sozlash, ta'mirlash, musiqiy asarga ishlov berish, saykallashtirish, yangi asarlarni ijro etish, turli xalq kuylaridan va ko'shiklaridan namunalar ijro etish, hamda ularni o'kuvga moslashtirib tayyorlash kabi ishlarni amalga oshiradilar.

Mustaqil ishlar mashg'ulotlari

1 – Mavzu: «Musiqqa pedagogikasi tarixi» fanining maksad va vazifalari»

Reja:

1. Musiqqa pedagogikasi tarixi fanining vujudga kelishi.
2. Pedagogik nazariya va amaliyotning maksad va vazifalari haqida.
3. Yangi pedagogik texnologiya tasnifi.
4. Davlat ta'lim standartlari va dasturlari tubdan yangilanishi
5. Xulosa

2 – Mavzu: O'zbekistonda musiqiy- pedagogik ta'limning zamonaviy konsepsiyasi

Reja:

1. Umumiy ta'lim maktablarida musiqqa o'kituvchilarining yangi dastur buyicha ish faoliyati.
2. Musiqqa o'kitish buyicha ilmiy-medodik ishlar, dasturlar, darsliklar ta'minoti va tashqiliy jihatlari.
3. Pedagogik universitetlarda musiqqa o'kitishni tashqil etish, o'kuv materiallari bilan tanishish hamda yetuk mutaxassislarni tayyorlash.
4. Xulosa

3 - Mavzu: «Musiqiy pedagogik ta'lim jarayoni»

Reja :

1. Musiqiy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti fanining mazmuni va maksadi.
- 2.«Musiqiy ta'lim», «tarbiya metodikasi», «maktab» Tushunchalarining ahamiyati.
3. Musiqiy pedagogik ta'lim nazariyasi fanining boshka fanlar bilan o'zaro bog'likligi.
4. Xulosa

4 - Mavzu : Musiqiy pedagogik ta'lim texnologiyalari shakl va uslublari

Reja

1. Davlat ta'lim standartlari va dasturlari tubdan yangilanishi.
2. Musiqiy pedagogik mahorat.
3. Pedagogik texnologiyalar tushunchasi haqida.
4. Pedagogik texnologiya tasnifi.
5. Xulosa

5 – Mavzu: «Barkamol insonni tarbiyalashda musiqa madaniyati darslarining ahamiyati»

REJA:

1. Madaniy hayotimizda musiqani tutgan o'rni
2. Musiqa ta'limotini rivojlantirishga musiqa madaniyati darslarini ahamiyati
3. Shaxsni shakllanishida musiqaning roli
4. Musiqa o'kituvchisi olidiga ko'yilgan zamonaviy talablar
5. Xulosa

6 – Mavzu: Musiqiy ta'lim jarayonida muammoli o'kitish texnologiyalari

Reja:

1. Musiqa darslarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish muammolari.
2. Musiqa darslarijarayonida mulokatni tashqil etish.

3. Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari.
4. Musiqa o'qituvchisining pedagogik xususiyatlari.
5. Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari.

7 – Mavzu: «Musiqa fanlarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish»

Reja:

1. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish.
2. Pedagogik texnologiyalarning asosiy elementlari
3. Yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalari.
4. Texnologik treninglarni ko'llash to'g'risida
5. Xulosa

8 – Mavzu: «Musiqiy fanlarni o'qitishda o'yin va interfaol usullardan foydalanish»

Reja:

1. O'quvchilarni musiqa darslariga bo'lgan kizikishlarini o'stirish.
2. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning ijro sifatlarini oshirish
3. O'quvchilarni musiqiy-ijodiy faoliyatga tayyorlash
4. Musiqaning ifoda vositalari (3 – sinf musiqa madaniyati darslari),
5. Musiqada dinamik belgilarni ishlatilishi xususida
6. Mustaqil ijodiy topshiriklar
7. Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». T. 1997.
2. Omonullayev D, X.Nurmatov, K.Mamirov va boshkalar. «Umumiy o'rta ta'limning davlat standartlari va o'quv dasturi». T. 1999
3. Kodirov R «Boshlang'ich maktabda ko'povozli kuylash» T.1997.
4. Sharipova G.«Musiqa tarbiyasi metodikasi fanidan dastur» T. 1997.

GLOSSARIY (Izohli lug'at)

Musiqqa mazmuni – bu hayot taassurotlari, tovushlar orkali ifodalangan fikr va his-tuyg'ulardir

Musiqqa elementlari – bu musiqaning bayoni va ifoda etish vositasi deyiladi.

Musiqqa nazariyasi – musiqaning asosiy elementlarini va ayniksa kuyni o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib ko'yadi

Interaktiv metodlar – jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari o'ziga xosligi shundaki, ular fakat pedagog va o'kuvchi – Magistrarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orkali amalga oshirilad

MO'IT - Musiqqa o'kitishning innovasion texnologiyasi

Milliy g'oya – Tushunchava tamoyillari tug'risidagi fan.

Cholg'ushunoslik – bu cholg'ular haqidagi fan bo'lib, cholg'ularning sozlanishi va ulaning yasalish usullarini o'rganadigan kurs hisoblanadi.

Innovasiya - (inglizcha innovatsion) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'kituvchi va Magistr faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'lik foydalaniladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi-1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida kabo'l qilingan hukukiy hujjat.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Konuni-1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida kabo'l qilingan hukukiy hujjat.

Kasb ta'limi jarayoni-pedagogik jarayonning muhim kismi, u o'kitish, bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilish bilan birga kasbga yo'naltiradi.

Kasb ta'limi metodlari-Magistrlarni bevosita kasbga yo'naltiruvchi usullar majmuasi.

Kasbiy ta'lim uslubiyoti-Magistrlarni kasbga yo'naltirishning shakl, metod va vositalarining birligi.

Shaxs–kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta'lim xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

Davlat va jamiyat–ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish hamda nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni kabo'l qilib olishning kafillari.

O'zluksiz ta'lim-malakali rakobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi to'zilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Fan - yukori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chikuvchi.

Davlat va jamiyat-o'zluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochik bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligi ta'minlaydi.

Didaktika-pedagogikaning ta'lim jarayonini umumiy konuniyatlarini o'rgatuvchi kismi bo'lib, «didasko» – «o'kitish», «didachol»-o'rgatuvchi degan ma'nolarni bildiradi.

BKM – *bilim, ko'nikma, malaka* – Magistrarning bilishi zarur bo'lgan faoliyatining mazmuni.

AFU – *akliy faoliyat usullari* – usullarning kiskacha ta'rifi.

DTS (davlat ta'lim standarti)-ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi.

Ma'lumot- ta'lim tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma hamda shakllangan dunyokarashlar majmui.

Ta'lim tamoyillari-umuminsoniy tarbiyaning maksad va vazifalarini amalga oshirishga karatilgan o'kish hamda o'kitish jarayonlarining yo'nalishi, Magistrlar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishning asosiy konun koidalari yig'indisidir.

Texnologiya- bu bir ishda, mahorat va san'at ko'llaniladigan usullar yig'indisidan iborat.

Pedagogik texnologiya- ta'lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'ilishini aniklovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarning majmuidir.

Ta'lim texnologiyasi- bu didaktik tizimning asosiy prosessual kismidir (Usmonov).

Ilmiy aspekt- pedagogik texnologiya pedagogik fanning kismi sifatida ta'lim uslublari, tarkibi va maksadlarini ishlab chikib o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.

Prosessual-tavsifiy aspekt - ta'limda rejalashtirilgan natijalarga yerishish uchun jarayonni tasvirlash, maksad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.

Prosessual-amaliy aspekt - pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalariga amal qilish.

Umumiy pedagogik daraja-umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiya) texnologiya berilgan hududdagi ta'lim maskanida ta'limning ma'lum darajasidagi to'lik umumta'lim jarayonini tavsiflaydi.

Texnologik jadval- texnologik jarayonning shartli tasviri, uning alohida funksional yelementlariga bo'linishi va ular o'rtasidagi mantiqiy alokalarning belgilanishi.

Texnologik xarita- jarayonni boskichma-boskich usulda ifodalash, bunda makbo'l bo'lgan vositalar ko'rsatiladi (bu odatda grafik shaklda ifodalanadi).

Texnologik nyuanlar- adabiyotda odatda pedagogik tizim tushunchasi pedagogik texnologiya sifatida ko'rsatiladi. Lekin pedagogik texnologiya kengroq ma'nodagi tushuncha bo'lib, o'ziga xos pedagogik faoliyatning obekt va subektlarini oladi.

Konsepsiya – umumiy biror g'oya yoki biror – narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.

Kompyuterlar- kompyuter texnikasi hozirgi vaktida tezkorlik bilan rivojlanmokda. Bu yeng, avvalo, operativ xotira hajmi, vinchesterli disketalar, tashki xotirasi hajmi, kompakt optik disklar hajmi kabi texnik xarakteristikalarining yaxshilanishiga xos bo'lib, ularda tezkorlik oshmokda. Keyingi vaktida turli optik xotiralovchi kurilmalar (video-disklar, optik disklar) keng tarkalmokda.

EHM tarmoklari. Hozirgi vaktida bilimlarning barcha sohalarida EHM yoki kompyuter (lokal yoki global) tarmoklari keng tarkaldi.

Sivilizasiya – axborotni to'plash, tahlil qilish va undan foydalanish hamda atrof – muhit va o'zi haqida axborot yaratish uchun eng ko'p ma'lumot olishga kodir bo'lgan moddaning yukori turg'un holatidir .

Elektron pochta. «Elektron pochta» nomining o'zidayok mazkur tushunchaning mazmuni ochib berilgan, ya'ni korrespondensiyalarni almashishi uchun pochtaga o'xshash ravishda axborot o'zatishtish va ishlab chikishning elektron usullaridan foydalanish, ya'ni bosma materiallar, jadvallar hamda jurnallarni o'zatishtish. Elektron pochta kog'ozsiz pochta alokalari xizmatidan iborat bo'lib, aslida hujjatli xabarlarini to'plash,

ishlab chikish va takdim yetish hamda ma'lumotlarni o'zlash tarmoklari tizimidir.

Modullik. O'kuv kursiga bog'lik bo'lmagan holatda shaxsiy, hamda grupp talabiga javob beradigan o'kuv rejasini amalga oshiradi.

Kurshov. Bir vaktida ko'p ishtirokchilarga o'kuv informatsiyasi bo'yicha murojaat qilish tarmok yordamida o'zaro axborot almashinuvini to'g'ri tashqil qilish.

Texnologiklik. Ta'lim berish jarayonida insonni jahon past industrial fazoga yurishtirishga imkon beradigan yangi yerishilgan informatsion va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish.

O'kituvchilarning yangi vazifalari. Masofaviy o'kitish o'kituvchining vazifalarini kengaytiradi va yangilaydi. O'kitilayotgan kurslari doimo takomillashtirish, ijodiy faolligini yukorilashtirish va malakasini, kiritilgan yangiliklar va innovatsiyalarga mos bilim jarayonini muvofikashtirishi zarur.

O'kitish mazmuni. O'kitish jarayoni, usullari va tashqiliy tartibini amalga oshirilishi uning tarkibi bilan ifodalanadi.

O'kitish obekti. Masofaviy o'kitish ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchi ushbu usulda ta'lim oluvchilar obektlari bo'ladi.

O'kitish subektlari. Masofaviy o'kitish subektlari o'kituvchilar hisoblanadi. O'kituvchi ta'lim jarayonining yukori samarasini ta'minlashda asosiy bo'g'indir. Masofaviy o'kitish o'kituvchi faoliyatining muhim ixtisosligida kompyutor terminini kiritish zarurligini keltirib chikaradi. Bu - o'kituvchi maslahatchi, u fundamental informatika va telekommunikatsiyalar asoslarini bilishi kerak. Uning bilimligini o'zuvchi xarakterga yega bo'lishi kerak.

O'kitish usullari. Masofaviy tartib o'z ichiga 5 ta umumdidaktik o'kitish usullarini oladi: informatsion-reseptiv, reproduktiv muammoviy ifoda yetish, yevristik va tadkikot. Ular o'kituvchi va o'kuvchilarning o'zaro xarakat pedagogik aktlarning butun to'plamlarini o'ziga kamrab oladi.

O'kitish usuli. O'kitish maksadlariga yerishish uchug o'kituvchi va o'kuvchilar o'zaro harakati ta'siri meyorlar tizimi to'g'risida nazariy tasavvurlab beradigan didaktik turkumdur.

O'kitish mazmuni. Bu o'kuv informatsiyaning tarkibi, to'zilishi va ma'lumoti hamda masalalar, topshiriklar va mashg'ulotlar to'plami, ular kasbiy malaka hamda idroklarini shakllantiradi, mehnat faoliyatining dastlabki tajribasini yig'ishga imkon beradi.

O'kitish vositalari. Masofaviy o'kitish ta'limi jarayonida an'anaviy ta'lim bilan birga innovasion o'kitish vositalaridan foydalaniladi. Ular kompyuter texnikasi, telekommunikasiya ko'llashga hamda ta'minot texnologiyasi sohasida oxirgi yerishilgan natijalarga asoslangan.

O'kuv – ilmiy moddiy asosi. O'kuv dasturlariga mos bo'lgan, o'kitish uchun zarur moddiy va texnikaviy to'plam. U o'z ichiga o'kuv va o'kuv yordamchi joylarni, o'kitish texnik vositalari, darsliklar, o'kuv ko'llanmalar hamda boshka o'kuv_ustubiy materiallar oladi.